

SOHIBQIRON YULDUZI

Ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal

ЗВЕЗДА СОХИБКИРАНА

Общественно-исторический, научно-популярный журнал

STAR OF SOKHIBKIRON

Socio-historical, scientific and popular magazine

Qarshi-2026

ISSN 2181-2845

SOHIBQIRON YULDUZI

Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal 2010-yildan boshlab chiqarilmoqda

Muassis: SOHIBQIRON SHULASI M.CH.J

2026/ 2 (63) – SON

BOSH MUHARRIR:
prof., t.f.d. Yulduz Ergasheva
NASHR UCHUN MAS'ULLAR:
Ravshan To‘xtamishev
Ilhom Tog‘ayev
Bahodir Musayev
TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:
akademik Akmal Saidov
akademik Anatoliy Sagdullayev
akademik Dilorom Yusupova
Sirojiddin Sayyid
prof., f.f.n. Abdurahim Erkayev
prof., t.f.d. Qahramon Rajabov
prof., t.f.d. Bahodir Eshov
prof., fil.f.d. Nafas Shodmonov
prof., t.f.d. Gavhar Mo‘minova
prof., t.f.d. Shokir G‘afforov
dots., fil.f.d. Feruz Rajabov
prof., t.f.d. Akram Hasanov
prof., t.f.d. Eshbolta Qabulov
prof., t.f.d. Faxriddin Rahmonov
prof., t.f.d. Uktam Mavlonov
prof., t.f.d. To‘lqin Xudoyqulov
prof., t.f.d. Parda Norbutayev
prof., t.f.d. Dilshod Kamolov
prof., t.f.d. Matluba Turayeva
dots., t.f.d. Sarvinoz Omonova
dots.,t.f.d. Dilnavoz Raxmatova
dots., t.f.d. Farhod Ochilov
dots., t.f.d. Ra'no To‘xtayeva
dots., t.f.d. Feruz Narmanov
dots., t.f.n. Nilufar Rajabova
dots., t.f.f.d. Shuxrat Turayev
dots., t.f.f.d. Oksana Rahmonkulova
dots., t.f.f.d. Azamat Eralov
dots., t.f.f.d. O'ralov G'aybulla

MUNDARIJA

TADQIQOTLAR

S.Abruyeva. O‘zbekistonda ikkinchi jahon urushi yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat tarixi.....5
E.Axmedov. Qashqadaryo vohasining qadimgi shaharlari shakllanishi jarayonlari (Kesh-Shahrisabz misolida)……..…...9
B.Axmedov, A.Raimov. O‘zbekistonda yilqichilik sohasining rivoji (Qashqadaryo viloyati misolida).....12
B.Jumayev. Qashqadaryo vohasining siyosiy-ma'muriy boshqariluvi.....21
D.Baxronov. Amır Temurnıng harbıy mahoratı.....28
S.Ergashev. Turkiston viloyatlarida bosh vaqf boshqarmasi-ning faoliyati.....34
Z.Hazratova. Jadidlar va ularning faoliyati tarixidan.....41
I.Salomov. Ikkinchi Jahon urushi yillarida tibbiyot sohasi rivoji (ayrim ilmiy-tadqiqot institutlari misolida).....46
M.Isoqova. O‘zbekistonda iqtisodchi kadrlar va ularni tayyorlash tarixi (XX-asrning 20-60 yillari)…….51
B.Karimov. So‘nggi o‘rta asrlarda Chiroqchi bekligi etnik jarayonlar tavsifi……...57
M.M.Xaydarov. O‘zbekistonda sovetlarning imlo va alifboga nisbatan siyosatining mohiyati.....64
F.Mallayeva, M.Sayidov. O‘zbekistonning neft va gaz sanoatini rivojlantirishda xorijiy davlatlarni o‘rni……69
M.Mardonova. O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar uchun yaratilgan ta'lim tizimining ijtimoiy ahamiyati…….75
D.I.Vasiyeva. Yangi O‘zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifati va samaradorligini oshirish tendensiyalari.....80
D.Qoryog‘diyeva. O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya-ning ilm-fan sohasidagi hamkorligi: shakllanishi, rivojlanishi va istiqboli……..…….……86
N.Radjabova. Navoiy viloyatida musiqa va qo‘shiqchilik san'ati: yo‘nalishlar, yutuqlar va istiqbol……..…..96

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2-uy.
Telefon: 91.466-80-32
Sayt: www.sohibqiron-yulduzi.uz
E-mail: sohibqiron–jurnali@mail.ru

Qashqadaryo viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2012-yil 12-martda 14-076 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnal yilda 4 marotaba chop etiladi. Jurnaldan ko’chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

Nashr indeksi — 4074
ISSN 2181-2845
7-sonli nashr.

Terishga topshirilgan sana 21.04.2026 y.
Nashrga berilgan sana 01.06.2026-y.
Chop etilgan sana 10.06.2026-y.
Bichimi 60x84 1/8. Times garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 9,88. Nashr bosma tabog‘i 9,71. Adadi 20. Buyurtma №187

Jurnal «Photo Express» ishlab chiqarish korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Qarshi shahri Mustaqillik shoh ko‘chasi, 22-uy.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2018-yil 29-dekabrdagi 280/7-sonli qarori bilan “Tarix” fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.

F.S.Suyarova. Qashqadaryoda turizm xizmatlarini rivojlantirishda hunarmandchilik va amaliy san’at sohasining o‘rni...104
D.Sayfiddinov. 2009-yil Zarafshon vohasi viloyatlarida kichik biznes va sanoat tarmoqlari…….....109
Z.Tog‘ayev. Turkiya Respublikasining Adana shahridagi o‘zbek (Turkistonlik) lar matbuoti. (XX asr 2-yarmi-XXI asr boshlari.)……117
H.Toshmurodov. Yuksak harbiy san’at namoyandasi (Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag‘ishlanadi)……..121
U.Xomidjonov. Inson kapitalini rivojlantirish va muvafaqiyat qozonishda oila ijtimoiy muhitining ahamiyati……..…..126
A.Xasanov. Buxoro amirligi qushbegi arxiv hujjatlari tavsifi……..134
Sh.Xoliqov. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida demografiyaning urbanizatsiya jarayonlariga ta’siri…..…...139
M.Tursunov, K.G‘aniyev. Sherdor madrasasi tarixi…....146
Ya.X.G‘afforov. Markaziy osiyo mintaqasi davlatlarida yangi integratsiya jarayonlarining boshlanishi…….....……...153
B.Bobojonov. Siypantosh va xo‘ja ovul ming baraka qoyatosh tasvirlarida qo‘l izlarining semantikasi va ibtidoiy e’tiqodlar bilan bog‘liqligi…….....……...161
M.Dusaliyev. Mang‘itlar davrida Buxoro amirligining harbiy tizim va islohatlar…….....…...166
Sh.Jumayeva. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixini o‘rganishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining ahamiyati.....173
O.M.Xayritdinov. Nomoddiy madaniy merosni saqlashda ta’lim tizimining ahamiyati…….....……...178
F.Qanoatova, D.Mavlonova. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini o‘rganishning zaruriy ahamiyati…….....183
Sh.Sulaymanova. Sharof Rashidov mashhur o‘zbek adibi……189
Sh.Xolov. Qadimgi turklarning zarba qurollari: kamon o‘qi, qilich va nayza…….....……195
Z.Jo‘rayeva. Harbiy boshqaruv va Amir Temur hayotining o‘ziga xos xususiyatlari.....200
Sh.T.Boymurodov. Mustaqillik yillarida ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya…...……..……...208
F.U.Samarov. Katta Langar ota majmuasi tarixi haqida ba’zi mulohazalar …….....215
X.D.O‘sarov. O’zbeklarning Turkiya Respublikasidagi matbuoti. (XX asr 2-yarmi-XXI asr boshlari)…....……..223
S.B.Murtazova, A.Hasanov. Qarshi tumani tarixi: o‘tmishi, buguni va rivojlanish istiqbollari…….....227
Sh.Qarshiyev. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar rivojlantirishda milliy g‘oya va ma’naviyat omili…….....232

B.Shermatov. Qashqadaro viloyatida bolalar tibbiyotini rivojlantirishga qaratilgan tizim samaradorligi…….....239
R.Xalimmetova. Ma’naviy tahdidlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri…….....244
Madina Iskandarova. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sud tizimining shakllanishi tarixidan…….....250
S.B.Murtazova. Yangi O‘zbekiston sharoitida musiqa san’ati va ta’lim tizimi tarixshunosligi masalasi tahlili……..….....254
U.T.Homidjonov, I.I.Ostonakulov. Some issues of using sources of the margilan cultural environment in studying the history of Uzbekistan in the second half of the 19th century……262
N.O.Xushvaqov. Kesh hududidagi terakottalarda Siyovush timsolining aks etishi.....270
S.G.Nigmatova Temuriylar, Shayboniylar sulolari hukmronligi davrida xususiy ta’lim shakllari va ularning qiyosiy tahlili...279
Y.A.Ergasheva. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida xususiy sektorning shakllanishi, institusional rivojlanishi va hududiy xususiyatlari……...….285
A.X.Ernazarov. G‘uzor bekligining tarixiiy-geografik tasnifiga doir mulohazalar (Tadqiqodchilar nigohida)……..…298
J.T.Nishonov. Ilk shahar madaniyatlari va Urbanistik jarayonlarning tarixiy tahlili.....305
A.A.Berdiyev. “XVIII-XIX asrlarda Buxoro Amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar tizimi: Siyosiy raqobat, iqtisodiy integratsiya va diplomatik mexanizmlar tahlili”.....……...309
Брежнева С.Н. «Бессмысленный и беспощадный» холерный бунт (события в Ташкенте 24 июня 1892 года)……..….316
M.X.Raxmonova. Qadimgi Sharqda tarbiyaga oid yozilgan kitoblar……...….324
A.X. Ruziyev. Shaxs kamolotida e’tiqodning o‘rni……..…330
B.H.Axmedov. O‘zbekistonda harbiy sudyalar faoliyati va ularning malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....334
B.N.Uzakov, Yangi O‘zbekiston davrida Qashqadaryoda manzilli ijtimoiy himoya siyosatining amalga oshirilishi…...341
S.Komilov. Shahrisabz mahallalarida ijtimoiy-ma’naviy hayot……...349
I.O.Urinov. 1960-1980-yillarda O‘zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish jarayonlari…….353
A.S.Sadirov. Yangi O‘zbekistonda yo‘l-transport harakati-xavfsizligi faoliyati…….359

O‘ZBEKISTONDA IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA AMALGA OSHIRILGAN IQTISODIY SIYOSAT TARIXI

S.Abruyeva,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSRda yuritilgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Urushning og‘ir sharoitida davlat xarajatlarini qoplash mexanizmlari, yangi joriy etilgan harbiy soliqlar va aholining front uchun ko‘rsatgan beminnat moddiy yordami tahlil qilingan. Maqolada xalqimizning nafaqat mehnat frontida, balki o‘z shaxsiy jamg‘armalari va tilla-taqinchoqlari hisobiga g‘alabaga qo‘shgan ulkan hissasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Urush iqtisodiyoti, O‘zbekiston moliyasi, harbiy soliqlar, frontga yordam, oltin zaxirasi, davlat zayomi, iqtisodiy safarbarlik.

ИСТОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ, РЕАЛИЗОВАННОЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

С. Абруева,
Каршинский государственный университет

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные направления экономической и финансовой политики Узбекистана в годы Второй мировой войны. Анализируются механизмы покрытия государственных расходов в тяжелых условиях войны, введенные новые военные налоги и безвозмездная материальная помощь населения фронту. В статье освещается огромный вклад народа Узбекистана в победу за счет личных сбережений, золотых украшений и самоотверженного труда в тылу.

Ключевые слова: Экономика войны, финансы Узбекистана, военные налоги, помощь фронту, золотой запас, государственный заем, экономическая мобилизация.

HISTORY OF ECONOMIC POLICY IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF WORLD WAR II

S.Abruyeva,
Karshi State University

Abstract: This article examines the main directions of the economic and financial policy of Uzbekistan during the Second World War. It analyzes the mechanisms for covering government expenditures under harsh war conditions, the introduction of new military taxes, and the voluntary financial assistance provided by the population to the front. The article highlights the immense contribution of the people of Uzbekistan to the victory through personal savings, gold jewelry, and selfless labor in the rear, presented in an accessible and clear manner.

Keywords: War economy, finances of Uzbekistan, military taxes, aid to the front, gold reserves, state loan, economic mobilization.

KIRISH. Ikkinchi jahon urushi yillari O‘zbekiston iqtisodiyoti va moliya tizimi uchun jiddiy sinov davri bo‘ldi. Urushning dastlabki kunlaridanoq mamlakat moliya siyosati favqulodda holat tartibiga o‘tkazildi va asosiy e’tibor “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun” degan strategik tamoyilga qaratildi. Ushbu davrda respublika byudjeti harbiy ehtiyojlarni qoplash maqsadida qayta shakllantirilib, ijtimoiy va madaniy sohalarga ajratiladigan mablag‘lar keskin cheklangan holda, barcha moliyaviy resurslar mudofaa sanoatiga safarbar etildi.

O‘zbekiston SSRning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda 1941-yil dekabrda qabul qilingan Harbiy soliq va “Farzandsiz fuqarolar solig‘i” kabi fiskal choralar muhim rol o‘ynadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Ikkinchi urush yillarida O‘zbekiston aholisi nafaqat davlat majburiyatlarini bajardi, balki o‘z ixtiyori bilan Mudofaa jamg‘armasiga 650 million rubldan ortiq naqd pul, 22 kilogramm oltin va 632 kilogramm kumush buyumlarini topshirdi. Bu mablag‘lar hisobiga front uchun o‘nlab tank kolonnalari va aviatsiya eskadronlari qurilib, qurollanish tizimi mustahkamlandi. Ushbu maqolada urush davri moliyaviy siyosatining huquqiy asoslari, davlat zayomlarining iqtisodiy samaradorligi va xalqning moddiy resurslarini markazlashtirilgan holda boshqarish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, respublikaning moliya tizimi urush sharoitidagi og‘ir giperinflyatsiya va iqtisodiy tanazzul xavfiga qanday qarshi tura olganligi masalalari yoritiladi.

ASOSIY QISM. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida mamlakatning qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoji ortdi. Davlat byudjeti va moliya sohasidagi ulkan yo‘qotishlarning yuzaga kelishi iqtisodiy tanazzulning asosiy sababiga aylandi. Bir nechta muhim ahamiyatga ega sanoat zonalarining qo‘ldan ketishi natijasida katta hududlarda xo‘jalik faoliyati qisqardi yoki butunlay to‘xtab qoldi. Bu o‘z navbatida davlat daromadlarining miqdori va tarkibiga o‘z ta´sirini o‘tkazdi. Urush sharoitida davlating iqtisodiy va harbiy resurslari yagona maqsadga ya´ni harbiy texnika ishlab chiqarish davlat siyosati darajasiga chiqarildi. Mazkur davrda yuzaga kelgan favqulodda vaziyatda barcha sohalarni xususan, sanoatning harbiy texnik mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi. Urush davomida frontga 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo‘q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin qurol-kimyoviy apparatura, 22 mln dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln dona granata, dala radiostansiyalari uchun 3 mln radio lampa, qariyb 300 ming ta parashyut, 5 ta bronepoyezd, 18 ta harbiy

sanitariya va hammom-kir yuvish poyezdi, 2200 ta ko‘chma oshxona va boshqa ko‘pgina harbiy anjomlar yetkazib berdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqining davlat xarajatlari 1.1 trln. so‘mni, vayron etilgan xo‘jalik summasi 2,2.trln. so‘mni va bevosita harbiy xarajatlar 551,1mlrd. so‘mni tashkil etadi. Aholi tomonidan harbiy xarajatlar uchun majburiy to‘lovlardan tashqari 16 mlrd. so‘m pul va 4,5 mlrd. so‘mlik qimmatbaho buyumlar front ixtiyoriga o‘tkazildi.

Urush davrida 114,7 mlrd. so‘m miqdordagi mablag‘lar urush manfaatlari uchun sarflandi. Shunda 55,8 mlrd. so‘m yoki 50,8%ni harbiy xarajatlar uchun safarbar etilgan. Respublika byudjeti 1941-1945 yillarda 786,5 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, asosiy xarajatlar mudofaa ehtiyojlari uchun sarflangan. Davlat daromadlarini 21,84 % ni, xalq xo‘jaligi xarajatlari, 64,8 % ni ijtimoiy madaniy tadbirlar xarajatlari uchun, 9,8 %ni davlat boshqaruv xarajatlari tashkil etgan. Davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini korxonalarning fondlari, davlat zayomlari, pul buyum lotoreyalari tashkil etgan. Bu mablag‘lar Respublika byudjetida 422,6 million so‘m daromad keltirgan. Bundan tashqari Respublika frontiga 4 million 148 ming tonna paxta, 54 ming tonna pilla, 3 million 83 ming dona qorako‘l terisi va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib bergan[1].

NATIJA VA MUHOKAMALAR. Davlat byudjetiga tushgan mablag‘larning asosiy qismi harbiy xarajatlar va front uchun sarflandi. Xususan, 2100 ta samolyot 17342 ta aviamot, 2318 ming dona aviabomba 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo‘q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy kimyoviy apparatura, 22 million dona mina, 560 ming dona snaryad, 1 million dona granata,3 million dona radiolampa, 300 mingta parashyut, 5 ta brono poyezd, 18 ta harbiy sanitariya va hammom-kir yuvish poezdi, 22 ming dona ko‘chma oshxona va 7518,8 mingta gimnastyorka, 2636,7 ming ta paxtali nimcha, 2861,5 ming ta armiya etigi front uchun safarbar etildi [2]. Yuqoridagi ko‘rsatilgan raqamalar ham ikkinchi jahon urushi davrida o‘zbek xalqining urush fondiga nechog‘lik katta hissa qo‘shganligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarda Respublika iqtisodiyoti, sanoati va qishloq xo‘jaligi to‘laligicha urush sharoitlariga moslashtirildi. Urushdan avvalgi yillarda aholidan soliqlar undirilgan bo‘lsa, urush paytida xalqimiz o‘z xohishi bilan mablag‘larini frontga topshirishdi. Mazkur yillarda mudofaa uchun 9,519 kg. kumush, 1,7 mlrd rubllik qimmatbaho taqinchoqlar, 131,4. kg oltin, 13,2 kg platina, 17,6 mlrd rubl naqd pul kelib tushdi[3]. Bu davrda mamlakat mudofaa fondi va qizil armiya fondi uchun aholidan undirilgan soliqlar muntazam o‘zgarib va oshib bordi.

Ikkinchi jahon urushi ittifoqining qishloq xo‘jaligida olib borayotgan siyosatini o‘zgartirib yubordi. Bu esa davlat rahbarlariga moliya va soliq siyosatiga yangicha islohotlar o‘tkazishni talab qildi. Urush munosabati bilan davlat byudjet

daromadlarini qisqartirishga olib keldi. Xususan, 1940-yilda davlat daromadlari 180 mlrd. rublni tashkil etgan bo‘lsa, 1942-yilda 165 mlrd. rubldan iborat bo‘ldi. Urush sharoitida yaratilgan iqtisodiy imkoniyatlar aholi asosiy daromadlarini umumiy ishlab chiqarishga jalb etilishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, iqtisodiy-moliya sohasidagi zararlarga qaramasdan SSSR moliya tizimining barqarorligini ta’minladi. Bu davrda pul jamgármalarining asosiy manbalari, davlat korxonalaridan kelayotgan daromatlar, birlamchi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko‘tarilishi, turli soliq va to‘lovlarni oshirib yuborilishi, davlat zayomi hamda ixtiyoriy yig‘imlarni joriy etilishiga olib keldi.

Davlat byudjetining chiqimlari 1942-yilda 1940-yilga nisbatan 174.3 mlrd. rubldan 182.8 mlrd. rublgacha o‘sishiga olib keldi. Mazkur xarajatlar uchun yetishmayotgan mablag‘lar davlatning qo‘shimcha zahiralaridan foydalanish hisobiga qoplandi. Mazkur davrda harbiy xarajatlar 50 foizga oshdi. Harbiy xarajatlarni qoplash uchun davlat qo‘shimcha mablag‘larga ehtiyoj seza boshladi. Buning natijasida SSSR davlat byudjetida soliqlar ulushini keskin oshishiga sabab bo‘ldi. Urush yillarida aholiga yangi qo‘shimcha soliqlarni joriy etilishi va amalda mavjud bo‘lgan soliq majburiyatlari miqdorining keskin oshirilishi davlat byudjetidagi mablag‘lar miqdorini sezilarli darajada ortishiga olib keldi [4].

XULOSA. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda yuritilgan iqtisodiy va moliyaviy siyosat urushning dastlabki oylaridanoq butun moliya tizimi front ehtiyojlariga moslashtirilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Davlat byudjetidagi mablag‘lar to‘g‘ridan to‘g‘ri qurol-yarog‘ va askarlar uchun oziq-ovqat yetkazib berish uchun frontga yo‘naltirildi. Bu esa Ikkinchi jahon urushida g‘alabani ta’minlashga xizmat qildi. Bu davrda yangi soliqlar va majburiy to‘lovlar davlat xazinasini to‘ldirishda va iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf e’tishga yordam berdi. O‘zbekistonga urush yillarida ko‘chirilgan zavod-fabrikalarni ishga tushirib, front uchun xizmat qilishga va insonparvarlik yordami bilan ishtirok etdi. Bu respublika byudjeti uchun og‘ir bo‘lsa-da, bu O‘zbekistonning sanoat markaziga aylanishiga yo‘l ochdi. 1941–1945-yillardagi O‘zbekiston moliya siyosati eng og‘ir sharoitda va har qanday inqirozdan chiqish yo‘lini topish mumkinligini isbotladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. 151-bet.

2. Murtazayeva R.H. O‘zbekiston tarixi. “YANGI ASR AVLODI”. – T.: 2003. 201-bet.

3. Гритчина М.Н. Налоговая политика в годы Великой Отечественной войны опубликована, например, в журнале Региональная экономика: теория и практика. 2015. №40. – С.63.

4. История социалистической экономики СССР. В 7 томах. Том 5. Советская экономика накануне в период Великой Отечественной войны. 1938–1945 гг. – Москва: Наука, 1978. – 562 с.

QASHQADARYO VOHASINING QADIMGI SHAHARLARI SHAKLLANISHI JARAYONLARI
(Kesh-Shahrisabz misolida)

Axmedov Ergash Kamolovich,
Osiyo texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Shahrisabz shahri va atrofidagi tarixiy-madaniy hamda siyosiy jarayonlarning borishi, ularning turli davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarda aks etishi, shuningdek, madaniy markaz sifatida Shahrisabz shahrining rivojlanish bosqichlarini o‘zida aks ettirish bilan bog‘liq masalalarni ilmiy adabiyotlar va manbaviy ma’lumotlar asosida yoritib bergan.

Tayanch so‘zlar: Shahrisabz shahri, qadimiy aholi punkti, ichki va tashqi savdo yo‘llari, yirik shaharlar, moddiy madaniyat, pul tizimi, mahalliy aholi, sopol idish, mahalliy hukmdorlar, madaniy markaz.

ПРОЦЕССЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДРЕВНИХ ГОРОДОВ ОАЗИСА КАШКАДАРЬЯ
(На примере Кеш-Шахрисабза)

Ахмедов Ергаш Камолович
Азиатский технологический университет

Аннотация: В данной статье автор, опираясь на научную литературу и источники, рассматривает вопросы, связанные с ходом исторических, культурных и политических процессов в городе Шахрисабз и его окрестностях, их отражение в социально-экономических, политических и культурных процессах в разные периоды, а также этапы развития города Шахрисабз как культурного центра.

Ключевые слова: город Шахрисабз, древнее поселение, внутренние и внешние торговые пути, крупные города, материальная культура, денежная система, местное население, керамика, местные правители, культурный центр.

PROCESSES OF FORMATION OF ANCIENT CITIES OF THE KASHKADARYA OASIS
(On the example of Kesh-Shahrisabz)

Akhmedov Ergash Kamolovich

Asian University of Technologies

Abstract: In this article, the author covers issues related to the course of historical, cultural and political processes in the city of Shahrisabz and its surroundings, their reflection in socio-economic, political and cultural processes in different periods, as well as the stages of development of the city of Shahrisabz as a cultural center, based on scientific literature and source information.

Keywords: Shahrisabz city, ancient settlement, internal and external trade routes, large cities, material culture, monetary system, local population, pottery, local rulers, cultural center.

KIRISH. Qashqadaryo vohasining ilk o‘rta asr markaziy shaharlaridan biri Kesh hisoblanadi. O‘rta asr yozma manbalarida bu ko‘hna shahar va u joylashgan hudud “Kash-Kash”, “Kis-Kiss” shakllarida tilga olinadi. Qadimgi Xitoy manbalarida shahar nomi “Sushiye”, “Sishi” yoki “Suse” tarzida keltiriladi. 726-yil Xu davlatini aylanib chiqqan Xitoy sayyohi Syuanlszan Kesh nomini Szeshuanna deb qayd etadi.Turkiy tillarning ayrim tarmoqlarida Kesh so‘zi suv bilan bog‘liq ma’noda qo‘llanib kelganligi ham aytib o‘tilgan [1:38].

ASOSIY QISM. A.Muhammadjonov yozma manbalarda tilga olingan ayrim joy nomlari tarkibida ham “Kesh” atamasining turli ko‘rinishlarini o‘rganib, Kasbi, Kosdori, Koson, Kosonsoy, Koshon va “Kesh” leksemasi va uning barcha sinomik shakllari aslida “uy” yoki “turar-joy” ma’nosini anglatgan Sug‘dcha “kat-kata” kabi so‘zlar-dan kelib chiqqanligini, bu so‘zlar “uy” yoki “xona” iboralariga nisbatan kengroq ma’noni anglatishi, “kat” leksemasi nafaqat “uy” yoki “turarjoy” balki qishloq, mavze hatto katta-kichik shaharlar tushunchasida ham ifoda etilganligini ta’kid-laydi. Fikrimizcha, xuddi shunday “kishvar” atamasi mamlakat, o‘lka ma’nolarini anglatishini hisobga oladigan bo‘lsak, “Kesh” toponimi uy, qishloq, shahar, poytaxt, viloyat, el-yurt, diyor, vatan kabi ma’nolarni anglatganini ko‘rishimiz mumkin. Umumiy tarzda Kesh toponimi yashash joyi ma’nosini bildiradi [2:45].

Kesh (Kitob) shahrining tarixiy topografiyasi dastlab M.Y.Masson tomonidan o‘rganilgan. XX asrning 60-70-yillarida Kitob shahri hududida KATE a’zolari o‘tkazgan tadqiqotlar xulosalarga ko‘ra ilk o‘rta asrlarga oid Kesh shahri keyingi asrlardagi Kitob bekligi qo‘rg‘oni hududida ekanligi aniqlashtirilgan. Shuningdek, keyingi asrlarga oid bek qo‘rg‘onining devorlari VII-VIII asrlarga doir devorlar ustida, bunyod etilganligi tadqiqotlarda o‘z aksini topgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ilk o‘rta asrlar davridagi Kesh shahri hozirgi Kitob shahri markazida joylashgan Qalandartepa o‘rnida bo‘lgan. Bu yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda shaharning rivojlangan o‘rta asrlar davri qatlamlari, shahar aholisining turar-joylari qoldiqlari qisman o‘rganilgan. Lekin

shaharning ilk o‘rta asrlarga oid qatlamlari, me’moriy inshootlar qoldiqlari umuman o‘rganilmagan. Shunday bo‘lsa-da mana shu davrga oid bo‘lgan Yerqo‘rg‘on yodgorligining ichki tuzilishi va unda joylashgan harbiy, diniy, ma’muriy inshootlardan muqoyasa olgan holda ilk o‘rta asrlarda Kesh (Kitob) shahrining ichki tuzilishini qisman bo‘lsa-da, tasavvur qilish imkoniga ega bo‘lamiz. Yerqo‘rg‘ondagi shahar inshootlari albatta Kesh (Kitob) uchun ham xos bo‘lgan [3:23].

M.Y.Massonning ma’lumotiga ko‘ra, xitoy manbalarida aytilishicha, Kesh Dichje nomli hukmdor paytida (VI asr oxiri — VII asr boshlari) gullab yashnagan va taraqqiy qilgan. Mana shu paytda bu hukmdor tomonidan butun boshli shahar qurilgan va shahar devorlarining uzunligi 1 km. bo‘lgan. Dichje hukmronligi ostidagi hududning uzunligi ming kilometr bo‘lgan va bu hududda 500 ta aholi punkti bo‘lgan. 605-yilda Dichje Xitoy bilan diplomatik aloqa o‘rnatgan. Keshning qisqa muddatli gullab-yashnashi Sha-shebi yoki Shish-pir davriga to‘g‘ri keladi. Xitoy manbalarida nomi o‘zgartirilgan holda ta’riflangan hukmdor Shish-pir bo‘lishi haqiqatga yaqin. Shish-pir tomonidan Keshda tanga ham zarb etilgan [4:65-66].

O‘rta asrlar davrida Kesh Qashqadaryo vohasining yuqori oqimidagi katta shahar sifatida faoliyat ko‘rsatgan va bu shaharga o‘rta asrlarda yurtimizga kelgan bir qator sayyohlar, jug‘rofiy olimlar tashrif buyurishgan va shahar to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar qoldirishgan. Al-Maqdisiy Kesh madina va rabodga ega bo‘lgan shahar bo‘lganligini yozib qoldirgan. Uning tavsifi hozirgi Kitob o‘rnida bo‘lgan Keshga to‘g‘ri keladi, chunki manbada ichki madina quhandizi bilan (Kitob o‘rnidagi ilk Kesh) tashlandiq holdagi, tashqarisida esa aholi zich joylashganligi ta’kidlangan. Lekin jome’ masjid vayron bo‘lgan madinada, bozorlar esa rabodda joylashgan. “Uning imoratlari, — deb yozadi al-Maqdisiy, — Buxorodagi kabi loy va yog‘ochdan qurilgan”.

Shahar 40 gektar maydonni egallagan holda mudofaa devori hamda arkka ega bo‘lgan. VI-VII asrlardan boshlab shahar Kesh nomini olgan. Arab muallifi al-Ya’qubiy ma’lumotiga ko‘ra, Kesh ma’lum muddat butun Sug‘dning poytaxtiga aylangan [5:171].

Ibn Xavqal o‘z asarida Kesh — quhandiz, qal’a va raboddan iborat shahar ekanligi, rabodga bevosita yana bir shahar tutashganligi, hukumat saroyi madina va raboddan tashqarida, al-Musallo nomli yerda joylashganligini, qamoqxona va jome’ masjidi ichki madina xarobalarida, bozorlar esa rabodda joylashganligini keltirish bilan birga shaharning har bir tomonining uzunligi uchdan bir farsaxni tashkil etgani va binolari paxsa va yog‘ochdan qurilganligini keltirib o‘tadi.

Shuningdek ichki madinaning to‘rtta darvozasi haqida ham ma’lumot berib ularni quyidagicha sanaydi. Bob al-Hadid, Bob Ubaydulloh, Bob al-Qassobin, Bob al-Doxila. Tashqi madananing 2 ta darvozaga ega ekanligini keltirib ularni Bob al-

Madina ad Doxila, Bob Barknon deb nomlanishini, Barknon qishloq nomi bo‘lib, darvoza shu qishloq nomi bilan atalishini yozgan.Bundan tashqari shahardagi ikki-ta katta, asosiy ariq Nahr al-Qassorin Siyom tog‘idan boshlanib, shaharning janub tomonidan oqib o‘tishi, Nahr Asrud Kashkrud rustoqidan oqib chiqishi va shahar-ning shimol tomonidan oqib har ikkala ariq shahar darvozalari yonidan oqib o‘ti-shini keltirib o‘tgan. Keshga qarashli bo‘lgan shaharlar sifatida Novqad Quraysh va Subax, Iskifag‘n Xuzor rustoqida joylashganligini yozib qoldirgan [6:102].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o‘rta asr tarixshunoslari va geograflarining asrlarida Kesh haqidagi ma’lumotlar kam bo‘lsa-da, ularda voha juda serhosil, tabiiy boyliklarga boy bo‘lganligi, unda ko‘plab qishloqlar va rustoq markazlari-shaharlar borligi ta’kidlanadi. Yozma manbalar ma’lumotlari arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan birgalikda ushbu davr tarixiy-madaniy jarayonlarini baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Otaxo‘jayev A. Sug‘d konfederatsiyasida Keshning o‘rni. Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o‘rni // Xalqaro ilmiy konferensiya ma’ruzalari tezislari. — Toshkent: “ Fan” — B. 38.

2. Muhammadjonov A. Kesh — uy, ya’ni Vatan demakdir // Moziydan sado. 2003. — №2. — B.45.

3. Shahrisabz. Ming yillar merosi. — T.: “Sharq”, 2002. — B. 23.

4. Ibn Xavqal. Kitob surat al-ard Movarounnahr (Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi, Sh.S. Kamoliddinov). — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. — B. 65-66 .

5. Ravshanov P. Qarshi tarixi. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2006. — B. 171.

6. Raimqulov A. Qashqadaryo vohasining ilk o‘rta asr shaharlari. — Qarshi: “Nasaf”, 2018. — B. 102 .

O‘ZBEKISTONDA YILQICHILIK SOHASINING RIVOJI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Axmedov Bekzod Abdiraxmonovich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Raimov Abdullo Yuzboy o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola XX asrning 30–90-yillarida Qashqadaryoda chorvachilikning rivojlanishini o‘rganadi. Tadqiqotda qo‘y, echki, yilqi, sigir va tuya chorvachilik asosiy turlar sifatida ko‘rib chiqilgan. Sovet hokimiyati dastlabki yillarida chorvalar sonining kamayishi, xususan yilqichilik inqirozi, Birinchi jahon

urushi va mustaqillik harakatlaridagi qurolli to‘qnashuvlar bilan izohlanadi. Maqola chorvachilik tarixini statistik va arxiv ma’lumotlari asosida yoritadi.

Kalit so‘zlar: Yilqichilik, qorabayir, festival, Budyonniy, “daryol”, chorvachilik, ot sporti, Qashqadaryo, zavod.

РАЗВИТИЕ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ)

Ахмедов Бекзод Абдирахмонович
Университет информационных технологий и управления
Раимов Абдулло Юзбой оглу
Шахрисабзский государственный педагогический институт

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие животноводства в Кашкадарье в 30-90-е годы XX века. В исследовании рассматриваются овцы, козы, лошади, коровы и верблюды как основные виды скота. Сокращение численности скота в первые годы советской власти объясняется кризисом животноводства, Первой мировой войной и вооруженными конфликтами во время движений за независимость. В статье рассматривается история животноводства на основе статистических и архивных данных.

Ключевые слова: Ичичиик, Карабаир, фестиваль, Будённый, «дарьол», животноводство, конный спорт, Кашкадарья, завод.

DEVELOPMENT OF THE HORSE-BREEDING SECTOR IN UZBEKISTAN (IN THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION)

Akhmedov Bekzod Abdirakhmonovich
University of Information Technologies and Management
Raimov Abdullo Yuzboy oglu
Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: This article studies the development of livestock breeding in Kashkadarya in the 1930s–1990s. The study considers sheep, goat, horse, cow, and camel breeding as the main types of livestock. The decrease in the number of livestock in the early years of Soviet power is explained by the crisis in horse breeding, the First World War, and armed conflicts during the independence movements. The article covers the history of livestock breeding based on statistical and archival data.

Keywords: Yilqichilik, Karabayir, festival, Budyonny, “daryol”, livestock, equestrian sport, Kashkadarya, factory.

KIRISH. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha oziq-ovqat va sanoat sohalarida xomashyoga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Chorvachilik mahsulotlari O‘zbekiston

iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Chorvachilikdan go‘sht va boshqa mahsulotlar olinib, nafaqat aholi ehtiyojlarini qondiradi, balki sanoat uchun zarur xomashyo manbai bo‘ladi. Yilqichilik sohasi esa davlat siyosati va manfaatlariga muvofiq rivojlantirilib bormoqda. Bundan tashqari ushbu tarmoqda ish bilan ta’minlangan aholi milliy daromadning oshishiga hissa qo‘shadi. Chorvachilik aksar davlatlar iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, eksport salohiyatining katta qismini tashkil etadi. Hozirgi paytda chorvachilik sohasiga e’tibor oshishi aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash va mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga yordam bermoqda. Shu bilan birga chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash, jahon bozorida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni eksport qilish ishlari kengaymoqda.

ASOSIY QISM. Taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalish-lari sifatida agrar mahsulotlarni qayta ishlash hamda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash kabi vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan [1,2]. Mazkur masalalarni amalga oshirish uchun chorvachilik sohasidagi an’analarni o‘rganish hamda ulardan unumli foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolani tahlil qilar ekanmiz, yilqichilik sohasini rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-martdagi PQ-2841- son Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 2017-yil 15-iyundagi PQ-3057-sonli qarori va ushbu qarorni ijrosini ta’minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017—2021-yillarda 200 ta yilqichilik va ot sportini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi, 2017-yil 19- iyuldagi Vazirlar Mahkamasining 517-sonli qarorining 1-ilovasi ya’ni 2017-2021 yillarda yilqichilik va ot sportini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturining 4-5 bandlarida qorabayir zotli otlarni yangi liniya va oilalarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish va otlarni sun’iy urug‘lantirish va embrionlar transplantatsiyasini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. 1992-yil 7-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yaylov chorvachiligi (qorako‘lchilik, qo‘ychilik, uyur yilqichiligi va tuyachiligi) xodimlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning qo‘shimcha tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni, Agar o‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Qashqadaryo vohasida joylashgan kolxozlar va ulardagi chorva mollari quyidagicha bo‘lgan (1929-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra otlar soni quyidagicha bo‘lgan[3, B.8]):

Tumanlar	Kolxozlar	Kolxozlardagi ish hayvonlarining soni			
		Otlar	Yirik shoxli	Tuyalar	Jami

			chorva mollari		
Beshkent	2	-	4	-	4
Kitob	8	27	45	-	72
Koson	11	40	24	42	106
Qarshi	4	16	22	-	28
G‘uzor	3	20	4	-	24
Yakkabog‘	7	44	41	-	85
Shahrisabz	10	66	71	-	137
Jami	45	216	211	42	466

Bundan tashqari O‘zbekistonda otlarning soni 1914-yilda 597,5 ming, 1935-yilda 444,7 ming, 1938-yilda 384,5 ming, 1941-yilda 468,3 ming, 1954-yilda 488 ming, 1964-yilda 157 ming, 1974-yilda 109,5 ming, 1975-yilda 108 ming, 1980-yilda 80,6 ming, 1981-yilda 82,2 ming, 1982-yilda 89,2 ming, 1990-yilda 97,4 ming, 1991-yilda 105,2 ming, 1995-yilda 112,5 ming, 2000-yilda 146 ming, 2005-yilda 150 ming, 2008-yilda 149 ming, 2012-yilda 195 ming, 2021-yilda 242 ming boshni tashkil etdi [3, B.8]. Yuqoridagi statistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yilqilar soni bir tekis rivojlanib bormagan. Bunga sabab o‘lkada amalga oshirilgan jamoalashtirish siyosati, bundan tashqari yaylov maydonlarining qisqarib ketishi ushbu sohani bir tekis rivojlanishiga xalaqit bergan.

O‘zbekistonda yilqichilik sohasida mashhur otlardan biri bu qorabayir otlari hisoblanadi. Qorabayir otlari to‘g‘risidagi so‘zlarni 1841-yilda Edinburgda nashr etilgan hammaga ma’lum bo‘lgan “Otlar” kitobidan ham o‘qish mumkin. Bu kitob muallifi shunday degan edi: “Qorabayir – o‘zbek zoti, u Samarqand va Shahrisabz atroflarida urchitiladigan juda qimmatli otdir” [4, B.241]. Qorabayir O‘zbekistonda urchitiladigan 22 xil ot ichida birinchi o‘rini egallaydi va jami otlarning 90 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Ammo keyingi davrlarda O‘zbekistonda otlar sonining kamayib borayotganligini quyidagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkin: 1954-yilda 508,8 ming boshni, 1959-yilda 257,9 ming boshni, 1964-yilda 157,1 ming boshni, 1970-yilda 115,5 ming boshni, 1978-yilda 83,8 ming boshni tashkil etdi, xolos.

Otlar qishloq xo‘jaligida, sanoatda, balki tibbiyot sohasida foydali qiymatga ega hisoblanadi. Yilqichilik keyingi yillarda meditsina va veterinariya sohalari uchun shifobaxsh zardob va vaksina tayyorlash uchun qon plazmasi yetkazib beradigan asosiy sohaga aylandi [4, B.242]. Jumladan, Venetsiya sayohatchisi

Marko Polo XIII asrda biya sutidan tayyorlangan “oq ichimlik”ni “oq vino” o‘rnida qabul qilib, qimiz deb atagan edi [5, B.28]. Otlardan tayyorlanadigan ichimlikka ehtiyojning ko‘payishi sohani yanada rivojlantirishga turtki berdi. 1939-yilda O‘zbekiston chorvachilik ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi chorvachilik fanida, ayniqsa, yilqichilikda tub burilish yasadi. Chorvachilikning ilmiy va amaliy asoslari, jumladan yilqichilik sohasini o‘rganishga katta e’tibor qaratildi. Chorvachilikning barcha sohalari bo‘yicha bo‘limlar va laboratoriyalar tashkil etilib, har bir sohaning muammolari bo‘yicha ilmiy ishlar olib borildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. Respublikamizda o‘z ishiga sidqidildan qaraydigan talantli yilqishunos mutaxassislar, jumladan A.Z.Shkurgin, S.Y.Daniyelov, N.T.Gorshkov, Ya.V.Arifyev, A.N.Yegorov, G.A.Martinenko, M.I.Soldatkin, V.S.Vixrev, E.S.Mechinskaya, I.Y.Zakke, P.A.Pyanovskiy, S.R.Ilyayev, P.P.Yesyutin, V.A.Shekin, A.Ismoilovlar yetishib chiqdi[3, B.10]. 1928-1933-yillarda butun mamlakatda yilqilar 32,1 milliondan 14,9 million boshga kamayib ketdi [6, B.269]. O‘zbekistonda esa 1928-1932-yillarda 160 ming ot yo‘qotildi [7, B.187]. O‘zbekistonda qorabayir zotli otlarni nasl va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, toylarning o‘sish va rivojlanishini o‘rganish bo‘yicha A.K.Lixov, A.P.Afanasyev, M.K.Soxtayev (1970) va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan. D.Xolmirzayev (1980, 1991, 1996) tomonidan O‘zbekistonning tog‘oldi hududlarida toylarni o‘stirish, tog‘oldi hududlarida qorabayir zotli otlarni bo‘rdoqilash hamda mahsuldor yilqichilikni rivojlantirishning amaliy usullari va ilmiy asoslari yo‘nalishida kompleks tadqiqotlari olib borilgan.

A.A.Nurmatov (2004, 2008, 2009, 2010, 2012) tomonidan qorabayir zotli toylarning har xil asrash sharoitida o‘sishi, rivojlanishi va go‘sht mahsuldorligi, nasldor ayg‘irlarni qochirish mavsumiga tayyorlash va boqish, yilqichilikda qishlov mavsumi o‘tkazish, naslchilik ishi yo‘nalishida tadqiqotlar olib borilgan. MDH davlatlarida so‘nggi yillarda yilqichilikning rivojlanishida M.A.Politova, V.A.Demin (2019), B.M.Mongush, A.M.Zaysev (2020), I.N.Nechayev, N.Esenbayev, N.Kikebayev (1990), A.Imangaliyev (2001), A.T.Turabayev, S.S.Raxmanov, D.M.Nurmaxan-betov, G.T.Baktibayev (2017) ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega[8, B.6]. Jumladan, 1950-yil 22-avgustda O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti ot qili, yol va qoramol junini tayyorlash rejasi mutlaqo qoniqarsiz ekanligini qayd etib o‘tdi. Ot qili, yol va qoramol junini yillik tayyorlash rejasi 272 sentnerdan iborat bo‘lgan holda, 1950-yil 1-avgustgacha 79 sentner yoki yillik rejaga nisbatan 29 foizga bajarildi.

Ot qili, yol va qoramol junini yig‘ish va tayyorlash Buxoro viloyatida 7 foizga, Surxondaryo viloyatida 15,8 foizga, Qashqadaryo viloyatida 12,7 foizga, Xorazm viloyatida 15,4 foizga bajarildi, xolos. “Заготживсирьё” tayyorlash punktlari ot qili, yol va qoramol junini tayyorlash ishini bo‘sh uyushtirganlar, buni

faqat xom terilarni tartibga keltirish vaqtida yig‘ish bilan kifoyalanadilar, hovlima hovli yurib yig‘ish va sovxoz hamda kolxozlarda otlarning quyrug‘ini va yolini qirqishni tashkil qilish masalasiga yetarli e’tibor berilmadi. Bu sohaning sekinlik bilan orqaga ketishiga sabab bo‘ldi. O‘zSSR Qishloq xo‘jalik Ministrligi, O‘zSSR Sovxozlar Ministrligi va otlari bor boshqa ministrlik hamda idoralar O‘zSSR Ministrlar Sovetining 1949-yil 24-sentyabrdagi №1447-R sonli farmoyishini bajarmaganlar va otlarning quyrug‘i va yolini qirqish hamda bularni “Заготживсирьё” tayyorlash punktlariga topshirishni tashkil qilmaganlar [9, B.22]. Natijada ushbu sohadan tushadigan daromad kamayishiga, bu esa o‘z navbatida ushbu tarmoqni rivojlanmasdan orqaga qolishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekistonda otlar soni 1969-yilda 257,9 ming boshni tashkil etgan bo‘lsa, 1978-yilga kelib ularning soni 83,8 ming boshga tushib qoldi.

Otlar sonini asossiz kamayishi natijasida respublikamizning ko‘pchilik xo‘jaliklarida ishchi va miniladigan otlarga, go‘sht sanoatida esa sifatli qazi tayyorlash uchun kerakli miqdorda ot go‘shti ehtiyoj sezila boshlandi. Partiya va hukumat tomonidan bu ahvolni oldini olish maqsadida keyingi yillarda yilqichilikni rivojlantirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi [10, B.3]. Jumladan, SSSR qishloq xo‘jalik ministrligi 1969-yil 20-martda “Kolxoz va sovxozlarda yilqichilikni yanada rivojlantirish va otlarning sifatini yaxshilash to‘g‘risida”, O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1972-yil 25-iyulda va 1976-yil 22-avgustda “Respublika kolxoz va sovxozlarida yilqichilik va tuyachilikni yanada rivojlantirish choralari to‘g‘risida” qarorlar qabul qilindi. Ana shu qarorlarga muvofiq O‘zbekistonda 76-Jizzax, Toshkent va Qashqadaryoda “Avangard” ot zavodlari tashkil etildi. Bulardan tashqari 1970-yilda Surxondaryo viloyatida go‘sht-sut mahsuloti yo‘nalishidagi “Derbent” yilqichilik sovxozi barpo etildi. O‘zbekiston aholisi o‘zining sifatli otlari bilan qadimdan dong taratib kelgan. Lekin O‘zbekistonda yilqichilik mahalliy sharoitga moslashgan qorabayir otlari hisobiga rivojlanib kelgan [10, B.4-5]. 1981-yil 27-aprelda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti “Yilqichilikni rivojlantirish tadbirlari” to‘g‘risida qaror qabul qildi [10, B.5].

1981-yil 13-mayda O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti va Respublika Ministrlar Soveti “O‘zbekistonda yilqichilikni rivojlantirish tadbirlari” to‘g‘risida qaror qabul qildi. Qarorda 1976—1981-yillarda respublikamizda otlar soni birmuncha kamayib ketganligi, jumladan Andijon viloyatida 14 foiz, Surxondaryo viloyatida 20 foiz, Samarqandda 24 foiz, Namangan va Xorazm viloyatlarida 33 foizga kamayganligi ta’kidlandi. Qashqadaryo viloyatida otlar soni 1981-yilda 8,8 ming bosh, 1982-yilda 9,1 ming bosh, 1983-yilda 9,5 ming boshga yetdi. 1985-yilda 10,6 ming boshga yetkazilishi belgilab qo‘yildi [10, B.6]. Ammo ushbu rejalar belgilanganidek bajarilmadi. O‘zbekistonda keyingi 10 yil ichida ot go‘shti

yetishtirish birmuncha kamaydi. 1969-yilda 3 ming tonna ot go‘shti yetishtirilgan bo‘lsa, 1981-yilda 2,1 ming tonnani tashkil etdi [10, B.7].

1985-yilda Qashqadaryo viloyatida 166 bosh ayg‘ir va 2607 bosh biylar mavjud bo‘lgan [10, B.178]. Respublikamizda qorabayir zotli otlarni takomillashtirish bo‘yicha yetakchi olimlardan professor V.A.Shekin, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi K.A.Lixovlar tomonidan ko‘p yillar davomida samarali ishlar olib borilib, ko‘plab tizimlar, geneologik guruhlar va oilalar yaratilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, K.A.Lixov tomonidan 1972-yilda “Basket” va “Filin” tizimlari hamda 1995-yilda “Qopqon” tizimi yaratilgan. 1931-yilda milliy qorabayir ot zotini saqlab qolish va yaxshilash maqsadida Jizzax viloyati Jizzax tumanida Jizzax ot zavodi tashkil qilingan. Ot zavodida bu zotga mansub otlarning eng yaxshi avlodlari “Ulug‘bek”, “Fanatik”, “Ko‘k kaptar”, “Basket”, “Uloq”, “Ukaz”, “Filin”, “Festival” va boshqa tizimlaridan naslchilik ishlarida foydalanilgan. 1997-yilda Jizzax ot zavodi 200 bosh otlar bilan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism tasarrufiga o‘tkazilgan.

Hozirgi vaqtda Davlat chegaralarini qo‘riqlash uchun qorabayir zotli otlarni yetishtirib beradigan asosiy manba bo‘lib kelmoqda. 2019-yil boshiga kelib ushbu harbiy qismda qorabayir zotiga mansub 200 boshdan ortiq otlar parvarishlanmoqda hamda 600 boshdan ortiq otlar respublika bo‘yicha chegara po‘stlariga yetkazib berilgan. Ushbu harbiy qismda qorabayir ot zotini yetishtirish bilan birga ularning naslini yaxshilash va ko‘paytirish maqsadida institut olimlari bilan hamkorlikda seleksiya ishlari olib borilmoqda [11]. Xususan, O‘zbekiston SSRda 1939-yilda otlar soni 12,7 foizga, qoramollar soni 15,2 foizga, qo‘ylar va echkilar soni 22 foizga, cho‘chqalar soni 77 foizga o‘sib, chorva mollarining umumiy soni 20,5 foizga o‘sdi. 1939-yilda chorvachilik bo‘yicha respublikada 1916-yilga nisbatan 527,3 ming bosh bo‘lsa-da, ot chorvachiligi bo‘yicha respublika 1916-yilgi davrdan ortda qoldi. 1940-yilda respublikada oldinda turgan chorvachilik sohasidagi muammolardan biri bu yilqichilik sohasidagi qoloqlikni bartaraf etishdir [12, B.270-274].

Yilqichilikda embrionlarni transplantatsiya qilish natijasida 1974-yilda yapon olimlari N.Oguri va Y.Tsutsumi hamda 1982-yilda Rossiyalik olim S.G.Lebedev tomonidan birinchi qulun-transplantat olindi [13]. Yilqichilikda embrionlarni transplantatsiya qilish natijasida 1974-yilda yapon olimlari N.Oguri va Y.Tsutsumi hamda 1982-yilda Rossiyalik olim S.G.Lebedev tomonidan birinchi qulun-transplantat olindi. Buning natijasida otlarni ko‘paytirish natijasida Yakkabog‘ tumanidagi “Budyonniy” nomli davlat otchilik zavodi 1964-yilda tashkil etilib, u tog‘ etagida joylashgan bo‘lib, uning o‘t-o‘lanlarga boy bag‘rikeng yaylovlarida 1680 bosh qoramol, 18650 bosh qo‘y-echki, 721 bosh qorabayir Yilqi va 7,5 mingdan ziyod parranda boqildi. Dastlabki paytlarda bu yerda otlar tuyoq

sonini ko‘paytirish, naslini yaxshilash borasida birmuncha yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ko‘plab sportchi otlar yetishtirildi. Zavodda 1967-yildan boshlab qorabayir zotli otlar urchitila boshlandi. 1972-yilda Tairskiy Anglo-arab zotli 4 bosh ot bor edi. Ammo bu ot zotlaridan birortasi saqlab qolinmagan. Yillar o‘tib otlar qariganda go‘shtlikka topshirib yuborilgan. Ushbu zavodda yetishtirilgan Daryol laqabli ot 1968-1970-yillarda Olomon poygada belgilangan marraga birinchi bo‘lib yetib kelib, respublika chempioni bo‘lgan edi. Zavodda yetishtirilgan Fand laqabli ot 1968-yilda Пятигорск shahrida o‘tkazilgan to‘siqlardan sakrash bo‘yicha Butunittifoq musobaqasida birinchilikni egallab, chempion bo‘ldi. Bu davrda Gerset laqabli anglo-arab zotli ot ham Butunittifoq chempioni bo‘lgan. 1978-yilda zavodning 5-bo‘limi faqat otchilik bilan shug‘ullanadi. Bu yerda 1978-yilda 701 bosh ot, shu jumladan 234 bosh biya boqildi. Biyalardan yil sayin ko‘p qulun olindi. O‘ninchi besh yillikning dastlabki yilida zavod bo‘yicha jami 110 bosh qulun olingan bo‘lsa, 1977-yil bu ko‘rsatkich 146 boshga yetkazildi.

Zavodda faoliyat yuritadigan Eshmamat Eshboyev 1966-yilda Toshkent otchoparida tashkil etilgan trenerlar tayyorlash maktabini bitirdi. Uning ot sportiga bo‘lgan qiziqishini hisobga olib, 1967-yili Moskva yaqinidagi Ryazan otchilik ilmiy-tekshirish institutining 6 oylik trenerlar tayyorlash kursiga o‘qishga yuborildi. U Rossiyadan keltirilgan Dugistator laqabli ot bilan respublikada o‘tkazilgan Olomon poygada 5 kilometrlik masofaga yugurib birinchi o‘rinni egalladi. Zavod tomonidan 1975-yilda viloyat xo‘jaliklari uchun 9 bosh, 1976-yil 9 bosh, 1977-yil 19 bosh yilqi sotildi. 1978-yilning o‘tgan 6 oyi mobaynida 25 bosh yilqi xo‘jaliklar uchun sotildi. 1978-yilda zavodda otlar uchun 1310 tonna dag‘al xashak, shu jumladan, 410 tonna pichan, 900 tonna somon jamg‘arildi. Bu esa yilqichilikni yanada rivojlanishiga xizmat qildi. 1978-yilda Yakkabog‘ tumanida 1305 bosh yilqi, shu jumladan, 331 bosh biya boqildi [14]. 1981-yil 27-aprelda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti “Yilqichilikni rivojlantirish tadbirlari” to‘g‘risida qaror qabul qildi. 1981-yil 13-mayda O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti va Respublika Ministrlar Soveti “O‘zbekistonda yilqichilikni rivojlantirish tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Qarorda 1976-1981-yillarda respublikamizda otlar soni birmuncha kamayib ketganligi, jumladan Andijon viloyatida 14 foiz, Surxondaryo viloyatida 20 foiz, Samarqandda 24 foiz, Namangan va Xorazm viloyatlarida 33 foizga kamayganligi ta’kidlandi.

Qashqadaryo viloyatida otlarning umumiy soni 1981-yilda 8,8 ming boshni tashkil etgan bo‘lsa, 1982-yilda 9,1 ming bosh va 1983-yilda 9,5 ming boshga yetdi. 1985-yilga kelib ularning soni 10,6 ming boshga yetkazilishi rejalashtirilgan edi. 1984-yilda Yakkabog‘ tumanidagi “Budyonniy” davlat otchilik zavodi chorvadorlari KPSS XXVI syezdi hamda Partiya Markaziy Komiteti qarorlarini faol bajarishdi. Shu davrda zavodda yilqichilik faoliyati ham yildan-yilga kengayib

bordi. Ayniqsa, chopqir qorabayir zotlarini ko‘paytirish va ularni sifat jihatdan yaxshilashga alohida e’tibor qaratildi: 770 bosh o‘rniga 802 bosh yilqi boqildi. Xo‘jalikning ippodromida chopqir otlarning tez-tez poygalari uyushtirilib, bu sohani rivojlantirishga katta turtki bo‘ldi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, yilqichilik — bu chorvachilikning otlarni boqish, ko‘paytirish va ulardan turli maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq sohasi hisoblanadi. Mazkur tarmoqda mahsuldor yilqichilik, ishchi otlar yilqichiligi, ot zavodlari faoliyati (ot zotini yaxshilash va zotli otlar yetishtirish bilan shug‘ullanadi), shuningdek, ot sporti yilqichiligi kabi bir nechta yo‘nalishlar mavjud. O‘zbekiston sharoitida yilqichilik Toshkent va Namangan viloyatlarida rivojlangan bo‘lib, zotdor yilqichilik asosan tarixan rivojlangan hududlarda, o‘rmoncho‘l va cho‘l mintaqalarda joylashgan ixtisoslashtirilgan qishloq xo‘jaligi korxonalarida, ya’ni ot zavodlarida jamlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

2. Nurmatov A., Alimardonov A., Mansurov O., Jabborov Sh. Yilqchilikda sun’iy urug‘lantirish va embrionlar transplantatsiyasining samaradorligi. “Chorvachilik va naslchilik ishi” jurnali. #2- 3(02-03) 2018.

3. D.Xolmirzayev. Yilqichilik. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.: 2021. 6-bet.

4. Равшанов П. Қатағон. – Тошкент, 2011. – Б. 81.

5. Чорвачилик. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 241 бет.

6. A.Z.Muxtorov, Z.T.To‘raqulov. Mahsuldor yilqichilik. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1974. – B. 28.

7. Страницы истории советского общества: люди, проблемы, факты. – М.: Политиздат, 1989. – С. 269.

8. Aminova R.X. Kollektivlashtirish – qashshoqlashtirish demak. // Sharq yulduzi. — 1992. – №12. – B. 187.

9. Jabborov Sh. O‘zbekistonning tog‘oldi sharoitida qorabayir zotli toylarni jadal o‘stirish texnologiyasi. Qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. Toshkent 2023. – B. 6.

10. Qarshi tuman davlat arxivi, 19-fond, 1-ro‘yxat , 16-ish, 22-varaq.

11. To‘raqulov Z.T, A.Z.Muxtorov, D.X.Xolmirzayev. Yilqichilik. (Qishloq xo‘jalik institutlari va texnikumlari uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: “Mehnat”, 1985. – B. 3.

12. To‘raqulov Z.T, A.Z.Muxtorov, D.X.Xolmirzayev. Yilqichilik. (Qishloq xo‘jalik institutlari va texnikumlari uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: “Mehnat”, 1985. – B. 4-5.

13. Nurmatov A., Alimardonov A., Mansurov O. Qorabayir zotli otlarni yangi tizim va oilalarini yaratishga asos solish va sun’iy urug‘lantirishni joriy etish. “Cho‘l yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho‘llanishning oldini olishning ilmiy-amaliy asoslari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2019-yil 14-15-avgust. Samarqand). – Samarqand, 2019.

14. Qurbonov R. Qoramol parvarishlash sirlari. – Toshkent: “Meriyus”, 2013.

15. Усман Юсупов. Избранные труды. Том I. Узбекистан. – Ташкент, 1982. – Б. 270-274.

16. Nurmatov A., Alimardonov A., Mansurov O., Jabborov Sh. Yilqichilikda sun’iy urug’lantirish va embrionlar transplantatsiyasining samaradorligi. “Chorvachilik va naslchilik ishi” jurnali. #2-3 (02-03) 2018.

17. “Qashqadaryo haqiqati”, 1978-yil, 7-sentyabr.

18. “Qashqadaryo haqiqati”, 1984-yil, 20-iyun. – №119, (10560).

QASHQADARYO VOHASINING SIYOSIY-MA’MURIY BOSHQARILUVI

Jumayev Bahrom,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: ushbu maqolada Qashqadaryo vohasining yuqori va quyi havzalarida joylashgan bekliklar va amlokliklar va ularning geografik joylashuvi, hududiy tuzilishi, aholisining etnik tarkibi, boshqaruv tartibi hamda ularning tarixiy ahamiyati bilan bog‘liq ayrim ma’lumotlarini ilmiy adabiyotlar va manbalar asosida tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: Qashqadaryo vohasi, Buxoro amirligi, amlok, kenagas urug‘lari, shimoliy devor, ma’muriy tuzilish, tarixiy etnografik tadqiqotlar, kichikroq qishloqlar, chorvador aholi, qadimiy nomlar, yozma manbalar, o‘troqlashgan o‘zbeklar, bekliklar.

ПОЛИТИКО-АДМИНИСТРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА

Джумаев Бахром,
Каршинский государственный университет

Аннотация: В данной статье на основе научной литературы и источников анализируются некоторые сведения о бекствах и амлоках, расположенных в верхнем и нижнем бассейнах Кашкадарьинского оазиса, их географическом положении, территориальной структуре, этническом составе населения, системе управления и историческом значении.

Ключевые слова: оазис Кашкадарья, Бухарский эмират, амлок, кланы кенага, северная стена, административная структура, историко-этнографическое исследование, небольшие деревни, скотоводческое население, древние названия, письменные источники, оседлые узбеки, беки.

POLITICAL-ADMINISTRATIVE ADMINISTRATION OF THE KASHKADARYA OASIS

Jumayev Bahrom,
Karshi State University

Abstract: This article analyzes some information related to the bekliks and amloks located in the upper and lower basins of the Kashkadarya oasis, their geographical location, territorial structure, ethnic composition of the population, governance system, and their historical significance, based on scientific literature and sources.

Keywords: Kashkadarya oasis, Bukhara Emirate, amlok, kenagas clans, northern wall, administrative structure, historical ethnographic research, smaller villages, pastoral population, ancient names, written sources, settled Uzbeks, beks.

KIRISH. Qashqadaryo vohasi Buxoro amirligi davrida, xususan, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida quyidagicha siyosiy-ma’muriy birliklarga – “viloyat”larga bo‘lingan: 1. Qarshi viloyati, 2. G‘uzor viloyati, 3. Yakkabog‘ viloyati, 4. Shahrisabz viloyati, 5. Kitob viloyati, 6. Chiroqchi viloyati.

Buxoro amirligida bekliklarni “viloyat”lar sifatida nomlash an’anasi amirlikdan oldin ham mavjud bo‘lib, Shayboniylar davrida yashab ijod qilgan Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnoma-i shohiy” (XVI asr) asarida Shahrisabz va Qarshi alohida-alohida viloyatlar sifatida tilga olinadi [1:61]. Bundan ko‘rinadiki, Shayboniylar sulolasi davrida ham Buxoro davlatida ham ushbu siyosiy-ma’muriy birliklar “viloyat” deb atalgan.

Qarshi viloyati shimolda Zarafshon vohasidagi Ziyaddin, shimoli-g‘arbda Kogon, g‘arbda Chorjuy va janubi-g‘arbda Burdaliq, janubda Karki, janubi-sharqda G‘uzor, shimoli-sharqda Chiroqchi va Yakkabog‘ viloyatlarи [2:112-147] bilan hamhudud bo‘lgan.

ASOSIY QISM. Qashqadaryo vohasining yuqori havzasida joylashgan Yakkabog‘, Shahrisabz, Kitob va Chiroqchi viloyatlari hududiy jihatdan uncha katta bo‘lmasdan, bu jihatdan bir-biridan katta farq qilmagan.Ularning deyarli barchasi hududi bo‘yicha bugungi kundagi Yakkabog‘, Shahrisabz va Kitob tumanlari hududlarini egallagan bo‘lsa-da, bu jihatdan Chiroqchi viloyati anchagina farqlangan. Ya’ni amirlik davrida bugungi Chiroqchi tumani hududining g‘arbiy qismi Qarshi viloyatiga qarashli bo‘lgan. Xususan, Ashurbeka (Harduri) va

Taloqtepa qishloqlari Qarshi viloyatining Fulodi (Po‘lati) amlokiga kirgan. Ushbu qishloqlarga shimoli-sharq va janubi-sharqdan qo‘shni bo‘lgan bugungi Xushali, Moylijar kabi qishloqlar esa Chiroqchi viloyatining Beklamish amloki tarkibida bo‘lgan. Bugungi kunda Koson tumani tarkibidagi Olato‘n qishlog‘i esa Chiroqchi viloyatining Beklamish amlokiga qaragan.

Yuqorida eslatilganidek, Buxoro amirligidagi 27 beklik yoki viloyati orasida 6 tasi – Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi, Yakkabog‘ va G‘uzor bekliklari Qashqadaryo vohasida joylashgan edi [3:4-10]. Buxoro amirligidagi har bir beklik amir tomonidan tayinlangan hokim “bek” deb ataluvchi amaldorlar tomonidan boshqarilgan bo‘lib, ular “Qarshi begi”, “Chiroqchi begi” va hokazo deb atalgan. Amirlikdagi bekliklar amlokdorliklar (mulkliklar)ga bo‘linib, ularni “amlokdor”lar yoki ba’zan “shoh” deb nomlanuvchi amaldorlar boshqargan [3:10-11]. Amirlikdagi amlokdorlar beklar tomonidan tayinlangan, shohlar esa aholi tomonidan saylanib, so‘ngra beklar tomonidan ularning vakolati tasdiqlangan. Buxoro amirligidagi amlokdorliklar aminlik — qishloqlarga bo‘linib, bu ma’muriy bo‘linmaning eng quyi bo‘g‘inini tashkil etardi. Aminliklarni o‘zbeklarda “mingboshi”, tojiklarda “arbob” deb ataluvchi, aholi tomonidan saylab qo‘yilgan oqsoqollar boshqarganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Buxoro amirligining siyosiy hayotida Qarshi va Shahrisabz bekliklarining o‘rni katta bo‘lib, ularning birinchisida o‘zbeklarning mang‘it urug‘i vakillari viloyat boshqaruvida yuqori nufuzga ega bo‘lsa, Shahrisabzda kenagas urug‘i vakillari yetakchilik qilishgan. Aslida bir-biri bilan qarindosh hisoblangan mang‘it va kenagas urug‘lari orasidagi ziddiyat nafaqat Qashqadaryo vohasi miqyosida, balki amirlik miqyosidagi masalaga aylangan. Qarshi viloyatidan farqli holda kenagas urug‘i vakillari bo‘lmish Shahrisabz beklari ko‘pincha Buxorodagi markaziy hokimiyatga qarshi kayfiyatda bo‘lib, amir qo‘shinlari bilan Shahrisabz qo‘shinlari orasida ko‘plab qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tgan. Shahrisabz bekligining bunday xatti-harakatini Kitob bekligi ham qo‘llab-quvvatlab turgan.

XVII – XVIII asrlarda Shahrisabz mudofaa devorida ulkan ta’mirlash ishlari olib borilib, janubiy devor butunlay qayta quriladi. Qo‘rg‘on va bevosita shahar to‘g‘ri burchak shaklida shimoldan janubga qarab biroz cho‘zilgan holda joylashgan bo‘lib, to‘rtta asosiy darvozaga ega bo‘lgan. Bu yerda etnografik tadqiqotlar olib borgan olima O.A.Suxareva ma’lumotlariga ko‘ra, ular quyidagicha joylashgan va nomlangan:

Kitobga olib boruvchi yo‘lda, Shahrisabz begi qo‘rg‘oni yonida joylashgan, ya’ni, shimol tomondagi Samarqand yoki Kitob darvozasi, g‘arb tomondan joy olgan Chiroqchi darvoza, Sharqda Kunchiqar darvoza, janubda esa Yakkabog‘ darozalari joylashgan. Lekin, o‘z vaqtida shahar darvozalarining boshqacha

nomlari ham keltiriladi. Xususan, g‘arbiy darvoza, ya’ni Chiroqchi darvozasi Kushxona, Janubiy darvoza (Yakkabog‘) esa yonida Katta Charmgar va Kichik Charmgar guzarlari joylashgani bois Charmgar nomlari bilan ham yuritilgan [4:132]. Darvozalarning ikki nomda atalishi ko‘proq mahalla guzarlari bilan bog‘liqdir.

Bek qo‘rg‘oni xalq orasida Shahrisabz Afrosiyobi nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Ushbu qo‘rg‘on Qarshi qo‘rg‘onidan farqli o‘laroq ikki darvozaga ega bo‘lgan. Ko‘kdarvoza janubiy tomonda, To‘pxona deb ataluvchi darvoza esa sharqiy tomonda joylashgan. Qo‘rg‘on oldida esa shaharning asosiy maydoni – Registon joylashgan edi. Qo‘rg‘on uch tomondan paxsa devor bilan o‘ralgan bo‘lib, uning devori ham burjlarga ega bo‘lgan va devor usti bir tekis bo‘lmasdan an’anaviy dandona (tishsimon) uslubida bo‘lganligi aniqlangan[5:49-50].

Buxoroda mang‘itlar sulolasi hokimiyatni egallagach, XVIII asr o‘rtalaridan Yakkabog‘ bekligi tashkil etiladi. Beklikning markazi bo‘lgan Yakkabog‘ qo‘rg‘oni shu davrdan boshlab Buxoro amirligining muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan shahri sifatida katta o‘rin tutgan. XIX asrda shahar 2 qismdan – “o‘rda” va “qo‘rg‘on”dan iborat bo‘lgan. O‘rda 3 qatorli mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Tabiiy tepaliklar ustida joylashgan bu notekis qurilgan bek o‘rdasi markazida, o‘rdaning eng baland joyida bekning saroyi joylashgan bo‘lgan. O‘rda mudofaa devorida 1 ta, shahar mudofaa devorida 3 ta darvoza mavjud bo‘lgan.

Kitob shahri XVII – XIX asrlarda g‘arbdan sharqqa tomon cho‘zilgan, murakkab shaklga ega qo‘rg‘on shaklida bo‘lgan. Kitob shahri o‘z tuzilishiga ko‘ra mudofaa devori bilan o‘ralgan va Shahrisabz qo‘rg‘onidan farqli o‘laroq bitta asosiy darvozaga ega bo‘lgan. Shahar ham mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, XIX asr ga oid manbalarda uning darvozalar soni 7 ta ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud [6:174-178]. Lekin keyingi davrda shaharda olib borilgan tarixiy etnografik tadqiqotlar darvozalar soni 6 ta ekanligini ko‘rsatdi.

XIX asrga kelib Qashqadaryo voha shaharlari soni bir muncha oshdi. Buning yaqqol dalili sifatida Chiroqchi bekligining markazi bo‘lgan Chiroqchi, Koson va boshqa kichik shaharlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Chiroqchi qal’asi haqidagi ma’lumot mahalliy manbalardan “Ubaydullanoma” asarida tilga olinadi. Ashtarxoniylar davrida yirik mudofaa qo‘rg‘oni sifatida faoliyat ko‘rsatgan Chiroqchi mang‘itlar davriga kelib Chiroqchi bekligi markaziga aylandi va shahar sifatida kengayib bordi. Qo‘rg‘onning saqlanib qolgan mudofaa devorlariga qarab xulosa chiqariladigan bo‘lsak, qo‘rg‘on to‘g‘ri to‘rt burchak shaklida bo‘lib uning tomonlari uzunligi 1.5 kilometrgacha bo‘lgan. Qo‘rg‘on devorida 2 ta – Sarvi Alamzada va Said Ikrombek nomlari bilan ataluvchi darvozalar bo‘lgan [5:4-50].

Qashqadaryo vohasi 6 ta siyosiy-ma’muriy birlik – viloyat yoki beklik deb ataluvchi hududlardan tashkil topib, ularning har biri o‘nlab amlok – tuman yoki

undan birmuncha kichikroq qishloqlar boshqaruvidan iborat bo‘lgan. Amloklarning har birida bir necha o‘nlab qishloqlar joylashgan bo‘lib, amirlik davrida ularning har birining o‘z boshqaruvchisi – “amin”, “oqsoqol”lari “amlokdor”ga bo‘ysungan. O‘z navbatida amlokdorlar “bek” – viloyat boshlig‘iga bo‘ysungan. Buxoro amirligining ma’muriy tuzilishi bo‘yicha nisbatan to‘laqonli ma’lumotlar XX asr boshlarida tuzilgan qaydnomalarda saqlanib qolgan. Ular asosida Qashqadaryo vohasidagi viloyatlardagi amlok va qishloqlar bilan tanishib chiqsak. Shu o‘rinda ushbu viloyatlar orasida nisbatan oz o‘rganilgan Chiroqchi bekligiga birmuncha batafsilroq to‘xtalamiz. Ushbu viloyatda 7 ta amloklik bo‘lib, ularning har birida kamida 15-20 tadan qishloq bo‘lgan. Masalan, Beklamish amlokida quyidagicha qishloqlar joylashgan [3:307]:

1. Qora-yantoq, 2. Jarquduq, 3. Xushakli (Xushali), 4. Moylijar, 5. Boybo‘ri, 6. Qozon-chiqdi, 7. O‘tali, 8. Amin-qishloq, 9. Barot-qishloq, 10. Karvan-qishloq, 11. Chibot, 12. Go‘r-quduq, 13. Qora-kamar, 14. Sho‘r-bozor, 15. Beglamish-ota, 16. Do‘ng-arig‘, 17. Tugmachi, 18. Arab-kamar, 19. Qo‘sh-mo‘la, 20. Qo‘sh-quduq, 21. Olato‘n, 22. O‘tamali [3:307].

Qashqadaryo vohasining ham hududiy jihatdan katta, ham aholi soni amirlikda eng ko‘pchilikni tashkil etgan Qarshi viloyatiga qarashli amloklar quyidagicha bo‘lgan:

1. Beshkent, 2. Fayzobod, 3. Xonobod, 4. Chim, 5. Parg‘uza, 6. Fulodi, 7. Koson, 8. Daha-i Miyona, 9. Patron, 10. Fazli, 11. Qamashi, 12. Juynav, 13. Kasbi, 14. Maymanoq [3:287-296].

Qashqadaryo vohasining anchagina qadimiy aholi maskanlarini o‘z ichiga olgan Xuzor (G‘uzor) viloyatiga qarashli amloklar:

1. Afg‘onbog‘, 2. Eskibog‘, 3. Yorti-tepa, 4. O‘rta-kalon, 5. Karsang, 6. G‘armiston, 7. Qamay, 8. Beliboyli [3:297-304]. Xuzor viloyati Qashqadaryo vohasining janubiy va janubi-g‘arbiy qismida joylashib, Surxondaryo vohasi bilan tog‘lar orqali tutashib ketgan.

Qashqadaryo daryosining yuqori havzasida joylashib, Yuqori Qashqadaryo deb yurtiladigan siyosiy-ma’muriy birliklardan biri — Kitob viloyatiga qarashli qishloqlar:

1. G‘arav, 2. Oftobro‘ya, 3. Qorong‘u-maydon, 4. Pistaxon, 5. Axcha-bug‘a, 6. Pistalik, 7. Obkanda, 8. Qaynar, 9. Javuz, 10. Varganza [3:309-311].

Yuqori Qashqadaryodagi Yakkabog‘ viloyati tarkibidagi amloklar:

1. Besh-ariq, 2. Samoq, 3. Imom Ya’qub, 4. Tosh-qo‘rg‘on, 5. Bo‘z-ariq, 6. Bobo Shodi, 7. Qora-bog‘, 8. Qora-yog‘och, 9. Diyul, 10. Hazrati Langar [3:305-307].

Amloklar, ular nomining qadimgi davr va o‘rta asr yozma manbalarida qay holatda uchrashi va qaysi tillar asosida izohlanishi masalasiga qisqacha to‘xtalib

o‘tadigan bo‘lsak, Qarshi viloyatiga tegishli 14 ta amlok nomidan 7 tasining IX–XII asrlarga oid arab va fors tilli manbalarda uchrashiga duch kelamiz. YA’ni Beshkent – Fijkas, Parg‘uza – Farxardiza, Patron, Fazli – Bazda, Juynav – Juy-i nav, Kasbi, Maymanoq – Maymurg‘ shakllarida arab-fors geograflari asarlarida qayd etilgan bo‘lib, ularning deyarli barchasi sug‘diy til negizidadir [7:101]. Shuningdek, Qarshi amloklari orasida Chim, Qamashi, Xonobod nomli amloklar turkiy (o‘zbek) tili asosida izohlanadi. Fayzobod amlokining nomi esa arab va fors tillariga xos so‘zlardan tashkil topgan. Demak, Qarshi viloyatiga tegishli amloklarning katta qismi ancha qadimiy nomlar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi sharqiy eroniy tillarning bir tarmog‘i bo‘lmish sug‘diy til bilan aloqalidir.

Shu bilan birga, Qarshi viloyatidagi amloklarning deyarli barchasida turkiy etnik guruhlar, ayniqsa, mang‘it urug‘i bilan bog‘liq [7:76] Oq-mang‘it, To‘q-mang‘it, Chol-mang‘it, Qozoq (Qozoqli), Boyg‘undi, Esaboy, Go‘balak (Go‘va-lak), Qo‘ziqo‘chqor, Qorabayir kabi qishloq nomlarining uchrashi diqqatga sazo-vordir. Bu holat Buxoro amirligi davrida Qashqadaryo vohasida, xususan, Qarshi viloyati hududida ko‘plab o‘zbek urug‘larining o‘troqlashuvi bilan bog‘liqdir.

Qarshi va G‘uzor viloyatlari aholisining bir qismini arablar tashkil etib, ular ayniqsa, Koson, Juynav, Kasbi, Fulodi (Po‘lati) amloklari qarashli qishloqlarda zich holatda yashaganlar [8:191-205].

Qashqadaryo vohasidagi ko‘plab qishloqlarga ega bo‘lgan Chiroqchi viloyati, garchi amloklari birmuncha oz bo‘lsa-da, aholi soni jihatdan anchagina ko‘p bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Yettita amlokka bo‘lingan ushbu viloyat tarkibida 125 ta qishloq bo‘lib, ularning sezilarli bir qismini Buxoro amirligi davrida o‘troqlashgan aholi guruhlari tashkil etgan. Bu fikrni har bir amlok tarkibida ko‘chmanchi o‘zbeklar bilan bog‘liq o‘nlab qishloq nomlari tashkil etishi tasdiqlaydi. Xususan, Chiroqchi viloyatining shimoliy qismidagi Besh-chashma amlokida 32 ta qishloq joylashgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligida saroy urug‘iga, Beklamish amlokida uz urug‘iga, Chiyal amlokida qutchi urug‘iga, qolgan amloklarda esa asosan chuyut, saroy va qutchi urug‘iga aloqador aholi vakillari istiqomat qilishgan. Shuningdek, Chiroqchi viloyatidagi ayrim qishloqlarda qipchoq, uyshun, mang‘it, qalmoq, sanchqli, achamayli, qirg‘iz, juz kabi o‘zbek urug‘lari vakillari yashagan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, Chiroqchi viloyatidagi har bir amlokni ushbu urug‘larga mansub amlokdorlar boshqarishgan.

Qashqadaryo vohasining Yakkabog‘, Shahrisabz va Kitob o‘zining birmuncha tog‘li hududlarga ega viloyatlar sifatida e’tirof etilgan. Har biri 10 tadan amlokka bo‘lingan Yakkabog‘ va Kitob viloyatlarida aholining bir qismi o‘troq, bir qismi esa chorvador turmush tarziga ega bo‘lib, ulardagi amloklarning katta qismini o‘zbek aholi tashkil etishi bilan birga, ushbu viloyatlar aholisining sezilarli bir qismi tojiklardan iborat bo‘lgan. Ayniqsa, Hisor tog‘ tizmalarida joylashgan

qishloqlar aholisining bir qismi o‘zbeklardan, bir qismi esa tojiklardan tashkil topgan. Masalan, Kitob viloyatiga tegishli Varganza amloki aholisining katta bir qismi tojik tilida so‘zlashib, ular yashaydigan qishloqlar nomi qadimgi sug‘diy til negizida yasalgan[9].

Ushbu hududlarda turk-barlos, turk-kaltatoy, mo‘g‘ul kabi Temuriylar davrida o‘troqlashgan o‘zbeklardan tashqari, chuyut, saroy, qo‘ng‘irot, qovchin, nayman, qipchoq, achamayli, uz va hokazo kabi Shayboniylar va Buxoro amirligi davrida o‘troqlashgan o‘zbek urug‘lari son jihatdan ancha yuqori miqdorga ega bo‘lgan. Shuningdek, vohaning ushbu qismlarida, xususan, tog‘lik hududlarda “harduri” deb nomlangan aholi guruhi [12:44] ham o‘z qishloqlariga ega bo‘lib, ular o‘zbek va tojiklar orasidagi etnik guruh sifatida bilingan. Vohaning bu qismida arablar ancha kam miqdorni tashkil etgan.

XULOSA. Xullas, Buxoro amirligi davrida Qashqadaryo vohasining siyosiy-ma’muriy bo‘linishi masalasida shuni aytish mumkinki, bu davrda ham vohaning deyarli o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan ma’muriy boshqaruv an’anasi davom etgan. Vohada dastlab ikkita yirik viloyat – Qarshi va Shahrisabz viloyatlari mavjud bo‘lib, keyinchalik Yakkabog‘, Kitob, Chiroqchi, Xuzor (G‘uzor) viloyatlari tashkil etilgan. Har bir viloyatda yuzlab qishloqlar – aholi maskanlari joy olib, ular amlok – kichikroq tuman darajasidagi ma’muriy birliklarga biriktirilgan. Amlok boshqaruvchilari – “amin”lar har bir qishloqdan zakot va soliqlarni yig‘ib, viloyat boshlig‘i – “bek” qo‘l ostidagi mas’ul lavozim egalariga topshirganlar. Shu bilan birga, amirlikdagi harbiy va fuqarolik ishlari (ariq qazish, turli xizmatlarga jalb etilish va h.k.) aminlar orqali aholiga yetkazilgan va ularning bajarilishi ham ushbu amaldorlar vositasida amalga oshirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hofiz Tanish al – Buxoriy. Abdullanoma (Sharfnomayi shohiy). I – jild. – T., “Sharq”. 1999. – B. 61.

2. Евреинов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на Гузар и на Карши. 1887 г. // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии, Вып. XXXVI. – СПб. 1888. – С. 112-147.

3. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX — начало XXв.) / Материалы к историческойгеографии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. – Т.: Университет, 2001. – С. 4, 10.

4. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Т.: АН УзССР, 1958. – С. 132.

5. O‘tanov X. Buxoro xonligi mudofaa tizimida Kesh vohasi mudofaa inshootlarining o‘rni (XVI-XIX asrlar) // O‘zMUxabarlari – Vestnik NUUz ACTA NUUz. Tarix 1/2, 2019. – B. 49-50.

6. Qadimgi Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar / Mas’ul muharrir A.S. Sagdullayev. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 174-178.

7. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – T.: O‘zbekiston, 1978. – B. 54, 65, 101.

8. Rajabov R. O‘zbekistondagi arablar tarixi va etnorgafiyasi. – T.: Sharq, 2012. – B. 191-205.

9. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985.

10. Лурье П. Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: Дис. канд. фил. наук. – СПб.: Санкт-Петербургский филиал ИВ РАН, 2004.

11. Qayumov A. XX asr boshlarida O‘zbekiston hududida etnik holat. Mas’ul muhar. A.A. Ashirov – Toshkent, 2015. – B. 44.

AMIR TEMURNING HARBIY MAHORATI

Baxronov Doniyor Davronovich
Fan va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temurning davlatni boshqarishi, harbiy sohadagi faoliyati, qo‘shinlar tuzilishi, ta’minoti va tarkibi jang san’ati, o‘nlik yuzlik, minglik qo‘shinlar, amirlarning vazifalari, jang olib borish usullari, Amir Temur shaxsiyati, uning ma’naviy merosi,yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi merosi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, qo‘shin, o‘nlik, yuzlik, minglik, tuman, tug‘, nog‘ora, bahodirlik, cherik, chodir, kamon, o‘q-yoy, nayza, qilich, gurzi, tabar, manjaniq.

ВОЕННОЕ МАСТЕРСТВО АМИРА ТЕМУРА

Бахронов Донийор Давронович
Университет науки и техники,

Аннотация: В данной статье научно анализируются государственное управление Амира Темура, его военная деятельность, структура, снабжение и состав армии, военное искусство, армии численностью в десятки, сотни, тысячи человек, обязанности эмиров, методы ведения войны, личность Амира Темура, его духовное наследие и его вклад в воспитание молодежи в духе военного героизма.

Ключевые слова: Амир Темур, армия, десятки, сотни, тысячи, округ, племя, барабан, героизм, черик, палатка, лук, стрела, копье, меч, молот, булава, манзаник.

MILITARY SKILLS OF AMIR TEMUR

Bakhronov Doniyor Davronovich
University of Science and Technology,

Annotation: This article scientifically analyzes Amir Temur's state management, military activities, the structure, supply and composition of the army, the art of war, armies of tens, hundreds, thousands, the duties of emirs, methods of warfare, Amir Temur's personality, his spiritual heritage, and his legacy in educating young people in the spirit of military heroism.

Keywords: Amir Temur, army, tens, hundreds, thousands, district, tribe, drum, heroism, cherik, tent, bow, arrow, spear, sword, hammer, mace, manzaniq.

KIRISH. Tarixiga murojaat qilar ekanmiz, Sohibqiron va uning avlodlari hukmronligi davrida davlatchilik, jamiyatni boshqarish, qo‘shinlar tuzish va harbiy san’at, ilm-fan, adabiyot, tarix, tibbiyot, va umuman maorif va san’at mislsiz rivojlanganini ko‘ramiz. Ulug‘ Sohibqiron Amir Temurning tarixiy siymosi, hayoti va faoliyati hozirgi Markaziy Osiyo zaminida yashayotgan barcha xalqlarning o‘tmish tarixidan sharafli o‘rin olibgina qolmasdan, zamonaviy tarixiy rivojlanishida ham o‘z aksini topishi diqqatga sazovordir.

Mamlakatimiz taraqqiyotida shuhrat qozonib nom qoldirgan juda ko‘p hukmdorlar o‘tgan. Ammo ular orasida Amir Temur alohida o‘rin tutadi. Ulug‘ bobokalonimizning tavallud ayyomi mamlakatimizda ilk bor 1996-yil nishonlandi. Amir Temur ibn Muhammad Tarag‘ay Bahodir hijriy 736 sichqon yili sha’bon oyining 25-kunida (1336-yil 9-aprel) Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo‘jailg‘or qishlog‘ida dunyoga keldi [1].

ASOSIY QISM. Temur yoshlik chog‘laridanoq harbiy ishga nihoyatda qiziqardi. U tezda mohir suvoriy va qo‘rqmas jangchi sifatida butun Qashqadaryo vohasiga taniladi. Uning atrofida barlos qabilasidan chiqqan jangchi yoshlar to‘plana boshlaydi.Temur qo‘l ostidagi navkarlari bilan ayrim amirlarga xizmat qiladi, janglarda chiniqadi.

Amir Temur qo‘shinlarni boshqarishda amirlarning o‘rniga alohida e’tibor beradi. Harbiy boshliqlar Temur davlatiga tobe bo‘lgan tumanlarda istiqomat qilib turgan qirqta aymoq (qabila)dan o‘n ikkitasi: barlos, jaloyir, orlot, qipchoq, arg‘in, tulkichi, duldoy, mo‘g‘ul, suldus, tugoy, totor, tarxon qavmlari orasidan saylanib olingan. Amirlardan o‘n ikkitasining har biriga bittadan bayroq va nog‘ora, bir tuman lashkar, tug‘ va chortug‘ berilgan. Amirlardan to‘rttasi beklarbegi deb atalgan. Ularning har biriga bittadan bayroq, nog‘ora, chortog‘ va burg‘u berilgan. Jang maydonida shijoat va bahodirlik namunalarini ko‘rsatgan amirlarga 3 imtiyoz: tug‘ nog‘ora va bahodirlik rutbasi, davlat kengashlariga to‘siqsiz kirish huquqi, biror viloyat yoki sarhadning noibligi mansabi berilgan. Ularga tez-tez

turli-tuman hadyalar va suyurg‘ollar ham berib turilgan. Shuning uchun ham ular o‘zlarini ayamay, sidqidildan xizmat qilib, davlat va saltanatning ishonchli ustuni bo‘lganlar.

Yurtni mo‘g‘ullar iskanjasidan qutqarish, uni ozod qilish kerakligini tushunib yetgan Amir Temur oz davlatini boshqarish uchun markazlashgan davlat tuzishga, mamlakat tinchligi va xavfsizligini himoya qilishdagi masalalarga katta e’tibor qaratadi. Amir Temur davlatni idora qilishda kengashning roli benihoya katta ekanligini yaxshi anglagan va unga hamma vaqt rioya qilgan hukmdorlar jumlasidandir. Xususan, uning mana bu dono so‘zlariga alohida e’tibor bermoq zarur: “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, mashvarat va tadbir bilan, qolgan bir ulushini qilich bilan hal qildim” [2].

Amir Temurning bu uqdirishi bugun ham o‘ta muhim va dolzarb yo‘riqdir. Temur o‘z zamonining talablarini yaxshiroq tushunib bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar bilan bir qatorda shaharning savdogar va hunarmand tabaqalariga suyanadi. Bu boradagi amaliy ishni Balx shahriga joylashib olgan raqibi Husaynga qarshi yurishdan boshlaydi. 1370-yil mart oyida Temur yaxshi qurollangan qo‘shini bilan Keshdan chiqib Balxni qamal qiladi va katta talofatlar berib, shaharni egallaydi [3].

Movarounnahrning hukmdori amir Husayn o‘ldiriladi. Bu voqeadan so‘ng mamlakatda Temurning siyosiy mavqei kuchayib ketadi. Chunki endi Movarounnahrda uning uchun kuchli raqib qolmagan edi. O‘sha yili Balxda qo‘shin boshliqlarining yig‘ilgan qurultoyda Temurning hukmronligi rasman qaror topadi. Manbalarda ta’riflanishicha, qurultoyda avvalgi Chig‘atoy xonligining e’tiborli amirlari, Temurning yoshlikdagi quroldoshlari va uning sobiq dushmanlari hozir bo‘lgan edilar. Ular orasida Amir Shayxmuhammad Bayon Sulduz, amir O‘ljoytu, amir Kayxisrov Huttaloniy, amir Dovud Dug‘lot, amir Sorbuga Jaloyir, amir Joku Barlos, amir Zinda Hashm va boshqa mo‘tabar ma’murlar bor edi. Temur qadimgi odatga ko‘ra oq kigiz ustiga o‘tkazilib, yuqori ko‘tariladi Temurning piri Saidbaraka duoyi fotiha qilgach, u Movarounnahrning amiri deb e’lon qilinadi. Temur dastlab o‘ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida barlos qabilasidan maxsus gvardiya tashkil qiladi.Chunki bunday ishonchli gvardiya ayniqsa, uning siyosiy kurashlari uchun zarur edi. U o‘z gvardiyasiga va barlos qabilasiga katta imtiyozlar beradi.

Amir Temur armiyasi tashkiliy-harbiy tuzilishi, jang olib borish usullari jihatidan o‘sha paytdagi eng qudratli armiya edi. Lekin tashkil etilishi qadimgi turklardagidek, ya’ni O‘g‘uzxon va Chingizxon tuzgandek edi. Qo‘shin o‘n ming kishilik tuman tartibida tuzilib, o‘nlik, yuzlik, mingliklarga taqsimlangan, cherik tarzida tuzilgan bo‘lib, otliqlar va piyodalardan iborat edi. Qurollari-o‘q-yoy, nayza, qilich, gurzi, tabar,manjaniq edi [4].

Jangovar tartib, dastlab, masalan mashhur “janggi loy” (1365) paytida qadim turklar va Chingizxon davrida bo‘lganidek markaz, barong‘or (o‘ng qo‘l), javong‘or (so‘l qo‘l), qanbul (qanot himoyasi), avang‘or-manglay, hirovul (ort tomon)dan tuzilgan. Bunday saf tuzishda markaz qanotlarga qaraganda kuchsiz bo‘lgan. Unda qorovul zahira bo‘lmagan. Lekin 35 yillik uzluksiz yurishlar va urushlar jarayonida Amir Temur o‘z armiyasini takomillashtirib bordi va har qanday sharoitda jang qila oladigan qobiliyatga ega qildi. Masalan, o‘sha davrning eng yirik janggi, Amir Temur bilan To‘xtamish o‘rtasida 1391-yili Qunduzcha mavzusidagi urushni olaylik. Bu urush jarayoni Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan batafsil bayon etilgan. Qo‘shinning jahgavor tartibi butunlay boshqacha ko‘rinishda edi. Eng avvalo Amir Temur o‘z armiyasini yetti qo‘l (korpus)ga bo‘ladi. Amir Sulaymonshoh, shahzodalar Muhammad Sulton, Mironshoh va Umarshayx, amir Berdibek kabilar ularga qo‘mondonlik qilishgan va markaz, o‘ng va so‘l qo‘l, qanbuldan joy olganlar. Ba’zi qo‘llar Amir Temur tomonidan zahiraga (ehtiyotga) qoldirilgan. Bunday tartib qanotlarnigina emas, markazni ham qudratli qilgan. Markaz ixtiyorida endi avangard, qanbul va ehtiyot qismlar bo‘lib, ko‘pincha u jang taqdirini hal etgan. Qo‘shinni to‘plash va ularni murchillarga taqsimlash bilan tavochilar shug‘ullangan. Yurish oldidan har bir askar kamon va 30 o‘q, tabar va tura, qilich va bir oyga yetarli ozuqa, shuningdek ikki ot, har o‘n kishi o‘zi bilan birga bir xayma-chodir, ikki soyabon, bir bel, o‘roq, arra, juvoldo‘z, yuz dona igna, arqon, charm, mesh, qozon olgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. Amir Temur o‘z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yerlarni, shuningdek Farg‘ona va Shosh viloyatlarini o‘z tasarrufiga oladi. Davlat mustaqilligi va muhofaza yo‘lidagi ichki va tashqi siyosatida asosan qo‘shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo‘shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi. Sohibqiron intizomli qo‘shin tuzishga, jang paytida qo‘shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo‘llashga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo‘shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur qo‘shiniga chorvadorlar qatori o‘troq aholidan ham askar to‘plangan.

Askariy qismlarni viloyatlardan to‘plash bilan tavochi mansabidagi amaldorlar shug‘ullanar edi. Qo‘shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Amir Temur qo‘shini son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o‘z zamonasining ilg‘or qurol va texnikasi bilan ta’minlangan, qismlar bir-biridan

kiyim-bosh, bayroq va tug‘lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo‘shinni boshqarishda qo‘l kelgan. Amir Temur qo‘shini o‘ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Lashkar tuman – o‘n minglik, hazora – minglik, qo‘shun – yuzlik va ayl – o‘nlik birikmalariga bo‘lingan. Amir Temur o‘n minglik askarni boshqarish uchun tuman og‘asi, minglik bo‘linmalar uchun mirihazora, yuzliklar uchun qo‘shunboshi va o‘nliklar uchun esa aylboshi kabi harbiy mansablarni ta’sis etadi [5].

Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo‘lib qo‘shinga o‘tsochar qurol – to‘pni olib kirgan. Tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo‘linmalar tashkil qilingan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron qo‘shinida ayollardan iborat bo‘linmalar bo‘lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko‘rsatgan.

Harbiy yurish paytida oldinda xabarchilar, ular orasidan yasovul bo‘linmasi, undan keyinroqda manglay – avangard qism borardi. Manglay bilan qo‘shinning asosiy qismlari oralig‘ida esa qo‘mondonning qarorgohi va uning yon-atrofida zaxira (rezerv) qismlar joylashgan bo‘lib, u “izofa” deb yuritilgan. Amir Temur qo‘shinining asosiy jangovar qismlari markaz, o‘ng – burong‘or va chap – juvong‘or qanotlaridan iborat bo‘lgan. Har bir qanotning oldida bittadan qo‘shimcha qo‘riqchi manglay – avangardi, yon tomonida esa bittadan qo‘riqchi askariy qo‘shilmalar – qanbullar bo‘lar edi. Shu tariqa qo‘shin yetti qism – qo‘llardan iborat edi. Sharafiddin Ali Yazdiy qo‘shinni yetti qo‘lga – qismga bo‘lib joylashtirish tartibini birinchi bo‘lib Amir Temur joriy qilgan deb yozadi. Bu qo‘llar janglarda mustaqil harakat qilib, faqat qo‘shin qo‘mondoniga bo‘ysungan.

Amir Temur jang qilishning yangi harbiy uslublarini qo‘llagan. Xususan, jang vaqtida qo‘shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va o‘z navbatida, g‘anim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – qunbulning joriy etilishi bo‘lgan.

Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo‘larlik sabab bor edi. Bu sabablar – o‘z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalanish, karvon yo‘llarini turli yo‘lto‘sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldamchilarni jazolash, bo‘ysunmaganlarni itoat ettirish, o‘zining siyosiy ta’sirini kengaytirishdan iborat bo‘lganligini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin. Amir Temur yordamida To‘xtamish Oltin O‘rda taxtini egallaydi.

Keyinchalik To‘xtamish xoinlik yo‘liga kiradi. U Amir Temurga qarshi ochiqdan ochiq kurashga o‘tadi. Natijada Amir Temur To‘xtamishga qarshi uch marta qo‘shin tortishga majbur bo‘ladi. So‘nggi shiddatli jang 1395-yilning 15-aprelida Shimoliy Kavkazda Tarak (Terek) daryosi bo‘yida sodir bo‘ldi. Jangda Amir Temur qo‘shini dushmanga qarshi otdan tushib, uni kamondan o‘qqa tutish

usulini qo‘lladi. O‘q va qilich zarbiga chiday olmagan To‘xtamish qo‘shinining safi buzilib, orqaga chekindi va tarqalib ketdi.

To‘xtamishxon sanoqligina askari bilan qochib changalzorga kirdi va ta’qib etib kelayotgan askarlardan bekindi. Rossiya tarixchilari B.D.Grekov va A.Y.Yakubovskiylarning ta’kidlashicha, Amir Temurning To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi faqat O‘rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek, Rus knyazliklarining birlashishlari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi. Amir Temur o‘z saltanatining janubiy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga uch marta askar tortadi. Bu yurishlar tarixda uch yillik, besh yillik va yetti yillik urushlar deb nom olgan. Amir Temur o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lib, moli omon to‘lagan shaharlarga tegmagan, qo‘shinlarni bunday shaharlarga kiritmagan. 1398–1399-yillarda Hindistonga yurish qiladi va Dehlini egallaydi. Keng ko‘lamli harbiy yurishlar natijasida Sohibqiron Amir Temur saltanatining chegarasi Usmonli turklar davlati chegarasiga borib taqaldi.

Amir Temur usmonli turklar sultoni Boyazid Yildirim bilan munosabatni yaxshilash tarafdori bo‘lgan. Boyazid qoraqo‘yunlar, muzaffariylar, jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakatlarini qo‘llab-quvvatlagan. Buning natijasida ikki davlat o‘rtasida to‘qnashuv bo‘lishi muqarrar bo‘lib qoldi. Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo‘shinlari o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida, Chubuq mavzeyida sodir bo‘ladi. Bu jang tarixda “Anqara jangi” deb ataladi. Uzoq davom etgan shiddatli jangda Sohibqiron kuchlari turk qo‘shinini tor-mor etadi. Sulton Boyazid asirga olinadi. Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g‘alaba bilan Amir Temurni Fransiya, Angliya hamda Kastiliya va Leon qirollari tabriklab, unga o‘z muboraknomalarini yuboradilar.

Chunki Sohibqiron endigina uyg‘onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi. Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgan Amir Temur 1404-yilning 27-noyabrida 200 ming qo‘shin bilan Samarqanddan Xitoyga qarshi yurishga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning to‘satdan vafot etib qolishi (1405-yil 18-fevral) tufayli amalga oshmay qoldi.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni aytish lozimki Amir Temur bobomiz harb san’atida ulkan taktika va strategiya yaratdi. Uning harbiy sohadagi faoliyatini butun dunyo mamlakatlari o‘rganishadi. Bugungi global taraqqiyot jarayonida Amir Temurning davlatni boshqarishdagi o‘gitlari va harbiy taktikasi ilmini yoshlarimizga o‘rgatish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan birga haqiqiy yurt himoyachilarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Amir Temur. Buyuk davlat arbobi va sarkarda. – Toshkent, 2023. – B. 39.
2. Abdulahad Muhammadjonov.Temur va Temuriylar saltanati. Qomuslar Bosh tahririyati, 1994. – B. 14.
3. Abdulahad Muhammadjonov. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq nashriyoti-Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2017. – B. 118.
4. Ahmedov Bo‘riboy. Amir Temurni yod etib. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – B. 36.
5. Bo‘riboy Ahmedov. Sohibqiron Temur. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996. – B. 16.

TURKISTON VILOYATLARIDA BOSH VAQF BOSHQARMASINING FAOLIYATI

Ergashev Suxrob Muxiddinovich,
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr 20-yillarida Maorif Xalq Komissarligi tarkibidagi Bosh vaqf boshqarmasining faoliyati to‘g‘risida fikr yuritilgan. Maktab, madrasa va boshqa maorif muassasalarining statistik ko‘rsatkichlar hamda moliyaviy boshqaruv mexanizmlari tahlili orqali ta’lim tizimining shakllanishi va transformatsiya jarayoni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston ASSR, Maorif Xalq Komissarligi, Bosh vaqf boshqarmasi, ta’lim tizimi, sovet maktablari, kutubxona, pedagogika texnikumi.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГЛАВНОГО ФАКУЛЬТЕТА ФОНДА В ОБЛАСТИ ТУРКИСТАНА

Эргашев Сухроб Мухиддинович,
Самаркандский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматривается деятельность Главного вакуфного управления Народного Комиссариата Просвещения в 1920-е годы. Процесс формирования и трансформации системы образования раскрывается посредством анализа статистических показателей и механизмов финансового управления школами, медресе и другими учебными заведениями.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, Народный Комиссариат Просвещения, Главное вакуфное управление, система образования, советские школы, библиотека, педагогическое училище.

ACTIVITIES OF THE MAIN FACULTY OF FOUNDATIONS IN THE REGIONS OF TURKISTAN

Ergashev Sukhrob Mukhiddinovich,

Samarkand State University

Abstract. This article examines the activities of the Main Waqf Directorate of the People's Commissariat of Education in the 1920s. The formation and transformation of the education system is explored through an analysis of statistical indicators and financial management mechanisms for schools, madrassas, and other educational institutions.

Keywords: Turkestan ASSR, People's Commissariat of Education, Main Waqf Directorate, education system, Soviet schools, library, teacher training college.

KIRISH. XX asrning 20-yillarida Turkiston ASSR hududida sovet hokimiyatining siyosiy hamda ma'muriy tuzilmalari shakllanayotgan bir davrda ta'lim tizimi maorif sohasining eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida tubdan qayta qurildi. Bu jarayonda vaqf mablag‘larini davlat tasarrufiga o‘tkazish hamda ularni sovet ta'lim muassasalari ehtiyojlari uchun safarbar etish asosiy choralardan biri bo‘lgan [2]. Vaqf mulklari davlat nazoratiga olinib, ulardan tushgan mablag‘lar sovet mehnat maktablari tarmog‘ini moliyaviy ta'minlashga yo‘naltirilgan. 1923-yilda Turkistonning Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari misolida tuzilgan hujjat Maorif Xalq Komissarligi huzuridagi Bosh vaqf boshqarmasi tomonidan vaqf mablag‘lari asosida faoliyat ko‘rsatgan ta'lim muassasalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni jamlagan muhim rasmiy manba hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida arxiv manbasiga yondashilgan bo‘lib, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillariga mos tizimli, obyektiv, qiyosiy va statistik tahlil, muammoviy-xronologik va tanqidiy yondashuv nazariy-uslubiy tamoyillariga tayanildi.

ASOSIY QISM. 1920-yil 26-fevralda qabul qilingan Turkiston Ijroiya Komitetining №87-sonli "Vaqflarni boshqarish va nazorat qilish tartibi to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq, barcha vaqf ishlari Turkiston Respublikasi Maorif Xalq Komissarligi ixtiyoriga o‘tkazilgan [3. 30]. Mazkur qaror asosida Farg‘ona, Samarqand hamda Sirdaryo viloyatlarida viloyat Vaqf bo‘limlari tuzilib, ular viloyat Xalq Maorifi bo‘limlari tarkibida faoliyat olib borgan. Viloyat tumanlarida esa vaqf bo‘limi vakillari ish yuritgan.

Vaqf mulkini bevosita boshqarish maqsadida bo‘lim boshlig‘i va uning yordamchisi ishchilar hamda maorif sohasi vakillari orasidan saylab qo‘yilgan. Viloyat darajasida vaqf bo‘limi boshlig‘i va uning o‘rinbosari musulmon bo‘lishi talab etilgan hamda ular Maorif Komissarligi huzuridagi Vaqf bo‘limi tomonidan tasdiqlangan. Bo‘lim boshlig‘i maxsus inventar daftarini yuritib, unda har bir vaqf mulki tegishli hujjatlar asosida batafsil qayd etilgan. Shuningdek, barcha hujjat va mulk ro‘yxatlari viloyat vaqf bo‘limiga topshirilgan. Har bir boshliq kirim va

chiqimlarni aks ettiruvchi alohida hisob kitob daftarini yuritib, bu jarayon mahalliy kommunal bo‘limlar tomonidan ham nazorat qilingan. Vaqf mulklari ochiq savdo yo‘li bilan ijaraga berilgan va bu haqda gazeta hamda bozor hududlarida e’lonlar joylashtirilgan [3. 30].

Vaqf mulklaridan olinadigan daromad Maorif Komissarligi qoshidagi Vaqf bo‘limi hisob raqamiga o‘tkazilgan hamda ushbu mablag‘lar o‘zbek, qirg‘iz va tatar Xalq maorifi institutlarining ehtiyojlarini qoplashga yo‘naltirilgan. Ijara bitimlari Vaqf bo‘limi rahbari, mahalliy jamoat bo‘limi boshlig‘i hamda ijarachilar tomonidan rasmiylashtirilib, imzolangan. Tuzilgan shartnomalar rahbarning maxsus ro‘yxat daftarida saqlangan. Hech bir rahbar vaqf mulkidan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish huquqiga ega bo‘lmagan. Har yilning 1-dekabr sanasigacha rahbar kelgusi yil uchun daromad va xarajatlar smetasini ishlab chiqib, viloyat xalq maorifi bo‘limiga taqdim etgan [3. 30]. Ushbu smeta keyinchalik Vaqf bo‘limiga yuborilgan. Smetaga kiritilmagan soha va yo‘nalishga mablag‘ sarflash qat’iyan man etilgan. Zarurat tug‘ilganda favqulodda xarajatlarni amalga oshirish uchun hududiy vaqf bo‘limi rahbari viloyat Vaqf bo‘limidan ruxsat olib, so‘ngra sarf-xarajatni tasdiqlovchi bayonnomalarni taqdim etgan. Har yil 1-fevralga qadar hududiy vaqf bo‘limi boshlig‘i o‘z faoliyati yuzasidan hisobotni viloyat bo‘limiga topshirgan. Ushbu hisobotlar tekshirilib, keyin Maorif Komissariatiga yuborilgan.

Viloyat vaqf bo‘limlari barcha vaqf mulki va ularning hujjatlari mavjud yoki yo‘qligidan qat’i nazar, nazorat ostiga olgan. Maxsus e’lonlar orqali hududlardagi mulk egalari tegishli ma’lumotlarni taqdim etishga chaqirilgan. Hujjatsiz aniqlangan mulklar esa batafsil ma’lumot bilan markaziy Vaqf bo‘limiga ma’lum qilingan. Yangi vasiyatnomalar asosida ajratilgan mulklar bo‘yicha hujjatlar mavjud bo‘lmasa, Vaqf bo‘limiga ariza topshirilgan. Maorif Xalq Komissarligi huzuridagi Vaqf bo‘limi hamda viloyat vaqf bo‘limlariga muntazam ravishda joylarda tekshiruvlar o‘tkazish vakolati berilgan[3. 30]. Viloyat vaqf bo‘limlari rahbarlardan olingan ma’lumotlarga tayanib, yil davomida amalga oshiriladigan ishlar rejasini tuzgan va uni Vaqf bo‘limiga taqdim etgan.

Ma’lumki, 1922-yil dekabrda Bosh vaqf boshqarmasi sovet muassasasi sifatida qayta tashkil etilib, 1923-yil 11-yanvardan vaqf mulki va ta’lim muassasalarini nazoratga olishga kirishgan. Vaqf tizimiga nisbatan diniy qarashga barham berish orqali xalq ommasi orasida ruhoniylarning ta’sirini yo‘q qilish va aholiga “ta’lim-tarbiya” berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Tashkilot omma orasida diniy qarashning kuchliligi zamirida, 2 yil davomida ruhoniylar va vaqf o‘rtasidagi aloqaga bosqichma-bosqich barham berish uchun kurashishiga to‘g‘ri kelgan [4].

NATIJA VA MUHOKAMALAR. “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida vaqf mulklarini mahalliy xo‘jalik mulklari bilan birlashtirish to‘g‘risida Bosh vaqf

boshqarmasi faoliyatiga oid ayrim munosabatlar bildirilgan. Bu masala yuzasidan Bosh vaqf idorasi tomonidan tayyorlangan dastur loyihasi ko‘rib chiqilib, Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Sho‘rosiga tasdiqlash uchun taqdim etilgan. Masalaning mohiyati shundan iboratki, vaqf mulklari mahalliy xo‘jalik mulklari bilan bir qatorda bo‘lishiga qaramay, ulardan foydalanish usullari bir-biriga mos kelmagan hamda bir xo‘jalik ustidan ikki idoraning nazorat qilishi iqtisodiy jihatdan zararli hisoblanishi yozilgan. Shu sababli Xalq Komissarlari Sho‘rosi 28-sentyabrdagi majlisida, vaqf mulklaridan tushadigan daromad hisobiga yashab kelayotgan madaniy-maorif muassasalarini mahalliy xo‘jalik ta’minotiga o‘tkazish sharti bilan, vaqf mulklarini bosqichma-bosqich mahalliy xo‘jalik idoralari tasarrufiga berishni maqsadga muvofiq deb topgani keltirilgan. Tabiiyki, bu masalada manfaatdor bo‘lgan Maorif Komissarligi o‘zining vaqf bo‘limlarini yo‘qotish va mulklarni boshqa idoraga topshirishga qarshi chiqib, mazkur qarorni bekor qilishni so‘ragan [5. B.61].

1923-yilga oid Turkiston Maorif Xalq Komissarligi hisobotida sovet hokimiyatining ta’lim sohasini markazlashtirish hamda uni dunyoviy asosga o‘tkazish siyosati yaqqol namoyon bo‘ladi. Unda davlat va mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan faoliyat olib borgan maktablar ro‘yxatga olinib, ularning moliyaviy ta’minoti vaqf mablag‘lari asosiga o‘tkazilgani ta’kidlangan [2]. Bu esa diniy-moliyaviy resurslarni davlat manfaatlariga bo‘ysundirishga qaratilgan sovet boshqaruv strategiyasini ifodalaydi. Hisobotda Sirdaryo viloyatining Eski Toshkent hududida joylashgan 25 ta 1-bosqich maktabida 3000 nafar o‘quvchi va 114 nafar o‘qituvchi faoliyat yuritgani qayd etilgan. Mazkur ko‘rsatkichlarga ko‘ra, har bir maktabga o‘rtacha 120 nafardan o‘quvchi, har bir o‘qituvchiga esa 26-27 nafardan o‘quvchi to‘g‘ri kelgan. Bu raqamlar ta’lim sifati, o‘quv yuklamasi hamda pedagog kadrlar bilan ta’minlanish darajasini tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, xotin-qizlar internati, uch yillik pedagogik kurs va pedagogika texnikumlarining faoliyati kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan [2].

1923-yilda Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida vaqf mablag‘lari hisobidan 5 ta 1-bosqich maktab faoliyat ko‘rsatgan. Bu ta’lim muassasalardan 1 tasi namunaviy maktab sifatida e’tirof etilgan. Samarqand, Xo‘jand, Qo‘qon va Toshkent shaharlarida qisqa muddatli o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslarining tashkil etilishi sovet mehnat maktablari uchun kadrlar tanqisligini bartaraf etishga qaratilgan choralarni aks ettiradi. 250 nafar tinglovchining ushbu kurslarga jalb etilgani mazkur jarayonning muayyan miqyosda amalga oshirilganini tasdiqlaydi [2]. Avvalgi davr statistik ma’lumotlariga qaraganda, Turkiston o‘lkasidagi qariyb 350 ta madrasasida 9 mingga yaqin talaba, 5600 atrofidagi maktabida 70 ming nafarga yaqin o‘quvchi ta’lim olgan. 1923-yilga kelib uch viloyatda 300 ta

madrasa va 3000 ta eski usul maktabi bo‘lgani taxmin etilgan. Bu yerda taxminiy iboraning ishlatilishi ma’lumotlarning aniq emasligini bildiradi. Bu esa sovet hokimiyatining dastlabki yillarida an’anaviy ta’lim muassasalarining aniq ro‘yxatga olmaganini ko‘rsatadi.

Keltirilgan ma’lumotlarda viloyatlar kesimida aniq raqamlar, qayta tashkil etilgan ta’lim muassasalari soni keltirib, “haqiqatda o‘qiyotgan” o‘quvchilar alohida ajratib ko‘rsatilgan. Ayniqsa, “haqiqatda o‘qiyotgan” degan ifoda statistik aniqlikka intilish mavjudligini anglatadi. Masalan, Sirdaryoda ro‘yxatdagi 375 nafar madrasa o‘quvchisidan 193 nafari amalda tahsil olgani, Samarqandda 500 nafardan 400 nafari, Farg‘onada esa 420 nafardan 400 nafari real ravishda o‘qigani qayd etilgan. Bu raqamlar rasmiy ro‘yxat bilan amaldagi qatnashuv o‘rtasida tafovut borligini ko‘rsatadi. Shuningdek, hisobotda ayrim ichki mantiqiy nomuvofiqliklar ham uchraydi. Masalan, Sirdaryoda 550 nafar maktab o‘quvchisining “haqiqatda o‘qiyotgani” ham aynan 550 nafar deb berilgan, bu esa ma’lumotlarning qayta tekshirilishini talab qiladi. Bundan tashqari, “taxminan 300 madrasa va 3000 eski usul maktabi” degan jumla aniq hisob-kitoblarga emas, balki umumiy bahoga asoslanganini ko‘rsatadi. Bunday holat manbani tanqidiy yondashuv asosida tahlil qilish zarurligini anglatadi. Uch viloyat bo‘yicha jami 159 ta madrasa va 186 ta maktab faoliyat ko‘rsatgani, shuningdek, 18 ta madrasa hamda 22 ta maktab qayta tashkil etilgan [2].

Mazkur ko‘rsatkichlar qayta tashkil etish jarayonining umumiy ta’lim muassasalari soniga nisbatan ulushini aniqlash imkonini beradi. Hisob-kitoblarga asosida madrasalarning qariyb 11 foizi, maktablarning esa 12 foizi isloh qilinib, yangicha shaklga o‘tkazilgan. Bu esa ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar bir zumda emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshirilganini ko‘rsatadi.

XX asr boshlariga oid ma’lumotlarda madrasa, maktab, birinchi bosqich sovet maktablari, texnikumlar, o‘qituvchilar kurslari va kutubxonalar kabi ta’lim muassasalari qayd etilgan. 1923-yil fevral-iyun oylarida Turkistonning Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari bo‘yicha jami 212 ta madrasa ro‘yxatga olinib, shundan 14 tasi qayta tashkil etilgan. Bu holat o‘rta asrlardan meros bo‘lib kelgan diniy-konfessional ta’lim tizimi mazkur davrda yangilanib, davlat nazoratiga o‘tkazila boshlaganini anglatadi. Madrasalarda 845 nafar o‘quvchi va 108 nafar xodim faoliyat yuritgan. Umumiy darslar soni esa 3960 tani tashkil etgan [1]. Ushbu raqamlar madrasalarda o‘quvchilar soni nisbatan kam bo‘lsa-da, darslar hajmi katta bo‘lgani bilan ajralib turadi.

Uch viloyat kesimida 181 ta maktabdan 42 tasi qayta tashkil etilgan. Bu maktablarda jami 2530 nafar o‘quvchi, 124 nafar xodim faoliyat ko‘rsatgan va 7936 soatlik dars o‘tilgan. Mazkur ko‘rsatkichlar maktablarda o‘quvchilar soni madrasalarga nisbatan ko‘proq bo‘lganini hamda ta’lim jarayoni nisbatan standart-

lashganini anglatadi. 1923-yil fevral-iyun oylariga oid hisobotda Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida 1-bosqich sovet maktablari alohida ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, umumiy o‘quvchilar soni 3710 nafar, darslar soni esa 5232 ta ekani qayd etilgan [1]. Bu ma’lumotlar sovet ta’lim tizimining keng qamrovli va markazlashgan xarakter kasb eta boshlaganini tasdiqlaydi hamda davlat siyosati bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Texnikumlar o‘rta ta’lim muassasasi sifatida qayd etilib, 1 ta texnikum va 540 ta qayta tashkil etilgan ta’lim muassasasi haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchi va xodimlar soni ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, 12 ta dars mavjudligi qayd etilgan. Bu raqamlar texnikumlar rivojlanish bosqichida bo‘lganini hamda ularning asosiy vazifasi kasb-hunar yo‘nalishida mutaxassis tayyorlashdan iborat bo‘lganini anglatadi. Shuningdek, hisobotda 3 ta o‘qituvchilar kursi va 720 ta qayta tashkil etilgan muassasa haqida ma’lumot berilib, 11 ta umumiy dars qayd etilgan. O‘quvchi va xodimlar soni ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, bu kurslar ta’lim tizimini sovetlashtirish va pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga xizmat qilganini ko‘rsatadi. Bu pedagogik salohiyatni qayta shakllantirish yo‘lida olib borilgan islohotlarning bir qismi bo‘lgan. Mazkur davr Turkistonda 1 ta kutubxona va uning 15872 nusxa kitob fondi mavjudligi qayd etilgan [1]. Bug‘alter-inspektor vazifasida ishlagan Maminning Bosh vaqf boshqarmasiga taqdim etgan hujjatiga Eski shahar hududida joylashgan “Turon” markaziy kutubxonasining fondida jami 15872 nusxa kitob mavjud bo‘lgani keltirilgan. Kitoblar til jihatidan ikki asosiy guruhga-8657 tasi mahalliy-turkiy tilda, 5215 tasi esa rus tilida yozilgan [1]. Bu ko‘rsatkich kutubxonachilik sohasida ilmiy va o‘quv manbalarini jamlash hamda ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratilganini bildiradi. Kutubxona haqidagi ma’lumotlar ham tarixiy tadqiqotlar uchun ishonchli hujjat sifatida muhim ahamiyatga ega.

1924–1925-yillarga oid O‘zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarlari Bosh vaqf boshqarmasi faoliyati materiallarida “Vaqf fondlari to‘g‘risidagi Nizom” alohida e’tibor talab etadi. Nizomda turli shahar va viloyatlarda maxsus hisob raqamlari ochilishi belgilangan. Bu tartib asosida vaqf mablag‘larini mahalliy diniy jamoalar tasarrufidan chiqarish, ularni davlat moliya tizimiga (finkassalar orqali) biriktirish va Bosh vaqf boshqarmasi orqali markaziy nazoratni kuchaytirishni maqsad qilgani kuzatiladi. Hujjatda vaqf mablag‘larini hisobga olish va ulardan madaniy-ma’rifiy maqsadlarda “oqilona foydalanish” maqsadida Xalq Komissarlari Soveti qarori qayd etilgan. “Oqilona foydalanish” zamirida sovet hukumati diniy mulkni “xalq manfaatlari” yo‘lida qayta taqsimlash harakatini asoslash uchun ishlatgani kuzatiladi. Shuningdek, vaqfning diniy-avtonom tabiatini yo‘qotib, davlatning ma’rifiy-siyosiy apparatiga xizmat qildirish nazarga tutilgan. Nizomda finkassalarda yangi va eski Toshkent shahri, Qo‘qon shahri, Andijon,

Namangan, Marg‘ilon, Samarqand, Xo‘jand, Katta Qo‘rg‘on, Xiva, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon viloyatlarida Bosh vaqf boshqarmasi va uning joylardagi organlarining “Bosh vaqf boshqarmasining maxsus jamg‘armalari” nomi ostida maxsus hisob raqami tashkil etish vazifasi qo‘yilgan [4. 30]. Maxsus tashkil etilgan mablag‘lar sovetlashgan vaqf maktablari va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalar, markaziy va mahalliy apparatlar, nashriyot maqsadlar va vaqf mulkini saqlash hamda obodonlashtirishga, madaniy-ma’rifiy va boshqa madaniy-ma’rifiy va jamoat-davlat maqsadlarida yangi binolar qurishga sarflanishi belgilangan. Manba rasmiy hujjat bo‘lgani sababli unda sovet hokimiyati pozitsiyasi aks etgan. Hujjatda vaqf egalari yoki diniy jamoalarning munosabati ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, unda sovet boshqaruv tizimining mafkuraviy maqsadini oqlashga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin.

Qayta tashkil etilgan maktab va madrasalarda yangi uslubdagi fanlar bilan bir qatorda diniy fanlar ham o‘qitilgan. Biroq bu yilga kelib Toshkentning eski shahridagi barcha maktablar to‘liq ravishda sovet o‘quv dasturi asosiga o‘tkazilgan. Bu esa ta’lim tizimining izchil ravishda sovetlashtirilganini ko‘rsatadi.

Ushbu hisobot rasmiy-idoraviy hujjat bo‘lib, birlamchi arxiv manbasi sifatida yuqori ilmiy qiymatga ega. Uning muhim jihatlari–aniq sanaga (1923-yil) egaligi, vakolatli davlat organi tomonidan tuzilgani hamda maxsus so‘rov asosida tayyorlangani bilan belgilanadi. Statistik ko‘rsatkichlarning (maktablar, o‘quvchilar, o‘qituvchilar soni) batafsil va aniq keltirilishi manbaning empirik ahamiyatini yanada oshiradi. Tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanish orqali mazkur ma’lumotlarni boshqa hududlar yoki keyingi yillar statistikasi bilan taqqoslash mumkin. Bu esa sovet ta’lim siyosatining rivojlanish dinamikasi va bosqichlarini aniqlashga yordam beradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytgan-da, Bosh vaqf boshqarmasi hisobotlari Turkiston ASSR maorifining shakllanish jarayonini tadqiq etishda muhim birlamchi manba vazifasini bajaradi. Mazkur hujjat sovet ta’lim siyosatining hududlarda qanday amalga oshirilgani, moliyaviy transformatsiya mexanizmlari hamda pedagog kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishini yoritishda mustahkam empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning-dek, sovet hokimiyati vaqf mulklarini bosqichma-bosqich davlat va mahalliy xo‘jalik idoralari tasarrufiga o‘tkazish orqali ularni markazlashtirishga intilgan. Vaqf mablag‘larini alohida hisob raqamlariga jamlash, ularni “madaniy-ma’rifiy maqsadlarda oqilona foydalanish” shiori ostida qayta taqsimlashi diniy mulkning avtonom tabiatini cheklab, uni davlat nazoratiga bo‘ysundirishni ko‘zlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘z.MA. fond R-34. ro‘yxat-1, ish-2318. 1924 yil. 204-varaq.

2. O‘z.MA. fond R-34. ro‘yxat-1 ish-1758. 243-л.

3. O‘z.MA. Fond R-34, ro‘yxat-1, ish-453, 1920 г 42 varaq.

4. O‘z.MA. Fond R-34. ro‘yxat-1 ish-2762.

5. Maorif va o‘qitg‘uvchi jurnali. Maorif komissarligi kollegiyasida. 1927-y. №3-4-son.

JADIDLAR VA ULARNING FAOLIYATI TARIXIDAN

Hazratova Zebiniso Jahongir qizi,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi. Jadidchilikning shakllanishiga mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy qoloqlik va ma’naviy tanazzul sabab bo‘lgani, shuningdek Ismoil Gasprinskiy, Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat kabi ziyolilarning ma’rifat, yangi usul maktablari, milliy matbuot va islomni yangilash yo‘lidagi faoliyati ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada jadidlarning ozodlik, islohotlar, milliy uyg‘onish va Turkistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi uchun olib borgan kurashi qisqa tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, Turkiston, Ismoilbek Gasprinskiy, usuli jadid, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, mustamlakachilik, Chor Rossiyasi, yangi usul maktablari, milliy matbuot.

ИЗ ИСТОРИИ ДЖАДИДОВ И ИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Хазратова Зебинисо Джахонгир кизи,
Каршинского государственного университет

Аннотация: В статье освещается влияние джадидского движения, возникшего в конце XIX — начале XX века, на общественную, политическую и экономическую жизнь Туркестана. Показано, что формирование джадидизма было обусловлено колониальной политикой, экономической отсталостью и духовным упадком. Рассматривается также деятельность таких представителей интеллигенции, как Исмаил Гаспринский, Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркары и Абдурауф Фитрат, направленная на развитие просвещения, открытие новометодных школ, становление национальной печати и обновление ислама. В статье кратко анализируется борьба джадидов за свободу, проведение реформ, национальное возрождение, а также политическую и экономическую независимость Туркестана.

Ключевые слова: Джадидизм, просветительское движение, Туркестан, Исмаил Гаспринский, новометодные школы, Мунавваркари

Абдурашидханов, Махмудходжа Бехбудий, колониализм, Царская Россия, новые школы, национальная пресса.

FROM THE HISTORY OF THE JADIDS AND THEIR ACTIVITIES

Hazratova Zebiniso Jahongir kizi,
Karshi state university

Abstract: The article examines the influence of the Jadid movement, which emerged in the late nineteenth and early twentieth centuries, on the social, political, and economic life of Turkestan. It demonstrates that the emergence of Jadidism was driven by colonial policy, economic backwardness, and spiritual decline. The article also discusses the activities of such prominent intellectuals as Ismail Gasprinsky, Mahmudkhodja Behbudi, Munawwar Qari, and Abdurauf Fitrat, aimed at promoting education, establishing new-method schools, developing the national press, and reforming Islam. It briefly analyzes the Jadids' struggle for freedom, reform, national revival, and the political and economic independence of Turkestan.

Keywords: Jadidism, enlightenment movement,Turkestan,Ismail Gasprinski, new-method schools, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Mahmudkhodja Behbudi,colonialism, Tsarist Russia, modern schools, national press.

KIRISH. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng jadidchilik harakatining merosi va ahamiyatiga alohida e’tibor qaratila boshlandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalqimiz tarixida eng muhim siyosiy voqealardan biri bu ma’rifatparvarlik ya’ni jadidchilik harakatining vujudga kelishidir. Jadidchilik jahon ijtimoiy va milliy qadriyatlariga asoslangan oqim bo‘lib, O‘rta Osiyo mahalliy tub aholisi manfaatlariga javob bergan va ijtimoiy taraqqiyotning pishib yetilgan ehtiyojlarini to‘la qondira oladigan harakat sifatida shakllandi. Jadidchilik ma’rifatparvarlikdan kuchli siyosiy harakatgacha bo‘lgan murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Jadidchilik o‘z tarixida ikki bosqichni o‘tgan. Birinchisi-ma’rifatparvarlik bosqichi va ikkinchisi-siyosiy bosqich. Lekin jadidlarning davlatchilik masalasiga qarashlari birinchi davridayoq shakllana boshlagan va ikkinchi bosqichida aniq bir shaklga kelgan.

Ikki yoqlama mustamlakachilik va mahalliy zulm ostida ezilib kelgan xalq ommasining og‘ir iqtisodiy ahvoli, Turkiston, Buxoro va Xiva xonliklarining jahonning iqtisodiy va taraqqiy etgan mamlakatlaridan anchagina orqada qolib ketganligi, madaniy tanazzul hamda erkin fikrning qotib rivoji topmayotganligi kabi holatlar jadidlarni ijtimoiy taraqqiyot choralarini izlab topishga undadi. Jadid arabcha so‘zdan olingan bo‘lib “yangi” degan ma’noni anglatadi [1].

Turkiy xalqlarning madaniy taraqqiyotiga shunday katta va bebaho hissa qo‘shgan siymolardan biri Ismoilbek Gasprinskiydir. Ismoil Gasprinskiy yashagan XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qrim bilan Turkistonni o‘zaro bog‘lovchi nafaqat havo yo‘li, balki temir yo‘l ham bo‘lmagan. Shunday murakkabliklarga qaramay Ismoil Gasprinskiy asos solgan “Tarjimon” gazetasi u ishlab chiqqan “usuli savtiya” maktabi g‘oyasi XIX asrning o‘rtalarida minglab kilometr yo‘lni bosib Turkistonga ham kirib keldi. Ismoil Gasprinskiy nomi Turkiston hududlariga yashovchi xalqlar, ayniqsa, shu xalqlarning Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy singari ziyolilari uchun aziz va qadrdon bo‘lib qoldi. Jadidlar davlat tuzum boshqaruvni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali umuman jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan va siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda o‘zlarining ilg‘or g‘oyalarini ishlab chiqqan edilar [2].

Turkistonda jadidchilik harakatining rahbarlari sanalgan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov birlashtiruvchi va jipslashtiruvchi rolni o‘ynashgan. Buxoroda — Fayzulla Xo‘jayev va Abdurauf Fitrat, Xiva xonligida esa — Polvonniyoz Yusupov bu harakatga boshchilik qilishgan [1].

ASOSIY QISM. Jadidlar siyosiy faoliyatining negizi mustaqillik va ozodlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi. Bu g‘oyalar avvalambor XIX-asrning 50-70 yillarida o‘zbek xalqining Rossiya tajovuziga qarshi janglarida o‘z ifodasini topgan edi [3]. 1917-yilda fevral oyida Rossiyada sodir bo‘lgan demokratik inqilobiga qadar taraqqiyparvarlar oqimini tashkil qilgan Turkiston jadidlarining keskin harakat qiluvchi qismi bir qator keng siyosiy talablarni ilgari surdi. Bu talablar orasida mahalliy tub aholi huquqlarini kengaytirilishini ko‘zda tutgan holda o‘lkani idora etishni tubdan isloh qilish turkistonliklarga muayyan miqdorda davlat dumasidan o‘rin ajratish, asosiy demokratik erkinliklarini ta’min etish va eng avvalo milliy matbuot erkinligiga erishish chor yakka hokimligi tuzumini konstitutsiyaviy idora etish tuzumi bilan almashtirish kabi talablar o‘rin olgan edi [1].

Jadidlar ijtimoiy sohada asosiy e’tiborini Islom dinini modernizatsiyalash, qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan texnika yutuqlarini egallashga qaratgan. Jadidlar xalqaro maydonda Rossiya, Turkiya, Misr, Eron jadidlarining dasturlari bilan tanishib ulardan milliy madaniyatga mos keladigan zarur o‘rinlarini oldilar.

Chor Rossiyasi Turkiston o‘lkasini, nafaqat siyosiy, ijtimoiy jihatdan balki iqtisodiy sohasini ham egallashga harakat qilgan. Turkiston zamini Rossiyadan keltirilgan tayyor sanoat mollari bilan to‘ldirilib, rus hukumati va firmalari undan ham mo‘may daromadlarni qo‘lga kiritdilar. Rus davlati yarim asrlik vaqt ichida mahalliy xalqlarning boyliklarini o‘zlashtirishda hech narsadan toymaydi [3].

Ellik yildan beri, – deb yozgan edi Fitrat, – ezildik, tahqir etildik. Qo‘limiz bog‘landi. Tilimiz kesildi. Og‘zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi, molimiz talandi. Sharafimiz yemirildi, nomusimiz g‘asb etildi. Insoniyligimiz oyoq osti qilindi. Tuzimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa bo‘ysundik. Butun borlig‘imizni berdik [4]. Turkistonni Rossiyaning xomashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirish, ayovsiz talanishi va qashshoqlanishi jadidlarning ham, milliy burjuaziyaning ham nafratini uyg‘otdi. Bu holat, ularda ona yurtga iqtisodiy mustaqillikni tiklash g‘oyasi va kurashini shakllantirdi.

Mustamlakachilik siyosati o‘lkaning ma’naviy hayotiga ham zarba berdi. Chunonchi, u milliy tilni rivojlanishiga yo‘l bermay, rus tiliga davlat maqomini berdi. XX asr boshlarida bir nechta gazetalarni chiqarishga ruxsat berildi, lekin ular ko‘p umr ko‘rmay berkitilib yuborildi. Savodsizlikning hukm surishi orqasida gazetalar ma’lum bir tor doiraning ehtiyojini qondirar, xolos. Rus hukumati xalq maorifini rivojlantirishni xayoliga ham keltirmay, maktab va madrasalarni mablag‘ bilan ta’minlamaydi. Turkiston general-gubernatorligi byudjetining faqat bir foizigina maorifga ajratilgan. Uning 74 foizi rus maktablarini, 26 foizi rus-tuzem maktablarini ta’minlashga sarflandi. Rus hukumati maktab va madrasalarni o‘rta asr qoloqligida saqlashga harakat qilib, ularni qattiq nazorat ostida saqlab turgan edi [3].

XX asr boshlarida avj olib ketgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar mahalliy aholi ongida ham zulmga qarshi kurashish kerakligini, endi eskicha yashab bo‘lmasligini anglatgan edi. Bu davrda ma’rifatparvarlarning faoliyati yaqqol namoyon bo‘ldi. Yangi usul maktablarini tashkil etish jarayonlari, matbuotchilik faoliyati va xalqni o‘z mustaqilligi uchun kurashga undovchi maqolalar aholini ma’naviy ongini o‘stirishga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ularning asosiy g‘oyasi erk va ozodlik bo‘lib, bu maqsadga ma’rifat yo‘li bilan yetish mumkin deb hisoblaganlar. Chunki, zamonaviy qurol bilan jihozlangan Rossiya imperiyasining armiyasiga qarshi chiqish xalqni badnom etish bilan barobar ekanligini yaxshi tushunganlar.

1916-yil xalq qo‘zg‘oloni Turkiston o‘lkasida mustamlaka zulmga va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarining eng qudratlisi bo‘lib, u ommaviy ravishda butun o‘lkani larzaga keltirdi. Ana shunday og‘ir va fojiali damlarda xalq bilan birga bo‘lgan uning manfaatlarini himoya qilgan fidoyi kishilar orasida jadid taraqqiyparvarlari alohida ajralib turgan. Shu paytga qadar, xalqni ma’rifat orqali uyg‘otish, tarbiyalash, taraqqiyotga yetaklash maqsadida faol sa’y-harakatlar olib borgan jadidlar 1916-yil qo‘zg‘olon misolida xalq qudratini, uning irodasini va kurash layoqatini anglab yetish bilan birga, bu xalqni ozodlikka olib chiqish, hurriyatga erishish uchun kurashish zarurligini anglab yetdilar [5].

1916-yil Turkistonda imperatorning aholini mardikorlikka safarbar etishi turli toifa vakillari turli munosabat bildirgan. Bu borada ma’rifatparvarlarning

munosabati esa, ularning eng yirik vakillaridan biri, o‘zbeklardan yetishib chiqqan birinchi advokat Ubaydulla Asadullaxo‘jayev Qo‘qonda chiqarilgan “Туркестанский голос” gazetasining muharriri A.A.Chaykin va uning ukasi Vadim Chaykinlar bilan birgalikda Peterburgga borib, Rossiya Davlat Dumasi a’zolariga Turkistondagi qo‘zg‘olonlar, tub aholining boshiga tushgan azob-uqubatlarni ma’lum qilib, arz qilganlar.

Ubaydulla Asadullaxo‘jayevning Peterburgga borishini ta’minlash uchun turli shaharlardan mablag‘ to‘plangan. Toshkent shahrining bu ishni amalga oshirishda Munavvarqori Abdurashidxonov faol qatnashgan. Demak, Peterburgga borish masalasi jadidlar vakillarining ishtirokida tashkil etilgan deyishga asos bor. To‘plangan mablag‘ Ubaydulla Asadullaxo‘jayevning ukasiga berilgan. U pulni Peterburgga akasiga jo‘natgan. O‘lkada sodir bo‘layotgan voqealardan xabar topgan Duma a’zolari bu masalaga turlicha munosabatda bo‘lgan [5].

Turkiston jadidlarini birlashtirilishida “jadidlarning rahbari” deb tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo‘ldi. Jadidlar tarkibini yosh jihatdan tahlil qilish natijasida, jadidlarning Turkistonning bo‘lg‘usi davlat qurilishi dasturlarida, haqiqatdan ham, yoshlar dunyoqarashi aks etganligini ko‘ramiz. 1910-yilda jadidlar safini 13 yoshdan 36 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etgan. Jadidlarning rahbari Behbudiy o‘sha paytda 36 yoshda bo‘lsa, keyinchalik yoshlarning sevimli shoiriga aylangan Cho‘lpon 13 yoshda edi. Ularning hech birlari, siyosiy ta’qiblar tufayli keksalik yoshigacha yetib yashamaganlar [6]. Jadidlarning muhim vazifalaridan biri bu islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyani egallash muammolarini hal etish lozim edi. Biroq bu g‘oyalar, jadidlar islomning butun ta’limotini qayta yozishga intilganlar, degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

Qur’on va uning tafsirini juda yaxshi bilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolalarida birida Qur’on oyatlari va hadislardan namunalar keltirish bilan islom xalq ta’limi va barcha fanlarda, shu jumladan, tarix faniga qay darajada katta ahamiyat berganligini isbotlab bergan. U islom tarixini bilmasligini oqibatida, aksariyat hollarda, o‘ng‘aysiz vaziyatda tushib qoladigan din peshvolarini tanqid qiladi [7]. Jadidlar nafaqat Vatanga va milliy qadriyatlarga munosabati bilan, ayni paytda, umuminsoniy taraqqiyot yutuqlarini tushunishda ham tarixiy namuna bo‘lganlar. Behbudiy shunday degan edi: “Biz joriy etgan qonunlar yahudiylarning ham, nasroniylarni ham, musulmonlarning ham va umuman barchaning manfaatini himoya qilishi kerak. Agar biz Turkiston musulmonlari, birgalikda islohot o‘tkazishni istasak, bizning ziyolilar, ma’rifatparvarlar, boylar, ruhoniylar va olimlar millat va Vatan farovonligiga xizmat qilishlari kerak…Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi, avvalo, o‘zimizning noittifoqligimizdir!” [6].

Jadidlar til o‘rganish va fan-texnika taraqqiyotining ahamiyatiga alohida e’tibor berib, Turkistonning o‘tmishdagi hamda zamonaviy holatining o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda, uning kelajagini quyidagicha programmalashtirganlar: kuchli dunyoviy hokimiyat, xususiy mulkning daxlsizligi, bank kapitalining erkinligi tamoyillariga asoslangan ozod, mustaqil davlat qurish. Bu davlat islomga hurmatini saqlagan holda barcha yo‘nalishdagi madaniyatlarning erkin rivojlanishiga xayrixoh bo‘lishi lozim bo‘lgan. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko‘tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning yaxshi o‘quv maskanlarida o‘qitishni zarur deb hisoblaganlar.

Xullas, jadidchilik harakati Turkiston xalqlari tarixida milliy uyg‘onishning eng muhim bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ular nafaqat yangi usul maktablari orqali ta’lim tizimini yangiladi, balki milliy ong va tafakkurni shakllantirdi, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishga intilib, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon kabi buyuk ma’rifatparvarlar o‘z g‘oyalari, asarlari, ma’rifiy faoliyati va siyosiy kurashlari orqali xalqni ozodlik, taraqqiyot va adolat sari yetakladilar. Ularning ma’rifatparvarlik merosi bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Vatanimiz taraqqiyotida jadidlarning ilg‘or g‘oyalari — ilm-fanni ustuvor qo‘yish, Vatan, millat, jamiyat uchun doimiy harakatda bo‘lish, adolat va taraqqiyot sari olib borish-amaliy mazmunda davom etmoqda. Shu bois jadidlar merosi o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat tarixiy xotira emas, kelajak taraqqiyoti uchun ma’naviy tayanchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Агзамхўжаев С. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. – Т.: “Ислом университети” нашриёти, 2016. – Б.6.
2. Каримов Н. Исмоил Гаспиринский ва Туркистон. – Т.: “Шарқ” нашриёти, 2005. – Б.8.
3. Зиёев Х. Жадидчилик ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т.: “Университет”, 1999. – Б. 8.
4. Шарқ юлдузи журнали. 1992 йил 10-сони, – Б. 173.
5. Исмаилова Ж. Миллй озодлик ҳаракатлари ва маърифатпарварлар. – Т.: “Тошкент Ислом Университети” нашриёти, 2016. – Б. 21.
6. Алимова Д.А. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури. – Т.: “Университет”, 1999. – Б. 36.
7. Беҳбудий М. Тарих ва жўғрофия // Ойна. 1914. – Б. 502.

UDK:94(470-571)

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA TIBBIYOT SOHASI RIVOJI (AYRIM ILMIY-TADQIQOT INSTITUTLARI MISOLIDA)

Salomov Ismoil
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda tibbiyot sohasida amalga oshirilgan ishlar ba’zi ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyati misolida yoritib berilgan. Urush davri holatidan kelib chiqib tibbiyot yo‘nalishida respublikada joylashgan, shuningdek evakuatsiya qilingan ilmiy-tadqiqot institutlarida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, erishilgan ilmiy yutuqlar, amalga oshirilgan laboratoriya ishlari natijalari, mavjud muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy konferensiyalarning chaqirilishi haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari maqolada urush davrida yuzaga kelgan ba’zi tibbiy muammolarga mahalliy olimlar tomonidan taklif etilgan yechimlar haqida ham so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: urush, tibbiyot, ilmiy-tadqiqot institutlari, laboratoriya, ilmiy yutuq, ilmiy tahlil, ilmiy yechimlar, konferensiya, kasallik, dori vositalari

РАЗВИТИЕ МЕДИЦИНСКОЙ СФЕРЫ ВО ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (НА ПРИМЕРЕ НЕКОТОРЫХ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ИНСТИТУТОВ)

Саломов Исмоил
Каршинский государственный технический университет

Аннотация. В данной статье освещаются работы, осуществленные в сфере медицины в Узбекистане в годы Второй мировой войны, на примере деятельности некоторых научно-исследовательских институтов. С учетом условий военного времени в статье приводятся сведения о научно-исследовательской работе, проводившейся в республиканских, а также эвакуированных научно-исследовательских институтах медицинского профиля, о достигнутых научных успехах, результатах проведенных лабораторных работ, о созыве научных конференций, направленных на решение существующих проблем. Кроме того, в статье также рассказывается о решениях, предложенных местными учеными для некоторых медицинских проблем, возникших в военный период.

Ключевые слова: война, медицина, научно-исследовательские институты, лаборатория, научное достижение, научный анализ, научное решение, конференция, болезнь, лекарственные средства

DEVELOPMENT OF MEDICAL SPHERE DURING WORLD WAR II (ON THE EXAMPLE OF SOME SCIENTIFIC AND RESEARCH INSTITUTES)

Salomov Ismoil
Karshi State Technical University

Annotation. This article highlights the work carried out in the field of medicine in Uzbekistan during the Second World War, using the example of the activities of certain research institutes. Considering the conditions of wartime, the article provides information on the research conducted in local as well as evacuated medical research institutes of the Republic, the scientific achievements made, the results of laboratory work carried out, and the convening of scientific conferences aimed at solving existing problems. In addition, the article also discusses the solutions proposed by local scientists to some medical problems that arose during the war.

Keywords: war, medicine, research institutes, laboratories, scientific achievement, scientific analysis, scientific solutions, conference, disease, pharmaceuticals

KIRISH. Ikkinchi jahon urushi dunyo mamlakatlari hayotida halokatli urushlardan biri sifatida o‘chmas iz qoldirdi. Urush SSSR tarkibida mavjud bo‘lgan barcha respublikalar qatori O‘zbekistonga ham o‘z ta’siri o‘tkazdi. Urush sharoitida millionlab harbiy yaradorlar va tinch aholining tibbiy yordamga bo‘lgan ehtiyoji yangi, samarali davolash usullari, dorilar va sanitariya tizimlarini ishlab chiqishni talab qildi. Bu davrda ko‘rilgan tezkor choralar mamlakatda mavjud bo‘lgan tibbiyot sohasini saqlab qolishga, qolaversa uning ma’lum darajada rivojlanishiga ham xizmat qildi.

Urush davrida tibbiyot sohasida faoliyat yuritgan olimlar sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Toshkent farmasevtika institutining ilmiy xodimlari tomonidan mahalliy xomashyolardan 15 ta yangi dori preparatlarini ishlab chiqishga muvaffaq bo‘lindi, shuningdek, tibbiyot olimlari tomonidan tananing o‘q tekkan joylarini tez bitishiga doir eng yangi usullari, turli kasalliklarni davolash usullari, gazli gangrena, shok, sepsis singari og‘ir yaradorlik oqibatlarining oldini olish yo‘llari ham ishlab chiqildi, jarrohlik va neyrojarrohlik usullari takomillashtirildi, ta’sirchan dezinfeksiya vositalari izlab topildi [1].

ASOSIY QISM. Urush davrida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Veterinariya ilmiy-tadqiqot va tajriba stansiyasi (direktor A.P.Muserskaya boshchiligida) jamoasi atigi 5 nafar ilmiy xodimdan iborat edi. Stansiya 1942-yil davomida O‘zbekistonda chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab ilmiy ishlarini amalga oshirgan. Shuningdek, stansiyada prof. D.A.Suverkalov tomonidan qimmatli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Professor Suverkalov O‘zbekiston ipak sanoati ilmiy-tadqiqot instituti yordamida olib borilgan noyob tadqiqotning muallifi bo‘lib, o‘z tajribasida teri chiqindisidan pepton olishni

isbotladi. Tajribalar davomida olim teridan olingan pepton sifat jihatdan anchagina yaxshi ekanligi aniqladi. Bu paytgacha ushbu modda ko‘pincha ipak chiqindilaridan va go‘shtdan olingan bo‘lib, juda ham kamyob hisoblangan. Ushbu modda tibbiyotda va veterinariyada diagnostika maqsadida keng qo‘llanilgan. Sverkalov kashfiyoti bu soha rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Katta ahamiyatga ega bo‘lgan ishlardan yana biri Stalin mukofoti laureati, akademik V.P.Filatov rahbarligida stansiya ilmiy xodimi Tarasov tomonidan amalga oshirildi. Uning tajriba jarayonlari akademik Filatov tomonidan ishlab chiqilgan to‘qima terapiyasi usuliga asoslangan edi. Stansiya birinchi bo‘lib ushbu usulni veterinariya tibbiyotida qo‘lladi.

Shuningdek, stansiyada otlarda teri usti yaralari, toshmalar, kuyishlar, artrit kasalliklari uchun aloe barglari ekstrakti ta’siri bo‘yicha kuzatuvlar o‘tkazildi. Tajribalar davomida kasal otlarning terisi ostiga aloe ekstrakti yuborilganidan so‘ng, tiklanish jarayoni bir necha barobarga tezlashgani va hayvonlar qisqa vaqt ichida tuzalgani aniqlandi. O‘zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot va tajriba stansiyasining bu ilmiy yutug‘i respublikada chorvachilik rivojini ta’minlash bilan birga frontdagi va frontortidagi yarador otlarni tez fursatda davolash usullarini ham taqdim etdi [2].

O‘zbekiston Epidemiologiya va mikrobiologiya ilmiy-tadqiqot institutining ishlab chiqarish sektorida bakteritsid preparatlari ishlab chiqarildi. 1943-yilda institut front uchun bakterial preparatlarning asosiy yetkazib beruvchilaridan biriga aylandi. Ushbu institut ayrim turdagi mahsulotlarni (monovaksin, tetanoz zardobi va boshqalar) ishlab chiqarishni 5-6 barobarga oshirdi [3].

Samarqand choy qadoqlash fabrikasida olimlar choy kukunlaridan kofein olish usuli ishlab chiqildi. Shunga asosan urush davrida choy chiqindilaridan ko-fein ajratib olinadigan bo‘ldi. Anabazinlupinin aralashmasini ajratish usuli ishlab chiqilib, uning yordamida lupinat natriy (og‘riqni pasaytiradigan xususiyatiga ega bo‘lgan modda) olindi [4]. Bu front uchun qilingan eng katta yutuqlardan biri edi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. 1943-yil 15-16-oktyabr kunlari Toshkentda O‘zbekiston Sog‘liqni Saqlash Xalq Komissarligi tibbiyot kengashining birinchi plenumi bo‘lib o‘tdi. Plenum bezgakka qarshi kurash masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Sog‘liqni Saqlash Xalq Komissari N.A.Otabekov, O‘zbekistonda mavjud tibbiyot institutlarining professor-o‘qituvchilari, sog‘liqni saqlash bo‘limlari mudirlari, shifokorlar qatnashdilar. Yig‘ilishda professorlar N.Kornetov (Samarqand tibbiyot instituti), A.Asqarov (Toshkent tibbiyot instituti), A.Ivanov (Samarqand tibbiyot instituti), Kexcher (Tropik institut)larning ma’ruzalari tinglandi. Ma’ruzachilar bezgakka qarshi kurash bo‘yicha o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashish bilan birga bezgakka qarshi to‘g‘ri profilaktika ishlarini qanday amalga oshirish, zarur holatlarda

takroriy davolash choralarini ko‘rish usullari haqida to‘xtalib o‘tdilar. Bundan tashqari ular bezgakning klinik ko‘rinishlarining xilma-xilligi, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda tug‘ma bezgakning mavjud bo‘lishi haqida asosli ma’lumotlar keltirdilar. Ma’ruzachilar bezgakka qarshi kurashda akrixinni mushak ichiga yuborish usullarining ahamiyatini, ayniqsa kuzda, bezgakning tropik shakllari ko‘proq tarqalganda akrixin plazmotsidini davolashda qo‘llash zarurligini ta’kidladilar.

Shuningdek, Tibbiyot Kengashi plenumining a’zosi, professor R.S.Levi (Toshkent shifokorlar malakasini oshirish instituti) ilmiy yig‘ilishda bolalarda uchraydigan bezgakka qarshi davolashning eng maqbul usullarini ko‘rsatib berdi. U bezgakning surunkali shakli, ayniqsa yosh bolalarda kamqonlikka sabab bo‘lishini, bezgakning og‘ir shakllari bilan og‘rigan bolalarni majburiy kasalxonaga yotqizish kerakligi masalalariga to‘xtalib o‘tdi.

Yig‘ilish davomida professor L.Y.Shargorodskiy (Toshkent tibbiyot institu-ti) bezgak davridagi asab tizimining turli xil klinik ko‘rinishlari va bezgakning yashirin shakllari haqida chiqish qildi. Ilmiy kengash raisi, professor M.I.Sloniya (Toshkent tibbiyot instituti) butun boshli mamlakatda bezgakning oldini olish, klinik davolash usullarini tatbiq etishda O‘zbekistonning qimmatli tajribasi juda ham muvaffaqiyatli ekani, binobarin u tibbiyot muassasalarining bezgakka qarshi kurashdagi kelgusi faoliyati uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilishini ta’kidladi [5].

O‘zbekistonda urush davrida tibbiyot sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga O‘zbekiston Sog‘liqni Saqlash Xalq Komissarligi qoshidagi Ilmiy Tibbiyot Ken-gashi rahbarlik qildi. Moskva, Leningrad va boshqa shaharlardan evakuatsiya qilingan tibbiyot sohasining mashhur olimlari tadqiqotlarda foal ishtirok etdilar. Xususan, tibbiyot fanlari doktorlari M.I.Slonin, M.S.Nestrov, P.R.Arxangels-kiylar shular jumlasidandir. Sohada birgina 1943-yilda 153 ta ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi [6]. Ushbu ilmiy tadqiqotlarning natijalari bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etib borildi.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, respublika ilmiy-tadqiqot institutlarida bajarilgan tadqiqot ishlarining bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilishi ilmiy faoliyatning tezkor natijaga qaratilganligidan dalolat beradi. Bu esa nafaqat frontdagi yarador askarlar, balki respublika aholisining sog‘lig‘ini saqlashdagi muammolarini hal qilishga xizmat qildi.

Respublikadagi ilmiy-tadqiqot institutlari cheklangan resurslar sharoitida ham frontga yordam ko‘rsatishi, yarador askarlarni davolashi va mahalliy aholining sog‘lig‘ini saqlash muammolarini bir vaqtning o‘zida hal eta olishi, olimlarning o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi bu sohaning samarali

rivojlanishiga xizmat qildi. Bu davrda qo‘yilgan ilmiy-amaliy asoslar respublika tibbiyot sohasining mustaqil rivojlanishiga muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Salomov I. O‘zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davrida oliy ta’lim va fan (1941-1945). – Qarshi, 2025.

2. Алимова Д.А., Абдурасулов У.А. Академия наук в интеллектуальной истории Узбекистана. Монография. – Ташкент, 2012.

3. Правда Востока, 1943 г., 29 августа

4. Правда Востока, 1943 г., 20 октября.

5. Советская интеллигенция Узбекистана. КН.II. – Т.: Фан, 1979.

6. Шомуҳаммедов М., Дан З. Ташкентский университет-основоположник науки в Средней Азии. – Ташкент, 1980.

O‘ZBEKISTONDA IQTISODCHI KADRLAR VA ULARNI TAYYORLASH TARIXI (XX-ASRNING 20–60-YILLARI)

Isoqova M.R.

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sovet davrida O‘zbekiston hududida, xususan, iqtisodchi kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning asosiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU) faoliyati, uning iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Sovet davri, iqtisodchi kadrlar, oliy ta’lim, reja iqtisodiyoti, mutaxassis tayyorlash.

ИСТОРИЯ ПОДГОТОВКИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КАДРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ (20–60-е годы XX века)

Исакова М.Р.

Каршинский государственный университет

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ формирования и этапов развития системы подготовки экономических кадров на территории Узбекистана в советский период, а также раскрываются её основные особенности. Кроме того, на основе источников освещается деятельность Ташкентского государственного экономического университета (ТГЭУ), его роль и значение в подготовке специалистов-экономистов.

Ключевые слова: советский период, экономические кадры, высшее образование, плановая экономика, подготовка специалистов

HISTORY OF ECONOMIC PERSONNEL AND THEIR TRAINING IN UZBEKISTAN (20-60S OF THE XX CENTURY)

Isakova M.R.
Karshi State University

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the formation and development stages of the system for training economic specialists in Uzbekistan during the Soviet period, as well as its main characteristics. In addition, the activities of Tashkent State University of Economics (TSUE), its role and significance in training economic professionals, are examined based on historical and academic sources.

Keywords: Soviet period, economic specialists, higher education, planned economy, professional training.

KIRISH. Global konyuktura sharoitida raqobatbardoshlikning ortishi, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini barqaror rivojlantirishni ta’minlash maqsadida intellektual salohiyatni rivojlantirish va iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimi samaradorligini tubdan isloh qilish va modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Hozirgi global o‘zgarishlar va texnika-texnologiya davrida, har qanday davlatning bir maromda taraqqiy topib borishi yoki rivojlanishda oqsashi, inqirozga yuz tutishi insonning bilim darajasi va ma’naviyati muhim bo‘lgan zamonda mamlakatdagi ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi o‘ta muhim hisoblanadi. Xususan, dunyo miqyosida iqtisodiy ta’lim tizimining ravnaq topishi jamiyat rivojining drayveri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jamiyat rivojlanishining har qanday bosqichida iqtisodiyot ilmi va iqtisodchi kadrlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida cheklangan moddiy resurslardan unumli va natijaviy foydalangan holda jamiyat taraqqiyoti, insonlarning sifatli hayot kechirishini ta’minlashni faqatgina iqtisodiy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirgan iqtisodchi kadrlar bilan ta’minlash mumkin bo‘ladi. Mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish, iqtisodchi kadrlarga bo‘lgan talabning oshib borishi natijasida, iqtisodchi mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalariga ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qabul qilgan qaror va farmonlari, shuningdek uzoq yillik strategiyalarida ham ushbu masalaga doimo urg‘u berib kelmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan bo‘lib, unda iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta’minlay oladigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan iqtisodchi kadrlarni tayyorlash muhim vazifa sifatida e’tirof etiladi. Strategiyada oliy ta’lim tizimini xalqaro

standartlar asosida takomillashtirish, iqtisodiy ta’lim sifatini oshirish va mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar yetishtirish zarurligi alohida ta’kidlanadi [1].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi 1920–1991-yillar oralig‘ida, iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holatda iqtisodchi kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish, mustamlaka hukumatga xizmat qiladigan mutaxassislar bazasini yaratish va murakkab iqtisodiy holatni yaxshilash maqsadida, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faoliyatini tashkil etish va uning faoliyatini tarixiy manbalar asosida o‘rganishdan iborat.

ASOSIY QISM. 1917- yil fevral oyida Rossiya imperiyasida yuz bergan inqilobiy o‘zgarishlar natijasida Romanovlar sulolasining so‘nggi vakili Nikolay II (1894-1917) 15-mart kuni taxtdan voz kechadi. Shunday qilib, mazkur mustamlakachi o‘lkada imperiya ag‘darilib, respublika tuzumi o‘rnatildi. Albatta, bunday keskin o‘zgarishlar qaram o‘lkalarni ham chetlab o‘tmadi.

Turkiston o‘lkasi bo‘ylab har bir shahar, uyezd, volost va qishloqlarda amaldagi muvaqqat hukumat tomonidan eski boshqaruv idoralari tugatildi va ularning o‘rniga jamoat tashkilotlari ijroiya qo‘mitalari, ya’ni jamoat xavfsizligi deb nomlangan qo‘mitalar tashkil topa boshladi [2]. Ammo, yangi hukumat mustamlakalarda, xususan, Turkiston o‘lkasidagi siyosatni deyarli o‘zgartirmadi. Aksincha, qo‘yilgan talablar oshdi, siyosiy va iqtisodiy vaziyat keskinlashdi.

XX asr boshlarida Sovet Ittifoqida markazlashgan reja asosida iqtisodiyotni tartibga solish va Birinchi jahon urushi natijasida kelib chiqqan iqtisodiy muammolarni bartaraf etish, davlat oldida turgan asosiy vazifalardan biri edi va ushbu muammolar albatta mustamlakalardan kelayotgan xomashyo mahsulotlari bilan qoplandi. Xususan, o‘lkamizda katta e’tibor qishloq xo‘jaligiga, ayniqsa paxta yetishtirishga qaratildi. Mustamlakachi hukumat paxtachilikni kengaytirish bilan bir qatorda ushbu qimmatli xomashyoni qayta ishlash, ayniqsa paxta tozalash korxonalari sonini ko‘paytirish zarurligini juda yaxshi anglar edilar O‘sha yillarda ularning soni 414 taga yetdi. Natijada, Turkiston sanoat ishlab chiqarishining 85% ini paxtani qayta ishlash va chigitdan yog‘ olish tashkil etdi [3]. Sanoat ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi hamda qayta ishlash tarmoqlarining kengayishini obyektiv ravishda yuqori malakali iqtisodchi kadrlar tayyorlash zaruratini yuzaga keltirdi va bu jarayon davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qat’iy rejalashtirilgani sababli, iqtisodchi mutaxassislar ishlab chiqarish, moliya, statistika va boshqaruv sohalarida muhim rol o‘ynadi [4].

XX asr boshlarida mintaqa hududida iqtisodchi kadrlarni tayyorlash bo‘yicha uchta ta’lim muassasasi faoliyat yuritgan. Bu o‘quv yurtlari asosan savdo-sanoat firmalari va banklar uchun malakali mutaxassislar tayyorlab bergan. Rasman oliy maqomli iqtisodchilarni tayyorlash 1918-yil 12-may Turkiston davlat

universitetining tashkil etilishidan boshlangan. Bu universitet tarkibidagi jamiyatshunoslik va iqtisodiyot fakulteti Markaziy Osiyo va Qozog‘iston respublikalari uchun oliy ma’lumotli iqtisodchilarni muntazam ravishda tayyorlay boshlagan [5]. Bu o‘zgarishlar o‘sha davr siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tuzumi uchun juda katta o‘zgarish bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki mustamlakachi davlat uchun o‘z qaram respublikalarida oliy ta’lim muassasalarining ochilishi, ayniqsa, bu bilim yurtlarida iqtisodchi kadrlarning tayyorlana boshlashi juda katta qadam bo‘ldi. Mazkur davrning murakkab siyosiy va iqtisodiy sharoiti mamlakatda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan iqtisodchi, hisobchi hamda moliyachi mutaxassislarni qisqa muddatlarda, tizimli va maqsadli ravishda tayyorlash zaruratini keskin ravishda kun tartibiga quygandi. Shu maqsadda 1918-yilning o‘zida Turkiston xalq universitetida savdo sohasi mutaxassislari tayyorlashga mo‘ljallangan qisqa muddatli kurslar tashkil etildi[6]. Ammo bu qisqa muddatli kurslar katta natija olib kelmas edi, chunki , ular faqat boshlang‘ich bilimlarni berish bilan cheklanardi xolos.

Sovet davrida mamlakatimizning iqtisodiy va ma’naviy qaramligini, uning natijasida kelib chiqqan oqibatlarni bartaraf etish uchun XX-asrning 20-yillarda qabul qilingan yangi iqtisodiy siyosat, O‘zbekistonning ham iqtisodiyotida o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. O‘lkamizda sovet hokimiyatini mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida industriyalashtirish muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq bu siyosat ko‘zlangan natijani bermadi va batamom bekor qilindi. Oqibatda xususiy tadbirkorlik va erkin savdo faoliyati cheklandi [7]. Ta’lim tizimi qoloq, savodli ishchi kadrlar yetishmovchiligi mavjud o‘lkada, industriyalashtirish og‘ir kechdi. Islohotning dastlabki yillarida kichik suv elektrostansiyasi hamda qishloq xo‘jaligiga, paxtachilikka qaratilgan xomashyoni qayta ishlash korxonalari ishga tushirildi. Shu jumladan, Chirchiqdagi GESlar, Toshkent tikuvchilik, poyabzal, tamaki fabrikalari, Farg‘ona to‘qimachilik korxonasi, Samarqand va Marg‘ilondagi ipak yetishtirish fabrikalari faoliyat yuritdi [8]. Natijada iqtisodiy holatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun yetakchi iqtisodchi mutaxassislarga ehtiyoj ortib bordi. ayniqsa, 1920-yillarda fuqarolar urushidan keyingi iqtisodiy tanazzul, iqtisodiy boshqaruv kadrlarini tizimli tayyorlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi.

Turkiston mintaqasida oliy ta’lim tizimining yo‘lga qo‘yilishi va xalq xo‘jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlab berish ishida, eng muhimi yurtimizni savodxon o‘lkaga aylanishida 1920-yil 7-sentyabrda faoliyat ko‘rsata boshlagan Toshkent Davlat universiteti (1923-yilgacha Turkiston davlat universiteti, 1960-yilgacha O‘rta Osiyo Davlat universiteti nomi bilan atalgan) katta xizmat qildi. 1921-yilda 7 ta fakultetida 2053 ta talaba ta’lim ola boshladi. Universitetda 54 ta professor, 207 ta o‘qituvchi, 95 ta ilmiy xodim, ta ilmiy-texnik

xodim faoliyat olib bordi[9]. Bu ko‘rsatgichlar o‘sha davr uchun universitetning salohiyati yuqori bo‘lganini hamda ta’lim va ilmiy faoliyat izchil rivojlanib borganini ko‘rsatadi. 1924–1925-o‘quv yilida O‘rta Osiyo Davlat universiteti ishchi fakultetining (1939-yilgacha faoliyat ko‘rsatgan) ikki (kechki va kunduzgi) bo‘limida 25 ta millatga mansub 889 ta talaba tahsil olar edi. Talabalarning ko‘pchiligi ishchi va dehqon farzandlari edi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Kuzatuvlar natijasiga ko‘ra aytish mumkinki, o‘sha davrda iqtisodiy ta’limlar ko‘proq sanoat, moliya va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Respublikada doimiy ravishda iqtisodchi kadrlarga vujudga keladigan talab yildan yilga oshib borgan. 1924-yil Turkiston universiteti qoshida savdo sohasi mutaxassislari uchun tashkil etilgan qisqa muddatli kurslar asosida ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 1925-yilda Turkiston universitetining ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti ijtimoiy fanlar fakultetiga o‘zgartirilib, fakultet negizida mahalliy iqtisodiyot va huquq fakulteti tashkil etildi [10].

1929–1931-yillarda yuqori malakali kadrlar tajriba to‘plagan ayrim fakultetlar negizida xalq xo‘jaligining mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini to‘laroq qondirish maqsadida alohida oliy ta’lim muassasalari tashkil etildi. Toshkent-politexnika, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va irrigatsiya muhandislari, moliya-iqtisod (hozirgi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti), pedagogika institutlari, Samarqand-savdo instituti, Xo‘jandda qishloq xo‘jaligi va pedagogika institutlari tashkil etildi. Bundan tashqari, Universitet hisobidan O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda 15 ta oliy o‘quv yurti vujudga keldi. Turkiston davlat universitetida o‘sha yillarda 45 ta kafedra faoliyat ko‘rsatib, u 18 ta mutaxassislik bo‘yicha kadrlar tayyorlab bera boshladi[11].

1931-yil 15-fevralda hukumat qaroriga asosan Toshkentda iqtisodchi xodimlar tayyorlovchi rejaviy institut tashkil etilgan. Bir necha yil o‘tgach, bu oliy ta’lim muassasasi dastlab xalq xo‘jaligi instituti, keyinroq tijorat-koorperativ instituti deb nomlandi. Iqtisodchi kadrlarga o‘sha davr muhitidan kelib chiqqan holda talab ko‘lamini hisobga olib, 1931-yil 13-avgustda sobiq ittifoq xalq komissarlari Kengashi qaroriga asosan Turkiston davlat universitetining iqtisodiyot va jamiyatshunoslik fakultetlari bazasida O‘rta Osiyo moliya-iqtisodiyot instituti tashkil etildi. Natijada O‘rta Osiyo respublikalarining moliya-kredit tizimlari uchun malakali oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlab beruvchi Toshkent Moliya-iqtisodiyot instituti tashkil etildi.

Ushbu davr mamlakatimizda iqtisodchi xodimlar tayyorlashning birinchi bosqichi edi, 1931-yilning 1-sentyabrida institutda birinchi dars mashg‘ulotlari boshlandi. Bu tarixiy voqea O‘zbekistonda oliy ma’lumotli iqtisodchi kadrlar

tayyorlashda yangi istiqbolli marralarga yo‘l ochib berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

E’tiborlisi shunda ediki, institutga 1932-yilda 47 ta talaba qabul qilingan bo‘lsa, 1940-yilda esa bu ko‘rsatkich 240, 1942-yilda 205 nafarga yetdi va yil sayin bu ko‘rsatgichlar soni ortib bordi [12]. Ammo bu kadrlar mamlakatimiz rivojiga emas, balki mustamlakachi davlat foydasi uchun ishlashi zarur edi. Yurtimizda iqtisodchi kadrlar tayyorlash jarayoni sovet davrida bevosita hukmron mafkura va markazlashgan siyosiy tizim ta’siri ostida shakllandi. Mazkur davrda oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy ta’lim mazmuni va yo‘nalishlari Sovet Ittifoqining yagona reja asosidagi xo‘jalik yuritish tamoyillariga mos ravishda tashkil etildi. Natijada iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash jarayoni bozor mexanizmlarini emas, balki markazlashgan rejalashtirish, davlat mulkchiligi ustuvorligi hamda mafkuraviy yondashuvni asosiy mezon sifatida qabul qilgan tizimga bo‘ysundirildi.

Ikkinchi Jahon urushi yillarida yurtimiz sanoati birinchi o‘rinlarda urush manfaatlariga moslashtirilgan holda jadal rivojlandi, yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, 1942-yil 10-noyabrda VKP(b)MQ va SSSRxalq komissarlari Soveti “O‘zbekistonda beshta gidroelektr-stansiya qurush to‘g‘risida” qaror qabul qildi [13]. Bundan tashqari, neft-gaz, metallurgiya, ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiyot sohalari keng rivojlandi. Bir qator sanoat korxonalari, fabrikalar urush bo‘layotgan hududlardan ko‘chirib keltirildi. Bu jarayonlar fonida iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashga ham katta e’tibor qaratildi.

1947-yilda Toshkent Moliya-iqtisodiyot instituti qoshida yana ikkita fakultet – reja-iqtisodiyot va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda turli soha mutaxassislarini tayyorlab beruvchi kechki fakultet tashkil etildi. 1955-yilda moliya-iqtisod va kredit-iqtisod fakultetlari birlashtirilib, moliya-iqtisod fakultetiga aylantirildi. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda bilim olishga qiziqish kuchayganini hisobga olinib, sirtqi fakultet ham tashkil qilindi [12].

Bir so‘z bilan aytishimiz mumkinki, Toshkent davlat iqtisodiyot instituti Sovet davrida mintaqaning asosiy iqtisodchi kadrlar tayyorlab beradigan muassasaga aylandi. Institutda sanoat iqtisodiyoti, moliya va kredit, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyo-ti, buxgalteriya hisobi va boshqa shu kabi yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlan-gan. Institut bitiruvchilari O‘zbekiston SSR vazirliklari, reja qo‘mitalari va yirik xo‘jalik subyektlarida faoliyat yuritgan. Qolaversa, ushbu oliy o‘quv yurtining o‘sha davrdagi bitiruvchilari O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, mamlakat-imiz iqtisodiyotini, moliya va bank tizimini shakllantirishda katta xizmat qildi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, Sovet davrida iqtisodchi kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, oliy ta’lim

muassasalari bevosita markaziy rejalashtirish organlari ehtiyojlariga mos ravishda faoliyat yuritgan holda doimiy ravishda kadrlar yetishtirib bergan va bu ishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilganligi bejiz emas edi. Toshkent davlat iqtisodiyot instituti (bugungi kunda universitet) ushbu jarayonda yetakchi o'rin tutgan, hamda bugungi kunda ham mamlakatimiz rivoji yo'lida xizmat qilib kelmoqda. Jumladan, o'tgan davr mobaynida mazkur maskan o'ndan ortiq akademiklar, minglab fan doktorlari yetkazib berdi. Milliy iqtisodimizning turli sohalari uchun 200 mingdan ortiq oliy ma'lumotli kadrlar yetishtirdi. Universitet faoliyati O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan va hozirda ham iqtisodiy ta'lim tizimi shakllanishi uchun poydevor vazifasini bajarmoqda deyishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmoni https://lex.uz/ru/docs/-6600413.
2. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. (eng qadimgi davrdan bugungi kungacha) I jild. – T.: "Manaviyat", 2023. – B. 354.
3. Абдуллаев А. Советская система высшего образования. – М.: Наука, 1985.
4. 90 yillik (https://tsue.uz/media/boutministry/Catalog_Univesity.pdf).
5. https://tsue.uz/ru/university.
6. Шамсутдинов Р. Советская подслушивающая политика в Узбекистане и ее трагические последствия. – Т.: Шарк, 2001.
7. Шамсутдинов Р. Деревенская трагедия: коллективизация, кулаки, ссылка. – Ташкент: Восток, 2003.
8. Садыков С. Высшая школа – кузница подготовки кадров. – Тошкент, 1973, – С. 28-29.
9. https://tsue.uz/ru/university.
10. Садыков С. Высшая школа – кузница подготовки кадров. – Тошкент, 1973. – С. 32-33.
11. 90 yillik (https://tsue.uz/media/boutministry/Catalog_Univesity.pdf)
12. Usmonov Q., Sodiqova M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – T., 2005. – B. 211.
13. 90 yillik (https://tsue.uz/media/boutministry/Catalog_Univesity.pdf).

ORCID ID: 0009-0002-2954-1057

SO‘NGGI O‘RTA ASRLARDA CHIROQCHI BEKLIGI ETNIK JARAYONLAR TAVSIFI

Karimov Bahrom Djalolovich,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Annotatsiya.Ushbu maqolada so‘nggi o‘rta asrlarda Chiroqchi bekligi hududida yuz bergan etnik jarayonlar, aholining etnik tarkibi hamda turli qabila va elatlarning shakllanishi va o‘zaro ta’siri masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, hududda yashagan turkiy qabilalar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, migratsiya jarayonlari hamda mahalliy aholi bilan o‘zaro aloqalari tarixiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Chiroqchi bekligi, etnik jarayonlar, o‘zbek urug‘lari, saroy urug‘i, chuyut urug‘i, migratsiya jarayonlari, tarixiy-geografik hududlar, Qalqama daryosi, Zarafshon tog‘ tizmasi, Chiroqchi, etno-demografik jarayonlar.

ХАРАКТЕРИСТИКА ЭТНИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ЧИРАКЧИНСКОМ БЕКСТВЕ В ПЕРИОД ПОЗДНЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ

Каримов Бахром Джалолович
Университет информационных технологий и менеджмента

Аннотация. В статье анализируются этнические процессы, происходившие на территории Чиракчинского бекства в период позднего Средневековья, этнический состав населения, а также формирование и взаимодействие различных племён и народностей. На основе исторических источников освещаются тюркские племена, проживавшие на данной территории, их социально-экономическая жизнь, миграционные процессы и взаимоотношения с местным населением.

Ключевые слова: Чиракчинское бекство, этнические процессы, узбекские кланы, клан Сарай, клан Чуют, миграционные процессы, историко-географические регионы, река Калкама, Зарафшанский горный хребет, чирокчи, этнодемографические процессы.

DESCRIPTION OF ETHNIC PROCESSES IN THE CHIROQCHI PRINCE IN THE LATE MIDDLESEX

Karimov Bahrom Djalolovich
Information Technologies and Management

Annotation. This article analyzes the ethnic processes that occurred in the territory of the Chiroqchi principality in the late Middle Ages, the ethnic composition of the population, and the formation and interaction of various tribes

and peoples. Also, the Turkic tribes living in the region, their socio-economic life, migration processes, and interactions with the local population are covered based on historical sources.

Keywords: Chiroqchi principality, ethnic processes, Uzbek clans, Saray clan, Chuyut clan, migration processes, historical and geographical regions, Kal-kama River, Zarafshan mountain range, Chiroqchi, ethno-demographic processes.

KIRISH: Qashqadaryo vohasining eng yirik aholi maskani bo‘lgan Chiroqchi asosan tekislik-cho‘l va dasht yerlardan iborat. U shimoldan Samarqand viloyati, shimoli sharqdan Kitob tumani, sharqdan Shahrisabz, Yakkabog‘ tumanlari, janub va janubi-sharqdan Qamashi tumanlari bilan chegaradosh. Chiroqchi tumanining g‘arbiy va janubi-g‘arbiy qismlari Koson hamda Qarshi tumanlari bilan sarhadlangan. Chiroqchining shimol va shimoli-sharq qismida Zarafshon tog‘ tizmasi mavjud. Xuddi shu yerda Zarafshon tog‘idan oqib keluvchi suv shoxobchalaridan favqulodda tez va to‘lib oqib o‘tuvchi Qalqama daryolar tizimi joylashgan.

Buxoro amirligi davrida bugungi Chiroqchi tumanining deyarli katta qismi Chiroqchi bekligiga qarashli bo‘lib, faqatgina tumanning shimoli-sharqiy qismidagi Qalqama qishloqlar jamlamasi ushbu beklikka emas, qo‘shni Kitob bekligiga qarashli bo‘lgan.

Buxoro amirligiga oid XIX – XX asrlar yozma manbalarda aholi maskanlarining ko‘pchiligi Chiroqchi bekligining ma’muriy birliklari bo‘lmish Beglamish, Chiyal va Besh-chashma amlokliklariga qarashli bo‘lgan.

Yuqorida aytilganidek, Chiroqchi bekligidagi aholi maskanlarini bu tarzda qismlarga bo‘lib tahlil qilish shartli bo‘lib, negizida bir qator omillar yotadi. Birinchidan, aholi maskanlari geografik joylashuviga, ya’ni relyefi – dasht, qir-adir, tog‘ yonbag‘ri, daryo havzasida joylashganligi yoki aksincha xususiyatlariga ko‘ra Chiroqchi bekligidagi qishloqlar bir-biri bilan uzviy bog‘langanligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Chiroqchi qo‘rg‘oni va atroflari Qashqadaryo daryosining havzasida joylashib, aholisi nisbatan zich, dehqonchilikka mos hudud bo‘lsa, Beklamish – Qora-yantoq (Ko‘kdala) zonasi asosan dashtlik, Besh-chashma qir-adirlik bo‘lishi bilan birga birmuncha tog‘ yonbag‘rida joylashganligi, Chiyal esa asosan qir-adirlardan iborat bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Ikkinchidan esa Chiroqchi bekligidagi amlokliklar shartli bo‘lsa-da urug‘larga qarab taqsimlangandek ko‘rinadi. Masalan, Beglamish amlokligida asosan o‘zbeklarning “uz” urug‘i vakillari yashaydigan o‘nlab qishloqlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, Chiyal amlokligida “qutchi”lar, Beshchashma amlokligida “saroy”lar, Chiroqchi qo‘rg‘oni va atroflarida “chuyut” urug‘i vakillari istiqomat qilgan o‘nlab qishloqlardan tashkil topgan bo‘lgan. Shu bilan birga, beklikda katta ko‘pchilikni

saroy urug‘i vakillari tashkil etgan. Buni XIX – XX asrlarda beklik hududlarida bo‘lgan yevropalik, xususan, rus mualliflari yozib qoldirgan ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

ASOSIY QISM: Chiroqchi va unga shimoldan qo‘shni hududlardagi saroylar, ayniqsa, jomlik saroylar ayrim tadqiqotchilarga ko‘ra, XV asr oxirlari – XVI asr boshlarida Shayboniyxon qo‘shinlari bilan birga boshqa ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari kabi Dashti Qipchoqdan Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i, xususan, Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga kirib kelishgan.

Saroy urug‘i vakillari yashagan Chiroqchi bekligi amlokliklaridagi qishloqlar nomlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ulardan bir qismi etnotoponim sifatida u yoki bu darajada saqlanib qolganligi anglashiladi. Masalan, Nayman-saroy nomli 2 ta qishloq – Qoratepa va Qayirma amlokliklari tarkibida bo‘lgan. Shagarak etnotoponimi esa Beshchashma amlokida uchrab, bugungi kunda Ayritom deb ataladigan qishloqlar jamlamasida aholi maskanlaridan biri sifatida uchraydi.

Manbalarga ko‘ra Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi Sarig‘ul, O‘makay, Xonchorbog‘ qishloqlarida saroy urug‘i vakillari yashab, ular o‘z navbatida Chiroqchi bekligidan ko‘chib kelishgan. Xonchorbog‘ qishlog‘idagi saroylar quyidagi tarmoqlarga bo‘lingan: chummoq, chiloyoq (qirq-oyoq), chag‘arak, qarg‘oyoq, qo‘ng‘irot, mang‘it, jovli, shipirma, mirza-to‘p, g‘ozoyoq, taromish, diyor, xitoy kabilar Chiroqchi bekligidagi saroy urug‘ining bunchalik ko‘p tarmoq urug‘ va to‘plarga bo‘linishi so‘nggi o‘rta asrlarda Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy va etnik jarayonlar bilan bog‘liqdir.

Beklikda son jihatdan katta ko‘pchilikni tashkil etgan ushbu urug‘ tevarak-atrofidagi boshqa urug‘larni ham o‘z tarkibiga qo‘shib olgan bo‘lishi kerak. O‘zi mustaqil urug‘ yoki biror-bir yirik urug‘ tarkibida uchraydigan mang‘it, qo‘ng‘irot, xitoy, burqut, nayman, qipchoq urug‘larining Chiroqchi bekligi va unga qo‘shni hududlarda saroylarning bir tarmog‘i sifatida bilina boshlashi bu fikrga asos beradi. Eng ko‘p qishloqlarga ega Beshchashma amlokligiga janub va janubi-g‘arbdan qo‘shni Beklamish amlokligi 22 ta qishloqni o‘z ichiga olib, bu jihatdan Chiyal amlokligidan biroz kam qishloqqa ega bo‘lsa ham, hududiy jihatdan ancha yirik bo‘lib, aholisi asosan “uz” urug‘i vakillaridan iborat bo‘lgan. Uz urug‘i asosan 4 ta tarmoqqa bo‘linib, mahalliy aholi o‘zlarini “to‘rt daha uz” deb atagan. Ularning nomlari quyidagicha bo‘lgan:

1. Mirza, 2. Olato‘n, 3. So‘pi, 4. Chibat.

Shu bilan birga, uz urug‘ining “jamayi”, “tovuq” kabi to‘plari ham mavjud bo‘lgan. Shu paytgacha yaxshi o‘rganilmagani sababli uz etnonimi bilan bog‘liq bir qator tortishuvli qarashlar ilgari surilgan. Ayrim olimlar, masalan, elshunos K. Shoniyozov uzlarni alohida o‘zbek urug‘i deb qaragan bo‘lsa, T. Nafasov ushbu

etnonimni “juz” (yuz) urug‘i bilan tenglashtiradi va “Yuz qabila nomining Chiroqchi, Yakkabog‘, Qamashi tumanlari aholisi nutqidagi shakli – uz. Uz (yuz)lar, asosan, Chiroqchi tumanining Ko‘kdala vohasida yashagan” deb yozadi. Biroq “92 bovli o‘zbek urug‘lari” ro‘yxatining bir qator variantlarida “yuz” va “uz” alohida- alohida etnonim sifatida keltirilishi bu masalaga boshqacharoq yondashish kerakligini ko‘ndalang qo‘yadi. Shu o‘rinda uz urug‘ vakillari orasida o‘zlarining kelib chiqishini “yuz” yoki “juz” etnonimlari bilan bog‘lash an’anasi deyarli uchramaydi.

Chiroqchi bekligining yirik aholi markazlaridan biri Chiyal amlokligi bo‘lib, 23 ta qishloqni o‘z ichiga olgan ushbu amloklikda asosan “qutchi” urug‘i vakillari yashaganlar. Ushbu etnonim “qushchi”, “quchchi” deb ham talaffuz qilingan. Bir qator turkiy xalqlar tarkibida ushbu etnonim uchrab, XVI asrdan beri ular “92 o‘zbek urug‘lari” ro‘yxatida qayd etilgan. Qashqadaryo vohasida Chiroqchi va Shahrisabz bekliklarida uchragan “qutchi” etnonimi Samarqand viloyatining Urgut tumanida ham bir necha aholi maskaniga istiqomat qilishgan. Shuningdek, ular Narpay (Samarqand vil.), G‘ijduvon, Jondor, Peshku (Buxoro vil.) bir necha qishloqda yashab, o‘zbek urug‘laridan biri sifatida bilingan. Buxoro amirligining Chahor-juy (Chorjuy), Xatirchi, Xuzor va yana bir qator bekliklarida “qushchi”, “qutchi”, “quchchi” nomli aholi maskanlari mavjud bo‘lgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Chiroqchi bekligidaning ma’muriy markazi Chiroqchi qo‘rg‘oni va uning atrofidagi amlokliklarda esa asosan “chuyut”, qisman esa “saroy”, “qutchi” va yana bir qator urug‘ vakillari yashaydigan qishloqlar mavjud bo‘lgan. O‘z navbatida chuyutlar Shahrisabz va Kitob bekliklarida ham o‘z aholi maskanlariga ega bo‘lib, “kenagas”larning bir tarmog‘i sifatida ham bilingan. Qoraqalpoqlarda shuyit (chuyit, chuyut) mang‘it urug‘ini bir tarmog‘i, o‘zbeklarda esa chuyut (chuyit, chuyut) kenagas urug‘ining tarmoq urug‘i, o‘z navbatida, kenagaslar mang‘itlarga yaqin qarindosh urug‘ ekanini ko‘zda tutiladigan bo‘lsa, o‘zbek va qoraqalpoq urug‘lari orasida o‘xshashlik ko‘pligi anglashiladi.

Chiroqchi bekligi aholisining etnik tarkibini aniqlash uchun beklikda mavjud bo‘lgan yuzdan ortiq toponimlar orasidagi etnotoponimlar orqali ham birmuncha aniqlash mumkin. Garchi beklikda “saroy”, “chuyut”, “qutchi”, “uz” kabi o‘zbek urug‘lari ko‘pchilikni tashkil etib, har bir urug‘ o‘zaro qo‘shni bir necha qishloqlarda (ko‘proq amlokliklarda) istiqomat qilsalar-da, ushbu etnonimga ega aholidan har birining aynan qaysi qishloqlarda yashaganligiga doir aniq yozma ma’lumotlarning yo‘qligi bu masalaga to‘laqonli yechim topishni birmuncha qiyinlashtiradi. Buxoro amirligiga oid yozma manbalarda keltirilgan joy nomlari orasida qaysi aholi maskani etnotoponim ekaniga qarab bu borada to‘laqonli to‘xtamga kelish qiyin.

Chiroqchi bekligining Kitob va Yakkabog‘ bekliklariga tutash hududlarida o‘zaro qarindosh aholi yashab, ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar kuchli bo‘lgan. Qalqama qishloqlar guruhida o‘zbeklarning asosan 4 ta urug‘i vakillari yashagan: “barlos”, “qiyanni (qiyot)”, “chuyut”, “juz”. Shuningdek, bu hududda qisman bo‘lsa-da, “mang‘it” va “qo‘ng‘irot” urug‘i vakillari ham istiqomat qilishgan.

Jumladan, o‘sha kezlarda Kitob bekligiga qarashli Axcha-bug‘a amlokligi tarkibida bo‘lgan Tarag‘ay qishlog‘ida bir necha o‘zbek urug‘lari yashab, asosan tog‘lik bo‘lgan ushbu qishloq aholisi qo‘shni hududlar bilan qarindosh-urug‘chilik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Tarag‘ay hududiy, ya’ni geografik joylashuviga ko‘ra atrofi tog‘ va qirlar bilan o‘ralgan qishloq bo‘lib, shimoldan Samarqand viloyatining Mironqul qishlog‘i, janubdan Qalqama va Chambil, g‘arbdan Langar va sharqdan Xizalak (Hezalak) va Quruq-soy qishloqlari bilan chegaradosh qishloq bo‘lgan. O‘z navbatida Tarag‘ay qishlog‘i 3 ta qismdan iborat bo‘lib, Yuqori Tarag‘ayda barloslar, O‘rta Tarag‘ayda qiyot, ya’ni qiyannilar va Past Tarag‘ayda esa chuyut va juz urug‘lari yashagan.

Barloslar o‘zaro va qo‘shnilari orasida “turk” deb atalgan bo‘lib, bugungi kunda Tarag‘ay qishlog‘i atrofidagi manzillardan biri Turk-qo‘rg‘on deb atalishi ham shu bilan bog‘liqdir. Ular o‘zbeklarning “qarluq”, “muso- bozori” va “kalta-toy” urug‘lari kabi “turk guruhi”ga mansub bo‘lib, O‘rta Osiyoning asosan tog‘li mintaqalarida – sharqda O‘zgan viloyati (Qirg‘iziston), Mingtepa, Buloqboshi (Andijon), O‘ra-tepa (Tojikiston), Zomin, Baxmal (Jizzax), Urgut (Samarqand), Hisor (Qashqadaryo, Surxondaryo, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg‘oniston) nisbatan keng tarqalganlar.

Shu o‘rinda barlos urug‘i vakillari asosan Kitob va Shahrisabz bekliklarida o‘z qishloqlariga ega bo‘lganligi va qarindosh urug‘chilik va nikoh aloqalarini ko‘pincha shu hududlardagi barlos urug‘i vakillari bilan amalga oshirganini aytib o‘tish kerak.

Chuyutlar esa asosan Shahrisabz, Kitob va Yakkabog‘ bekliklarida, shuningdek, Chiroqchi bekligining markazida o‘zlarining bir necha qishloq va mahallalariga ega bo‘lishgan. Kitob bekligining Axcha-bug‘a (Oqchava) amlokligidagi Eral, Galabek qishloqlarida istiqomat qilishgan.

Mahalliy aholi orasida “qiyanni” deb yuritiladigan qiyotlar esa ko‘proq Kitob bekligining Axcha-bug‘a amlokligidagi Dev-tosh (Dav-tosh), Tarag‘ay, Axcha-bug‘a, Qalqama qishloqlarida aholining sezilarli bir qismini tashkil etgan.

Shuningdek, Qalqama tog‘lari yaqinida Uyshun deb atalgan qishloq mavjud bo‘lib, bu yerda ko‘proq o‘zbeklarning “uyshun” urug‘i vakillari yashaganlar. Uyshunlar ko‘proq Samarqand viloyatining janubiy hududlarida – hozirgi Nurobod tumani va Kattaqo‘rg‘on atroflaridagi dasht hududda istiqomat qilishgan va XX asr

boshlarida Chiroqchi bekligining shimoliy va shimoli-g‘arbiy hududlarida o‘z qishloq va ovullariga ega bo‘lishgan. Keyinchalik ularning bir qismi bu yerlardan Nurobod tumani hududlariga ko‘chib o‘tishgan. Jumladan, Chiroqchi tumanining Ko‘kdala qishloqlar jamlamasiga kiruvchi Harduri qishlog‘ining biroz shimolida uyshun urug‘i vakillarining o‘z aholi maskanlari bo‘lib, shu paytgacha mahalliy aholi orasida “uyshun mozor”, “uyshun o‘tirish” degan ma’lumotlar saqlanib qolganligi buni tasdiqlaydi. Qalqama atrofidagi Uyshun qishlog‘i esa hozirgacha saqlanib qolgan.

XULOSA: Xullas, Chiroqchi bekligidagi yirik aholi maskanlari va ularning etnik tarkibi bilan qisqacha tanishib chiqish shundan darak beradiki, beklikda o‘zbek urug‘larining 15 taga yaqin yirik urug‘lari mavjud bo‘lib, ular orasida “saroy”, “uz”, “qutchi”, “chuyut”lar ko‘pchilikni tashkil qilgan. Ularning har biri o‘zlarining o‘nlab qishloqlariga ega bo‘lishi bilan birga beklikning muayyan bir qismida ko‘pchilikni tashkil etganlar.

Shu bilan birga, o‘zbek shajaralarida qayd etilgan urug‘larning bir qanchasi oz sonli bo‘lsa-da, o‘z aholi maskaniga ega bo‘lganligi diqqatni tortadi. O‘zbek urug‘lari ro‘yxatida qayd etilmagan, biroq ro‘yxatda keltirilgan urug‘larning biror tarmog‘i bo‘lgan etnonimlar esa beklikdagi amlokliklar kesimida olib qaraydigan bo‘lsak sezilarli miqdorni tashkil etgani ko‘zga tashlanadi. Chiroqchi bekligida yashagan elatlar qo‘shni bekliklar bilan, xususan, Samarqand viloyatining Jom qishloqlar guruhi, shuningdek, Kitob bekligidagi hamhudud amlokliklar bilan qarindosh-urug‘chilik aloqalari olib borganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov B.D. Chiroqchi bekligining tarixiy tasnifi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. O‘zbekiston amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent 2021. 3 qism.
2. Bahrom, K. (2022). Political-Administrative Territory of The City of Karshi in The Second Half of The 19th Century-The Beginning of The 20th Century. *International Journal of Scientific Trends*, *1*(2), 86-90.
3. Karimov, B. (2021). Historical Geography of Yakkabog District. *International Journal of Development and Public Policy*, *1*(4), 121-123.
4. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XXв.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. – Т.: Университет, 2001. – С. 307.
5. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – Ст-Петербург, 1843. – С. 107.
6. Маликов А. Узбеки группы «сарай” долины Зерафшана в XIX – начале XX вв. // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 3-son, 2007. – С. 8.

7. Кубаков К. XIX аср охири – XX аср бошларида Юкори Кашкадарё кишлок ахолисининг этник таркиби. Рукопись диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Тошкент, 1973. – Б. 80

8. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – 166-167.

9. Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа (историко-этнографические исследования на материалах кипчакского компонента). – Ташкент: Фан, 1974.

10. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir, 2009ю B. 258

O‘ZBEKISTONDA SOVETLARNING IMLO VA ALIFBOGA NISBATAN SIYOSATINING MOHIYATI

M.M.Xaydarov,

Tarix fanlari doktori, prof.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda sovet davridagi imlo siyosati til, madaniyat va siyosat kesishgan juda muhim masala bo‘lganligi yoritiladi. Bu jarayon asosan yozuv tizimini bir necha marta o‘zgartirish orqali amalga oshirilgan. 1920-yillarda sovet hukumati turkiy xalqlarning an’anaviy arab yozuvidan voz kechtirib, yangi alifbo — lotin yozuviga o‘tkazishni boshladi. 1940-yilda sovet hukumati yana bir katta qaror qabul qildi — o‘zbek yozuvi kirill alifbosiga o‘tkazildi. Bu jarayon SSSRdagi markazlashtirish siyosatining bir qismi bo‘lib, Sovet Ittifoqi doirasida amalga oshirildi, bundan kutilgan maqsadlar rus tili ta’sirini kuchaytirish, ittifoq respublikalarini yaqinlashtirish, Markazga madaniy va siyosiy bog‘liqlikni mustahkamlashdan iborat edi.

Tayanch so‘zlar va iboralar: Kommunistik mafkura, proletar madaniyati, milliy qadriyatlar, arab imlosi, federativ, milliy adabiyot.

СУЩНОСТЬ СОВЕТСКОЙ ПОЛИТИКИ В ОТНОШЕНИИ ОРФОГРАФИИ И АЛФАВИТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Хайдаров М.М.,

Доктор исторических наук, проф.

Аннотация: В статье освещается, что орфографическая политика советского периода в Узбекистане была чрезвычайно важным вопросом на стыке языка, культуры и политики. Этот процесс в основном осуществлялся путём многократной смены системы письменности. В 1920-х годах советская власть инициировала отказ тюркских народов от традиционной арабской письменности и их переход на новый алфавит — латиницу. В 1940 году советское правительство приняло ещё одно важное решение — узбекская

письменность была переведена на кириллицу. Этот процесс был частью политики централизации в СССР, проводившейся в рамках всего Советского Союза, и преследовал такие цели, как усиление влияния русского языка, сближение союзных республик, а также укрепление их культурной и политической зависимости от Центра.

Ключевые слова и выражения: Коммунистическая идеология, пролетарская культура, национальные ценности, арабская письменность, федеративный, национальная литература.

THE ESSENCE OF SOVIET POLICY REGARDING ORTHOGRAPHY AND THE ALPHABET IN UZBEKISTAN

Khaydarov M.M.
Doctor of Historical Sciences, Prof.

Abstract: The article states that the spelling policy of the Soviet period in Uzbekistan was an extremely important issue at the intersection of language, culture, and politics. This process was mainly carried out by repeatedly changing the writing system. In the 1920s, the Soviet government initiated the rejection of the traditional Arabic script by the Turkic peoples and their transition to a new alphabet — Latin script. In 1940, the Soviet government made another important decision — the Uzbek script was translated into Cyrillic. This process was part of the centralization policy in the USSR, carried out within the framework of the entire Soviet Union, and pursued such goals as strengthening the influence of the Russian language, bringing the union republics closer together, as well as strengthening their cultural and political dependence on the Center.

Key words and phrases: Communist ideology, proletarian culture, national values, Arabic script, federative, national literature.

KIRISH: Sovet hokimiyati mintaqada XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmiga kelganda o‘zining siyosiy va iqtisodiy mavqeini mustahkamlab oldi. Bu jarayonlar 1925-1940 yillarda madaniy hayotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Kommunistik mafkura jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida o‘z mafkuraviy ta’sirini o‘tkazib bordi. Ana shunday sharoitda madaniy merosga sinfiy yondashuv qaror topdi. Ming yillar davomida o‘zbek xalqi ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniyat bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki qismga: proletar madaniyati va feodal saroy madaniyatiga ajratildi. Saroy madaniyatiga qarshi kurash niqobi ostida o‘zbek xalqining asriy milliy qadriyatlari va an’analariga qarshi hujumga o‘tildi.

Shunday sharoitda madaniyatning rivoji jamiyatning ma’naviy o‘sishiga xalal beruvchi va hatto ba’zi hollarda uni to‘xtatib qoluvchi mexanizmga aylandi. Bunday ahvol xalq ta’limi sohasida ham mavjud edi. Umumiy boshlang‘ich ta’limni joriy etish, savodsizlikni tugatish kabi islohotlar ham murakkab tarzda kechdi. Masalan, yangi sovet maktablari muallimlarga muhtoj bo‘lsa-da, eski maktablar va jadid maktablarining muallimlaridan foydalanilmadi, aksincha, bu muallimlarga sovet hokimiyati dushman sifatida qaradi. 1927 yilda siyosiy idoralar “Za partiyu” jurnali orqali eski usul va jadid usulidagi maktablarga qarshi kurash e’lon qildilar. [1]Natijada bu maktablar sovet ma’murlari tomonidan asta-sekin berkitildi va XX asr 20-yillari oxiriga kelib, bu maktablar o‘z faoliyatini butunlay to‘xtatishga majbur bo‘ldi.[2] Bundan tashqari 1929 yil O‘zbekistonda vaqf mulklari ham butunlay tugatildi. [3]Holbuki, vaqf mulklari mintaqada yuz yillar davomida maorif va madaniyat sohasida erishilgan yutuqlarning moddiy asosi bo‘lib xizmat qilgan edi.

ASOSIY QISM: XX asr 20-yillari oxiriga kelganda bolьsheviklar partiyasi mafkura maydoniga yana bir g‘oyani — madaniy merosni inkor etish g‘oyasini tashladi. Bu aslida madaniy inqilobning asosiy maqsadlaridan biri edi. Biroq sovet madaniyati nazariyasi uning ayrim g‘oyaviy rahnamolari orzu qilganidek madaniy merosni butunlay inkor etish yo‘lidan borgan, deb aytsak unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. VKP (b) MK kotibi va O‘rta Osiyo byurosi kotibi I.A.Zelenskiy, ya’ni Markazning O‘rta Osiyodagi partiya rahbari 1928 yilda “Za partiyu” jurnalida shunday deb yozgan edi: “Eski madaniyat ikki qismdan iborat: moddiy qismdan, ya’ni biz o‘zlashtirgan ishlab chiqarish apparatidan xo‘jalik va texnik bazisga bevosita yo‘ldosh bo‘lgan aniq fanlardan; g‘oyaviy qismdan, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti darajasidagina emas, balki ishlab chiqarish kuchlari va qurollari taqsimotidan kelib chiqqan (qurollar va vositalarga xususiy egalik) qismidan ham iborat. Madaniyatning aynan shu qismini, ya’ni mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalariga xususiy egalik faktidan kelib chiqqan qismini biz uloqtirib tashlashimiz zarur”. [4]

Aslini olganda kommunistik mafkura tomonidan sun’iy ravishda bo‘lib tashlangan madaniy merosga bo‘lgan bunday munosabatdan faqat o‘zbek xalqi yoki Ittifoqda yashab turgan mazlum xalqlar emas, eng avvalo rus xalqi ham ma’naviy zarar ko‘rganligi va katta yo‘qotishlarga duch kelganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Sovet hokimiyati ta’lim sohasida o‘z siyosiy faoliyatini olib borishda mavjud alifboni yo‘qotib, uni boshqalari bilan almashtirishga va shu yo‘l bilan bir necha avlodni milliy-tarixiy merosidan mosuvo etishga qaratdi. Bunday intilishlar mintaqada sovet hokimiyati o‘rnatilgach, Turkiston ASSRda boshlangan edi. Dastavval arab imlosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvining alifbosi isloh qilindi.

Taniqli o‘zbek ma’rifatparvarlari Fitrat va Ashurali Zohiriy 1921-yil yanvarda bo‘lgan hamda til va orfografiya masalalariga bag‘ishlangan Turkiston birinchi o‘lka qurultoyida arab alifbosini saqlab qolish, lekin uni isloh qilish zarurligi to‘g‘risida gapirdilar. Faqat yosh o‘zbek ziyolilaridan Botu (Maxmud Hodiev) va ayrimlar arab alifbosidan butunlay voz kechish va o‘zbek tilining tovush xususiyatlariga moslashtirilgan lotin yozuviga o‘tish kerakligini himoya qildi. Fitrat mas’ul muharrirligida 1920 yili Toshkentda nashr etilgan “Tong” jurnali aynan isloh qilingan arab imlosida chiqa boshlagan edi.

1922-yilning oxiriga kelib, Turkistonda alfavitni o‘zgartirish masalasida munozaralar yana ham kuchaydi. Maorif va madaniyat xodimlarining s’yezdida bu masalada keskin tortishuvlar bo‘ldi. Asosiy ma’ruzachi bo‘lgan professor Ye.D.Polivanov O‘rta Osiyo xalqlari uchun arab imlosidan voz kechish og‘ir ekanligini aytsa-da, lekin arab yozuvini almashtirish g‘oyasining tashabbuskori bo‘lib chiqdi. Keskin munozara va bahslardan so‘ng Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi qoshidagi Davlat ilmiy kengashi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan arab yozuvini isloh qilish tarafdorlari (ularning rahbari Fitrat bo‘lgan) g‘alaba qildilar. S’yezdda qabul qilingan olti bandlik qarorda o‘zbek yozuvini arab imlosi asosida saqlab qolish, biroq o‘qish hamda yozuvni o‘rganishni yengillashtirish maqsadida uni biroz isloh qilib soddalashtirish zarurligi ta’kidlandi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: 1926-yil martda Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Butunittifoq turkologlar I qurultoyida ham bu muammo qizg‘in munozaralarga sabab bo‘ldi. Albatta, islohot o‘tkazishdan maqsad, avvalo arab imlosiga qaraganda ancha yengil o‘zlashtiriladigan lotin imlosini o‘rganish bilan savodsizlikni mumkin qadar tezroq tugatish uchun intilish ekanligini tushunish mumkin. Ammo yozuvning lotinlashtirilishiga qarshi turgan muxoliflarning fikricha, sovet hokimiyatining bu tadbiri O‘rta Osiyo va Kavkaz xalqlarini Sharq musulmon mamlakatlaridan sun’iy ravishda ajratib olib, ular uchun alohida sovet madaniyati va sovet tarixi yaratishga xizmat qilishi kerak edi. Bu fikrlar to‘g‘ri ekanligini hayotning o‘zi tasdiqladi. Ikkinchi tomondan, yozuvning lotinlashtirilishi islom diniga qarshi kurashning bir shakli edi. Bolьsheviklarning fikricha, arab yozuvi dindorlar va ulamolarga xizmat qilgan. [5]

VKP(b) MK agitatsiya va propaganda bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari S.M.Dimanshteyn turkiy xalqlarni lotin alifbosiga o‘tkazish komitetini tuzish to‘g‘risida 1927-yil fevral oyi boshlarida maxsus yozishma tayyorlaydi. Unga ko‘ra, lotin alifbosiga o‘tish Ozarbayjon komitetini SSSR MIK huzuridagi Butunittifoq komitetiga aylantirish taklifi qo‘yildi.

SSSR miqyosidagi musulmon sovet respublikalari va avtonom oblastlarida yangi turk alifbosiga, ya’ni lotin yozuviga asoslangan yangi alifboga o‘tish jarayonini mazkur Butunittifoq komiteti boshqarib va nazorat qilib turdi.

O‘zbekistonda 1929-yil 1-dekabrda SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining qarori bilan arab alifbosidan lotin yozuviga o‘tildi. Sal oldin, 1928-yil 19-noyabrda O‘zbekistonda eski usul maktablari va qorixonalarni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi.Qarang [6]

Biroq lotin yozuviga asoslangan alifbo O‘zbekistonda faqat o‘n yilcha saqlanib qoldi, xolos. Sovet hokimiyatiga o‘zining asosiy maqsadiga erishishi uchun ushbu muddat ham yetarli bo‘ldi. Moskvaning talabi bilan 1940-yil 8-mayda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti lotin yozuvidan kirill (rus grafikasi) asosidagi o‘zbek yozuviga o‘tishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi. O‘zbek xalqi ajdodlari tomonidan 1300 yil davomida yaratilgan madaniyat durdonalari XX asr 40-yillaridan boshlab kamolga yetgan avlod vakillari uchun tushunarsiz bo‘lib qoldi va ular reaksion diniy adabiyot namunalari sifatida qoralandi.

XULOSA: Xullas, Milliy masala azaldan o‘zining murakkab va ziddiyatli ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bolьsheviklar ham, xususan, ularning yo‘lboshchilari V.I.Lenin va I.V.Stalin bu masalaning nozik ekanligini juda yaxshi tushunganlar. Leninizm ta’limoti “millatlarning o‘zini o‘zi boshqarishi toki o‘z xohishiga qarab ajralib chiqish huquqini ham o‘z ichiga oladi” deb da’vo qilsa ham, aslida Rossiya imperiyasi, so‘ngra sovet Rossiyasi hududida yashagan ko‘p sonli xalqlarga milliy mustaqillik va erkinlik berilmagan.

I.V.Stalinning “Prosveshenie” jurnalida bosilib chiqqan bu asarida bolьsheviklar milliy siyosatining asosi bo‘lgan millatlarning o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqi quyidagicha ko‘rsatilgan edi: “O‘z taqdirini o‘zi hal qilishning ma’nosi shuki, har bir millat o‘z hayotini o‘z istagicha qura oladi. U o‘z hayotini muxtoriyat asosida qura olish huquqiga ham egadir. U boshqa millatlar bilan birga federativ munosabatlarda bo‘lish huquqiga ham egadir. U butunlay ajralib chiqish huquqiga ham egadir. Millat mustaqil va barcha millatlar teng huquqlidirlar”. [7]

Biroq bolsheviklar 1917-yil oktyabrda Rossiyada hokimiyatni egallab olgach, xususan, 1922-yil dekabrda SSSR tashkil qilingandan so‘ng “millatlarning o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqi”ni unutdilar hamda milliy masalada sovet davlatining sinfiylik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda siyosat yuritdilar. Bolsheviklarning milliy siyosati Turkiston ASSRda, keyinchalik O‘zbekiston SSRda o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari va an’analariga qarshi, milliy adabiyot va milliy tilga qarshi, milliy davlatchilik an’analari va milliy his-tuyg‘ularga qarshi kurash olib borishga yo‘naltirildi. Bir avlod umri davomida o‘zbek xalqi ishlatadigan alifbo qayta-qayta o‘zgartirilishi va pirovardida bu holat bir necha avlodning savodli bo‘lishida katta muammolarni vujudga keltirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “За партию”. 1927. –№ 4. – С.130.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2 – китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 386.
3. Алимов И. Ўзбекистонда вақф мулкларининг тугатилиши (1917-1929 йиллар). – Т.: Фан, 2009. – 224 б.
4. Зеленский И. В борьбе за культуру // “За партию”. 1928. – № 7. – С.12.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Б. 392.
6. Ражабов Қ., Ҳасанов Ф., Шоймардонов И., Тожибоев Б. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). 3-нашри. –Т.: O‘zbekiston, 2010. – Б.92.
7. 1928-yil 13-19-noyabr kunlari bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining (MIK) II chaqiriq 4-sessiyasida "Eski usul maktablari va qorixonalarni tugatish to‘g‘risida"gi qaror qabul qilingan. Qarorning maqsadi diniy maktablarni tugatib, o‘rniga sovet maktablarini joriy etish, an’anaviy ta’lim markazlari yopilib, ularning faoliyati taqiqlangan. Bu chora o‘sha davrdagi madaniy- ma’rifiy hayotni sosialistik asosda qayta qurishda muhim bosqich bo‘ldi.
8. Сталин И. Марксизм ва миллий масала // Асарлар. –Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1948. – Б. 360.

O‘ZBEKISTONNING NEFT VA GAZ SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLARNI O‘RNI

Mallayeva Feruza Radjabaliyevna,
Qarshi davlat universiteti
Sayidov Muslimbek Xusanovich,
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston neft va gaz sanoatini rivojlantirishda xorijiy davlatlar hamda xalqaro kompaniyalarning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, sohada amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qo‘shma korxonalar faoliyati hamda energetika sohasidagi xalqaro hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Neft va gaz tarmog‘ini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda xorijiy investitsiyalarning muhim o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: neft va gaz sanoati, xorijiy investitsiyalar, xalqaro hamkorlik, energetika, qo‘shma korxonalar, texnologiyalar, iqtisodiy rivojlanish, neft qazib olish, gaz sanoati, modernizatsiya, eksport salohiyati, energetik xavfsizlik.

РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ГОСУДАРСТВ В РАЗВИТИИ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА

Маллаева Феруза Раджабалиевна,
Каршиский государственный университет
Сайдов Муслимбек Хусанович,
Экономико-педагогический университет

Аннотация: В статье анализируется роль зарубежных стран и международных компаний в развитии нефтегазовой отрасли Узбекистана. Также подчеркивается важность инвестиционных проектов, реализуемых в секторе, внедрения современных технологий, деятельности совместных предприятий и международного сотрудничества в энергетическом секторе. В статье рассматривается важная роль иностранных инвестиций в модернизации нефтегазового сектора, повышении экспортного потенциала и обеспечении экономической стабильности.

Ключевые слова: нефтегазовая отрасль, иностранные инвестиции, международное сотрудничество, энергетика, совместные предприятия, технологии, экономическое развитие, добыча нефти, газовая промышленность, модернизация, экспортный потенциал, энергетическая безопасность.

THE ROLE OF FOREIGN STATES IN THE DEVELOPMENT OF THE OIL AND GAS INDUSTRY OF UZBEKISTAN

Mallayeva Feruza Radjabalievna,
Karshi State University
Sayidov Muslimbek Khusanovich,
University of Economics and Pedagogy

Annotation: This article analyzes the role of foreign countries and international companies in the development of the oil and gas industry of Uzbekistan. It also highlights the importance of investment projects implemented in the sector, the introduction of modern technologies, the activities of joint ventures, and international cooperation in the energy sector. The article discusses the important role of foreign investments in modernizing the oil and gas sector, increasing export potential, and ensuring economic stability.

Keywords: oil and gas industry, foreign investments, international cooperation, energy, joint ventures, technologies, economic development, oil production, gas industry, modernization, export potential, energy security.

KIRISH: Jahonda neft va gaz sohasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki kundan kunga sanoat rivojida yangi yangi imkoniyatlarning yaratilayotgan-ligi o‘z o‘rnida yoqilg‘i sanoatiga yangicha yondashuvni talab etdi.

O‘zbekiston ham neft-gaz sanoati yoqilg‘i-energetika kompleksi iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida respublikada soha tarkibini takomillashtirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi [1]. Respublikada eng yirik neft-gaz mintaqalari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Buxoro, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarida joylashgan. O‘zbekistonda har yili 60 milliard kub metrdan ortiq tabiiy gaz va 6 mln. tonnaga yaqin suyuq uglevodorod qazib olinadi. Mamlakatning ichki ehtiyojlarini eng muhim energiya manbalari bilan ta’minlash orqali sanoat eksport salohiyati ham oshdi [2]. O‘zbekistonda ham mustaqillik yillari neft gaz sanoatini rivojlantirish bo‘yicha qat’iy strategik dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Qolaversa, O‘zbekiston neft-gaz sanoati bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinda mavqiyeni egallab keldi [3].

Sohani rivojlantirish uchun Respublika xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan unumli foydalanishga kuchli e’tibor qaratdi. Bu sohani rivojlantirish uchun O‘zbekiston mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, AQSH, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi [4].

ASOSIY QISM: Mamlakatimiz neft va gaz tarmog‘i tizimidagi institusional islohotlar vertikal integrasiyalashgan tuzilmalarning tarkiban va mohiyatan bozor munosabatlari tomon yangilanishini ifodalovchi uch bosqichli jarayon bilan tavsiflanadi. Birinchi boskich – “O‘zbekneftgaz” Davlat tashkil etilishi hisoblanadi. Keyingi ikkinchi bosqich yuqoridagi davlat konsernining “O‘zbekneftgaz” milliy korporasiyasiga aylantirilishi bilan izohlanadi [5]. Uchinchi boskich esa, “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasining barpo etilishidir [6].

1992-yil dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni [7]ga muvofiq, neft va gaz sanoatida “O‘zbekneft” va “O‘zbekgazsanoat” davlat ishlab chiqarish birlashmalarini tugatish asosida ularning tarkibida neft va gazli maydonlarni geofizik aniqlash, qidiruv-izlanish ishlarini amalga oshirish, konlarni ishlab chiqarishga tayyorlash va ishga tushirish, neft, gaz va gaz kondensati qazib chiqarish, neft va gazni qayta ishlash, neft va gaz mahsulotlarini transportirovka qilish va yetkazib berish bilan shug‘ullanib kelgan, tarqoq holda faoliyat yuritayotgan korxonalar negizida milliy korporasiya tashkil etildi. Tarmoqda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishni kengaytirish, kuchlarni bir joyga to‘plash, xorijiy hamkorlar bilan ishlash hamda boshqaruvni [8] osonlashtirish kabi bir qator zaruriyat va omillardan kelib chiqqan holda korporasiya tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi neft va gaz sanoatini rivojlantirishning 1993-2000-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati nomidan neftni qayta ishlash uskunalari, Toshkent metropoliteni, sport inshootlari, milliy valyuta ishlab chiqarish uchun yirik to‘lovlar amalga oshirildi. 1993-yildan boshlab “Feniks” kompaniyasi va

uning sho‘ba korxonalari “O‘zbekneftgaz” korporasiyasidan neft sotib ola boshladi. Belgilangan davrda korxona 500 ming tonnadan ortiq gaz kondensati, jumladan, 1996-yilda 100 ming tonnaga yaqin gaz kondensati sotib oldi va xorijiy kompaniyalar orasida birinchi bo‘lib 50 ming tonna O‘zbekiston neftini umumiy qiymati 35 million AQSH dollariga sotib oldi. O‘zbekiston Respublikasi neftni qayta ishlash sanoati uchun og‘ir davrda “Feniks” kompaniyasi Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodiga 50 ming tonna yuqori sifatli G‘arbiy Sibir neftini yetkazib berdi. Bu esa 1994-yilgi hosilni yig‘ishtirib olish davrida O‘zbekiston xalq xo‘jaligini neft mahsulotlari bilan ta’minlashni ma’lum darajada yaxshilash imkonini berdi [9].

Bu davrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda “O‘zbekneftgaz” Milliy korporasiyasi Yevropa Ittifoqi (EI) bilan TACIS dasturi doirasida ikkita loyiha bo‘yicha hamkorlik qildi:

1. "TASIS" EUZ 92/010" O‘zbekiston hukumatiga ko‘mak va tavsiyalar. Neft va gaz sektori bo‘yicha yangi strategiyani ishlab chiqishda". Loyiha EKB mablag‘lari hisobidan 2,0 million EKYY miqdorida moliyalashtirildi. 1992-yildan boshlab loyihani ishlab chiqish uchun materiallarni tanlash boshlandi. Loyiha bo‘yicha ishlar 1994-yil 13-oktabrda boshlandi va tuzatishlar kiritilgandan so‘ng yakuniy hisobot 1995-yil 27-oktabrda yakuniy shaklda O‘zbekiston tomoniga topshirildi[10].

2. “TASIS” “Bozor sharoitida energiya tejash va energetika sanoati operasiyalari”.

1994-yil mart-aprel oylarida korporasiyaning 8 nafar talabasi Toshkent shahrida 6 hafta davomida o‘qishni tamomladilar va Yevropa hamjamiyatining sertifikatlarini oldi.

1995-yilda esa korporasiya tomonidan sohaga doir ikkinchi dastur – “1995 – 2000 yillar mobaynida neft va gaz geologik-qidiruv konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Ushbu dastur neft va gazga istiqbolli hisoblangan maydonlarda qidiruv-izlanish jarayonlarini izchillik bilan amalga oshirilishiga zamin yaratdi. Ushbu dasturning samarali amalga oshirilishi natijasida 1997-yilga kelib mamlakatda neft qazib chiqarish miqdori 1990 yilga nisbatan 2,8 marta oshdi.

1994-1995-yillarda O‘zbekiston Respublikasining neft-gaz sanoatida bir qator ustuvor loyihalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini tashkil etish masalalari bo‘yicha ishladi. Yevropa Ittifoqi moliyalashtirishdan foydalangan holda Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurish va Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodini rekonstruksiya qilish loyihalari bo‘yicha ekspert xulosalari berildi [11].

1994-yil 3-may “O‘zbekteftgaz” Milliy Xolding Kompaniyasi va Malayziyaning Probadi SDN BXD kompaniyasi bilan hamkorlikda neft konlarini

topish va sohani rivojlantirishga doir hujjat natijasida “O‘zMaloyl” qo‘shma korxonasi tashkil topdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 15-apreldagi 29a/1-322-sonli ko‘rsatmasiga muvofiq, neft va gaz sanoatining butun respublika milliy iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati va ustuvorligini hisobga olgan holda “O‘zbekneftgaz” Milliy korporasiyasi “Neft va gaz sanoati sohasida hamkorlik bo‘yicha” alohida bo‘lim tashkil etildi. Shuningdek, “Uzbekneftgaz” korporasiyasi xodimlarini loyihalarni moliyalashtirish va sug‘urtalashni tashkil etish, loyihalarni tahlil qilish, xalqaro bank tizimining faoliyati, xususiylashtirish, korporativlashtirish va lizing masalalari bo‘yicha o‘qitish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi markaz ham ochildi. Bu kabi tadbirlar gaz, neft va neft mahsulotlarini sotish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan tashqi va ichki bozorlarni tahlil qilish, shu jumladan marketing strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qildi [12].

1995-yil noyabr oyida neft va gaz quvurlarini davlatlararo boshqarish bo‘yicha yig‘ilishda tashkil etilgan ishchi guruhning ikkinchi yig‘ilishi 1996-yil 20-22-noyabr kunlari Bryusselda bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, O‘zbekiston, kuzatuvchi davlatlar Rossiya, Bolgariya, Ruminiya, Turkiya, xalqaro tashkilotlar va Jahon banki banklari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro energetika agentligi, Energetika Xartiyasi kotibiyati, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar ishtirok etdi. Yig‘ilish kun tartibiga mavjud gaz transporti tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, mintaqada va Yevropaga neft va gaz eksportining potensial alternativalari, neft va neft mahsulotlarini tashish bo‘yicha mavjud tarmoqlarni rekonstruksiya qilish, institutsional masalalar va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash kabi masalalar ko‘rildi. Loyihalar taqdimotini Fransiyaning “Sofregaz” kompaniyasi vakili janob F.Bourcier olib bordi. Har bir loyiha taqdimotidan so‘ng davra suhbati bo‘lib o‘tdi [13].

O‘zbekiston delegatsiyasi mavjud neft va gaz quvurlarini rekonstruksiya qilish bilan bir qatorda neft va gazni Yevropaga eksport qilishning muqobil yo‘nalishi sifatida Transkaspiy neft va gaz quvurlari tarmog‘ini o‘rganish loyihasini texnik yordam dasturiga kiritish tashabbusini qo‘llab-quvvatladi. Ustuvor tartibni bajarish uchun quyidagi to‘rt qismdan iborat texnik yordam dasturini amalga oshirishga kelishib olindi:

1. Mavjud gaz transport tizimlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha tadqiqotlar.

2. Texnik — Kaspiy dengizi orqali neft va gaz quvurlarining iqtisodiy asoslanishi.

3. Mavjud neft va neft mahsulotlarini tashish tarmog‘ini rekonstruksiya qilish bo‘yicha tadqiqotlar (alohida e’tibor "Drujba" quvuri, qayta ishlash korxonalari va neft mahsulotlarini tashish tizimini rekonstruksiya qilishga qaratildi).

4. Institutsional muammolar va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash.

Yevropa Komissiyasi ushbu loyihadagi dastlabki ishlar uchun 50 million EKYU ajratdi. EK vakilining ta’kidlashicha, mintaqaviy TACIS dasturida ham ushbu loyihani moliyalashtirish uchun 16 million EKYU (1995 va 1996 yillar uchun davlatlararo TACIS byudjeti) moliyaviy resurslar mavjud edi.

CES loyihani "INOGATE — Yevropaga davlatlararo neft gazi transporti" deb nomlashga kelishib olindi. Ishchi guruhning uchinchi yig‘ilishi 1997-yilda bo‘lib o‘tadi.

«O‘ZBEKNEFTGAZ» neft va gaz sanoati milliy korporasiyasida belgilangan obyektlarni yakunlash uchun MDH mamlakatlari va uzoq xorijdan asbob-uskunalar va materiallar sotib olish uchun erkin konvertatsiya qilinadigan valyutaga konvertatsiya qilish uchun milliy valyutaning keskin tanqisligi kuzatildi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, Rossiyaning “LUKOYL” neft-gaz kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyati 2004-yildan boshlanib, mazkur davrdan buyon LUKOYL respublikada yirik loyihalarni amalga oshirdi. Toki 2021-yil davomida “LUKOYL” iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga o‘z hissasini qo‘shdi. Yangi ish o‘rinlari yaratildi, hududlarda ijtimoiy infratuzilma rivojlandi, ta’lim, madaniyat, sport va sog‘liqni saqlashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xayriya loyihalari amalga oshirildida, qator ijtimoiy obyektlar – reabilitasiya markazlari bilan jihozlangan bolalar bog‘chalari, sport inshootlari jihozlandi, maktab-internatlar va madaniy tadbirlar o‘tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Нефтепереработывающая и газоперерабатывающая отрасль Узбекистана, Рекламно-аналитический информационный бюллетень. Специальный выпуск, приуроченный и международной выставке «Нефть и Газ-2009», – Ташкент, 2009, – 69 с.

2. Ражабов А.Т. Саноат корхоналарининг газ ёқиш печларидаги ёниш жараёнини оптимал бошқариш системасининг моделлари ва алгоритмлари.т.ф.б.ф.ф.д (PhD). – Тошкент, 2022. 14-б.

3. Ўз МА, М-155-фонд, 1-рўйхат, 290-иш, 20 – 29-варақлар.

4. Ўз МА, М-155-фонд, 1-рўйхат, 290-иш, 17-варақ.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 3 майдаги ПФ-393-сонли “Ўзбекистон нефть ва газ саноати давлат концерни “Ўзбекнефтгаз”ни ташкил килиш тўғрисида”ги Фармони

6. Парпиев Д. Ўзбекистон Республикаси нефть-газ тармоғи корхоналарининг халқаро маркетинг стратегиясини такомиллаштириш. – Т., 2016. – Б.17

7. Ўзбекистон нефть ва газ саноати давлат концернини Нефть ва газ саноати (“Ўзбекнефтьгаз”) миллий корпорациясига айлантириш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – Т., 1993. – №2. – Б.32-33.

8. Қамбаров М. Мустақиллик иншоотларини барпо этишда ҳиссамиз бор // Омонов О. Нефт-газ: мустақиллик одимлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 3.

9. Ўз МА, М -37-фонд, 1-рўйхат, 1611-иш, 183-варақ.

10. Ўз МА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1624-иш, 37-варақ.

11. Ўз МА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1624-иш, 37-варақ.

12. Ўз МА М-37-фонд, 1-рўйхат, 1624-иш, 38-варақ.

13. Ўз МА, М -37-фонд, 1-рўйхат, 1611-иш, 36-варақ.

O‘ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN YARATILGAN TA’LIM TIZIMINING IJTIMOIY AHAMIYATI

Mashxura Mardonova,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Inklyuziv ta’lim — jismoniy aqliy nutqiy ruhiy rivojlanishdan ortda qolgan bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarni hisobga olgan holda barcha bilan teng sharoitda ta’lim olish imkoniyatini beradigan ta’lim shakli . Bu ta’limning afzalligi shundan iboratki inklyuziv ta’limga jalb etish orqali alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar umumiy ta’lim muassasasida tengqurlari bilan birgalikda ta’lim olish imkoniyatiga ega ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Imkoniyati cheklangan, logopatlar, nogiron, nafaqa puli, kar-soqov, diskomfort holat, ko‘zi ojiz, aqli zaif, inklyuziv ta’lim, difektolog

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ, СОЗДАННОЙ В УЗБЕКИСТАНЕ ДЛЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Машхура Мардонова,
Каршинский государственный университет

Аннотация. Инклюзивное образование — это форма образования, которая предоставляет детям с физическим, умственным, речевым и духовным развитием возможность получать образование на равных со всеми, учитывая их особые образовательные потребности и индивидуальные

возможности. Преимущество такого образования заключается в том, что, вовлекая детей с особыми образовательными потребностями в инклюзивное образование, они получают возможность учиться вместе со своими сверстниками в общеобразовательном учреждении.

Ключевые слова: Узбекистан, инвалиды, логопеды, инвалиды, пенсия, глухонемые, дискомфорт, слепые, умственно отсталые, инклюзивное образование, дефектолог.

SOCIAL SIGNIFICANCE OF THE EDUCATION SYSTEM CREATED FOR CHILDREN WITH DISABILITIES IN UZBEKISTAN

Mashkhura Mardonova,
Karshi State University

Annotation. Inclusive education is a form of education that provides children with physical, mental, speech, and spiritual development with the opportunity to receive education on an equal basis with everyone, taking into account their special educational needs and individual capabilities. The advantage of this education is that by involving children with special educational needs in inclusive education, they have the opportunity to receive education together with their peers in a general educational institution.

Keywords: Uzbekistan, Disabled, speech therapists, disabled, pension, deaf-mute, discomfort, blind, mentally retarded, inclusive education, defectologist

KIRISH: Jahon ta’limi amaliyotida ta’lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish, variativ o‘quv dasturlaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. BMT ning ta’lim sohasidagi siyosati yo‘nalishlaridan biri bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta’lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta’lim g‘oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta’minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta’limni ta’minlashga qaratilgan me’yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo‘naltirilmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta’limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta’minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

JSST ma’lumotiga ko‘ra, dunyo aholisining 15 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkil qilib, 2022-yilda ularning soni 1 milliardga yetgan.

ASOSIY QISM: Imkoniyati cheklangan har bir bolaning ta’lim va tarbiyasi

bilan shug‘ullanish alohida e’tibor talab etadi. Lekin statistikaga ko‘ra 2020-yilning o‘zida O‘zbekistonda ko‘plab umumta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan.

O‘zbekiston Nogironlar jamiyatining viloyat, tuman va shaharlarda 159 ta bo‘limi mavjud bo‘lib, 600 ming nafar jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarni birlashtirgan. 2015-yilda 12 ming nafar fuqaroga tibbiy xizmat ko‘rsatildi. O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning rasman e’lon qilingan soni aholining 2,1 foizini tashkil qiladi. Butun dunyo aholisining taxminan 15 foizi nogironlikning u yoki bu shakliga ega ekanligini hisobga olsak, ehtimol, bu raqam yuqoriroq bo‘lishi kerak. 2019-yilning oxiridagi holat bo‘yicha O‘zbekistonda 693,9 ming nafar nogironligi bo‘lgan shaxs (295,5 ming nafar ayol va 398,4 ming nafar erkak), jumladan 111,3 ming nafar 16 yoshgacha bo‘lganlar (48,8 ming nafari qiz va 62,5 ming nafari o‘g‘il bolalar), pensiya va ijtimoiy nafaqa olgan.Bu past rasmiy raqamlar nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash sohasida qo‘llaniladigan O‘zbekistonda nogironlikni baholash va aniqlashning amaldagi cheklangan ta’rifiga ta’sir etuvchi eskirgan tizimi bilan izohlanishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakat aholisining 3 va undan katta yoshdagi qariyb 13,5 foizi nogironlikning qaysidir shakliga, 3,5 foizi esa og‘ir nogironlikka ega bo‘lishi mumkin.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta’lim. 5 standartlari me’yorlari inobatga olingan o‘quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta’lim, sog‘liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta’lim xizmatlari bilan ta’minlash borasidagi o‘zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi. Bu esa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida metodik mahorat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ–4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa hujjatlarda kadrlar masalasi, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta’minlash vazifalari belgilab berilgan. Sanab o‘tilgan vazifalarni bajarishda ushbu darslik tayanch manbaa sifatida xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo‘lib ulg‘ayishi, hech kimdan kam bo‘lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo‘lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan.

Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta’minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta’limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta’limning uzviylik va uzluksizligini ta’minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda. Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta’sirlanadi. O‘sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo‘lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir.

Bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi (tiklash) va ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuvi)-bu nafaqat qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va innovatsiyalarning paydo bo‘lishi bilan tadrijiy rivojlanib boradigan bu nozik

sohada professional yondashuvni talab qiladigan sermashaqqat mehnatdir. Bu sohaning takomillashuvida nogironligi bo‘lgan bolalar bo‘yicha idoralararo muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuvi holatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan 2007-yilda «O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim» loyihasi amalga oshirilgan bo‘lib, loyihada O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Navoiy shahridagi «Umr» imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi, Samarqand shahridagi «Hayot» nomli nogironlarga yordam berish markazi, Jizzax shahridagi «Istiqbolli avlod» markazi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi «Umid» tashabbuslarga ko‘mak berish va rivojlantirish markazi, Termiz shahridagi «Imkon» imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko‘mak berish markazi, Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahridagi «Ziyo» maxsus zaruratli bolalarga ijtimoiy ko‘mak berish markazi, maqsadli hududlar hokimliklari, O‘zbekistondagi Shveytsariya elchixonasi hamkorlik qilishdi.

Ushbu loyiha doirasida Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo‘qon, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlarida joylashgan ayrim maktabgacha ta’lim muassasa, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda inklyuziv texnologiya asosida ta’lim-tarbiya olishdi.

Saida Mirziyoyevaning tashabbusi bilan 2020-yilda “Ko‘ngil ko‘zi” xayriya tadbiri doirasida uch ming nafardan ortiq ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, ko‘rish qobiliyatini yaxshilash imkoniyati bo‘lgan har bir bolaga yordam berildi. Ayni bayram arafasida bu xayriya doirasida “Sovg‘alar karvoni aksiyasi” doirasida O‘zbekistonning barcha viloyatlaridagi imkoniyati cheklangan bolalarga sovg‘a-salomlar ulashildi.

Ko‘zi ojiz va zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta’lim bilan qamrab olish birmuncha qiyinchiliklarni qamrab olishi mumkin. Chunki hozirgi kunda O‘zbekistonda tiflopedagog mutaxassislar yetishmaydi. O‘zbekiston universitet-larida hozirgi kunda tiflopedagoglarni tayyorlaydigan fakultetlar mavjud emas. Bu borada darslik va qo‘llanmalar ham ishlab chiqilmagan. Ko‘zi ojiz bolalar o‘qishiga mo‘ljallangan brayl tilidagi kitoblar juda katta hajmga egaligi va og‘irligi bilan bolaning ularni har kuni maktabga ko‘tarib borishida qiyinchiliklar tug‘diradi.

YUNISEF ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda maktab yoshidagi bolalarning 3 foizdan kamrog‘i maktabga qatnamaydi. 2015-yil holatiga ko‘ra, 29 ming nafar imkoniyati cheklangan bolalar umumta’lim maktablarida, 18 ming nafar alohida yordamga muhtoj o‘g‘il-qizlar maktabgacha ta’lim muassasalari

tarbiyalangan. 127 nafar imkoniyati cheklangan yigit-qizlar oliy ta’lim muassasalarida tahsil olgan. 2017 yilda taxminan 142 000 nafar bolalar maktabga qatnamagan va ularning 60 foizini qiz bolalar tashkil qilgan bo‘lib, ana shu bolalarni aksariyati nogironligi bo‘lgan bolalar toifasiga kirishi aytilmoqda. Maktabga qatnamaydigan bolalar ulushi mamlakatdagi o‘rtacha ko‘rsatkichlarga nisbatan (3 foiz) kattaroq bo‘lgan hududlar qatoriga quyidagilar kiradi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi (7,5 foiz), Sirdaryo viloyati (4,5 foiz), Samarqand viloyati (4,4 foiz), Buxoro viloyati (4,3 foiz) va Toshkent viloyati (4,2 foiz).

Jismoniy yoki ruhiy jihatdan rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning jamiyatda tenglashib ketishi, ularga to‘laqonli ta’lim berish va maxsus ta’lim mazmunini davr talabiga muvofiq takomillashtirish vazifasini amalga oshirish bugungi kun talabidir. Maxsus ta’lim Darsliklarining mazmunini yangilash, takomillashtirish bo‘yicha anchagina ijobiy ishlar olib borilmoqda.

XULOSA: Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish ko‘zda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. A.Saidov – Nogironlar huquqlarini ta’minlash: milliy va xalqaro yondashuvdagi o‘zaro mushtaraklik/Yangi O‘zbekiston, 2022-yil 19-fevral. – №37 (559) – B. 3.

3. Abdullayev K. Mehr-muruvvat mezoni / Xalq so‘zi, 2015-yil 3-dekabr. №233 (6416) – B. 3.

4. 2019/2020 O‘zbekistondagi bolalar vaziyatining tahlili. – Toshkent: YUNISEF. 2020. – B. 54-56.

YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIMNING SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH TENDENSIYALARI

Vasiyeva Dilorom Ibragimovna
Qarshi davlat texnika universiteti professori v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ta’lim sohasini tubdan isloh qilinishi, xalqaro tajribalarni

o‘rganish va ularni mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish, ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan, ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ko‘plab qonunlar qabul qilinayotganligi, ta’lim sifati va samaradorligiga erishish har qanday davlat milliy ta’lim tizimining bosh maqsadi ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv jarayonlari, texnologik taraqqiyot va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, ta’lim, ilm-fan, jamiyat taraqqiyoti, oliy ta’lim, mutaxassis, islohot, intellektual taraqqiyot, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot, nodavlat ta’lim muassasalari, intellektual salohiyat.

ТЕНДЕНЦИИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Васиева Дилором Ибрагимовна
И. о. профессора Каршинского государственного технического университета

Аннотация: В данной статье анализируется одна из важнейших задач, стоящих перед Новым Узбекистаном, — коренное реформирование сферы образования, изучение международного опыта и его адаптация к национальной системе образования. Рассматривается принятие многочисленных законодательных актов, регулирующих отношения в сфере образования и направленных на повышение его качества. Подчеркивается, что достижение высокого качества и эффективности образования является одной из главных целей национальной системы образования любого государства.

Ключевые слова: процессы глобализации, технологический прогресс и изменения на рынке труда, образование, наука, развитие общества, высшее образование, специалист, реформы, интеллектуальное развитие, социальное и экономическое развитие, негосударственные образовательные учреждения, интеллектуальный потенциал.

TRENDS IN IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF NEW UZBEKISTAN

Vasiyeva Dilorom Ibragimovna
Acting Professor at Karshi State Technical University

Abstract: This article analyzes one of the most important tasks facing New Uzbekistan — the fundamental reform of the education sector, the study of international experience and its adaptation to the national education system. It also examines the adoption of numerous laws regulating relations in the field of

education and aimed at improving the quality of education. The article emphasizes that achieving high quality and effectiveness in education is one of the primary objectives of the national education system of any state.

Keywords: globalization processes, technological progress and changes in the labor market, education, science, social development, higher education, specialist, reform, intellectual development, social and economic development, non-state educational institutions, intellectual potential.

KIRISH: Shiddat bilan rivojlanib borayotgan Yangi O‘zbekistonning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri oliy ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Globallashuv jarayonlari, texnologik taraqqiyot va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar oliy ta’lim muassasalaridan zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni talab etmoqda. Shuningdek, ta’lim sifati faqatgina bilimlarning o‘zlashtirilishi bilan emas, balki talabalar fikrlash qobiliyati, amaliy ko‘nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan ham belgilanadi. Oliy ta’lim samaradorligini oshirish uchun ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘qitish metodlarini yangilash, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini doimiy ravishda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Undan tashqari, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, Yangi O‘zbekistonning bugungi qiyofasi, mamlakatimizning jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni va mavqeyi, muhim xalqaro ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki, dolzarb masalalar bo‘yicha ilgari surayotgan ko‘plab tashabbuslarining mazmun mohiyati chuqur tahlil va dalillar, aniq fikr-mulohazalar asosida teran yoritib berilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning nafaqat O‘zbekiston, balki butun jahon hamjamiyati tomonidan ham alohida e’tibor qaratilayotgan eng dolzarb masalalardan biri – inson qadri, huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik tamoyiliga alohida to‘xtalgani ayni muddaodir. Ta’lim tizimining eng asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan oliy ta’limning tubdan o‘zgartirilishi mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bois ta’lim tizimida o‘quv, ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari darajasida rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

ASOSIY QISM: Bugungi kunda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining kuchayishi har bir davlat uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni talab etadi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida qayd etilishicha, oliy ta’lim mamlakat taraqqiyotining yetakchi omiliga aylanmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyojdan kelib chiqib, oliy ta’lim qamrovi tobora kengayib bormoqda.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘plab yangi oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlardan biridir. Natijada, oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 23 foizdan 43 foizga yetkazildi. Bu ko‘rsatkich mamlakatda oliy ta’lim ommaviylashuvi, bilimga bo‘lgan talab va qiziqishning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Talabalar soni ham sezilarli darajada oshib, 2017-yilda qariyb 280 ming nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 4,8 baravarga oshib, 1,2 mln nafarni tashkil etdi. O‘quvchilar soniga mutanosib ravishda ta’lim dasturlarining turfa xillashishi, zamonaviy yo‘nalishlar ochilishi va mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyati kengaydi. Shu bilan birga, OTMlardagi umumiy ilmiy salohiyat 2017 yildagi 32 foizdan 2024-yil uchun 44 foizga yetkazildi. Ilmiy salohiyatning bunday o‘sishi universitetlarning tadqiqot markazlari sifatida rolini kuchaytirib, ularni faqat ta’lim emas, balki ilmiy-innovatsion faoliyat markazlariga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari soni 77 tadan 211 taga yetdi, nodavlat OTMlar soni 7 tadan 99 tagacha ko‘paydi, qamrov darajasi 23 foizdan 43 foizga oshdi; talabalar soni 280 ming nafardan 1,2 mln nafargacha, ya’ni 4,8 baravarga ko‘paydi. Doktorantura kvotalari 247 nafardan 9 026 nafargacha kengaydi, ilmiy salohiyat esa 32 foizdan 44 foizga oshdi — bularning barchasi ta’lim sohasi mamlakat rivojlanish strategiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylanganini yaqqol tasdiqlaydi.

Intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviylik va aloqadorlik mustahkam yo‘lga qo‘yilsa, bu yo‘nalishda malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta’minlash hamda mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Ayniqsa uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globallashuv jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu o‘z navbatida ta’lim sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Yangi O‘zbekistonda oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida

belgilanganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Bu kabi islohotlar samaradorligini oshirish, uning nazariy-uslubiy va ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish orqali soha taraqqiyotini ta’minlashga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatini aks ettiradi.

Yoshlarni tegishli mutaxassislik, hunar va kasblarini chuqur egallashlari, shuningdek, Vatan va millat manfaatlari yo‘lida fidoyilik ko‘rsata oladigan barkamol shaxsni tarbiyalash ham oliy ta’lim zimmasidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. O‘z o‘zidan ma’lumki tez o‘zgarib, tez rivojlanayotgan dunyoda til biladigan, kasbini puxta egallagan, kreativ fikrlaydigan va shu bilan birga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yosh avlodgina hayotda munosib o‘z o‘rnini topa oladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston aholisi tarkibida yoshlar 60 foizdan ko‘proqni tashkil etadi. Bu mamlakatimizda inson kapitaliga investitsiya yo‘naltirish zarurati juda katta hajmda bo‘lishi kerakligini anglatadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug‘ bo‘lgan diyor - Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi dastlabki natijalardir. Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom ettiramiz va oldimizga qo‘ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz. “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”, kabi ulkan g‘oyalari faoliyatimizning bosh mezoniga aylanmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”, kabi ulkan g‘oyalari faoliyatimizning bosh mezoniga aylanmoqda.

Mamlakatimizda inson manfaatlarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tarishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar xalqimizning ijtimoiy, siyosiy hayotini, ma’naviy olamini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Haqiqatdan ham, yurtboshimizning g‘oyalari, tashabbuslari va bevosita rahnamoligi ostida olib borilgan barcha islohotlar, reja va dasturlar, amaliy va sa’y-harakatlar avvalambor inson uchun, uning manfaatlari, farovon hayoti, xavfsizligi va orzu-umidlarining ro‘yobga chiqishi uchun qaratilgandir.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun o‘quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta’lim sifatini oshirish uchun samarali baholash tizimlari, talabalarni mustaqil ta’lim va tadqiqot faoliyatiga jalb etish, hamkorlik va xalqaro tajribalarni

o‘rganish zarur. Oliy ta’limda innovatsion yondashuvlar va ilg‘or amaliyotlarni tatbiq etish natijasida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Oliy ta’lim tizimidagi o‘zgarishning asosiylaridan yana biri yangi avlod darsliklarining yaratilishi, davlat ta’lim standartini shakllantirish bo‘ldi. Bu jarayonda professor-o‘qituvchilar tomonidan ilm-fan sohasidagi innovatsiyalarni qo‘llagan holda turli yo‘nalish va mutaxassislik fanlaridan ko‘plab darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratilmoqda. Oliy ta’limning maqsadi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta’minlashga, o‘zi tanlagan mutaxassislik bo‘yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ishlashga layoqatli, yuqori malakali, raqobatdardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Respublika oliy o‘quv yurtlarida talabalar bilim olish bilan birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarini ham olib boradilar. Talabalarning ilmiy mavzulari ixtisosligi bo‘yicha tegishli ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy tadqiqot muassasalari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining xorijdagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan aloqasini kuchaytirish, chet el investitsiyalarini ta’lim sohasiga jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro hamkorligi ta’lim tizimini takomillashtirish va uni jahon andozalariga ko‘tarish, malakali ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash, xorijiy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatish, professor-o‘qituvchi, doktorant, magistrant va talabalarning til va kasbiy malakasini oshirish hamda ta’limning turli yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba almashish maqsadida amalga oshirilmoqda.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, Oliy ta’lim sifatini va samaradorligini oshirish doimiy rivojlanish, zamonaviy talablarga moslashuvchanlik va ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish bilan chambarchas bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Javliyeva Sh.B “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari”, Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 yil № 12) – B. 54.

2. Ta’lim sifati tubdan yangilanadi. Xalq so‘zi. 2020-yil, 9-oktabr, – №212. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr

3. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son

4. Kurbanov D.M “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv faoliyati samaradorligini monitoring qilish tizimini loyihalashning tashkiliy-pedagogik asoslari”, Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 15 (100), chast1 «Nauchniy Fokus» Iyulya, 2024. – B. 229.

5. https://review.uz/oz/post/infografika-2017-2024-yillarda-talim-sohasini-rivojlantirishning-asosiy-korsatkichlari

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA YAPONIYA O‘RTASIDAGI ILMIY HAMKORLIK: SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI

Karyogdiyeva Dilfuza Baxramovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida ilm-fan sohasidagi hamkorlikning shakllanishi, rivojlanishi va istiqbollari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Shuningdek, ikki mamlakat olimlari va ilmiy-tadqiqot markazlari o‘rtasida yaqin aloqalarni o‘rnatish, dolzarb muammolar bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar olib borish, o‘zaro stajirovkalar va ilmiy safarlarni tashkil etish, shuningdek, xalqaro ilmiy konferensiyalar va simpoziumlar o‘tkazish masalalari tahlil qilingan. Qo‘shma ekspeditsiyani tashkil etish natijasida Dalvarzintepa yodgorligida o‘tkazilgan o‘zbek-yapon arxeologik ekspeditsiyasining amaliy ahamiyati o‘rganilgan. Xususan, ikki mamlakat o‘rtasidagi uzoq yillik ilmiy aloqalar hamda o‘zbekistonlik mutaxassislarning Yaponiya tomonidan tashkil etilgan kongresslar, konferensiyalar va ijodiy uchrashuvlardagi ishtiroki tahlil qilingan. O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlash va yanada rivojlantirish maqsadida imzolangan “Sakura” dasturining ilmiy hamkorlikni kengaytirishdagi ahamiyati tahlil etilib, muallif tomonidan tegishli takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Yaponiya, ilmiy hamkorlik, xalqaro ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, yadro fizikasi, seysmologiya, mikrobiologiya, o‘zbek-yapon arxeologik ekspeditsiyasi, Dalvarzintepa, “Madaniyat karvonsaroyi” binosi, “O‘zbekiston va Yaponiya Buyuk Ipak yo‘lida” xalqaro ilmiy konferensiyasi, “Sakura Science” dasturlari, KOSEN.

НАУЧНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И ЯПОНИЕЙ: ФОРМИРОВАНИЕ, РАЗВИТИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Карёгдиева Дилфуза Бахрамовна
Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами.

Аннотация. В данной статье проводится научное исследование формирования, развития и перспектив сотрудничества между Узбекистаном и Японией в области науки. Также были проанализированы вопросы установления тесных связей между учеными и научно-исследовательскими центрами двух стран, проведения совместных исследований по актуальным проблемам, организации взаимных стажировок и научных поездок, а также организации международных научных конференций и симпозиумов. Была изучена практическая значимость узбекско-японской археологической экспедиции, проведенной у памятника Далверзинтепа в результате совместной организации экспедиции. В частности, был проведен анализ давних научных связей между двумя странами и участия узбекских специалистов в конгрессах, конференциях и творческих встречах, организованных Японией. Проанализировано значение программы «Сакура», подписанной для укрепления и дальнейшего развития научных связей между Узбекистаном и Японией, для расширения научного сотрудничества, и выдвинуты предложения автора.

Ключевые слова: Узбекистан, Япония, научное сотрудничество, международные научные конференции, симпозиумы, ядерная физика, сейсмология, микробиология, узбекско-японская археологическая экспедиция, Далварзинтепа, здание «Каравансарая культуры», международная научная конференция «Узбекистан и Япония на Великом Шелковом пути», программы «Sakura Science», KOSEN.

SCIENTIFIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND JAPAN: FORMATION, DEVELOPMENT AND PROSPECTS

Karyogdieva Dilfuza Bakhramovna,
National pedagogical university of Uzbekistan named after Nizami.

Annotation. This article scientifically studies the formation, development, and prospects of cooperation between Uzbekistan and Japan in the fields of science. The issues of establishing close ties between scientists and research centers of the two countries, conducting joint research on current issues, organizing mutual internships and scientific trips, and organizing international scientific

conferences and symposia were also analyzed. The practical significance of the Uzbek-Japanese archaeological expedition conducted at the Dalverzintepa monument as a result of the joint organization of the Uzbek-Japanese archaeological expedition was studied. In particular, the long-standing scientific relations between the two countries and the participation of Uzbek specialists in congresses, conferences, and creative meetings organized by Japan were analyzed. The significance of the Sakura Science Program, signed to strengthen and further develop scientific ties between Uzbekistan and Japan, for expanding scientific cooperation, was analyzed, and author's proposals were put forward.

Key words: Uzbekistan, Japan, scientific cooperation, international scientific conferences, symposia, nuclear physics, seismology, microbiology, Uzbek-Japanese archaeological expedition, Dalvarzintepa, "Caravanserai of Culture" building, international scientific conference "Uzbekistan and Japan on the Great Silk Road", Program "Sakura Science" KOSEN.

KIRISH: O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikni ko‘rib chiqishda, birinchi navbatda, uning salohiyatiga e’tibor qaratish muhimdir. O‘zbekistonda jahon fan va texnologiyalari yutuqlaridan muvaffaqiyatli foydalangan ko‘plab qobiliyatli va iqtidorli shaxslar borligi bilan faxrlanish mumkin. Buni O‘zbekiston hozirda Markaziy Osiyodagi eng yirik ilmiy markaz ekanligi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p asrlik tarixga ega. Yaponiyaning mashhur Nara shahri muzeyida so‘g‘d yozuvida bitilgan yodgorliklar borligi buni yaqqol tasdiqlaydi. Yapon arxeologi, marhum professor Kato tomonidan Kushon podshohligining dastlabki poytaxti bo‘lgan O‘zbekistondagi Dalvarzintepadan topilgan budda ibodatxonasi va qirqqa yaqin haykallar yapon va jahon ilmiy jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda” [1.].

Biroq, mamlakatning asosiy ilmiy markazi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bo‘lib, u yerda tabiiy fanlar va gumanitar fanlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borayotgan ko‘plab olimlar guruhi joylashgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik keng rivojlandi. Ushbu hamkorlik ikki mamlakat olimlari va tadqiqot markazlari o‘rtasida yaqin aloqalarni o‘rnatish, dolzarb masalalar bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish, o‘zaro amaliyot va ilmiy safarlar, xalqaro ilmiy konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirok etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu hamkorlik, shuningdek, ilmiy maqolalar almashinuvi va olimlarning ma’ruzalar va konsultatsiyalar uchun o‘zaro tashriflari shaklida ham amalga oshiriladi. Hamkorlikning sanab o‘tilgan shakllari ilmiy yutuqlar bilan yaqinroq va chuqurroq

tanishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi va shu bilan ikki mamlakat o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

ASOSIY QISM: Muammoning o‘rganilganlik darajasini tahlil etar ekanmiz, mazkur masalaga bag‘ishlab mahalliy va xorijiy tarixshunoslikda ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. O‘zbekistonlik olimlardan S.Sh.Azizov [2; 2181-1784.], E.Nuriddinov [13; 398.], S.Ktaybekov [5.], A.Alimova [3.], M.Ismailov, Y.Tsujinaka [4; 157-177.], E.Maxmudov, Tosinobu Usuyama [6] va boshqalar, xorijlik mualliflardan F.P.Urazayeva [15.], Ye.Ye.Nechay [10.], S.V.Chugrov [19; 53-67.], O.G.Paramanov, O.V.Puzanova [14; 42-60.], S.A.Nikolayev [11; 25.] kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini keltirib o‘tish mumkin.

Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga izchil amal qilindi.

O‘zbekiston va Yaponiyadagi ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasida tabiiy fanlar sohasida samarali ikki tomonlama aloqalar rivojlanmoqda. Ikki mamlakat olimlari o‘rtasida, xususan, yadro fizikasi, seysmologiya, mikrobiologiya, o‘simliklar kimyosi va boshqa sohalarda yaqin aloqalar o‘rnatilgan. Bu aloqalar, birinchi navbatda, olimlar va tadqiqot markazlarining o‘zaro qiziqish uyg‘otadigan dolzarb masalalarni hal qilishda, ilmiy tajribalar o‘tkazishda, ilmiy konferensiyalar va simpoziumlarni tashkil etishda ishtirok etishini o‘z ichiga oladi, bu esa olimlar o‘rtasida yutuqlar almashinuvi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Masalan, 1995-yil noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Elektronika institutida fizik elektronika bo‘yicha birinchi milliy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda ko‘plab mamlakatlardan taniqli fiziklar, jumladan, Germaniya, Rossiya va Yaponiya vakillari ishtirok etishdi [16.]. Xususan, Yaponiya Atrof-muhit salomatligi milliy institutining Fizika va kimyo kafedrasida ishlaydigan Toshihiro Fujii Yaponiya delegatsiyasi nomidan taqdimot qildi. Uning tadqiqotlari atrof-muhitdagi ifloslantiruvchi moddalar bo‘lishi mumkin bo‘lgan organik birikmalarning sirt ionlanishiga va ushbu kanserogenlarni aniqlash usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Zararli moddalarni aniqlashning ushbu texnologiyasi va usuli O‘zbekistonda yaxshi rivojlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, dunyoda faqat uchta mamlakat — Yaponiya, Isroil va O‘zbekiston — bu masala ustida ishlamoqda [16].

O‘zbekistonda akademik U.X.Rasulev tomonidan boshlangan va fizika-matematika fanlari doktori E.G.Nazarov tomonidan maqsadli ravishda yakunlangan ushbu ilmiy muammo xalqaro standartlarga javob beradigan kanserogen moddalarni aniqlash uchun asboblarni birgalikda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga olib keldi. Bu fan sohasidagi katta yutuqdir. Shu munosabat

bilan, konferensiya davomida yapon olimi ko‘plab yangi ma’lumotlarga ega bo‘ldi va o‘z tajribasini o‘zbek olimlari bilan baham ko‘rdi. Ikki mamlakat olimlari va gumanitar fanlar bo‘yicha tadqiqot markazlari o‘rtasida shunga o‘xshash aloqalar o‘rnatildi. Mustaqillik O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti va O‘zbekiston San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti arxeologlari bilan Yaponiyaning Soka universiteti olimlari o‘rtasida ilmiy aloqalarni o‘rnatish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekiston va Yaponiya arxeologlari o‘rtasidagi hamkorlikka kelsak, shuni ta’kidlash kerakki, ikki mamlakat olimlari va tadqiqot markazlari o‘rtasidagi yaqin aloqalar respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab faol rivojlanib kelmoqda. O‘zbek xalqining boy qadimiy tarixini o‘rganish va mahalliy aholining o‘ziga xos turmush tarzi va madaniy-ma’naviy hayoti haqida yangi, ilgari kashf etilmagan faktlarni aniqlash uchun 1990-yillarda respublikamizda qo‘shma o‘zbek-yapon arxeologik ekspeditsiyasi ish boshladi. Ikkala mamlakat olimlarining qo‘shma ishlari asosan respublikaning janubida, Surxondaryo viloyatida olib borildi. Bu yerda Dalvarzintepaning qadimiy joyida arxeologik qazishmalar ko‘p yillardan beri davom etib kelmoqda.

Dalverzintepa yodgorligi qal’asida o‘zbek olimlari yapon olimlari bilan birgalikda bir necha yillardan beri qo‘shma arxeologik qazishmalar olib borishmoqda, qalinligi taxminan 4 metr bo‘lgan milodiy VI-VIII asrlarga oid ilk o‘rta asr madaniy qatlamlarini o‘rganmoqdalar. Qazish ishlarining umumiy maydoni 900 kvadrat metrdan ortiq. Bu raqamlar, jumladan, arxeologlar ishining puxtaligi haqida ko‘p narsani anglatadi.

O‘zbek-yapon arxeologik ekspeditsiyasi birgalikdagi ishlari davomida ko‘cha bilan ajratilgan ikkita turar-joy majmuasidan o‘ndan ortiq turli maqsadlardagi binolarni tekshirishga muvaffaq bo‘ldi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, binolardan birida non pishirish uchun tandirli pechli hovli bo‘lib, unda ko‘plab singan idishlar bor edi. Tadqiqotchilarning taxmin qilishicha, bu joy aholi punkti aholisi ovqatlanish uchun yig‘iladigan taverna (oshxona, mehmonxona) bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishi mumkin [8].

Bundan tashqari, qo‘shma arxeologik qazishmalar paytida O‘zbekiston-Yaponiya ekspeditsiyasi fil suyagidan yasalgan buyumlarni topdi. Ular orasida jabduqli otning old qismi va ikkita naycha o‘yilgan lavha alohida qiziqish uyg‘otdi: biri chetlari bo‘ylab o‘yilgan halqa shaklidagi, rolik shaklidagi bezak va ular orasida to‘rtta o‘xshash juft tasma bilan bezatilgan, ikkinchisi esa ko‘ndalang kesimi ko‘p qirrali edi. Olimlar ular igna g‘iloflari, ikkala uchida tiqinlar bilan muhrlangan igna g‘iloflari yoki oyna va pichoqlar uchun tutqich sifatida ishlatilgan bo‘lishi mumkin degan gipotezani ilgari surdilar.

Tadqiqotning yana bir ilmiy topilmasi ekspeditsiya a’zolari tomonidan qal’adan 100 metr janubi-g‘arbda joylashgan qadimgi nekropol qoldiqlarining topilishi bo‘lib, unda keramik sarkofaglar va xumlar dafn etilgan. Xumlardan birida olimlar saqlanib qolgan tirnalgan Baqtriya yozuvini topdilar, bu yozuv “Vresman tomonidan yasalgan” yoki “Vresman (bu idishni) yasagan” deb tarjima qilinadi [8.].

Ko‘rib turganimizdek, o‘zbek va yapon arxeologlarining qo‘shma hamkorligi orqali juda ko‘p ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston janubidagi Dalverzintepa yodgorligiga o‘tkazilgan o‘zbek-yapon arxeologik ekspeditsiyasi natijasida katta miqdordagi materiallar to‘plandi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, respublikamizdagi o‘zbek-yapon ekspeditsiyasining to‘laqonli ishiga Ipak yo‘li tadqiqot instituti direktori va Tokio milliy san’at universiteti rektori Ikuo Xiroyama homiylik qilmoqda. Shuningdek, u hozirda Toshkentda faoliyat yuritayotgan “Madaniyat karvonsaroyi” binosini yaratish tashabbusi bilan chiqqan. Tarixan Sharqdagi karvonsaroylar savdogarlar va sayohatchilar karvonlari uchun mehmonxona vazifasini o‘tagan mehmonxonalar bo‘lgan. Ular qadim zamonlardan beri karvon yo‘llari bo‘ylab va yaqin atrofdagi aholi punktlari va shaharchalarda qurilgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Asrlar davomida shakllangan an’anani davom ettirib, O‘zbekiston poytaxti markazidagi “Madaniyat karvonsaroyi” turli mamlakatlar va xalqlardan kelgan fan, san’at va madaniyat vakillarining uchrashuv joyiga aylandi. Bundan tashqari, 2002-yilda ushbu bino yonida muzey qurildi va o‘sha yilning oktyabr oyida taniqli olim, rassom, siyosatchi, jamoat arbobi va xayriyachi Ikuo Xiroyamaning rasmlari ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi [8].

Shuni ham ta’kidlash joizki, janob Ikuo Xiroyama, Yaponiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi va bir nechta gumanitar jamg‘armalar ko‘magida Toshkentda konferensiya zali qurildi, u forumlar o‘tkazilmagan paytda o‘quv zali bo‘lib xizmat qiladi. Uning kutubxona fondlarida uch mingdan ortiq yangi kitoblar mavjud. O‘zbek-yapon arxeologik ekspeditsiyasi haqida gapirganda, 500 dan ortiq yapon tarixchilari, arxeologlari, etnograflari va jurnalistlari qo‘shma tadqiqotlari davomida O‘zbekistonga tashrif buyurganini ta’kidlash joiz. Yaponiyalik arxeologlar orasida dunyoga mashhur yapon olimi professor Kyudzo Kato alohida e’tiborga loyiqdir.

Kyudzo Kato o‘zbek xalqining qadimiy madaniyatini diqqat bilan o‘rganuvchi, bilimdon va mehr-shafqatli tadqiqotchi sifatida respublikamizga tez-tez tashrif buyurgan. Uning tadqiqotlari o‘zbek xalqining ma’naviy merosini targ‘ib qilishga katta hissa qo‘shadi. U mintaqamiz tarixiga bag‘ishlangan o‘nlab kitoblar, jumladan, “Janubiy O‘zbekistonning qadimiy yodgorliklari”, “Markaziy Osiyo bo‘ylab sayohat”, “Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida” va “Markaziy Osiyoning taniqli odamlari” kitoblarining muallifidir [12; 128].

Yoshi katta bo‘lishiga qaramay, yapon olimi professor Kyudzo Kato Eski Termizdagi Qoratepada olib borilgan qazishmalarda faol ishtirok etgan. Xayriyachi sifatida u Dalverzintepada o‘z mablag‘lari hisobidan ikki qavatli katta uy qurdi, unda muzey va arxeologlar uchun barcha zarur yashash va dam olish maskanlari joylashgan edi. Bu uy “Katoning uyi” deb nomlangan va qazish ishlariga kelgan barcha olimlar u yerda taskin va e’tibor topadilar. Shuni ta’kidlash kerakki, Kyuzo Kato olim va O‘zbekiston-Yaponiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining ilmiy rahbari sifatida O‘zbekiston ilmiy doiralarida keng e’tirofga sazovor bo‘ldi. Shu sharoitlarni hisobga olgan holda, ikki mamlakat arxeologlari o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni rivojlantirishga qo‘shgan faol hissasi, shuningdek, mamlakatimiz janubidagi ekspeditsiya tadqiqotlaridagi samarali faoliyati uchun Kyudzo Kato O‘zbekiston Badiiy akademiyasining San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining faxriy doktori etib saylandi [12; 129].

Bundan tashqari, xalqimizning ma’naviy-axloqiy merosi, tarixi va me’moriy yodgorliklarini o‘rganish va xorijda targ‘ib qilishdagi ulkan yutuqlari hamda O‘zbekiston bilan Yaponiya o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Kyudzo Kato O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 3-maydagi maxsus Farmoni bilan “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan [18].

O‘zbekiston va yapon olimlari o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikdagi yana bir muhim voqea 2006-yil sentyabr oyida Tokioda Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya bo‘ldi. Chuo universiteti Siyosiy va madaniy tadqiqotlar instituti, Yaponiya Markaziy Osiyo tadqiqotlari assotsiatsiyasi va O‘zbekiston elchixonasi tomonidan tashkil etilgan konferensiyada yetakchi sharqshunos olimlar, tarixchilar, arxeologlar va mamlakat jamoatchiligi vakillari ishtirok etdi [9].

Ta’kidlash joizki, konferensiya o‘tkazilgan Chuo universiteti Yaponiyaning yetakchi tadqiqot markazlaridan biri hisoblanadi. 120 yildan ortiq tarixi davomida u o‘z mamlakati rivojiga katta hissa qo‘shgan ko‘plab taniqli olimlar va davlat arboblarini yetishtirib chiqardi. Keng qamrovli tadqiqot dasturi tufayli universitetda O‘zbekiston tarixini o‘rganayotgan taniqli yapon olimlari va tadqiqotchilari ishlaydi. Konferensiyada so‘zga chiqqan olimlar, ayniqsa, Xorazm akademiyasida ishlagan al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Iroq va boshqa buyuk allomalarning fan va madaniyatga qo‘shgan ulkan hissalarini ta’kidladilar. Turli sohalarda fundamental tadqiqotlar olib boriladigan Ma’mun akademiyasining hozirgi faoliyati haqida hujjatli film konferensiya ishtirokchilarida alohida qiziqish uyg‘otdi. Shu bilan birga, Yaponiya akademik doiralari vakillari O‘zbekiston hukumatining o‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosini o‘rganishga qaratayotgan ulkan e’tiborini yuqori baholadilar, buning yorqin namunasi Xorazm Ma’mun akademiyasining qayta tiklanishidir.

Konferensiyada so‘zlagan nutqida Kioto universiteti professori Toru Xorikava “Algebra, geometriya, astronomiya, falsafa va tibbiyot kabi fanlarning asosini yaratgan buyuk Sharq olimlarining tadqiqotlari Yaponiyada yaxshi ma’lum. Ikki mamlakat akademik doiralari o‘rtasidagi hamkorlikning tobora rivojlanib borayotganidan mamnunman. O‘zbek va yapon mualliflarining o‘nlab qo‘shma ilmiy maqolalari va kitoblari allaqachon nashr etilgan. 2003-yildan beri Kioto universiteti Markaziy Osiyoni va xususan, O‘zbekiston tarixini o‘rganuvchi sharqshunoslarning ilmiy konferensiyalariga mezbonlik qilib kelmoqda”, deb ta’kidladi [12; 131].

Ko‘rib turganimizdek, O‘zbekiston va Yaponiya olimlari va tadqiqot markazlari o‘rtasida fan sohasida eng faol va jonli aloqalar o‘rnatildi va saqlanib qoldi. Bu aloqalar, birinchi navbatda, turli ilmiy sohalarda yangi yutuqlarni birgalikda qo‘lga kiritishga va eng muhimi, bilimlarni o‘zaro boyitishga va eng muhimi, ikki mamlakat xalqlari o‘rtasida o‘zaro tushunishga qaratilgan bo‘lib, bu davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

O‘zbekistondagi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar fonida ilm-fan sohasida yaqin aloqalar va hamkorlikning yangi shakllari paydo bo‘ldi. Bular qatoriga dolzarb zamonaviy muammolar bo‘yicha yirik xalqaro ilmiy konferensiyalar va ikki mamlakatdagi tadqiqot markazlari o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish kiradi. Buning yorqin misollaridan biri 2019-yil dekabr oyida Tokioda bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston va Yaponiya Buyuk Ipak yo‘lida” xalqaro ilmiy konferensiyasidir. U O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati, O‘zbekiston Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O‘zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasi va Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan tashkil etildi [7].

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi uzoq yillik ilmiy aloqalar va Yaponiya tomoni tomonidan tashkil etilgan kongresslar, konferensiyalar va ijodiy uchrashuvlarda o‘zbekistonlik mutaxassislarning ishtirokini ko‘rish mumkin. “O‘zbekiston va Yaponiya Buyuk Ipak yo‘lida” xalqaro ilmiy konferensiyasi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan Yaponiyada o‘tkazilgan birinchi keng ko‘lamli tadbir bo‘ldi. Konferensiyada Yaponiya muzeylarida saqlanayotgan o‘zbek artefaktlarini o‘rganayotgan yapon mutaxassislari ishtirok etgan “O‘zbekiston madaniy merosi jahon kolleksiyalarida” xalqaro multimedia loyihasining taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Yaponiyalik mutaxassislarning tadqiqotlari natijalari “O‘rta Osiyo san’ati Yaponiya kolleksiyalarida” nomli kitob-albomda aks ettirilgan. Kitob-albomning ahamiyati shundaki, u to‘rt tilda — yapon, o‘zbek, ingliz va rus tillarida nashr etilgan. Bundan tashqari, Yaponiya tomoni bilan hamkorlikda O‘zbekistonning Yaponiya kolleksiyalaridagi madaniy merosi haqida hujjatli film suratga olindi. Ushbu

asarlarning barchasi “O‘zbekiston va Yaponiya Buyuk Ipak yo‘lida” xalqaro ilmiy konferensiyasida taqdim etildi [7].

O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiyaning ilm-fan sohasidagi hamkorlikni maqsadida Ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan yana biri Yaponiya hukumatining “Rivojlanishga rasmiy yordam” dasturi hisoblanadi. Iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa infratuzilmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ushbu dastur Markaziy Osiyo mamlakatlariga moliyaviy-texnik yordam ko‘rsatadi. Dasturni amalga oshirilishi doirasida mintaqaga ajratilgan mablag‘dan 57 foizi O‘zbekistonga to‘g‘ri keladi. Bu Yaponiya mintaqada O‘zbekistonga muhim o‘rin ajratganidan darak beradi. Mazkur yordam uch turda — imtiyozli kredit, beg‘araz yordam, texnik ko‘mak (ekspertlarni yuborish, TIA tay-yorlash, tadqiqotlar o‘tkazish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish) ko‘rinishida JICA liniyasi bo‘yicha 1993-2019-yillarda qo‘yidagi tartibda taqdim etildi: imtiyozli kredit – 2,52 milliard dollar; grant – 169,7 million dollar; texnik yordam – 62,2 million dollar. Yaponiyaning xalqaro hamkorlik banki (JBIC) liniyasi bo‘ycha umumiy qiymati 1 905,0 million dollarlik 7 ta loyiha amalga oshirildi, 721 million dollarlik tijorat krediti ajratildi, shu jumladan, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasini qurish uchun 622,2 million, Buxoro neftni qayta ishlash zavodiga 59 million, “Ko‘kdumaloq” konidagi kompressor stansiyasiga 76 million, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi rekonstruksiyasiga 83 million ko‘maklashildi [20].

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlash va yanada rivojlantirish yo‘lidagi yana bir muhim qadam Sakura fan dasturi doirasida ilmiy hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi bo‘ldi. Ushbu bitim 2025-yil oktyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vaziri va Yaponiya fan va texnologiyalar agentligi vitse-prezidenti janob Morimoto Shigeo o‘rtasida imzolangan. Ushbu bitimni imzolash jarayonida O‘zbekiston tomoni yapon texnologiyalari va tajribasi ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarayotganini ta’kidladi. Xususan, robototexnika sohasidagi qo‘shma tashabbuslar o‘zbek yoshlarining ushbu sohaga qiziqishini oshirayotgani ta’kidlandi. Bundan tashqari, Yaponiya Milliy texnologiya instituti (KOSEN) bilan hamkorlikda bo‘lajak muhandislarni tayyorlash bo‘yicha qo‘shma dasturni ishga tushirish rejalari qayd etildi [17].

XULOSA: Shunday qilib, ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik keng ko‘lamli faoliyatni qamrab oladi. Ular ta’lim, kadrlar tayyorlash va ilm-fan sohalarida aniq umumiy til topadilar, bu esa O‘zbekiston uchun katta ahamiyatga ega.

Yaponiyaning keng tajribasini o‘zlashtirishga, shuningdek, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va O‘zbekiston ta’lim muassa-salarini zarur jihozlar bilan ta’minlash uchun maqsadli moliyaviy yordam ko‘rsa-tishga yordam beradi. Shu

bilan birga, ikki mamlakatning yetakchi universitetlari va ilmiy-tadqiqot markazlari o‘rtasida yaqin aloqalarni o‘rnatish yangi, dolzarb dasturlar va loyihalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday hamkorlikni rivojlantirish, shubhasiz, O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va hamkorlikni kengaytirishga katta hissa qo‘shadi.

Xususan, ilm-fan sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida ilm-fan sohasiga doir vazirlarning uchrashuvini va ilmiy tadqiqot institutlari rahbarlarining forumini tashkil etish va yoshlarni intellektual salohiyati va “StartUp” loyihalarini rivojlantirishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston o‘zining geostrategik joylashuviga ko‘ra, mintaqada doimo o‘zining boy madaniy-tarixiy merosi bilan Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog‘lab kelganligi bois, Yaponiyaning ilmiy tadqiqot markazlari bilan O‘zbekistonning ilmiy markazlari (Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Strategik islohotlar agentligi, Markaziy Osiyo xalqaro instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti kabilar) bilan integratsiyalashgan holda ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ta’kidlash joizki, insoniyat sivilizatsiyasida munosib o‘rin egallagan O‘zbekiston mintaqada bugungi kunda ham xalqaro munosabatlarning muhim halqasi bo‘lib, ana shu halqada Yaponiya bilan ilm-fan sohasidagi hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyevning Nagoya universitetidagi uchrashuvdagi nutqi. // https://xabar.uz/uz/talim/shavkat-mirziyoyevning-nagoya (Murojaat etilgan sana: 20.03.2026.).

2. Азизов С.Ш. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Research BIB / Index Copernicus (E)ISSN: 2181-1784 5(6), 2025.

3. Алимова А., Узбекистан – Япония: стратегическое партнерство в новых условиях. https://uza.uz/ru/posts/uzbekistan-yaponiya-strategicheskoe-partnerstvo-v novyx-usloviyax_615278

4. Ismailov M., Tsujinaka Y. Comparing Two Asian Perspectives: Nurturing Social Capital in Uzbekistan and Japan // Social Capital Construction … P. 157–177.

5. Ктайбеков С. Узбекистан и Япония: новые грани сотрудничества в сфере туризма. // https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43830

6. Махмудов Э., Тосинобу Усуяма. Узбекистан и Япония: новый виток в развитии двусторонних отношений // Правда востока. – 6 августа 2020. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://yuz.uz/ru/news/uzbekistan i-

yaponiya-novy-vitok-v-razvitii-dvustoronnix-otnosheniy (дата обращения: 11.12.2025).

7. Международная научная конференция «Узбекистан и Япония на Великом Шелковом пути» в Токио. // kultura.uz›view_2_r_14409.html

8. Народное слово. 20 марта 2002 года.

9. Народное слово. 30 сентября 2006 года.

10. Нечай Е.Е. Мягкая сила Японии в исследованиях отечественных и зарубежных ученых. // Историческая и социально-образовательная мысль @hist-edu 4-1 т.10, 2018 года. // https://sciup.org/mjagkaja-sila-japonii-v-issledovanijah-otechestvennyh-i-zarubezhnyh-uchenyh-149124830

11. Николаев С.А. Центральная Азия в системе международных отношений на современном этапе. // Автореферат дисс. на соиск. ученой степени канд. полит. наук. – Москва, 2011. – 25 с.

12. Нуриддинов Э.З. Республика Узбекистан: грани сотрудничества. – Ташкент. 2017.

13. Нуриддинов Э.З. Становление и далнейшее развитие на этапе обновления страны внешполитической деятельности Республики Узбекистан /Монография/ — Ташкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – 398 с.

14. Парамонов О.Г., Пузанова О.В. Евразийская дипломатия Токио: успехи и неудачи (1997-2017 гг.) // Сравнительная политика. – 2018. – № 3. – С. 42-60.

15. Уразаева Ф.П. Историко-культурные перспективы развития сотрудничества Узбекистана и Японии. Журнал: Общество: философия, история, культура @society-phc; 9, 2017 года. // https://sciup.org/istoriko-kulturnye-perspektivy-razvitija-sotrudnichestva-uzbekistana-i-japonii-14941402

16. У вас спокойно и безопасно // Народное слово. 9 ноября 1995 года.

17. Узбекистан и Япония заключили соглашение о расширении научного сотрудничества в рамках программы «Sakura Science». // yuz.uz›ru/news/uzbekistan–i–yaponiya–zaklyuchili

18. Японский ученый награжден орденом Узбекистана // ria.ru›20020518/148177.html

19. Чугров С.В. Мягкое притяжение Японии // Полис. 2015. – №6. – С. 53-67.

20. https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-yaponiya-hamkorlikning-zamonaviy-bosqichi.

UDK:78.07(575.144)

NAVOIY VILOYATIDA MUSIQA VA QO‘SHIQCHILIK SAN’ATI: YO‘NALISHLAR, YUTUQLAR VA ISTIQBOL

Radjabova Nodira Mehmonovna,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
mustaqil izlanuvchisi
Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro sh.,O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Navoiy viloyatida musiqa va qo‘shiqchilik san’atining holati, milliy tiklanish davrida milliy madaniyatga e’tibor, kasbiylashuv va madaniy siyosatning mustahkamlanishi, viloyat miqyosida ko‘rik tanlov va festivallarning tashkil etilishi, ijodiy jamoalar, shuningdek, havaskor ansambllar, to‘garaklar faoliyati, madaniyat markazlarida yaratilgan shart sharoitlar va moddiy texnik bazasining ahvoli kabi masalalarda fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar:musiqa, milliy qadriyat, ommaviy, maqom, xalq qo‘shiqlari, folklor etnografik ansambllar, festivallar, lapar, terma, yor- yor, urf-odat, do‘mbira, qo‘biz, dostonchilik, rekonstruksiya.

ИСКУССТВО МУЗЫКИ И ПЕНИЯ В НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ. НАПРАВЛЕНИЯ, ДОСТИЖЕНИЯ И НЕЗАВИСИМОСТЬ.

Раджабова Нодира Мехмоновна,
Доктор философии(PhD) по истории,
Независимый исследователь
Бухарский государственный университет, г Бухара, Узбекистан

Аннотация. В статье рассматривается состояние музыкального и певческого искусства в Навоийской области в годы независимости, акцент на национальной культуре в период национального возрождения, профессионализация и консолидация культурной политики, организация смотров и фестивалей на региональном уровне, деятельность творческих коллективов, любительских ансамблей, кружков, условия, созданные в культурных центрах, и состояние материально-технической базы.

Ключевые слова: музыка, национальная ценность, масса, статус, народные песни, фольклор этнографические ансамбли, фестивали, лапар, терма, ёр — ёр, традиция, домбра, кобыз, былинность, реконструкция.

UDC: 78.07(575.144)

MUSIC AND SINGING ART IN NAVOI REGION: DIRECTIONS, ACHIEVEMENTS, AND INDEPENDENCE

Radjabova Nodira Mehmonovna,
Doctor of Philosophy (PhD) in History,
Independent researcher
Bukhara State University, Bukhara city, Uzbekistan

Abstract: This article discusses the state of music and singing art in the Navoi region during the years of independence. It highlights attention to national culture during the period of national revival, the process of professionalization, and the strengthening of cultural policy. The paper also reflects on the organization of regional competitions and festivals, the activities of creative groups, amateur ensembles and clubs, as well as the conditions created in cultural centers and the state of their material and technical base.

Keywords: music, national values, mass culture, maqom, folk songs, folklore-ethnographic ensembles, festivals, lapar, terma, yor-yor, traditions, dombra, kobyz, epic performance (dostonchilik), reconstruction.

KIRISH: Navoiy viloyati — O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. Viloyat Respublikaning o‘rta qismida joylashgan. Ilgari RSFSR tarkibiga kiruvchi dasht cho‘l viloyati tarkibida bo‘lgan.

1920-yildan boshlab hozirgi Navoiy viloyatining bir qismi Qozog‘iston SSR tarkibiga kirgan bo‘lsa, 1956-yilda esa o‘sha paytda Qozog‘iston SSR tarkibiga kiruvchi bo‘lajak viloyatning bir qismi paxtachilikni rivojlantirishni ko‘zlab O‘zbekiston SSRga o‘tkazilgan [1].

O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1982-yil 20-apreldagi 2247-X-son Farmoni bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Samarqand viloyatining bir qismidan, ma’muriy markazi Navoiy shahri bo‘lgan Navoiy viloyati tashkil etilgan. Buxoro viloyatidan uning tarkibiga Konimex, Qiziltepa, Navbahor, Navoiy, Tomdi va Uchquduq tumanlari, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlari; Samarqand viloyatidan— Nurota va Xatirchi tumanlari o‘tkazilgan.

1988-yil 9-sentyabrda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining Navoiy va Samarqand viloyatlarini Samarqandga birlashtirish to‘g‘risidagi Farmoni asosida ma’muriy birlik sifatida tugatilgan, 1992-yil 27-yanvardagi „Navoiy viloyatini O‘zbekiston Respublikasi tarkibida qayta tiklash to‘g‘risida“gi Farmoni bilan Navoiy viloyati qayta tiklangan (yangidan tashkil etilgan) [2]. Navoiy viloyati tarkibida 8 ta qishloq tumani (Konimex, Navbahor, Navoiy, Nurota, Tomdi, Uchquduq, Xatirchi, Qiziltepa), 5 ta shahar (Zarafshon, Qiziltepa, Navoiy, Nurota, Uchquduq), 8 ta shaharcha (Konimex, Langar, Malikrabot, Muruntov,

Tinchlik, Shalqar, Yangirabot, G‘ozg‘on) kiradi. Maydoni 111,0 ming km^2 ni tashkil etadi. Aholisi 1 108 595 kishidan iborat [3] bo‘lib, shundan ko‘pchiligi o‘zbeklar (63,3 foiz), shuningdek, rus (13,5 foiz), qozoq 11,5 foiz), tatar (2,6 foiz), ukrain (1,4 foiz), qoraqalpoq (1,4 foiz), tojik (1,3), ozarbayjon (0,9 foiz), belorus (0,2 foiz) va boshqa millat vakillari yashaydi [2].

Navoiy viloyatida musiqa va qo‘shiqchilik san’atiga doir ma’lumotlarni tayyorlashda Navoiy viloyat davlat arxivi hujjatlaridan foydalanildi. Ushbu hujjatlarda mustaqillik yillarida viloyatda faoliyat yuritgan Respublika Madaniyat vazirligi tasarrufidagi muassasalar va ijodiy jamoalar, ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlanishi, viloyatda faoliyat yuritgan musiqa va san’at maktablarining tanlovlardagi ishtiroki kabilar o‘rganildi va guruhlantirildi. Istiqlol yillarida ushbu ta’lim muassasalar faoliyatiga katta e’tibor qaratilgani Respublika va viloyat matbuotida muntazam yoritib borilgani bilan bog‘iq ma’lumotlar to‘planishi manbaviy bazani mustahkamladi. Musiqa va qo‘shiqchilik san’ati sohasi vakillari bilan olib borilgan ko‘p sonli muloqotlar maqola manbaviy asoslarini boyitishda qo‘llanildi.

ASOSIY QISM: Mazkur maqolani yozishda tarixiy xronologik, izchillik, obyektivlik, sivilizatsion yondashuv, qiyosiy tahlil, tarixiylik va zamonaviylik metod va usullaridan foydalanildi.

1992-2025-yillar davomida Navoiy viloyatida ham musiqa va qo‘shiqchilik san’atining holati mustaqillik siyosati, milliy qadriyatlarni tiklash, ta’lim islohotlari, ommaviy estrada ta’siri va keyingi yillarda raqamli madaniyatning kirib kelishi bilan bog‘liq holda bosqichma-bosqich rivojlandi:

1. 1992–1996-yillar: Milliy tiklanish davrida mustaqillikdan keyin milliy musiqaga ehtiyoj kuchaydi, maqom, baxshichilik, xalq qo‘shiqlari qayta ommalashdi, to‘y va marosim san’ati kengayib, ijrochilar soni oshdi, madaniyat uylari, klublar, havaskor ansambllar faol ishlay boshladi [4].

2. 1997–2000-yillarga kelib madaniyat sohasida ta’lim va tizimlashuv bosqichi boshlandi. Bu davrga kelib bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyati rivojlandi, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash uchun tanlovlar soni oshdi, Navoiy viloyatida tuman madaniyat bo‘limlari orqali konsertlar tizimli o‘tkazildi, milliy cholg‘u asboblarini o‘rgatish an’anasi kengaydi [4].

3. 2001–2005-yillarda esa festivallar va ijodiy jamoalar faollashuvi natijasida viloyat va Respublika miqyosida festival, ko‘rik-tanlovlar ko‘paydi, folklor-etnografik ansambllar soni oshdi, estrada va zamonaviy qo‘shiqchilik keng ommalasha boshladi, televidenie va radio orqali ijodkorlarning tanilishi tezlashdi. Bu omillar musiqa va qo‘shiqchilikning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi [4].

4. 2006–2010-yillar: Estrada ta’sirining kuchayishi natijasida yoshlar orasida estrada asosiy yo‘nalishga aylandi, milliy kuy-qo‘shiqlar asosan bayram va davlat tadbirlarida ijro etildi, ustoz-shogird an’anasi orqali maqom va xalq ijodi saqlandi,

Repertuarda “zamonaviylashtirilgan xalq kuylari” ko‘paydi. Musiqa va qo‘shiqchilik san’atining zamonaviy tus olishiga xizmat qildi [4].

5. 2011–2016-yillarda kasbiylashuv va madaniy siyosatning mustahkamlanishi ortidan musiqiy ta’lim muassasalarida yangi dasturlar va repertuar boyidi, san’atkorlarning sahna madaniyati, ovoz va ijro sifatiga talab oshdi, Navoiyda ham tuman-shahar miqyosida konsertlar, madaniy kechalar faollashdi, folklor jamoalari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi [4].

6. 2017–2020-yillarda davlat qo‘llovi va merosga e’tibor natijasida madaniyat va san’at sohasi rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tdi. Milliy musiqa merosi, maqom va baxshichilikka davlat darajasida katta e’tibor kuchaydi, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari kengaydi, konsertlar va festivallar soni ko‘paydi, Navoiy viloyatida ham milliy madaniy markazlar va ansambllar faolligi oshdi[5].

7. 2020–2021-yillarga kelib Pandemiya ta’sirida musiqa va qo‘shiqchilik san’ati sohasida konsertlar cheklanib qo‘yilgan bo‘lsa-da, yangi ko‘rinish kasb etib, onlayn ijrochilik ommalashdi. Ijodkorlar YouTube, Telegram, Instagram orqali auditoriya to‘play boshladi. To‘y san’ati qisqardi, ammo keyinchalik yana tiklandi[6].

8. 2022–2025 yillar: Raqamli davr va yangi avlod ijodkorlari qo‘shiqchilikda klip, reklama, tarmoq auditoriyasi muhim o‘ringa chiqdi, zamonaviy estrada, rep, pop yo‘nalishlari kuchaydi, shu bilan birga milliy musiqa (maqom, baxshichilik, folklor) festivallar orqali yanada mustahkamlandi, yoshlar orasida milliy va zamonaviy uslubni aralashtirgan ijodiy yo‘nalish keng tarqaldi[7]

1992–1996-yillarda Navoiy viloyatida deyarli har bir shahar va tumanda madaniyat uylari faoliyat yuritgan. Ushbu davrda ular asosan bayram konsertlari, havaskor ansambllar, to‘garaklar va xalq ijodiyotini saqlash ishlarini amalga oshirgan. Navoiy viloyatida (1992–1996) yillarda Navoiy shahar madaniyat uyi, Zarafshon shahar madaniyat saroyi (Madaniyat uyi), Uchquduq shahar madaniyat uyi, Karmana tumani madaniyat uyi, Nurota tumani madaniyat uyi, Qiziltepa tumani madaniyat uyi, Konimex tumani madaniyat uyi, Tomdi tumani madaniyat uyi, Navbahor tumani madaniyat uyi, Xatirchi tumani madaniyat uylari faoliyat yuritdi. Shuningdek, yirik qishloq va shaharchalarda qishloq madaniyat klublari ham ishlagan. Ayrim korxona va tashkilotlarda kasaba uyushmasi madaniyat klublari tashkil etilgan edi [8].

Navoiy viloyatida o‘zbek musiqa va qo‘shiqchilik san’ati boy an’analarga, zamonaviy imkoniyatlarga va faol ijodiy muhitga ega. Navoiy vohasida o‘zbek

xalq musiqasining to‘y-marosim, bayram va xalq sayllarida ijro etiladigan xalq qo‘shiqlari, ayniqsa, keng tarqalgan. Xalq musiqasi lapar, terma, marosim va mehnat qo‘shiqlarini o‘z ichiga olsa, kasbiy musiqaga doston, maqom, katta ashula, ashula, cholg‘u ijrochiligi janrlari kiradi. Navoiy viloyatida ijodkorlar lapar, yor-yor, terma kabi o‘g‘zaki janrlarda ham ijod qilishadi. Buxoro – Samarqand maqom an’anasi Navoiyga yaqin, tarixan va madaniy jihatdan bog‘iqligi sababli bayram tadbirlarida, ayniqsa, Buxoro Shashmaqomidan ham ijro etiladi. Nurota, Qiziltepa, Navoiy tumani atroflarida maqom ohanglariga yaqin kuy qo‘shiqlar, xalq maqomi uslubidagi ijrolar uchraydi. Ko‘p hollarda maqomlar qisqartirilgan, xalqona variantda dutor, tanbur, g‘ijjak, doira bilan kuylanadi[4]. Navoiy va Xatirchi tumanlarida doira bilan ashula aytish an’anasi kuchli bo‘lib, qishloq muhitida xalqona maqom uslubi saqlangan. Dutor, rubob, g‘ijjak, doira an’anaviy yo‘nalishda asosiy cholg‘ular bo‘lib hisoblanadi, ayniqsa, Qizilqum va Nurota hududlariga xos kuy va qo‘shiqlari o‘ziga xos ohang va matnga ega. Navoiyda yakkaxon xonandalik va jamoaviy ansambllar faol bo‘lib, xonandalar ko‘proq mumtoz, xalq va estrada yo‘nalishida ijod qiladilar. Yosh ijodkorlar an’anaviy uslubni zamonaviy estrada bilan uyg‘unlashtirmoqda [8].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Navoiy viloyatida bolalar musiqa va san’at maktablaridan tashqari, Madaniyat markazlari, folklor- etnografik ansambllar, tuman va shahar madaniyat bo‘limlari faoliyat olib boradi. Yosh iste’dodlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida mahalliy va hududiy qo‘shiqchilik tanlovlari, xalq ijodiyotiga bag‘ishlangan festivallar muntazam tashkil etiladi. Milliy bayramlarda konsert dasturlari namoyish etiladi. Navoiy viloyati ko‘p millatli hududlar sirasiga kiradi va bu yerda har bir millatning musiqa va qo‘shiqchilik san’atining rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud. Navoiy viloyatida aholining ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlari barqaror bo‘lib, musiqa va qo‘shiqchilik esa milliy an’analar va zamonaviy yo‘nalishlar uyg‘unligida rivojlanmoqda. Iqtidorli yoshlar uchun o‘qish sahnaga chiqish va ijod qilish imkoniyatlari yetarlidir. Jumladan, viloyatda qozoq millatiga mansub ijodkorlar salmog‘i ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Navoiy viloyatida qozoq millati vakillari asosan Navoiy shahri, Konimex, Tomdi, Uchquduq, Navbahor tumanlarida yashashadi. Navoiy viloyati Qozog‘istonga yaqin joylashganligi sababli qozoqlar bu hududga azaldan yashab kelgan. Ular o‘zbek tili, urf-odatlari va madaniyatini hurmat qilsada, to‘y marosimlari va urf-odatlarida qozoq milliy an’analariga asoslangan musiqa va qo‘shiqchilik san’ati ustunlik qiladi.

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan qozoq milliy madaniy markazlari asosan, qozoq tilida qo‘shiqlar ijrosi, do‘mbra, qo‘biz kabi milliy cholg‘u asboblarida kuylar chalish, folklor ansambllari orqali chiqishlar orqali o‘z iste’dodlarini namoyish etadilar. Navro‘z bayrami, xalqlar do‘stligi tantanalarida,

milliy madaniy festivallarida qozoq qo‘shiqlari va raqslari keng namoyish etilib kelinmoqda. Qozoq tilida xonandalik bilan shug‘ullanadiganlar viloyat va Respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlovlarda ishtirok etadilar, to‘y marosim va madaniy tadbirlarda chiqish qilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z ijodini ommalashtirib kelmoqda [9].

Navoiy viloyatida musiqa va qo‘shiqchilik san’ati yo‘nalishida qoraqalpoq millatiga mansub xalq uchun ham keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari, dostonlari, termalari va an’anaviy musiqasi viloyat mahalliy madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega. To‘y-marosimlar, bayramlar qoraqalpoq tilida ijro qilish uchun asosiy sahna hisoblanadi. Tajribali ustozlar orqali ustoz-shogird an’anasi asosida Madaniyat markazlari, ijodiy to‘garaklarda qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari o‘rgatiladi. Bolalar musiqa va san’at maktablarida qo‘shiqchilik, dutor, qo‘biz, nay kabi sozlar yo‘nalishida tahsil olishadi. Ular o‘z iste’dodlarini viloyat miqyosidagi madaniy tadbirlar, festivallar, madaniyat kunlari, qoraqalpoq milliy bayramlari va madaniy kechalar, televideniye, radio va ijtimoiy tarmoqlar orqali namoyish etadilar. Qoraqalpoq qo‘shiqchilik va musiqa san’atida Baxshichilik (dostonchilik), xalq qo‘shiqlari va marosim qo‘shiqlarida ayniqsa keng foydalaniladi [9].

Navoiy viloyat madaniyat boshqarma tasarrufida 33 ta madaniyat markazlari, 14 ta ta’lim muassasasi, Respublika O‘zbek konsert davlat muassasasi Navoiy viloyat bo‘linmasi, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Navoiy viloyat bo‘linmasi, O‘zbekiston milliy maqom san’ati markazi viloyat hududiy bo‘linmasi, 33 ta madaniyat markazlarining 6 tasi rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlashni talab etadi, hamda 8 ta madaniyat markazi o‘z binosiga ega emas. Bugungi kunda mazkur madaniyat markazlarida 165 ta to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularda 2842 nafar ishtirokchilar qamrab olingan. Har bir madaniyat markazida 5 tadan to‘garak faoliyat yuritib, to‘garak guruhlardagi o‘quvchilarning soni 13-14 tani tashkil etadi [10].

Viloyatdagi 19 ta madaniyat markazi 150-400 o‘rinli o‘z konsert-tomosha zaliga ega. Madaniyat markazlarida jami 18 ta “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda 3 ta “Namunali bolalar jamoasi” unvoniga ega jamoalar faoliyat olib boradi. Mavjud 33 ta madaniyat markazlarida jami 451 nafar xodim faoliyat olib boradi. Shundan, 221 nafari madaniyat va san’at sohasi bo‘yicha ijodiy xodimlarni tashkil etadi. Bularning 80 nafari oliy ma’lumotli xodimlar. Madaniyat markazlari tomonidan ishlab topilgan jami mablag‘lar 265 mln. so‘mni tashkil etadi, shundan: har bir tuman (shahar) madaniyat bo‘limi tomonidan ishlab topilgan mablag‘larning o‘rtacha miqdori – 24 090 mln so‘mni tashkil etadi, har bir markaz tomonidan ishlab topilgan mablag‘larning o‘rtacha miqdori – 8 mln. so‘mdan iborat [10].

Viloyatning 33 ta madaniyat markazlarida 22 ta ashula va raqs ansambllari, folklor-etnografik jamoalari faoliyat yuritadi [11] Jumladan atrofi cho‘l zonasidan iborat bo‘lgan, Navoiy, Uchquduq, Zarafshon shaharlarida ham boshqa tumanlarda bo‘lgani kabi Madaniyat markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Navoiy shahar Madaniyat markazida “Navro‘z” hamda “Nihol” havaskorlik xalq teatrlari, “Durdona” folklor-etnografik jamoasi faoliyati, Zarafshon shahrida “Dilnavo” folklor-etnografik jamoasi, Uchquduq tumanida esa “Xush chaq-chaq” teatr jamoasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bolalarning musiqa va san’at sirlaridan voqif bo‘lishlari uchun har bir tuman va shaharda bittadan bolalar musiqa va san’at maktabi ham faoliyat yuritadi. Umumta’lim maktabidan so‘ng san’atga qiziquvchi yoshlar bolalar musiqa va san’at maktablarida o‘zlari tanlagan musiqa yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olishadi.

XULOSA: Xullas, Navoiy viloyatida musiqa va qo‘shiqchilik san’ati hududning madaniy hayotini boyitib, milliy an’analar va zamonaviy yo‘nalishlar uyg‘unligida rivojlanib bormoqda. Viloyatda musiqa va qo‘shiqchilik san’atini yanada rivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

1. Navoiy viloyati ko‘p millatli bo‘lganligi tufayli barcha millatlarning musiqa va qo‘shiqchilik san’atidagi yutuqlarini umumlashtirish, bu borada bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalarni aniq belgilab olish ahamiyatli bo‘lardi,

2. Viloyatda musiqa va qo‘shiqchilik san’atida konsertlar tashkil qilish, ansambllarning o‘zaro tajriba almashinuvi, ijodiy jamoa va guruhlarni yangi talantlar bilan boyitish ham muhim vazifalarning bo‘lishi,

3. Navoiy viloyati musiqa va san’ati rivojida milliy madaniy markazlar qoshidagi san’at dastalarini viloyat va qo‘shni viloyatlardagi gastrollarni kengaytirish,

4. Musiqa san’ati va qo‘shiqchilik sohasida yuksak natijalarga erishgan talantlarni saralash, rag‘batlantirish jarayonlarini kengaytirish ham kutilgan natijalarni beradi,

Ushbu takliflar Navoiy viloyatida musiqa va qo‘shiqchilik san’atini tizimli rivojlantirish, milliy merosni asrash va uni zamonaviy talablarga mos holda targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.https://www.webcitation.org/6Q9Yc0qxq?url=http://nav.uz/gorod-navoi/9873- gorod-navoi-i-navoiyskiy-region-istoriya-i-nastoyaschee.html.

2.O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.-T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 228-229.

3.https://navstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/14346-navoiy-viloyatining-qaysi-hududida-qancha-aholi-…

4.Muallifning muloqot materiallari. Fazliddin Bo‘ronov bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti. 2023-yil 15-sentyabr.

5.Muallifning muloqot materiallari.Navoiy viloyati madaniyat boshqarma boshlig‘i Nodir Niyozov bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti. 2023-yil 15-sentyabr. Navoiy viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi. 2017-, 2018-, 2019-, 2020-yillar hisoboti.

6.Navoiy viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi. 2020-, 2021-yillar hisoboti.

7.Navoiy viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi. Hisobot. 2022-, 2023-, 2024-, 2025-yillar hisoboti.

8.Muallifning muloqot materiallari. Nafaqadagi Navoiy viloyat madaniyat boshqarma boshlig‘i Sattor G‘afforov bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti. 2023-yil 16-sentyabr.

9.Muallifning muloqot materiallari. Uchquduq tumani 10-son Bolalar musiqa va san’at maktabi direktori Umirbayeva Mavjuda Sharibovna bilan shaxsiy muloqot ma’lumoti. 2025-yil 16-dekabr.

10.Navoiy viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi. 2023-yil hisoboti.

11.Navoiy viloyat madaniyat boshqarmasi joriy arxivi. 2025-yil hisoboti.

QASHQADARYODA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HUNARMANDCHILIK VA AMALIY SAN’AT SOHASINING O‘RNI

Suyarova Feruza Sobir qizi
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatida turizm xizmatlarini rivojlantirishda hunarmandchilik va amaliy san’at sohasining tarixiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada Qashqadaryo vohasida shakllangan kashtachilik, gilamdo‘zlik, kulolchilik, metallga ishlov berish, milliy suvenir mahsulotlari tayyorlash an’analari tarixiy manbalar, davriy matbuot materiallari hamda “Hunarmand” uyushmasi joriy arxivi ma’lumotlari asosida yoritiladi. Shuningdek, Shahrisabz, Qarshi, Kitob, Chiroqchi, Kasbi kabi hududlarda amaliy san’atning turizm bilan bog‘liq imkoniyatlari ochib beriladi. Xususan, “Tashabbus–2015” ko‘rik-tanlovi, Qarshi va Shahrisabzda hunarmandlar markazlarini tashkil etish rejalari, Kasbi kulolchiligi, Chiroqchi gilamdo‘zligi, Shahrisabz kashtachilik maktabi kabi misollar orqali hunarmandchilikning turistik xizmatlar tizimidagi amaliy o‘rni asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, turizm, hunarmandchilik, amaliy san’at, Shahrisabz, Qarshi, Kasbi kulolchiligi, Chiroqchi gilamlari, kashtachilik, suvenir mahsulotlari, “Hunarmand” uyushmasi.

РОЛЬ РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВА И ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Суярова Феруза Собир кизи
Независимый исследователь Каршинского государственного университета

Аннотация. В статье анализируется историческое, культурное и социально-экономическое значение ремесленничества и прикладного искусства в развитии туристических услуг Кашкадарьинской области. На основе материалов периодической печати, текущего архива ассоциации “Хунарманд” и данных конкурса “Ташаббус” раскрываются особенности развития вышивки, ковроткачества, керамики, металлообработки и производства национальной сувенирной продукции в регионе. Особое внимание уделяется Шахрисабзу, Карши, Китабу, Чиракчи и Касби как территориям, где народное прикладное искусство может стать органической частью культурного и этнографического туризма.

Ключевые слова: Кашкадарья, туризм, ремесленничество, прикладное искусство, Шахрисабз, Карши, керамика Касби, ковры Чиракчи, вышивка, сувенирная продукция.

THE ROLE OF HANDICRAFTS AND APPLIED ARTS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM SERVICES IN KASHKADARYA REGION

Suyarova Feruza Sobir qizi
Independent Researcher at Karshi State University

Abstract. The article examines the historical, cultural and socio-economic role of handicrafts and applied arts in the development of tourism services in the Kashkadarya region. Based on periodical materials, current archive documents of the “Hunarmand” Association and materials of the “Tashabbus” competition, the article analyzes the development of embroidery, carpet weaving, pottery, metalworking and national souvenir production in the region. Special attention is paid to Shakhrisabz, Karshi, Kitab, Chirakchi and Kasbi as local centers where folk applied arts can become an integral part of cultural and ethnographic tourism.

Keywords: Kashkadarya, tourism, handicrafts, applied arts, Shakhrisabz, Karshi, Kasbi pottery, Chirakchi carpets, embroidery, souvenir products.

KIRISH: Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosga boy hududlaridan biri bo‘lib, uning turizm salohiyati qadimiy shaharlar, me’moriy yodgorliklar, tabiiy manzaralar, ziyoratgohlar va xalq amaliy san’ati an’analari bilan uzviy bog‘liqdir. Viloyatning Shahrisabz, Qarshi, Kitob, Yakkabog‘,

Chiroqchi, Kasbi kabi hududlari nafaqat tarixiy yodgorliklari, balki hunarmandchilik maktablari, mahalliy bozor madaniyati, oilaviy kasb an’analari va milliy estetik tafakkuri bilan ham ajralib turadi.

Turizm xizmatlarini rivojlantirishda amaliy san’at sohasining o‘rni shundan iboratki, u turistik mahsulotni “tomosha qilinadigan obyekt” darajasidan “bevosita his qilinadigan madaniy tajriba” darajasiga olib chiqadi. YA’ni turist faqat Oqsaroy, Dorut-Tilovat yoki Qarshidagi tarixiy obidalarni ko‘rish bilan cheklanmaydi, balki mahalliy hunarmandning ish jarayonini kuzatadi, kashta, gilam, sopol, milliy libos, yog‘och yoki metall buyum orqali hududning madaniy xotirasi bilan tanishadi.

ASOSIY QISM: Qashqadaryoda turizm xizmatlarini rivojlantirishda amaliy san’atning bir necha turi alohida ahamiyat kasb etadi. Bular orasida kashtachilik, gilamdo‘zlik, kulolchilik, metallga ishlov berish, milliy libos va suvenir mahsulotlari tayyorlash sohalari yetakchi o‘rin tutadi.

Shahrisabz vohasi kashtachilik an’analari bilan ajralib turadi. Kashtachilik bu yerda faqat bezak san’ati emas, balki oilaviy xotira, nikoh marosimlari, ayollar mehnati, maishiy madaniyat va estetik didning muhim ifodasi sifatida shakllangan. San’atshunos E. Gyulning “Shahrisabz kashtalari”ga oid tadqiqoti Qashqadaryo vohasi kashtachiligining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm nuqtayi nazaridan Shahrisabz kashtachiligi katta imkoniyatga ega. Birinchidan, u Shahrisabzning Temuriylar davri me’moriy merosi bilan uyg‘un madaniy muhit yaratadi. Ikkinchidan, kashta mahsulotlari — so‘zana, joynamoz, do‘ppi, belbog‘, milliy libos bezaklari turistik suvenir sifatida yuqori qiymatga ega. Uchinchidan, kashta tikish jarayonini turistlar uchun mahorat darsi sifatida tashkil etish mumkin. Bu esa Shahrisabz turizmini passiv ekskursiyadan faol madaniy tajribaga aylantiradi.

Qashqadaryo amaliy san’atida Chiroqchi gilamdo‘zligi ham muhim o‘rin tutadi. Manbalarda “Chiroqchining g‘ajariy, terma gilamlari dunyo kezmoqda” nomli davriy matbuot materiali qayd etilgani ushbu hududda gilamdo‘zlikning mahalliy maktab sifatida mavjudligini ko‘rsatadi. Gilamdo‘zlikning turizmdagi ahamiyati ikki jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchisi — gilamlar turistlar uchun qimmatli milliy mahsulot va interyer buyumi hisoblanadi. Ikkinchisi — gilam to‘qish jarayonining o‘zi etnografik turizm obyekti bo‘la oladi. Turist uchun qo‘l mehnati, tabiiy ranglar, naqsh ma’nosi, to‘qish usuli va ustoz-shogird an’anasi qiziqarli madaniy ma’lumot beradi.

Qashqadaryoda kulolchilikning muhim markazlaridan biri Kasbi tumani hisoblanadi. Jumladan, Kasbi qishlog‘ida o‘ttizdan ziyod kishi hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi, O‘ktam Aminov xalq amaliy san’atining kulolchilik sohasida ijod qilib kelayotgani, u xum, ko‘za, tumcha, guppi, sut tovoq, to‘y tovoq kabi

yigirmadan ortiq kulolchilik buyumlarini tayyorlashi qayd etish lozim. Uning xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etgani ham Kasbi kulolchiligining mahalliy doiradan tashqarida ham e’tirof etilayotganini ko‘rsatadi. Bu misol turizm uchun juda muhim. Chunki Kasbi kulolchiligi asosida “Kulol ustaxonasiga sayohat”, “Sopol buyum yasash mahorat darsi”, “Qashqadaryo kulolchiligi muzey-burchagi”, “Kasbi sopollari” brendi kabi turistik xizmatlarni tashkil etish mumkin. Bunday xizmatlar mahalliy aholi daromadini oshiradi, yoshlarni hunarga jalb qiladi va turistik marshrutlarning mazmunan boyishiga xizmat qiladi.

Arxiv hujjatlari va “Tashabbus” ko‘rik-tanlovlari asosida tahlil Qashqadaryoda hunarmandchilik va turizmni bog‘lashda “Tashabbus” ko‘rik-tanlovlari muhim institutsional maydon bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu tanlovlar orqali mahalliy hunarmandlar o‘z mahsulotlarini namoyish etish, savdo aloqalarini kengaytirish, yangi bozorlarga chiqish va turistik xizmatlar tizimiga kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan. 2015 yil aprelda “Tashabbus–2015” ko‘rik-tanlovining Qarshi shahar bosqichida 60 nafardan ziyod tadbirkor va hunarmand ishtirok etgani qayd etiladi. Ko‘rgazmada hunarmandlar o‘zlari ishlab chiqargan mahsulotlar va xizmat turlarini taqdim etganlar. Bu jarayon hunarmandchilikning faqat mahalliy bozor doirasida emas, balki ko‘rgazma, reklama va turistik namoyish tizimiga kirib borayotganini ko‘rsatadi. Shu tanlovda 40 turga yaqin sport jihozlari va inventarlari ishlab chiqarayotgan “Nasaf metall” MCHJ “Yilning eng yaxshi tadbirkori”, sopol va chinni buyumlarga bezak berish bilan shug‘ullanuvchi hunarmand Fayzi Manzarov esa “Yilning eng yaxshi hunarmandi” deb topilgan. Bu ma’lumot hunarmandchilikning ikki muhim yo‘nalishini ko‘rsatadi: birinchisi — an’anaviy amaliy san’at; ikkinchisi — zamonaviy talabga mos ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish.

2015 yil 8 mayda Qarshi shahridagi Mullato‘ychi Toshmuhammedov nomidagi viloyat musiqali drama teatrida “Tashabbus–2015” ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichi o‘tkazilgan. Unda xalq amaliy san’ati namunalarini yaratishda yuqori natijalarga erishgan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida tashabbus ko‘rsatayotgan 41 nafar tadbirkor va hunarmand ishtirok etgan. Bu faktlar Qashqadaryoda hunarmandchilikning turizm xizmatlariga integratsiyalashuvi uchun real ijtimoiy-iqtisodiy baza mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Chunki turistik xizmatlar rivoji uchun faqat tarixiy obyektlar emas, balki mahsulot yarata oladigan, uni namoyish eta oladigan, turist bilan muloqot qila oladigan mahalliy hunarmandlar qatlami ham zarur.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Qashqadaryoda turizm va hunarmandchilikni bog‘lashga qaratilgan muhim amaliy qadamlardan biri — hunarmandlar markazlarini tashkil etish g‘oyasidir. Qarshi va Shahrisabzda hunarmandlar markazlarini tashkil etish g‘oyasi turizm va hunarmandchilikni

bog‘lashga imkon yaratib berdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 1-noyabrdagi “2013–2015-yillar davrida Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori xalq hunarmandchiligini rivojlantirishga xizmat qildi. Mazkur dasturga muvofiq Qarshi shahridagi Bekmir madrasasi va Shahrisabzdagi “Koba” karvonsaroyida hunarmandlar markazi tashkil etish, “Oqsaroy”, “Dorut-Tilovat” va “Dorus-Saodat” majmualarini bog‘lab turuvchi alleyada qo‘l ishi milliy markazi hamda suvenir do‘konlari qurish rejalashtirilgan edi. Bu hujjatning ahamiyati shundaki, unda hunarmandchilik turizm infratuzilmasining yordamchi emas, balki tarkibiy qismi sifatida ko‘rilgan. Ya’ni tarixiy yodgorliklar atrofida hunarmandlar markazlari, suvenir do‘konlari va milliy mahsulotlar savdosini tashkil etish orqali turistik marshrutlar iqtisodiy jihatdan faollashtirilishi ko‘zda tutilgan.

Ayniqsa, Shahrisabzda Oqsaroy, Dorut-Tilovat va Dorus-Saodat majmualarini bog‘lovchi hududda qo‘l ishi mahsulotlari markazini tashkil etish g‘oyasi juda to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi. Chunki turist tarixiy majmualarni tomosha qilish jarayonida bir vaqtning o‘zida hunarmandchilik mahsulotlari bilan tanishadi, ularni xarid qiladi, usta bilan suhbatlashadi va shu orqali hududning madaniy qiyofasini to‘liqroq his qiladi.

Hunarmandchilik va amaliy san’at turizmni rivojlantirish bilan birga mahalliy aholi bandligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, qishloq joylarda kulolchilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, do‘ppido‘zlik, milliy liboslar tayyorlash, suvenir mahsulotlari ishlab chiqarish oilaviy tadbirkorlik shaklida rivojlanishi mumkin. Misol uchun, Qarshilik hunarmand Fayzi Manzarov sopol va chinni buyumlarga bezak berish bilan shug‘ullanib, shu bilan birga yoshlarga o‘z hunarini o‘rgatib, bir necha shogird tayyorlab kelmoqda. Bu misol hunarmandchilikda “ustoz-shogird” an’anasi hali ham amaliy ahamiyatini saqlab kelayotganini ko‘rsatadi. Turizm xizmatlari bilan bog‘langan holda bunday ustaxonalar yoshlar uchun kasb maktabi, turistlar uchun esa madaniy tajriba maydoniga aylanishi mumkin.

Qashqadaryoda hunarmandchilikni rivojlantirish xotin-qizlar bandligi uchun ham muhimdir. Kashtachilik, gilamdo‘zlik, milliy libos tayyorlash, suvenir mahsulotlarini bezash kabi yo‘nalishlarda ayollar mehnati katta o‘rin tutadi. Shu jihatdan, hunarmandchilikni turizm bilan bog‘lash faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlik, oilaviy daromad va milliy qadriyatlarni saqlash vazifalarini ham bajaradi.

XULOSA: Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, Qashqadaryoda turizm xizmatlarini rivojlantirishda hunarmandchilik va amaliy san’at sohasi muhim strategik resurs hisoblanadi. Bu soha viloyatning tarixiy-madaniy qiyofasini

boyitadi, turistik mahsulotga milliy mazmun beradi, mahalliy aholi bandligini ta’minlaydi va hududiy brendni shakllantiradi.

Tarixiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo vohasida hunarmandchilik an’analari qadimiy shahar madaniyati, bozorlar, oilaviy kasblar, ustoz-shogird maktablari va xalq estetik tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Mustaqillik yillarida esa bu sohani qayta tiklash va rivojlantirish uchun huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratildi.

“Hunarmand” uyushmasi joriy arxivi, “Tashabbus” ko‘rik-tanlovlari materiallari va davriy matbuot ma’lumotlari Qashqadaryoda amaliy san’atning faqat madaniy emas, balki turistik va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Kasbi kulolchiligi, Chiroqchi gilamdo‘zligi, Shahrisabz kashtachiligi, Qarshidagi suvenir mahsulotlari va hunarmandlar markazlarini tashkil etish rejalari viloyatda hunarmandchilikni turizm xizmatlari bilan uyg‘unlashtirish uchun real asoslar mavjudligini ko‘rsatadi.

Shu bois Qashqadaryo turizm strategiyasida hunarmandchilik va amaliy san’at ikkinchi darajali qo‘shimcha xizmat emas, balki mustaqil madaniy-iqtisodiy resurs sifatida qaralishi zarur. Bu yondashuv viloyatning turistik jozibadorligini oshirish, milliy merosni saqlash va mahalliy aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmonqulova O. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy amaliy san’atning tiklanishi va rivojlanishi: Janubiy viloyatlar misolida. Qarshi, 2016.
2. Qashqadaryo viloyati “Hunarmand” uyushmasi joriy arxivi materiallari.
3. “Tashabbus–2015” ko‘rik-tanlovi Qarshi shahar va Qashqadaryo viloyati bosqichi materiallari.
4. Temirov T. Milliy suvenir mahsulotlari // Qashqadaryo. 2015-yil 29-yanvar. – №013 (14926).
5. “Tashabbus” tashabbuslarga yo‘l ochayapti // Qashqadaryo. 2015-yil 16-aprel. – №047 (14960).
6. Yangilikka intilib yashash, tashabbuskor bo‘lish — zamonaviy ishbilarmon muvaffaqiyatining asosi // Qashqadaryo, 2015-yil 9-may.
7. Hunarmandlik rivojlanmoqda // Qashqadaryo. 2015-yil.
8. Gyul E. Shahrisabz kashtalari // San’at, 2002. – №1.
9. Hamidova M. Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi tarixi: XIX–XX asr boshlari. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

2009-YIL ZARAFSHON VOHASI VILOYATLARIDA KICHIK BIZNES VA SANOAT TARMOQLARI

Sayfiddinov Doston Rustam o‘g‘li,
Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2009-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududlarida, jumladan Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, sanoatni modernizatsiya qilish va investitsiya faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va aholi bandligini oshirishdagi yutuqlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqarorligini ta’minlashda davlat siyosati muhim ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, modernizatsiya, investitsiya, sanoat, eksport, bandlik, mahalliylashtirish, infratuzilma, iqtisodiy o‘sish.

МАЛЫЙ БИЗНЕС И ПРОМЫШЛЕННЫЙ СЕКТОР В РЕГИОНАХ ОАЗИСА ЗАРАФШАН В 2009 ГОДУ

Сайфиддинов Достон Рустам оглу
Азиатский международный университет

Аннотация: В данной статье проанализированы меры, реализованные в 2009 году в регионах Республики Узбекистан, в том числе в Самаркандской, Навоийской и Бухарской областях, направленные на поддержку малого бизнеса и частного предпринимательства, модернизацию промышленности и развитие инвестиционной деятельности. Также рассмотрены достижения в диверсификации отраслей экономики, создании новых производственных мощностей и повышении занятости населения. Результаты исследования показывают, что государственная политика сыграла важную роль в обеспечении устойчивых темпов экономического роста в регионах.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, модернизация, инвестиции, промышленность, экспорт, занятость, локализация, инфраструктура, экономический рост.

SMALL BUSINESS AND INDUSTRIAL SECTORS IN THE REGIONS OF ZARAFSHAN OASIS IN 2009

Sayfiddinov Doston Rustam oglu
Asian International University

Annotation: This article analyzes the measures implemented in 2009 in the regions of the Republic of Uzbekistan, including Samarkand, Navoi, and Bukhara regions, aimed at supporting small business and private entrepreneurship, modernizing industry, and developing investment activity. It also examines achievements in diversifying economic sectors, creating new production capacities, and increasing employment. The results of the study show that state policy played an important role in ensuring stable economic growth rates in the regions.

Keywords: small business, private entrepreneurship, modernization, investment, industry, export, employment, localization, infrastructure, economic growth.

KIRISH. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ayniqsa hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda bu jarayon, eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash orqali amalga oshirildi. 2009-yil mamlakat iqtisodiyoti uchun sinovli davr bo‘lishiga qaramasdan, amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlandi. Ayniqsa, hududlarda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va soliq yukini kamaytirish muhim omillardan biri bo‘ldi.

Shuningdek, sanoat korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligi oshirildi. Bu esa hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qildi. Mazkur tadqiqotda 2009-yilda Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy hamkorlik tarixi va milliy iqtisodiyot masalalarini o‘rganishda qator mahalliy olimlar muhim hissa qo‘shgan. Jumladan, A.Vahobov, S.Elmurodov, Q.Yusupov, A.To‘xtayev va boshqalarning kitoblarini kiritish mumkin. Milliy va mahalliy davlat arxivi materiallari, davriy matbuot hamda ilmiy-ommabop nashrlardan foydalangan holda, tanlangan muammo mohiyatini ochib beradi. 2009-yil Zarafshon vohasi viloyatlarida kichik biznes va sanoat tarmoqlarini o‘rganish jarayonida iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, dinamikada o‘rganish, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

Joylarda kichik biznes korxonalarini, ayniqsa, yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarni banklarning kredit resurslaridan foydalanish

imkoniyatini kengaytirish, 2009-yil 1-yanvardan boshlab kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasini kamaytirish, uy-joy fondiga kirmaydigan foydalanilmayotgan ob’ektlarni kichik biznes korxonalariga eng kam stavkalar bo‘yicha ijaraga berish yo‘li bilan kichik biznesni manzilli qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar majmui ro‘yobga chiqarilgandi. Masalan, Samarqand viloyatida 2009-yilda 232 ta kichik korxona tashkil etilgan yalpi mahsulot chiqarish hajmi 2008-yilga qaraganda 65,4 foiz, eksport hajmi 59,1 foiz ko‘payishi imkonini bergan [1].

Navoiy viloyatida 2009-yil iqtisodiyotning kichik sektori iqtisodiyotiga jami 56,1 foizi (225,7 ming kishi) bandligi ta’minlangan. Band bo‘lganlarning katta qismi, ya’ni 43 foizi (173,0 ming kishi) xususiy sektor hamda 13,1 foizi (52,7 ming kishi) kichik korxona va mikrofirmalarda faoliyat yuritgan. Kichik korxonalar tomonidan 86,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘sishi 119,4 foizni tashkil etgan. Viloyat bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 19,4 foizi (113,8 mlrd. so‘m) kichik korxonalar tomonidan o‘zlashtirilib, 31,9 ming AQSh dollarlik mahsulotlar eksportga yo‘naltirilgan [2].

2009-yil Buxoroda esa korxonalarni rivojlantirish natijasida 59,9 mingta ish o‘rni, shu jumladan kichik biznesda 27,9 mingta, korxonalar bilan kooperatsiyalashgan holda 13,4 mingta kasanachilik ish o‘rni, inqirozga qarshi choralar dasturi tadbirlarini amalga oshirish hisobiga 15,3 mingta ish o‘rinlari tashkil etish ta’minlangandi. Eksportyor korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga va ularni aylanma mablag‘larini to‘ldirishga jami 6,7 mlrd. so‘mlik uzoq muddatli kreditlar ajratilgan edi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratilishi natijasida korxonalarning umumiy soni 102,5 foizga oshdi, ularni sanoatdagi ulushi 2008-yil davomiga nisbatan 12,5 foizdan 15,4 foizga oshgandi [3].

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 12-martda “2009–2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2009-yil 27-martdagi “Inqirozga qarshi choralarning 2009–2012-yillarga mo‘ljallangan dasturini so‘zsiz bajarish borasida mahalliy hokimiyat organlarining roli va mas’ulligi to‘g‘risida”gi 624-I-sonli qarorlariga muvofiq, viloyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, ularni zamonaviy texnologik liniyalar bilan qayta jihozlash, xorij investitsiyalarini jalb etgan holda yangi ishlab chiqarish majmualarini barpo qilishga alohida, e’tibor qaratilib, mahalliylashtirish choralari ko‘rildi.

Natijada, Navoiy viloyati 2009-yilning to‘qqiz oyida yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 8 foizni tashkil etdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

hajmlari 9,1 foizga, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 13,7 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish 3,3 foizga, xizmat ko'rsatish 15,8 foizga ko'paygan [4].

Buxoro viloyatida esa iqtisodiyotning yetakchi tarmoq korxonalarini rivojlantirish va texnik modernizatsiya qilish dasturi doirasida 5 ta ishlab chiqarish ob'ektlari ishga tushirildi. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida 10,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, uning 7,5 mlrd. so'mi yoki 75 foizi ichki bozorga sotildi. 7,0 mln. dollarlik valyuta iqtisod qilingan. Viloyatida 2009-yilning 9 oyida yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sish sur'ati 104,6 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmida 102,6 foiz, iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida 105,9 foiz, yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmida 101,3 foiz, qurilish ishlari hajmida 116,3 foiz, chakana savdo hajmida 119,9 foiz, pullik xizmat hajmida 109,9 foiz, jami xizmatlar hajmida 121,1 foizni tashkil etdi. 59,9 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi. Aholining real daromadi aholi jon boshiga 673,5 ming so'mni (2009-yil pul qiymatida) tashkil etdi [5].

Joylarda zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning ildam rivojlanishini, shu yo'l bilan iqtisodiyotning barqaror va jo'shqin rivojlanishini ta'minlash uchun hamda mamlakat mintaqalarining tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish ishlari olib borildi. Samarqand viloyatida sanoatni rivojlantirish, ishlab turgan korxonalarning faoliyat sohasini o'zgartirish va ularni modernizatsiyalash dasturini bajarish doirasida 43 ta yangi korxona barpo etilgan, 32 ta korxonada ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirilib, shuning hisobiga 28,0 milliard so'm investitsiya jalb etilgan va 1298 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Viloyatda mahalliylashtirish dasturi doirasida bir qator ishlar amalga oshirilib, sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxlarini kamaytirish choralari ko'rildi. 2009-yilda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi 20 foizga kamaytirish hisobida 30 ta korxonada 6 milliard 57,3 million so'm tejab qolingan [6].

Mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini barqaror ta'minlash, ichki iste'mol bozorini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat tovarlari bilan ishonchli to'ldirib borish, asosan qishloq joylarda zamonaviy yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jihozlangan ixcham qayta ishlovchi korxonalarni jadal barpo etish maqsadida joylarda muayyan choralar ko'rgandi. Chunonchi, Buxoro viloyatida o'tgan davr mobaynida 2 ta go'shtni qayta ishlash korxonasi (3 ta korxona rejalashtirilgan edi), 2 ta sutni qayta ishlash korxonasi (4 ta korxona rejalashtirilgan edi), 7 ta sut qabul qilib oluvchi servis shoxobchasi (9 ta shoxobcha rejalashtirilgan edi) barpo etilgan, 17 milliard 26,3 million so'm miqdorida kreditlar berilgan, 21 ta korxonaga 87,5 million so'm miqdorida soliq imtiyozlari berilgan. Jizzax viloyatida 8 ta go'shtni qayta ishlash korxonasi va 10 ta sutni qayta ishlash korxonasi ishga tushirilgan. Navoiy viloyatida ana shu

maqsadlar uchun tijorat banklari tomonidan 16 milliard 384,0 million so‘m miqdorida kreditlar ajratilgan va 6 ta go‘shtni qayta ishlash, 5 ta sutni qayta ishlash korxonasi barpo etilgan edi [7].

Samarqand viloyatida esa kichik biznes sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularni kreditlash hajmi 45 foizga o‘sib, 119,3 milliard so‘mni tashkil qilgan, shuning 17 milliard so‘mi “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat dasturini bajarish yuzasidan qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan [8].

Navoiy viloyati og‘ir sanoatda respublikaning eng rivojlangan hududlaridan biri bo‘lib, 2009-yil mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va boshqa sanoat korxonalarida muhim yutuqlarga erishgandi. Ayniqsa, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining faoliyati sezilarli bo‘lib, undan oltin, uran va boshqa qimmatbaho metallar ishlab chiqarish davom etgan. Viloyatdagi sanoat tarmoqlari, shu jumladan kimyo, qurilish materiallari va energiya ishlab chiqarish sohalari ham o‘sishgan [9].

Buxoro viloyatida esa neft-gaz sanoati va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalari, neft-gaz konlarini rivojlantirish va qayta ishlash zavodlarini modernizatsiya qilish dasturlari amalga oshirilgandi. Yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivojlanishi ham yuqori bo‘lgan. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilib, eksportni oshirishga qaratilgan ishlar olib borilgan.

Samarqand viloyatidagi sanoat sohasida, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va tekstil sanoatida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Viloyatda paxtani qayta ishlash va to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish borasida katta qadamlar qo‘yilgan. 2009-yilda yangi to‘qimachilik fabrikalarining tashkil etilishi Samarqand viloyatining sanoat salohiyatini oshirishga yordam bergandi [10].

Shu bilan birga, Zarafshon vohasida turizm va qurilish sanoatlari rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Tarixiy ahamiyatini hisobga olgan holda, turizmga oid sanoat tarmoqlarida ham ijobiy o‘sish kuzatildi. Umuman olganda, 2009-yilda viloyat-larda deputatlarning kamchiliklariga qaramasdan, tashqi aloqalarning rivojlanishi Zarafshon vohasida sanoat sohalarida bir qancha investitsion shartnoma va loyihalar tufayli sezilarli yutuqlar amalga oshirilgan. Bu yutuqlar asosan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi orqali erishilgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Investitsion shartnoma va loyihalar tufayli viloyatlar tarixan qisqa vaqt ichida Respublikadagi yirik sanoatlashgan mintaqaga aylandi. Jumladan, mamlakat iqtisodiyotining faxri bo‘lgan “Navoiy tog‘-kon metallurgiya” kombinati, Navoiy GRESi, “Zarafshon-Nyumont” o‘zbek-amerika qo‘shma korxonasi, “Navoiyazot” va “Qizilqumsement” birlashmalari,

“Elektroximzavod” ko‘shma korxonasi [11], Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Gazli neft-gaz majmuasi, “Qandim” gazni qayta ishlash kompleksini, “Dzu tekstil Buxoro”, “Knauf gips Buxoro” kabi yirik korxonalar bunyod etilgan. Samarqandda “Liftsozlik” zavodi, “Sino” AJ, Samar-qand “Kimyo” zavodi, “Asl-Nafis” aksiyadorlik jamiyati, “Choy qadoqlash” fabri-kasi, “8-Mart” MChJ, “SamAvto”, “Sam-Anten-Gilam”, “JV MAN AUTO UZBEKISTON” O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma korxonasi [12] kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari nafaqat viloyatlar, balki butun mamlakat sanoatining faxri sanaladi.

Navoiy aeroporti tubdan rekonstruksiya qilinib, unga xalqaro maqom berilgan. Kuniga 300 tonna yuk qabul qilishga mo‘ljallangan terminal bunyod etilgani, ayni paytda ushbu inshootda yuz ming tonna miqdorida yuk qabul qilinadi [13]. Xalqaro logistika markazining imkoniyatlari kengayib uning xizmatlaridan “Korean Eyr” va “Moskoviya” (Rossiya) kabi xalqaro yuk tashuvchi kompaniyalar foydalanadi [14]. Shuningdek, chet el fuqarolarining hududga kirishi, unda bo‘lishi va chiqib ketishi, ish kuchi yollashi bo‘yicha soddalashtirilgan rejimining asosiy qoidalari ta’minlangan.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining yuragi hisoblanadi va u shimoli-g‘arbiy yo‘nalishda Rossiya orqali Yevropa davlatlariga, Sharqiy yo‘nalishda Xitoy orqali Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga, Janubiy yo‘nalishda Bandar Abbos porti orqali Yaqin Sharq va Fors ko‘rfaziga chiqadigan barcha transport (temir yo‘l trassalari) qatnovlarni bog‘lovchi markaz bo‘lib xizmat qiladi [15]. Yuqorida qayd qilingan imkoniyatlar tufayli O‘zbekistonda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqaror sur’atlarini saqlash, xalqaro moliya tashkilotlari rahbarlari tomonidan qayd etilganidek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini 2,6 baravar ko‘paytirish imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvardagi “2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1048-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Karmana tumanida “Karmana gips mahsulotlari” O‘zbekiston-Kanada qo‘shma korxonasi gips mahsulotini yetkazib berish maqsadida “Shams-Navoiy” firmasi gips ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirilishi bilan qo‘shimcha 50 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Ushbu loyihani amalga oshirish maqsadida “Xitoy taraqqiyot banki” tomonidan Xitoy texnologiyasi asosida gips ishlab chiqarish zavodini tashkil etish uchun 3 yil muddatga 748 ming AQSh dollari miqdorida imtiyozli kredit mablag‘i ajratildi [16]. Kredit mablag‘i hisobiga Xitoy davlatining “TA’IAN SEGER MECHANICAL AND ELECTRICAL SCIENCE AND TECHNOLOGY COLTD” firmasidan gips ishlab chiqarish uskunalari olib kelish bo‘yicha import shartnomasi

rasmiylashtirilib, TIF Milliy bank Navoiy bo‘limi tomonidan 193,7 mln so‘m (shartnomaning 15 foizi) miqdoridagi kredit mablag‘i “Shams-Navoiy” firmasining maxsus hisob-raqamiga konvertatsiya qilish uchun 2009-yil 3-fevralda ko‘chirilgandi [17]. Shu tariqa “Shams-Navoiy” firmasi o‘z loyihalarini rivojlantirib “Karmana gips mahsulotlari” qo‘shma korxonasi gips yetkazib berishni jonlantirib, korxonada qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2009-yilda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar mamlakat hududlarida, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ijobiy natijalarga olib keldi. Jumladan, kichik biznes sub’ektlari soni va ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshib, iqtisodiyotning yetakchi drayverlaridan biriga aylandi. Hududiy kesimda qaralganda, Samarqand viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 65,4 foizga o‘sishi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayganini ko‘rsatsa, Navoiy viloyatida kichik biznes sohasida band aholi ulushining 56,1 foizga yetishi aholi bandligini ta’minlashda mazkur sektorning muhim o‘rin tutayotganini namoyon etdi. Buxoro viloyatida esa yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport faoliyatini rag‘batlantirish va korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishildi. Shu bilan birga, sanoatni modernizatsiya qilish va mahalliylashtirish dasturlari doirasida yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi, mavjud korxonalar texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlandi. Xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish hisobiga yirik sanoat va infratuzilma loyihalari amalga oshirilib, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligi oshirildi. Natijada aholi bandligi darajasi va real daromadlari o‘sib, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga erishildi.

XULOSA. Xullas, 2009-yilda O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar hududlar iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. Sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga erishildi. Bu jarayonlar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki aholi bandligini ta’minlash va turmush darajasini yaxshilashga xizmat qildi. Shuningdek, hududiy rivojlanishda kompleks yondashuv va davlat qo‘llab-quvvatlovi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgani namoyon bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi. 1552-fond, 1-ro‘yxat, 213-yig‘ma jild, 128-varaq.

2. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi. Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. – Navoiy, 2010. – 65 b.

3. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459-fond, 1-ro‘yxat, 793-yig‘ma jild, 82-varaq.

4. Navoiy viloyat davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 944-yig‘ma jild, 99-varaq.

5. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459-fond, 1-ro‘yxat, 793-yig‘ma jild, 81-varaq.

6. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi. 1552-fond, 1-ro‘yxat, 124-yig‘ma jild, 78-varaq.;

7. Navoiy viloyat davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 944-yig‘ma jild, 104-varaq.

8. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi. 1552-fond, 1-ro‘yxat, 208-yig‘ma jild, 123-varaq.; Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 944-yig‘ma jild, 105-varaq.

9. Navoiy viloyat davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 969-yig‘ma jild, 104-varaq.

10. Abdurasul Sattorov. Investitsiya jalb qilinmoqda. // Xalq so‘zi. 2009-yil 24-yanvar.

11. O‘zbekiston Milliy Arxivi. M-62-fond, 1-ro‘yxat, 42-yig‘ma jild, 60-67-varaqlar.

12. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi. 1552-fond, 1-ro‘yxat, 244-yig‘ma jild, 136-varaq.

13. Rahmonov S., Yeshonqulov X. Beqiyos yaratuvchanlik va taraqqiyot zamini. // Xalq so‘zi. 2011-y.15-sentyabr.

14. Asatullayev X., Tursunov B., Mamanazarov A. Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi. – T., 2019. – 520 b.

15. Asatullayev X., Tursunov B., Mamanazarov A. Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi. – T., 2019. – 520 b.

16. Navoiy viloyat davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 957-yig‘ma jild, 3-varaq.

17. Navoiy viloyat davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 957-yig‘ma jild, 3-varaq.

TURKIYA RESPUBLIKASINING ADANA SHAHRIDAGI O‘ZBEK (TURKISTONLIK)LAR MATBUOTI. (XX ASR 2-YARMI-XXI ASR BOSHLARI)

Tog‘ayev Zokir Tilovovich,
Navoiy davlat universiteti
orcid.org/0009-0006-2874-4345

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiya Respublikasining Adana shahrida istiqomat qilgan o‘zbek (turkistonlik) muhojirlarining matbuot faoliyati yoritilgan. Unda o‘zbek diasporasi tomonidan tashkil etilgan nashrlar, ularning mazmun-mohiyati, asosiy yo‘nalishlari hamda milliy o‘zlikni, tarixiy xotirani va madaniy qadriyatlarni saqlashdagi o‘rni haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, mazkur matbuot nashrlarining turkistonliklar ijtimoiy-madaniy hayotidagi ahamiyati xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek muhojirlari, Adana, “Turkistonliklar yordamlashma dernegi”, “Bulak”, “Yeslek”, “Go‘zel Turkistan” muxbir, Shukurova, mushovir, byulleten, nashr, majmua, ta’sischi.

УЗБЕКСКАЯ (ТУРКЕСТАНСКАЯ) ПРЕССА В АДАНЕ, ТУРЕЦКАЯ РЕСПУБЛИКА. (2-Я ПОЛОВИНА 20 ВЕКА – НАЧАЛО 21 ВЕКА.)

Тогаев Закир Тиловович,
Навоийский государственный университет
orcid.org/0009-0006-2874-4345

Аннотация: В данной статье освещается издательская и публицистическая деятельность узбеков (туркестанцев), проживавших в городе Адана Турецкой Республики. Рассматриваются издания, созданные представителями узбекской диаспоры, их содержание, основные направления деятельности, а также роль в сохранении национальной идентичности, исторической памяти и культурных ценностей. Особое внимание уделяется значению данной периодической печати в общественно-культурной жизни туркестанской эмиграции.

Ключевые слова: узбекские переселенцы, Адана, «Туркестанское народное общество помощи», «Булак», «Еслек», корреспондент «Гозель Туркестан», Шукурова, советник, бюллетень, издание, комплекс, учредитель.

THE PRESS OF UZBEKS (TURKISTANIS) IN ADANA, REPUBLIC OF TURKEY. (2ND HALF OF THE 20TH CENTURY — EARLY 21ST CENTURY.)

Togayev Zakir Tilovovich,
Navoi State University

orcid.org/0009-0006-2874-4345

Abstract: This article examines the press and publishing activities of Uzbeks (Turkestanis) who resided in Adana, Republic of Türkiye. It discusses the publications established by representatives of the Uzbek diaspora, their content, major areas of focus, and their role in preserving national identity, historical memory, and cultural values. Particular attention is also paid to the significance of these publications in the social and cultural life of the Turkestani émigré community.

Keywords: Uzbek immigrants, Adana, “Association of Turkistanis for the Assistance of Turkistanis”, “Bulak”, “Yeslek”, “Go‘zel Turkistan” reporter, Shukurova, advisor, bulletin, publication, complex, founder.

KIRISH: XX asr 2-yarmida Turkiya Respublikasining Istanbul, Adana, Izmir, Mersin, Mugla, Sang‘uldak, Bursa, Ko‘nya kabi shaharlariga muhojir o‘zbek (turkistonlik) larning bir necha bosqichda ko‘chib o‘tishlari yuz bergan.Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, 1952–1953-yillarda Pokistonning Karachi va Peshovar shaharlari orqali Turkiyaga ko‘chgan o‘zbeklarning 400 oilasidan [1] ancha qismi Adana (Shukurova) ga kelib joylashdi. Undan ilgari ham Adanada o‘zbeklar istiqomat qilib, ular savdo-sotiq, Makka va Madina haj ziyorati, ta’lim olish kabi maqsadlarda bu shahar va atrofdagi qishloqlar bo‘ylab joylashgandi. Shuningdek, 1978-yilda Afg‘onistondagi savr (aprel) inqilobi va cheklangan sovet qo‘shinlarining bu davlatga 10 yillik qirg‘inbarot urushi (1979-1989) tufayli o‘zbek jamoalarining katta ko‘chishlari yuz berib 4,5 ming oila asosan Turkiyaga ko‘chdi. Birgina 1982-yilda 171 oila o‘zbeklar Pokistondan Turkiyaga ko‘chirilganligini qayd etish mumkin [2]. 1960-1970-yillarda Xitoydan Hindiston va Pokiston orqali 3 ming sonli o‘zbek Turkiyaga muhojir bo‘lib o‘tdi. Ularning bir qismi ham Adanaga joylashdi.

O‘zbeklarning Adana bo‘ylab zich joylashuvidagi muhim omillardan biri ushbu viloyat tabiati , xo‘jaligi va taomlarida O‘zbekistonning Farg‘ona viloyati bilan uyg‘unlik mavjud bo‘lgan. Shu sababli Adana o‘zbeklarni ko‘p hollarda “Farg‘onachi” deb atash tamoyilga kirgan edi.

ASOSIY QISM: Adana o‘zbeklarining ilk milliy uyushmasi (jamiyati) 1949- yilda tashkil etilib, Adanadagi “Turkistonliklar jamiyati” (dernegi) birinchi Prezidenti (Boshqoni) doctor Roziq O‘zgen (Rasik Özgen) bo‘lib uning hamkorlari Muhiddin Koran (Çözluklu), Umar Tangriyor (Ömer Tanrı) bo‘lgan. Adana Turkistonliklar jamiyati” o‘zi haqidagi ma’lumotlarni dunyoga tanitish va o‘zbeklar hayoti haqida fikr- mulohazalar bildirish uchun 1951-yilda “ESLEK” (“Xotira”) nomi bilan byulleten chop etgan. Ushbu byulletenning 8-9 ta soni chop etilib, uning sonlarida Adana o‘zbeklarining ijtimoiy, madaniy faoliyatlari va ota-

bobolari yurti Turkiston haqidagi maqolalar bosilgan. Masalan “ESLEK” ning 8-sonida Nezir O‘zchengizning” Yo‘ldosh” (Huydas); Veyan Alkerning “Qardosh” (Kardas); Ahmed Kurdzi Erdo‘g‘anning “Tug‘ishganlar” (Dogonek); Omer Tangriyorning “Tangri quli” (Tangrikulu); Bedri Husenning “Xasta” (“Hasta”) kabi maqolalari bosilgan. Shuningdek, ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan Turkiston sobiq asirlaridan birining “Onamga” (“Annem’e”) nomli she’ri ham byulletenda bosilib, muallif unda onasi va ota Vatani Turkistonga cheksiz muhabbatini ifodalagan. [3]

Biroq “ESLEK” byulletenining bor-yo‘g‘i 9 ta soni bosildi xolos. Moddiy imkoniyatlarning cheklanishi, unda ishtirok etgan muxbirlar bir guruhining Adanadan ko‘chib ketishi, bino va bosmaxona bilan bog‘liq muammolar tufayli byulleten to‘xtab qoldi. “ESLEK” byuleteni Turkiyadagi o‘zbeklar orasida keng tarqalmadi va uning obunachilari soni ham oz edi. Bu o‘rinda moliyaviy holatini ham hisobga olish kerak. Nima bo‘lganda ham “ESLEK” byulleteni Adanadagi o‘zbeklar tarixida matbaachilik borasidagi tashlangan ilk qadam edi.

Shundan so‘ng Adana o‘zbeklari matbuotchilik tarixida salkam o‘n yil tanaffus kuzatiladi. 1959-yil martda millatparvar ziyolilar tomonidan “BULAK” (“Buloq”) nomli jurnal (derchi) chop etila boshlandi. 1959-yil mart oyidan chiqa boshlagan “BULAK” jurnali o‘sha yilning aprel, may, iyun, iyul, avgust oylarida tanaffusiz chop etildi. Jurnalning hajmi 20-30 sahifani tashkil etib, eski o‘zbek adabiy tilida, lotin imlosida bosildi. Shundan so‘ng jurnal faoliyatida tanaffus kuzatilib, 1962-yilda yangidan bosila boshlandi. “Bulak” jurnalining 1962-yil 15-fevralda bosilgan 9-sonida uning adabiy ishlari mudiri (muharriri) To‘fan Aysalan, huquq mushoviri Mahmud O‘nar ekanligi ayon bo‘ldi. 1962-yil 15-aprelda dunyo yuzini ko‘rgan 10-sonida “Bulak” tahrir hay’atini Özchan Yöldoshchan boshqargan. 1962-yil oxiriga qadar “BULAK”ning 12 ta soni chiqib, uning faoliyati ham to‘xtadi. [4]

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Adana o‘zbeklarining matbuoti tarixi bu bilan tugamadi. 1963-yildan boshlab “Turkistanlilar Vardimlashma Dernegi” tashabbusi bilan alohida byulletenlar vaqti-vaqti bilan bosilib turdi. Ushbu byulletenlar Adana o‘zbeklar uyushmasi faoliyatidan jamoatchilikni xabardor qilib turdi. Byulletenlarni tayyorlashda Adana (Shukurova) dagi oliy darajada tahsil olgan professor, dotsent lavozimiga ega bo‘lgan ziyolilar, vrachlar, muallimlar, muhandislar ishtirok etdilar. [5]

1980-yilga kelib, Turkistonlilar yordamlashma jamiyati” faoliyati bir qadar susayib, 2000-yilga qadar byulleten chop ettirish ham amalda to‘xtadi.

Faqatgina 2005-yil 1-oktyabrdan boshlab Adana o‘zbeklarining yosh avlod vakillari tomonidan “Çenç Turkitanlilar Bulteni”(“Yosh Turkistonliklar byulleteni”) elektron shaklda bosila boshlandi. [6]

2008-yildan “Adana Turkistonlilar kultur va yordamlasma jamiyati” (“Adana Turkitanlilar kultur va yardamlashma dernegi”) ning matbuot organi “GUZEL TURKISTAN” (Go‘zal Turkiston”) bosila boshlandi. Ushbu jurnalni nashr etishda jamiyat prezidenti Husayin Verdenik va jamiyat yoshlar qanoti prezidenti (Boshqoni) N. Dilara Beklar muhim rol o‘ynadilar. Adana o‘zbeklar jamiyati o‘z binosiga ega bo‘lib, “Go‘zal Turkiston” jurnali manzili shu binoda joylashgan. Jurnal ta’sischisi Husayn Berdilek, adabiy ishlar mudiri Kubilay Kovash (Kubılay Kovas) , muvofiqlashtiruvchi muharrir Enver Bulgehan Hilal (Enver Bulgehan Hilal) bo‘lishgan. Uch oyda bir bor bosiladigan “Go‘zal Turkiston” jurnalining 2009-yil mart oyida bosilgan 4-soni bilan tanishish asnosida amin bo‘lindiki, uning hajmi 30 sahifani tashkil etgan. Jurnal lotin imlosida, Turkiya turkchasida bosilib, undagi maqolalar Turkiyadagi o‘zbeklar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki haqidagi ma’lumotlar aks ettirilgan. Maqolalarda Turkiston tarixida kechgan 1927-1930-yillardagi fojiali voqealar, Afg‘oniston o‘zbeklari haqidagi ma’lumotlar, o‘zbek qomusiy olimlaridan Abu Rayhon Beruniy (978-1048), adiblardan Abdulhamid Cho‘lpon (1897-1938) haqida maqolalar bosilgan. A.S.Cho‘lponning “Baljuvon” (Belguvan) she’ri o‘zbek va turk tillarida jurnalning 26-sahifasidan o‘rin olgan. Jurnalning 2009-yil mart oyidagi 4-sonida Ekber (Akbar) Yassaning “Turkiston” badiasi, Said Tumturkning “Unutilmas Vatan, Tashqi Turkiston” Chagatoy Kocharning “Turkistonda Armani vahshiyligiga 90 yil to‘ldi” (Turkiston muxtoriyatining qonga botirilishi haqida) V. Timur Davlatovning Sibir qamoqxonalarida o‘lim qamoqxonalariga tushgan turklar”, Dilara Bekning Afg‘oniston o‘zbeklari haqida “Chalkash hayotlar” kabi maqolalar bosilgan.

XULOSA. Shuningdek, jurnalning oxirgi sahifalarida “Turkistondan xabarlar” rukni ostida Markaziy Osiyo respublikalari haqidagi yangiliklar berilgan. Jurnal ushbu sonining 19-21-betlarida Ikkinchi jahon urushida fashistlarga asir tushgan, 1920-yil Samarqandda tavallud topib , “Turkiston legioni” da ishtirok qilib, bir umr xorijda yashab qolgan Olim Rabotli bilan jurnal muxbiri muloqoti berilgan. “Go‘zal Turkiston” fotolavhalar bilan bezatilgan va uning dizayni hozirgi matbuot organi oldiga qo‘yilgan talablarga javob beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Muhammad Ali. Abadiy sog‘inchlar. Roman-xronika. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. Toshkent. – 2005. – B.186-199. (216 bet). Hayitov Sh.A. O‘zbek muhojirligi tarixi (1917-1991-yillar). Toshkent: ABU MATBUOT- KONSALT; 2008. – B. 102 (208 bet)

2. Nuriddin Xotuno‘g‘li. Buxoroning so‘nggi amiri Olimxon (Afg‘onistonda yigirma uch yil).-Toshkent: “Iqro” nashriyoti, 2024. – B. 14. (256 bet)

3. Çagatay Köçar. ATAVURTTAN ANAYURD TURKISTAN….– Adana-2009. – B.158

6. Muallifning shaxsiy suhbati ma’lumoti; 2005-yil 10-yanvar

7. GUZEL TURKISTAN. 3 AVLIK DERÇI MART. 2009. – S. 19-21

YUKSAK HARBIY SAN’AT NAMOYANDASI (AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI)

Toshmurodov Husan,
Turon universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning harbiy san’ati, qo‘shinlarni boshqarish usullari, strategik rejalashtirish va jangovar taktikasining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Sohibqironning harbiy yurishlarda qo‘llagan usullari, qo‘shin tuzilishi, intizom va tezkor harakat tamoyillari haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Shuningdek, Amir Temur harbiy strategiyasi va taktikasining tarixiy ahamiyati hamda jahon harbiy san’ati taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, Amir Temur, harbiy san’at, strategiya, taktika, sarkardalar, 690 yilligi, tarixiy manba.

ВЫДАЮЩИЙСЯ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ ВОЕННОГО ИСКУССТВА (К 690-ЛЕТИЮ СО ДНЯ РОЖДЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА)

Тошмуродов Хусан
Университет «Туран»

Аннотация: В данной статье рассматриваются военное искусство Амира Темура, особенности управления войсками, стратегического планирования и боевой тактики. Кратко освещаются методы, применявшиеся полководцем в военных походах, структура армии, принципы воинской дисциплины и оперативного маневрирования. Также раскрываются историческое значение военной стратегии и тактики Амира Темура и их роль в развитии мирового военного искусства.

Ключевые слова: Средняя Азия, Амир Темур, военное искусство, стратегия, тактика, полководцы, 690-летие, исторический источник.

AN OUTSTANDING REPRESENTATIVE OF MILITARY ART (DEDICATED TO THE 690TH ANNIVERSARY OF THE BIRTH OF AMIR TEMUR)

Toshmurodov Husan
Turan University

Аннотация: В данной статье рассматриваются военное искусство Амира Темура, особенности управления войсками, стратегического

планирования и боевой тактики. Кратко освещаются методы, применявшиеся полководцем в военных походах, структура армии, принципы воинской дисциплины и оперативного маневрирования. Также раскрываются историческое значение военной стратегии и тактики Амира Темура и их роль в развитии мирового военного искусства.

Keywords: Central Asia, Amir Temur, military art, strategy, tactics, military commanders, 690th anniversary, historical source.

KIRISH: Jahon tarixida o‘zining buyuk sarkardalik salohiyati, davlat boshqaruvi va yuksak harbiy san’ati bilan chuqur iz qoldirgan shaxslar kam uchraydi. Ana shunday buyuk siymolardan biri Amir Temur hisoblanadi. Sohibqiron nafaqat markazlashgan qudratli davlat barpo etgan, balki harbiy strategiya va taktika borasida ham o‘ziga xos maktab yaratgan. Uning harbiy faoliyati nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham ko‘plab sarkardalar uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilgan.

Buyuk Amir Temur harbiy mahorati juda ko‘pchilik olimlar va tadqiqotchilarni jalb etgan. Sohibqiron harbiy san’ati yevropalik yirik mualliflarning ham masalan, mashhur ingliz tarixchisi Edvard Gibbon (1737-1794) ning “Rim imperiyasining yemirilish tarixi” (Moskva, 1886), yirik nemis tarixchisi Fridrix Shlosser (1776-1861), Fridrix Veber “Umumiy tarix” kabi kitoblarida bayon etilgan. Va Lyusyen Keren, Satish Chandra, Beatris Manz, Richard Nelson va boshqalar o‘z asarlarida ham Sohibqironning ijtimoiy-siyosiy, jumladan harbiy faoliyatini yoritishgan.

ASOSIY QISM: O‘zbekiston Mustaqillikka erishgandan so‘ng bir qancha alloma va sarkardalarning nomlar qayta tiklandi. Shulardan biri Sohibqiron Amir Temur hisoblanib nomlar tiklandi. Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o‘matildi, Toshkentdagi Amir Temur xiyoboni da Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi (1996), "Amir Temur" ordeni ta’sis etildi (1996) va Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi tashkil qilindi (1995). Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi (1996). Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar, she’riy va nasriy asarlar yaratildi.

Hozirgi kunda ham Temurbek bag‘ishlab monografiyalar, risolalar, maqolalar yozilmoqda. Marhum ustozimiz Ochil Bo‘riyev **(Oxirati obod, joylari jannatda bo‘lsin, qabrlari nurga to‘lsin)** bir qancha maqola va monografiyalar chop qilganlar. Ochil Bo‘riyevning “Amir Temur-Turon sultoni” asarida quyidagi iqtiboslar keltirilgan. Germaniyaning Potsdam shahridagi qirol Fridrix saroyida

ham Sohibqironning surati osilgan turibdi. Bu zal “Amir Temur zali” deb yuritiladi.

2000-yilga kelib Yevropa xalqlari tillarida Amir Temur va temuriylar haqida chop etilgan asarlar son 700 dan ziyodni sharq tillarida esa 900 dan ortiqni tashkil etdi. Hozir jahonning 50 dan ziyod mamlakatida Amir Temur faoliyatiga oid asarlar chop etilgan.

1996-yil 26-aprelda "Amir Temur" ordeni ta’sis etildi. Shu yilning oktyabr oyida ikki shahar Samarqand va Shahrisabz "Amir Temur" ordeni bilan taqdirlandi. 2014-yil 22-avgustda Termiz shahri ham "Amir Temur" ordeni bilan mukofotlandi.

2017-yil 30-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev harbiy ta’lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga **"Temurbeklar maktabi"** deb nom berish taklifini ilgari surdi va ushbu taklif yoshlar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 05.02.2026 yildagi PQ-46-son Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini nishonlash to‘g‘risida qarori qabul qilindi. Qayd etish joizki Amir Temurning shaxsiyatni yanada chuqurroq o‘rganish, uning bashariyat tarixi, boy va betakror merosini o‘rganish. O‘zbekiston va chet ellarda keng ommalashtirish.

Endilikda har yili aprel oyini "Amir Temur oyligi" deb e’lon qilinadi va uning doirasida umum ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, harbiy qismlar va harbiy ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlar, mahallalarda temurshunos olimlar, yozuvchilar va san’atkorlar ishtirokida uchrashuvlar, badiiy-ma’rifiy tadbirlar uyushtiriladi.

Xususan, 9-10-aprel kunlari O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati” ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tadi. Qolaversa, temuriylar davriga oid, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan asl yozma manbalar nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish.

"Tirik tarix" loyihasi asosida suratga olingan, Amir Temur saltanatining Yevropa davlatlari bilan diplomatik va elchilik aloqalari yoritib berilgan tarixiy-badiiy va hujjatli filmlarni Ispaniya (Kastilya), Fransiya, Buyuk Britaniya kabi xorijiy mamlakatlarda namoyish etish.

Islom sivilizatsiyasi markazi Fanlar akademiyasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda 1-martdan boshlab Amir Temur va temuriylarning jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan hissasini keng targ‘ib qilish maqsadida “Buyuk temuriylar" atamasining xalqaro ilmiy istiloh sifatida joriy qilinishini ta’minlash uchun xorijiy davlatlarda "Buyuk temuriylar tarixi va madaniy merosi" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkaziladi.

“Temur tuzuklari” asarining ilmiy izohli matnini fors, arab, xitoy, ingliz fransuz, ispan va rus tillariga chop etish Qarorda boshqa masalalar ham mavjud [1].

Harbiy san’atini chuqur o‘rganish, ilmiy tahlil qilish va yosh avlodni Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi tashkiliy-amaliy, ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlar olib borilmoqda. yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki uning tajribasi bugungi zamonaviy harbiy ilm-fan uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Sohibqiron harbiy san’ati yevropalik yirik mualliflarning ham masalan, mashhur ingliz tarixchisi Edvard Gibbon (1737-1794)ning “Rim imperiyasining yemirilish tarixi” (Moskva, 1886), yirik nemis tarixchisi Fridrix Shlosser (1776-1861), Fridrix Veber “Umumiy tarix” kabi kitoblarida bayon etilgan. Va Lyusyen Keren, Satish Chandra, Beatris Manz, Richard Nelson va boshqalar o‘z asarlarida ham Sohibqironning ijtimoiy-siyosiy, jumladan harbiy faoliyatini yoritishgan.

Muhtaram Prezidentimiz, Oliy Bosh Qo‘mondon Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “...Sohibqiron Amir Temur bobomizdek – u zot bironta jangda mag‘lub bo‘lmagan – yengilmas sarkarda va davlat arbobi jahonda kamdan-kam topiladi [2].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Sohibqironning shaxsiy jasorati chindan ham afsonaviy bo‘lib, uning janglarda ko‘rsatgan mardligi uning do‘stlari va hattoki dushmanlari orasida katta obro‘ qozonishga sabab bo‘lgan. Temurbekning kuch-qudrati va chidamliligi ham kishini lol qoldiradi, amalga oshirgan uzoq muddatli harbiy yurishlari (ayrimlari yetti yilgacha cho‘zilgan) bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ul zot hatto hayotining so‘nggi yillarida ham uning nihoyatda g‘ayratli bo‘lgan. Masalan, Anqara yonida Boyazidga qarshi olib borilgan mashhur jangni(1402-yil 20-iyul) mohirona boshqarganda Amir Temur nuroniy yoshda edi.

U o‘z faoliyatida qadimgi turkiy va mo‘g‘ul harbiy an’analarini chuqur o‘rgangan holda, ularni yangi strategik yondashuvlar bilan boyitdi. Ayniqsa, Chingizxon davrida shakllangan qo‘shin tuzilmasi Amir Temur tomonidan takomillashtirildi.

Sohibqironning harbiy san’ati quyidagi omillar asosida shakllandi: Harbiy intizomning yuqori darajada yo‘lga qo‘yilishi; Qo‘shin tuzilmasining mukammalligi; Razvedka va axborot tizimining rivojlanganligi; Strategik fikrlash va uzoqni ko‘ra bilish qobiliyati.

Amir Temur qo‘shin tuzilishiga alohida e’tibor bergan. U qo‘shinlarni o‘nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga bo‘lish orqali aniq boshqaruv tizimini yaratdi [3]. Bu tizim harbiy operatsiyalarni tezkor va samarali olib borishga imkon yaratgan. Har bir qo‘mondon o‘z bo‘linmasi uchun to‘liq javobgar bo‘lgan. Buyruqlar qat’iy va so‘zsiz bajarilgan. Intizomni buzganlar esa qattiq jazolangan.

Bundan tashqari, Amir Temur qo‘shinida quyidagi qismlar mavjud edi: Otliq qo‘shin (asosiy kuch); Piyoda askarlar; Muhandislik qismlari; Ta’minot va logistika bo‘linmalari; Bu esa qo‘shinlarning har tomonlama tayyor bo‘lishini ta’minlagan.

Buyuk sarkarda sifatida Amir Temur o‘z jangchilarini doimo jangavor holatda tutib, jangga uzoq muddat tayyorlanish orqali tez, shiddatli hujum uyushtirishni afzal ko‘rgan. U noto‘g‘ri holat, noqulay vaziyatda ham ming nafar jangchiga qarshi turganda ham 10 nafar jangchi bilan ham to‘g‘ri holat va qulay vaziyatda turgan ma’qul, — deb hisoblagan. Sohibqiron biron shaharni qamal qilganda shahar devori orqasidan hech qachon kutilmagan holatga tushib qolmagan. Keyinchalik Napoleon son jihatdan ancha ortiq bo‘lgan dushman bilan to‘qnashganda himoya uchun yashirinish imkoniyatini axtarishning umumiy tamoyili “qal’a taqdiriga ishonishdir”, deb aytgan edi.

Temurbek katta strategik salohiyatga ham ega bo‘lgan siymodir. U foydali hamkorlik qilishning ahamiyatini yaxshi tushungan. U siyosiy faoliyatinig boshlanishida katta qo‘shinga bosh bo‘lib turganda ham Tug‘luq Temur bilan ittifoq tuzgan. Bu Temurbekka o‘zi boshqarib turgan yerlarda hukmronligini mustahkamlashga imkon bergan. O‘z imperiyasini himoya qilishda ittifoqdosh taraflarni doimiy ravishda o‘zgartirib ham turgan.

Sohibqiron keng ko‘lamli yurishlarida o‘z davri harbiy texnikasini ham yaxshi bilgan va undan to‘g‘ri foydalangan. Masalan, neft bilan to‘ldirilgan qozonlardan foydalangan, jangovar fillardan saqlanish yo‘llarini yaxshi bilgan. Temurbekda jang paytida eng zarur va kerakli yerda paydo bo‘lish odati ham mavjud bo‘lib, turli paytlardan ustalik bilan foydalana oladigan yetuk lashkarboshi ham bo‘lgan. Avval u o‘z dushmanlarining zaif tomonlarini aniqlab olib, keyin unga qachon hujum qilishini aniq belgilangan [4].

Demakki, Amir Temur hozirgacha yashayotgan, ham, bundan keyingi avlodlari orasida ham eng buyuk shaxs bo‘lib qolaveradi [5].

Sohibqiron bobokalonimiz nafaqat O‘rta Osiyo, balki jahon harb ilmini rivojlantirishga, yangi usullar va taktikani shakllantirishga o‘zining munosib hissasini buyuk va muzaffar sarkarda bo‘lganligi tarixiy haqiqatdir [6].

XULOSA. Xullas, Amir Temur hazratlari davri, xususan harbiy san’ati tarixini yoritishda ishonchli manbalardan biri hisoblanib, u nafaqat oddiy kitobxonlar, balki tarixchilar, harbiy soha mutaxassislari uchun ham muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Sohibqironning 690 yilligini nishonlash – bu nafaqat tarixiy sana, balki uning boy merosini o‘rganish, undan saboq olish va kelajak avlodga yetkazishdir.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki yuksak tafakkur egasi, adolatli hukmdor va tarixiy shaxs sifatida abadiy xotirada qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirzyoyev. Toshkent. 2026-yil 5- fevral PQ-46-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. B.334.
3. Temur tuzuklari. – Toshkent, 1991.
4. Bo‘riyev O. Yuksak harbiy san’at namunasi. – Turon tarixining oltin davri. – T.: “Voris nashriyoti”, 2019. – B.155.
5. Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro konferensiya tezislari, – Toshkent, 1996. – B.31-36.
6. O‘zbekiston harbiy ish tarixidan – T.: “Sharq”, 2002. – B.105.

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MUVAFAQIYAT QOZONISHDA OILA IJTIMOIY MUHITINING AHAMIYATI

Umidjon Xomidjonov,
Fan va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola inson kapitalini rivojlantirishda oila institutining ahamiyati tahlil etilgan. Oilalarda farzand tarbiyasi va ularning ta’lim olishlariga oiladagi ijtimoiy muhit va iqtisodiy resurslarning ta’siri, shuningdek, maktabdagi infrastruktura obyektlarining ahamiyati ilmiy o‘rganilgan. Oilada shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv makoni sifatida uning xarakteri, qadriyatlari va maqsadlari ilmiy asoslantirilgan.

Kalit so‘zlar: oila, maktab, ta’lim jarayoni, ijtimoiy qadriyatlar, inson kapitali, infrastruktura, soft skills, ijtimoiy kapital qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tarbiya ilm, ma’rifat.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ СЕМЬИ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И ДОСТИЖЕНИИ УСПЕХА

Умиджон Хомиджонов,
Университет науки и технологий

Аннотация: В статье анализируется значение института семьи в развитии человеческого капитала. Научно изучено влияние социальной среды и экономических ресурсов в семье на воспитание детей и их образование в семьях, а также значение объектов школьной инфраструктуры. Семья как пространство первичной социализации личности научно обоснована ее характером, ценностями и целями.

Ключевые слова: семья, школа, образовательный процесс, социальные ценности, человеческий капитал, инфраструктура, soft skills, поддержка социального капитала, образовательная наука, просвещение

THE IMPORTANCE OF THE FAMILY'S SOCIAL ENVIRONMENT IN DEVELOPING HUMAN CAPITAL AND ACHIEVING SUCCESS

Umidjon Khomidjonov
University of Science and Technology

Annotation: This article analyzes the importance of the Family Institute in the development of human capital. The influence of the social environment and economic resources in the family on the upbringing of children in families and their education, as well as the importance of infrastructure facilities in the school, has been scientifically studied. The family is scientifically justified as the space of primary socialization of the individual, where his character, values, and goals are formed.

Keywords: family, school, educational process, social values, human capital, infrastructure, soft skills, social capital support, educational science, enlightenment

KIRISH: Inson kapitali zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, global raqobat, bilimlar iqtisodiyoti va texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda shaxsning malakasi, bilim va ko'nikmalari uning mehnat bozoridagi o'rni va turmush darajasini belgilaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirishda oilaning ijtimoiy muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida ham oila jamiyatning asosiy tarkibiy bo'g'ini sifatida bolaning ta'limi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda markaziy vazifani bajaradi. Davlat tomonidan oilani qo'llab-quvvatlash, yoshlarning ta'lim va kasbiy rivojlanishiga sharoit yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani mazkur mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois, oila ijtimoiy muhitining inson kapitalini rivojlantirishga ta'sirini chuqur tahlil qilish, milliy hamda xalqaro tajribalar asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Inson kapitali tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy va ijtimoiy fanlarda alohida nazariy yo'nalish sifatida shakllandi. Unda shaxsning bilim, malaka, sog'liq va ijtimoiy ko'nikmalari uning iqtisodiy faolligi va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini belgilaydigan asosiy resurs sifatida qaraladi. Bu jarayonda

oila nafaqat iqtisodiy qo‘llab-quvvatlovchi muhit, balki ijtimoiylashuv, madaniy meros va ta’limiy imkoniyatlar manbai sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM: O‘zbekistonda oilaning ijtimoiy vazifalarini mustahkamlash, ta’lim sifatini oshirish va yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar milliy rivojlanish strategiyalarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv makoni sifatida uning xarakteri, qadriyatlari va maqsadlariga asos bo‘ladi. Ijtimoiy muhit esa bu jarayonni kengaytirib, shaxsning imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashi yoki, aksincha, cheklashi mumkin. Bugungi globallashuv, urbanizatsiya va axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanish davrida muvaffaqiyatning an’anaviy omillari o‘zgarib bormoqda. Avvallari moddiy boylik va iqtisodiy imkoniyatlar asosiy mezon bo‘lib kelgan bo‘lsa, hozirgi kunda bilim, malaka, ijtimoiy kommunikatsiyalar va innovatsion fikrlash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa oilaning tarbiyaviy roli va ijtimoiy muhitning qo‘llab-quvvatlash tizimlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Nemis sotsiolog olimi Maks Vebberning ta’kidlashicha, muvaffaqiyat — bu shaxsning o‘z hayotiy maqsadlariga erishish darajasi bo‘lib, u subyektiv va obyektiv mezonlarga ega. Sotsiologik nuqtayi nazardan muvaffaqiyat jamiyat tomonidan tan olingan yutuqlar majmuasidir [1]. Abraxam Maslou fikriga ko‘ra, muvaffaqiyat ichki motivatsiya, shaxsiy ehtiyojlarni qondirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish bilan bog‘liq [2]. Jamiyatda muvaffaqiyat mezonlari vaqt va makon omillariga bog‘liq holda o‘zgaradi. Masalan, sanoat davrida iqtisodiy boylik asosiy ko‘rsatkich bo‘lgan bo‘lsa, postindustrial davrda bilim, kreativlik va ijtimoiy tarmoqlar orqali ta’sir o‘tkazish salohiyati yetakchi o‘ringa chiqdi.

Fransuz sotsiologi Pierre Bourdieu talqiniga ko‘ra, Oila — insonning eng yaqin ijtimoiy instituti bo‘lib, uning ijtimoiylashuv jarayonidagi birinchi maktabidir. 1986-yilda Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan Ijtimoiy kapital nazariyasida yozilishicha, oila farzandlarga nafaqat moddiy resurslar, balki ijtimoiy aloqalar, madaniy qadriyatlar va bilimlarni ham meros qilib qoldiradi [3].

Oila inson hayotidagi birinchi va eng muhim ijtimoiy institut sifatida shaxsning qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantiradi. oila shaxsning jamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlovchi boshlang‘ich maktabdir. Oila nafaqat moddiy resurslar, balki hissiy qo‘llab-quvvatlash, psixologik barqarorlik va motivatsion zamin yaratish orqali muvaffaqiyatga zamin hozirlaydi.

Bolalik davrida oilada o‘rganilgan qadriyatlar, mehnatga munosabat, intizom va maqsadga intilish odatlari shaxsning butun hayoti davomida muvaffaqiyatga erishish jarayonida yetakchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bolaligida ota-onasi tomonidan mehnatsevarlik, mas’uliyat va

mustaqillik ruhida tarbiyalangan yoshlar keyinchalik professional sohada yuqori yutuqlarga erishadi. AQShlik iqtisodchi olimlar James J.Heckman va Tim Kautzlar inson kapitalini rivojlantirishda oila muhitini ta’siriga doir qiziqarli ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishgan. Heckman va Kautz ta’kidlashicha, inson muvaffaqiyati faqat akademik bilimlar (IQ, matematika, til bilimi) bilan emas, balki sabr-toqat, intizom, ijtimoiy moslashuvchanlik, mas’uliyatlilik, o‘zini nazorat qilish kabi xarakter xususiyatlari bilan ham belgilanadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bolaning 0–5 yosh orasidagi davrida oiladagi muhit, tarbiya va stimullar uning keyingi hayotidagi muvaffaqiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning ta’lim darajasi, mehr-muhabbati, intizom berish usuli va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bola xarakteri va kognitiv qobiliyatlarini shakllantiradi[4]. Heckman va Kautz ta’kidlaydilarki, kam ta’minlangan oilalardagi bolalar ko‘pincha iqtisodiy va ma’naviy resurslar yetishmasligi sababli, boy oilalardagi tengdoshlariga nisbatan rivojlanishda orqada qoladi. Heckmanning iqtisodiy tahlillari shuni ko‘rsatadiki, bolaning ilk rivojlanish bosqichida investitsiya kiritish katta yoshdagi ta’lim yoki qayta tayyorlash dasturlariga qaraganda ancha yuqori iqtisodiy foyda keltiradi. Ular erta bolalik ta’limiga sarflangan 1 dollar keyinchalik jamiyatga 7–10 dollar foyda keltirishi mumkinligini hisoblab chiqishgan. Heckman va Kautz birgalikda insonning muvaffaqiyati faqat testlar bilan o‘lchanadigan IQ yoki akademik bilimlarga emas, balki g‘ayrikognitiv ko‘nikmalarga — intizom, sabr-toqat, jamoada ishlash qobiliyati, motivatsiya va mas’uliyatga ham juda katta darajada bog‘liq ekanini ilmiy asoslashgan.

Ular ko‘plab empirik tahlillarda *soft skills* ni rivojlantirish uchun erta yoshdagi ta’lim, oila muhiti va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari samaradorligini ko‘rsatgan.

Ular olib borgan tadqiqotlar asosida AQSH va bir qator Yevropa davlatlarida yoshlar siyosati va ta’lim dasturlari qayta ko‘rib chiqilgan deyish mumkin.

Yurtimizda esa inson kapitalini rivojlantirish va farzandlarimizning kelajakda muvafaqqiyatli inson bo‘lishlarini ta’minlashda oiladagi ijtimoiy muhit qanday ta’sir ko‘rsatishiga doir sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazilganda quyidagi natijalar olingan.



PISA tadqiqotlarida ishtirok etgan o‘quvchilarning oilaviy sharoiti to‘g‘risida ma’lumot

O‘quvchilarning oilalaridagi ijtimoiy muhit, o‘quvchilarning ovqatlanish ratsioni, to‘yib ovqatlanmaslik, ijtimoiy tengsizlik kabi qator omillar ularning ta’lim olishiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra yurtimizdagi 6.40% o‘quvchilarning xonadonlarida ilmiy va badiiy kitoblar mavjud emas 32 % o‘quvchilarning xonadonlarida esa 10 tadan kam ilmiy yoki badiiy kitoblar bor, 14.60% o‘quvchilarning xonadonida esa kitob javoni yo‘q, 10.60% o‘quvchilarning uyida yuvinish uchun dush yoki vanna mavjud emas, 10% o‘quvchilarni uyida muzlatgich yo‘q” [5]. Mazkur raqamlar va oiladagi ijtimoiy vaziyat, ota onalarning farzand ta’limiga bo‘lgan munosabati o‘quvchilarni o‘rab turgan ijtimoiy borliq ham inson kapitaliga ta’sir ko‘rsatishini tushuntirib beradi.

Masalan O‘zbekiston Respublikasi 2022-yilda butun dunyoda maktab ta’limi sifatini baholovchi xalqaro PISA tadqiqotida ilk marotaba ishtirok etdi. Natijalarga ko‘ra, matematika yo‘nalishida yurtimiz o‘quvchilari 81 davlat orasidan 364 ball bilan 72-o‘rinni egalladi.



2022-yilda matematika savodxonligi bo‘yicha PISA tadqiqotlarida davlatlar ishtiroki (Erishilgan natijalar ball ko‘rinishida berilgan. Diagramma muallif tomonidan ishlangan)

Yuqori o‘rinlarni Singapur, Xitoy, Yaponiya singari davlatlar egallagan. O‘zbekistonlik o‘quvchilar 2-yo‘nalish o‘qish savodxonligi bo‘yicha 336 ball bilan 80-o‘rinni egallagan. O‘zbekistonga o‘xshash eng past natijalarni Kosova, Iordaniya, Marokash va Kambodja o‘quvchilari ko‘rsatgan. 3-yo‘nalish tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha esa O‘zbekiston 355 ball bilan 80-o‘rinni egallagan. Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda maktab ta’limi sifati qoniqarsiz ahvolda. Fikrimizcha, bunday natijaga yetaklovchi ko‘plab ijtimoiy iqtisodiy sabablar mavjud. Masalan maktablardagi infratuzilma obyektlari, kutubxona va undagi resurslar, sport zali va sport jihozlari, hojatxona va sharoiti, ichimlik suvi, kanalizatsiya, maktablarning isitish-yoritish tizimi bilan bog‘liq muammolar. “Bugun kunda yurtimizda jami 10163 ta maktablar mavjud bo‘lsa shundan 8842 nafarida kanalizatsiya, 3638 nafarida oshxona, 915 nafarida ichimlik suvi, 2300 nafarida sport zali mavjud emas. Shuningdek, 2886 nafar maktablar internet tarmog‘iga ulanmagan bo‘lsa, 1695 nafari mukammal ta’mirga muhtoj. 3000 nafar maktablarga esa qo‘shimcha o‘quv binolari qurish zarurati mavjud” [6].



Yurtimizdagi maktablardagi mavjud sharoitlar haqida ma’lumot

PISA tadqiqotlarida ishtirok etgan o‘quvchilarning oiladagi moddiy sharoitlari ularning ta’lim olishlariga ta’siri o‘rganilganda esa o‘quvchilarning o‘rtacha 27% mablag‘ yetishmaganligidan haftada 1 marta o‘qish jarayonlarida o‘zlarini ovqatlanishdan tiyib yurishini 5% esa haftada 2-3 marta ovqatlanmasdan yurishini, 12% deyarli xar kuni maktabda o‘qish mobaynida ovqatlanishga mablag‘i bo‘lmasligini ma’lum qilgan.

XULOSA: Yuqoridagi tahlillardan ko‘rish mumkinki, Oilaviy daromad darajasi, moddiy yetishmovchilik, nosog‘lom ijtimoiy muhit, ajrim holatlari farzandning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Boyroq oilalar sifatli ta’lim, qo‘shimcha kurslar, sport va madaniyatga oid to‘garaklar, sog‘liqni saqlash xizmatlari kabi imkoniyatlarni kengroq taqdim eta oladi. Ammo bu jarayonda faqat iqtisodiy resurslarning o‘zi yetarli emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, past daromadli, ammo intellektual va axloqiy qo‘llab-quvvatlashga boy oilalarda ulg‘aygan bolalar ham yuqori muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Demak, iqtisodiy holat va ijtimoiy kapitalning uyg‘unligi muvaffaqiyatning eng barqaror zaminini yaratadi.



“Oxirgi 30 kun ichida ovqat sotib olishga pul yetishmagani uchun necha marta ovqatlanmadingiz?”

Oila ichidagi psixologik muhit — o‘zaro hurmat, ishonch, hissiy qo‘llab-quvvatlash — shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini va maqsadga intilishini kuchaytiradi. O‘zbekiston jamiyatida oila qadriyatlari va ijtimoiy muhitning uyg‘unligi milliy mentalitetning asosiy tayanchlaridan biridir. Oila institutining mustahkamligi, avlodlararo aloqalar, qarindoshlik rishtalarining kuchliligi yoshlarning muvaffaqiyat sari intilishida muhim resurs bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Weber, M. (1968). *Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology*. New York, NY: Bedminster Press. (Original work published 1921)

2. Maslow, A. H. (1954). *Motivation and Personality*. New York, NY: Harper & Brothers.

3. Bourdieu, P. (1986). The forms of capital. In J. Richardson (Ed.), *Handbook of theory and research for the sociology of education* (pp. 241–258). New York, NY: Greenwood.

4. Heckman, J. J., Moon, S. H., Pinto, R., Savelyev, P. A., & Yavitz, A. (2010). The rate of return to the High/Scope Perry Preschool Program. Journal of Public Economics, 94(1–2), 114–128

5. (https://www.oecd.org/publication/pisa-2022-results/country-notes/uzbekistan-2bb94bf1

6. Prezident Shavкat Mirziyoyevning 2022-yilning 28-yanvar кuni maкtab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o‘тkazilgan videoseleктor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi. Yangi O‘zbeкiston gazetasi, 28.01.2022 httrs://yuz.uz/

BUXORO AMIRLIGI QUSHBEGI ARXIV HUJJATLARI TAVSIFI

Xasanov Akram Muminovich
Qarshi davlat universiteti
ORCID-0009-00093289-4321

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Buxoro amirligi 1756-1920-yillarda hukm surgan mang‘itlar sulolasi tomonidan boshqarilganligini, 1920-yil 2-sentabrda Qizil Armiya qo‘shinlari bosqini natijasida tugatilganligini, amirlikdagi turli boyliklar, amir xazinasi, nodir kitoblar va asriy qo‘lyozmalar Markazga yuborilganligi, Buxoro amirligiga tegishli davlat arxivi ark yerto‘lasida saqlanib qolganligi, davlat lavozimlari orasida amirdan keyingi o‘rinda turuvchi yirik lavozim – bu qushbegi bo‘lganligini, u amirlikdagi barcha viloyatlarni nazorat qilib, davlatning boshqa yirik mansabdorlari bilan yozishmalar olib borganligini, Qushbegi ham Buxoro Arkida yashab, poytaxt Buxoro shahrini boshqarganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ilmiy adabiyotlar va arxiv manbalari asosida tahlil qilgan.

Tayanch so‘zlar: Buxoro amirligi, Qushbegi arxivi, mahalliy urug‘ boshliqlari, davlat lavozimlari, qushbegi ixtiyori, devonxona arxivi, aholi resurslari, arxivning tarixiy ahamiyati, yer osti xonalari, O‘zbekiston Milliy arxivi, I-126 fond.

ОПИСАНИЕ АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА КУШБЕГИ

Хасанов Акрам Муминович
Каршинский государственный университет
ORCID-0009-00093289-4321

Аннотация: В данной статье автор на основе научной литературы и архивных источников анализирует сведения о том, что Бухарский эмират в 1756–1920 годах находился под управлением династии мангытов и был упразднён 2 сентября 1920 года в результате вторжения войск Красной Армии; различные ценности эмирата, казна эмира, редкие книги и многовековые рукописи были отправлены в Центр, а государственный архив Бухарского эмирата сохранился в подземелье Арка. Также рассматривается должность кушбеги — одного из высших сановников, занимавшего второе место после эмира. Кушбеги контролировал все области эмирата, вёл переписку с другими высокопоставленными государственными чиновниками, проживал в Бухарском Арке и управлял столицей — городом Бухарой.

Ключевые слова: Бухарский эмират, архив Кушбеги, местные клановые вожди, государственные должности, усмотрение Кушбеги, архив

Диванхоны, демографические ресурсы, историческое значение архива, подземные камеры, Национальный архив Узбекистана, фонд И-126.

DESCRIPTION OF THE ARCHIVE DOCUMENTS OF THE BUKHARA EMIRATE KUSHBEGI

Khasanov Akram Muminovich
Karshi State University
ORCID-0009-00093289-4321

Abstract: In this article, the author analyzes the information based on scientific literature and archival sources that the Bukhara Emirate was ruled by the Mangid dynasty, which ruled from 1756 to 1920, was abolished on September 2, 1920 as a result of the invasion of the troops of Tsarist Russia, that various riches in the emirate, the emir's treasury, rare books and ancient manuscripts were sent to the Center, that the state archive belonging to the Bukhara Emirate was kept in the basement of the ark, that the second most important position among state positions after the emir was the kushbegi, that he controlled all the regions of the emirate and corresponded with other major state officials, and that the kushbegi also lived in the Bukhara Ark and ruled the capital city of Bukhara.

Keywords: Bukhara Emirate, Kushbegi Archive, local clan chiefs, state positions, Kushbegi's discretion, Divankhona archive, population resources, historical significance of the archive, underground chambers, National Archive of Uzbekistan, I-126 fond.

KIRISH: Buxoro amirligi tarixini yoritishda Qushbegi arxivi materiallari muhim tarixiy materiallardir. Buxoro amirligida eng yuqori mansab nomlaridan biri bo‘lgan “qushbegi” lavozimining mavqei amirlikning ilk va so‘nggi yillarida birmuncha o‘zgarib turgan. Masalan, Amir Haydar davridan boshlab ular mahalliy urug‘ boshliqlarining markaziy hokimiyatga qarshi kurashlarini cheklash maqsadida, davlat mansablariga o‘zlarining eronlik qullarini jalb qilish siyosatini qo‘llay boshladilar [1:164]. Bu siyosatni amir Nasrullo va Muzaffarxonlar ham davom ettirdilar. Natijada quyidan to eng yuqoriga qadar boshqaruv va ijro hokimiyati asta – sekinlik bilan eroniy shialar qo‘liga to‘plana bordi. Masalan, so‘nggi to‘rtta qushbegi eroniy qullar avlodidan bo‘lgan. Ayniqsa, amir Muzaffar ko‘pgina ishlarni Muhammadshoh qushbegi ixtiyoriga tashlab qo‘yadi [2:61-66].

Davlat boshqaruvida shialar faoliyatining kengayib borishi tabiiy ravishda mahalliy sunniy amaldorlarning noroziligiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, harbiy va diniy aristokratiya vakillari o‘z noroziliklarini turli ko‘rinishda bildirishgan. Urug‘ boshliqlari qo‘zg‘olonlar qilishsa, sunniy ulamo vakillari shialarga raddiya sifatidagi doksografik asarlar yozdilar. Davlat lavozimlari uchun zimdan olib

borilgan ko‘p yillik kurash Buxoro shahrida 1910-yilda sunniy-shialarning qonli to‘qnashuviga olib keldi.

ASOSIY QISM: Buxoro amirligining so‘nggi o‘n yilliklarida qushbegi huzurida saqlangan turli mazmundagi hujjatlar: vasiqalar, hisobotlar, statistik mazmundagi turli ma’lumotlar, arizalar va hokazolar saqlanib qolgan bo‘lib, ular sobiq Sovetlar davrida ilmiy jamoatchilikdan birmuncha uzoq tutildi. Faqat mustaqillik davriga kelib ularni ilm ommasiga havola qilish ishlari boshlab yuborildi. A.Muhammadjonov mas’ul muharrirligida Buxoro Qushbegi hujjatlarining yaqin yillarda chop etilishi bunga misol bo‘la oladi [3:91].

Amirlikdagi turli viloyatlardan amirning bosh boshqaruv markazi – Arkiga haftalik ma’lumotlar choparlar orqali yetkazib turilgan. Turli viloyatlardan kelgan maktublarning bir xil shakl mazmundaligi o‘sha paytda amirlik devonxonalari uchun maxsus kotiblar o‘qitilganligidan dalolat beradi. Ko‘pincha kotiblarning dastxatlari ham bir xil, bir-biriga o‘xshab ketadi. Ana shu choparlar orqali Arkka qushbegining qo‘liga keltirilgan har xil hujjatlar qayd qilish daftariga qayd qilingach, devonxona sandiqlariga taxlab qo‘yilar edi. Ana shu zaylda Buxoro amirligida arxiv ishlari shakllana boshlagan.

Buxoro amirligidagi arxiv o‘z faoliyatini 1865-yil, ya’ni Amir Muzaffar davridan boshlagan. Yana shuni taxmin qilish mumkin-ki, arxivning vujudga kelishida rus ma’muriyatining ta’siri ham bo‘lgan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining noziri olim va tarixchi Musojon Saidjonovning yozishicha, Buxoro amirligining arxivi ikki qismga bo‘lingan edi: Birinchi bo‘lim Buxoro amirligining shaxsiy devonxona arxivi; Ikkinchi bo‘lim, Buxoro Qo‘shbegisining devonxonasi архиви.

Shuni aytib o‘tish kerakki, Buxoro amirligi devonxona arxivi bevosita amir qo‘l ostida bo‘lgan. Masalan, Amir Muzaffar Buxoroda o‘zining qarorgohida arxivni o‘z yonida saqlardi. Uning o‘g‘li Sayyid Abul Ahad Buxoro amirligi devonxona arxivini o‘zi bilan birgalikda Karmanadagi qarorgohiga olib keldi. 1910 – 1920-yilda Amir Olimxon uni Buxoroga keltirdi. Devonxona parvonachi qo‘l ostida edi. Baxtga qarshi Buxoro amirligining devonxona arxivi hozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan. Shunday taxminlar borki, 1920-yildagi Buxoro inqilobi davrida bu arxiv sovet askarlari tomonidan ishg‘ol qilingan edi va bu arxiv turk frontiga ko‘chirib o‘tkazilgan.

Qushbegi arxivi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarixini o‘rganish uchun beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, hozirda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanmoqda. Qushbegi arxivining tarkibi har xil hujjatlardan tashkil topgan. Ular orasida turli mulkiy munosabatlar, huquqiy masalalar, ijtimoiy, ma’naviy sohalarga oid minglab hujjatlar uchrab, ularning bir qismi bevosita Qashqadaryo vohasi aholi maskanlari bilan bog‘liq.

XX asr boshlarida Rossiya tomonidan Buxoro amirligining aholi resurslarini, xo‘jalik iqtisodiy salohiyatini imkon qadar chuqurroq o‘rganishga qaratilgan sa’y-harakatlar olib boriladi. Rossiya siyosiy agentligi shu harakatlari davomida Buxoro amirligida mamlakat aholisi ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini va ma’muriy tizimini o‘rganishga yo‘naltirilgan ma’lumotlarga ehtiyoji bor edi. Shu asosda 1914–1915-yillarda Buxoro amirligining Qushbegi mahkamasi tomonidan barcha viloyatlar, tumanlar, qishloqlar, guzarlar, rabotlar, mavzelar, daha va boshqalar batafsil ro‘yxatga olinib, agentlikka kerakli material sifatida taqdim etilgan.

Shu bilan birga Buxoro amirligi qoshidagi Rossiya agentligida boshqaruv jarayoni uchun zarur bo‘lgan muhim statistik axborot tizimi mavjud edi. Bu ro‘yxatdagi o‘n mingdan ortiq joy nomlari amirlikning aholisi, etnik tarkibi, xo‘jalik xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy hayot, hunarmandchilik, kasbkor turlari, ijtimoiy-ma’naviy tasavvurlar, e’tiqod va ishonch aqidalari kabi ko‘plab sohalar haqida qimmatli ma’lumotlar bergan [4:8-15]. Boshqa bir jihatdan aholi manzillari ro‘yxati ulkan toponimik tarixiy material bo‘lib, uning ahamiyatli tomoni shundaki, bu noyob hujjatlar majmui tarixiy toponimika nuqtayi nazaridan mutlaqo o‘rganilgan emas. Holbuki, Qushbegi arxivining bu majmui chuqur tadqiq qilishni o‘ta dolzarb vazifa qilib qo‘yadi. Qushbegi arxivi tarkibidagi Buxoro amirligi aholi manzillari ro‘yxatlari alohida kitob sifatida kirish so‘zi va faksimil fotomateriallar ilovasi bilan nashr etilgan [5]. Ammo, Qushbegi arxivi tarkibidagi tarixiy toponimik material maxsus tarzda umuman o‘rganilgan emas.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: 1914-yil ma’lumotlariga ko‘ra, amirlikdagi aholi manzillarining ma’muriy nomlanishida uchta atama yetakchilik qilgan: qishloq (turkiycha), mavze (arabcha), deha (tojikcha). Ba’zi amlokliklarning aholi manzillari to‘laligicha shu nomlardan biri bilan atalgan. Masalan, ro‘yxatlardagi hujjatlarga ko‘ra, “Dehati viloyati Chiroqchi”, “Qishloqoni tumani shahri Yakkabog‘”, yoki “mavzexoi viloyati Karmana” kabi tafsilotlar ishlatilgan. Xuzor – Qarshi vohasining janubiy chekkasida joylashgan o‘rta asr viloyati. 1914-yilgi ro‘yxatga olish chog‘ida Buxoroga maktub bilan birga bu viloyat qishloqlarining ro‘yxati ham yuborilgan. Yuqorida nomi zikr qilingan nashrda 110–117 hujjatlarda mazkur ro‘yxat berilgan [3:98].

O‘zbekiston Milliy arxivida 5 mingga yaqin Buxoro amirligi devonxona hujjatlari saqlanadi, lekin ularning hammasi Buxoro Qushbegisi nomiga yozilganligi sababli «Buxoro amirligi Qushbegisining kanselyariyasi» arxivida saqlanadi. Bundan tashqari, fondda Buxoro amiri va Afg‘oniston shohi o‘rtasidagi yozishma hujjatlari ham saqlanadi.

Qushbegi Buxoro amirligida katta imtiyozlarga ega edi, butun devonxona orqali davlat boshqaruviga tegishli siyosiy, madaniy,iqtisodiy doiradagi hujjatlar

o‘tardi. Mirzo Nasrulloh qushbegigacha arxiv tartibga keltirilmagan bo‘lib, yer to‘lalardagi maxsus sandiqlarda saqlanardi. Yangi tayinlangan Usmonbek Qushbegi savodsiz kishi bo‘lganligi sababli, arxivning tarixiy ahamiyatiga uncha e’tibor bermagan.

1920-yil sentabr oyida Buxoroda Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan so‘ng, Kuybishev boshchiligida Amir va Qushbegining arxivini topish va uni saqlash yuzasidan Buxoro Revkomi tomonidan buyruq chiqarilgan edi. CHK va militsiya xodimlari tomonidan Arkning yer osti xonalarida hujjatlar saqlangan sandiqlar topilgan. Ayrim hujjatlar devonxonaning polida va tokchalaridan topilgan. Taxminan ular ham amaldorlar tomonidan quvg‘in paytida tashlab ketilgan.

Barcha hujjatlar hech qanday tartibsiz va yozuvsiz qutilarga solingan va sobiq Sovet Xalq Nozirligi omborlariga jo‘natilgan, u yerda tashqi ishlar vazirligi omborlariga joylashtirilgan. Hujjatlar u yerda O‘zSSR tashkil topgunga qadar saqlangan. Buxoro hukumati taklifiga binoan, Buxoro tarixini yozish uchun 1920-1921-yillar Buxoroga tarixchi olimlardan V.V.Bartold, A.A.Semenov, Po‘lat Soliyev, Fitrat va boshqalar kelishgan. Ular faqatgina o‘zlariga kerakli bo‘lgan hujjatlarni o‘rganib chiqishgan. Chegaralanish davrida Buxoroda M.Sayidjonov rahbarligida komissiya tuziladi. U 1924-yili hamma to‘plangan hujjatlarni qayta ishlanmagan asl holida Buxoroning markaziy kutubxonasiga topshiradi. Akt bo‘yicha 69 o‘ram, 52 daftar va 50 kitob mavjud edi. 1931-yilga kelib arxiv tasodifan Arkda, berkitilgan binoda topilgan.

Unga qadar Buxoro hukumati muzeyi xodimlari bu haqidagi xabarni eshitib, arxivning teng yarmini yo‘q qilib yuborishadi, qolganlarini esa turli joylardan qidirishga to‘g‘ri keldi.

Albatta, ko‘p narsalar yo‘qolib bo‘lgan edi. Arxivni topgan shaxslardan biri Mirzo Nasrulloh o‘z davrining fidoiy kishilaridan edi va uning islohotlari amir Olimxonga ma’qul bo‘lmagan, shu sabab Kolesov voqeasidan so‘ng uni 1918-yili qatl ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy davlat arxividagi “Buxoro Amirligi Qush-begisi arxivi” sarlavhasi bilan I-126 fondda saqlanayotgan hujjatlarning tavsifiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bugungi kunga kelib, O‘zbekiston Milliy arxivining “Buxoro amirligi qushbegi boshqarmasi” I-126 fondida Buxoro amirligi devonxonasi arxiviga tegishli 5000ga yaqin hujjat saqlanib, ularning hammasi qushbegi nomiga yuborilganligi uchun qushbegi arxivi hujjatlari tarkibiga kiritilgan.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda Buxoro amirligi qushbegi arxivi Buxoro haqida ma’lumot beruvchi muhim hujjatlar jamlanmasidan iborat. O‘zbekiston Milliy arxividagi “Buxoro Amiri Qushbegisi arxivi” sarlavhasi bilan I-126 fondda saqlanayotgan hujjatlarni umumiy to‘qqizta katta guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin. Har bir bo‘lim, o‘z navbatida, yana mayda bo‘limlarga bo‘linadi.

1. Ma’muriy hujjatlar 2. Siyosiy mavzudagi hujjatlar. 3. Iqtisodiyot masalalariga doir hujjatlar 4. Tashqi aloqalar haqidagi hujjatlar 5. Harbiy ishlar hujjatlari. 6. Sud materiallari. 7. Madaniy-maishiy holat haqidagi hujjatlar. 8. Sog‘liqni saqlash ishlari hujjatlari. 9. Diniy hujjatlar. Ulardan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayot bilan bog‘liq masalalarni yoritishda keng foydalanishni tavsiya etishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Муҳаммад Яъқуб. Гулшан ал-мулук. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси №1507,164 [a] в.

2. Ахмад Дониш. История мангитской династии. – Б. 61-66).

3. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX — начало XXв.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. –Т.: Университет, 2001.С.91

4. Абдуваҳобова М.Р. Қушбеги архивида тарихий топонимлар ва Бухоро амирлигининг маъмурий-ҳудудий тизими (илмий рисола). – Тошкент: Тошкент Давлат шарқшунослик институти, 2006. – Б. 8-15.

5. Административное устройство Бухарского эмирата в конце XIX – в начале XX века. – Т., 2001.

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATIDA DEMOGRAFIYANING URBANIZATSIYA JARAYONLARIGA TA’SIRI

Xoliqov Shodiyor.
Erkin izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqola mustaqillik arafasida Qashqadaryo viloyati aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urbanizatsiya-ijtimoiy, hududiy mehnat taqsimoti o‘rnatilgan hamda dialektik va tarixiy chegaralangan va o‘tish xarakteriga ega bo‘lgan ko‘pqirrali ijtimoiy-iqtisodiy va geografik jarayonlar, viloyat mamlakatimiz uchun eng muhim va strategik ahamiyatga ega ekanligi, mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari, demografik jarayonlar arxiv manbalari va ilmiy adabiyotlar ma’lumotlari asosida qiyosiy tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: urbanizatsiya, demografiya hududiy mehnat taqsimoti, Qashqadaryo viloyati, shaharlar turi, aholining soni, tabiiy ko‘payish miqdori, shaharlarning paydo bo‘lishi.

ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИИ НА ПРОЦЕССЫ УРБАНИЗАЦИИ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Холиков Шодиёр.

Независимый исследователь

Аннотация: В статье на основе архивных источников и научной литературы проведён сравнительный анализ социально-экономического положения населения Кашкадарьинской области накануне обретения независимости, процессов урбанизации, общественного и территориального разделения труда, а также многогранных социально-экономических и географических процессов, имевших переходный характер и определённые исторические границы. Раскрывается важное стратегическое значение области для страны, рассматриваются особенности урбанизационных и демографических процессов в Кашкадарьинской области в годы независимости.

Ключевые слова: урбанизация, территориальное разделение труда, Кашкадарьинская область, типы городов, население, естественный прирост, возникновение городов.

THE IMPACT OF DEMOGRAPHY ON URBANIZATION PROCESSES IN THE KASHKADARYA REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Kholikov Shodiyor.
Freelancer

Abstract: This article presents a comparative analysis of the socio-economic situation of the population of Kashkadarya region on the eve of independence, urbanization-social, territorial division of labor, multifaceted socio-economic and geographical processes that are dialectically and historically limited and have a transitional nature, the fact that the region is of the most important and strategic importance for our country, the specific features of urbanization processes in Kashkadarya region during the years of independence, based on archival sources and scientific literature.

Keywords: urbanization, territorial division of labor, Kashkadarya region, type of cities, population, natural increase rate, emergence of cities.

KIRISH: Urbanizatsiya-ijtimoiy, hududiy mehnat taqsimoti o‘rnatilgan hamda dialektik va tarixiy chegaralangan va o‘tish xarakteriga ega bo‘lgan ko‘pqirrali ijtimoiy-iqtisodiy va geografik jarayondir [1:224].

Markaziy Osiyo hududidagi eng qadimgi davrlardan buyon aholi yashab kelayotgan maskanlaridan biri Qashqadaryo vohasi bo‘lib, hududning iqlimi, tabiiy sharoiti, suv resurslarining mavjudligi qishloq va shaharlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Voha insoniyat sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan madaniy o‘choqlar tarkibiga kirib, jamiyat taraqqiyotida o‘ziga xos yo‘lni bosib o‘tdi.

Qashqadaryo viloyati dastlab 1924-yilda so‘ngra esa 1943-yilda qaytadan tashkil etilgan. Hududiy maydoni 28,6 ming km.kv. bo‘lib, u iqtisodiy tuman hududining 58,7, O‘zbekiston Respublikasining 6,4 foiziga to‘g‘ri keladi. Hududining kattaligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston respublikasi, Navoiy, Buxoro viloyatlaridan keyin 4-o‘rinda turadi.

ASOSIY QISM: Viloyatning eng katta yer maydoni Dehqonobod tumaniga to‘g‘ri kelib (395,7 ming ga) deyarli Sirdaryo (427,6) va Andijon (430,3 ming ga) viloyatlari maydoniga yaqindir. Mirishkor (312,5 ming ga), Muborak (307,0 ming ga), Chiroqchi (283,7 ming ga) tumanlarida ham yer maydoni katta bo‘lib, bu tumanlar guruhi viloyat jami maydonining 45,5 foizini tashkil qiladi. Viloyatning 64,0 foiz sug‘oriladigan yerlari tekislik, ya’ni Qarshi cho‘li o‘zlashtirilishi va qadimdan o‘zlashtirilgan hududlarda tashkil topgan tumanlarga (Koson, Mirishkor, Kasbi, Qarshi, Muborak) to‘g‘ri keladi.

Qashqadaryo viloyati aholisi 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 3 mln. 656 ming kishidan iborat bo‘lib, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona viloyatlaridan keyingi o‘rindadir. Viloyatda mamlakat aholisining 9,7 foizi iqtisodiy tumanning esa 55,5 foizi yashaydi. Ma’muriy markazi Qarshi shahri (283,17 ming). Viloyat respublika aholisining 10.3 foizini tashkil etadiki, bu esa demografik ko‘rsatkichning yuqoriligini ko‘rsatadi.

Aholi zichligi bo‘yicha viloyatning ma’muriy tumanlari tahlil etilganda eng yuqori ko‘rsatkich Kasbi (313,8), Qarshi (285,0), Yakkabog‘ (246,3) tumanlariga to‘g‘ri kelsa, eng past ko‘rsatkich Muborak (29,4), Dehqonobod (38,2), Mirishkor (38,6) tumanlariga tegishlidir. Viloyat tarkibiga hozirgi vaqtda 14 qishloq tumanlari (Mirishkor, Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi, Qarshi va G‘uzor, Ko‘kdala) kiradi.

Viloyat tabiiy geografik muhitiga mos holda aholi uning hududida notekis joylashgan. O‘rtacha zichlik 1 km^2 ga 119,3 kishi bo‘lib, bu raqam respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan deyarli 1,6 marta yuqori. Mamlakatda esa 1 km^2ga 83,6 kishi to‘g‘ri keladi. Aholi xususan, yuqori mintaqada ancha zich o‘rnashgan. Masalan, zichlik Yakkabog‘da 174, Shahrisabz tumanida 168 va Kitobda 122 kishiga teng, vaholanki, bu ko‘rsatkich Muborakda 21, Dehqonobodda 27, Mirishkor tumanida 40 kishini tashkil etadi, xolos.

Qashqadaryo viloyati ma’muriy tumanlarining umumiy va sug‘oriladigan maydon boyicha zichlik tafovutlari tahlil qilinganda o‘ziga xos farqlarni ko‘rish mumkin. Bu bevosita viloyatda 4 ta balandlik mintaqasining (cho‘l, adir, tog‘, yaylov) mavjudligi, qulay tabiiy va iqtisodiy geografik joylarning borligi, daryo vodiylari va sug‘oriladigan yerlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Xususan, aholi zichligi bo‘yicha birinchi o‘rinda turadigan Kasbi tumani (313,8 kishi) 1 ga sug‘oriladigan yerga to‘g‘ri keluvchi aholi soni bo‘yicha esa 9-o‘rinni (4,0)

egallagan. Aholi zichligi bo‘yicha oxirgi o‘rinlarda turgan Dehqonobod tumani 1 ga sug‘oriladigan yerga to‘g‘ri keluvchi aholi soni bo‘yicha (52,3) birinchi o‘rinda turibdi.

Qashqadaryo viloyatining maydoniga ko‘ra eng katta – Dehqonobod (4,0 ming km^2), Mirishkor (3,21 ming km^2) va Nishon (2,11 ming km^2) tumanlarining demografik salohiyati nisbatan kichik. Dehqonobod tumanida 153,1 ming kishi, Mirishkor tumanida 124,1 ming kishi va Nishon tumanida 159,2 ming kishi yashaydi, viloyatning tog‘li va cho‘l hududlaridagi tumanlar eng kam aholi yashaydigan tumanlardir. Viloyatda aholi salmog‘iga ko‘ra G‘uzor (212,4 ming kishi), Kasbi (204,0 ming kishi), Qarshi (259,4 ming kishi) tumanlari o‘rtacha ko‘rsatkichga ega. Ayni vaqtda Qarshi (0,9 ming km^2) va Kasbi (0,7 ming km^2) tumanlarining yer maydonining kichikligi sababli aholi zichligi viloyat darajasida eng yuqori ko‘rsatkichga ega (tegishlicha 285,0 va 313,8 kishi 1 km^2 ga).

Umuman olganda, yuqori mintaqa (Shahrisabz, Yakkabog‘ va Kitob tumanlari) ko‘p jihatdan Respublikamizning aholisi zich voha va vodiylariga o‘xshab ketadi. Ammo, ta’kidlash joizki, zichlik quyi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi, Qarshi) ham ancha yuqori, ya’ni 250-300 kishiga teng.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, zichlikning eng yuqori ko‘rsatkichlari qayta ishlash sanoati rivojlangan hududlarda, shahar atrofida, qadimdan sug‘orma dehqonchilik tarqalgan voha va vodiylarda, agrosanoat rayonlarida kuzatiladi (Kasbi, Qarshi, Yakkabog‘). Tabiiyki, bunday hududlarga ishlab chiqarish rivojlanishining intensiv yo‘nalishi xosdir. Ayni chog‘da ekstensiv xo‘jalik tizimiga ega bo‘lgan chorvachilik, ayniqsa yaylov chorvachiligi hamda tog‘-kon sanoati rayonlarida aholi zichligi ancha past (Muborak, Dehqonobod, Mirishkor). Bunda tabiiy sharoit, relyef xususiyatlari va balandlik mintaqalari ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Qashqadaryo viloyatida mamlakatimiz uchun eng muhim va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan sanoat tarmoqlari rivojlangan. O‘zbekistonning 6.4 foiz yalpi ichki mahsuloti, 8.3 foiz sanoat va 7.2 foiz qishloq xo‘jalik mahsulotlari to‘g‘ri keladi. Janubiy mintaqa shaharlari orografik jihatdan tog‘, tog‘oldi va tekislikda, gidrografik jihatdan daryo vodiylarida shakllangan. Xususan neft (80 foizi) va tabiiy gazning asosiy qismi (92 foizi), gaz kondensati (95 foizi) va oltingugurt (salkam 100 foizi) qazib olinadi; milliy iqtisodiyot uchun eng zarur hisoblangan gaz-kimyo, neft-kimyo, kaliy ishlab chiqarish korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Urbanizatsiya jarayonida shaharlar va ularning iqtisodiyotiga yuqori ta’sir ko‘rsatadi. Aholining shaharlarga ko‘chib kelishi shaharlar kengayishi va imkoniyatlar ortishiga va xizmat ko‘rsatish hamda ishlab chiqarish va iste’mol ortishiga sabab bo‘ldi.

Viloyatda shaharlar shakllanishi va rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga hamda tarixiy-demografik shart-sharoitlarga ega. Viloyatda 2700 yilligini nishonlagan, qadimiy tarixga ega bo‘lgan Qarshi hamda Shahrisabz shaharlari bilan bir qatorda XX asrning ikkinchi yarmida va mustaqillik yillarida vujudga kelgan yangi shaharlar ham mavjud. 2009-yilgacha viloyatda 12 ta shahar va 4 ta shaharcha mavjud bo‘lib, ulardan 1 tasi yirik, 7 tasi o‘rta, 4 tasi mayda shaharlar toifasiga mansubdir.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridan iborat Janubiy iqtisodiy rayon esa respublikada eng past (22.2 %) urbanizatsiyalashgan hudud hisoblanib kelingan. Mamlakat aholisining 1/6 qismi ushbu mintaqa hissasiga to‘g‘ri kelgani holda, jami shahar aholisining atigi 10.2 foizigina Janubiy O‘zbekistonda yashagan. O‘z navbatida iqtisodiy rayon doirasida ham bu holat turlicha. Mintaqa shahar va shaharchalarida, 2008-yil yanvar holatiga ko‘ra, 997.8 ming kishi yashagan, ushbu aholining 61.8 foizi Qashqadaryo va 38.2 foizi Surxondaryo viloyati hissasiga to‘g‘ri kelgan. Vaholanki, so‘nggi aholi ro‘yxatida (1989 y.) iqtisodiy rayonda shaharliklar 655.2 ming nafarni, Qashqadaryo viloyatida 63.1 foiz va Surxondaryo viloyatida 36.9 foizni tashkil etgan edi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2009-yilda aholisi o‘n mingtagacha 118, 10 mingdan 20 mingtagacha 8 ta, 20-50 mingtagacha 6 ta, 50-100 mingtagacha 2 ta, 100 mingdan ortiq bitta shahar bordir.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti, aholi soni, tabiiy ko‘payish miqdori, shaharlar soni, infratuzilma tarmoqlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan respublikada o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Viloyat urbanizatsiya darajasi respublika viloyatlari orasida Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridangina oldingi o‘rinda turadi. Tabiiy ko‘payish bo‘yicha esa respublika ko‘rsatkichlaridan ham (respublika bo‘yicha 2003 yilda tabiiy ko‘payish 14,5 % ga teng) yuqori bo‘lib, (Qashqadaryoda esa 19,4 % ga teng) viloyatlar orasida birinchi o‘rinda turadi.

Viloyat shahar aholisi soni bo‘yicha past darajada bo‘lib, 1926-1991-yillar davomida shahar aholisining ulushi 8,8 foizdan atigi 26,3 foizga ortgan. 1970-1990- yillarda Qashqadaryo viloyati aholisi 2,1 marta ko‘paydi. Qashqadaryoda aholining respublikaga nisbatan tez o‘sishi 70-yillardan boshlanib viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining tez o‘sganligi bilan bog‘liqdir.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: O‘tgan yillar davomida viloyatda Qarshi cho‘lini bag‘ridan 240 ming ga dan ko‘proq yangi yerlar o‘zlashtirildi, ko‘plab qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat hamda yoqilg‘i-energetika sanoati korxonalari ishga tushirildi. Shuningdek suv inshootlari, aloqa qilish yo‘llari, madaniy va maishiy binolar hamda turar joylar bunyod etildi. Viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etish O‘zbekiston va boshqa

Respublikalarning ko‘pgina tumanlaridan ko‘plab aholining ko‘chib kelishiga sabab bo‘ldi. Natijada tashqaridan keladigan aholi hamda tabiiy o‘sish hisobiga viloyatda aholi soni ham muttasil o‘sib bordi.

1995-yilga kelib viloyatning urbanizatsiya darajasi 25,5 foizga tushgan. Keyingi 5 yillik mobaynida urbanizatsiya darajasidagi farq sezilarli ravishda o‘zgarmagan. 2000-yilda ko‘rsatkich 25,4 foizga pasaygan. 2006 yilda viloyat aholisi soni 2 mln. 464,4 kishi bo‘lib, urbanizatsiya darajasi 24,5 foizga tengligi quyidagicha kuzatiladi. Viloyatning o‘n olti yillik urbanizatsiya darajasi quyidagi sxemada berildi: 2006 yil — 24,5 %, 2002 yil — 25,1 %, 1999 yil — 25,6 %, 1996 yil — 26 %, 1993 yil — 25,6 %, 1990 yil — 26,3 %.

Viloyat urbanizatsiyasi darajasi yildan-yilga pasayib borgan. Ko‘rinadiki, viloyatda urbanizatsiya darajasi shahar aholisining salmog‘iga bevosita boliqdir. Bundan umumiy aholi sonidan shahar aholisining ko‘payishi urbanizatsiya darajasining ham oshib borishiga sabab bo‘lgan yoki aksincha degan xulosa paydo bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki viloyatda qadimdan aholining qishloq xo‘jaligining turli sohalarida band bo‘lganligi, yashash tarzining sobiq tuzum davrida ham chekka agrar hudud sifatida shakllanganligi urbanizatsiya darajasining sust rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

Tug‘ilishning ancha yuqori darajada saqlanib turishi bilan bir qatorda aholining moddiy va madaniy turmush darajasining o‘sishi, tibbiy xizmatning yaxshilanishi tufayli aholi o‘rtasidagi o‘lim darajasi kamaydi. Viloyatda har 1000 kishi hisobiga o‘lim 6,1 kishidan (1980y.) 4,2 kishiga (2007 y.), 2008-yilda 3,9 kishi, 2009-yilda 3,8 kishi, 2010 yilda esa 3,9 kishini tashkil etgan. Natijada tabiiy o‘sish 2007-yili 19,4 kishini, 2008-yili 21,3 kishini, 2009-yili 20,5 kishini va 2010-yilda esa 21,0 kishini tashkil etdi. Tabiiy o‘sish bo‘yicha Qashqadaryo hozirgi paytda respublikada Surxondaryo viloyatidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Shu ma’noda Respublikamizdagi urbanizatsiya jarayonlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2008-yilda shahar aholisi 9 mln 698,2 ming kishini, qishloq aholisi esa 17 mln 374,0 ming kishini tashkil etgan. Urbanizatsiya darajasi 35,8 % bo‘lgan. 2009 yilda esa shahar aholisi 14 mln 236 ming kishini, qishloq aholisi esa 13 mln 297,4 ming kishini tashkil etgan holda urbanizatsiya darajasi 51,7 % bo‘lgan.

Qashqadaryo viloyatida esa 2008-yilda shahar aholisi 616,5 ming, qishloq aholisi 1mln. 892,9 ming kishi bo‘lib urbanizatsiya darajasi 24,6 % ni tashkil etgan. 2009-yilda esa shahar aholisi 1 mln. 116,8 ming, qishloq aholisi esa 1 mln. 446,8 ming kishini tashkil etgan urbanizatsiya darajasi 43,6 % dan iborat bo‘lgan. Viloyatdagi urbanizatsiya darajasi Respublika urbanizatsiya darajasidan ham past. Ko‘rinadiki, Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya ko‘proq ichki migratsiyaning turlaridan biri aholining qishloqlardan shaharlarga ko‘chib kelishiga bog‘liqdir.

Bunga sabab qishloqlardagi aholi o‘sish darajasining nisbatan yuqoriligi va qishloq xo‘jaligida ishchi kuchining yetarligidadir.

Viloyatda urbanizatsiya darajasini ifodalovchi 12 ta shahar bo‘lib ular orasida Qarshi, Shahrisabz shaharlari o‘zining qadimiyligi va aholisining soni o‘sib borayotganligi bilan ajralib turadi. Koson shahri aholisi 1997 yil 50,2 ming kishidan 2006-yil 60 ming kishiga etgan. 2015-yil 109 ming, 2022 yil 156,3 ming kishiga yetgan.Shuningdek shahar aholisi sonining ko‘pligi jihatdan Kitob, Yakkabog‘, Qamashi, Muborak, G‘uzor shaharlari viloyatda yetakchi hisoblanadi.

Ilmiy tahlillar viloyatda urbanizatsiya omillarining quyidagicha bo‘lishligini ko‘rsatadi: a) shahar aholisining tabiiy o‘sishi; b) qishloqdagi aholi yashaydigan mintaqalarda shaharlarning bunyod bo‘lishi; v) shahar atrofida yangi aholi yashaydigan joylarning paydo bo‘lishi; g) qishloq aholisining shaharga migratsiyasi va boshqalar.

Shuningdek, sobiq tuzum davrida viloyat hududidagi yer osti konlarining intensiv ochilishi, zamonaviy sug‘orish irrigatsiya tizimlarining yaratilishi, Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi ham yangi shaharlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Respublika viloyatlarining urbanizatsiya darajasini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin: 1. Urbanizatsiya darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan mintaqalar (40% va undan yuqori): Qoraqalpog‘iston Respublikasi (50,0%), Toshkent (Toshkent shahrini hisobga olmaganda 40,2%) Buxoro (40,0%) va Navoiy (40,0%), 2. Urbanizatsiya darajasi o‘rtacha bo‘lgan mintaqalar (30-40% gacha) Namangan (39,7%), Sirdaryo (32,3%), Jizzax (31,5%), Andijon (30,5%) va Farg‘ona (30,2%), 3. Urbanizatsiya darajasi past bo‘lgan mintaqalar (30%gacha): Samarqand (27,7%), Qashqadaryo (27,4%), Xorazm (24,7%)va Surxondaryo (21,2%) Ko‘rinadiki Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya darajasi nisbatan pastdir. Kuzatishlar viloyatda urbanizatsiya darajasi 1995-yilda 25,55ga teng bo‘lgan. Keyingi besh yilda esa bu daraja deyarli o‘zgarmagan. 2000-yilda 25,4% , 2006-yilda 24,5% , 2008-yilda esa 24,6 % ni tashkil etgan.

XULOSA: Xulosa shuki, Qashqadaryo viloyatida urbanizatsion jarayonlar aholining o‘sishi, qishloqdan aholini shaharlarga ko‘chib kelishi (ichki migratsiya), tuman markazlariga qisman bo‘lsa-da sanoatning kirib kelishi, tuman markazlari infratuzilmasining rivojlanishi asosida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning urbanizatsiyasi asosan qishloq joylarini har tomonlama rivojlantirish, yashash joyini o‘zgartirmasdan turib tub aholining qishloq xo‘jaligidan milliy iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga, shu jumladan sanoat, qurilish, transport va aloqaga ijtimoiy-maishiy infratuzilmaga qayta yo‘naltirishni nazarda tutadi. Buning uchun viloyat tumanlarida sanoat obyektlari, kichik ishlab chiqarish korxonalarining barpo etilishi iqtisodiyot uchun ham, jamiyat rivoji uchun ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2002. – 224 b.
2. Mamajanov M. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – B. 292.
3. Mavlonov A. Qashqadaryo viloyati shaharlarining klassifikatsiyasi va funksional tiplari Vol.3 №6 (2025). June Journal of Effective innovativepublication.uz. – B. 351.
4. Zamonaviy geografiyaning regional muammolari, Respublika ilmiy-anjuman materiallari. – Qarshi, 2010. – 131 b.
5. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. – T., 2018. – B. 132.
6. Berdikulova M. Qashqadaryo viloyatida urbanizasiya darajasining rivojlanish xususiyatlari.O‘zbekistonda urbanizasiya jarayonlari: tarix va hozirgi zamon. Xalqaro ilmiy- anjuman materiallari. Toshkent, 30-31 mart. 2007,. 2-qism, – B. 155-156.
7. Soliyev A, Nazarov M, O‘zbekiston qishloqlari. – T., 2009. – B. 26.
8. O‘zRMDA. 1619-fond, 11-yig‘ma jild, 4833-ish, 3-varaq.
9. Ата-Мирзаев О, Гетшке В, Муртазаева Р, Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Т.: Ибн Сино, 1998. – С. 129.

SHERDOR MADRASASI TARIXI

Mahkamoy TURSUNOVA,
Kamoliddin G‘ANIYEV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya: Registon majmuasida qad ko‘targan uch madrasadan biri-hukmdor Yalangto‘sh Bahodir tomonidan yaratilgan SHerdor madrasasining yaratilishi, me’moriy yechimlari va uning o‘quv dargohi sifatidagi o‘rni tarixiy manbalar, chet ellik sayyohlar, elshunoslar hamda Boturxon Valixo‘jayev, Komilxon Kattayev kabi bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida XVII asr me’morchiligi va san’atkorligining go‘zal namunasi sifatida maqolada atroflicha tahlil qilingan.

Yalangto‘sh Bahodirning 1576–1656-yillarda Samarqandda ulkan bunyod-korlik ishlarini amalga oshirganligi, uning faoliyati bilan bog‘liq ma’lu-motlar, shuningdek, uning xalqimiz tarixida tutgan o‘rni xususida bildi-rilgan mulohazalar, bahs va munozaralarga maqolada keng o‘rin berilgan.

Kalit so‘zlar: Registon majmuasi, madrasa, Yalangto‘sh Bahodir, bunyodkorlik, me’morchilik, tasviriy san’at, Sherdor madrasasi, manbalar, o‘quv dargohi, mulohazalar.

ИСТОРИЯ МЕДРЕСЕ ШЕРДАР

Махкамой ТУРСУНОВА,
Камолиддин ГАНИЕВ,
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова.

Аннотация: В статье на основе исторических источников, свидетельств иностранных путешественников и этнографов, а также научных исследований ряда учёных, в том числе Батурхана Валиходжаева и Комилхана Каттаева, подробно проанализированы история создания медресе Шердор — одного из трёх медресе ансамбля Регистан, возведённого правителем Ялангтушем Бахадуром, его архитектурные решения и значение как образовательного учреждения. Медресе рассматривается как выдающийся образец архитектуры и искусства XVII века.

Особое внимание в статье уделено масштабной созидательной деятельности Ялангтуша Бахадура в Самарканде в 1576–1656 годах, сведениям о его деятельности, а также различным мнениям, дискуссиям и спорам относительно его места и роли в истории нашего народа.

Ключевые слова: Площадь Регистан, медресе, медресе Шердар, Ялангтуш Бахадур, строительство, архитектура, изобразительное искусство, источники, учебное заведение.

HISTORY OF SHERDOR MADRASAH

Mahkamoy TURSUNOVA,
Kamoliddin GANIEV,
Samarkand State University named after Sharof Rashidov.

Abstract: The article analyzes the Sherdor Madrasah, one of the three madrasahs towering on the Registan Square, created by the ruler Yalangtush Bahadur, its creation, architectural solutions, and its significance as an educational institution. The analysis is based on historical sources, notes of foreign travelers, ethnographers, and scientific research by a number of scholars such as Boturkhon Valikhuzhaev and Komilkhon Kattaev. The madrasah is examined as a beautiful example of 17th-century architecture and art. The article also extensively presents information about the large-scale construction activities of Yalangtush Bahadur in

Samarkand from 1576 to 1656, information about his personality and activities, as well as opinions, discussions, and debates about his place in the history of our people.

Key words: Registan Square, three madrasahs, Yalangtush Bahadur, construction, architecture, fine arts, Sherdor Madrasah, sources, educational institution.

KIRISH: Qadimiy osori-atiqa bo‘lmish yodgorliklarga bo‘lgan qiziqish shunchaki havas yoki ermak emas, bu har birimizdagi oddiy insoniy tuyg‘udir. O‘zbekis-ton xalq shoiri Xurshid Davron bu insoniy tuyg‘uni quyidagicha ifodalay-di: “Biz qadimiy obidalarni birinchi navbatda inson dahosi, xalq tafak-kuri qudratining namunasi sifatida qabul qilamiz. Olis asrlar qa’ridan bizgacha yetib kelgan har bir mo‘jiza xoh me’morchilik, xoh musiqa, xoh adabiyot osori-atiqasi bo‘lsin, barchasini inson dili va inson qo‘li yaratgan. Shu sababdan ham ular xalq hayoti ijodining ko‘zdan yashirin botiniy qatlamlarini ochib beruvchi tarixiy shahodatnomalardir.” [1] Darvoqe, biz ko‘zimiz bilan ko‘rib turgan madrasa, rabot, masjid, maqbaraning o‘zinigina emas, shu obidalarni tiklash davomida orttirilgan tajriba mahsuli hamdir.

Manbalarda keltirilgan ma’lumotlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, Registon maydonidagi majmuaning asosiy qismi XVII asr boshlarida Samarqandda ulkan obodonchilik ishlarini amalga oshirgan, o‘z hukmronligi davrida shahar ravnaqini ta’minlagan, hukmdorlaridan biri – Yalangto‘sh Bahodir nomi bilan bog‘liqdir.

ASOSIY QISM: Yalangto‘sh Bahodirning tarjima holi haqidagi ma’lumot filologiya fanlari doktori Erkin Musurmonovning “Zarafshon” viloyat gazetasida e’lon qilgan maqolasida uchraydi: “Yalangto‘sh Bahodir ashtarxoniylar davrida harbiy zodagonlarning yirik vakili bo‘lib, bir qancha turkiy xalqlar tarkibiga kirgan yirik Olchin urug‘iga mansub bo‘lgan. U 1516-yilda Nurota hokimi oilasida tug‘ilgan. Otasining ismi Boyxo‘ja bo‘lib, Buxorodagi Shayboniyxonning hukmdor doirasidagi yuqori martabali amaldorlardan biri bo‘lgan” [2]. Bu avlodning diniy e’tiqodi naqshbandiya tariqatiga ixlosi baland bo‘lganligini manbalar tasdiqlaydi.

Ma’lumki, naqshbandiya tariqatining mashhur namoyondalaridan biri Xo‘ja Hoshim Dahbediyga atab o‘z davrida ko‘plab qasidalar yaratilgan. Tarixchi Kamilxon Kattayev mazkur qasidalar haqida so‘z yuritar ekan, ulardan biri SHerdor madrasasining devoriga marmar toshtaxtada koshiniy tarzda bitilganligini aytib o‘tadi.

Qasidada aytilishicha, SHerdor madrasasi ushbu pir va avliyolariga vaqf qilingan. Madrasadagi keng hujralardan biri, 1642–1645-yillarda hukm-ronlik qilgan ashtarxoniy Nodir Muhammadxonning Mashhaddan Samar-qandga yashash uchun taklif etilgan tog‘asi Mir Abutohirxo‘ja Sadr avlodlariga vaqf etilganligini aytib o‘tadi [3].

Ushbu ma’lumotlar bu avlodning naqshbandiya tariqatining taniqli so‘fiysi Xo‘ja Hoshim Dahbediyning muridi, ixlosmandi ekanligini tasdiqlaydi.

Xalq orasida keng tarqalgan ayrim rivoyatlarga ko‘ra, Yalangto‘sh Bahodir Xatirchi tumanidagi Olchin qishlog‘ida tug‘ilgan degan taxmin ham mavjud. Aslida, olchin bir qancha turkiy xalqlar tarkibiga kirgan yirik qabila ittifoqidir. Shu bois bu qabilaga mansub aholi turkiy xalqlar tatar, boshqird, qirg‘iz, qozoqlar yashovchi hududlarda xam keng tarqalgan.

Yalangto‘sh Bahodirning yoshligidan Buxoro hukmdori Dinmuhammadning e’tiborida bo‘lishi yuqorida tilga olingan imkoniyatlardan biridir. U Buxorodagi madrasada diniy, dunyoviy va harbiy sohalarda tahsil oladi. 1593-yilda esa o‘zining o‘tkir zehni tufayli olchin urug‘i biyi etib, tayinlanadi. O‘shanda u o‘n yetti yoshda edi. Hukmdorlar e’tiboriga tushish yoshlikdan uning taqdiriga bitilgan bo‘lib, u Buxoro xonligining yana bir hukmdori Abdullaxon II ning ham e’tiborini qozonadi. Asta-sekin siyosiy, harbiy davralarga kirib borayotgan Yalangto‘sh Bahodir 1611–1612-yillarda Vasmi Muhammadxon va ashtarxoniylar hukmdori Imomqulixon o‘rtasidagi ziddiyatlarga aralashib qoladi. Imomquliga bo‘lgan sadoqati tufayli 1612-yilda dastlab Samarqand amiri, keyinchalik otalig‘i maqomiga erishadi.

Amir va otalik sifatida o‘z qo‘shini va boyligiga ega bo‘lgan Yalangto‘sh Bahodir Buxoro hukmdorining harbiy harakatlarida faol qatnasha boshlaydi va tez orada harbiy sarkarda sifatida shuhrat qozonadi.

Natijada, Yalangto‘sh Bahodir mamlakatda Buxoro xonidan so‘ng, eng badavlat shaxsga aylangan. U bir muddat Bulung‘ur, Loyish va Kattaqo‘rg‘onda tumanboshi lavozimida faoliyat olib borgan.

Tarixiy manbalardan biri Malik Shoh Husayn Seistoniyning “Tarixi iq’ya al-muluk” asarida olchin urug‘idan bo‘lgan Yalangto‘sh Bahodir, Abdulkarim ismini ham qo‘llaganligini, shuningdek, uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarda Nizomiddin Yalangto‘shbiy Otaliq nomi bilan yorliq berilganligini tasdiqlaydi.

Yalangto‘sh Bahodirning otasi diniy ilmlarning ixlosmandi va bi-limdoni sifatida naqshbandiya tariqati yetakchilaridan bo‘lgan Mahdumi A’zam avlodlariga shogird bo‘ladi. Boyxo‘janing bu shogirdlik maqomi kel-gusida uning faoliyatida, oilasining mavqeida bir qator imkoniyatlarni yaratib berdi.

Ayrim ma’lumotlarda Yalangto‘sh Bahodirning uch farzandi – Iqlimabonu va Oybibi ismli qizlari va otasidan 6-7 yil ilgari vafot etgan Boybek ismli o‘g‘li bo‘lgan. Boybek yosh vafot etganligi bois, undan avlod qolmagan.

Bir umr martabali lavozimlarni boshqargan, juda katta boylikka ega bo‘lgan Yalangto‘sh Bahodir o‘g‘il farzandidan avlod qolmaganligi bois, o‘z nomini abadiylashtirish maqsadida qator bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishni niyat qiladi va bu yo‘lda shaxsiy mablag‘ini ayamaydi. Yalangto‘sh Bahodir tarix

sahnasida mohir siyosatchi, sarkarda sifatida nom qoldirishi barobarida, uning bunyodkorlik faoliyati Registon maydoni bilan bog‘liq bo‘lib, u O‘rta Osiyo shaharsozlik madaniyatiga qat’iy amal qilgan.

Aslida, shaharsozlik madaniyatida butun bir uyg‘unlikni tashkil etuvchi ansamblni ilk namunasi Amir Temur davrida Samarqandda Amir Temur jome’ masjidi va Bibixonim madrasalarinig o‘zaro joylashuvida namoyon bo‘lgan.

Taniqli olim me’morchilik doktori, professor M.Q.Axmedov shahar qurilishi tarixini tadqiq qilar ekan, butun bir ansambl tuzilishini quyidagicha izohlaydi: “Ansambl tuzilmalarining shakllanish shartlaridan biri shuki, ikki yoki bir necha bino uchun ma’lum ko‘cha, maydon, hovli va landshaft yoki ularning biror qismi umumiy kompozitsiya tashkil etishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ulug‘bek davrida esa Samarqand Registonida qurilgan va uning nomi bilan nomlangan madrasa va xonaqohidan iborat turkumlar mazkur usulda qurilgan”, — degan xulosaga keladi [4].

Haqiqatdan ham, Mirzo Ulug‘bek Registon maydonidagi savdo-sotiq va hunarmandchilik rastalari joylashgan hududni ansambl tuzilmasini shakllantirish uchun tanlaydi. U faqat madrasa va xonaqoh quribgina qolmay balki, uning yonida karvonsaroy va hammom ham qurdirgan. Maydonda qurilgan ulkan gumbazli so‘fiylar xonaqohi, o‘sha davrda tasavvuf ta’limotining rivojlanishida, ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashiga xizmat qilgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Davrlar o‘tishi bilan Registon hududi, xususan, Mirzo Ulug‘bek qurgan inshootlar qarovsizlikdan nuray boshlagan. 1576-1656-yillarda Samarqand shahar hokimi lavozimida ishlagan Yalangto‘sh Bahodir, shaharning oldingi ko‘rki va salobatini tiklash maqsadida Mirzo Ulug‘bek madrasasining qarama-qarshisida o‘z nomi bilan yuritilgan madrasai oliyani bunyod etadi. Madrasaning SHerdor deb nomlanishi bilan bog‘liq turli ma’lumotlar mavjud. Ana shunday ma’lumotlardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy qalamiga mansubdir. U SHerdor madrasasining XX asr boshlaridagi holatini o‘zi ta’sis etgan “Oyna” jurnalining 1913 yil 1-2 sonlarida “SHerdor madra-sasi” nomli maqolasida e’lon qiladi. Muallif dastlab madrasaning bino-si tasviriga to‘xtaladi. Uning tashqi qiyofasi va hujralari xususida quyidagi ma’lumotni keltiradi. “...madrasa ikki ashyona bo‘lib, 64 hujra, ikkita katta darsxona doxilan (ichkarida) to‘rt katta toqni mushtamaldur... madrasa(ning) ikki minora(si) javozindagi (yonidagi ikki qubbaning (gumbazning) biri masjid, digari bir turba ziyoratgohdir)” yana “Peshtoqning xorijiy jabhasinda mehrobning ikki tarafinda bir-biriga muqobil ikki sher (arslon), rangida mulavvan tasvir qilingani uchun “Madrasai SHerdor” atalibdur. Arslon naqshasining asari bu kunda ham ma’lumdur. Madrasa va minoraning boshqa jihatlarinda tasvir yo‘q va aksariyat ila oyati hadis va tarixi abyotni marmarlarg‘a muzayiqlangan va koshi mulavvan

chinlilar ila yozilgandir. Madrasa minora va qubbalarining butun sathini arab, eron, hind uslub naqqoshisi uzra mullavvun etdurar va ko‘zni qamashdurur”.

Haqiqatdan ham, SHerdor madrasasi o‘zining mukammal ko‘rki, salobati, ayniqsa, peshtoqiga chizilgan oq ohuni quvlayotgan qizg‘ish rangli sher, doira shaklidagi ko‘zni ifodalovchi quyosh tasvirlari botiniy ma’nolarni ifodalaydi. Madrasa peshtoqidagi bu tasvirni tushirishni muhandislardan Yalangto‘sh Bahodir talab qilgan. Madrasaning ichki tomoniga e’tibor qilinsa, barcha madrasalarda mavjud bo‘lishi lozim bo‘lgan masjid loyihada rejalashtirilgan. Ammo xalq orasida tarqalgan turli xil rivoyatlarga ko‘ra, o‘sha davrdagi diniy ulamolar, din peshvolari madrasaning peshtoqidagi jonli mavjudotlarning surati tushirilgan joyda nomoz o‘qib bo‘lmaydi degan e’tiroz bildirganlar, deyishadi. Nazarimizda, Bahodir Yalangto‘sh madrasa tarixiga o‘zgartirish kiritib, masjid o‘rniga hujralar qurishni taklif qilgan ko‘rinadi.

Yalangto‘sh Bahodir o‘zi qurdirgan SHerdor madrasasiga 1619-yili o‘z nomini naqshinkor go‘zal suls yozuvida yozib qoldirgan. Muhandis gumbaz arkini tasvirlaganda ko‘k (ya’ni osmon) hayratdan hilolni (oyni) barmoq kabi tishlab oldi. Uning asoschisi Yalangto‘sh Bahodir bo‘lganligi uchun ham qurilish yili muammo tarix uslubida “Yalangto‘sh Bahodir” deb nomlandi.

Yana bir manbada madrasaning peshtoqida sher va kiyikning tasviri o‘n ikki burjli shamsiy yilning beshinchi oyi Asad (sher) va o‘ninchi oyi jadiy (kiyik) ma’nosidan olingan yoki madrasa qurilishini shu oyda boshlagan bo‘lishi mumkin. Bundan anglashiladiki, madrasaning nomi dastlab “Yalangto‘sh Bahodir” nomi bilan yuritilgan.

Samarqand tarixini, o‘zbek tilini yaxshi bilgan rus olimi elshunos A.P.Xoroshxin (1841-1875) o‘z tadqiqot ishlarida SHerdor va Tillakori madrasalarining qurilishida sarflangan mablag‘ Yalangto‘sh Bahodir Eronning Mashhad va boshqa shaharlarni egallagach, u yerdan qo‘lga kiritilgan pul va boshqalar hisobiga qurilganligini aytib o‘tadi. Ayrim manbalarda esa madrasalar shaxsiy o‘z mablag‘i hisobidan qurganligi e’tirof etiladi.

Aslida, Samarqandda olib borilgan bunyodkorlik ishlari qanday mablag‘ hisobidan qurilmasin, muhimi Yalangto‘sh Bahodir umrining oxirigacha ezgu ishlarga sarflanganligi haqiqatga yaqindir.

Madrasalarni moliyaviy jihatdan ta’minlash uchun ajratilgan katta mablag‘ va mulklar vaqf qilib berilgan. Shu o‘rinda tadqiqotchi Abdurahim Hasanovning “Tafakkur” jurnalida e’lon qilgan “Allomalar beshigi” nomli maqolasida keltirilgan ma’lumotlar yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. U Turkiston madrasalarining vaqf mulklari haqida asosan 1896-yil holatidan kelib chiqib ma’lumot berar ekan, Samarqanddagi Tillakori va SHerdor madrasalarining 11610 (o‘n bir ming olti yuz

o‘n) tanobli 25 ta unumdor yeri, 8 ta savdo do‘koni, borligini ulardan yiliga 38 ming tanga foyda olganligini aytib o‘tadi [5].

Madrasalarga ajratilgan vaqf mulklaridan tashqari, shaharning nufuzli ma’rifatparvar boylaridan ayrimlari xususiy mulklaridan mablag‘lar ajratganlar. Shuningdek ustayu me’morlar, qurilishda ishtirok etgan ishchilarni oziq ovqat, nonvoylar non mahsulotlari bilan o‘z mablag‘lari hisobidan ta’minlab turgan. Ana shunday homiylardan biri Jo‘mard qassob degan inson bo‘lib, u 17 yil davomida ustalarni tekin go‘sht bilan ta’minlab turgan, bu saxiy inson Tillakori madrasasini oldiga dafn etilgan, uning qabri hozir ham mavjud bo‘lib ziyoratgohga aylangan.

Rus sharqshunosi, elshunoslik, qator ilmiy asarlar muallifi, jurna-list uzoq yillar Toshkentda yashagan N.P.Ostroumov (1846-1930) o‘zining 1914-yilda “Turkistanskix vedomostey” nashrida e’lon qilgan “Islomshu-noslik” maqolasida Samarqand madrasalarini o‘sha davrdagi holati haqida so‘z yuritar ekan, SHerdor madrasasida 95 ta talaba tahsil olganligini, ularga 2 nafar mudarris saboq berganligini aytib o‘tadi. Tillakori madra-sasida esa 130 nafar talaba tahsil olganligi, shu talabaga yetarli mudarrislar faoliyat olib borishi bilan bir qatorda har ikkala madrasaning 3000 ming rubldan ortiq vaqf mulklari mavjudligini 1914-yil holatidan kelib chiqib axborot beradi. [6]

Vaqf sifatida ajratilgan mablag‘lar asosan, madrasaning qurilishiga talabalar, mudarrislar va boshqa xodimlarga zarur bo‘lgan ashyolarga, maosh-larga sarflangan. Har bir sarf va xarajatlar qattiq nazorat qilingan.

Vaqf mulklaridan olingan xarajatning ma’lum katta qismi, asosan, muhandis va naqqoshlar xizmati uchun to‘langan. Ular madrasalarga naqsh berish bilan bir qatorda she’riy qasidalar, Qur’on oyatlaridan hadislar-dan namunalarni obida devoridagi marmar toshtaxtaga o‘yib yozganlar. Bundan tashqari, eng go‘zal naqshlar bilan madrasaning ta’sischisi Yalangto‘sh Bahodirning nomini alohida ko‘rsatib o‘tganlar.

Gap madrasaning bunyodkorlari haqida borar ekan, undagi lavhalarni va bitiklarni o‘qigan akademik Boturxon Valixo‘jayev quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Madrasaning muhandis-me’mori Aduljabbor bo‘lib, uni naqshlar va koshinlar bilan ziynatlagan san’atkor Muhammad Abbos va Avaz Samarqandiydir. Madrasa muhtasham me’moriy obida bo‘lib, XVII asr me’morchiligi va san’atkorligining go‘zal namunasidir. Uning peshtoqida quyosh, sher va kiyik suratlari chizilgan. Peshtoqidagi bu ramziy suratlarni bizningcha, shunday tushunsa bo‘ladi: quyosh-yorug‘lik ilm, sher – kuch-quvvat, kiyik go‘zallik va nafosat ramzi. Demak, kimki ilm-fan nuridan bahramand bo‘lsa, u sherday kuch-quvvatga ega bo‘ladi va nafosat olamini zabt eta oladi degan ma’noni ifoda etish nazarda tutilgan bo‘lsa kerak” [7].

Sherdor madrasasi bunyod etilgunga qadar uning sharqiy tarafida Javzaviya madrasasi joylashgan bo‘lib, ta’limiy bir uyg‘unlikni tashkil etgan. Bu madrasa ham o‘z davrida ancha shuhrat qozongan bo‘lib, unda Yassaviya tariqatining pirimurshidlaridan biri Shayx Xudoydodi Vali tahsil olganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Bu madrasaning ham masjidi bo‘lib, hozirgi kunda bu majmua saqlanmagan.

XULOSA: Yalangto‘sh Bahodirning ta’lim maskanlarini bunyod etilganligini tilga olar ekanmiz, beixtiyor nemis olimi Zingfrid Xenkaning “Arab quyoshi G‘arbga ziyo sochadi” nomli asarining “Madrasagacha qatnayotgan xalq” bobida [8], g‘arb aholisining 95 foizi savodsiz ekanligini, hatto ovro‘polik buyuk qirol Karl qarigan chog‘ida o‘qish va yozishni qiynalib o‘rganayotganligini yoki ibodatxonalarda qalam tutishni biladiganlar sanoqli ekanligini achinish bilan tasavvur etish holiga tushamiz. Birgina Yalangto‘sh Bahodirning Movarounnahr bilimlar yurtiga qo‘shgan hissasi beqiyos ekanligiga imon keltiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Xurshid Davron. Samarqand xayoli. – Toshkent: Kamalak, 1991. 29-bet.

2. “Egasiz qahramon hammaga kerak”. «Zarafshon», 2021y., 21 avgust

3. Kattayev K. Maxdumi A’zam va Dahbed. – Samarqand: So‘g‘diyona. 1994, 11-47-betlar.

4..Axmedov M.Q. O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi. – Toshkent: 1995, 109-bet.

5.Hasanov A. Allomalar beshigi. // Tafakkur jurnali, 2006. – №1. 82-87 betlar.

6.Остроумов Н.П. Исламоведение. – Т.: Изд. Туркистанских ведомостей. 1914.

7. Valixo‘jayev B. Samarqandda oliy ta’lim madrasai oliya universiteti tarixidan lavhalar. — Samarqand: A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2001. 129-bet.

8. Yusuf M. Shoyat taqvodor bo‘lsak. – Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 1992.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASI DAVLATLARIDA YANGI INTEGRATSIYA JARAYONLARINING BOSHLANISHI

Y.X.G‘afforov,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va siyosiy barqarorlikni ta’minlashning dolzarb masalalari yoritilgan. Mintaqa davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, mavjud tahdid va

muammolarga birgalikda yechim topish, shuningdek, integratsiya jarayonlarini jadallashtirishning muhim jihatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik va o‘zaro ishonchni rivojlantirishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: totalitar, resurslar, integratsiya, barqarorlik, format, strategiya, sherikchilik, mintaqaviy makon, texnologik salohiyat, konstruktiv

НАЧАЛО НОВЫХ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ГОСУДАРСТВАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Ю. Х. Гаффаров,
Государственный педагогический университет им. Чирчика

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы обеспечения безопасности и политической стабильности в регионе Центральной Азии. Анализируются основные направления укрепления сотрудничества между государствами региона, совместного решения существующих угроз и проблем, а также ускорения интеграционных процессов. Особое внимание уделяется значению политического диалога, экономического взаимодействия и укрепления взаимного доверия в обеспечении устойчивого развития и региональной стабильности.

Ключевые слова: тоталитарный, ресурсы, интеграция, стабильность, формат, стратегия, партнерство, региональное пространство, технологический потенциал, конструктивный.

THE BEGINNING OF NEW INTEGRATION PROCESSES IN THE STATES OF CENTRAL ASIA

Y.Kh. Ghaffarov,
Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article examines current issues related to ensuring security and political stability in the Central Asian region. It analyzes key areas of strengthening cooperation among the countries of the region, jointly addressing existing threats and challenges, and accelerating regional integration processes. Particular attention is paid to the importance of political dialogue, economic cooperation, and mutual trust in promoting sustainable development and maintaining regional stability.

Keywords: totalitarian, resources, integration, stability, format, strategy, partnership, regional space, technological potential, constructive.

KIRISH: Bugungi kunda mamlakatlarning siyosiy sohalaridagi yaqinlashuvi haqida gap borar ekan, yana bir obyektiv holatni unutmasligimiz

lozim. Bu mamlakatlarning, xususan Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizligini va siyosiy barqarorligini ta’minlashdan iborat. Eng avvalo, xavfsizlik deyilganda, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy xavfsizlikni tushunmoq kerak. Bu sohadagi Hamkorlik barcha mamlakatlarning tinchligi asosiga qurilmog‘i, mamlakatlarning qaysi mafkuraga amal qilishidan qat’iy nazar, bag‘rikenglik, fikrlar xilma-xilligi asosida qurilishi lozim. Bir paytdan qolgan dogmalar, har bir qo‘shnida o‘z dushmanini ko‘rish odati bugungi kunda mamlakatlararo munosabatlarni o‘rnatishga imkon bermaydi. Respublikamizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi masalasi faqat uning milliy davlat mustaqilligiga erishgandan keyingina hal etilishi mumkin bo‘lgan muammolar sirasiga kiradi. Chunki Respublikamiz sobiq ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzumi tarkibidagi rivojlanishi shu qadar cheklab qo‘yilgan ediki, bunday sharoitda boshqa mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqalar o‘rnatish xususida gapirish ham mumkin emasdi. Faqat milliy mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘nggina O‘zbekiston uchun dunyodagi turli davlatlar bilan, jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham xalqaro munosabatlarni o‘rnatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bunday munosabatlar endilikda tasodifiy va uzuq-yuluq ravishda emas, balki doimiy hamda ijtimoiy hayotning bircha sohalarini qamrab oluvchi keng miqyosli aloqalar tarzida amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM: Ma’lumki Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishi uzoq muddatga mo‘ljallangan maqsaddir. Demak, mintaqaviy hamkorlik ikki yoki undan ortiq qatnashchilarni bir necha formatni qamrab olishi bilan shartlanganligi uchun u kun tartibida turgan masalalar va sherik davlatlar manfaatlari mutanosibligiga bog‘liq.

O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati hozirgi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya jarayonini jadallashtirish va xalqaro tashkilotlar imkoniyatlarini bu jarayonga yo‘naltirishdan iboratdir. Ana shu jarayonlar haqida davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Markaziy Osiyo taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqi-chiga qadam qo‘ymoqda. Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o‘tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo‘lib xizmat qilayotgan o‘zaro ishonch yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda. Asta-sekin Markaziy Osiyo yangi mintaqaviy o‘ziga xosligi vujudga kelmoqda. Bu farqli jihatlari-mizni e’tirof etish va ayni payt xalqlarimizning umumiy tarixi, mushtarak madaniyatini, taqdirlarimiz o‘zaro bog‘liq ekanini chuqur anglashga asoslanadi. Qo‘shnichilik-xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati-barchaning yutug‘i degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanmoqda.

Mana shunday ishonch, o‘zaro anglashuv va umumiy kelajak ruhi bugungi kunda mintaqaviy jipslashuvini yanada mustahkamlash, ya’ni barqaror va o‘zaro bog‘liq farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etish bo‘yicha Markaziy Osiyo jarayonini boshlash uchun eng muhim tayanch asosdir” [1].

Ma’lumki, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qilinadigan hamkorliklarda yetakchi mavqega egadir. Ana shu nuqtayi-nazardan qaraganda Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining asosini iqtisodiy sohada, xususan, tabiiy Resurslardan foydalanishda xalqlarning umumiy sa’y-harakatlarini birlashtirish, ularning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, texnologik salohiyatini yaqinlashtirish va shu orqali, xar bir mamlakatning izchil rivojlanishiga, barcha xalqlarning moddiy farovonligi va madaniy darajasini oshirishga erishish; MarkaziyOsiyo mintaqasi mamlakatlarida tinchlik va osoyishtalik, barqarorlikni ta’minlash; siyosiy hamkorliklar sohasida esa Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan va xalqlar o‘rtasida milliy ayirmachilik, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmni avj oldirishga urinuvchi, mintaqa davlatlarining mustaqilligiga, suverenitetiga, hududiy birligiga, xavfsizligi va barqarorligiga rahna soluvchilarga va boshqa yovuz kuchlarga qarshi kurashish zarurligi kabi holatlar ko‘rsatib berilgan.

Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev nutqlarida ko‘rsatilganidek “Mintaqaviy jipslashuv borasidagi yutuqlar tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarning o‘z manfaatlari va taraqqiyot yo‘llarini aniq tasavvur etadigan mustaqil va mas’uliyatli ishtirokchisi sifatida qaror topdi.

“Markaziy Osiyo plyus” hamkorlik formatlari mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatida mavqeyi kuchayib borayotganining ifodasi hamda barqarorlik va taraqqiyotning muhim markazi sifatidagi rolining e’tirofi bo‘ldi. Ilgari tashqi hamkorlar aloqalarni asosan ikki tomonlama asosda qurgan bo‘lsa, bugungi kunda dunyoning yetakchi davlat va birlashmalari markaziy Osiyo bilan munosabatlarni yaxlit mintaqaviy sherik sifatida rivojlantirmoqda” [1].

Hozirgi kunda xalqaro doirada shakllanayotgan siyosiy qarashlar Respublikamizning Markaziy Osiyoda tutgan o‘rnini yuqori baholaydi. Darhaqiqat, mintaqadagi mavjud muammolarning konstruktiv yechimini topishda O‘zbekiston ko‘p qirrali tashqi siyosat olib bormoqda. Ushbu mintaqada xavfsizlikka tahdidlarning doimiyligi va kuchli davlatlarning manfaatlar to‘qnashuvi sharoitida yurtimizni asrab qolish va yanada mustahkamlashni davrning o‘zi talab etmoqda. Bunda, mintaqa davlatlarning barchasi yagona umumxavfsizlik tizimini yaratish zaruriyat ekanligini anglab yetgan xolda, ushbu tizimda mintaqaviy integratsiya g‘oyasi yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu g‘oyaning tashabbuskori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bo‘lib, uning samarali sa’y-harakatlari natijasida bu geosiyosiy makonda kafolatlangan xavfsizlik tuzilmalari yaratilmoqda. Ma’lumki, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida tuzilmalar bitimlar,

davlat rahbarlarining rasmiy o‘zaro tashriflari chog‘ida hamda Markaziy Osiyo hamkorligi doirasidagi uchrashuvlarda imzolangan siyosiy hujjatlar MO davlatlari hamkorligini yo‘lga qo‘yish uchun meyoriy huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1992-yilning 22-iyunida O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida Shartnoma tuzilgan edi. Unda tomonlar o‘z munosabatlarini bir-birlarining mustaqilligi va davlat suvereniteti, teng huquqligini hurmat qilish, ichki ishlariga aralashmaslik, hududiy yaxlitligini hamda mavjud chegaralarining daxlsizligini tan olish va hurmat qilish; davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, xalqlar xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, ikki tomonlama siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, gumanitar va ekologik hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish, tashqi siyosat sohasida, xalqaro tashkilotlar ishida o‘zaro yordamlashish, tashqi iqtisodiy faoliyatning muvofiqlashtirishiga yordam berish; uyushgan jinoyatchilikka, terrorizmga qarshi kurashda, shuningdek, narkotik moddalarning, qurol-aslahalarning noqonuniy sotilishiga, kontrabandaga qarshi kurashda hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish prinsiplariga amal qilishlari alohida ta’kidlab o‘tildi [2].

1993-yilning iyul oyida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida 1994-2000-yillarga mo‘ljallangan o‘zaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Bitim imzolangan edi. 1994-yil yanvarida esa Yagona iqtisodiy hudud tashkil etish haqidagi Shartnoma imzolandi (keyinchalik ushbu shartnomalarga Qirg‘iziston ham qo‘shildi.)

Markaziy Osiyo Respublikalari hamda Qozog‘iston rahbarlari o‘rtasida 1991-yil 13-dekabr Bitimiga, shuningdek, O‘rta Osiyo Respublikalari va Qozog‘iston Respublikalararo Maslahat Kengashi Majlisining 1991-yil 17-dekabridagi Bayonnomasiga asosan Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi hukumati vakillari tomonidan 1992-yilning 3-martida Tejen-Seraxs temir yo‘lining qurilishini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minlash to‘g‘risidagi Bitim imzolandi. O‘zbekiston 1992-yil uchun 65 million rubl miqdorida mablag‘ ajratdi. Uning 48 million rubli qurilish-montaj ishlariga hamda zarur moddiy-texnik resurslar uchun yo‘naltirildi.

Turkmaniston esa O‘zbekiston Respublikasining Tejen-Seraxs temir yo‘l tarmog‘i qurilishiga yo‘naltirilgan mablag‘larni, temir yo‘l tarmog‘i ishga tushirilgach, ushbu yo‘ldan O‘zbekistonning barcha yuklarini imtiyozli asolarda tashib berish bilan qoplashni o‘z zimmasiga oldi. O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosati bo‘yicha faoliyatini izchil davom ettirib borar ekan, Tojikistondagi tartibsizliklar boshlangan ilk kunlardanoq, mazkur davlatga har tomonlama ko‘mak berib kelmoqda [3].

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy iqtisodiy-siyosiy integratsiya jarayoni rasman 90-yillarning birinchi yarmidan boshlandi. 1994-yil O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston Yagona iqtisodiy makon shartnomasi tuzishdi. 1998-yil Tojikiston ham bu shartnomaga qo‘shildi. Yuzaga kelgan huquqiy asosni tashkiliy va moliyaviy jihatidan ta’minlash uchun Davlatlararo kengash va Markaziy Osiyo hamkorlik va rivojlanish banki barpo etildi. Ushbu shartnomaga muvofiq 1995-2000-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy integratsiya Dasturi qabul qilindi. Bu Dastur doirasida qo‘shma korxonalar tuzilib, ishlab chiqarish kooperatsiyasi “Kurtak ota” boshladi.

Ushbu hamkorlik to‘g‘risida Prezidentimiz “Iqtisodiy sohada ichki mintaqaviy savdoni rivojlantirish, chegaralardan o‘tish tartib-taomillarini soddalashtirish va o‘zaro investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish muhimdir. Sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, mintaqaviy va hududlararo yetkazib berish zanjirlarini shakllantirish, chegaraoldi savdo zonalarini rivojlantirish, transport va iqtisodiy yo‘laklar tarmog‘ini kengaytirish, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi va raqamli iqtisodiyot sohalarida qo‘shma loyihalarni ilgari surish zarur” [1] - deb alohida gapirib o‘tdilar.

O‘zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan o‘rnatilgan siyosiy hamkorliklardagi Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan va xalqlar o‘rtasida milliy ayirmachilik, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmni avj oldirishga urinuvchi, butun mintaqaning, unda joylashgan davlatlarning mustaqilligiga, suverenitetiga, hududiy birligiga, xavfsizligi va barqarorligiga raxna solish maqsadlarida narkotiklar savdosini qurol-yarog‘lar kontrabandasini va jinoyatchilikni keng yoyishni qurol qilib olgan yovuz kuchlarga qarshi kurashish zarurligi ham alohida o‘rin egallaydi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Tarixda ma’lumki, har qanday mamlakatlar, har qanday xalq o‘z sarhadlarini, o‘z xavfsizligini, o‘z aholisini, oilasi ayoli va onalarining tinch va osoyishta hayotini himoya qilaolmas ekan, uning tom ma’noda davlat deb ham atab bo‘lmaydi. Butun tarixiy o‘tmishimiz, ajdodlarimiz o‘gitlari shundan dalolat beradiki, o‘z hududiy yaxlitligi va mustaqilligini kafolatlay olgan mamlakatgina gullab-yashnaydi. Sobiq sovet bloki yemirilib, Varshava shartnomasi tugagandan keyin, 1949 yilning aprelida tashkil qilingan va Yevropadagi 14 ta mamlakatni, shuningdek AQSH va Kanadani Birlashtiruvchi Shimoliy Atlantika shartnomasi Tashkiloti NATO ga a’zo davlatlar ana shunday operatsiyalarni amalga oshiruvchi eng real va qudratli harbiy siyosiy tashkilot bo‘lib qoldi.

NATOning “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturi Yevropa Xavfsizligining yangi modelini yaratishga qaratilgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoldi. U qo‘shilmagan, betaraf mamlakatlarning hamda sobiq SSSR mamlakatlarining

kuch-g‘ayratini birlashtirdi. Ushbu dastur doirasida O‘zbekistonning hamkorlik qilishi Markaziy Osiyo mintaqasida va umuman Yevroosiyo makonida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik ishiga ko‘maklashadi, mamlakatlar o‘rtasidagi turli sohalardagi samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishga olib boradi va pirovard natijasida jahon hamjamiyatiga tezroq integratsiyalashish imkonini beradi.

Mustaqil Respublikamiz tarix uchun qisqa bir davr mobaynida katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. O‘zbekistonning mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, Afg‘onistondagi birodarkushlik urushiga barham berish va xalqaro terrorizmga qarshi kurash, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi hudud deb e’lon qilish kabi tashabbuslari xalqaro jamoatchilik tomonidan qo‘llab quvvatlandi. Prezidentimiz aytganlaridek “Afg‘oniston bilan bog‘liq masalalarni hal etmasdan turib, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlab bo‘lmaydi. Bu mamlakat umumiy mintaqamizning bir chekkasida emas, balki uning tabiiy bir qismidir. Butun Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikning mustahkam bo‘lishi ko‘p jihatdan Afg‘onistonning tiklanishi va rivojlanishiga bog‘liq.

Afg‘onistonning jafokash xalqi chuqur gumanitar inqirozi sharoitida yashashda davom etmoqda. Shu munosabat bilan mintaqa mamlakatlari Afg‘onistonni mintaqaviy va xalqaro jarayonlariga izchil jalb etish zarurligidan kelib chiqmoqda. Bu esa ushbu mamlakat taraqqiyoti va keng mintaqamizda barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [1].

Xullas, birinchidan O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda tinchlik va kollektiv xavfsizlikni saqlash shu mintaqadagi mamlakatlar salohiyatini birlashtirish, o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi harakatlari jahonda tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish uchun o‘ta muhimdir. Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyodagi tinchliksevar tashqi siyosatining konstitutsion tamoyillari tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; shu hududdagi davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, nizolari tinch yo‘l bilan hal etish, inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlashdan iboratdir.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo davlatlari nafaqat butun jahonda barcha umumbashariy muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish, katta va kichik urushlarga barham berish, terrorchilik, qo‘poruvchilik giyohvandlikka qarshi faol kurashni maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun mustaqil Respublikalar o‘zining ichki va tashqi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga harakat qilmoqda. Xalqaro xavfsizlik va barqarorlik muammosi yangi asr bo‘sag‘asida hamon jahon hamjamiyati oldida turgan eng asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Jumladan xalqaro xavfsizlikni bir qismi bo‘lgan mintaqaviy xavfsizlik muammosi ham. Mintaqaviy xavfsizlik bu mintaqani mavjud yaxlitligini ta’minlash, uni iqtisodiy munosabatlarda, tabiatni muhofaza qilishda, dunyo

hamjamiyati bilan shu mintaqa uchun qulay sharoit yaratish va chegaralar daxlsizligini ta’minlash hisoblanadi.

Prezidentimiz ma’ruzalarida mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlik masalalariga alohida to‘xtalib o‘tdilar: “Mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish davom ettirish mavjud mexanizmlarni mustahkamlab, ularga barqaror tus va amaliy ma’no-mazmun bag‘ishlash zarur. Oxir-oqibatida samarali mintaqaviy institutlarsiz hamkorlikni tizimli rivojlantirish va qabul qilinayotgan qo‘shma qarorlarni sifatli amalga oshirishni ta’minlab bo‘lmaydi.

Xavfsizlik sohasidagi maqsadimiz-tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy salohiyatni shakllantirishdan iborat. Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar, mudofaa va huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini davom ettirish lozim. “Xavfsizlikning bo‘ysunmasligi” prinsipi asos bo‘lib qolishi kerak. Ayni paytda mintaqaviy hamkorlik amaldagi xalqaro mexanizmlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi, barqarorlikni mustahkamlash hamda mamlakatlar va umuman mintaqa xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning keng doirasiga qarshi turish bo‘yicha o‘z salohiyatini shakllantirishi lozim.

Hozirgi bosqichda “Markaziy Osiyo plyus” formatlari va boshqa xalqaro muloqot maydonlarida mintaqaviy muvofiqlashuvini rivojlanti-rish, tashqi sheriklar bilan hamkorlik masalalari bo‘yicha kelishilgan ustuvor yo‘nalishlar va pozitsiyalarni ishlab chiqish strategik vazifaga aylanmoqda. Faqat shu yo‘l bilangina jahonning yetakchi mamlakatlari va birlashmalari bilan hamkorligimizni davlatlarimiz va butun mintaqaning iqtisodiy hamda texnologik taraqqiyotiga barqarorligiga xizmat qiladigan aniq loyihalar asosida boyitishimiz mumkin.

O‘zbekiston uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish taktik tanlov emas, balki Markaziy Osiyo kelajagi uchun umumiy mas’uliyatni anglashdan kelib chiqadigan ongli strategik qarordir” [1].

XULOSA: Xullas, Prezidentimiz nutqlaridan kelib chiqib alohida ta’kidlay-digan bo‘lsak Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqil rivojlanishi tarixida ilk bor o‘zaro chegaralarining barchasi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda ishtirok etishni amalga oshirishga intilayotgan davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining mexanizmlari ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.SH.M.Mirziyoyev. “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida”, “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2025-yil, 13-noyabr.

2. Mejdunarodniye dogovori Respubliki Uzbekistan. 1 kniga. – T., 1998. – S. 128-138.

3. Qirg‘izboyev A. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. – T.:Fan, 2004. – B. 63-64.

4.Jukov R. Reznikova O. Rossiya-Sentral’naya Aziya: novaya model’ vzaimodeystviya. “Rossiya i yug: vozmojnosti i predeli vzaimodeystviya. Moskva: Finstatinform, 1996. – S 203-206.

SIYPANTOSH VA XO‘JA OVUL MING BARAKA QOYATOSH TASVIRLARIDA QO‘L IZLARINING SEMANTIKASI VA IBTIDOIY E’TIQODLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Bobojonov Behruz Bahodir o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
E-mail: bobojonovbehruz00@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo vohasining Chiroqchi tumani Quruqsoy qishlog‘i hududidagi Siypantosh hamda Xo‘ja ovul ming baraka qoyatosh tasvirlari tadqiq etiladi. Ushbu yodgorliklardagi timsollar, xususan qizil oxrada ishlangan qo‘l (kaft) izlari tasvirlarining semantikasi jahon tosh davri san’atining mashhur namunalari (Koska, Altamira, Gargas, Shove, Kastillo, Maros, Kueva de las Manos) bilan qiyosiy-tarixiy usulda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qo‘l izlari ibtidoiy initsiatsiya marosimlari, hosildorlik hamda shifo e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu an’ananing ayrim izlari vohada hozirgacha saqlanib qolgani aniqlandi. Ishda tasvirlarning davrlanishi, rang ramziyligi va marosimiy mazmuni masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: qoyatosh tasvirlari, petroglif, Siypantosh, Xo‘ja ovul ming baraka, oxra, qo‘l izi, ibtidoiy e’tiqod, initsiatsiya, mezolit, semantika.

СЕМАНТИКА ОТПЕЧАТКОВ РУК НА ИЗОБРАЖЕНИЯХ ГОРНОГО КАМНЯ МИНГ-БАРАКА ИЗ СИЙПАНТОША И ХОДЖА-АУВУЛА

Бободжонов Бехруз Баходир оглу,
Шахрисабзский государственный педагогический институт
E-mail: bobojonovbehruz00@gmail.com

Аннотация. В статье исследуются наскальные изображения Сийпантош и Ходжа овул минг барака, расположенные в районе села Куруксай Чиракчинского района Кашкадарьинской области. Семантика символов этих памятников, в особенности изображений отпечатков рук (ладоней), выполненных красной охрой, анализируется сравнительно-историческим методом с известными образцами мирового искусства каменного века (Коске, Альтамира, Гаргас, Шове, Эль-Кастильо, Марос, Куэва-де-лас-Манос). Результаты исследования показывают, что отпечатки рук связаны с первобытными обрядами инициации, верованиями в

плодородие и исцеление, а отдельные следы этой традиции сохраняются в оазисе до настоящего времени.

Ключевые слова: наскальные изображения, петроглиф, Сийпантош, Ходжа овул минг барака, охра, отпечаток руки, первобытные верования, инициация, мезолит, семантика.

SEMANTICS OF HANDPRINTS IN THE IMAGES OF THE MING BARAKA ROCKSTONE OF SIYPANTOSH AND KHOJA AUVUL

Bobojonov Behruz Bahodir oglu,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
E-mail: bobojonovbehruz00@gmail.com

Abstract. The article examines the rock art of Siypantosh and Khoja ovul ming baraka, located near the village of Quruqsoy in the Chirakchi district of the Kashkadarya region. The semantics of the images of these sites, in particular the hand (palm) prints made with red ochre, are analysed by the comparative-historical method against well-known examples of world Stone Age art (Cosquer, Altamira, Gargas, Chauvet, El Castillo, Maros, Cueva de las Manos). The findings indicate that the hand prints are linked to primitive initiation rites and to beliefs in fertility and healing, and that certain traces of this tradition have survived in the oasis to the present day.

Keywords: rock art, petroglyph, Siypantosh, Khoja ovul ming baraka, ochre, hand print, primitive beliefs, initiation, Mesolithic, semantics.

KIRISH: Insoniyat ma’naviy madaniyatining eng qadimgi ko‘rinishlarini o‘rganishda qoyatosh tasvirlari – petrogliflar muhim tarixiy manba hisoblanadi. Qadimda qabila va elatlar tarzida tarixiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan xalqlar madaniyatida ibtidoiy e’tiqodlar izlari turli yodgorliklarda, shu jumladan qoyatoshlardagi rasmlarda saqlanib qolgan. So‘nggi paleolit davriga oid g‘orlar devorlaridagi rangli rasmlar (Altamira, Lasko, Kapova g‘ori) hamda Yevroosiyo hududlarida tarqalgan mamont suyagi va loydan yasalgan ma’buda-ayol haykalchalari ushbu e’tiqodlarni o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda qoyatosh rasmlarini o‘rganishda A.P.Okladnikov, J.Kabirov, M.Xo‘janazarov, A.Xolmatov kabi olimlarning xizmatlari katta [4; 5; 6; 7; 8]. XXI asrga qadar yurtimizdagi tasviriy san’at obidalari orasida mezolit davriga oid Zarautsoy (Zarautkamar) rasmlari eng qadimgi deb hisoblanib kelingan [9]. Biroq 2001 yilda Zarafshon tog‘ tizmasining janubiy sarhadlarida, Chiroqchi tumanining tog‘li Quruqsoy qishlog‘i hududida topilgan Siypantosh rasmlari taxminan 15–10 ming yil muqaddam, ya’ni so‘nggi paleolit va mezolitning ilk bosqichlari bilan

davrlandi [1]. Shu tariqa Siypantosh O‘zbekiston hududidagi ma’lum bo‘lgan eng qadimgi tasviriy san’at namunalaridan biriga aylandi.

ASOSIY QISM: Ushbu maqolaning maqsadi – Siypantosh va unga yaqin joylashgan Xo‘ja ovul ming baraka qoyatosh tasvirlaridagi timsollar, xususan qo‘l (kaft) izlarining semantikasini jahon tosh davri san’ati namunalari bilan qiyosiy o‘rganish hamda ularning ibtidoiy e’tiqodlar va marosimlar bilan bog‘liqligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy obyekti Qashqadaryo vohasining Chiroqchi tumani Quruqsoy qishlog‘i hududidagi Siypantosh hamda Xo‘ja ovul ming baraka qoyatosh tasvirlaridir. Tadqiqotchi X.G‘.Oynazarov ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur qoyatoshlardagi rasmlarda 824 ta timsol aks etgan bo‘lib, ular mazmun-mohiyatiga ko‘ra 12 ta guruhga ajratilgan [2]. Tasvirlar orasida inson, qo‘l va qo‘l panjasi, ov hamda jang qurollari, hayvonot dunyosi (yer osti va yer usti hayvonlari), romb, zigzagsimon shakllar, xoch, tayoqchalar, kosmogonik va turli geometrik belgilar, shuningdek bir qator tushunarsiz timsollar uchraydi.

Ishda quyidagi usullardan foydalanildi: timsollarni tasniflashda tipologik usul; yodgorlikni jahondagi o‘xshash namunalar bilan solishtirishda qiyosiy-tarixiy usul; tasvirlarning mazmunini ochishda semantik tahlil; hozirgi an’analar bilan bog‘liqlikni ko‘rsatishda esa etnografik analogiya usuli qo‘llanildi. Tasvirlar va ularga o‘xshash jahon namunalarining davrlanishida maxsus adabiyotlarda keltirilgan radiokarbon hamda uran-toriy tahlil natijalariga tayanildi.

Siypantosh rasmlari mineral bo‘yoq – oxrada ishlangan bo‘lib, jigarrang, qizil va oq rangdagi geometrik shakllar (halqa, xoch, romb va chiziqlar), quyoshning ramziy tasviri, yovvoyi buqa hamda ayol barmoqlari izlaridan iborat. Bu timsollar, umuman olganda, samoviy e’tiqodni aks ettirishi mumkin degan taxminga asos beradi. Tasvirlar to‘liq tushunarli bo‘lmasa-da, ularning qadimiyligi shubha uyg‘otmaydi.

Rasmlarda qo‘llanilgan oxra so‘zi yunoncha “oxros” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “sarg‘ish”, “to‘q sariq” ma’nolarini anglatadi. Bunday mineral bo‘yoqni Siypantosh va Xo‘ja ovul ming baraka yodgorliklarining shimoliy tarafidan 3–4 km uzoqlikdagi yerlardan topish mumkin. Tuproq tarkibidagi elementlarga qarab, oxradan sariq, qizil va jigarrang, ba’zan binafsha yoki ko‘k ranglarni hosil qilish mumkin.

Ibtidoiy davr odamlari rang tanlashda hayotiy zarurat kasb etgan unsurlardan – qon, sut, olov va yerdan kelib chiqqan. Shu bois qizil, oq va qora ranglar uzoq vaqt o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Xususan, oq rang yorug‘lik, sut va kelajak avlodni anglatib, mazmunan hayotning boshlanishi, poklanish va muqaddaslikni ifodalagan. Qizil rang esa qon va hayotiylik bilan bog‘liq bo‘lib, oxraning keng qo‘llanilishiga sabab bo‘lgan.

Xo‘ja ovul ming baraka qabristonida aniqlangan yangi qoyatosh tasvirlarida asosan ayol kishiga tegishli deb hisoblanayotgan chap qo‘l panjasi izlari chizilgan. Siypantosh va Xo‘ja ovul ming baraka yodgorliklaridagi tasvirlarda qizil bo‘yoq (oxra)ga panja botirilib, keyin toshga bosib iz qoldirilgan. Rasmlarning mazmuni va tasviriy uslubiga ko‘ra, ular asosan mezolit davriga mansub bo‘lib, Zarautkamar hamda undan biroz keyin paydo bo‘lgan Sarmishsoy, Bironsoy, Ilonsoy kabi qoyatosh rasmlari bilan bir qatorda ajdodlarimiz tasviriy san’ati va ma’naviy madaniyati tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Qo‘l tasviri yuqori paleolit davriga oid jahon san’atidagi eng qadimgi mavzulardan biridir. Qo‘llar bilan bog‘liq turli ma’nolarning semantik maydoni hech bo‘lmaganda paleolit g‘or san’ati paydo bo‘lgan paytdan shakllana boshlagan. Ularning eng qadimgilaridan biri Fransiyaning Koska g‘oridan topilgan bo‘lib, taxminan 27000 yil avval chizilgan ushbu qo‘l izi insoniyat tarixidagi dastlabki imo-ishora va tasvirlardan hisoblanadi. Vaqt o‘tishi bilan bunday belgilar ramziy ma’no kasb etib, “butun tana o‘rniga bir qism” mantiqiy qoidasi asosida insonni ifodalay boshlagan.

A.P.Okladnikovning ta’kidlashicha, bo‘yoq bilan ishlangan qo‘l izlari yoki siluetlari mohiyatan san’at asari deb atalmasa-da, paleolit odami nazarida ular tasviriy ma’noga ega bo‘lgan va ularning orqasida ma’lum bir mazmun yotgan. Ushbu izlar, shubhasiz, shaxsni ifodalab, uning borligi va ijodiy qobiliyatining ramzi sifatida qabul qilingan [3]. A.Lerua-Guranning fikriga ko‘ra esa, taxminan 30 ming yildan 9 ming yilgacha bo‘lgan davr va Asturiyadan Dongacha bo‘lgan keng hududda badiiy tarkibning favqulodda o‘xshashligi kuzatiladi. Bu hol yagona g‘oyaviy tizim – shartli ravishda “g‘or dini” deb ataluvchi tizimning mavjudligini ko‘rsatadi [10].

Qo‘l tasvirlari dunyoning ko‘plab tosh davri yodgorliklarida uchraydi va ularning davrlanishi bo‘yicha muhim ma’lumotlar to‘plangan. Altamira, Santiane, La-Pasege va Fuente-del-Salin g‘orlaridagi bo‘yoq bilan chizilgan qo‘l panjalari radiokarbon usulida tahlil qilinganda eng qadimgisi taxminan 18200±70 yil muqaddam, Shove g‘oridagi qizil oxra esa taxminan 33–30 ming yil muqaddam davr bilan sanalangan. Ispaniyaning Kastillo g‘oridagi qo‘l panjalari uran-toriy usulida taxminan 37290 yil muqaddam sanasini ko‘rsatgan. Indoneziyaning Sulavesi orolidagi Lean Timpuseng (Marosh) yodgorligidagi qo‘l tasvirlari esa taxminan 39900 yil muqaddam davr bilan sanalanib, hozircha eng qadimgi qo‘l tasviri hisoblanadi.

Qo‘l izlarining bajarilish texnikasi turlicha bo‘lgan: bo‘yoq og‘izga olinib qo‘l ustidan purkalgan holda toshga muhrlangan yoki kontur bo‘ylab bo‘yalgan. Tasvirlar qizil, qora, sariq, jigarrang va binafsha ranglarda uchraydi va bunday rang farqlari ko‘plab xalqlarning marosimlari uchun umumiy deb tan olingan.

Siypantosh hamda Xo‘ja ovul ming baraka tasvirlarida esa panja qizil oxraga botirilib toshga bosilgan.

Qo‘l izlarining ma’nosi turli qarashlarga sabab bo‘lgan. Olimlar ularni initsiatsiya (bag‘ishlanish) marosimlari va ov sehri bilan bog‘laydi. Initsiatsiya – ijtimoiy guruh yoki sirli jamiyat doirasida shaxsning rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tishini bildiruvchi marosimdir. Din tarixida o‘tish marosimlarining uch toifasi ajratiladi: birinchisi – bolalikdan katta yoshga o‘tishni belgilovchi jamoaviy marosimlar; ikkinchisi – sirli jamiyat yoki birodarlikka kirish marosimlari; uchinchisi – ibtidoiy dinlar darajasida shaman yoki rahbar kasbini tasdiqlovchi marosimlardir [11]. Masalan, Argentinadagi “Qo‘llar g‘ori” (Kueva de las Manos)da to‘qqiz–o‘n uch ming yil avval ishlangan ko‘p rangli qo‘l izlari o‘g‘il bolalarning voyaga yetish (sunnat) marosimi bilan bog‘lanadi.

Siypantosh va Xo‘ja ovul ming baraka yodgorliklarida shunga o‘xshash marosimlarning ayrim izlari hozirgacha saqlanib qolgani diqqatga sazovordir. Bu joy bugungi kunda ham ayollarga tug‘ruqda, farzandsizlikda hamda bemorlarga madad beradigan muqaddas makon sifatida aziz tutiladi; bu yerda afsonaviy “Siypontosh ota” ruhiga atab qurbonlik qilish odati davom etmoqda. Hozirgi aholi tasavvurida bu joy shifo baxsh etuvchi avliyoning ruhi poki makon tutgan joy sifatida qaraladi. Bunday holat qadimgi ibtidoiy e’tiqodlarning zamonaviy xalq madaniyatidagi uzviy davomiyligini ko‘rsatuvchi noyob etnografik-arxeologik hodisa hisoblanadi.

XULOSA: Olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, Siypantosh va Xo‘ja ovul ming baraka qoyatosh tasvirlari O‘zbekiston, xususan Kesh–Shahrisabz vohasi hududidagi ajdodlarimiz ma’naviy madaniyatining eng qadimgi va noyob yodgorliklaridan sanaladi. Ikkinchidan, bu yodgorliklardagi qizil oxrada ishlangan qo‘l (kaft) izlari oddiy mexanik iz emas, balki ma’lum semantik mazmunga ega bo‘lib, initsiatsiya marosimlari, hosildorlik va shifo e’tiqodlari bilan bog‘liqdir. Uchinchidan, ushbu tasvirlar jahon tosh davri san’ati namunalari bilan umumiy g‘oyaviy va badiiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ibtidoiy e’tiqodlarning keng tarqalgan tizim ekanligini tasdiqlaydi. To‘rtinchidan, yodgorlik atrofida marosimiy an’ananing hozirgacha davom etishi qadimgi e’tiqodlarning zamonaviy xalq madaniyatidagi davomiyligini namoyon etadi. Shu bois mazkur yodgorliklarni arxeologiya, etnografiya va san’atshunoslik usullarini uyg‘unlashtirgan holda kompleks o‘rganish istiqbolli vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сулейманов Р.Х. Сийпанташ – новый памятник первобытного искусства в долине Кашкадарьи // Цивилизации Центральной Азии: земледельцы и скотоводы; традиции и современность. – Самарканд, 2002.

2. Oynazarov X. G‘. Janubiy O‘zbekiston qoyatosh rasmlari texnika-tipologiyasi qiyosiy tahlili. 07.00.06 – Arxeologiya. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 14 b.

3. Окладников А.П. Утро искусства. – Л.: Искусство (Ленинградское отделение), 1967. – 136 с.

4. Хужаназаров М. Наскальные изображения Хаджакента и Каракиясая. – Самарканд, 1995.

5. Tashbayeva K., Khujanazarov M., Ranov V., Samashev Z. Petroglyphs of Central Asia. – Bishkek, 2001.

6. Шацкий Г.Б. Рисунки на камне. – Ташкент: Фан, 1973. – 159 с.

7. Xo‘janazarov M., Xolmatov A. Quduqchasoy qoyatosh rasmlari // Arxeologiya O‘zbekiston. – Samarqand, 2014. – № 2. – 103 b.

8. Xolmatov A. Noqsoy yangi qoyatosh rasmlari. – Toshkent, 2010.

9. Парфёнов Г.В. Наскальная живопись в Зараут-Сае // Правда Востока. – 1941. – № 55.

10. Leroy-Gourhan A. Les religions de la préhistoire (Paléolithique). – Paris: PUF, 1964.

11. Элиаде М. Тайные общества: обряды инициации и посвящения. – М.–СПб.: Университетская книга, 1999.

MANG‘ITLAR DAVRIDA BUXORO AMIRLIGINING HARBIY TIZIM VA ISLOHATLAR

Dusaliyev Muxsin To‘ra o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika institut
Maxmudov Dilshod Abdixalil o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika institut
https://orcid.org/0009-0000-7475-6108

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mang‘itlar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro amirligining harbiy tizimi, uning tarkibiy tuzilishi va boshqaruv xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, amirlikdagi muntazam va nomuntazam qo‘shinlarning shakllanishi, ularning vazifalari, harbiy xizmatni tashkil etish tartibi hamda qo‘shinlarning boshqaruv tizimidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, harbiy tizimning davlat boshqaruvi va siyosiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatiga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘shin, navkariya, qora-cherik, sarbozlar, islohot, bakovulboshi, tug‘i, bayroq, karnaychi, surnaychi, nogorachi, naychi, do‘lchi. To‘pchi navkariya.

ВОЕННАЯ СИСТЕМА И РЕФОРМЫ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В ПЕРИОД ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ

Дусалиев Мухсин Тура угли,
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Махмудов Дилшод Абдихалил оглы,
Шахрисабзский государственный педагогический институт
https://orcid.org/0009-0000-7475-6108

Аннотация. В данной статье анализируется военная система Бухарского эмирата в период правления династии Мангытов, её состав, структура и особенности управления. Особое внимание уделяется формированию регулярных и нерегулярных войск, их функциям, порядку организации военной службы, а также месту воинских подразделений в системе управления эмиратом. Кроме того, рассматривается значение военной системы в обеспечении государственного управления и политической стабильности.

Ключевые слова:Армия, навкария, черно-черик, солдаты, реформа, бакувулбоши, флаг, флаг, трубач, трубач, волынщик, волынщик, горнист. Наводчик — навкария.

MILITARY SYSTEM AND REFORMS OF THE BUKHARA EMIRATE DURING THE MANGIDS' PERIOD

Dusaliev Mukhsin Tura o'g'li
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Makhmudov Dilshod Abdikhalil oglu
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences.
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
https://orcid.org/0009-0000-7475-6108

Abstract. This article analyzes the military system of the Bukhara Emirate during the rule of the Manghit dynasty, with particular attention to its composition, structure, and administrative features. It examines the formation of regular and irregular troops, their functions, the organization of military service, and the role of military units within the emirate's system of governance. The article also highlights the significance of the military system in maintaining state administration and political stability.

Key words: Army, navy, black-cherik, soldiers, reform, bakovulbashi, flag, flag, trumpeter, trumpeter, drummer, flute player, halchi. Artillery navy.

KIRISH: XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklarining ichki va tashqi siyosatida harbiy qo'shin muhim rol o'ynagan. Bu

davrda xonliklarning harbiy tizimi asosan nomuntazam xarakterga ega bo‘lib, ichki tartibsizliklar va tashqi tahdidlarga qarshi samarali kurash olib borish imkoniyatiga ega emas edi. Shu sababli ayrim hukmdorlar, jumladan, Buxoro amirligi hukmdorlari muntazam qo‘shin tuzishga harakat qildilar. Bu islohotlar natijasida muntazam va nomuntazam qo‘shin qismlari shakllandi. Jumladan, Amir Haydar (1800–1826) qo‘shinlarni “navkariya” (muntazam) va “qora-cherik” (nomuntazam) qismlarga ajratgan bo‘lsa, Amir Nasrullo (1827–1860) davrida harbiy islohotlar yanada takomillashtirildi. Ushbu maqolada XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida O‘rta Osiyo xonliklarining, xususan, Buxoro amirligi harbiy tizimi, uning tarkibi, ta’minoti va islohotlar natijalari tahlil etiladi. [1]

ASOSIY QISM: O‘rta Osiyo xonliklarining harbiy tizimiga oid tadqiqotlar ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Mahmud ibn Vali, Ahmad Donish, Mirzo Olim Mahdum Ho‘qandiy kabi tarixchilarning asarlarida ushbu davr harbiy tuzilmalari haqida muhim ma’lumotlar mavjud. Ular o‘z asarlarida xonliklarning harbiy tuzilishi, qo‘shin tarkibi, qurol-yarog‘ bilan ta’minlanishi, harbiy yurishlar va jang taktikalari haqida batafsil ma’lumotlar keltirganlar.Shuningdek, rus olimlari – V.V.Bartold, A.N.Kuropatkin, N.A.Maev kabi tadqiqotchilar Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi jarayonida mahalliy qo‘shinlarning harbiy strategiyasi va taktikasi haqida qimmatli ma’lumotlar berganlar. Ularning asarlarida O‘rta Osiyo xonliklarining harbiy zaif tomonlari, ichki ixtiloflar va tashqi tahdidlarga nisbatan zaifligi batafsil yoritilgan.

Mustaqillik davrida O‘zbekiston tarixshunosligida xonliklarning harbiy tizimiga oid qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, V.Vohidov, A.Zamonov singari olimlar xonliklar harbiy tuzilmasining ijtimoiy-siyosiy asoslari va uning rivojlanish omillari haqida qimmatli ma’lumotlar taqdim etganlar. Ayniqsa Akbar Zamonov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va maqolalar mavzuni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar asosida xonliklar qo‘shinining tarkibi, qurollanishi va harbiy boshqaruvi yanada kengroq ochib berildi.

Ushbu maqolada mavzu bo‘yicha asosiy ilmiy manbalar o‘rganilib, ularning yondashuvlari tahlil qilindi. Tarixiy tadqiqotlarda ilmiy asoslangan asarlar asosida mavzuning dolzarbligi va o‘rganilganlik darajasi baholandi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tahlil va sintez, statistik va tizimli yondashuv kabi metodlardan foydalanildi. Manbalarni tanlashda ularning ilmiy ishonchliligi va yangiligi e’tiborga olindi. Maqsad – mavzuga oid obyektiv va to‘liq tasavvur hosil qilish.

XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida O‘rta Osiyo xonliklarining ichki va tashqi siyosatida, o‘zaro munosabatlarida harbiy qo‘shin muhim ahamiyat kasb etgan. Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, xonliklardagi qo‘shin asosan nomuntazam xarakterga ega bo‘lib, ular ichki va tashqi xavflarni bartaraf etishga qodir emas edi. Bu holatdan

xulosa chiqargan ayrim hukmdorlar o‘z qo‘shinlarining muntazam qismlarini tashkil etishga harakat qildilar. Natijada XIX asr boshlariga kelib, O‘rta Osiyo xonliklari-ning qo‘shini muntazam va nomuntazam qismlardan iborat harbiy kuchga aylandi. Bunday islohotlarni amalga oshirgan hukmdorlardan biri Buxoro hukmdori Amir Haydar (1800-1826) bo‘lib, u mamlakat harbiy kuchlarini ikki qismga ajratdi:

- Muntazam qo‘shin – "navkariya",
- Nomuntazam qo‘shin – "qora-cherik" [2].

"Qora-cherik" deb nomlangan harbiy kuchlarning nomuntazam qismi amirning amri bilan urush paytida tinch aholining orasidan yig‘ilgan. Odatda, harbiy yurishlar haqida bozor maydonlarida xabar berilib, shu joyda "qora-cherik" ro‘yxati tuzilgan. Ular harbiy harakatlar davomida hamda amirlikdagi harbiy qal’alarni himoya qilishda keng qo‘llanilgan. Muntazam qo‘shinning asosini tashkil etgan navkarlar bir qancha imtiyozlarga ega bo‘lgan. Ular oziq-ovqat, pul, kiyim-bosh va otlari uchun yem-xashak bilan ta’minlangan. Shuningdek, o‘z yeriga ega bo‘lgan navkarlar amir buyrug‘i bilan soliqlardan ozod etilganlar [3].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: XIX asr 30-yillarida Buxoro qo‘shining umumiy soni 19 000 askarni tashkil etgan. Ushbu qo‘shinga: Buxoro viloyatidan – 12 000 askar, Samarqanddan –2 500 askar, Qarshidan – 2 500 askar, Maimanadan – 1 000 askar, Qorako‘ldan – 1 000 askar yetkazib berilgan. Amir Nasrullo (1827-1860) davrida muntazam qo‘shin islohoti davom ettirildi. 1837-yilda u muntazam qo‘shin tarkibiga sarbozlar va to‘pchilarni qo‘shdi. Boshlang‘ich tarkibni asosan asirlar tashkil etgan bo‘lib, ulardan 800 nafari piyoda askarlik – sarbozlikka, 250 nafari esa artilleriya qo‘shinlari safiga qabul qilingan.Buxoro shahar devori tashqarisida, O‘g‘lon va Talipoch darvozalarining orasida har bir sarbaz va to‘pchining oilasi uchun uy qurib berilib, "Sarbozxona" nomi bilan mashhur bo‘lgan harbiy manzil tashkil etildi [4].

XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklarida muntazam harbiy islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ichki nizolar va markazlashuvning yetishmasligi sababli bu islohotlar izchil davom ettirilmagan. Amir Nasrullo Buxoro amirligida qo‘shinlarning doimiy yashash manzillarini tashkil etishga harakat qilgan. Bu tadbirning maqsadi qo‘shinning samarali tashkil etilishi va harbiy birliklarning shahar tashqarisida o‘z oilalari bilan yashashini ta’minlash edi. Natijada, Buxoro shahri yaqinida 800 kishidan iborat doimiy harbiy manzillar, “Sarbozxona” nomi bilan mashhur joylar tashkil topdi. Qo‘shin ta’minoti tizimi aniq belgilangan bo‘lib, askarlarning maoshi turli lavozimlar va xizmat ko‘rsatish shartlariga qarab farqlangan. Qo‘shinlar nafaqat harbiy ta’minot, balki ma’lum ehtiyojlar uchun savdogarlar, ishchilar va mardikorlar bilan ham ta’minlangan.Bundan tashqari, harbiy harakatlar davomida Amir Nasrullo qo‘shinning moddiy ta’minotini

kuchaytirish uchun ko‘plab strategiyalarni amalga oshirdi. Misol uchun, harbiylarning ko‘chma qo‘rxonalariga, aravalar va tuyalar orqali yurgiziladigan qo‘shimcha harbiy texnikalarga ajratilgan mablag‘lar orqali qo‘shin samaradorligi ta’minlandi. Harbiylar uchun qurollar va kiyimlar taqsimoti muntazam ravishda amalga oshirildi, bu esa harbiy tizimning mustahkamlanishiga yordam berdi. Buxoro amirligida harbiy qurollar zamonaviy va murakkab edi, ammo ba’zi texnikalar noto‘g‘ri foydalanish tufayli xavf tug‘dirgan.Buxoro amirligi harbiy tizimi, boshqa O‘rta Osiyo xonliklaridagi qo‘shinlarga o‘xshash holda, yuqori darajada tashkil etilgan edi [5]. Shunday qilib, qo‘shinlar harbiy harakatlar, jangovar tayyorgarlik va askarlarning har bir ehtiyojiga javob beradigan tizimlar orqali ta’minlangan. Masalan, Amir Nasrullo tomonidan joriy etilgan qo‘shin moddiy ta’minotiga ko‘ra, Buxoro amirligi qo‘shinlarining oliy amaldori – qo‘shinning bosh qo‘mondoni daromadi yiliga 2000 tillani tashkil etgan bo‘lsa, yuzboshi oyiga 6 tilla, qorovulbegi 4,5 tilla, panjboshi 85 tanga, uning yordamchisi – panjboshi-xurd esa 50 tanga miqdorida maosh olgan [6]. Ushbu ma’lumotlarning ko‘pchiligida qullarning ozodlikka chiqarilishi va mahbuslarga ma’lum imtiyoz berilishi evaziga qo‘shin miqdori kengaytirilganligi keltiriladi. Bu holat bir tomondan, qo‘shinni kengaytirish imkonini yengillashtiradi va ularning ish kuchi arzon baholanganligi bilan amir xazinasiga yirik miqdorda ta’sir ko‘rsatmaydi. Ikkinchi tomondan, sobiq jinoyatchilar va qullardan tashkil topgan bo‘linmalar harbiy xizmatni sidqidildan o‘tamagan va ularda vatanparvarlik ruhi deyarli shakllantirilmagan.

Amirlikdagi olomon, galabotir (qora cherik) singari nomuntazam qo‘shin askarlariga ham moddiy ta’minot belgilangan bo‘lib, ular yiliga 6 tilla maosh, pichan uchun 1 tilla hamda 5 botmondan jo‘xori va bug‘doy bilan ta’minlangan. Bundan tashqari, harbiy harakatlar davrida mansabidan qat’i nazar, har kuni harbiylarning barchasiga amir xazinasidan 1 tilladan ustama puli berib borilgan [7].

Harbiy harakatlar davrida yarador bo‘lgan sipohiylarga ham amirning farmoyishi asosida alohida mablag‘ ajratilgan bo‘lib, bu pullar evaziga askar tabiblarga murojaat etishi mumkin bo‘lgan. Lekin qo‘shinning maoshi miqdori boshqa soha vakillarinikiga nisbatan kamroq bo‘lgan. Bu holatni jadid allomasi Fitrat shunday tavsiflaydi: «… sarbozlar oyiga 20 tanga maosh olgan. Sarboz bo‘lmagan kezlarda, ya’ni hammollik qilsa, kuniga 5 tilla ishlab olgan, shunda bir oylik daromadi 150 tillani tashkil qilgan. Ba’zida jinoyatchilar jazo chorasi tariqasida sarbozlikka yuborilgan».Bu davrda qo‘shin ta’minotining ko‘rinishi Xiva va Qo‘qon xonliklarida ham Buxoro amirliginiki bilan deyarli bir xil bo‘lgan.

Buxoro bilan yaqin munosabatda bo‘lgan boshqa davlatlarda — Eron, Hindiston va Usmonlilar davlatida qo‘shin tuzish nizomlari hamda uning ta’minoti XVI–XVII asrlarda xalqlarimiz harbiy san’ati bilan hamohang tarzda rivojlangan

bo‘lsa-da, Yevropa davlatlari bilan to‘qnashuvlarning yuzaga kelish zaruriyatlaridan kelib chiqib, O‘rta Osiyo xonliklarining harbiy tizimidan ildamlab ketgan edi.Yangi tashkil etilgan muntazam qo‘shin amirning mablag‘i evaziga har uch yilda doimiy harbiy kiyim bilan ta’minlab turilgan [8]. Qo‘shin rahbarlaridan tortib, oddiy askarlarga xazinadan yangi kamzullar, shim va qalpoq berilgan. Harbiy kiyim taqsimoti bilan bog‘liq mazkur tadbirlarga bakovulboshi lavozimidagi shaxs mas’ul bo‘lgan Buxoro amirligi o‘z harbiy tug‘i — bayrog‘iga ega bo‘lgan. Rus olimi va sayyohi E.K.Meyendorf amirlikdagi ponsadboshi 500 kishilik qo‘shin «bayroq» deb atalgan kichik bayroq bilan jangga kirganligini, mingboshi yonida esa «tug‘» deb atalgan katta bayroq ko‘tarilib turishini yozadi. To‘qsabo lavozimidagi shaxs esa harbiy harakatlar chog‘ida amir bayrog‘ini ko‘tarib yurgan. Jang paytida tug‘ va bayroqlarning ahamiyati katta bo‘lib, u qo‘shinning o‘z sarkardalari joylashuvi, marralar egallanganligini (yoki aksincha), o‘z safdoshlarini ajrata olish va chekinish alomatlarini anglab olishiga ko‘maklashgan. Bundan tashqari, tug‘ning ko‘tarilishi hamda askarlar boshi uzra ildamlab borishi qo‘shinning ruhini ko‘targan va vatanparvarlik hissini kuchaytirgan.Buxoro qo‘shinlarida doimiy musiqachilar ham bo‘lgan, ular karnaychi, surnaychi, nog‘orachi, naychi, do‘lchi va boshqalardan iborat bo‘lgan. Qo‘shin sozandalari mamlakat hukmdorining harbiy yurishi boshlanganidan darak berar, qo‘shinning harakati va g‘alabalarini tantanavor tusda aholiga bildirishga xizmat qilardi. Amir Nasrulloning muntazam qo‘shinida harbiy musiqachilar mavjud bo‘lib, har 100 kishilik dastada 2 ta nogorachi va 2 ta surnaychi xizmat qilgan. Shuningdek, sarboxtar batalonida 2 nafar nog‘orachi va 4 nafar karnaychi bo‘lgan. To‘pchilar qismida esa 6 nafar karnaychi bo‘lgan.O‘rta asr harbiy san’ati haqida ma’lumki, har bir musiqa asbobining o‘z vazifasi bo‘lgan. Xususan, harbiy harakatlar jarayonida karnayning chalinishi — qo‘shinning bir joyga yig‘ilishini anglatgan. Bundan tashqari, do‘l va nog‘oralar askarlarning ruhini ko‘tarishga, zavqini oshirishga, qo‘rquvni yengishga va vatanparvarlik hissini kuchaytirishga xizmat qilgan [9]. Rossiya imperiyasi istilosidan keyin harbiylikka o‘tish, sarboz bo‘lish faxrli kasb bo‘lmasdan, ba’zan jinoyat uchun jazo sifatida qarala boshlangan. Bu haqda Abdurauf Fitrat quyidagi fikrlarni yozadi: «Taraqqiy etgan davlatlarda harbiy xizmat muddati 3-4 yil bo‘lsa, Buxoroda bir umrlik edi. O‘g‘ri va qotillarni qamoq yoki qatlga jo‘natish o‘rniga sarbozlikka yuborilar edi» [10].

XULOSA: XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘rta Osiyo xonliklarida qo‘shinlarning tashkil etilishi va rivojlanishi ichki va tashqi siyosatda muhim ahamiyat kasb etdi. Dastlab, qo‘shin asosan nomuntazam xarakterga ega bo‘lib, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi yetarlicha samarali bo‘la olmagan. Shunga ko‘ra, ayrim hukmdorlar muntazam qo‘shin qismlarini tashkil etishga

harakat qildilar. Buxoro amirligi misolida muntazam qo‘shin islohoti Amir Haydar va Amir

Nasrullo davrida izchil amalga oshirildi. Qo‘shin "navkariya" (muntazam) va "qora-cherik" (nomuntazam) qismlarga ajratilgan bo‘lib, askarlar uchun moddiy ta’minot, harbiy tartib-intizom va joylashuv tizimi ishlab chiqildi.

XIX asr boshlarida Buxoro qo‘shini ancha kuchaygan bo‘lsa-da, markaziy hokimiyatning zaifligi va ichki ziddiyatlar harbiy tizimning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Amir Nasrullo qo‘shinning doimiy yashash manzillarini barpo etish, moddiy ta’minot va harbiy texnika bilan ta’minlash choralarini ko‘rdi. Biroq, harbiy xizmat ko‘pchilik uchun ixtiyoriy emas, balki majburiy xarakterga ega bo‘lib, jinoyatchilar uchun jazo usuliga aylangan. Rossiya imperiyasi istilosidan keyin esa, harbiy xizmat o‘zining avvalgi nufuzini yo‘qotdi. Shu tariqa, XIX asrda amalga oshirilgan harbiy islohotlar qo‘shinlarni nisbatan kuchaytirgan bo‘lsa-da, ichki nizolar va zamonaviy harbiy tizimlarning yo‘qligi sababli O‘rta Osiyo xonliklari mustahkam mudofaa tizimini yaratishda muvaffaqiyatga erisha olmaganligini ilmiy tadqiqotlarda ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Eshov B. O‘zbekistondagi mahalliy boshqaruv tartibi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 352 b.

2. Sagdullayev A., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2006. 124-bet.

3. Krestovskiy V.V.V gostyakh u bukharskogo emira. SPb., 1887. 104 — 105-betlar.

4. Logofet D. N. Bukharskoe khanstvo pod russkim protektoratom. SPb., 1911. 242-bet.

5. Zapiski o Bukharskom khanstve (Otchety P. I. Demezona i I. V. Vitkevicha). – M.: Nauka, 1983. 71-bet.

6. A. Zamonov. XVIII—XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligida harbiy boshqaruv va qo‘shin tuzilishi O‘zbekiston tarixi jurnali. – Toshkent – 2014-yil 1-son. 8-bet.

7. Xoliqulov A. B. XIX—XX asr boshlarida Qashqadaryo bekliklari. Tarix fan. nomz. dis. – Toshkent: UzMU, 2011. 123-bet.

8. Lunyov B. V. Istoriya Uzbeksitona v istochnikakh (razdel Vamberi A. P. Puteshestviye po Sredney Azii). – Toshkent: Fan, 1990. 157-bet.

9. Muhammad Hakimxon To‘ra . Muntakhab at-tavariyh / Fors-tojik tilidan tarjima, muqaddima, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Sh. Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. 468-bet.

10. Sodiqov H. Amir Temur davridagi xavfsizlik xizmati. – Toshkent: Sharq, 2010.

MUQADDAS QADAMJO VA ZIYORATGOHLAR TARIXINI O‘RGANISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING AHAMIYATI

Jumayeva Shoira Berdiyarovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarini o‘rganishda manba sifatida ahamiyati tahlil etilgan. Asosan, Toshkent viloyati muqaddas qadamjo va ziyoratgohlari misolida mavzu yoritib berilgan. Mavzuni yoritishda muallif tomonidan olib borilgan dala tadqiqotlari materiallaridan keng foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: Afsona, rivoyat, Toshkent viloyati, muqaddas qadamjo, ziyoratgoh, meros, ziyorat, marosim, yosh avlod, mentalitet, og‘zaki tarix, toponimika, asotir, avliyo, tarbiya.

ЗНАЧЕНИЕ ПРИМЕРОВ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ СВЯТОГО СТУПЕНЧАТОГО МЕСТА И МЕСТ

Джумаева Шоира Бердияровна
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация: В статье проанализировано значение образцов устного народного творчества как источника при изучении священных мест и места паломничество, В основном тема раскрыта на примере священных мест и святынь Ташкентской области. При освещении темы автор широко использовал материалы полевых исследований.

Ключевые слова: легенда, предание, Ташкентская область, священное место, место паломничество, наследие, паломничество, обряд, молодое поколение, менталитет, устная история, топонимика, миф, авлия, воспитание.

THE IMPORTANCE OF EXAMPLES OF FOLK ORAL CREATION IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE HOLY STEP AND SITES

Jumayeva Shoira Berdiyarovna
Chirchik State Pedagogical University

Annotation: The article analyzes the significance of samples of oral folk art as a source in the study of sacred pilgrimage sites and shrines. The topic is mainly illustrated through the example of sacred sites and shrines of the Tashkent region. In covering the subject, the author widely used materials from field research.

Keywords: legend, tale, Tashkent region, sacred site, shrine, heritage, pilgrimage, ritual, younger generation, mentality, oral history, toponymy, myth, saint, upbringing.

KIRISH: O‘zbek xalqining milliy ma’naviy merosi va mentalitetida o‘ziga xos o‘rinni egallovchi ziyoratgohlar va ular bilan bog‘liq an’analar ayni paytda insoniyat madaniyatining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Ziyoratgohlar asrlar davomida har bir xalqning tarixi va urf-odatlarini, diniy qarashlari hamda milliy ruhiyatini aks ettirish bilan bir qatorda insoniyat tarixidagi qonli urushlar, tabiiy ofatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ziyoratgohlar milliy va ma’naviy tarixiylik negizidagi ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega e’tiqod markazlaridir.

ASOSIY QISM: Ziyoratgohlar tarixiga oid manbalarni bir necha guruhga bo‘lish mumkin: xalq og‘zaki ijodi – afsona, rivoyat va asotirlar, sayohatchilar kundaliklari, arxeologik tadqiqotlar va tavsifiy nashrlar. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixi, ular bilan bog‘liq tasavvurlar, avliyolar va ularning faoliyati to‘g‘risida asrlar davomida avlodlardan avlodlarga meros tarzida o‘tib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi namunalari muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, nafaqat ziyoratgohlar tarixi, balki O‘zbekiston tarixiga oid arablar istilosiga qadar bo‘lgan ijtimoiy-maishiy hayotga doir qo‘lyozma manbalar juda kam. Buning sababi Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida quyidagicha izohlanadi: “Arab xalifaligining sharqiy viloyatlar bo‘yicha noibi Ibn Qutaybaning maxsus buyrug‘i bilan yerli aholining boy yozma merosi va san’at asarlari har bir shaharning bozor maydoniga yig‘ilib, yoqib yuborilgan” [1].

Xalq og‘zaki ijodi namunali xalq turmush tarziga yaqin bo‘lib, xalqning o‘tmishi, e’tiqodi va tasavvurlarini aks ettiruvchi, xalqona qarashlar asosida vujudga kelganligi sababli ham asrlar davomida xalq xotirasida yashab kelmoqda. Shuningdek, mazkur xalqona qarashlar asosida yaratilgan afsona va rivoyatlar muhim etnografik va tarixiy manba vazifasini bajaradi. Chunki xalq orasida tarqalgan rivoyat va afsonalar muayyan ziyoratgohning kimga tegishli ekani, uning muqaddaslik maqomiga erishish sabablari, shu joy bilan bog‘liq karomatlar va mo‘jizalar haqida tasavvurlarni shakllantiradi. Bunday ma’lumotlar ko‘pincha tarixiy voqelik bilan mifologik qarashlarning uyg‘unlashuvi asosida shakllangan bo‘lib, ular orqali jamiyatning diniy dunyoqarashi, e’tiqodiy qarashlari va ma’naviy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi ziyoratgohlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ochib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ko‘plab ziyoratgohlar haqidagi afsona va rivoyatlarda ularning shifobaxsh xususiyatlari, ezgu niyatlarni ro‘yobga

chiqaruvchi muqaddas maskan sifatida talqin qilinishi kuzatiladi. Bu esa ziyoratgohlarning nafaqat diniy, balki psixologik va ijtimoiy vazifalarni ham bajarganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, xalq og‘zaki ijodi orqali muqaddas joylarning sakrallashuv jarayonini kuzatish mumkin. Ya’ni ma’lum bir tarixiy shaxs, tabiiy obyekt yoki voqea vaqt o‘tishi bilan xalq ongida muqaddaslashtirilib, u bilan bog‘liq turli rivoyatlar yuzaga keladi. Natijada mazkur hudud ziyorat ob’yektiga aylanib, xalqning ma’naviy hayotida alohida o‘rin egallay boshlaydi.

Afsona, asotir va rivoyatlar xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo‘lib, voqelikni anglash, tushunishga qaratilgan tushuncha va tasavvurlari mujassamlashgan voqea va hodisalar badiiy to‘qima asosida hikoya qiladi. Afsonada insonning dunyoqarashi, turmush tarzi, urf-odatlari va tarixiy hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etadi. Jumladan, arablar istilosi natijasida Toshkent vohasiga islom dinining kirib kelishi va mahalliy ziyoratgohlar hamda ziyorat marosimlarining islom aqidalari bilan simbiozi yuz beradi. Ya’ni, barcha qadamjo va ziyoratgohlar Qur’oni Karimda nomlari zikr qilingan payg‘ambarlar, sahobalar, xalifalar nomlari bilan bog‘liq holda talqin etila boshlangan. Jumladan, nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo hududida Hazrat Ali nomi bilan bog‘liq qadamjolar keng tarqalgan bo‘lib, xalqona qarashlarda, afsonalarda mazkur ziyoratgohning vujudga kelishi Hazrati Ali nomi bilan bog‘lanadi. Jumlфdan, O‘rta Osiyo xalqlari islomning dastlabki davridan boshlab qayerda ot tuyog‘iga o‘xshash o‘nqir-cho‘nqir joylar bo‘lsa, bu izlarni Hazrat Ali Duldilining izi sifatida talqin etilib, mazkur joy bilan bog‘liq ko‘plab afsonalar yaratilgan. Duldul bilan bog‘liq joylar to‘g‘risida H.Hasanov quyidagi ma’lumotlarni keltirgan:“Amudaryoning Xorazmga kiraverishida, suvning ikki qirg‘ogida Duldul o‘tlagan degan qoyatoshlar ko‘rinib turadi. Ayni shu nomli qirg‘oqlar Kofirnixon daryosida ham, O‘zbekiston va Tojikiston chegarasiga yaqin Xonaqo qishlog‘i yonida ham bor. Bular afsonaviy uchar Duldul sharafiga atalgan” [2]. Shuni ta’kidlash lozimki, Hazrat Ali va ota Duldul bilan bog‘liq qadamjolarni Osiyo mintaqasi bo‘ylab uchratish mumkin. Masalan, Tojikistonning Hisor tumanidagi Jonbuloq qishlog‘ida ham “Poyi Duldul” deb ataluvchi mozor mavjud bo‘lib, u qishloq aholisining ziyoratgohi hisoblanadi. Hatto Xitoyning g‘arbiy qismidagi Uch Turfonda ham hazrat Alining dulduliga bag‘ishlangan mozor mavjud [3]. Ammo, tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Hazrati Ali Markaziy Osiyo hududiga tashrif buyurmagan. Shuni ta’kidlash joizki, Toshkent viloyatidagi Hazrati Masjid Ali, Axtam Sahoba, Zarkent ota, Payg‘ambar ota, Qadamjo va Ikrima ota kabi ziyoratgohlari bilan bog‘liq afsonalarda keltirilgan shaxslarning yurtimizda bo‘lganligi to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar mavjud emas.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Rivoyat – nomoddiy madaniy meros namunalaridan biri bo‘lib, asosan og‘zaki hikoya qilinib, ajdodlardan avlodlarga

xalq xotirasi orqali o‘tib kelgan. Rivoyatda biror tarixiy voqea, hodisalar badiiy to‘qima vositasida yoritib berilgan. Tuzilishiga ko‘ra hajman qisqa, an’anaviy shaklga ega bo‘lmagan asar hisoblanadi. Rivoyat bilan afsonaning farqli jihati shuki, rivoyatlarda afsonaga nisbatan tarixiylik ustunlikka ega bo‘lsa, afsona esa rivoyatlarga nisbatan fantastik bo‘yoq va diniy elementlarga boy bo‘ladi. Rivoyatlarni mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Tarixiy;
2. Toponimik.

Jumladan, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixi bilan bog‘liq afsonaviy qahramonlar, islom dini bilan bog‘liq sahobalar, avliyolar hamda tasavvuf ta’limoti namoyondalari bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarni aks ettirib, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etuvchi rivoyatlar tarixiy rivoyatlar hisoblanadi. Zangi ota, Shoabdumalik bobo, Shayx Umar Vali singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir. Tarixiy rivoyatlarni u yoki bu tarixiy shaxs yoki voqealar guvohi bo‘lganlarning, ko‘rgan-bilganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Avliyolar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq tarixiy rivoyatlar o‘zbek xalqi og‘zaki ijodida keng tarqalgan bo‘lib, ular yoshlar tarbiyasida keng foydalaniladi.

Xalqona qarashlarda avliyolarga nisbatan Allohning do‘stlari, azizlar, karomat sohiblari, mardi xudo, valiyulloh, ahlulloh, mardon, ahli dil, orif, darveshlar singari sifatlar berilgan. Rivoyatda keltirilishicha: “Bir kuni Hazrati Muhammad Mustafo sallallohi alayhi vasallam bunday marhamat qilgan edilar: “Qiyomat kuni gunohkor banda o‘zining fe’lidan xijil va sharmanda bo‘lib, jannatdan umidini uzgan mahalda Haq taolodan shunday xitob keladi: “Ey bandam, yorug‘ dunyoda falon olim yoki falon orifni tanirmiding?” Banda: “Ha tanir edim”, – deb javob beradi. Shunda Haq taolo: “Jannatga borg‘il, seni unga bag‘ishladim”, – deydi. Bas, Xudoning do‘stlari – oriflari, aziz-avliyolarni tanish, ularga ergashmoq, ulardan bahra olib yashamoq, qiyomatda najot topish uchun sabab bo‘lar ekan”. Xudoning do‘stlariga ko‘ngilda mehr-muhabbat saqlash, ularning qiliqlarini o‘zlashtirmoq, ularning fe’lu tutumlariga taqlid qilmoq juda fazilatli va foydalidir [4].

Avliyolar bilan bog‘liq qarashlar xalqimizning kundalik turmush tarziga ham chuqur singib ketgan. Jumladan, avliyolar xalq og‘zaki ijodi namunalari va yozma manbalarda mo‘jizalar yaratuvchi, turli kasblar, dehqonchilik va chorvachilik homiysi (piri), insonlar hayotiga ta’sir qiluvchi cheksiz qudrat egasi sifatida tasvirlangan [5].

Muqaddas qadamjo, ziyoratgohlar hamda maqbaralar nomi ularning paydo bo‘lish tarixi to‘g‘risida hikoya qiluvchi rivoyatlar toponomik rivoyatlar hisoblanadi. Jumladan, Toshkent viloyatidagi mashhur Zangi ota ziyoratgohining

bunyod etilish tarixi biror yozma manbada to‘liq aks etmagan bo‘lsa-da, mazkur ziyoratgoh bunyod etilishi bilan bog‘liq rivoyat bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan. Shuningdek, Bekobod tumani Taqachi qishlog‘ida joylashgan o‘rta asrlarga me’morchiligiga oid Qizil mozor ziyoratgohi rivoyatga ko‘ra Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan bunyod etilgan. Mazkur ziyoratgohning kim tomondan va qachon bunyod etilganligini biror yozma manbada aks etmagan [6].

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixi o‘ziga xos, bir-birini takrorlamaydigan afsona va rivoyatlarga boy bo‘lib, asosan, diniy hissiyotlarni shakllantirish hamda yosh avlodni halollik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Muqaddas joylar, yer, suv, hayvonlar, o‘simliklar hamda avliyolar kulti bilan bog‘liq xalqona qarashlar, afsona va rivoyatlar, tabobat sirlari odamlar ongida saqlanib, asosan, og‘zaki holatda saqlanadi va quyidagi yo‘llar bilan avlodlarga uzatiladi:

a) kundalik oilaviy (umumiy) aloqa orqali;

b) an’anaviy “ustoz-shogird” tizimi orqali;

c) qadimiy usul, ya’ni o‘zaro muloqot va o‘rgatish orqali.

Shu bilan birga, qadamjo va ziyoratgohlarning tarixi bilan bog‘liq rivoyatlar, afsonalarning har biri ma’lum bir tuman, qishloq hamda mahallalarda yashovchi aholining an’anaviy turmush tarzi hamda diniy tasavvurlarini ifodalovchi manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Har bir hududning tarixini, afsona va rivoyatlarini yaxshi biluvchi kayvoni va oqsoqollari bo‘lib, ular an’anaviy qadriyatlarni keyingi avlodlarga yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Afsuski, so‘nggi yillarda bunday insonlar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, afsona, asotir va rivoyatlarni yig‘ish hamda arxiv fondlarida saqlash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixini aks ettiruvchi, ularning kelib chiqishi, shakllanishi va xalq ongida tutgan o‘rnini yorituvchi muhim ma’naviy-tarixiy omil hisoblanadi. Ushbu manbalar orqali nafaqat ziyoratgohlar tarixi, balki xalqning diniy e’tiqodi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari ham tadqiq etiladi. Shu boisdan muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni ilmiy o‘rganish jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalarini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ёрматов И. “Илоқ тарихи”. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2005. – Б. 8.

2. Хасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т., 1965. – Б. 27.

3. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки центрального Тян-Шаня и Памиро-Алая. Материалы и иследования по археологии. – М.Л.: Наука, 1952. – С. 226.

4. Остонақулов И. “Авлиёлар султони”, “Туронлик валийлар”. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2004. – Б. 18.

5. Кныш А.К. “Что в имени?” Определение суфизма как эпистемологическая и идеологическая проблема // Суфизм и мусулманская духовная традиция: тексты, институты, идеи и интерпретации, 2015. – С. 165.

6. Ашрафхўжаев ва бошқ. Ҳазрати Занги ота ва Соҳибқирон Амир Темур. – Т.: “Наврўз”, 2017. – Б. 16.

7. Jumayeva S.B. Toshkent viloyati ziyratgohlari: rivojlanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: “ILM ZIYO ZAKOVAT”, 2023. – 168 b.

NOMODDIY MADANIY MEROSNI SAQLASHDA TA’LIM TIZIMINING AHAMIYATI

O.M.Xayritdinov,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy
madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada nomoddiy madaniy merosni saqlashda ta’lim tizimining roli YUNESKO tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar hamda amalga oshirilgan xalqaro loyihalar asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ta’lim tizimi nomoddiy merosni uzatish, madaniy o‘zlikni shakllantirish va uni zamonaviy sharoitda rivojlantirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: nomoddiy madaniy meros, globallashuv, saqlash, ta’lim, uzatish, YUNESKO

ВАЖНОСТЬ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В СОХРАНЕНИИ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

О.М. Хайритдинов,
Научно-исследовательский институт культурологии и
нематериального культурного наследия

Аннотация. В данной статье на основе нормативных документов, принятых ЮНЕСКО, и реализованных международных проектов всесторонне анализируется роль системы образования в сохранении нематериального культурного наследия. Результаты исследования показывают, что система образования играет важную роль в передаче нематериального наследия, формировании культурной идентичности и ее

развитии в современных условиях.

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, глобализация, сохранение, образование, передача, ЮНЕСКО

THE IMPORTANCE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE PRESERVATION OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE

O.M.Khayritdinov,
Scientific Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage

Annotation. This article comprehensively analyzes the role of the education system in the preservation of intangible cultural heritage based on normative documents adopted by UNESCO and implemented international projects. The results of the study show that the education system plays an important role in the transmission of intangible heritage, the formation of cultural identity and its development in modern conditions.

Keywords: intangible cultural heritage, globalization, preservation, education, transmission, UNESCO

KIRISH: XXI asrda globallashuv jarayonlari insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lib, u iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda ko‘plab o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, madaniy makonda yuz berayotgan o‘zgarishlar natijasida milliy o‘ziga xoslikni ifodalovchi qadriyatlar, jumladan nomoddiy madaniy meros elementlari sezilarli darajada o‘zgarishga uchramoqda. Shu nuqtayi nazardan, nomoddiy madaniy merosni saqlash masalasi nafaqat madaniyatshunoslik, balki antropologiya va ta’lim sohasida ham dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

YUNESKO tomonidan 2003-yilda qabul qilingan Konvensiya nomoddiy madaniy merosni “jamiyatlar, guruhlar va ayrim hollarda shaxslar tomonidan o‘z madaniy merosining ajralmas qismi sifatida tan olinadigan amaliyotlar, ifodalar, bilimlar va ko‘nikmalar majmui” sifatida belgilaydi. [1,2] Ushbu ta’rif nomoddiy merosning o‘zgaruvchanlik xarakteriga ega ekanligini, ya’ni u har bir tarixiy davrda qayta yaratilishini va yangilanib borishini ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM: Mazkur jihat nomoddiy merosni saqlashda an’anaviy saqlash usullarining yetarli emasligini ko‘rsatadi. Chunki moddiy merosni muzeylarda saqlash mumkin bo‘lsa, nomoddiy meros faqat ijtimoiy amaliyot orqali yashaydi. Shu sababli uning asosiy saqlash mexanizmi sifatida transmissiya, ya’ni avloddan- avlodga uzatish jarayoni ko‘riladi. YUNESKO Konvensiyasida aynan ta’lim tizimi ushbu jarayonning markaziy komponenti sifatida ko‘rsatiladi [1.3].

Ko‘pgina Ilmiy adabiyotlarda ham bu masala keng yoritilgan. Masalan,

Richard Kurin nomoddiy merosni “amaliyot orqali yashovchi jarayon” sifatida ta’riflab, uning saqlanishi faqat uzatish orqali mumkinligini ta’kidlaydi [2]. Bu esa nomoddiy merosni saqlashda rasmiy va norasmiy ta’limning o‘rnini qanchalik ahamiyatli ekanligini ochib beradi.

Bundan tashqari, Jan Assmann madaniy xotira nazariyasida ijtimoiy xotiraning uzluksizligi aynan uzatish mexanizmlari orqali ta’minlanishini ta’kidlaydi [3.37]. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim tizimi nafaqat bilim beruvchi institut, balki madaniy xotirani saqlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotda kompleks tarzda bir necha metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodlari bir-birini to‘ldiruvchi tarzda tanlanib, muammoni har tomonlama yoritishga xizmat qildi.

Avvalo, normativ-huquqiy tahlil metodi asosida YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2003-yilgi Konvensiya hamda unga bog‘liq strategik hujjatlar o‘rganildi. Ushbu metod orqali ta’lim tizimining nomoddiy merosni saqlashdagi o‘rni rasmiy hujjatlar darajasida aniqlashtirildi.

Keyingi bosqichda komparativ metod qo‘llanilib, turli mintaqalarda amalga oshirilgan YUNESKO loyihalari o‘zaro solishtirildi. Xususan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida amalga oshirilgan dasturlar tahlil qilinib, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlandi.

Bundan tashqari, nomoddiy madaniy meros sohasi bilan shug‘ullangan bir qancha olimlar, jumladan Pierre Bourdieu, Laurajane Smith va Stuart Hall asarlari o‘rganildi. Bu orqali ta’lim va nomoddiy meros o‘rtasidagi nazariy bog‘liqlik ochib berildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim tizimi nomoddiy madaniy merosni saqlashda ko‘p qirrali va yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan soha hisoblanadi.

Birinchidan, ta’lim tizimi o‘tkazuvchi vazifasini bajaradi. YUNESKO Konvensiyasida qayd etilganidek, nomoddiy merosni saqlashning asosiy shakli uning uzatilishidir [1.3]. Bu jarayon orqali an’anaviy bilimlar, urf-odatlar va madaniy amaliyotlar avloddan avlodga yetkaziladi. Bu fikrni Jan Assmann ham qo‘llab-quvvatlab, madaniy xotira faqat uzatish orqali mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi [3].

Ikkinchidan, ta’lim tizimi identifikatsiya vazifasini bajaradi. Ta’lim orqali yosh avlod o‘z madaniyat tarixini o‘rganadi uning ahamiyatini shu orqali tushunadi va anglay oladi. Bu esa milliy o‘zlikni shakllantirishda ham ahamiyatlidir. Stuart Hall fikricha, identifikatsiya jarayoni tarixiy madaniy tasvirlar orqali shakllanadi [4.225], bu esa ta’limning ushbu jarayondagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ta’lim tizimi innovatsion rivojlanish funksiyasini bajaradi.

Nomoddiy meros statik emas, balki doimiy ravishda yangilanib boradi. Laurajane Smith ta’kidlaganidek, meros bu jarayon bo‘lib, u zamonaviy sharoitda qayta yaratiladi [5.83]. Ta’lim tizimi ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.

To‘rtinchidan, ta’lim tizimi ijtimoiy integratsiya funksiyasini bajaradi. Ta’lim orqali jamiyat umumiy madaniy qadriyatlar asosida birlashadi, bu esa madaniy xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi.

YUNESKO loyihalari ham ushbu natijalarni tasdiqlaydi. Masalan, “Learning with Intangible Cultural Heritage” loyihasi ta’lim jarayoniga meros elementlarini integratsiya qilish o‘quv jarayonining sifatini oshirishini ko‘rsatdi [6.12].

Olingan natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim tizimi nomoddiy madaniy merosni saqlashda markaziy va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan institut hisoblanadi. Bu jarayonni chuqurroq tahlil qilish uchun uni nazariy yondashuvlar bilan bog‘lash muhimdir.

Bundan tashqari, Laurajane Smith merosni ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilib, uni zamonaviy dunyoda qayta talqin qilish zarurligini ta’kidlaydi [5.83]. Bu esa ta’lim tizimining innovatsion ushbu jarayondagi ahamiyatining muhimligini asoslaydi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, nomoddiy merosni saqlashda rasmiy va rasmiy bo‘lmagan ta’limning integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. YUNESKO loyihalari ham aynan ushbu modelning samaradorligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston sharoitida nomoddiy madaniy meros elementlarini ta’lim tizimiga integratsiya qilishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Buni avvalo yuritimidagi nomoddiy meros elementlarining turi tumanliligi hamda mahalliy xususiyatlari ham bir biridan farqlanishida aks etishini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston ta’lim tizimida NMMni integratsiya qilish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Avvalo globallashuv jarayonlari natijasida milliy qadriyatlarning yo‘qolib borish xavfi mavjud. Bunda zamonaviy ta’lim ko‘proq universal bilimlarga yo‘naltirilgani sababli, mahalliy madaniy elementlar yetarli darajada aks etmay qolmoqda. Shuningdek, yoshlarning milliy an’analarga qiziqishini oshirish uchun mazkur bilimlarni tizimli tarzda o‘rgatish muhimdir. Ta’lim orqali nomoddiy madaniy merosni uzatish jarayoni madaniy qadriyatlarni saqlash bilan bir qatorda jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

XULOSA: Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlillar, normativ-huquqiy hujjatlar va nazariy yondashuvlar ta’lim tizimi nomoddiy madaniy merosni saqlash jarayonida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko‘rsatadiki, nomoddiy madaniy meros o‘zining tabiati jihatidan statik emas, balki doimiy ravishda yangilanib boruvchi, ijtimoiy amaliyotlar orqali yashovchi murakkab madaniy hodisadir. Shu sababli uni saqlash an’anaviy saqlash

usullari bilan emas, balki uzluksiz uzatish va qayta ishlab chiqish jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Aynan ushbu jarayonda ta’lim tizimi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

YUNESKO tomonidan qabul qilingan Konvensiya va amalga oshirilgan xalqaro loyihalar ham ushbu xulosalarni to‘liq tasdiqlaydi. Xususan, ta’lim tizimini nomoddiy merosni saqlashning asosiy vositasi sifatida belgilash orqali YUNESKO ushbu jarayonni institutsional darajada mustahkamlab berdi. Shuningdek, nomoddiy madaniy merosni samarali saqlash uchun faqat rasmiy ta’lim tizimi yetarli emas. Bu jarayonda norasmiy ta’lim shakllari, jumladan ustoz-shogird an’anasi, mahalla muhitidagi ijtimoiy amaliyotlar va oilaviy tarbiya tizimi ham muhim o‘rin tutadi. Demak, eng samarali model — bu rasmiy va norasmiy ta’limning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimidir. Aynan shu integratsiya orqali nomoddiy merosning tabiiy yashash muhiti saqlanib qoladi va uning uzatilish jarayoni uzluksiz davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. YUNESKO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. — Paris: YUNESKO, 2003.
2. Kurin, R. Safeguarding Intangible Cultural Heritage. Museum International. 2004.
3. J. ASSMAN. Cultural Memory and Early Civilization. Cambridge. 2019
4. Hall, S. The Work of Representation. London. 1997
5. Smith, L. Uses of Heritage. London: Routledge, 2006.
6. YUNESKO. Living Heritage and Education. – Paris: YUNESKO, 2018
7. YUNESKO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris: YUNESKO, 2016
8. Harrison, R. Heritage: Critical Approaches. – London: Routledge, 2013
9. Blake, J. International Cultural Heritage Law. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 400 p.

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI O‘RGANISHNING ZARURIY AHAMIYATI

Qanoatova F., dotsent
Mavlonova D., magistrant

Annotatsiya*:* Maqolada mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish jarayonlari, tadbirkorlik va uning xususiyatlari, zamonaviy tadbirkorlikning eng muhim belgilari — yangilikka intilish, xom ashyodan unumli, oqilona foydalanish, iqtisodiy o‘sish ta’minlash ekanligi, hamda uning jamiyatdagi ijtimoiy — iqtisodiy munosabatlarning muhim belgisi,shu bilan

birga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashini tarixiy aspektda o‘rganishning zaruriy ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: davlat, мамлакат иқтисодиёти, tadbirkorlik, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy manfaatlar, tarixshunoslik, strategiya, faollik.

ВАЖНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Каноатова Ф., доцент
Мавлонова Д., магистр

Аннотация: В статье рассматриваются процессы развития малого бизнеса и частного предпринимательства в нашей стране, сущность предпринимательства и его особенности. Отмечается, что важнейшими признаками современного предпринимательства являются стремление к инновациям, эффективное и рациональное использование сырьевых ресурсов, а также обеспечение экономического роста. Подчёркивается важная роль предпринимательства в системе социально-экономических отношений общества и необходимость изучения его вклада в обеспечение социально-экономического развития в историческом аспекте.

Ключевые слова: государство, национальная экономика, предпринимательство, социальные, экономические, правовые и духовные интересы, историография, стратегия, деятельность.

THE IMPORTANCE OF STUDYING ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

Qanoatova F. Associate Professor
Mavlonova D. Master’s Degree

Abstract: The article discusses the development processes of small business and private entrepreneurship in our country, entrepreneurship and its characteristics, the most important signs of modern entrepreneurship — the desire for innovation, efficient and rational use of raw materials, ensuring economic growth, and the importance of studying its historical aspect as an important sign of socio-economic relations in society, as well as ensuring socio-economic development.

Keywords: state, national economy, entrepreneurship, social, economic, legal and spiritual interests, historiography, strategy, activity.

KIRISH: XX asrda dunyoda tadbirkorlarga har tomonlama e’tiborning yanada kuchayganligini ular manfaatlarini himoya qilish uchun qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning ko‘plab qabul qilinganligi bilan e’tirof etish

mumkin. Qabul qilingan hujjatlar o‘z navbatida tadbirkorlar masalalari bo‘yicha xalqaro institutlar tashkil etilishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Turli ilmiy markazlar va tashkilotlarga tadbirkorlar muammosi global jarayonlardan biri ekanligini o‘rganish orqali ularni bartaraf etish orqali tadbirkorlarning ijtimoiy — iqtisodiy faol insonga aylantirish, har bir xotin-qizni jamiyatdagi o‘z o‘rni va mavqeini oshirish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Tadbirkorlik va uning izohi xususida so‘z yurtishdan oldin, “tadbirkor” so‘zining lug‘aviy ma’nosi va izohiga to‘xtalish o‘rinli. Tadbirkor so‘zi, arab va fors tillaridagi “tadbir” va “kor” so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi ma’nolarini anglatadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilishicha, tadbirkor bu - ishlab chiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil qiluvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdor [1].

ASOSIY QISM: Tarixiy jarayonlar tajribasidan ma’lumki, jamiyatning ijtimoiy — iqtisodiy hayotiga tadbirkorning faol ishtirok etishi har qanday mamlakatni barqaror taraqqiyotiga, aholi turmush tarzining yuksalishiga olib keladi. “Hozirgi globallashuv davrida tadbirkorlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etib, tadbirkorlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylandi” [2] .

Mamlakatimizda ham tadbirkorlarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishida ularni ijtimoiy — iqtisodiy faolligini, davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilishdagi o‘rnini kuchaytirish, jamiyat va oiladagi ahvolini tubdan o‘zgartirish, mehnat va turmush sharoitini yaxshilash, mehnat huquqini kafolatlash va tadbirkorlar tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy maqsadlardan edi. Shu maqsadda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 2-fevraldagi “Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 7-martdagi “Tadbirkorlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4235-sonli Farmoni, 2022-yil 7- martdagi “Oila va tadbirkorlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni, 2024-yil 7-martdagi “Tadbirkorlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122–sonli Qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa me’yoriy — huquqiy hujjatlarda vazifalar aniq belgilab berildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning asosini mustaqillik yillarida turli soha mutaxassislari tomonidan yaratilgan nashrlar jumladan, tarix, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, huquq, sotsiologiya yo‘nalishlaridagi ishlar hamda ommaviy axborot vositalarida chop etilgan iqtisodiy mavzudagi tahliliy materiallar va ayrim statistik ma’lumotlar tashkil qiladi.

Tarixshunoslik materiallarining tahliliga ko‘ra, iqtisodiy mavzuda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ham e’tiborga molikdir. Ularda mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik masalalarining iqtisodiy jihatlari, ba’zi o‘rinlarda sohaning ayrim tarixiy xususiyatlari bayon qilingan[5]. Ayni vaqtda mamlakatimizning qator olimlari ishlarida mazkur soha rivojining huquqiy, ijtimoiy — siyosiy, ijtimoiy — iqtisodiy, iqtisodiy — ekologik yo‘nalishlari va sohani innovatsion boshqarish muammolari bir qancha ilmiy tadqiqotlar va asarlarda o‘z aksini topgan.

Mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan asarlar alohida ahamiyatga molik, mazkur adabiyotlar birmuncha manbalarga boyligi, masalaning u yoki bu jihatlari tahlil qilinganligi bilan ajralib turadi. Yaratilgan asarlar, darslik va qo‘llanmalarda O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, mazkur yo‘nalishda aholi bandligini ta’minlash, xususiy mulk huquqini himoya qilish hamda uning ustuvor yo‘nalishlarini yanada rag‘batlantirish masalalari bayon qilingan. Bu borada R.Abdullayev, Sh.Raxmatullayev, M.Raximov, E.Nuriddinov, Sh.Ziyomov, Tursunov I.E., F.Rashidova, A.Xalliyev, A.Golovanov, D.G‘ulomova, T.Mo‘minov, N.Oblomurodov, A.Hazratqulov, Q.Usmonov, M.Sodiqov, V.Ishquvatovlarning o‘z mavzulari doirasidagi tadqiqotlari, chop etgan kitoblarini aytib o‘tish joizdir. Lekin, shuni ta’kidlash lozimki, hozirga qadar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi huquqshunoslar, psixologlar, iqtisodchilar, faylasuflar tomonidan qarab chiqilgan bo‘lsa-da, hozirga qadar tadbirkorlik, uning rivojlanish tarixi alohida ilmiy muammo sifatida o‘rganilmagan.

Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki, O‘zbek olimlari ham biznes va tadbirkorlik tushunchalarini bir — biridan farq qiladilar. Masalan, A.O‘lmasov va M.Sharifxo‘jayevlar «biznes keng ma’nodagi qonuniy yo‘l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir... . Tadbirkorlik — kishilar (mulkchilik subyektlari)ning moddiy va pul mablag‘larini (kapitalini) amalda xo‘jalik oborotiga tushirib, daromad topish mo‘ljallangan iqtisodiy faoliyatdir. Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi» [7], — deb ta’rif beradilar. Bu erda mualliflar biznesni faqat qonuniy iqtisodiy faoliyat

deb e’tirof etadilar. Ammo biznes va tadbirkorlik ham qonuniy, ham yashirin, noqonuniy tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Tarixshunoslik xulosasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur mavzu hozirgacha magistrlik darajasida ilmiy bilishning mustaqil obyekti sifatida yaxlit tarzda ilmiy o‘rganilmagan. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi — bu tadbirkor, ishbilarmon kishilardir. Ishbilarmonlik — dadil, muhim va og‘ir maqsadlarni ro‘yobga chiqara bilish qobiliyatidir. Ishbilarmon yangi g‘oyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq butun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olib, tavakkal ish tutadi. Ishbilarmonlik faoliyati — bu eng avvalo, qo‘lidagi ozmi — ko‘pmi boyligidan biznes bilan shug‘ullanish uchun foydalanadigan faol va tashabbuskor kishining intellektual faoliyati. Aynan u – “dinamizm”, “dadillik”, “tashabbus” yana “tavakkalchilar” kabi tushunchalar bilan qo‘shilib ketuvchi ishbilarmonlik ko‘pgina samarali g‘oyalarni ro‘yobga chiqaradi. Zamonaviy tadbirkorlikning eng muhim belgilari doimo yangilikka intilish, xom ashyodan unumli, oqilona foydalanish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdan iborat. Tadbirkorlik jamiyatdagi ijtimoiy — iqtisodiy munosabatlarning muhim belgisi sifatida, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlaydi. Har bir insonning shaxsiy qobiliyati, mehnat va kasb mahoratini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Bozor iqtisodiyoti biznesga asoslangan iqtisodiyotdir. Biznes — biror faoliyat (ish) yuzasidan bo‘lgan munosabat, aniqrog‘i ishbilarmonlarning iqtisodiy munosabatidir. Biznes bilan shug‘ullanuvchilarni ish bilar-монлар ёки biznesmenlar deb yuritadilar.

Biznes — tizimli ravishda foyda olishga qaratilgan faoliyat, ya’ni biznes, foyda olish uchun tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar va faoliyatni anglatadi, ikkinchi bir ma’nosi tijorat, sanoat yoki kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan tashkilot yoki tashabbuskor tashkilot hamdir [6]. Ba’zi olimlar "tadbirkorlik" va "biznes" so‘zlarini sinonim sifatida ishlatadilar, lekin ba’zida bu turli ma’nolarga ega tushuncha hisoblanadi.

Tadbirkorlik tushunchasi qariyb uch asr mobaynida nazariya va amaliyotda qo‘llanilib kelinayotganiga qaramay uning universal ta’rifi shakllanmagan va ko‘p ma’noligi saqlanib kelmoqda. Buning asosiy sababi tadbirkorlikning ko‘p qirrali, ko‘p sohali, ko‘p tarmoqli, ko‘p shaklli murakkab faoliyat bo‘lishidir.

O‘zbekistonda ham tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish uchun ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, “Barchamiz tadbirkorlarga yelkadosh bo‘lib, ularni doimo qo‘llab — quvvatlashimiz shart. Bu borada ishbilarmonlarning haq — huquqlarini, ayniqsa, xususiy mulk daxlsizligini

ta’minlash — barcha darajadagi davlat organlarining asosiy vazifasi bo‘lishi lozim” [4].

Tadbirkorlik faoliyati va tushunchasi to‘g‘risidagi fikrlar, mulohazalar, qarashlarni o‘rganib, ularga ayrim aniqliklar kiritish maqsadida ularni chuqurroq tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz. Ma’lumki, tadbirkorlik faoliyati va uni aks ettiruvchi tushuncha ko‘p qirrali, murakkab hodisalardir. Shuning uchun ularning alohida tomonlari, yo‘nalishlari bo‘yicha mohiyatini aniqlab olish lozim.

Tadbirkorlikning umumiy darajasida uning ikki holatini — statik va dinamik holatlarini ajratish kerak. Tadbirkorlik statik holatda yondashuv, dinamik holatda esa jarayon, faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Tadbirkorlik birinchi holatda qo‘yilgan vazifani, ishni bajarish mavjud usullarini takomillashtirish va yangilarini qo‘llash imkoniyatlarini topib, ishga solishdan iborat bo‘lgan yondashuvdir. Bunday yondashuv an’anaviy yondashuvdan farqli o‘laroq izlanuvchanlik, ijodiy qadamlar, tashabbuskorlik singari faol elementlari ham o‘z ishiga oladi. Tadbirkorlik jarayon, faoliyat sifatida qo‘yilgan maqsadga aynan tadbirkorlik yondashuvini qo‘llab erishishga yo‘naltirilgan tashabbuskor faoliyat hisoblanadi.

Tadbirkorlik ijtimoiy kontekstda qurilgan, shuning uchun tashqi omillar va atrof — muhit sharoitlari korxonalarni yaratish va rivojlantirishga kuchli ta’sir qiladi. Tadbirkorlik tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lganlardan boshlanadi. Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni yanada samarali amalga oshirish uchun bu odamlarni, ularning motivlari va muammolarini tushunish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik innovatsion iqtisodiy faoliyat sinfiga amal qilishi aniq, biroq, bu yangilik alohida turdagi innovatsiya — ishlab chiqarish omillari kombinatsiyasi o‘ziga xosdir. Boshqacha qilib aytganda, gap ma’lum tovarlar yoki xizmatlar ishlab chiqarishni ochishi yoki ko‘paytirish maqsadida tashkiliy tuzilmalarni yaratish, o‘zgartirish yoki rivojlantirish haqida bormoqda. Bunday o‘zgarish turli shakllarda bo‘lishi mumkin — yangi korxona tashkil etish yoki eskisini qayta tashkil etish, yangilarini tashkil etish, mavjud aloqalarni o‘zgartirish yoki yo‘q qilish va boshqalar. Stiven Jobsning so‘zlariga ko‘ra, "Innovatsiya yetakchini ushlovchidan ajratib turadi" [8].

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyati va tushunchasining mazmun — mohiyatiga ikki nuqtayi nazardan qarash lozim. Tadbirkorlik falsafiy nuqtayi nazardan har qanday ishga tashabbuskorlik bilan ijodiy yondashuv hisoblanadi. Ijtimoiy — iqtisodiy nuqtayi nazardan tadbirkorlik — qo‘yilgan aniq ijtimoiy yoki iqtisodiy maqsadga erishish uchun qonunlar doirasida tavakkal qilib amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir. Bir tomondan qaraganda, tadbirkorlik doirasi keng bo‘lib, biznesdan (tijorat tadbirkorligidan) tashqari, notijorat tadbirkorligini ham o‘z ichiga oladi. Ikkinchi tomondan qaraganda, biznes

doirasi keng bo‘lib, tijorat tadbirkorligidan tashqari, maqsadi foyda olish bo‘lgan, lekin tadbirkorlik alomatlariga ega bo‘lmagan faoliyat turlarini ham o‘z ichiga oladi.

XULOSA: Tadbirkorlikning maqsadi iqtisodiy tusga ham, ijtimoiy tusga ham ega bolishi mumkin va uni tijorat tashkilotlari ham, notijorat tashkilotlari ham amalga oshiradilar.Biznesning maqsadi faqat iqtisodiy tusga ega bo‘lib, uni faqat foyda olish uchun tuzilgan tijorat tashkilotlari amalga oshiradilar.

Tadbirkorlik tashkilotlarining menejerlari ijodiy va innovatsion qarorlar qabul qilganda tadbirkor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006-2008. – B. 636

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2019, 22-iyun.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2019 -yil, 22-iyun.

5. Zakirov F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish. – T.; 2005.

6. Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. – T.; 2004.

7. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. – T.; 2017.

8. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollar / Monografiya. – T.; 2017.

9. G‘ulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.; 2002.; Abulqosimov H, Qulmatov A. O‘zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llari. – T.; 2014.

10. What Is a Business? Understanding Different Types and Company - https://www.investopedia.com/.

11. Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: Меҳнат, 1995. – Б. 192.

SHAROF RASHIDOV MASHHUR O‘ZBEK ADIBI

Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna,
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashhur o‘zbek davlat arbobi, yozuvchi va publitsist Sharof Rashidovning hayoti, ijodiy faoliyati hamda o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Adibning roman, qissa va publitsistik asarlarida xalq hayoti, mehnat kishilarining orzu-intilishlari, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari aks etgani tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ijodiy merosining bugungi avlod tarbiyasidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sharof Rashidov, o‘zbek adabiyoti, yozuvchi, publitsist, roman, qissa, badiiy ijod, ma’naviy meros, vatanparvarlik, insonparvarlik, adabiy meros, o‘zbek madaniyati.

ШАРОФ РАШИДОВ ЗНАМЕНИТЫЙ УЗБЕКИСТАНСКИЙ ПИСАТЕЛЬ

Сулайманова Шохсанам Абсаматовна,
Чирчикский государственный педагогический университет
Старший преподаватель факультета гуманитарных наук

Аннотация. В данной статье рассматриваются жизнь и творческая деятельность известного узбекского писателя, публициста и государственного деятеля Шарафа Рашидова, а также его вклад в развитие узбекской литературы. Анализируются основные идеи его романов, повестей и публицистических произведений, отражающие жизнь народа, трудовую деятельность, патриотизм и гуманизм. Особое внимание уделяется значению творческого наследия писателя в духовно-нравственном воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: Шараф Рашидов, узбекская литература, писатель, публицист, роман, повесть, художественное творчество, духовное наследие, патриотизм, гуманизм, литературное наследие, узбекская культура.

SHAROF RASHIDOV FAMOUS UZBEKISTAN AUTHOR

Sulaymanova Shokhsanam Absamatovna,
Chirchik State Pedagogical University
Senior Lecturer, Faculty of Humanities

Abstract. This article examines the life and literary activity of Sharof Rashidov, a renowned Uzbek writer, publicist, and statesman, and highlights his contribution to the development of Uzbek literature. The study analyzes the main

themes of his novels, stories, and journalistic works, which reflect the life of the people, labor, patriotism, and humanistic values. Particular attention is paid to the significance of his literary heritage in the moral and spiritual education of the younger generation.
Keywords: Sharof Rashidov, Uzbek literature, writer, publicist, novel, story, literary creativity, spiritual heritage, patriotism, humanism, literary legacy, Uzbek culture.

KIRISH: Sharof Rashidov maktabda o‘qib yurgan kezlarida badiiy ijodga bo‘lgan qiziqishi paydo bo‘ladi. 1920-yillarning oxirlarida yosh Sharofning onasi Qo‘ysinoy vafot etganida ona tomondan buvasi bilan buvisi Sharofni o‘z qaramog‘iga olishadi. Uning tarbiyasi bilan o‘sha vaqtlarda o‘zining she’rlari bilan tanilgan tog‘asi yosh shoir Hamid Olimjon shug‘ullana boshlaydi.

Sharof Rashidov maktabda o‘qib yurgan paytlarida ulug‘ rus yozuvchisi M.Gorkiyning o‘zbek tiliga tarjima qilingan hikoyalari bilan tanishadi. Bu haqda Sharof Rashidov o‘zining “Yo‘l boshida” (1978) maqolasida shunday xotirlaydi: “M.Gorkiy va uning asarlari meni qattiq maftun qilib qo‘ygan edi. Men o‘sha yillari adabiy to‘garaklarda ulug‘ adibning hayoti va ijodiyoti haqida dokladlar qilgan, maqtab devoriy gazetasiga risolalar yozgan, rayon gazetasida maqolalarim bilan qatnashgan edim” [1].

ASOSIY QISM: Shu tariqa M.Gorkiy yosh Sharofning ma’naviy hayotida pinhoniy ustoziga aylandi. Bir umrga yuksak ibrat namunasi bo‘lib qoldi.

Bundan tashari u maktab davrida XIX asr rus yozuvchilaridan A.Pushkin, L.Tolstoy va A.P.Chexov asarlari bilan tanishadi. Shunday bo‘lsa-da, Sh.Rashidov “menga boshqalardan ko‘ra I.S.Turgenov yaqinroqdir. Men uning asarlaridagi teran lirizmni, tabiatga cheksiz muhabbatni, obrazlarni mohirona gavdalantirish san’atini sevaman”, deb ta’kidlaydi. “Arafa” romanining qahramoni Insarev uning yaxshi ko‘rgan qahramonlaridan biri edi. Shuningdek N.V.Gogolning asarlarini o‘qib ko‘p narsalarni o‘rgandi.

Sharq adabiyotiga kelganda Alisher Navoiy (1441-1501) asarlarini, ulardagi insonparvarlik, bunyodkorlik, qahramonlik g‘oyalarini o‘zgacha bir faxr bilan tilga oladi.

Sharof Rashidov 1931-yilda yetti yillik maktabni tugatgach, Jizzax pedagogika texnikumiga o‘qishga kiradi. Rashidov u yerda bilim olish bilan birgalikda badiiy ijodda o‘z iqtidorini sinab ko‘radi: she’rlar, nasriy asarlar, jumladan ocherklar yozadi, ularni texnikum devoriy gazetasida e’lon qiladi. Jizzaxga kelib turadigan taniqli tog‘asi o‘z jiyanining adabiy mashqlarini e’tibor bilan kuzatib, ijod bilan muntazam shug‘ullantirishga rag‘batlantiradi.

Sharof Rashidovni yozishga ilhomlantirgan va unga chin ma’noda murabbiylik qilgan kishilardan biri Aleksandr Fadeyevdir. Uning “Tor-mor”, “So‘nggi udegey”, “Yosh gvardiya” asarlarini bir necha bor o‘qigan edi. Xuddi M.Gorkiyning ajoyib asarlari kabi o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Tor-mor” uning eng sevimli asarlaridan bo‘lib qoladi.

Levinsonning matonatli, bukilmas xarakteri, uning revolyutsiya ishiga cheksiz sadoqati, doimo umid bilan ishlashi, voqealarni tahlil qilishi va o‘ziga nisbatan zo‘r talabchanligi bularning bari odamning havasini keltirar, unga o‘xshab yashashga undardi.

Rashidov she’rlar, hikoyalar, ocherklar yozib ularning bir qismini mahalliy (Jizzaxdagi), bir qismini esa markaziy (Samarqanddagi) gazetalarga yuborib turdi. U o‘zining “Qo‘riqda”, “Halimaning o‘limi”, “Mehnatsevar qizlar” kabi ilk ocherk va hikoyalarida dalalarga suv chiqarish, mo‘l paxta hosili yetishtirish mavzularini tasvirlaydi.

Sharof Rashidov talabalik yillarida ham badiiy ijod bilan shug‘ullanib, she’rlar, hikoyalar yozib yuradi. U universitetda o‘qirkan, o‘qishni Samarqand oblast gazetasi “Lenin yo‘li”da ishlash bilan birga olib boradi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida frontda hamyurtlarining jasoratlar ko‘rsatishiga ilhomlantirgan, vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan she’rlar yozdi. Ayniqsa, uning “Jang qil” (1941), “Lochinlar”, “Qasos ol” (1943), “Ona nasihati”, “Do‘stimga maktub”, “Belgrad qizi” singari she’rlari ancha mashhurdir.

Sharof Rashidovning 1944 yilda Samarqand oblast partiya komitetining sekretari lavozimiga o‘tkazilishiga uning ijodiy faoliyatiga to‘sqinlik qilmadi. Lekin uni yoshligidan badiiy adabiyotga, ijodga bo‘lgan ishtiyoqini rag‘batlantirib kelgan ustozi Hamid Olimjon 1944-yil 3-iyulda avtomobil halokati natijasida vafot etdi.

Ikkinchi jahon urushida bevosita qatnashib, urush dahshatlarini boshidan kechirgani uchun asosan urush mavzusida she’rlar, hikoyalar yozdi. 1945-yilda sovet xalqining fashistlar Germaniyasi ustidan qozongan g‘alabasiga bag‘ishlangan ilk she’riy kitobi “Qahrim” nashr etildi. Bu haqda keyinroq “Yo‘l boshida” maqolasida shunday xotirlaydi “Men frontda yurgan kezlarim va urushdan keyingi birinchi yillarda ham anchagina she’rlar va ocherklar yozgan edim. Men bu she’rlar, ocherklarda mamlakat, xalq nima bilan yashayotgan bo‘lsa, shunga o‘z munosabatimni bildirishga, tengdoshlarimni to‘lqinlantirgan masalalarni ko‘tarishga, hamyurtlarimni frontda va front ichkarisida jasoratlar ko‘rsatishga ilhomlantirgan kuchlarni ochishga intilgan edim”.

“Qahrim” she’riy to‘plami orqali adabiy jamoatchilik e’tiboriga tushgan Sharof Rashidov O‘zbekiston Yozuvchilar soyuziga a’zo bo‘ldi.

1947-yil Sharof Rashidov respublikaning markaziy gazetasi “Qizil O‘zbekiston”ga bosh muharrir etib tayinlandi. “Otaxon” gazetaning bosh muharrirligi uning ijodiy faoliyatiga xalaqit bermadi. 1950 yili publitsistik maqolalaridan iborat “Tarix hukmi” kitobi nashr etildi. Shu yillari Sharof Rashidov o‘zining dastlabki nasriy asari “G‘oliblar” qissasini yoza boshladi. Bu asar qo‘riq va bo‘z yerlarini o‘zlashtirishga bag‘ishlangan.

“Eskicha va yangicha qarashlar” o‘rtasidagi ziddiyat o‘sha kezlarda sovet adabiyotidagi asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Lekin o‘zbek adabiyotida aynan Sharof Rashidov “G‘oliblar” (1951) qissasi bilan shu yo‘nalishning tamal toshini qo‘ydi.

Uning bu asari 1951-yilda chop etildi va shu yo‘nalishdagi Ibrohim Rahimning “Hilola”, Hamid G‘ulomning “Mirzacho‘l”, Abdulla Qahhorning “Sinchalak” singari asarlari ketma-ket dunyoga keldi [2].

Shu davrda Sharof Rashidov publitsist sifatida respublika , Ittifoq hayotining dolzarb va yirik g‘oyaviy siyosiy, xo‘jalik, ma’naviy-madaniy masalalariga bag‘ishlangan maqolalar yozdi. Bu bilan Moskva ziyolilarining nazariga tushib, SSSR Yozuvchilar soyuzining bosh sekretari, Jahon Tinchlik kengashining prezidenti atoqli yozuvchi Aleksandr Fadeyev bilan tanishadi. Rashidovning A.Fadeyev bilan do‘stona aloqalari davom etib, 1949-yilda uning ko‘magida O‘zbekiston Yozuvchilar soyuzining raisi etib saylandi. Bu lavozim yozuvchilikda, jurnalistikada ancha tanilib qolgan Sh.Rashidovning faqat rahbarlik emas, yozuvchilik faoliyati uchun ham juda muhim tajriba bo‘ldi [3].

Shu yili Moskvada bo‘lib o‘tgan tinchlik tarafdorlarining Butunittifoq Birinchi konferensiyasidan keyingi qabul marosimida A.Fadeyev O‘zbekiston delegatsiyasiga rahbar bo‘lib kelgan Sharof Rashidov sharafiga quyidagi so‘zlarni aytadi: “Men talantli san’atkor, partiya xodimi, do‘stim Rashidov bilan faxrlanaman”. Shu kishi A.Fadeyev va SSSR Yozuvchilar soyuzidagi uning o‘rinbosari, atoqli sovet yozuvchisi Konstantin Simonov mehmonxonada Sh.Rashidov turgan xonaga kelib, uchalasi to ertalabga qadar suhbatlashadilar. O‘shanda A.Fadeyev suhbat asnosida xuddi bashorat qilganday Sh.Rashidovga “Seni ulkan partiya va davlat ishi kutayotganligini bilaman, senga tug‘ishgan birodarim kabi shuni aytib qo‘yishim kerak - tinmay ijod qil”, deb aytadi. Shu uchrashuv paytidagi suhbat Sh.Rashidovda unutilmas taassurot qoldiradi. Sh.Rashidov A.Fadeyev bilan oxirgi marta 1953-yilda u betob yotganda uchrashadi. Shu oxirgi do‘stona suhbatlarida yana A.Fadeyev “Azizim Sharof Rashidovich, sening ajoyib iste’doding bor, qalamni sira ham qo‘lingdan qo‘yma, sendan birdan bir iltimosim - yoz!” deb ta’kidlaydi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Sharof Rashidovning 1956-yilda Kashmir xalqining qadimiy sevgi dostoni asosida yozilgan “Kashmir qo‘shig‘i” qissasi nashr etildi. Unda hind xalqining ozodlik yo‘lidagi kurashi tasvirlangan.

O‘zbek adabiyotining jahonda eng ko‘p tarqalgan asarlaridan biri Sharof Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” qissasidir. She’riy parchalar bilan chog‘ishtirilgan bu qissa dunyoning 56 tiliga tarjima qilingan. O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi G‘aybulla Salomov shunday yozadi: “Bu asar ko‘hna Hind daryosida bir afsona sifatida dunyoga kelib, o‘zbek tilida yozma adabiyot namunasiga aylandi, so‘ngra rus tiliga ikki marta tarjima qilinib, Kremldagi syezdlar saroyida balet maqomida namoyish qilindi. “Kashmir qo‘shig‘i”ning favqulodda katta shuhrat topganligi sababli unda muhabbat va erk, xalqlar ozodligi uchun kurash g‘oyalarining o‘ziga xos yo‘sinda tarannum etilishidir” [4].

1958-yilda Sharof Rashidovning Ikkinchi jahon urushi yillarida front orqasida qahramonona mehnat qilgan xalq hayotiga bag‘ishlangan “Bo‘rondan kuchli” romani nashr qilindi.

1959-yilda chop etilgan “Ikki dil dostoni” kinossenariysi ham insonlarni birlashishga da’vat etadi. Mirzo Abdulqodir Bedilning “Komde va Mudan” dostoni asosida yaratilgan bu asar Hindiston va O‘rta Osiyo xalqlarining asriy orzu armonlarini aks ettiradi.

Sharof Rashidovning Y.Karasev va B.Privalov bilan hamkorlikda yozilgan “Kamolot” kinoqissasi 1960-yilda bosmadan chiqdi. Bu asar partiyaning qo‘riq va bo‘z yerlarini o‘zlashtirish haqida ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rligi bugunning va kelajakning manfaatlarini nazarda tutilishiga bag‘ishlangan.

Sharof Rashidovning O‘zbekistonda ishchilar sinfining shakllanishiga bag‘ishlangan “Qudratli to‘lqin” romani 1964-yilda chop etilgan.

1965-1969-yillarda o‘zining “G‘oliblar” qissasini qayta ishlab, to‘ldirib, roman holiga keltirdi.

Bulardan tashqari Sharof Rashidovning “Do‘stlik bayrog‘i” (1967), “Do‘stlik va birodarlik tili” (1977), “Sovet O‘zbekistoni” (1978) singari kitoblari nashr etildi.

Ko‘pchilik ijodkorlar qatori yozuvchi Sharof Rashidovning asarlari chop etilgach, adabiy jamoatchilik o‘z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Olim munaqqidlarimiz tadqiqotlar olib borishgan.

Asil Rashidovning o‘zi bu haqda shunday yozadi: “yozuvchi kishilarning yaratuvchi ijodiy mehnatdagi faolligini tasvirlar ekan, shu bilan birga mehnat jarayonida ular ongining o‘sishini, ma’naviy boyishi, xarakterining tovlanishini ko‘rsatishga harakat qilgan” [5].

Sharof Rashidovning “G‘oliblar” (1951) va “Bo‘rondan kuchli” (1958) dilogiyasi urush davri va urushdan keyingi yillarning muhim badiiy epik solnomasi bo‘lib qoldi. Bu asarlar ana shu sanoqli yillarda O‘zbekiston yigit qizlari, o‘zbek xalqining ko‘rsatgan matonati va qahramonliklari haqida hikoya qiladi.

Rus yozuvchisi Fyodor Razzoqov Sharof Rashidovning “G‘oliblar” romanida tasvirlangan voqealar xususida yozishicha o‘sha kezlarda cho‘llarni o‘zlashtirish muhim masala bo‘lib, serg‘ayrat yoshlar respublikada yerlarni sug‘orish tizimini o‘zgartirish bo‘yicha dadil chora-tadbirlarni yoqlab chiqqan bo‘lsalar, eskicha usul tarafdorlari buni xomxayol hisoblab hammasi azaliy holatda qolishi kerak deb da’vo qilishardi [6].

Sharof Rashidov asarlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim, tanqidchi Matyoqub Qo‘shjonov boshqa iste’dodli yozuvchilarimizning asarlari qatori chuqur tahlil qiladi, boshqalar ko‘rmagan ko‘z bilan ko‘radi. Munaqqidning aytishicha, ba’zi bir asarlarimizda bosh qahramon ayollardan bo‘ladi. Sharof Rashidovning “G‘oliblar” romanida Oyqiz hayotdan orqada qolgan ba’zi bir unsurlarga qarshi turib, ilg‘or g‘oyalarni amalga oshira oladi. Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasida uning bosh qahramoni Saida butun bir rayonni larzaga solib turgan, o‘zboshimchalikka o‘rganib qolgan Qalandarovga qarshi tura oladi. Ibrohim Rahimning “Hilola” qissasidagi Hilola butun bir kolxoz iqtisodini ipidan ignasigacha yaxshi biladi va qoidabuzarliklarga qarshi tura oladi [7].

Sharof Rashidov “G‘oliblar” va “Bo‘rondan kuchli” romanlarida o‘zbek xalqining asrlar osha ezgu istagi bo‘lib kelayotgan, endilikda hal bo‘layotgan yer-suv masalasida uzviy bog‘liq ekanini katta badiiy tarzda ayta oldi. Hozir respublikamiz hayoti, uning iqtisodiy rivoji shuni ko‘rsatyaptiki, Sharof Rashidov ko‘targan bu masalalar o‘zbek xalqi uchun doim, kelajakda ham hayot va mamot masalasi bo‘lib qoladi.

Sharof Rashidovning “Qudratli to‘lqin” (1964) romani o‘zbek adabiyotida katta voqeaga aylanib, respublikaning yosh ishchilar sinfi umumxalq intilishlarining qudratini o‘zida ifodalaydi. Yozuvchi ularni alohida mehr bilan tasvirlaydi.

Adib “Qudratli to‘lqin”da ham ijodiy uslubiga sodiq qolib, u chinakam inson xarakteri qiyin sharoitlar ichida, ularni yengib o‘tish jarayonlarida, yomonlikka qarshi ayovsiz kurashlarda shakllanishini ko‘rsatadi.

Sharof Rashidovning “Qudratli to‘lqin” romani O‘zbekistonda ishchilar sinfining shakllanishiga bag‘ishlangan bo‘lib, yoshlarning urush yillarida Farhod suv elektrostansiyasini qurishda ko‘rsatgan jasoratlari tasvirlangan.

Sh.Rashidov umrining so‘nggi davrida “Dil amri” (1982) qissasini yozdi. Asar tarixi Novgorod viloyatining kichkinagina qishlog‘i – Beryozovkada kechadi. Muallif buni og‘ir urush yillariga olib kiradi, fashizmga qarshi kurash yillarida o‘zi jang qilgan yerlar bilan tanishtiradi. Kitobda rus va o‘zbek kishilarining fashizmga qarshi kurashi ko‘rsatilgan [8].

XULOSA: Afsuski, qayta qurish yillarida Markaz va respublika siyosiy rahbariyati tomonidan L.I.Brejnev va Sh.R.Rashidov boshchilik qilgan davrga

“turg‘unlik davri” deya tasnif berilib, ushbu tarixiy oraliqdagi barcha jarayonlarga salbiy baho berildi hamda mamlakat va respublikaga rahbarlik qilgan ko‘plab shaxslar, birinchi navbatda Sh. Rashidov qoralandi. Shunday qilib, mazkur yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayot hamda iqtisoddagi kamchilik va salbiy holatlarning kelib chiqishi sabablari, umuman sovet siyosiy tuzumi va iqtisodining inqirozi totalitar tuzumning nuqsonlari bilan emas, balki Sh. Rashidov kabi birinchi rahbar shaxslar faoliyati bilan bog‘lanib, barcha salbiy holatlarning yuzaga kelishida ularning “aybdorligi” e’tirof qilindi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Рашидов Ш. Асарлар. Беш жилдлик. Тўртинчи жилд. – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 268.
2. Раззоқов Ф. Шароф Рашидов: Ҳаёт ва мамот. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 59.
3. Эргашев Ш. Эрк истар кўнгил. – Тошкент: O‘zbekiston, 2017. – Б. 57.
4. Рашидов Ш. Эрк истар кўнгил. – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт – матбаа бирлашмаси, 1992. – Б. 122.
5. “Шарқ юлдузи”, 1981 йил 5-сон.
6. Раззоқов Ф. Шароф Рашидов: Ҳаёт ва мамот. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 58
7. Қўшжонов М. Танланган асарлар: Адабий-танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б. 147.
8. Ражабов Қ. Шарафли йўл (Шароф Рашидов ҳақида) // “Muhofaza+” (Тошкент). 2019. №5. – Б. 28-30.

QADIMGI TURKLARNING ZARBA QUROLLARI: KAMON O‘QI, QILICH VA NAYZA

Xolov Sherzod Oripovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola qadimgi turklarning jang qurollari haqida yuritilib ular orasida kamon va o‘qlarning rang barangligi, qilichlarning turk qo‘shinlari orasida paydo bo‘lishi va dastlab to‘g‘ri qilich, Uyg‘ur xoqonligi davriga kelib esa egri qilichlar bila janglarda ishtiroki, shu bilan birga janglarda nayzalardan foydalanganligi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kamon o‘qi, qilich va nayza, zirh teshuvchi o‘qlar, suyak uchli o‘qlar, sadoq, “tiğ” va “şemşir”; “seyf” va “hüsâm”, to‘g‘ri va egri qilich, Oltoy, Yaponiya, Chjou Shu, Suy Shu, Uyg‘ur xoqonligi.

ОРУЖИЕ ДРЕВНИХ ТЮРКОВ: ЛУК, МЕЧ И КОПЬЕ

Холов Шерзод Орипович
Шахрисабзский государственный педагогический институт

Аннотация: В статье рассматривается боевое оружие древних тюрков. Приводятся ценные сведения о разнообразии луков и стрел, появлении мечей в тюркских войсках, использовании первоначально прямых, а в период Уйгурского каганата — изогнутых мечей, а также о применении копий в сражениях.

Ключевые слова: Лук и стрелы, меч и копье, бронебойные стрелы, стрелы с костяными наконечниками, садак, «тиг» и «шемшир»; «сейф» и «хюсам», прямой и изогнутый меч, Алтай, Япония, Чжоу-шу, Суй-шу, Уйгурский каганат.

ANCIENT TURKISH WEAPONS: BOW, SWORD, AND SPEAR

Kholov Sherzod Oripovich
Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: This article discusses the weapons of war of the ancient Turks, including the variety of bows and arrows, the appearance of swords among the Turkic armies, and the participation in battles with initially straight swords, and by the time of the Uyghur Khaganate, curved swords, as well as the use of spears in battles.

Keywords: Bow and arrow, sword and spear, armor-piercing arrows, bone-tipped arrows, sadaq, "tiğ" and "şemşir"; "seif" and "hüsâm", straight and curved sword, Altai, Japan, Zhou Shu, Sui Shu, Uyghur Khaganate.

KIRISH: Markaziy Osiyo hududida shakllangan Turk xoqonligi davrida harbiy tizim yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, uning asosiy tayanchi zarba qurollari tizimi hisoblangan. Qadimgi turklar harbiy amaliyotida qurollar ishlab chiqarish, takomillashtirish va jang maydonida samarali qo‘llash aniq tizimga ega bo‘lgan. Ularning qurolsozlik an’analari temirchilik rivoji, xom ashyo tanlash, metallni qayta ishlash texnologiyalari va jangovar ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Zarba qurollari tizimida kamon o‘qi, qilich va nayza markaziy o‘rin egallagan bo‘lib, bu uchlik turk harbiy strategiyasining asosini tashkil etgan.

ASOSIY QISM: Janglarning deyarli barchasida dushmanga birinchi bo‘lib kamon o‘qlari bilan zarba berish odatiy hol edi, bu oson ko‘tarib yurish mumkin bo‘lgan qurol bo‘lgani uchun, kamon va o‘q yengil qurollangan otliq va piyoda askarlar tomonidan ishlatilgan. Kamon va o‘qning birinchi qo‘llanilishi milodiy IX asrda yashagan Tabariyga tegishli bo‘lib, uning rivoyatga ko‘ra, Odam Ato o‘zi

ekkan urug‘larni yeb qo‘ygan qarg‘alar bilan kurashishda qiynalgani uchun Xudoga shikoyat qilgani va Jabroil unga kamon va o‘q olib kelib, undan qanday foydalanishni o‘rgatgani aytiladi [1].

Turklarning asosiy quroli kamon va o‘q edi. Turklar kamon va o‘qni urushda samarali qurol sifatida ishlatishgan va bu quroldan o‘zlarining jangovar taktikalari uchun eng yaxshi foydalanishgan. O‘qotar qurollar ishlatilmasdan oldingi davrda turklarning urushdagi eng samarali quroli, shubhasiz, kamon va o‘q edi [2].

Qadimgi turklar orasida kamon va o‘q eng muhim uzoq masofali zarba vositasi hisoblangan. Turk kamonlari kompozit tuzilishga ega bo‘lib, ularning ishlab chiqarilishi murakkab texnologik jarayonni talab qilgan. Kamonning asosiy karkasi yog‘ochdan tayyorlanib, uning ichki tomoniga hayvon paylari, tashqi tomoniga esa shox yoki suyak qoplamalari yopishtirilgan. Bu qatlamlarning birlashuvi kamonga yuqori elastiklik va kuch berib, kichik o‘lchamda katta energiya yig‘ish imkonini yaratgan. Kamon shakli odatda qayrilgan bo‘lib, bu o‘q otishda kuchni maksimal darajada uzatishga xizmat qilgan. Kamonning tortish kuchi yuqori bo‘lib, tajribali jangchilar uni samarali ishlata olgan.

O‘qlar turli xil shakl va vazifalarga ega bo‘lgan. Ularning uch qismi temirdan yasalib, aerodinamik xususiyatlarga ega tarzda shakllantirilgan. Zirh teshuvchi o‘qlar ingichka va o‘tkir uchli bo‘lsa, keng uchli o‘qlar yumshoq nishonlarga maksimal zarar yetkazish uchun ishlatilgan. O‘qning tanasi yog‘ochdan tayyorlanib, orqa qismiga qush patlari o‘rnatilgan, bu esa parvoz barqarorligini ta’minlagan. O‘qlar maxsus qoplarda – sadoqlarda saqlangan va jangchi tomonidan tezkor foydalanish uchun qulay joylashtirilgan. Ot ustida harakatlanib turib o‘q otish texnikasi yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, bu turk qo‘shinining asosiy ustunligini tashkil etgan.

Turklar tomonidan ishlatilgan o‘qlar orasida hushtak o‘qlari eng mashhur edi. Suyak uchli o‘qlardan tashqari, temir, mis va bronzadan yasalgan o‘qlar turklar tomonidan ulardan foydalanishda mohir bo‘lgan samarali qurolga aylandi. Po‘lat uchli o‘qlar qalqonlarni, zirhlarni va hatto dubulg‘alarni mos masofalarda teshib o‘tishi mumkin edi [3].

Jang qurollari orasida yaqin masofalarda jang qilish uchun doimo qilichlar yuqori o‘rinda turgan. Qilich qo‘lma-qo‘l jang paytida qo‘shinlar tomonidan eng ko‘p ishlatiladigan quroldir. Bundan tashqari, shamolli sharoitlarda o‘q yoki nayzaning nishonga tegmaslik ehtimoli kamroq bo‘lgani uchun, u yaqin jangda samaraliroq quroldir. Shuning uchun qilich jangchilarning eng afzal ko‘rgan quroli hisoblanadi.

Ba’zi mualliflarning fikriga ko‘ra, qilich afsonaviy Eron hukmdori Jamshid tomonidan ixtiro qilingan. Islom davrida qilich forscha “tiğ” va “şemşir”; arabcha “seyf” va “hüsâm” deb nomlangan. Qilich turklar tomonidan kamon va o‘qdan

keyin ishlatiladigan eng muhim quroldir. Bahoeddin Ögelning so‘zlariga ko‘ra, keyinchalik Yaponiyaga tarqalgan turk qilichining kelib chiqishi Oltoydir [4].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Darhaqiqat, o‘rta asrlarda turk va musulmonlar tomonidan ishlatilgan egri qilichlar ham janglarda asosiy vosita hisoblangan. Xususan ushbu qilichlar odatda dastaga yaqin tekis va uchiga yaqin biroz egri bo‘lgan. Egri qilich va tekis qilich o‘rtasidagi farqlardan biri shundaki, barcha kuch qilich uchiga yaqin egri chiziqda to‘plangan. To‘g‘ri qilichdan yana bir farq shundaki, tekis qilichlar ikki tomondan ham o‘tkir, egri qilichlar esa faqat bir tomondan o‘tkir. Bilak harakati egri qilichlar bilan muhim ahamiyatga ega. Biroq, to‘g‘ri qilichlar og‘ir va ulardan foydalanish ko‘proq bilak kuchiga bog‘liq. Shuning uchun egri qilichdan foydalanish maxsus mahoratni talab qilardi.

Turk qilichlarining yana bir muhim xususiyati ularning nozikligi edi. Turk qo‘shinlari yengil otliq qo‘shinlardan iborat bo‘lganligi ularni uzun qilichlardan foydalanishga olib keldi. Qisqa qilichlar asosan og‘ir piyoda askarlar tomonidan ishlatilgan. Shuning uchun otliq qo‘shinlar tomonidan tezlikni talab qiladigan qilichlar uzun bo‘lishi kerak edi. Uzun qilichlardan foydalanish ham g‘alabalarga erishishda muhim rol o‘ynagan [5]. Qadimgi turk qilichlari dastlab to‘g‘ri shaklda bo‘lgan, biroq VI–VIII asrlarga kelib egri shaklli qilichlar keng tarqalgan. Ba’zi manbalarga ko‘ra, egri qilichlar birinchi marta turklar tomonidan yasalgan [6].

Bu o‘zgarish ko‘chmanchi otliq jang uslubining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, egri qilich zarbani kesuvchi yo‘nalishda kuchaytirish imkonini bergan. Qilichlar asosan temirdan, keyinchalik esa yuqori sifatli po‘latdan yasalgan. Metallni qayta ishlashda ko‘p bosqichli qizdirish, sovitish va charxlash jarayonlari qo‘llanilgan. Qilich tig‘ining markaziy qismi nisbatan qalin, chetlari esa o‘tkir bo‘lib, bu zarba vaqtida mustahkamlik va keskinlikni uyg‘unlashtirgan. Ayrim qilichlarda markaziy yiv (dol) mavjud bo‘lib, bu og‘irlikni kamaytirish va zarba samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Tutqich qismi yog‘ochdan tayyorlanib, charm yoki mato bilan o‘ralgan, ba’zan esa metall bezaklar bilan boyitilgan. Qilichlar individual jangchining asosiy quroli sifatida xizmat qilgan va jangning hal qiluvchi bosqichida qo‘llanilgan.

Uzun tig‘li qilichlar turkiy otliqlar orasida yaqin jang qilish uchun juda muhim bo‘lgan. Ularning turkiy xalq orasida kamon va o‘qlar, zirh va nayzalar bilan birga mavjudligi Chjou Shu va Suy Shuning Xitoy sulolaviy yilnomalarida qayd etilgan Otliqlar jangida qilich (qilich) ishlatilishi turkiy manbalarda ham tilga olingan. Xususan, Kul-Tegin yodgorligida quyidagi satrlar bor: “Azmanning oq (otiga) minib, hujumga o‘tdi va olti jangchini o‘ldirdi. U yettinchi jangchini qo‘lma-qo‘l jangda qilichi bilan o‘ldirdi” [7].

V.Gorbunov turkiy qilichlarni o‘rganish davomida qadimgi turklar tekis dastasi bir qirrali qilichlar ishlatgan, ularning ba’zilari to‘rtburchak, ko‘ndalang

qo‘riqchi bilan jihozlangan. Ular “Xalqlarning buyuk ko‘chishi”ning oldingi davri merosi bo‘lib, amalda milodiy II–V asrlardagi Janubiy Sibir qilichlariga xos bo‘lgan naqshlarni o‘zida aks ettirganligi va Birinchi Turk xoqonligi (552–657) davrida, to‘g‘ri dastali, ko‘ndalang qo‘riqchisiz yoki olmos-olti burchakli ko‘ndalang qo‘riqchili bir va ikki qirrali qilichlar ishlatilgan deb ta’kidlaydi.[8]. Uyg‘ur xoqonligi O‘rta Osiyo dashtlari ustidan hukmronlik qilganidan so‘ng (745–840), turkiy tig‘li qurollar qatoriga uzun qilichlar va to‘rtburchaklar shaklidagi qo‘riqchilarga ega bolta tig‘li qilichlar kirgan [9]. Umuman olganda turkiy qilichlar ham ma’lum bir vaqt oralig‘ida ba’zi bir o‘zgarishlarni olib janglarda dushmanni yo‘q qiluvchi asosiy qurollardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Nayza ham qadimgi turklarning asosiy zarba quroli bo‘lib, uning qo‘llanilishi keng qamrovli bo‘lgan. Nayza uzun yog‘och sopdan iborat bo‘lib, uch qismiga temir tig‘ o‘rnatilgan. Tig‘ shakli ko‘pincha bargsimon yoki uchli bo‘lib, sanchish jarayonida maksimal kirish qobiliyatini ta’minlagan. Nayza uzunligi vazifasiga qarab farqlangan: piyoda askarlar qisqaroq nayzalardan foydalangan bo‘lsa, otliq qo‘shinlar uzun nayzalardan foydalanib, dushman safini yorib o‘tishda samaradorlikka erishgan. Nayza uloqtirish quroli sifatida ham ishlatilgan bo‘lib, bu holatda uning og‘irligi va muvozanati alohida ahamiyat kasb etgan.

Yaqin va uzoq masofali janglarda ishlatiladigan itarish va teshish quroli bo‘lgan nayza uzun, ingichka, qattiq va egiluvchan yog‘och novdan iborat bo‘lib, uning uchiga tosh, shox, mis, bronza, temir yoki hatto po‘latdan yasalgan uchi biriktirilgan. Nayza nishonga otish yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri teshish orqali ishlatiladi. Ov quroli sifatida ham qo‘llaniladigan nayza eng qadimgi qurol turlaridan biridir. Manbalar nayzaning paleolit davridan beri qo‘llanilganligini ko‘rsatadi [10].

Qadimgi turk harbiy tizimida ushbu qurollar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilgan. Jang jarayoni odatda uzoq masofadan kamon yordamida boshlanib, dushman safi zaiflashtirilgan. Keyinchalik otliq qo‘shinlar tezkor harakat bilan yaqinlashib, nayza yordamida zarba bergan. Jangning oxirgi bosqichida esa qilich bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘qnashuv amalga oshirilgan. Bu ko‘p bosqichli taktika dushman kuchini izchil kamaytirish va yakuniy g‘alabaga erishish imkonini bergan.

Qadimgi turklar qurolsozlikda yuqori darajadagi tajribaga ega bo‘lganlar. Temir rudalarini qazib olish, ularni eritish, metallni tozalash va qayta ishlash jarayonlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Qurol ishlab chiqarishda ustalar avloddan-avlodga o‘tuvchi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan. Har bir qurol individual tarzda tayyorlanib, uning sifati jangchining hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli qurollar mustahkamlik, o‘tkirlik va qulaylik jihatidan yuqori talablar asosida ishlab chiqilgan.

XULOSA: Qadimgi turklarning zarba qurollari nafaqat texnik jihatdan mukammal bo‘lgan, balki ular harbiy strategiya va taktika bilan uyg‘un holda qo‘llanilgan. Bu esa turk qo‘shinining yuqori jangovar samaradorligini ta’minlagan. Qilich, kamon o‘qi va nayza kombinatsiyasi turklarning harbiy ustunligini belgilovchi asosiy omil sifatida tarixda muhim o‘rin egallagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muharrem Kesik, At Üstünde Selçuklular: Türkiye Selçuklularında Ordu ve Savaş, Timaş Yay., İstanbul 2011. – 272 s.

2. İbrahim Kafesoğlu, Türk Milli Kültürü, Ötüken Yay., İstanbul 2011. – s. 273.

3. Seray Özden, Gökhan Gündüz, Sadettin Murat Onat, “Türklerde Yay Yapımı ve Ağaç Kullanımı”, Düzce Üniversitesi Ormancılık Dergisi, Haziran 2009, V/ I, 135.

4. Bahaeddin Ögel, “Türk Kılıcının Menşei ve Tekâmülü”, DTCFD, Ankara 1948, VI/ 5, 431.

5. Erkan Göksu, Türkiye Selçuklularında Ordu, TTK Yay., Ankara, 2010. – s. 318.

6. L. N. Gumilöv, Hazar Çevresinde Bin Yıl, (Çev. Ahsen Batur), Selenge Yay., İstanbul, 2000. – S. 113.

7. Тугушева Л.Ю. Тюркские рунические письменные памятники из Монголии. – М., 2008. – С. 47.

8. Горбунов В.В. Военное дело населения Алтая в III-XIV вв. – С. 64.

9. Горбунов В. Длинноклинковое оружие тюркской конницы. Сп. 2015. – С. 38.

10. Mustafa Zeki Terzi, “Mızrak”, DİA, İstanbul, 2005. XXX, 3.

HARBIY BOSHQARUV VA AMIR TEMUR HAYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Zuhra Jo‘rayeva Jalol qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buyuk sohibqiron Amir Temurning davlat va harbiy boshqaruv sohasidagi o‘ziga xos xususiyatlari, uning shaxsiy ruhiyati va ma’naviy olami tahlil qilingan. Muallif Amir Temurning qo‘shinni boshqarishdagi psixologik usullari, askarlar bilan o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlari hamda harbiy intizomning ma’naviy asoslarini yoritib bergan. Shuningdek, maqolada Sohibqironning nafaqat zafarli yurishlari, balki Movarounnahr obodonchiligi va ilm-fan rivoji yo‘lida amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari,

Vatanimiz shuhratini dunyoga tanitishdagi tarixiy xizmatlari ilmiy va badiiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Sohibqiron, harbiy boshqaruv, "Temur tuzuklari", harbiy psixologiya, ma’naviyat, bunyodkorlik, milliy o‘zlik, professional armiya, strategik tafakkur, Movarounnahr, tarixiy meros.

ОСОБЕННОСТИ ВОЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ И ЖИЗНИ АМИРА ТЕМУРА

Зухра Джураева Джалол кизи,
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация: В данной статье проанализированы особенности государственной и военной управленческой деятельности великого полководца Амира Темура, а также его личностные качества и духовный мир. Автор освещает психологические методы, применявшиеся Амиром Темуром в управлении войском, его отношения с воинами, основанные на взаимном доверии, и нравственные основы воинской дисциплины. Кроме того, на основе научных и художественных источников раскрываются не только победоносные походы Сахибкирана, но и его созидательная деятельность, направленная на благоустройство Мавераннахра и развитие науки, а также исторические заслуги в прославлении нашей Родины во всём мире.

Ключевые слова: Амир Тимур, Сахибкирон, военное управление, «правила Тимура», военная психология, духовность, творчество, национальная идентичность, профессиональная армия, стратегическое мышление, Моваруннахр, историческое наследие.

MILITARY ADMINISTRATION AND THE CHARACTERISTICS OF AMIR TEMUR’S LIFE

Zuhra Juraeva Jalol kizi,
Chirchik State Pedagogical University

Annotation: This article analyzes the unique characteristics of the Great Sahibkiran Amir Temur in the field of state and military administration, his personal spirit and spiritual world. The author sheds light on Amir Temur’s psychological methods of leading the army, his trust-based relations with soldiers, and the spiritual foundations of military discipline. Also, the article reveals not only the victorious campaigns of Sahibkiran, but also his creative work in the development of Transoxiana and science, and his historical services in promoting the glory of our Motherland to the world on the basis of scientific and artistic sources.

Key words: Amir Temur, Sahibqiron, military administration, "Temur's rules", military psychology, spirituality, creativity, national identity, professional army, strategic thinking, Movarounnahr, historical heritage.

KIRISH: Sohibqiron Amir Temur haqidagi ko‘plab maqolalar yozilgan va Temur shaxsining ko‘p qirralarini ochishga urinishlar bo‘lgan, lekin u hozirda ham avvallari kabi sirli, murakkab va asosiysi takrorlanmas o‘ziga xos shaxs sifatida insonlarni ongida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa uning harbiylarga xos ruhiyati, kuch-quvvati va shijoati o‘z askarlarga ham o‘rnak bo‘lgan va bugungi kun askarlari uchun ham o‘rnak bo‘lib kelmoqda. Amir Temur o‘ziga xos ruhiyatli inson edi, u bu xislati tufayli hayoti davomida ko‘plab yutuqlarga erishgan. Buni biz birgina harbiylarga xos psixologiyasi va bu bilan o‘z navkarlari qalbidagi ishonchni qo‘rquvni uyg‘unlashtirib, ularga ruhiy ta’sir o‘tkaza olganligini o‘zidayoq isbotini ko‘ramiz. “Kimki O‘zbek pomini millatini adolatparvarligini, kuch-qudratimi cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu kelajakka ishonchni anglamoqchi bo‘lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak”. Biz tarixdan bilamizki o‘z askarlari o‘rtasida nifoq o‘rnatib yoki ularni o‘ziga ishontira olmay keyinchalik o‘zi ular qo‘lida halok bo‘lgan tarixiy shaxslar ham bo‘lgan. Amir Temur «Tuzuklari»da aytadi: «Askarlarimni qo‘rquv va ishonch orasida saqlab ularni o‘zimdan umidvor qildim va ularni yemak ichmak bilan siyladim».

ASOSIY QISM: Bundan ko‘rinib turibdiki, navkarlari unga ishonishgan va buyruqlarini so‘zsiz bajarishgan. Temurning navkarlari ruhiyatiga ta’sir etishning bir usuli, u askarlaridan qat’iy intizomni talab qilgan va o‘zi ham jangga kirardi va askarlarini hech qachon jangda yolg‘iz tashlab ketmas edi. A.Temurning mag‘rurligi va ulug‘vorligi haqida Ibn Arabshoh shunday degan: «Uning tabiati qoplonnikidan, kayfiyati bo‘rinikidan qolishmasdi, u O‘zidan ustun bo‘lmoqchi bo‘lganlarni yomon ko‘rardi va ularni o‘sha zahotiyoq yanchib tashlardi» deb yozadi: ko‘rinib turibdiki ibn Arabshoh unga muxolif bo‘lishiga qaramay o‘zining obyektiv fikrini bildirgan edi, buni isbotini biz bevosita harbiy janglardagi yoki hayotiy faoliyatida ko‘rishimiz mumkin. Temur ruhiyatida ikkita yirik kuch, ya’ni ruhiy olam mavjud edi, diniy-ilmiy ruhiy olam, harbiy ruhiy olam edi.

Uning tabiatini o‘ziga xosligi ham shular mujassamligidan edi. Temurning diniy-ilmiy ruhiy olamida Qur’ondan bashorat kilish xislati mavjud bo‘lib, bevosita bu orkali askarlariga ham, dushmanlariga ham ta’sir o‘tkazgan, shu tufayli ham ko‘p janglarda qo‘li baland kelib, raqiblarini mavh etgan. Chunki bizga ma’lum din insonlar hayotida muhim o‘rin tutadi. Shu tufayli Amir Temur din orqali askarlari qalbiga g‘alaba urug‘ini shunday qadaganki, buning natijasida uning qo‘shinlari hamisha g‘olib bo‘lishgan. Harbiy ruhiyat Temurning eng asosiy

sirli jihati edi, chunki uning o‘zi harbiy kishi edi. Temur cherik (qo‘shin) tuzib, navkar olishda 3 qoidaga amal qilgan:

1. Yigitning kuch quvvatiga
2. Qilichni o‘ynati olishiga
3. Aql-zakovatiga va kamolotiga e’tibor bergan.

Negaki kuch quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli bo‘ladi. Qilichni yaxshi o‘ynata oladigan askar raqibini mag‘lub eta oldi. Oqil navkar har qanday joyda ham aql-idrokini ishga solib mushkulotni bartaraf etmog‘i mumkin.

Buni qarangki bugungi kunda olib borilayotgan professional armiya tuzish asoslarini o‘sha zamonlardayoq boshlagan ham aynan Temur bo‘lib, hozirgi kunda ham professional armiya askarlariga xuddi shunday talablar qo‘yilmoqda faqat bugungi kun armiyasiz ko‘rinishi zamonaviylishgan xolos Demak biz aytishimiz mumkinki o‘zbek armiyamiz bugun yoki kecha emas balki uzoq yillar davomida takomillashib kelgan va kelmoqda.

Amir Temur hayoti davomida 5 narsaga qat’iy e’tiqod qo‘ygan va hamisha shular orqali iymon topishga yo‘l ochgan:

ALLOH-ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig‘insang istagan murodu maksadinga yetkazadi.

TAFAKKUR-fikrlash va mushohada qobiliyati, kuvvai hofizasi kuchli inson har qanday mushkuli mushkulotni oson qilish yo‘lini topa oladi.

QILICH-ul yigitning yo‘ldoshi, el-yurt osoyishtaligining posboni, har qanday dushmanni mavh etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni dinga solmog mumkin.

IMON-ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turguvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug‘lari, el-u xalqning or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi.

KITOB (bitik)-barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir [1].

Buni qarangki, Temur kuchli bilimga ega bo‘lgan shaxs bo‘lganki butun tarixiy davrlar mobaynida olimlaru insonlarning asosiy tortishuv masalasi bo‘lgan «komil inson» haqida ham o‘z tasavvurini namoyon etgan ekan. U buni nafaqat harbiylar hayotiga, balki jamiyatga kiritishga va insonlarni tarbiyalashda foydalanishga harakat kilgan. Temur bu bilan o‘z hayot yo‘lini tanlagan va shu yo‘l tufayli u kuchli va adolatli davlat tuzib uni o‘z irodasiga bo‘ysundira olgan. Bu esa Temur va Temuriylar davrida davlat, jamiyat taraqqiyotiga sababchi bo‘lgan va ko‘plab ilmiy sohada yangiliklar yaratishiga olib kelgan.

Har bir kishida atrofdagi odamlarning Temurga nisbatan cheksiz sadoqatining sababi nimada bo‘lgan degan savol tug‘ilishi tabniy. A.Temur ularga

na bir ilohiy xabar aytgan, na irqchilik tuyg‘usini berib ularga ta’sir o‘tkazgan, ammo shunga qaramay ular Chingizxondan keyin boshqa hech bir zot qo‘llamagan qat’iy bir tartib asosida yuzaga kelgan boshqaruvga bo‘ysunishgan. Uning qo‘shinidagi har bir jangchi irqi, e’tiqodi va jamiyatda tutgan o‘rnidan qat’iy nazar, ko‘rsattan mardligi va qahramonligi bilan qadrlanadi. Askarga rag‘bat va jazo berishda hech kimning so‘zi Temurga o‘tmagan, u doimo askarlari yonida, ularning qismatlariga sherik bo‘lar, taqdirlari bilan qiziqardi. Shuning uchun ham u xastaligi tufayli yurishdan qolganda ham askarlari uni Osiyo va Yevropaning cheksiz olovli, cho‘lli, o‘rmonli va muzli yo‘llaridan yelkalarida olib o‘tishgan. Temurning qo‘shini esa beqiyos bir ko‘shin ediki, unda mo‘g‘ul eroniy bilan, ko‘chmanchi turk bilan, musulmon otashparast bilan nasroniy butparast bilan turfa tillarda so‘zlashadigan va Ulug‘ Amir irodasini sehri bilan yelkama-yelka jang qiladigan askarlardan iborat ko‘shin edi. Temurda askar sipohiylar ishonchini qozonishda ko‘plab xislatlar va ma’lum bir voqealar sabab bo‘lgan Masalan, «Sarbadorlar» mo‘g‘ullarni yenggach (1365) Temur va Husayn Samarqandga kelishadi. Bu yerda Husayn «Sarbadorlar» harakati rahnamolarini qatl ettiradi, ammo Temur ularning boshliqlaridan biri bo‘lgan Movlonozodani qutqarib qoladi. Husaynning xunrezligi o‘z vaqtida A.Temurning esa olijanobligi, o‘z safdoshlariga samimiyligi orqali keyinchalik u butun askarlar ishonchini oqlaydi.

Temur shunday hukmdor ediki, u o‘z askarlari ong ruhiga ta’sir etib kam sonli bo‘lgan taqdirda ham askarlar kalbida g‘alabaga ishonchni uyg‘ota olar edi va o‘z g‘alabalariga zamin yaratadi. Bundan tashqari A.Temur shunday kuchli hamda o‘zaro bog‘liq fuqaroviy va harbiy bir ma’muriyat tuzdikim, u hukmdor uzoq muddatli safarga ketganida ham samarali faoliyat ko‘rsatgan bunga bevosita askarlarini, atrofdagilarni o‘z sarkardasiga o‘z hukmdoriga sadoqatli qilib tarbiyalashga muvaffaq bo‘lganida deyish ham mumkin. A.Temur johil, g‘azabi kuchli shaxs tuyulsada, lekin u juda kuchli psixologiyaga ega, kechiruvchan, sabr matonatli, (kengashib) keyin amalga oshirgan. Bunda unga nafaqat harbiylar balki, din peshvolari ham katta ko‘mak berishgan.

Sohibqiron Temurning buyuk xislatlaridan yana biri hamma joyda hoziru nozir bo‘lish va doimo zafar qozonish edi Temurning umri davomida juda ko‘p kiyinchiliklar bilan olib borgan jangu jadallari natijasi shuni ko‘rsatdiki, o‘z ruhining tanasidan ustun kelganligi, irodasini bu qadar yuksaklarga ko‘tara bilganligi A.Temur g‘alabasining eng katta omili bo‘lsa kerak.

Lekin bundan hech ham ruhiy tushkunlikka tushmagan Temur ko‘shinning ruhini ko‘tarish uchun odatda Samarqandda tantanali marosimlar paytidagi kabi, harbiy ko‘rik (parad) o‘tkazishga qaror qiladi. U har bir askarlarini birma-bir o‘zi ikki kun davomida ko‘rikdan o‘tkazadi. Safar qiyinchiliklariga qaramay qo‘shinlari bosh qo‘mondaniga ishonch va sadoqatini yo‘qotmaganidan juda quvonadi.

Ko‘rinib turibdiki Temur va qo‘shinlari o‘rtasida bir-biriga ishonch, suyanchiq bo‘lish, ruhiy dalda, kuch-quvvat mavjud bo‘lgan va shunday kuchli qo‘shin bilan A.Temur pirovardida g‘alabaga erishadi. Zero, u rahbar bo‘lishdek tug‘ma, ammo aqlga sig‘mas tabiiy va sinoatli hislat sohibi edi.

Ko‘p yillar davomida sarkardalarning asosiy e’tibori askarlari e’tiborini qozonish va ular bilan birgalikda harakat kilish bo‘lgan. Bugungi kunda ham har bir davlat boshlig‘i kuchli va eng asosiysi o‘z boshlig‘iga xalqiga, sadoqatli askarlarni tarbiyalab, ularning ishonchini qozonishga harakat qiladilar. Temur o‘z askarlarini ishonchini qozongan va ular bilan birgalikda dunyoning katta qismini egallagan kuchli hukumdor sifatida bugun xalqimiz ongida muqim saklanadi. Bundan tashqari davlatimizda amalga oshirilayotgan har bir ishda Temur ruhiyatini ko‘rsak bo‘ladi, misol uchun ulug‘vor binolarning qurilishi, harbiy tizimda professional armiya tuzishga intilish qoldirgan meroslarini qayta tiklash kabilar.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Eng asosiysi bugungi kun va Temur siyosatining asosi bunyodkorlik siyosati deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Temur hukmronlik qilgan yillarda Movarounnaxrning turli tomonlarida ko‘pgina inshoatlar barpo etildi. Bunga bir tomondan mamlakat siyosiy hayotida hosil bo‘lgan vaqtinchalik nisbiy osoyishtalik imkon yaratgan bo‘lsa, ikkinchidan esa mahalliy hunarmandlar bilan bir qatorda zabt etilgan turli mamlakatlardan Movarounnahrga, asosan Samarqandga keltirilgan mutaxassislar hunarmandlar, me’morlar, naqqoshlar keng ko‘lamda qurilishga jalb qilinishi ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Chunonchi, Temur o‘zi istilo etgan mamlakatlardan nafaqat qimmatbaho boyliklarni, shuningdek mahalliy ustalarni Movarounnahrga olib keltirdi. Ibn Arabshoh, Temur Damashqdan fazlu hunur egalarini, turli-tuman san’at ahllari to‘quvchilar, tikuvchilar, sangtaroshlar, duradgorlar, chodir to‘quvchilar, mol tabiblari, naqqoshlar yoy yasovchilar, qirg‘iydorlar, xullas har qanday hunar ahllarini Samarqandga olib ketganligini xabar qiladi. Bu haqda Sharafuddin Ali Yazdiy ham yozib, tabiblardan mavlono Jamoluddin va Sulaymon ham olib ketilganligini qayd qilsa, Ibn Arabshoh Jamoluddinni Shomda tabobat raisi edi, deb bu fikrni to‘ldiradi.

Yana shunisi xarakterliki, Temur Samarqandga olib ketgan shaxslardan ba’zan oddiy hunarmandlarning nomlari ham zikr qilinadi. Ibn Arabshoh, shaxsan o‘zi bilgan sovut yasovchi usta Shaxobuddin Ahmad shular jumlasidandir. Chet o‘lkalardan Samarqandga keltirilgan hunarmand va ustalar hamda mahalliy aholining samarali mehnati va noyob san’ati bilan o‘sha davrda bunyod etilgan Masjidi Jome’, Shohizinda, Go‘ri Amir kabi sharq me’morchilik san’atining ajoyib namunalari bo‘lgan muhtasham imoratlar, bir tomondan shuhratparastlik hokimlarning o‘z davlati qudratini namoyish qilishga jonu-jahd ko‘rsatganliklarini

anglatsa, ikkinchidan feodal zulmi sharoitida madaniy boylik yaratib, keyingi avlodlarga meros qoldirgan o‘sha xalqlar mushtarak ijodining samarasini ham ifodalaydi [2].

Amir Temur el-yurt obodonchiligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi uchun hech narsani ayamadi. To‘g‘ri, bu shaharlar, ularga chiroy bag‘ishlab turgan oliy imoratlar, bog‘u rog‘lar va boshqa inshootlar harbiy yurishlar paytida boshqa mamlakatlardan olib kelingan boylik va raiyatdan muntazam yig‘ib turilgan oliq-soliqlar hisobiga bunyod etildi. Tarixda dabdabali, manman degan hukmdorlar ham ma’lumki, o‘z xalqini ham, boshqa xalqlarni ham beayov taladilar, lekin o‘zlaridan arzugulik nom-nishon qoldirmadilar. Shu xususda tarixchi olim A.Y.Yakubovskiy qiziq bir fikr aytgan. U Amir Temurni XI asrda o‘tgan yana bir buyuk fotih Mahmud G‘aznaviy bilan solishtirib bunday degandi. «Ikkalalari bosqinchilik urushlari olib borishda bir-birlariga o‘xshaydilar. Ammo Sulton Mahmud boshqa mamlakatlardan o‘lja sifatida yig‘ib kelgan behisob boylik g‘aznaviylar davlatining xo‘jalik ishlariga sarflanmadi. Temur-boshqa gap. U yaxshi hisob-kitoblik xo‘jayn edi [3]. U Movarounnahrga nafaqat turli-tuman moddiy boyliklarni, balki hunarmandlar, musavvirlar, me’mor na olimlarni ham surib keldi.

To‘g‘ri, Movarounnaxrning o‘zi mutaxassis va olimlarga boy edi. Lekin fan va madaniyat arboblari, hunarmandlar qancha ko‘p bo‘lsa, hunarmandchilik, ma’daniyat va ilm-fan ham shuncha tez rivojlanadi, degan o‘y bilan shunday qildi». Ha, Amir Temur borini el-yurt obodonchiligi yo‘lida sarflab, o‘ziga esa sariq chaqa ham olib qolmadi. Shu o‘rinda XV asrda o‘tgan yirik tazkiranavis olim Davlatshoh Samarqandiy aytgan qiziq bir gap beixtiyor xotiraga keladi. U bunday degan edi. “Shoxrux sulton Samarqand taxtiga o‘ltirgondin keyin (1409) otasining shahar arkida, Ko‘ksaroydagi xazinasiga kirdi. (Ammo) ablahlar dimog‘i aqldin, johillar qalbi bilimdin xoli bo‘lg‘oniday Shoxrux sulton (ham) o‘sha xazinani gakjdan xoli topdi. Tasodifan Mirzo asosini uchi (yerda yotgon) bir dirham aqchaga tegdi. Ani olib, peshi bilan artdi, so‘ng ko‘zlariga surtib, kissasiga soldi, keyin mulozimlariga yuzlanib dedi. «Biz ushbu dirham haqi otamizdan qolg‘on xazinani va merosdin bahramand bo‘ldik” [4].

Va nihoyat, Amir Temurning vatani, xalqi va tarix oldida qilgan yana bir katta xizmati borki, uni aytmay bo‘lmaydi. U Vatani va xalqini butun dunyo oldida ulug‘ladi! Turkiston zaminni Ispaniya, Italiya, Fransiya, Angliya, Rusiya, Xitoy kabi davlatlar tanidilar va tan oldilar. Biz buni o‘sha mamlakat podshohlari bilan hazrat Sohibqiron o‘rtasidagi yozishmalardan va o‘sha zamonlardan qolgan tarixiy kitoblardan yaxshi bilamiz. O‘sha maktublardan bir qismi bizning zamonamizgacha yetib kelgan va hozir Londondagi mashhur Britaniya muzeyida,

Parijning milliy kutubxonasida, Istambuldagi Sulton Muhammad Fotih kutubxonasida, Italiyada saqlanmoqda.

Xullas, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, “Amir Temurning shonu shuhrati, hayoti va faoliyatiga bo‘lgan qiziqish jahonning turli mamlakatlarida tobora ortib bormokda. Bu mavzuda nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham necha yuz yillardan buyon muntazam ilmiy va badiiy asarlar yaratib kelinmoqda”[5].

XULOSA: Amir Temur shaxsiyati va uning davlatchilik maktabini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Ruhiy va jismoniy mutanosiblik: Amir Temurning g‘alabalari zaminda nafaqat jismoniy kuch, balki yuksak ruhiy barqarorlik va diniy-ilmiy tafakkur mujassam bo‘lgan. U o‘z askarlarida qo‘rquv emas, balki cheksiz ishonch va sadoqat tuyg‘usini uyg‘ota olgan buyuk sarkardadir. Zamonaviy armiyaning tamal toshi: Sohibqiron tomonidan qo‘shin tuzishda asos qilib olingan uch mezon (kuch-quvvat, mahorat va aql-zakovat) bugungi kunning professional armiya talablari bilan hamohangdir. Bu esa o‘zbek harbiy san’atining ildizlari juda chuqur ekanligidan dalolat beradi. Bunyodkorlik va ilmparvarlik: Temurning harbiy yurishlaridan ko‘zlagan asosiy maqsadlaridan biri — markazlashgan kuchli davlat qurish va Movarounnahrni ilm-fan, madaniyat hamda me’morchilik markaziga aylantirish bo‘lgan. Uning "Kuch — adolatdadir" degan tamoyili davlat boshqaruvining bosh mezoni bo‘lib xizmat qilgan. Xalqaro e’tirof: Amir Temur nafaqat mintaqaviy, balki jahon siyosati maydonida Turkiston nufuzini yuksak cho‘qqiga ko‘tardi. Uning Yevropa va Osiyo hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari o‘zbek davlatchiligining dunyo miqyosidagi e’tirofi edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amir Temur o‘gitlari. – T.: «Navro‘z» 1992-yil, 59-bet

2. Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. – T.: «Mehnat», 1992-yil, 44-45-betlar.

3. G‘afforov Y.X. Tarix darsliklarida Amir Temur shaxsini o’rganishning tarbiyaviy axamiyati ... "Sohibqiron Yulduz" jurnali, 2020. – N. 4. – 19 b

4. Axmedov B. Amir Temur. – T.: «Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti», 1995-yil, 582-bet.

5. Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2019. 3-jild, 254-bet.

UO‘K 94(575.1)

MUSTAQILLIK YILLARIDA TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA

Shuxrat Toshkentovich Boymurodov,
Qarshi Xalqaro universiteti

ANNOTATSIYA. Maqolada mamlakatda O‘rta maxsus ta’limning o‘rni va zamonaviy vazifalari, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan hamkorligi, O‘quvchi-yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarliklarning oldini olish va uning jamiyat taraqqiyotidagi salbiy ta’siri, huquqshunos olimlar va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari bilan o‘zaro hamkorlik masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jinoyatchilik, huquqbuzarlik, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, tarbiyasi og‘ir, jinoiy harakatlar, Voyaga etmagan, Bolalarni ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy-huquqiy yordam.

ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Шухрат Тошкентович Боймуродов
Каршинский международный университет

АННОТАЦИЯ. В статье проанализированы роль и современные задачи среднего специального образования в стране, а также взаимодействие учреждений среднего специального профессионального образования с Генеральной прокуратурой Республики Узбекистан, Министерством внутренних дел и Министерством высшего и среднего специального образования в сфере профилактики преступности среди учащихся. Кроме того, рассмотрены вопросы предупреждения преступлений и правонарушений среди учащейся молодёжи, их негативного влияния на развитие общества, а также сотрудничества с учёными-правоведами и сотрудниками правоохранительных органов.

Ключевые слова: преступность, правонарушения, правоохранительные органы, воспитание, тяжкие, преступные деяния, несовершеннолетние, социальная защита детей, социально-правовая помощь.

SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Shuxrat Toshkentovich Boymurodov
Karshi International University

ANNOTATION. The place and current tasks of secondary special education in the country, cooperation with the Prosecutor General's Office, the Ministry of Internal Affairs, the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan on crime prevention among students of secondary special and vocational education institutions, crime prevention, delinquency among students and youth and its negative impact on the development of society, interaction with legal scholars The issues of interaction with law enforcement officers were analyzed.

Key words: crime, offenses, law enforcement agencies, education, serious, criminal acts, minors, social protection of children, social and legal assistance.

KIRISH: Mustaqillik yillarida barcha turdagi ta’lim muassasalarida yoshlarga ta’lim berish jarayonida o‘quv-tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya masalasiga ham katta e’tibor qaratildi. Ushbu masala ta’lim jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “...Bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy – ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”, degan haqli e’tirof Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan alohida ta’kidlangan edi. Zero, vatan taraqqiyoti, millat istiqboli shu zaminda voyaga etayotgan yoshlar kamoli bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim tizimida ham ma’naviyat, ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasiga alohida ahamiyat berilib, har bir o‘quv mashg‘ulotlarida talabalar ongida Vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy boyliklar va ko‘hna tarixga hurmat ruhini shakllantirishga asosiy vazifa sifatida qaraldi.

ASOSIY QISM: O‘zbekiston Respublikasi prezidentining asarlari, ma’ruzalari, qaror va farmoyishlari [1,2,3], Karimov I asarlari [6], Mahmudov Y., Ikromov A., To‘rayev A [7]. Matqurbonov Q. Kadrlar tayyorlash milliy modeli dunyo tajribasi va milliy xususiyatlari [8] kabilar o‘rganilgan

Maqolada O‘zbekistonda o‘rta maxsus ta’lim sohasidagi islohotlari va uning ahamiyati qabul qilingan tarixiy va sotsiologik metodlar – tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, funksional yondashuv, qiyosiy-mantiqiylik, tahliliy, ketma-ketlik, xolislik, obyektivlik tamoyillari asosida yoritilgan.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan hamkorlikda qator tadbirlar amalga oshirildi. O‘quvchi-yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik,

huquqbuzarliklarning oldini olish va uning jamiyat taraqqiyotidagi salbiy ta’sirini ochib berish maqsadida huquqshunos olimlar va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari bilan o‘zaro hamkorlikda 2005-yilda o‘quvchilar bilan jami 8456 ta davra suhbatlari, bahs-munozaralar va uchrashuvlar o‘tkazildi [1]. Tahlillari shuni ko‘rsatadiki bu uchrashuvlar asosan markaziy shaharlardagi bilim yurtlarda o‘tkazilgan.

2006-yili Beshkent qishloq xo‘jalik kasb-hunar kollejining talabasi Ahmedov Dilshod O‘zRJKning 109-moddasi bilan, Shahrisabz oziq-ovqat kolleji talabasi Jalilov Fazliddin O‘zRJKning 109-moddasi bilan, Qarshi iqtisodiyot kolleji talabasi Xudoyqulov Kodir O‘zRJKning 183-moddasiga asosan jinoiy ish sodir etgan. 2007-yili respublikadagi turli o‘rta maxsus ta’limi muassasalari o‘quvchilaridan 99 nafar tarbiyasi og‘ir o‘g‘il bola sud ajrimiga asosan Sirdaryo viloyati Baxt o‘g‘il bolalar maxsus kasb-hunar kollejiga va 115 nafar qiz bolani Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahridagi maxsus engil sanoat kasb-hunar kollejiga yuborildi [2]. Qayd etish lozimki, o‘rta maxsus ta’lim sohasidagi muammoli jihatlaridan biri — bu jinoyatchilik hisoblanadi. O‘smir yoshidagi o‘quvchilarni jinoyatchilik ko‘chasiga kirib qolishi o‘rta maxsus ta’lim sohasida tez-tez uchraydigan holatga aylandi. O‘zbekistonning turli hududlarida o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida yuz bergan jinoyatlar o‘rganilganda, ayniqsa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida bu yuqori darajada bo‘lganligi aniqlandi.

Respublikada o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoiy harakatlari uchun Beruniy qishloq xo‘jalik, Nukus transport, Asaka iqtisodiyot, Qorako‘l sanoat va transport, Jizzax san’at, Jizzax transport va aloqa, Namangan aloqa va transport, Karmana qishloq xo‘jalik, Yangiyer qurilish va kommunal xizmat, Guliston kompyuter texnologiyalari, Farg‘ona elektrotexnika, Qo‘qon kompyuter texnologiyalari, Furqat ijtimoiy-iqtisodiyot, Farg‘ona kompyuter texnologiyalari, Rishton sanoat, Farg‘ona olimpiya zahiralari, Oltiariq agrosanoat, Olmaliq qurilish va kommunal xo‘jalik, Chirchiq qurilish va kommunal xo‘jalik kasb-hunar kollejlari rahbarlariga intizomiy jazolar qo‘llanildi [3].

Jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha tegishli huquq-tartibot organlari bilan hamkorlikda 2007-yil 25-yanvarda Samarqand, 18-fevralda Farg‘ona viloyatlarida seminarlar o‘tkazildi. Shuningdek, 2007-yil 25-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya” bilan hamkorlikda ”Bolalarni ijtimoiy himoyalash: murabbiylik funksiyalarini takomillashtirish istiqbollari” mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi [4].

2007-yil 13-18-noyabrda Toshkent shahridagi 117 ta ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 1300 nafardan ortiq o‘quvchilar poytaxt o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi Markazi hamda Toshkent shahar o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi

Boshqarmasi mas’ul xodimlari ishtirokida ochiq muloqotlar tashkil qilindi [5]. Ta’lim muassasalarida ichki ishlar idoralari xodimlari bilan hamkorlikda yaratilgan “Beparvolik bedavolik” videofilmi namoyish qilindi. Respublikaning barcha o‘quv yurtlarida jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oqibatlarini fosh etishga qaratilgan video-filmlarni muntazam namoyish etish, ta’lim muassasalarida ko‘rgazmali tashviqot ishlarini olib borish, bu masalalarga tegishli adabiyotlar, uslubiy qo‘llanmalar bilan kutubxonalarni ta’minlashga ham katta e’tibor berildi. Afsuski, jinoyatchilikka qarshi kurashish ko‘p holda rasmiyatchilik tusini olgan bo‘lib uning haqiqiy ildizlarini tahlil etish chetda qolar edi. 2015-2016-yillarda ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning aksariyati keksalarni e’zozlash va kattalarga hurmat mavzusiga qaratildi. 2015-yili 30-31-oktyabrda Toshkentda Yoshlar ijod saroyida “Keksalarni e’zozlash–ulug‘ qadriyat” shiori ostida “Mahallaning orasta qizlari” respublika anjumani tashkil etildi.

«Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasin» shiori ostida tadbirlarni amalga oshirish borasidagi xayrli ishlar ham ibratlidir. Nafaqaga chiqib, hozirda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar va xodimlarning tarixiy shaharlar va muqaddas qadamjolarga uyushgan holda sayohatlari tashkil etildi [6]. “Qarisi bor uyning parisi bor”, “Qariyalar – xonadonlarimiz fayzi” mavzularida milliy ma’naviy qadriyatlar va an’analarni targ‘ib etish maqsadida “Uch avlod uchrashuvlari” tadbirlari o‘tkazildi. Jumladan, Andijon viloyatida Andijon pedagogika, Xo‘jaobod qurilish, Andijon tumani pedagogika va ijtimoiy-iqtisodiyot ta’lim muassasalarida uzoq yillar mehnat qilgan 45 nafar faxriy ustozlar xonadoniga tashriflar tashkil etildi va faxriy ustozlarga sovg‘alar topshirildi [7].

O‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning nazoratsiz va qarovsiz qolishining oldini olish, ularning darslarga muntazam qatnashishlarini ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga ham kuchli e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-son Qaroriga muvofiq “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarining davomatini va dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishini o‘rganish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma” ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Asosiy e’tibor yoshlarni qarovsiz, nazoratsiz qolmasligi, bu borada ota-onalar mas’uliyatini oshirishga qaratildi. Xususan, o‘tgan 2017-yilning 7 oyda qarovsiz, nazoratsiz qolgan, ijtimoiy-huquqiy yordamga muhtoj bo‘lgan 6 ming nafarga yaqin voyaga etmaganlar ichki ishlar organlarining ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlariga joylashtirilib, yakka tartibdagi profilaktik ishlar tashkil etildi. Oilalardagi voyaga etmaganlarning turmush tarzi o‘rganilib, o‘z majburiyatini bajarmayotgan 24 ming nafarga yaqin ota-onalar voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalarda

muhokama qilindi va tegishli ta’sir choralari ko‘rildi. Ta’kidlab o‘tish lozimki, voyaga etmaganlar jinoyatchiligi jinoyat sodir etgan maktab o‘quvchilari soni 19 nafarga, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari soni 178 nafarga, oliy o‘quv yurtlari talabalari soni 27 nafarga kamaydi.

Respublika bo‘yicha aniqlangan qarovsiz va nazoratsiz yurgan 6 ming nafar voyaga etmaganlarning 3,5 ming nafari yoki sal kam 60 foizi Toshkent shahrida aniqlangan. Ularning aksariyati Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax, Andijon va Namangan viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Bu borada qarovsiz va nazoratsiz bolalar to‘g‘risidagi axborot almashinuvining sustligi ham hamkorlikdagi tadbirlarga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalarni, u erda yashayotgan voyaga etmaganlarni turmush tarzini muntazam ravishda o‘rganib borish, farzandlari tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ota-onalarni aniqlab, O‘tgan davrda voyaga etmagan bolalarini tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarini bajarmagan 20 mingdan ortiq ota-onalarga ma’muriy jazo qo‘llandi, 30 nafari ota-onalik huquqidan mahrum qilindi, 10 nafarini muomala layoqati cheklandi.

Ta’lim muassasalarida muntazam darslarga kelmayotgan hamda respublikadan chiqib ketgan o‘quvchi-yoshlarning nomma-nom ro‘yxati shakllantirilib, har oyning 10 sanasida Ichki ishlar vazirligiga va “Mahalla” xayriya jamoat fondi respublika boshqaruviga kiritildi. Shuningdek, har oyda o‘quvchilarni dars jarayonida o‘qishga bormasdan va tungi vaqtlarda ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxsning nazoratisiz “Internet–kafe” va “Kompyuter klub”larda bo‘lishlarini oldini olish va ularni o‘qishga qaytarishga qaratilgan “O‘quvchi” va “Davomat” kabi profilaktik reydlari o‘tkazildi. O‘smirlar tarbiyasiga keng jamoatchilikni jalb etish, yoshlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishining oldini olish maqsadida “Mahalla” va Ichki ishlar profilaktika noziri uchun jami 557 ta o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalaridan alohida xonalar ajratildi. 2018 yili o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimidagi 1418 ta ta’lim muassasasidan 1139 tasida nazorat tizmi (turniket) tizimi shakllantirilganligi [8] aniqlandi.

Davomat ko‘rsatkichlarining pasayish holatlari doimiy ravishda tahlil qilib borildi. Tahlillarga ko‘ra, Jizzax viloyatidagi 9 ta kollejda darslarga muntazam kelmagan 773 nafar 1-2 kurs o‘quvchining xonadonidagi mavjud holat tahlili natijasi shuni ko‘rsatadiki ota-onalarning 88 foizi o‘rta yoki o‘rta maxsus ma’lumotli, 42 foizida dars tayyorlashga sharoit va kitob yo‘q, 65 foiz ota-onalar hech joyda ishlamaydi, qariyb 70 foizi farzandini o‘qitishdan tashqari biror mashg‘ulot bilan shug‘ullangani aniqlandi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yanada yaxshilash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish

maqsadida: har oyning birinchi jumasi — “Teatr va muzeylar, tarixiy obidalar, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy muassasalarga sayohat va tashriflar kuni”; ikkinchi jumasi — “An’anaviy sport musobaqalari kuni”, uchinchi jumasi — “Davlat arboblari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a’zolari, mahalliy deputatlar, shoir va yozuvchilar, san’atkorlar, ziyolilar bilan uchrashuvlar kuni”; to‘rtinchi jumasi — “Diniy ekstremizm va missionerlik, odam savdosi va giyohvandlikka hamda kashandalikka qarshi kurashga bag‘ishlangan hujjatli filmlar namoyishi kuni” deb belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da viloyat va tumanlardagi muassasalarda bu tadbirlar faqat qog‘ozda aks etgan.

2017-yili o‘rta maxsus ta’limi muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida ma’naviy-tarbiyaviy, profilaktik, pedagogik-psixologik ishlarni susaytirib yuborganligi uchun jami Respublika bo‘yicha 85 nafar psixologlar, 137 nafar direktorlar, 387 nafar direktor o‘rinbosarlariga va 3471 nafar guruh rahbarlariga nisbatan intizomiy jazo choralari qo‘llanildi. Natijada 2017-yilning 9 oyi mobaynida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan huquqbuzarlik va jinoyatchilik 212 taga (993/212), kamaytirishga erishildi[9].

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida ijtimoiy-ma’naviy muhit holati bo‘yicha doimiy tadbirlar olib borildi. 2017-yili diniy ekstremizm, fundamentalizm va terrorizmga qarshi kurash, islom dinining sof aqidalarini targ‘ib etish orqali o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish maqsadida 1789 marotaba uchrashuvlar va davra suhbatlari o‘tkazildi.

2018 yili o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida huquqbuzarlikning oldini olish bo‘yicha 27899 ta uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etildi. Shundan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 3094 ta, Andijon viloyatida 3092 ta, Buxoro viloyatida 599 ta, Qashqadaryo viloyatida 893 tasi o‘tkazilganligi[10] aniqlandi. Jamiyat taraqqiyotida ma’naviyaning o‘rni yuqoriligi hisobga olinib, o‘rta ta’lim tizimida sog‘lomlashtirish va Talabalar ongida ona vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy boyliklar va ko‘hna tarixga hurmat ruhini shakllantirish asosiy vazifaga aylantirildi.

XULOSA: 1. O‘rta bo‘g‘in mutaxassislarining vazifalari kengayib bormoqda, ayniqsa talabalar ongida ona vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy boyliklar va ko‘hna tarixga hurmat ruhini shakllantirish qolaversa, o‘quvchilar o‘rtasida boy tariximizni, o‘tmish me’rosimizni, qadriyat va urf-odatlarimizni o‘rganishga qaratilgan turli xil ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish an’anaga aylantirildi.

2. O‘rta professional ta’lim aholining iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan qatlamlari uchun ta’lim olish vositasi sifatida, bitiruvchilarini ijtimoiy himoya qilish shakli sifatida ham o‘z o‘rniga ega. Shu tariqa u jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash omiliga aylangan.

3. Ta’limni boshqarishda davlat va jamoatchilikning birgalikdagi roli tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yanada yaxshilash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirib borish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zR O‘MKHTM joriy arxivi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida 2005 yillarda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot. 14-19-varaqlar.

2. O‘zR O‘MKHTM joriy arxivi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarilishi bo‘yicha 1998-2005-yillarda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot. 14-19- varaqlar.

3. O‘zR O‘MKHTM joriy arxivi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan 2007-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisoboti, 2-17-varaqlar.

4. O‘zR O‘MKHTM joriy arxivi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarilishi bo‘yicha 1998-2005 yillarda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot, 16- varaq.

5. O‘zR O‘MKHTM joriy arxivi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tizimida 2015-yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari to‘g‘risida ma’lumot, 3-15-varaqlar.

6. O‘MKHTM joriy arxivi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tizimida 201 yil davomida amalga oshirilgan ishlar natijalari to‘g‘risida ma’lumotnoma.

7. O‘zR O‘MKHTM joriy arxivi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tizimida 2017-yil davomida amalga oshirilgan ishlar natijalari to‘g‘risida ma’lumotnoma.

8. O‘zR O‘MKHTM joriy arxivi.

KATTA LANGAR OTA MAJMUASI TARIXI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

F.U.Samarov,
Qarshi xalqaro universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarixiy obidalarga bo‘lgan e’tibor, ularni ta’mirlash va qayta tiklash, me’moriy durdonalarimizning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati haqida so‘z yuritilib, Qamashi tumanidagi “Katta Langar ota” majmuasi misolida mavzu tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada “langar” so‘zining ta’rifi va nima maqsadda bu majmuaga nisbat berilganligi ham qalamga olingan. “Langan ota” majmuasining tarixi, uning o‘ziga xos jihatlari, hozirgi kunda bu majmuaga mamlakatimiz rahbariyati tomonidan qaratilgan alohida e’tibor qayd etib o‘tilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Qashqadaryo viloyati, bunyodkorlik, Qamashi tumani, Katta Langar ota, maqbara, masjid, madaniy meros, tarixiy obidalar, me’moriy obyekt, ta’mirlash.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИИ КОМПЛЕКСА КАТТА ЛАНГАР ОТА

Ф. У. Самаров
Каршинский международный университет

Аннотация. В данной статье на примере комплекса «Катта Лангар ота» в Камашинском районе рассматривается внимание, уделяемое историческим памятникам в Узбекистане в годы независимости, их реставрация и восстановление, а также значение архитектурных шедевров в патриотическом воспитании молодёжи. Кроме того, раскрывается значение слова «лангар» и объясняется, почему комплекс получил такое название. Освещаются история комплекса «Катта Лангар ота», его характерные особенности и особое внимание, уделяемое ему в настоящее время руководством страны.

Ключевие слова и понятий: Кашкадарьинская область, строительная деятельность, Камашинский раён, Катта Лангар ота, мавзолей, мечет, националная сенност, памятники истории, архитектурный объект, реставрация.

SOME REFLECTIONS ON THE HISTORY OF THE KATTA LANGAR OTA COMPLEX

F. U. Samarov
Karshi International University

Annotation. The article discusses the attention paid to historical monuments in Uzbekistan during the years of independence and its importance in restoring our ancient values, educating young people in the spirit of patriotism. The topic is analyzed on the example of the Langar ota complex in the Kamashinsky district. The article also defines the word "Langan" and the purpose for which it is assigned to the complex. The history of the Langan ota complex, its features, the dedication of the villagers to the preservation of this monument even during the years of “repressions”, special attention paid to this complex by the leadership of our country are noted.

Key words and concepts: Kashkadarya Region, Kamasinsky district, development, mosque, national values, cultural heritage, historical monuments, architectural structures, restoration.

KIRISH: Mamlakatimiz davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, tarixiy xotirani tiklash va boy madaniy merosni chuqur tadqiq etishga qaratilgan keng ko‘lamli amaliy ishlar boshlandi. Xalqimizning qadimiy urf-odatlari, an’analari, ma’naviy qadriyatlari bilan bir qatorda, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk muhaddislar, allomalar va avliyolar faoliyatini ilmiy asosda o‘rganishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Shu bilan birga, respublikamizda joylashgan tarixiy-me’moriy obidalar va noyob madaniy meros yodgorliklarni o‘rganish va ularni konservatsiya, restavratsiya hamda rekonstruksiya qilish ishlari orqali asl holatini saqlab qolish masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

ASOSIY QISM: O‘zbekistonning janubiy mintaqalarida joylashgan tarixiy-me’moriy meros obyektlari son jihatidan nihoyatda salmoqli bo‘lib, ular milliy madaniy boyligimizning muhim qismini tashkil etadi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati hududida davlat muhofazasiga olingan madaniy meros obyektlari soni qariyb 1500 tani tashkil etadi [1]. Mazkur tarixiy obyektlarning aksariyatiga jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi nazoratchilar biriktirilgan bo‘lib, ular tomonidan ushbu ko‘hna yodgorliklarni asrash va ularni saqlash borasida aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan. Mintaqada joylashga muhim tarixiy yodgorliklardan biri sifatida Katta Langar Ota majmuasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu majmuaning tarixiy shakllanish jarayoni, me’moriy xususiyatlari hamda bugungi kundagi holati nafaqat mutaxassislar, balki keng jamoatchilik uchun ham dolzarb va tadqiqotga loyiq masalalardan biri sanaladi.

Qamashi tumanining Langar qishlog‘ida, dengiz sathidan deyarli uch ming metr balandlikda bunyod etilgan Katta Langar majmuasi joylashgan. Mazkur tarixiy qadamjo bir necha asrlar davomida ya’ni temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davrida ham Movarounnahrdagi Ishqiya tariqatining yirik va mashhur markazi bo‘lgan.

Bu borada, avvalo, “langar” so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, u turli xil ma’nolarni anglatishiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, S.Tursunov, B.Murtazoyev, J.Cho‘tmatov va F.Sharipovlar o‘zlarining “Imom Abu Iso At – Termiziy va Termiziy allomalar” nomi monografiyalarida “langar” so‘ziga quydagicha ta’rif bergan: Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “langar” so‘zi ikki ma’noda keladi. Birinchisi kemani biror joyda to‘xtatib turish uchun zanjirga bog‘lab suv ostiga tashlanadigan changaksimon og‘ir temir. Ikkinchisi, dorda muvozanatni saqlab turish uchun xizmat qiladigan xoda, langar cho‘p [2.263]. Shu bilan birga mualliflar yana quyidagilarni ham qo‘shimcha qiladilar: Langar so‘zining tojik va eski o‘zbek tillaridagi ma’nolari esa to‘xtash joyi, g‘aribxona, karvonsaroy, ibodatxona, g‘arib-g‘urabolarga ovqat beradigan maskan, go‘rxona, xonaqoh, yo‘ldagi bekat [3.264].

Shu o‘rinda aytish lozimki, mamlakatimizda Langar nomi bilan ataladigan joy nomlari ham talaygina bo‘lib, masalan Surxondaryoning Sariosiyo, Navoiyning Xatirchi, Farg‘onaning Farg‘ona, To‘raqo‘rg‘on va Quva tumanlarida shu nom bilan ataladigan manzilgohlarni uchratish mumkin. Shuningdek, bugungi kunda birgina Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz, Qamashi, Yakkabog‘ va Chiroqchi tumanlarida Langar so‘zi bilan ataluvchi muqaddas ziyoratgoh yoki qishloqlar mavjud.

Qamashi tumanidagi Katta Langar ota majmuasi ikki tarixiy obyekt birinchisi qadimiy maqbara, ikkinchisi ko‘hna masjiddan iborat. Shu bilan birga bu muqaddas qadamjoda islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni karimning noyob (mahalliy aholi tomonidan mazkur kitob kiyik yoki buzoq terisiga yozilganligi ta’kidlanadi) nusxasi saqlanib kelinmoqda. Muqaddas bu maskanda asrlar osha turli xil rivoyatlarga sabab bo‘lgan Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo s.a.v.ning muborak to‘nlari (Hirqai muborak)ning mavjud bo‘lganligi to‘g‘risidagi afsonalar ziyoratgohning nufuzini yanada oshiradi. Islom olamida mashhur bo‘lgan bu tarixiy inshootlarning bunyod etilish tarixiga nazar solsak, barpo etilganligiga qariyb VII asr bo‘layotganligini guvohi bo‘lamiz.

Mamlakatimizning janubiy mintaqasida joylashgan mazkur tarixiy obidanining tarixi haqida V.Bartold, Y.Bertels, M.Masson, L.Mankovskaya, S.Kabanov, E.Rtvuladze, G.Pugachenkova, A.Sagdullayev kabi taniqli moziyshunos olimlar o‘zlarining kitoblarida qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tganlar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “Katta Langar ota” hududidagi qabriston, masjid va bu yerdagi mulklar to‘g‘risi dastlabki ma’lumotlar Buxoroning sharqiy hududlarida harbiy harakatlarda ishtirok etgan Rus harbiy zobiti (polkovnik) A.G.Belyavskiy qaydlarida uchraydi [4.122].

Katta Langar maqbarasi masjiddan bir soy beridagi tepalikda joylashgan. Mazkur yodgorlikni bunyod etilishi tarixini tarix fanlari doktori, professor Y.Ergasheva o‘zining “Katta Langar majmuasi” risolasida quyidagicha yozgan: Bu yodgorlik masjiddan taxminan 100 yil keyin qurilgan bo‘lib, me’morchilik uslubi jihatidan Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasinikiga o‘xshashdir [5.10].

Mazkur ko‘hna maqbara ulkan qabriston tepasidagi pistazor toshdevor bilan aylantirilgan va muqaddas hisoblanadi. Qadimiy qadamjoga kirish eshigi sharqqa qarab qurilgan. Hashamatli qo‘shtabaqali eshikning qulf ustidagi mis qoplangan yuzasidagi yozuvda maqbara Shayx Abul Hasan Ishqiyning o‘g‘li Muhammad Sodiq shayx hazratlari tomonidan otasi shayx Abul Hasan Ishqiy dafn etilgan dahmaning ustida qurilganligi yozilgan. Ko‘hna maqbaraning o‘lchami 14,0 x 12,5 m, peshtoqi gumbazli, bir xonali (5,2 x 5,2), to‘rt tomonlama kesishgan ravoqqa tayanganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Tarixiy va mahobatli maqbarada beshta qabr joylashgan. Janubdan shimolga qarab joylashgan to‘rtta qabrning uchtasida (1,2,3) o‘lcham bir xil. Qabrtoshning kvadrat asosi (plintusi) uzun, ingichka (bo‘yi 17 sm, eni 15 sm) toshtaxtalardan iborat, uzunligi 360 sm, eni esi 125 sm ni tashkil etadi. Mazkur beshta qabrdan uchtasi o‘zining o‘lchami va qo‘yilgan yodgorlik toshlari bilan alohida ajralib turadi. Bu uchta qabrning marmar taxta va yodgorlik toshi bir xil hajmda bo‘lishi bilan o‘rtadagisining yodgorlik toshi yuza qismidagi o‘yma bezaklari o‘zgacha, hoshiyali, yuzasiga Qur’on oyatlari bitilgan.

Birinchi qabrning (janub) oyoq uchi tomonidan tashqarida yana 17 ta qabrga o‘xshash qabr toshli go‘rlar ham joylashgan. Yuqorida ta’kidlangan uchta bir xil o‘lchamdagi qabrtoshlardagi yozuvlarda qayd etilishicha, o‘rtasidagi qabr Sayyid Hasanning, uning chap tomonidagi Muhammad Sodiqning, o‘ng tomonidagi qabr esa Xudoyqul yoki Xudoydodning qabri ekanligi ma’lum bo‘ladi. Langar ota maqbarasining bunyod etilishi to‘g‘risida ham turli xil qarashlar mavjud. Xususan, olima Y.Ergasheva o‘zining “Katta Langar majmuasi” risolasida mazkur tarixiy obidaning bunyod etilishi to‘g‘risida quyidagilari yozgan: Bu yodgorlik Shayboniyxon sulolasining eng mashhur va oxirgi xonlaridan Abdullaxon II (1556\57–1598-yillarda hukmronlik qilgan) davrida qurilgan[6.11].

Shayx Abul Hasan Ishqiy to‘g‘risida taniqli jurnalist va yozuvchi T. Tillayev, T.Boymirov, Sh.Rustamovlar o‘zlarining “Langar ota – tarix ko‘zguzida” nomli kitobida quyidagilarni yozgan: “Shayx Abul Hasan Ishqiy shayx Muhammad Sodiqning otasi bo‘lib, mazkur muqaddas qadamjoda abadiy qo‘nim topgan Ishqiylarning bosh bobosi hisoblanadi. Manbalarda qachon tug‘ilganligi keltirilmagan. Lekin vafot etgan yili qabrtoshda “1491-yil deb” ko‘rsatilgan. Mazkur ulug‘ va mo‘tabar shayx “Langar” Ishqiylarining bosh bobolari manbalarda keltirilishicha, Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi «Oston ota» ziyoratgohida yashagan mashhur shayx Oston ota shajarasiga borib bog‘lanadi“ [7.65].

Ammo shuni ham ta’kidlash lozimki, Hofiz Tanish al-Buxoriy Shayx Abul Hasan Ishqiyni Xorazmlik deb qayd etgan. Xususan, “Abdullanoma” (Sharafnomayi shohiy) asarida quyidagilarni yozib o‘tgan: “Shayx Abul Hasan Ishqiy – asli Xorazmlik bo‘lib, Naqshbandiya tariqatiga mansub bo‘lgan (“Silsilat al orifin” O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi, inv. № 452, v. 1166)” deb yozilgan [8.384].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Langar ota maqbarasining asoschisi hisoblanmish shayx Muhammad Sodiq hazratlari 1465–1545-yillarda yashab o‘tganliklari manbalarda qayd etib o‘tilgan [9.221]. Ishqiya tariqatining buyuk ulamosi to‘g‘risida Hasanxoja Nisoriy o‘zining “Muzakkiri ahbob” (Do‘stlar yodnomasi) kitobida quyidagilarni yozgan: “Saxovat sohasida esa tuhfa –

ehsonlarni darig‘ tutmaslik rasmini yetuklik maqomiga yetkazib, shu qabilda ish tutardiki, bu holatni odatdan tashqari ishlar qatorida ko‘rish mumkin edi va hech kim bunday ishning yuzaga chiqarishini xayoliga ham keltira olmasdi, balki amri maholday tuyulardi” [10.195-196].

Shu bilan birga mazkur tarixiy maqbarani Amir Temur va temuriylar davrida qurilgan degan qarashlar ham mavjud. Xususan, o‘lkashunos olim H.Sattoriy o‘zining “Xotira karvoni” nomli kitobida inshootning bunyod etilish tarixiga quyidagicha to‘xtaladi: „Langar ota Buyuk ipak yo‘lida joylashgan. Amir Temur va temuriylar davrida gullab yashnagan, madrasa va maqbarada o‘sha davr me’morchiligining uslublari aniq ko‘rinib turibdi“ [11.61].

Me’morshunos olima L.Y.Mankovskaya ham o‘zining “Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari” risolasida tarixiy maqbara qurilishining me’moriy uslubi va unda foydalanilgan bezaklar to‘g‘risida quyidagilarni qayd etgan: “Langar ota maqbarasi ham vohaning ajoyib – baland peshtoq-gumbazli bino bo‘lib, rejada sahni 140 x 12,5 metrni tashkil etadi. Maqbaraning chortoqli xonasi kichikroq gumbaz bilan yopilgan bo‘lib, to‘rt tomonlama kesishgan ravoqqa tayangan va qalqonsimon qanoslar uslubida qurilgan. Langar maqbarasining hashamlarini ishlash XVI asrga oid bo‘lgan bezak texnikasiga misol bo‘la oladi.

Gumbaz kosasi, to‘rsimon qanos va tokchalarning stalaktit naqshli ravoqlari rangli ganchda ikki qavatli o‘yma bilan bezatilgan. Bu qirma usulidagi o‘ymakorlikdir: oq qatlamdagi ustki o‘ymalarda pastki to‘rning qizil zamini ko‘rinib turibdi, aftidan, maxsus rang bilan bo‘yalgan. Maqbara fasadi silliqlangan g‘ishtlar bilan qoplangan, gumbaz tayanchiqlari soxta taxlit yonlamasiga ora-sira narsalar qo‘yib, qo‘sh g‘isht “bandak” va “mavj” bilan bezatilgan; bu usul XV – XVI asrlarda avvalgi davr me’morchilik san’atiga taqlid tarzida paydo bo‘ldi” [12.51].

Katta Langar majmuasi hududidagi dahmalarning birida Termiz sayyidlarining oilasiga mansub dahma ham mavjud. Payg‘ambar avlodiga mansub bo‘lgan Sayyid Hasan to‘g‘risida yuqorida ta’kidlangan S.Tursunov rahbarligida nashr etilgan monografiyada quyidagicha to‘xtalib o‘tilgan: “Langar ota maqbara-dahmasi markazidagi hoshiyalangan qabr “Temur tuzuklari”da tilga olingan Amir Temurning safdoshi Sayyid Hasanning qabri bo‘lib, u Termiz sayyidlari sulolasi boshlig‘i Hasan al-Amirning 14-avlodi Alo-al-Mulkning nevarasi sulton Ali Asgarning o‘g‘li Amiri Buzurg, ya’ni ulug‘ va aziz Amir tahallusi bilan mashhur bo‘lgan Alo al-Mulk III ning martabasi baland bir samarqandlikning qizi bilan nikohidan dunyoga kelgan va Samarqandiy nomi bilan ma’lum bo‘lgan Sayyid Hasaniydir” [13.270-271].

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Termizdagi Sulton Saodat, Shahrisabzdagi Sayyidlar gumbazi (Gumbazi sayyidon) va Qamashi

tumanidagi Sayyid Hasanning dahmasi barchasi bir bo‘lib, O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi Payg‘ambar avlodi bo‘lmish Sayyidlar sulolasi majmuasining yig‘indisini tashkil etadi.

Bu ko‘hna maqbaradan uch yuz metrlar uzoqlikdagi masofada qadimiy masjid joylashib, mazkur tarixiy inshoot XVI asrda barpo etilganligi manbalarda qayd etib o‘tilgan. Bu tarixiy obyekt ikki xona, ayvon va hovlidan iborat bo‘lib, ushbu tarixiy inshootlar bir vaqtda qurilganligi ta’kidlanadi. Birinchisi katta hashamatli zal bo‘lib, beshta hoshiyalangan ustunda ko‘tarilgan, devorlari pishiq g‘ishtdan tiklangan. Tarixiy obidaning o‘rtasidagi mahobatli ustun Muhammad Payg‘ambar (s.a.v), to‘rt tomondagi ustunlar esa choriyorlar (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali) ga nisbat berib bunyod etilganligi aytiladi.

Shuningdek, ba’zi e’tiroflarga ko‘ra, bu besh ustun Islom dinining besh arkoniga ishora sifatida qo‘yilganligi ham aytiladi [14]. Qadimiy masjid ayvonining balandligi 7 metrlik 10 ta yog‘och ustunlarda ko‘tarilgan. Yog‘och ustunlarning o‘rtadagi 2 tasi bir xil, uzunasiga o‘yma hoshiyalangan, qolgan 7 tasi oddiy, yana bittasi qolganlaridan ajralib turadi, yuqori qismi o‘yma hoshiyali bo‘lib, mahalliy aholi vakillari fikricha, bu yog‘och ustunni g‘o‘za daraxtidan tayyorlanganligini ta’kidlashadi.

Mazkur tarixiy obidani bunyod etilishi to‘g‘risida ham turli qarashlar va ilmiy bahslar mavjud. Xususan, P.Ravshanov va N.Xushvaqov o‘zlarining “Qashqadaryo tarixiga sayohat” nomli kitobida masjidning qurilishi tarixi to‘g‘risida quyidagilarni yozgan: “Langar Ota masjidi ikkita xonadan iborat. Biri bitgan, ichki bezatilishi juda noyob. Undagi ilk o‘rta asrlarga taalluqli naqshlar jilo berib turadi. Katta va kichik xochlar shakllari kishini hayratga soladi. Masjid aftidan, VIII asr oxiri – IX asr boshlarida qurilgan bo‘lib, arab fotihlari – musulmonchilikni targ‘ibotchilari bilan mahalliy xalq aloqasi, bir din vakillari ekanligi ifodasi ramzi o‘laroq, masjid devorini orastalagan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bunday xoch miloddan burungi Naxshabdan ham topilgan edi“[15.181].

L.Y.Mankovskaya yuqorida ta’kidlangan risolasida mazkur tarixiy inshoot bunyod etilishi tarixiga quyidagicha to‘xtalgan: „Masjid hududidagi kichik xonaqoh ancha qadimgi. Uning ko‘hna devori sinchli bo‘lib, keyinroq unga tutashtirib g‘ishtin serhasham katta xonaqoh va umumiy peshayvon solingan. Mehrobning ichidagi bezakli yozuvlardan ma’lum bo‘lishicha, masjid qurilishining ikkinchi, eng yirik bosqichi XVI asrning boshlari (926 hijriy yil yoki 1519/20 yillar)ga to‘g‘ri keladi“ [16.46, 48].

Shu bilan birga, professor Y.Ergasheva yuqorida ta’kidlangan risolasida masjid bunyod etilishi tarixini quyidagicha qayd etgan: “Katta Langar masjidi ikki davrda qurilgan bo‘lib, inshootning g‘arbiy tomonidagi kichik masjid ancha qadimiy. Buni masjidni qurilishida qo‘llangan, usullar ham ko‘rsatib turibdi”

[17.21]. Shuningdek, mahalliy aholi vakillari qadimiy masjid 1448-yilda qurib bitkazilganligini ta’kidlaydilar[18].

Yuqorida keltirilgan tarixiy ma’lumotlarga tayanib, Katta Langar ota majmuasining bir qismi hisoblanadigan tarixiy masjidning barpo etilish tarixi bizga ma’lum bo‘lgan XVI asrda emas, balki ancha olisga, ya’ni X–XV asrlar oralig‘ida bunyod etilgan deb xulosa qilishimizga asos bo‘ladi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, mazkur qadimiy obidaning 970 hijriy yil (mil 1562/63 yil)da pardozlash ishlari deyarli yakunlangan.

Me’moriy inshoot hududida turli yillarda bir qator mustahkamlash va ta’mirlash ishlari ham amalga oshirilgan. Xususan, 1562-, 1563-, 1748-, 1807–1808-yillarda ta’mirlash ishlari olib borilganligi to‘g‘risida qadamjo ustunida o‘rnatilgan tunukalarga yozib qo‘yilgan [19.272]. Katta Langar masjidi O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi o‘rta asrlarga tegishli ajoyib me’moriy san’atining noyob namunasi, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Maqbara 1905-yilda sodir bo‘lgan zilzila vaqtida shikastlangan. Mahalliy aholi vakillari tomonidan XX asrning 50-yillarida poydevor qismi tashqi tarafdan betonlanib, qo‘shimcha mustahkamlangan. Afsuski, ushbu ta’mir ishlari hech bir ilmiy asosga ega bo‘lmasdan bajarilgan. Bu esa qadimiy obidaning asl holatini ma’lum darajada yo‘qolishiga sabab bo‘lgan.

Mazkur tarixiy majmua hududida joylashgan me’moriy obyektlar 1990–199-yillar davomida ham qisman ta’mirlangan. Istiqlol davrida Langar ota majmuasida keng ko‘lamdagi ta’mirlash va mustahkamlash ishlari amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-iyulda 632-sonli “2019–2020-yillarda Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, “Langar ota” maqbarasi va tarixiy masjidni ta’mirlash bo‘yicha konsepsiya ishlab chiqildi.

Katta Langar ota majmuasi hududida 2020-yilda olib borilgan ta’mirlash, mustahkamlash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari to‘g‘risida Qamashi tumani G‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari Sh.Rustamov o‘zining “Katta Langar – e’tiqod vodiysi” nomli risolasida quyidagilarni yozgan: “Tarixiy qadamjoda olib borilgan qurilish-ta’mirlash ishlari uchun 2020-yilda Qashqadaryo viloyati hamda Qamashi tumani mahalliy byudjetlariga qo‘shimcha tushirilgan mablag‘lar va saxovatpesha homiylar hisobidan 10 milliardga yaqin mablag‘ sarflandi” [20. 28].

XULOSA: Yakuniy mulohaza sifatida aytish mumkinki, bugun Yangi O‘zbekistonda yoshlar tafakkurida milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va bunyodkorlik qadriyatlarini mustahkamlashda tarixiy-me’moriy yodgorliklar hamda muqaddas ziyorat maskanlari katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yurtimizda yangi taraqqiyot bosqichi sifatida talqin

etilayotgan Uchinchi Renessans konsepsiyasini ro‘yobga chiqarish jarayonida madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish, ayniqsa ziyorat turizmini sohasini yanada keng rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda tarixiy va me’moriy obidalarni ilmiy asosda muhofaza qilish, restavratsiya va rekonstruksiya ishlarini takomillashtirish, ularning uzoq muddatli saqlanishini ta’minlash hamda kelgusi avlodlarga to‘laqonli yetkazish masalalari davlat miqyosida ustuvor yo‘nalish darajasiga ko‘tarilayotgani kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qashqadaryo viloyat madaniy meros boshqarmasining 2026-yilgi hisoboti.

2. Tursunov S, Murtazoyev B, Cho‘tmatov J, Sharipov F. Imom Abu Iso At – Termiziy va Termiziy allomalar. Monografiya. – T.: Yangi nashr., 2019. – 275 b.

3. Qadimgi Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar. A.Sagdullayev tahriri ostida.– T.: Sharq. 1998. – 208 b.

4. Ergasheva Y. Katta Langar majmuasi. Risola, Qarshi, QarMII. 2020. - 40 b.

6. Tillayev T, Boymirov T, Rustamov SH. Langar ota – tarix ko‘zgusida, Risola. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 108 b.

7. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi shohiy), Birinchi kitob. – T.: Sharq, 1999. – 416 b.

8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 5-jild. – T.: O‘zME DIN, 2003. – 704 b.

9. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob (Do‘stlar yodnomasi). – T.: Xalq merosi, 1993. – 344 b.

10. Sattoriy H. Xotira karvoni. – T.: Fan, 1994. – 127 b.

11. Mankovskaya L.Y. Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari. – T.: O‘zbekiston, 1979. – 99 b.

12. https://www.youtube.com/watch?v=rhw7FMLXP14

13. Ravshanov P, Xushvaqov N. Qashqadaryo tarixiga sayohat. – T.: Ilm – ziyo-zakovat, 2020. – 272 b.

14. https://www.youtube.com/watch?v=rhw7FMLXP14

15. Islom Ensiklopediya: Shayx Abdulaziz Manzur tahriri ostida. – T.: O‘zME DIN., 2017. – 672 b.

16. Rustamov SH. Katta Langar — e’tiqod vodiysi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2020. – 112 b.

UDK 621.10.584

O’ZBEKLARNING TURKIYA RESPUBLIKASIDAGI MATBUOTI. (XX ASR 2-YARMI – XXI ASR BOSHLARI)

O‘sarov Xusniddin Do‘stmamatovich
Navoiy davlat Universiteti katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0006-2874-4345

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiya Respublikasining Adana shahrida istiqomat qilgan o‘zbek (turkistonlik)larning matbuot faoliyati, uning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari yoritilgan. Xususan, muhojir o‘zbeklar tomonidan tashkil etilgan nashrlarning mazmuni, yo‘nalishi hamda ularning milliy o‘zlikni, tarixiy xotirani va madaniy qadriyatlarni saqlashdagi o‘rni haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, ushbu matbuot nashrlarining turkistonliklar ijtimoiy va madaniy hayotidagi ahamiyatiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek muhojirlari, Adana, “Turkistonliklar yordamlashma dernegi”, “Bulak”, “Yeslek”, “Go‘zel Turkistan” muxbir, Shukurova, mushovir, byulleten, nashr, majmua, ta’sischi.

УЗБЕКСКАЯ (ТУРКЕСТАНСКАЯ) ПРЕССА В АДАНЕ, ТУРЕЦКАЯ РЕСПУБЛИКА. (2-Я ПОЛОВИНА 20 ВЕКА – НАЧАЛО 21 ВЕКА.)

Усаров Хусниддин Дустмаматович
Старший преподаватель Навоийского государственного университета, независимый исследователь
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-2874-4345

Аннотация. В данной статье рассматривается деятельность печати узбеков (туркестанцев), проживавших в городе Адана Турецкой Республики, а также особенности её формирования и развития. Особое внимание уделяется содержанию и направленности изданий, созданных представителями узбекской эмиграции, их роли в сохранении национальной идентичности, исторической памяти и культурных ценностей. Кроме того, освещается значение данной печати в общественной и культурной жизни туркестанской диаспоры.

Ключевые слова: узбекские переселенцы, Адана, «Туркестанское народное общество помощи», «Булак», «Еслек», корреспондент «Гозель Туркестан», Шукурова, советник, бюллетень, издание, комплекс, учредитель.

THE PRESS OF UZBEKS (TURKISTANIS) IN ADANA, REPUBLIC OF TURKEY. (2ND HALF OF THE 20TH CENTURY — EARLY 21ST CENTURY.)

O‘sarov Xusniddin Do‘stmamatovich

Senior Lecturer at Navoi State University, Independent Researcher
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-2874-4345

Abstract. This article examines the press activities of Uzbeks (Turkestanis) who lived in Adana, Republic of Türkiye, with particular attention to their formation and development. It discusses the content and main directions of publications established by Uzbek emigrants, as well as their role in preserving national identity, historical memory, and cultural values. The article also highlights the significance of these publications in the social and cultural life of the Turkestani diaspora.

Keywords: Uzbek immigrants, Adana, “Association of Turkistanis for the Assistance of Turkistanis”, “Bulak”, “Yeslek”, “Go‘zel Turkistan” reporter, Shukurova, advisor, bulletin, publication, complex, founder.

KIRISH: XX asr 2-yarmida Turkiya Respublikasining Istanbul, Adana, Izmir, Mersin, Mugla, Sang‘uldak, Bursa, Ko‘nya kabi shaharlariga muhojir o‘zbek (turkistonlik)larning bir necha bosqichda ko‘chib o‘tishlari yuz bergan. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng 1952-1953-yillarda Pokistonning Karachi va Peshovar shaharlari orqali Turkiyaga ko‘chgan o‘zbeklarning 400 oilasidan [1] ancha qismi Adana (Shukurova) ga kelib joylashdi. Undan ilgari ham Adanada o‘zbeklar istiqomat qilib, ular savdo-sotiq, Makka va Madina haj ziyorati, ta’lim olish kabi maqsadlarda bu shahar va atrofdagi qishloqlar bo‘ylab joylashgandi. Shuningdek, 1978-yilda Afg‘onistondagi savr (aprel) inqilobi va cheklangan sovet qo‘shinlarining bu davlatga 10 yillik qirg‘inbarot urushi (1979-1989) tufayli o‘zbek jamoalarining katta ko‘chishlari yuz berib 4,5 ming oila asosan Turkiyaga ko‘chdi. Birgina 1982-yilda 171 oila o‘zbeklar Pokistondan Turkiyaga ko‘chirilganligini qayd etish mumkin. [2] 1960-1970-yillarda Xitoydan Hindiston va Pokiston orqali 3 ming sonli o‘zbek Turkiyaga muhojir bo‘lib o‘tdi. Ularning bir qismi ham Adanaga joylashdi.

ASOSIY QISM: O‘zbeklarning Adana bo‘ylab zich joylashuvidagi muhim omillardan biri ushbu viloyat tabiati, xo‘jaligi va taomlarida O‘zbekistonning Farg‘ona viloyati bilan uyg‘unlik mavjud bo‘lgan. Shu sababli Adana o‘zbeklarni ko‘p hollarda “Farg‘onachi” deb atash taomoyilga kirgan edi.

Adana o‘zbeklarining ilk milliy uyushmasi (jamiyati) 1949-yilda tashkil etilib, Adanadagi “Turkistonliklar jamiyati” (dernegi) birinchi Prezidenti (Boshqoni) doctor Roziq O‘zgen (Rasik Özgen) bo‘lib uning hamkorlari Muhiddin Koran (Çözluklu), Umar Tangriyor (Ömer Tanrı) bo‘lgan. Adana Turkistonliklar jamiyati” o‘zi haqidagi ma’lumotlarni dunyoga tanitish va o‘zbeklar hayoti haqida fikr-mulohazalar bildirish uchun 1951-yilda “ESLEK” (“Xotira”) nomi bilan byulleten chop etgan. Ushbu byulletenning 8-9 ta soni chop etilib, uning sonlarida

Adana o‘zbeklarining ijtimoiy, madaniy faoliyatlari va ota-bobolari yurti Turkiston haqidagi maqolalar bosilgan. Masalan “ESLEK” ning 8-sonida Nezir O‘zchengizning” Yo‘ldosh” (Huydas); Veyan Alkerning “Qardosh” (Kardas); Ahmed Kurdzi Erdo‘g‘anning “Tug‘ishganlar” (Dogonek); Omer Tangriyorning “Tangri quli” (Tangrikulu); Bedri Husenning “Xasta” (“Hasta”) kabi maqolalari bosilgan. Shuningdek, ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan Turkiston sobiq asirlaridan birining “Onamga” (“Annem’e”) nomli she’ri ham byulletenda bosilib, muallif unda onasi va ota Vatani Turkistonga cheksiz muhabbatini ifodalagan. [3]

Biroq “ESLEK” byulletenining bor-yo‘g‘i 9 ta soni bosildi xolos. Moddiy imkoniyatlarning cheklanishi, unda ishtirok etgan muxbirlar bir guruhining Adanadan ko‘chib ketishi, bino va bosmaxona bilan bog‘liq muammolar tufayli byulleten to‘xtab qoldi. “ESLEK” byuleteni Turkiyadagi o‘zbeklar orasida keng tarqalmadi va uning obunachilari soni ham oz edi. Bu o‘rinda moliyaviy holatini ham hisobga olish kerak. Nima bo‘lganda ham “ESLEK” byulleteni Adanadagi o‘zbeklar tarixida matbaachilik borasidagi tashlangan ilk qadam edi.

Shundan so‘ng Adana o‘zbeklari matbuotchilik tarixida salkam o‘n yil tanaffus kuzatiladi. 1959-yil martda millatparvar ziyolilar tomonidan “BULAK” (“Buloq”) nomli jurnal (derchi) chop etila boshlandi. 1959-yil mart oyidan chiqa boshlagan “BULAK” jurnali o‘sha yilning aprel, may, iyun, iyul, avgust oylarida tanafussiz chop etildi. Jurnalning hajmi 20-30 sahifani tashkil etib, eski o‘zbek adabiy tilida, lotin imlosida bosildi. Shundan so‘ng jurnal faoliyatida tanaffus kuzatilib, 1962-yida yangidan bosila boshlandi. “Bulak” jurnalining 1962-yil 15-fevralda bosilgan 9-sonida uning adabiy ishlari mudiri (muharriri) To‘fan Aysalan, huquq mushoviri Mahmud O‘nar ekanligiga ayon bo‘ldi. 1962-yil 15-aprelda dunyo yuzini ko‘rgan 10-sonida “Bulak” tahrir hay’atini Özchan Yöldoshchan boshqargan. 1962-yil oxiriga qadar “BULAK” ning 12 ta soni chiqib, uning faoliyati ham to‘xtadi [4].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Adana o‘zbeklarining matbuoti tarixi bu bilan tugamadi. 1963-yildan boshlab “Turkistanlilar Vardimlashma Dernegi” tashabbusi bilan alohida byulletenlar vaqti-vaqti bilan bosilib turdi. Ushbu byulletenlar Adana o‘zbeklar uyushmasi faoliyatidan jamoatchilikni xabardor qilib turdi. Byulletenlarni tayyorlashda Adana (Shukurova) dagi oliy darajada tahsil olgan professor, dotsent lavozimigz ega bo‘lgan ziyolilar, vrachlar, muallimlar, muhandislar ishtirok etdilar. [5]

1980-yilga kelib, Turkistonlilar yordamlashma jamiyati” faoliyati bir qadar susayib, 2000-yilga qadar byulleten chop ettirish ham amalda to‘xtadi.

Faqatgina 2005-yil 1-oktyabrdan boshlab Adana o‘zbeklarining yosh avlod vakillari tomonidan “Çenç Turkitanlilar Bulteni”(“Yosh Turkistonliklar byulleteni”) elektron shaklda bosila boshlandi [6].

2008-yildan “Adana Turkistonlilar kultur va yordamlasma jamiyati” (“Adana Turkitanlilar kultur va yardamlashma dernegi”) ning matbuot organi “GUZEL TURKISTAN” (Go‘zal Turkiston”) bosila boshlandi. Ushbu jurnalni nashr etishda jamiyat prezidenti Husayin Verdenik va jamiyat yoshlar qanoti prezidenti (Boshqoni) N. Dilara Beklar muhim rol o‘ynadilar. Adana o‘zbeklar jamiyati o‘z binosiga ega bo‘lib, “Go‘zal Turkiston” jurnali manzili shu binoda joylashgan. Jurnal ta’sischisi Husayn Berdilek, adabiy ishlar mudiri Kubilay Kovash (Kubılay Kovas) , muvofiqlashtiruvchi muharrir Enver Bulgehan Hilal (Enver Bulgehan Hilal) bo‘lishgan. Uch oyda bir bor bosiladigan “Go‘zal Turkiston” jurnalining 2009-yil mart oyida bosilgan 4-soni bilan tanishish asnosida amin bo‘lindiki, uning hajmi 30 sahifani tashkil etgan. Jurnal lotin imlosida, Turkiya turkchasida bosilib, undagi maqolalar Turkiyadagi o‘zbeklar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki haqidagi ma’lumotlar aks ettirilgan. Maqolalarda Turkiston tarixida kechgan 1927-1930-yillardagi fojiali voqealar, Afg‘oniston o‘zbeklari haqidagi ma’lumotlar, o‘zbek qomusiy olimlaridan Abu Rayhon Beruniy (978-1048), adiblardan Abdulhamid Cho‘lpon (1897-1938) haqida maqolalar bosilgan. A.S.Cho‘lponning “Baljuvon” (Belguvan) she’ri o‘zbek va turk tillarida jurnalning 26-sahifasidan o‘rin olgan. Jurnalning 2009-yil mart oyidagi 4-sonida Ekber (Akbar) Yassaning “Turkiston” badiasi, Said Tumturkning “Unutilmas Vatan, Tashqi Turkiston” Chagatoy Kocharning “Turkistonda Armani vahshiyligiga 90 yil to‘ldi” (Turkiston muxtoriyatining qonga botirilishi haqida) V.Timur Davlatovning Sibir qamoqxonalarida o‘lim qamoqxonalariga tushgan turklar”, Dilara Bekning Afg‘oniston o‘zbeklari haqida “Chalkash hayotlar” kabi maqolalar bosilgan.

XULOSA: Shuningdek jurnalning oxirgi sahifalarida “Turkistondan xabarlar” rukni ostida Markaziy Osiyo respublikalari haqidagi yangiliklar berilgan. Jurnal ushbu sonining 19-21-betlarida Ikkinchi jahon urushida fashistlarga asir tushgan, 1920-yil Samarqandda tavallud topib , “Turkiston legioni” da ishtirok qilib, bir umr xorijda yashab qolgan Olim Rabotli bilan jurnal muxbiri muloqoti berilgan [7].

“Go‘zal Turkiston” fotolavhalar bilan bezatilgan va uning dizayni hozirgi matbuot organi oldiga qo‘yilgan talablarga javob beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Muhammad Ali. Abadiy sog‘inchlar. Roman-xronika. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. – Toshkent, 2005.

– B.186-199. (216 bet).

2. Hayitov Sh.A. O‘zbek muhojirligi tarixi (1917-1991-yillar). – Toshkent: ABU MATBUOT- KONSALT; 2008. – B. 102 (208 bet)

3. Nuriddin Xotuno‘g‘li. Buxoroning so‘nggi amiri Olimxon (Afg‘onistonda yigirma uch yil). – Toshkent: “Iqro”nashriyoti, 2024. – B. 14. (256 bet)

4. Çagatay Köçar. ATAVURTTAN ANAYURD TURKISTAN….– Adana-2009. – B. 158.

5. Muallifning shaxsiy suhbati ma’lumoti; 2005-yil 10-yanvar

6. GUZEL TURKISTAN. 3 AVLIK DERÇI MART. 2009. – S. 19-21

QARSHI TUMANI TARIXI: O‘TMISHI, BUGUNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

S.B.Murtazova,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, t.f.f.d.,
A.Hasanov,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Tarix mutaxassisligi, I – bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qarshi tumanining mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tuman tarixiga oid Qashqadaryo vohasidan yetishib chiqqan olimlarning asarlari, tuman hududida joylashgan muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar haqidagi ma’lumotlar umumlashtirilgan. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida tumanda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyati ham atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, tarix, Yangi O‘zbekiston, olim, ziyoratgoh, ijtimoiy soha, iqtisodiyot, bunyodkorlik, rivojlanish, taraqqiyot, polizchilik, bog‘dorchilik, paxtachilik, g‘allachilik, pillachilik, qishloq xo‘jaligi, turizm.

ИСТОРИЯ КАРШИНСКОГО РАЙОНА: ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

С. Б. Муртазова,
заведующая кафедрой «История и социальные науки» Университета экономики и педагогики, доктор философии (PhD) по историческим наукам,
А. Хасанов,
магистрант I курса по специальности «История» Университета экономики и педагогики

Аннотация: В данной статье обобщены социально-экономическая жизнь Каршиского района в годы независимости, труды ученых из Кашкадарьинского оазиса по истории района, информация о святых местах и местах паломничества, расположенных в районе. Также подробно проанализированы содержание и суть масштабных реформ, проводимых в районе в контексте Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Кашкадарья, история, Новый Узбекистан, ученый, место паломничества, социальная сфера, экономика, творчество, развитие, прогресс, выращивание дынь, садоводство, выращивание хлопка, выращивание зерновых, выращивание коконов, сельское хозяйство, туризм

HISTORY OF KARSHI DISTRICT: PAST, PRESENT AND DEVELOPMENT PROSPECTS

S. B. Murtazova,
Head of the Department of History and Social Sciences at the University of Economics and Pedagogy, PhD in History,
A. Hasanov,
First-year Master's Student in History at the University of Economics and Pedagogy

Abstract: This article summarizes the socio-economic life of Karshi district during the years of independence, the works of scholars from the Kashkadarya oasis on the history of the district, information about holy places and pilgrimage sites located in the district. Also, the content and essence of the large-scale reforms being carried out in the district in the context of New Uzbekistan are analyzed in detail.

Key words: Kashkadarya, history, New Uzbekistan, scholar, pilgrimage site, social sphere, economy, creativity, development, progress, melon growing, gardening, cotton growing, grain growing, cocoon growing, agriculture, tourism

KIRISH: Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan barcha sohada yangilanishlar, o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Shuningdek, Vatanimizning haqqoniy tarixini yaratish, uni xolisona yoritish va kelajak avlodga benuqson yetkazish borasida ham ancha xayrli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonning har bir hududi, har bir go‘shasi, uning boy tarixi, muqaddas qadamjolari, ziyoratgohlarini o‘rganish, tadqiq etishga ham alohida e’tibor qaratila boshlandi. Bu borada vohamizdan yetishib chiqqan ko‘plab olimlarni ta’kidlashimiz mumkin. Ular orasidan taniqli olim, adib Poyon Ravshanovning ishlari tahsinga sazovordir. Masalan P.Ravshanovning muallifligidagi “Qashqadaryo tarixi”, “Jeynov tarixi” (hammualliflikda), “Amir Temur Vatani”, “Qashqadaryo: istiqlol arafasida” (1986–1989 yy.), “Qarshi tarixi”, “Shahrisabz tarixi”, prof., O.Jo‘raqulovning “Chandir turkmanlari”, “Qashqadaryo mang‘itlari”, “Shahrisabz yilnomasi”, prof., T.Nafasovning «O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati», «Qishlog‘ingiz nega shunday atalgan?», «Qashqadaryo qishloqnomasi», «Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari lug‘ati», «Janubiy O‘zbekiston toponimlarining

etnolingvistik tahlili», R.Akbarovning “Qarshi tumani tarixi kabi va boshqa ko‘plab asarlar, manbalarning misol keltirishimiz mumkin [15].

ASOSIY QISM: Qarshi tumani Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega hudud bo‘lib hisoblanadi. Mazkur yillar davomida Qarshi tumanida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Qarshi tumani tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Qarshi tumani – 1931-yil 1-oktabrda tashkil etilgan. Shimoldan Koson, shimoliy sharqdan Chiroqchi, sharqdan Qamashi, G‘uzor, janubdan Nishon, g‘arbdan Kasbi tumanlari bilan chegaradosh bo‘lib, tumanda 1 ta shahar ya’ni Beshkent shahri, 15 ta qishloq fuqarolari yig‘ini: Bog‘obod, Dasht, Yertepa, Kat, Kojar, Nuqrobod, Paxtakor, Poshton, Talliqo‘rg‘on, Xonobod, Charog‘il, Cho‘libo‘ston, Qovchin, Qoratepa, Hilol kabilar majuddir. Tuman aholii asosan, o‘zbeklar (97,3%), shuningdek, tojik, qozoq, rus, qirg‘iz, turkman va boshqalar millat vakillaridan iborat.

Qarshi shahri atrofida joylashgan tumanning xo‘jaligi paxtachilik bilan birga g‘allachilik, sabzavot va polizchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, pillachilikka ixtisoslashgan.

Qarshi tumanida dehqon, fermer xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatadi. Shundan 16,5 mingga yerga paxta, 15,2 ming.ga yerga don, shuningdek, kartoshka, sabzavot va poliz, ozuqa ekinlari ham yetishtiriladi. Tumanda tutzor, tokzor, mevazorlar bor. Ko‘p yillik daraxtzorlar, ko‘chatzorlar, ixota daraxtzorlar, yaylovlar mavjud. Tumandagi jamoa va shaxsiy xo‘jaliklarida 50,5 ming qoramol, 82 ming qo‘y va echki, 53,5 ming parranda, 435 yilqi boqiladi [14].

Shuningdek, 60 ta umumiy ta’lim maktabi (43 mingdan ziyod o‘quvchi), litsey, bolalar musiqa maktabi, 3 kasb-hunar kolleji (1,6 ming o‘quvchi), 36 kutubxona (290 ming nusxa asar), 3 madaniyat uyi, 13 ta klub muassasasi faoliyat ko‘rsatadi [14].

Tuman markaziy kasalxonasi (315 o‘rin), tug‘ruqxona, 3 poliklinika, 14 qishloq vrachlik punkti, qishloq uchastka kasalxonasi, 9 qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 36 feldsher akusherlik punktida 216 vrach, 1456 o‘rta tibbiy xodim aholiga xizmat ko‘rsatadi.

Qarshi tumanida tarixiy va me’moriy yodgorliklardan Hazrati Sulton maqbarasi (12—16 asrlar), Abu Mu’in an-Nasafiy ziyoratgohi, Toshmasjid (16—18-asrlar), Xalfa Eshon masjidi (16—17-asrlar), Chorgumbaz masjidi (16 — 17-asrlar) va boshqalar saqlangan [14].

Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida mamlakatimizning har bir hududi, uning o‘ziga xosligi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yangicha yondashuv, yangicha qarash yuz berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizni obod qilish, boy ma’naviy, moddiy merosimizdan oqilona foydalanish hamda ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy xazinani asrab-avaylashdek ezgu ishlar yuqoriga pog‘onaga ko‘tarilgan holda amalga oshirilmoqda.

Tumanda jami 4 ta diqqatga sazovor, milliy ro‘yxatga kiritilgan obyektlar mavjud. Ya’ni, Abu Mu’in an-Nasafiy yodgorlik majmuasi, Utti tug‘ ota maqbarasi, Hazrati Sulton maqbarasi, Shayx Shibliy masjidi kabilardir [14].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Muqaddas qadamjolarni obod qilinishi, mahalla, guzarlarni obodonlashtirish, har bir hududni jozibadorligini oshirish, turizm imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ziyorat turizmini rivojlantirish kabi xayrli ishlarni misol keltirishimiz mumkin. Masalan, ana shunday muqaddas ziyoratgohlardan biri — Qashqadaryo viloyat markazidan 17 km. janubi-g‘arbda Qarshi tumanidagi Qovchin qishlog‘ida joylashgan “Abu Mu’in an-Nasafiy” ziyoratgohidir. Qovchin qishlog‘i Qarshi tumanidagi qadimiy qishloqlardan biridir [12]. Bugungi kunda ushbu qishloqda 4730 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Qishloqdagi keksa avlod vakillarining guvohlik berishlaricha, qadimda qishloq hududida Qum, Qayrabod, Yomchi, Ibsan, Jumabozor deb nomlangan qishloqlar mavjud bo‘lgan. Sovet davrida bu qishloqlar barchasi bosh reja asosida bitta “Qovchin” qishlog‘iga birlashtirilgan. Qishloqning “Qovchin” deb atalishiga sabab u yerda yashayotgan aholining aksariyati qovchin urug‘iga mansub kishilar bo‘lganligidir. Toponomik olim D.Abdurahmonov o‘zining “Qovchin so‘zining tarixi haqida” deb nomlangan maqolasida: “Haqiqatan ham qovchin so‘zining urug‘ nomi ekanligi aniq. Bu urug‘, boshqa yerlar bilan birga, Qashqadaryo vodiysida ham ko‘chib yurgan. Hozir ham bu uruqqa mansub xalqlar, yuqorida aytilganidek shu hududda jumladan, Beshkent tumani hududida yashab kelmoqda. ... “Qovchin” so‘zi “Epchil va kuchli (odam)” degan ma’noni beradi” deyiladi [1]. Qovchin urug‘iga mansub kishilar epchil va kuchli bo‘lganliklari tufayli Sohibqiron Amir Temur va Bobur qo‘shinlarining jangchilari bo‘lishganligi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” va Zaxiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida tilga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017-yil 24-25-fevral kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan chog‘ida Abu Mu’in an-Nasafiy maqbarasini obod ziyoratgohga aylantirishga, ziyoratchilarga zarur shart-sharoitlar yaratishga, bu maskanda allomaning asarlarini o‘zida jamlagan kutubxona tashkil etish, buyuk olim asarlarini tarjima qilib, xalqimizga yetkazish bo‘yicha tavsiyalar bergan edi [13].

Shunga muvofiq bu yerda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, Aqida ilmi bo‘yicha maktab, kutubxona qurilgan. Davlatimiz rahbari ulamolar bilan suhbatda buyuk bobokalonimiz asarlari bugungi kun uchun ham g‘oyat ahamiyatli

ekani, ularni nashr qilib, mazmun-mohiyatini yosh avlodga yetkazish zarurligini ta’kidladi.

Mazkur ziyoratgohda Qur’oni karimning asl qo‘lyozma nusxasi saqlanmoqda. Bu kitob qadimgi Samarqand qog‘oziga bitilgan, hattotlik qoidalari asosida bezatilgan.

O‘zbekiston Prezidenti bu kabi noyob kitoblar xalqimizning bebaho merosi ekanligini, ularni asrab-avaylash kerakligini qayd etdi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, Nasafiy ilmiy faoliyatining sermahsul davri Buxoro shahriga to‘g‘ri keladi. Abul Mu’in an-Nasafiyning 1088-1089-yillarda Buxoroga ko‘chib o‘tishi uning ilmiy faoliyati uchun ham qulay sharoit yaratib beradi. Manbalarga ahamiyat bersak, Abul Mu’in an-Nasafiy o‘zining yirik asarlarini aynan Buxoro shahrida yozib tugatgan, shuningdek uning moturudiya ta’limotiga hissa qo‘shgan shogirdlari ham Buxoro shahridan yetishib chiqqan. Abul Mu’in an-Nasafiyning asarlari moturudiya ta’limotiga ham uning rivojiga ham o‘z hissasini qo‘shdi. Uning “Tabsiratu-l-adilla” ham, “Bahru-l-kalom” ham, “Tamhid” asarlari Moturudiya ta’limotida alohida o‘rin tutadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, mamlakatimizda Abul Mu’in an-Nasafiy ilmiy merosini o‘rganish bo‘yicha yaqin 4-5 yil ichida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Qovchin qishlog‘idagi maqbara ta’mirdan chiqarilib, katta ziyoratgohga aylantirildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-aprelda Abul Mu’in an-Nasafiyning ilmiy-ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib qilishga oid qarori chiqarilib, bu muqaddas qadamjo obod va muqaddas go‘shaga aylanmoqda. Musulmon olamining ulug‘ ulamolari, shayxlar bu ziyoratgohga tashrif buyurib, O‘zbekistonda, xususan Qashqadaryoda ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov. D. “Qovchin so‘zining tarixi haqida”. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 5-kitob. – T., 1963.

2. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 432 b.

3. Axmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – T.: O‘qituvchi, 1991.

4. As-Sam’oniy. A. Nasabnoma (Al-Ansob). – Buxoro, 2003.

5. Daminov I.I. Abu Muin Nasafiy. – Samarqand-Toshkent: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2013. – 108 b.

6. Uvatov U. Abu Muin Nasafiy hayoti va merosi. – T.: “Ma’naviyat”, 2003. – 36 b.

7. Oqilov S. Abu Muin Nasafiy va “Tabsiratul adilla” asarining ahamiyati / TIU ilmiy tahliliy axboroti. – 2002. -№ 1. – B. 32-35.

8. Xoliyorov I., Sharof Sh. Hazrati Imom Muin ziyoratgohi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 47 b.

9. Hasanov A. Qadimgi Arabiston va ilk islom, Johiliya asri. – T.: TIU, 2001.

10.Oqilov S. Abu Muin Nasafiy risola Toshkent “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2022. – 32 b.

11. O‘zbekiston-buyuk allomalar yurti. – T., Ma’naviyat. 2010. 176-bet.

12. “Qashqadaryo” gazetasi. 2017. 18 aprel № 46. (1527)

13. https://gujum.uz/ozbekiston/prezident-shavkat-mirziyoyev-abu-muin-nasafiy-maqbarasini-ziyorat-qildi/

14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qarshi_tumani

15. Ravshanov P. “Qashqadaryo tarixi”. – Toshkent, «Fan»1995.; Jeynov tarixi (hammuallif – M. Saidov), – T., Ibn Sino nashriyoti, 1996.; Qashqadaryo: istiqlol arafasida 1986–1989-yillar. – Toshkent: «Ma’naviyat» 2003.; Qarshi tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2006.; Shahrisabz tarixi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2011.;

16. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1988.; «Qashqadaryo qishloqnomasi». – Toshkent: «Muharrir» nashriyoti, 2009.; Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari lug‘ati. – Toshkent: «Muharrir» nashriyoti, 2011. Janubiy O‘zbekiston toponimlarining etnolingvistik tahlili. – Toshkent, 1985.

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR RIVOJLANTIRISHDA MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT OMILI

Qarshiyev Sherzod
Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar barqarorligini ta’minlashda milliy g‘oya va ma’naviyatning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, unda global o‘zgarishlar sharoitida milliy g‘oya va milliy o‘zlikni anglash sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, jahonning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib, ildiz otib borayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy va ma’naviy tahdidlardan xalqimiz ma’naviyatini asrash, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongiga milliy g‘oyani singdirish masalalari o‘z aksini topgan.

Tayanch so‘z va iboralar: mustaqillik, yoshlar, baynalmilallik, ko‘pmillatlilik, millat, millatlararo munosabatlar, milliy g‘oya, milliy mafkura, ma’naviyat, demokratiya, demokratik jamiyat, inson huquqlari.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ И ДУХОВНОСТИ В РАЗВИТИИ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Каршиев Шерзод

Докторант Чирчикского государственного педагогического института Ташкентской области

Аннотация. В данной статье освещается роль национальной идеи и духовности в обеспечении стабильности межнациональных отношений в Узбекистане. Кроме того, рассматриваются актуальные проблемы, возникающие в условиях глобальных изменений в сфере национальной идеи и осознания национальной идентичности. Особое внимание уделяется вопросам сохранения духовности нашего народа от усиливающихся и укореняющихся в отдельных регионах мира идейно-идеологических и духовных угроз, а также внедрению национальной идеи в сознание и сердца молодого поколения.

Ключевые слова: независимость, молодёжь, интернационализм, многонациональность, нация, межэтнические отношения, национальная идея, национальная идеология, духовность, демократия, демократическое общество, права человека.

THE ROLE OF NATIONAL IDEOLOGY AND SPIRITUALITY IN THE DEVELOPMENT OF INTERETHNIC RELATIONS IN UZBEKISTAN

Qarshiyev Sherzod

PhD Student at Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent Region

Annotatsion. This article highlights the role of national ideas and spirituality in ensuring the stability of interethnic relations in Uzbekistan. It also discusses current issues in the field of national ideology and national identity in the context of global changes, in particular the protection of the spirituality of our people from growing ideological and spiritual threats in some regions of the world, especially in the hearts and minds of the younger generation.

Keywords: independence, youth, internationalism, multinationality, nation, interethnic relations, national idea, national ideology, spirituality, democracy, democratic society, human rights.

KIRISH: Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari madaniyatlar rang-barangligiga, etnomadaniy plyuralizm omiliga e’tiborni kuchaytirmoqda. Gap endi shunchaki ijtimoiy-madaniy rivojlanish ustida emas, balki rang-barang madaniyatlar, etnomadaniy plyuralizm sharoitida insoniyat taraqqiyotini ta’minlash ustida ketmoqda. Shuning uchun milliy doiralarda “globallashuvning madaniy dinamikasi”, aslida globallashuvga madaniy rang-baranglik, etnomadaniy plyuralizm tusini berish muammolari haqida turli fikrlar bildirilmoqda.

Bizga ma’lumki, hozirda qaysi davlat aholisi tarkibini 5 % ortiq boshqa millat va elat vakillari tashkil etsa unday davlat ko‘pmillatli davlat hisoblanadi. Shu qoidadan kelib chiqib dunyodagi aksariyat davlatlarni ko‘pmillatli davlatlar qatoriga qo‘shish mumkin. Shunga binoan aholisining qarib 20 % ortig‘ini boshqa xalqlar tashkil etadigan O‘zbekistonni ham bemalol ko‘pmillatli davlat deb atash mumkin [1].

ASOSIY QISM: Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ham subyektiv omil – ong, aqlu idrok tafakkurni shakllantiruvchi g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sirdandir. Ro‘paramizda o‘tirgan kishidan etnopsixologik belgilar izlash ongimizga shunchalik o‘rnashib qolganki, biz beixtiyor irqiy ayirmachilikka, boshqalardan farqlar izlash orqali “Ular”ni “Biz” yoki “Men”dan ajratayotganimizni to‘la anglamaymiz. To‘g‘ri, bu hali etnoegoizm emas, lekin qandaydir tashqi sabab paydo bo‘lsa, ongimizdagi o‘sha farq izlovchi kuch darrov harakatga keladi. Milliy birlikni anglash, birdamlik faqat anglanilgan milliy g‘oya asosida bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda ukrain faylasufi S.Krimskiyning “o‘z davlatchiligiga ega bo‘lmagan etnos erkin taraqqiyot davrini bosib o‘tmaydi”[2] degan fikriga qo‘shilish mumkin.

Millatlararo munosabatlar ongdan, aqlu idrokdan tashqarida paydo bo‘lmaydi. Xatti-harakatlar, “Seniki”–“Meniki” deyishlar obyektiv xarakterga ega, ammo ular ongda shakllangan etnopsixologik tasavvurlar mahsulidir. Demak, millatlararo munosabatlarni shakllantirish ham, ularni rivojlantirish ham mafkuraviy, ma’naviy asoslarga egadir.

Milliy g‘oya murakkab tizim sifatida yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllanishi, yuksalishi, vatanimizning barcha millatlarini o‘z atrofida birlashtirish kabi muammolarni qamrab oladi.

Milliy mafkura esa titul millatning asrlar davomida yashab kelgan orzu-umidlari, farovon hayot, ozod Vatan barpo etish haqidagi o‘y-xayollari ifodasi sifatida millatlarni birlashtirayotgan kuchga aylangan hodisadir. Polietnik davlatda millatlararo munosabatlarni ma’lum bir g‘oya, mafkura atrofida birlashtirish obyektiv ehtiyojdir. Titul millat o‘zining yetakchilik, liderlik kuchini, yaratishga, yangi modernistik, umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlovchi huquqiy demokratik davlat qurishga qodir aqlu irodaga ega ekanini barchani, hamma millat va elatlar vakillarini o‘zining milliy g‘oyasiga, milliy mafkurasiga ishontirganida namoyon bo‘ladi.

Sotsiologik so‘rovnomalar ko‘rsatadiki, fuqarolarimiz ongida O‘zbekiston fuqarosi bo‘lishga munosabat har xildir. 2018 yili respondentlarning 58,7 foizi millatga mansublik ham, fuqarolik ham muhim deb javob bergan. Milliy mafkuraga ko‘ra, fuqarolarning O‘zbekistonni o‘z vatani deb bilib, uning kelajagi uchun mehnat qilib, kurashib, izlanib, elim deb, yurtim, deb yashashi lozim. Agar

o‘zining O‘zbekiston fuqarosi ekanidan 88,9 foiz qirg‘iz, 91,3 foiz qoraqalpoq va 95,5 foiz turkman mamnun ekanligini bildirgan.

Bizga ma’lumki, milliy g‘oyada internatsional tarbiyaga, millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga alohida urg‘u berilganiga qaramay, o‘tkazilayotgan tadbirlar auditoriyaning demografik, etnik, psixologik xususiyatlarini doimo ham hisobga olavermaydi.

Shuningdek, global o‘zgarishlar sharoitida milliy g‘oya va milliy o‘zlikni anglash sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, jahonning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib, ildiz otib borayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy va ma’naviy tahdidlardan xalqimiz ma’naviyatini asrash, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongiga milliy g‘oyani singdirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga yo‘llagan murojaatnomasida oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarurligini alohida qayd etdi. Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. O‘tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo‘lishi zarur [3].

Sotsiologik so‘rovnomalar millatlararo munosabatlar yildan yilga yaxshilanib, barqarorlashib borayotganini ta’kidlaydi. 2006 yili respondentlarning 63,7 foizi millatlararo munosabatlardagi barqarorlikning saqlanishini bildirgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2007-yili – 70,7, 2008-yili – 73,6, 2009-yili – 74,1, 2010-yili – 79,4, 2017-yili – 86,1 foizga yetgan [4]. Demak, respublikamizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatga mansub aholi yangi etnosiyosiy paradigmaga ishonch bildirmoqda va yildan yilga ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik mustahkamlanmoqda.

Millatlararo munosabatlarni rivojlantirish ijtimoiy-ma’naviy asoslariga ham ega. Ma’naviy-madaniy omillar milliy ongdan joy olganida, milliy ongni pozitiv, ratsional tomon yo‘naltirganida inson say’-harakatlarini, faoliyatini jamiyat, taraqqiyot manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga, etnoegoistik istaklarini umuminsoniy qadriyatlar bilan to‘ldirishga, boyitishga o‘zida kuch topadi. Aynan shuning uchun ham ma’naviyat yengilmas, kishilarni ezgu amallarga, yaratib yashashga undovchi kuchdir.

Ma’naviyat gumanistik an’analarni, insondagi ezgu, oliyjanob, iymon-e’tiqod, axloqiy fazilatlarni qo‘llab-quvvatlagani uchun ham qadrli fenomendir. Milliy ma’naviy qadriyatlarning umuminsoniy xarakteri ularni gumanistik an’analarga yaqinlashtiradi. Millatdagi barcha ma’naviy qadriyatlar pozitiv ahamiyat kasb etadi. Millat va milliy ma’naviy qadriyatlardagi yaratuvchanlik yon-

atrofimizda millatchilik, shovinizm, etnoegoistik qarashlar va ular asosida etnik nizolar kelib chiqayotganligini unutmaslikka undaydi. Mashhur iboraga taqlid, tinch yashashni istasang, notinch yashayotganlarga qara, ulardan saboq ol, deyish mumkin. Millatlararo munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirish uchun etnonizolarni boshdan kechirish shart emas, unday nizolar yon-atrofimizda, dunyoda keragidan ziyoddir, ijtimoiy taraqqiyot manfaatlarini va yo‘llarini aniq bilish, polietnik muhitda osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlikni ta’minlash uchun etnik nizolardan kerakli xulosa chiqarish lozim.

Millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlar, millatchilik mamlakatlarning ijtimoiy hayotini butunlay izdan chiqaradi, hatto ayrim davlatning parchalanishiga ham sabab bo‘ladi. Natijada, butun bir mintaqada ijtimoiy barqarorlik izdan chiqadi. 1995 yil oktabr oyida Kanadaning Kvebek shtatida yashovchi fransuzlar, ko‘pchilikni tashkil etmasa-da, o‘z ona tiliga davlat tili maqomini berish, Kanadadan ajralib chiqish maqsadida referendum o‘tkazishga erishdilar. Referendumda boshqa millatlar vakillari buni qo‘llab-quvvatlashmadi, ammo ajralib chiqishga qaratilgan harakatlar davom etmoqda.

Dunyodagi aksariyat davlatlarning polietnik xususiyatini inobatga olsak, “fuqaro” tushunchasi “millat” tushunchasidan yuqori, kishilar qalbida shu Vatanga mehr-muhabbat uyg‘otish muhim ekanini anglaymiz.

Ko‘pmillatli O‘zbekistonda esa yildan yilga millatlararo munosa-batlardagi keskinlik pasayib, ular o‘rtasidagi do‘stlik, hamjihatlilik va o‘zaro bir-biriga ishonch ortib bormoqda. Buni mamlakatimizda olib borilayotgan etnosiyosatning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani, o‘zbek xalqining boshqa din va millatga mansub kishilarga nisbatan bag‘rikenglik nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘layotgani bilan izohlash mumkin.

Sho‘rolar davrida “kam sonli millat” atamasi ko‘p ishlatilgan va undan boshqa millatni kamsitish ma’nosida foydalanilgan. Tabiiyki, bu hol boshqa millatlar tomonidan ta’na va kamsitish sifatida qabul qilingan.

Yangi etnosiyosiy paradigma milliy masalalarga bunday yondashuvdan voz kechdi. Bizda “kam sonli millat” atamasi ishlatilmaydi, zero o‘zbek xalqi birga yashayotgan boshqa xalqlar, millatlar mavqeini kamsitishni istamaydi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: XXI asrda insoniyat global iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik va mafkuraviy muammolarga duch keldi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan dunyoviy va demokratik jamiyat qurish va uning o‘ziga xos xususiyatlari yoshlarga bo‘layotgan turli mafkuraviy tahdidlarni oldindan ko‘ra bilish, mazkur tahdidlarning aks-ta’sirini aniqlash, ularga qarshi immunitet tizimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Mafkuraviy tahdidlar davlatlar butunligiga, suverenitetiga, qarshi qaratilgan, siyosiy tuzumni ichidan yemirishga, ag‘darib tashlashga qaratilgan. Aksariyat hollarda etnik nizolarni keltirib chiqarish ham

ko‘zlanadi. “Aslini olganda, xavfsizlikka solinayotgan tahdidlar ancha serqirra. Ular siyosiy ekstremizm, shu jumladan, diniy ruhdagi ekstremizmni, millatchilik va milliy mahdudlikni, etnik, millatlararo, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik asosidagi ziddiyatlarni, korrupsiya va jinoyatchilikni, ekologiya muammolarini o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, yuqorida sanab o‘tilgan tahdidlar, garchi turli mintaqalarda turlicha kuch bilan namoyon bo‘lsa-da, insoniyatda bir xilda tashvish tug‘dirmog‘i darkor” [5].

“Sovuq urush”ning tugashi bilan xalqaro munosabatlar tizimida yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi boshlandi. Bu jarayon globallashuv va integratsiyalashuv vositasida yanada jadallashmoqda. Ma’lumki, globalizatsiya obyektiv va qonuniy jarayon bo‘lib, u ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega. Globallashuv davlatlarga xalqaro maydonga chiqish, istagan davlatlar bilan hamkorlik qilish, milliy manfaatlarini qondirish uchun integratsiyaga kirishish imkonini bermoqda. Boshqa tomondan u kuchli davlatlarning geosiyosat maydonida to‘qnashuvlarini, zaif, endi rivojlanish yo‘liga kirgan davlatlar ustidan nazorat o‘rnatishni, mustaqil davlatlarga turli tazyiqlar o‘tkazishni yuzaga keltirmoqda. Amerkanizm bayrog‘i ostida “global hukumat” tuzish g‘oyasi targ‘ib etilmoqda[6].

Bugungi yoshlar shunday ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar kuchaygan, mafkuraviy qarashlar keskinlashgan, o‘z mohiyatini o‘zgartirib, turli niqoblarga burkangan davrda yashamoqda. O‘zbekiston suverenitetiga qarshi tahdidlar o‘zining serqirra, murakkab, maqsad va yo‘nalishlarini tez o‘zgartirayotgan, yoshlar ongi va tafakkurini o‘zgartirishga, buzishga qaratilgandir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘z milliy davlatchiligini shakllantirish yo‘lidagi harakatlari G‘arbdagi mutaxassislar tomonidan xolisona baholanavermaydi. Masalan, Z.Bzejinskiy, Rossiyadagi islohotlar natijasida totalitarizm yo‘q bo‘ldi, ammo avtoritarizm elementlari hamon mavjud, deb yozadi [7]. Sobiq Ittifoq hududidagi davlatlarda demokratik islohotlar jarayoniga shubha ostida nazar tashlab, bo‘layotgan barcha ijobiy o‘zgarishlarni “o‘troqlik”, “davlat zug‘umi”, “fuqarolik jamiyatining mavjud emasligi va qurib bo‘lmasligi”, “o‘zgarishlarning yuz bermayotganligi”, “inson huquqlarining buzilayotganligi” qabilidagi salbiy va haqiqatga zid baholanmoqda. Shunga o‘xshash fikrlar bilan mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlatlarni “yo‘ldan adashgan davlatlar” sifatida “maxsus ro‘yxatlarga kiritish”, buning asosida esa ularga demokratiyani eksport qilish choralarini ko‘rish nazarda tutilmoqda. Vaholanki, “davlat qurilishi borasida tanqidiy nuqtayi nazarsiz qabul qilinadigan tayyor qolip va andozalar yo‘q. Dunyoda bir-biriga o‘xshagan aynan ikkita davlat ham yo‘q. Bunday bo‘lishi ham mumkin emas. Har bir davlat – betakror ijtimoiy hodisadir. U har bir xalq

tarixiy va ma’naviy taraqqiyotining hosilidir, uning o‘ziga xos, o‘ziga mos madaniyat rivojining natijasidir” [8].

So‘nggi o‘n yilliklarda an’anaviy tahdidlarning noan’anaviy tahdidlar bilan o‘zgarayotgani, ba’zi hollarda esa an’anaviy tahdidlar noan’anaviy tahdidlar bilan qo‘shilib, ular orasidagi masofaning qisqarayotgani, sa’y-harakatlarda, maqsadlarda yaqinlik yuzaga kelayotgani kuzatiladi. Bu milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Tahdidlar esa ilgarigidek harbiy harakatlar yoki urush orqali emas, balki, kamxarj, ayni paytda manfaatli bo‘lgan mafkuraviy tazyiqlar o‘tkazish, iqtisodiy tang holatlarni keltirib chiqarish, ichki muxolifat orqali ta’sir etish orqali olib borilmoqda. Nomaqbul tuzumni kam mablag‘ sarflab ag‘darishning ko‘plab usullari va yo‘llari ishlab chiqilgan. Masalan, “informatsion urushlar” olib borish, “nodemokratik tuzum” tamg‘asi ostida butun dunyo axrobot institutlari orqali zarba berish, “o‘jar davlatlar”ni hukumatlarni “obro‘sizlantirish”, muxolifatni ko‘chalarga olib chiqish, xalq va hukumat orasiga nifoq solish shunday usullardandir. “Inson huquqlari buzilmoqda”, “demokratik inqiloblarni amalga oshirishga intilgan zaxiralar qattiq tazyiq ostiga olinmoqda”, “matbuot erkin emas”, “so‘z va fikr erkinligi yo‘q” kabi noo‘rin da’volar bilan yoshlar ongini zaharlash, millatlararo nizolarni keltirib chiqarish usuli qo‘llanilmoqda. Mafkuraviy, ma’naviy tahdidlar “gumanitar ko‘mak” shiori ostida ham o‘tkaziladi. So‘nggi yillarda xalqaro nohukumat tashkilotlarining faollashib qolgani, ularning faoliyatida siyosiy maqsadlar ustuvorlik qilayotgani kuzatilmoqda [9].

Polietnik davlatlarda ijtimoiy borliqning barcha tomonlari inson faoliyati bilan bog‘liq barcha sohalar milliy-etnik xususiyat kasb etadi. Shuning uchun milliy-etnik nizolar uchun har doim sabab, bois mavjud. Tashqi tahdid texnologiyalari mazkur sabab, boisdan ustalik bilan foydalanishga intiladilar. AQSH gegemonizmi dunyo ustidan hukmronlik qilishga intilayotgani bois tashqi tahdid texnologiyasidan keng foyda-lanishga o‘tgan. U bugun “strategik va mafkuraviy ustunligini ta’minlash” uchun barcha vositalardan foydalanmoqda [10]. Ular ichida milliy-etnik nizolarni keltirib chiqarish ham bor. Sobiq Yugoslaviya, Ukraina, Yaqin Sharq davlatlarida amalga oshirilgan ”intervensionizm” [11] millatlar va xalqlar boshiga og‘ir kulfatlar keltirdi.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin [12]. Demak, mafkuraviy va ma’naviy tahdid ostida yashash mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan davlatlarning qismatidir. Globallashuv ta’siri ostida targ‘ib etilayotgan ommaviy madaniyat ham etnomadaniy an’analarga, o‘zining etnik birligini, polietnik xususiyatlarini asrab qolishga intilayotgan davlatlarga qarshi tazyiq vazifasini bajarmoqda. Bunday sharoitda yangi etnosiyosiy paradigmani mustahkamlash, millat, xalq e’zozlab kelgan qadriyatlarga tayanish, inson ongini, ma’naviyatini

bulg‘ovchi unsurlarga qarshi immunitetni shakllantirish, millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilib kelgan tajribalarni, pozitiv izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash, gumanistik g‘oyalarga sodiq yosh avlodni tarbiyalash yanada dolzarb vazifalarga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Musayev O. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar barqarorligini ta’minlashda milliy g‘oya va ma’naviyatning o‘rni. “Falsafa va huquq” jurnali, 2019. 3 son.

2. Крымский С.Б. Метаисторические ракурсы философии истории. // Вопросы философии, № 6. 2001. – С. 39.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 29- dekabrdagi Parlamentga Murojaatnomasi. https://www.xabar.uz/siyosat/shavkat-mirziyoyevning-murojaatnomasi-toliq-matn.

4. Изучение общественного мнения в Узбекистане. – Ташкент, 2018. – С. 211.

5. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1998. – 426 b.

6. Сорос Дж. О глобализации. – Москва: АСПЕКТ-ПРЕСС, 2007. – С. 168–176.

7. Бжезинский З. Великая шахматная доска. – Москва: “Межд. отношения”, 2000. – С. 130–131.

8. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: ”O‘zbekiston”, 1996. – 51 b.

9. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент: “Ўзбекистон”, НМИУ, 2013. – 297–298 б.

10. Уткин А.И. Американская империя. – Москва: ЭКСМО, 2003. – С. 614.

11. Maynes Ch/W/ Union States role in the world: what are the choices? Qreat Decisions 2000/–W., 2000. – P. 12–13.

12. Haassr. The Reluctant Sheriff. – N.Y.: council on Forlign Relations, 1997. – P. 8–10.

13. Уткин А.И. Американская империя. – Москва: ЭКСМО, 2003. – С. 614.

QASHQADARO VILOYATIDA BOLALAR TIBBIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TIZIM SAMARADORLIGI

B. Shermatov,
Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarda bolalar salomatligi masalasi markaziy o‘rinlardan birini egalladi. Bolalar salomatligini muhofaza qilish tadbirlarini kuchaytirish va bu boradagi tarixiy tajribani ilmiy

tadqiq qilib, yakuniy xulosalar chiqarish tarixchilar oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, bolalar salomatligi, millat genofondi, Sog‘lom avlod, onalik va bolalik, Xalqaro xayriya jamg‘armasi, Pediatriya Markazi, «Sog‘lom bola», rekonstruksiya.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМЫ, НАПРАВЛЕННОЙ НА РАЗВИТИЕ ДЕТСКОЙ МЕДИЦИНЫ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Б. Шерматов,
магистрант Каршинского государственного университета

Аннотация: В процессе реформирования системы здравоохранения Узбекистана вопросы охраны здоровья детей заняли одно из центральных мест. Усиление мер по охране здоровья детей, научное изучение накопленного в данной сфере исторического опыта и формулирование соответствующих выводов являются одними из актуальных задач, стоящих перед историками.

Ключевые слова: Узбекистан, здоровье детей, генофонд нации, «Здоровое поколение», материнство и детство, Международный благотворительный фонд, Центр педиатрии, «Здоровый ребёнок», реконструкция.

THE EFFECTIVENESS OF THE SYSTEM AIMED AT DEVELOPING PEDIATRIC HEALTHCARE IN KASHKADARYA REGION

B. Shermatov,
Master’s Student at Karshi State University

Abstract: The issue of children’s health has occupied one of the central places in the reforms of Uzbekistan’s healthcare system. Strengthening measures to protect children’s health, conducting scientific research into the historical experience accumulated in this field, and drawing relevant conclusions are among the pressing issues facing historians.

Keywords: Uzbekistan, children’s health, national gene pool, “Healthy Generation,” motherhood and childhood, International Charitable Foundation, Center of Pediatrics, “Healthy Child,” reconstruction.

KIRISH: Dunyo miqyosida aholini, ayniqsa ijtimoiy zaif qatlamlarni himoya qilishga qaratilgan tizimni mustahkamlash, uning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy poydevorini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu izlanishlar quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olgan: aholining kam ta’minlangan va yordamga muhtoj qatlamlarini manzilli

qo‘llab-quvvatlash, sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilash va aholi salomatligini ta’minlash, ayniqsa, onalar va bolalar salomatligini himoya qilish, aholini qulay va sifatli turar-joylar bilan ta’minlash, kam daromadli va ko‘makka muhtoj oilalarni ijtimoiy himoya qilish, pensionerlarni va nogironligi bo‘lgan shaxslarni muhofaza qilishga doir amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish.

ASOSIY QISM: O‘zbekistonni ijtimoiy davlat deb belgilash – ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, ayniqsa, ijtimoiy himoyalanmagan yoki ehtiyojmand qatlamni qo‘llab-quvvatlash orqali ularga munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 14-moddasida “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi” [1] deb yozilgan bo‘lib, ijtimoiy himoyaning huquqiy asoslari ham yaratildi.

Hozirgi murakkab sharoitda dunyoning yetakchi mamlakatlaridagi ilmiy markazlar va oliy o‘quv yurtlarida tibbiyot sohasida erishilgan yutuqlar asosida modernizatsiya ishlari va integratsiya jarayonlarini kuchaytirish, tibbiyot sohasining mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqish, “bolalar travmatologiyasi va ortopediyasi”, “neoantologiya”, “bolalar ko‘z kasalligi”, “plastik jarrohlik” va boshqa yo‘nalishlarda zamonaviy davolash usullarini qo‘llashga katta ahamiyat berilmoqda. O‘zbekistonda ham bu sohada dunyoning rivojlangan mamlakatlari tibbiy ta’lim muassasalari hamda yetakchi tibbiyot markazlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga e’tibor kuchaytirildi.

Ma’lumki, asrlar davomida bolalar tibbiyoti sohasida katta tajriba to‘plangan bo‘lsa-da, so‘nggi yarim asrdan ziyodroq vaqt mobaynida bu sohada bir qator yutuqlarga erishildi. Shuning bilan birga bugungi kunda ekologik vaziyatning og‘irlashib turli yuqumli kasalliklarning ko‘payib borishi zamonaviy tibbiyotda ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, mamlakatimizning tabiiy iqlim sharoiti va ekologik muhitidan kelib chiqqan holda pediatriya sohasida doimiy izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatmoqda. Hozirgi paytda mamlakatimizda ham bolalar salomatligini himoya qilish, reproduktiv salomatlik, tashxis qo‘yish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va muntazam takomillashtirib borish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda. Bu masalalar mamlakatimizda bolalar tibbiyotini takomillashtirish jarayonlarini tarixiy va tabiiy omillar bilan bog‘liq holda tadqiq etish zaruriyatini yanada oshiradi.

XX asrning 40-yillari Qashqadaryo viloyatida bolalar uchun alohida shifoxona bo‘lmaganidan, ularni davolash uchun kattalar kasalxonalariga olib borilgan. 1950-yillarga kelib, ilk bor viloyat 1-shifoxona tarkibida 40 o‘rinli bolalar bo‘limi tashkil topgan. Unga bolalar shifokori Y.Kostinitsa mudirlik qilgan.

Mazkur bo‘limga 1956-yilda Toshkent Tibbiyot oliygohini imtiyozli diplom bilan tugallangan, endilikda tibbiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan tibbiyot xodimi Bahodir Aminov mahalliy aholidan chiqqan birinchi pediatr vrach sifatida ishga kelgan. Orasidan bir yil o‘tishi bilan B.Aminov bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlay boshlagan. 50-yillar tibbiyoti haqida Bahodir Po‘latovich quyidagicha hikoya qilib bordi: «O‘sha paytlarda bolalarni davolash uchun qo‘llaniladigan dori-darmonlarning aksariyati ichilardi yoki teri ostiga ukol qilib yuborish usuli umuman qo‘llanilmagan. Fizioterapevtik usullar haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi...».

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Viloyatda bolalar salomatligini saqlashda N.Burovkina, G.Knyazkova, F.Shokirova kabi hamshiralar ham hakimlar bilan yonma-yon turib, hayrli ishda faol qatnashganlar. Viloyat bolalar shifoxonasining qon kasalliklari bo‘limida hamshiralik qilgan mehnat faxriysi Nina Timofiyevna Burovkina o‘sha davrlar tabobati haqida shunday xotirlaydi:

Ha, biz ilk bor bolalarning qon tomiriga ukol qilishni boshlab berganlardanmiz. Biz shu muolajani egallashamiz uchun Bahodir Po‘latovich ishdan so‘ng mashg‘ulotlar o‘tkazar, dastlab soatlab mashq qilishimizga to‘g‘ri kelgandi...

Viloyatimiz tibbiyotining zahmatkashlaridan biri bo‘lgan Sa’dulla Temirov (marhum) ham 1961-yili Toshkent oliygohining pediatriya fakultetini tamomlab, dastlab bolalar shifokori sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 1960-yili Qarshi tumani firqa qo‘mitasining Beshkentga ko‘chishi sababli, uning shahardagi binosida viloyatda birinchi bolalar shifoxonasi tashkil topib, 100 o‘rinli statsionar hamda ikkita ambulatoriya faoliyat ko‘rsata boshladi. Dastlab B.Aminov, keyinchalik S.Boboqulov, G.Hikmatova K.Lopatnikova, D.Toshniyozov va E.Eronovlar bosh shifokor vazifasida ishlagan. Ularning xotirlashlaricha, oltmishinchi yillarda bolalar o‘rtasida issiq oylarda o‘tkir ichak kasalliklari, qishda esa yuqori nafas yo‘llari shamollashi, xususan, zotiljam kabi xastaliklari ko‘p uchragan. Shu bois viloyatda bolalar sog‘ligini muhofaza etishni yaxshilash va ularga ko‘rsatiladigan tibbiy yordamni yanada takomillashtirish maqsadida 1978-yili 750 o‘rinli yangi bolalar shifoxonasi ishga tushirildi. Bu paytda O‘zbekistonimizning boshqa birorta viloyatida Qashqadaryodagi kabi ko‘p sohali va o‘rinli bolalar shifoxonasi yo‘q edi.

Bu ulkan inshootni bolalar shifoxonasi sifatida ishga tushirilishi o‘sha paytdagi respublika rahbari, davlat arbobi (marhum) Sharof Rashidov va viloyat birinchi kotibi (marhum) Ro‘zmat G‘oyipovlarning nazorati va viloyat Sog‘liqni saqlash bo‘limi mudiri B.H.Vafoqulovning yordamida bo‘ldi. Bolalar shifoxonasi qurilishida ko‘plarning, ayniqsa Qarshilik mehnat faxriysi Jo‘ra bobo Ashurovning xizmati tahsinga loyiq. Bolalarni jon-dilidan sevgan bu kishi to‘qson yoshga

yaqinlashib qolgan bo‘lishiga qaramasdan, shifoxona qurilishi uchun tinim bilmay yelib-yugurdi. Qurilishning qayerida biror muammo chiqsa, o‘sha joyda Jo‘ra bobo eng shimarib, ishga kirishgan va masalani ijobiy hal qilgan.

1990-yilda esa mohir jarroh, Toshkent Bolalar tibbiyot oliygohining dotsenti N.Utaganov Tashabbusi bilan Qarshi shahrida O‘rta Osiyo va Qozog‘ison Respublikasi olimlarining ekologiya va ovqatlanish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Konferensiyada hammasi bo‘lib tibbiyotning, ayniqsa ekologiyaning ta’siri muammolariga bag‘ishlangan 20 dan ortiq ma’ruza tinglandi va muhokama qilindi. Bu anjumanning materiallari ham alohida kitob holida ko‘p nusxada chop etilgan. Konferensiyaning mazmunli va samarali o‘tishi viloyat rahbarlari, xususan viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi xodimlarining hamda Qarshi shahridagi barcha tibbiyot tashkilotlari rahbarlarining hissasi katta bo‘ldi. Yuqoridagi chora-tadbirlar evaziga ko‘p sohali bolalar shifoxonasining faoliyati ko‘zga ko‘rinadigan holatga keldi.

Bolalar tibbiyotida xizmat ko‘rsatayotgan 600 dan ortiq jamoa a’zolarining 100 dan ko‘prog‘ini vrachlar tashkil etishadi. Ular orasida 5 ta tibbiyot fanlari nomzodi va qirqdan ortiq oliy toifali mutaxassislar mavjud. Shifoxonada 22 ta maxsus bo‘lim ishlab turibdi. Bo‘lim mudirlari viloyat bo‘yicha tegishli sohaning barcha tumanlarda mazkur xizmat yuzasidan homiylik yordami tashkil etganlar. Shifoxonalar qoshida tumanlardagi og‘ir bemorlarga sanitariya-aviatsiya orqali xizmat ko‘rsatadigan alohida reanimatsiya brigadaning tashkil etilishi, bolalar sog‘ligini muhofaza etish sohasidagi zarur tadbirlaridan biri bo‘ldi. Bu yerda lazer nurlari bilan va gemosobitsiya usulida davolash metodlari qo‘llanilmoqda.

Vohada birinchi marta EKG apparati 1964-yilda ishlatila boshlagan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib, bu apparatlar barcha qishloq vrachlik ambulatoriyalarida ishlatilmoqda. Dispanserning «Jadal davolash» bo‘limida Polshada tayyorlangan kardiomonitor, bemorga sun’iy nafas berish apparati, defibliyator, bemorni doimiy kislorod bilan ta’minlash apparati ishlab turibdi.

1983-yili tashkil etilgan funksional diagnostika xonasi 6 kanalli EKG apparati, veloelgometriya, yurak ishini tahlil qiladigan MT-lenta apparat va «Malish» apparatlari bilan ta’minlangan.

1970 yillarda yuragi xasta bemorlarni kislorodli palatalarda oksigenoterapiya usuli bilan davolash boshlangan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu usul maxsus barokameralar orqali bajarilmoqda. Hozirgi paytda viloyatdagi barcha shifoxonalarda jami 725 ta kapdiologik bemor bo‘lib, ularga poliklinika va ambulatoriyalardagi hamma mutaxassislarni qo‘shganda jami 64 ta kardiolog xizmat qilmoqda. Ular har yili bo‘ladigan viloyat Kardiologlar jamiyati Kengashiga to‘planishadi. Bu kengashlarda kardiologiya sohasining eng dolzarb

muammolari va ularning yechimlari haqida fikr almashiniladi. Yuqoridagi ishlarni tashkil etishda turli yillarda dispanserning bosh hakimi bo‘lib ishlagan N.Qurboaliyev, T.Haydarov, X.Normo‘minov, S.Suvonov, F.Ro‘ziyev, A.Karapetyan va G‘.Komilovlarning xizmatlari katta bo‘lgan.

Sog‘lom oilani shakllantirish, ayollar va bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash, tug‘ma va irsiy kasalliklar natijasida kelib chiquvchi nogironlikni oldini olishga erishish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunga tibbiy — genetik xizmatni takomillashtirmasdan, homilada rivojlanish nuqsonlarini aniqlash uchun –tug‘ruqqa qadar diognostikani va chaqaloqlarda irsiy kasalliklarga skrining tekshiruvlarini o‘tkazmasdan turib bolalar o‘lim ko‘rsatkichini, bolalikdan nogironlik ko‘rsatkichlarini kamaytirishga erishib bo‘lmaydi. Ushbu muammoni nafaqat tibbiy balki ijtimoiy muammo bo‘lganligini hisobga olib Vazirlar Mahkamasining 140-sonli qaroriga binoan 1998-yilda bolalarda irsiy kasalliklar natijasida kelib chiquvchi aqliy zaiflikni oldini olish hamda homilani rivojlanish nuqsoni bilan tug‘ilishi xavfini aniqlash uchun homilador ayollarni tekshiruvdan o‘tkazish maqsadida “Ona va bola skriningi” Davlat dasturi qabul qilindi va dastur asosida “ Ona va bola skriningi” markazi tashkil qilindi.

XULOSA: Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekiston hukumati bolalar salomatligini muhofaza qilish maqsadida onalik va bolalikka va oila ravnaqini ta’minlash ishlariga alohida e’tibor qaratdi. O‘tish davrida mavjud bo‘lgan ijtimoiy — iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, bu muhim muammoni yechimini topish uchun barcha ichki va tashqi imkoniyatlarni safarbar etilishi onalar va bolalar salomatliklarini saqlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 6-7 bet.

2. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

3. Асадов Д.А., Даминов Т.О., Расулова Н.Ф. Ўзбекистонда педиатриянинг ривожланиш тарихи. – Тошкент, 2011. – 55-б.

4. Қодиров А.А. Ўзбекистон тиббиёти тарихи. – Тошкент: Ибн Сино нашриёти, 2001. 162-163-бетлар.

MA’NAVIY TAHDIDLARNING YOSHLAR TARBIYASIGA SALBIY TA’SIRI

R. Xalimmetova
Fan va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent v.b

Annotatsiya. Maqolada globallashuv va raqamlashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Axborot maydonida mafkuraviy bosim, ommaviy madaniyat, yot g‘oyalar va virtual muhit orqali ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, yoshlar tarbiyasida ma’naviy immunitetni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy tahdid, yoshlar tarbiyasi, mafkuraviy xavf, ommaviy madaniyat, mediasavodxonlik, ma’naviy immunitet.

НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ ДУХОВНЫХ УГРОЗ НА ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ

Р. Халимметова
И. о. доцента кафедры социальных наук Университета науки и технологий

Аннотация. В статье с научно-теоретической точки зрения проанализировано негативное влияние духовных угроз на воспитание молодежи в условиях глобализации и цифровизации. Освещены механизмы идеологического давления в информационном пространстве, воздействия массовой культуры, чуждых идей и виртуальной среды. Также обоснованы приоритетные направления формирования духовного иммунитета в воспитании молодежи.

Ключевые слова: духовная угроза, воспитание молодежи, идеологическая опасность, массовая культура, медиаграмотность, духовный иммунитет.

THE NEGATIVE IMPACT OF SPIRITUAL THREATS ON YOUTH EDUCATION

R. Xalimmetova
Acting Associate Professor at the Department of Social Sciences, University of Science and Technology

Abstract. The article provides a scientific and theoretical analysis of the negative impact of spiritual threats on youth education in the context of globalization and digitalization. It examines the mechanisms of ideological pressure in the information space, as well as the influence of mass culture, alien

ideas, and the virtual environment. In addition, the article substantiates the priority directions for fostering spiritual immunity in youth education.

Keywords: spiritual threat, youth education, ideological risk, mass culture, media literacy, spiritual immunity.

KIRISH: Jahon miqyosida Global axborot jamiyatining eng muhim yutug‘i — axborotga kirish imkoniyatining keskin kengayishidir. Internet va raqamli texnologiyalar orqali inson istalgan sohadagi ma’lumotni qisqa vaqt ichida olish imkoniga ega bo‘ldi. Bu esa ta’lim, fan, iqtisod va madaniyat sohalarida bilim almashinuvini jadallashtirdi. Onlayn ta’lim platformalari, masofaviy o‘qish va ochiq elektron resurslar har bir shaxsga umrbod ta’lim olish imkonini yaratdi. Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi yoshlar uchun nufuzli ta’lim manbalariga chiqish osonlashdi. Bu bilimda tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi. Global axborot maydoni turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida muloqotni kuchaytirdi. Bu jarayon bag‘rikenglik, o‘zaro anglash va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Turli madaniy tajribalar bilan tanishish shaxs dunyoqarashini boyitadi. Raqamli davlat xizmatlari orqali fuqarolar davlat idoralari bilan tez va shaffof aloqa o‘rnata boshladi. Elektron hukumat tizimlari byurokratiyani kamaytiradi, jamoat nazoratini kuchaytiradi va fuqarolik faolligini oshiradi, yangi kasblar, raqamli iqtisod va masofaviy mehnat turlarini vujudga keltirdi. Bu ayniqsa yoshlar va startaplar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish imkonini bermoqda. Umuman aytganda global axborot jamiyati inson hayotini yengillashtiruvchi, bilim va imkoniyatlar doirasini kengaytiruvchi muhim sivilizatsion bosqich hisoblanadi. Uning ijobiy jihatlaridan oqilona foydalanish jamiyat taraqqiyoti, yoshlar kamoloti va intellektual salohiyatni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM: Shu bilan birga bunday jamiyatning o‘ziga xos salbiy tomonlari xam borki, global axborot jarayonlari yoshlar ongi va tarbiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat orqali tarqalayotgan yot g‘oyalar milliy qadriyatlar tizimiga salbiy ta’sir o‘tkazib, yoshlarning ma’naviy kamolotiga jiddiy tahdid solmoqda. Bunday yot g‘oyalarning asosiy turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ekstremistik va radikal g‘oyalar: bu turdagi g‘oyalar zo‘ravonlik, bag‘rikenglikka zidlik va qonunbuzarlikni oqlashga qaratilgan bo‘ladi. Ular ko‘pincha internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga singdiriladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, bunday g‘oyalar shaxsning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatib, radikallashuv xavfini oshiradi.

2. Ommaviy madaniyatga xos iste’molchilik g‘oyalari: ommaviy madaniyat orqali tarqalayotgan individualizm, haddan ortiq erkinlik, hayotdan

faqat lazzat olishni targ‘ib qiluvchi qarashlar milliy tarbiya tamoyillarimizga zid hisoblanadi. Bu kabi g‘oyalar yoshlarda mehnatsevarlik, mas’uliyat va jamoaviylik kabi qadriyatlarni susayishiga olib keladi.

3. Axloqiy buzuqlikni normallashtiruvchi g‘oyalar: Zo‘ravonlik, shafqatsizlik, odob-axloq me’yorlarini inkor etishga qaratilgan g‘oyalar yoshlar psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Axborot manipulyatsiyasi va soxta g‘oyalar: soxta yangiliklar (fake news), manipulyativ axborotlar orqali jamiyatda ishonchsizlik, befarqlik va ijtimoiy passivlik shakllantiriladi. Bu holat yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyati yetarli rivojlanmaganida yanada kuchayadi.

5. Milliy o‘zlikni inkor etuvchi g‘oyalar: milliy tarix, til va madaniy merosni kamsitishga qaratilgan qarashlar yoshlarda o‘zligini anglash tuyg‘usini zaiflashtiradi. Milliy o‘zlikni asrash ma’naviy xavfsizlikning asosiy sharti sifatida ta’kidlanadi.

Yuqoridagi kabi inson ongiga salbiy ta’sir etuvchi ma’naviy tahdidlarni ilmiy tahlil qilish va ularga qarshi samarali tarbiyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish bugunning eng dolzarb vazifasiga aylandi.

Ma’naviy tahdid deganda jamiyat a’zolari, ayniqsa yoshlarning ongi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi g‘oyaviy-mafkuraviy omillar tushuniladi. Bunday tahdidlar quyidagi manbalar orqali namoyon bo‘ladi:

- ommaviy madaniyat mahsulotlari;
- axborot makonida tarqalayotgan soxta va buzg‘unchi g‘oyalar;
- virtual muhitda nazoratsiz kontent;
- milliy va diniy qadriyatlarga zid axborot oqimlari.

Taniqli olim A.Mavrulov ta’kidlaganlaridek, axloqiy me’yorlarning inqirozi ma’naviy tahdidlarning eng xavfli ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Olimning ta’kidlashicha, «ma’naviy tahdidlar jamiyat tafakkuri va madaniy merosiga qarshi qaratilgan yashirin ta’sir shakli bo‘lib, ular inson ongida befarqlik va qadriyatsizlikni shakllantiradi [1]».

Ma’naviy tahdidlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir omillarini nimalarda ko‘rish mumkinki, yoshlar ma’naviy jihatdan hali to‘liq shakllanmagan qatlam sifatida tashqi ta’sirlarga nisbatan o‘ta sezgir hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari va internet orqali tarqalayotgan zo‘ravonlik, individualizm va iste’molchilik g‘oyalari yoshlarda milliy o‘zlikni anglash hissini susaytiradi. UNESCO tahlillariga ko‘ra, “axborot xavfsizligi ta’minlanmagan muhitda yoshlar radikal g‘oyalar ta’siriga tushib qolish xavfi yuqori bo‘ladi [2]”.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Shuning uchun ma’naviy immunitetni yuksaltirishga butun jamiyat a’zolarining e’tiborini qaratish davr talabidir.

Ma’naviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun yoshlarda ma’naviy immunitetni shakllantirish juda muhim bo‘lib, bu jarayonda oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilik institutlarining hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «Yoshlarni tarbiyalash masalasi — bu kelajak masalasi, ma’naviy barkamol avlod esa taraqqiyotning eng muhim omilidir [3]».

Ma’naviy tahdidlar zamonaviy jamiyat taraqqiyoti jarayonida eng murakkab va ko‘zga ko‘rinmas, biroq ta’sir doirasi jihatidan o‘ta xavfli ijtimoiy hodisalardan biri hisoblanadi. Ular ochiq zo‘ravonlik yoki ma’muriy bosim orqali emas, balki inson ongi, dunyoqarashi, qadriyatlar tizimiga asta-sekin, tizimli va maqsadli tarzda ta’sir ko‘rsatish orqali namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda ma’naviy tahdidlar jamiyat tafakkuri va madaniy merosiga qarshi qaratilgan yashirin ta’sir shakli sifatida talqin etiladi.

Jamiyat tafakkuri — bu muayyan xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy merosi, urf-odatlari, axloqiy me’yorlari va dunyoqarashi asosida shakllangan ijtimoiy ong tizimidir. Ma’naviy tahdidlar aynan shu tizimning ichki muvozanatini izdan chiqarishga qaratilgan bo‘lib, ular insonning milliy o‘zligini anglash, madaniy merosga hurmat va jamiyat oldidagi mas’uliyat tuyg‘usini susaytiradi. Bu jarayon ko‘p hollarda ochiq inkor etish orqali emas, balki qadriyatlarning ahamiyatini pasaytirish, ularni zamonaviy hayotga “mos kelmaydigan” tushunchalar sifatida talqin qilish orqali amalga oshiriladi.

Ma’naviy tahdidlarning eng xavfli jihati shundaki, ular inson ongida befarqlik holatini shakllantiradi. Befarqlik — bu shaxsning jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, ma’naviy va madaniy jarayonlarga nisbatan faol munosabat bildirmasligi, “menga daxli yo‘q” degan kayfiyatda yashashidir. Bunday holatda inson milliy qadriyatlar taqdiriga, ma’naviy merosning asrab-avaylanishiga, kelajak avlod tarbiyasiga nisbatan mas’uliyat hissini yo‘qota boshlaydi. Natijada jamiyatda fuqarolik faolligi pasayib, ijtimoiy birdamlik zaiflashadi.

Qadriyatsizlik esa ma’naviy tahdidlarning yanada chuqurroq va tizimli oqibati hisoblanadi. Qadriyatsizlik deganda inson hayotida ma’naviy, axloqiy va madaniy mezonlarning yo‘qolishi, faqat shaxsiy manfaat va moddiy ehtiyojlarni ustuvor qo‘yish holati tushuniladi. Bu jarayonda insoniylik, vijdon, or-nomus, mehr-oqibat kabi tushunchalar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy tahdidlar aynan shu holatni normal hol sifatida ko‘rsatishga urinadi, ya’ni qadriyatlarga sodiqlikni “ortda qolganlik”, ma’naviy prinsiplarga amal qilishni esa “erkinlikni cheklash” sifatida talqin qiladi.

Madaniy merosga qarshi qaratilgan ma’naviy tahdidlar ham ko‘pincha yashirin shaklda namoyon bo‘ladi. Milliy til, adabiyot, san’at, an’analar va tarixiy

xotirani kamsitish yoki ularni zamonaviy hayot uchun ahamiyatsiz deb ko‘rsatish orqali jamiyatning ma’naviy ildizlari zaiflashtiriladi. Agar inson o‘z tarixini, ajdodlari qoldirgan ma’naviy boyliklarni anglamasa va qadrlamasa, u osonlikcha yot g‘oyalar ta’siriga tushib qoladi. Chunki ma’naviy bo‘shliq har doim tashqi g‘oyaviy ta’sirlar bilan to‘ldiriladi. Ayniqsa, yoshlar ma’naviy tahdidlarga nisbatan eng ta’sirchan qatlam hisoblanadi. Yoshlik davrida shaxsning dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari va qadriyatlar tizimi shakllanadi. Agar shu jarayonda yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan mustahkam ma’naviy asos bo‘lmasa, ular virtual makon, ommaviy madaniyat va axborot oqimlari orqali tarqalayotgan salbiy g‘oyalarni hayot me’yori sifatida qabul qilishi mumkin. Bu esa kelajakda jamiyat tafakkurining zaiflashuviga olib keladi.

Ma’naviy tahdidlarning yana bir muhim jihati — ularning uzoq muddatli ta’sirga ega ekanligidir. Iqtisodiy yoki siyosiy muammolar ma’lum vaqt o‘tib hal etilishi mumkin, ammo ma’naviy inqiroz oqibatlarini bartaraf etish ancha murakkab va davomli jarayondir. Chunki ma’naviy tahdidlar inson ongida stereotiplar, noto‘g‘ri qarashlar va qadriyatlarga nisbatan sovuq munosabatni shakllantirib qo‘yadi. Bunday holatda jamiyat tashqi jihatdan barqaror ko‘rinsa-da, ichki ma’naviy birligi zaiflashadi.

Shu nuqtayi nazardan, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash faqat taqiqlar yoki ma’muriy choralar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Asosiy e’tibor inson ongida ma’naviy immunitetni shakllantirishga qaratilmog‘i kerak. Ma’naviy immunitet — bu shaxsning yot g‘oyalarni tanib olish, ularga tanqidiy munosabat bildirish va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan mustaqil fikr yuritish qobiliyatidir. Bunday immunitet ta’lim-tarbiya, oila muhiti va jamiyatdagi ma’naviy muhit orqali shakllanadi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, ma’naviy tahdidlar jamiyat tafakkuri va madaniy merosiga qarshi qaratilgan yashirin, ammo tizimli ta’sir shakli bo‘lib, ular inson ongida befarqlik va qadriyatsizlikni shakllantiradi. Bu jarayon milliy o‘zlikni anglashni susaytiradi, jamiyatning ma’naviy barqarorligiga putur yetkazadi va kelajak avlod tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ma’naviy tahdidlarni bartaraf etish har bir jamiyatning strategik vazifasi sifatida qaralishi lozim. Ma’naviy tahdidlar yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Ularni bartaraf etish uchun milliy qadriyatlarga tayanadigan, mediasavodxonlikni oshirishga qaratilgan va ma’naviy tarbiyani tizimli ravishda amalga oshiradigan kompleks yondashuv zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o‘zgarishlari. – Toshkent: Fan, 2004. – 120 b.

2. UNESCO. Youth and Information Security in the Digital Age. – Paris, 2019. – 98 p.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettiramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 320 b.
4. Qodirov B. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – 210 b.
5. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980. – 537 p.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON SUD TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN

Iskandarova Madina,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining shakllanish tarixi, uning huquqiy-nazariy asoslari hamda zamonaviy rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 1993-yilda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning sud hokimiyatini mustahkamlashdagi o‘rni, Oliy sudning vakolatlari hamda sud tizimining demokratik tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, sud islohotlari, til siyosati va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi kabi yo‘nalishlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, sud tizimi, huquq, sud hokimiyati, qonun, Oliy sud, siyosat.

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ СУДЕБНОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Искандарова Мадина
Магистрант кафедры «История и социальные науки» Университета экономики и педагогики

Аннотация: В данной статье анализируются история формирования судебной системы Республики Узбекистан, её правовые и теоретические основы, а также современные этапы развития. Рассматривается значение Закона «О судах» 1993 года в укреплении судебной власти, полномочия Верховного суда и демократические принципы судебной системы. Также освещаются судебные реформы, языковая политика и внедрение цифровых технологий в судебную систему.

Ключевые слова: Независимость, судебная система, право, судебная власть, закон, Верховный суд, политика.

HISTORY OF THE FORMATION AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE JUDICIAL SYSTEM OF UZBEKISTAN

Iskandarova Madina
Master's Student at the Department of History and Social Sciences, University of Economics and Pedagogy

Abstract: This article analyzes the history of the formation of the judicial system of the Republic of Uzbekistan, its legal and theoretical foundations, and modern stages of development. It examines the significance of the 1993 Law "On Courts" in strengthening the judiciary, the powers of the Supreme Court, and the democratic principles of the judicial system. The study also covers judicial reforms, language policy, and the introduction of digital technologies in the court system.

Keywords: Independence, judicial system, law, judiciary, law, Supreme Court, politics.

KIRISH: Sud hokimiyati har qanday demokratik davlatning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Sud tizimining mustaqilligi va samaradorligi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda adolatni qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston hududida sud tizimi qadimiy tarixga ega bo'lib, turli davrlarda turlicha shakllanib rivojlangan. Qozilik sudlari, xonliklar davridagi sud boshqaruvi, Rossiya imperiyasi va sovet davridagi sud tizimi hamda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar bugungi zamonaviy sud tizimining shakllanishiga asos bo'ldi.

Mamlakatda mustaqillikdan keyin sud-huquq tizimini demokratlashtirish va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shu sababli O'zbekiston sud tizimining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy islohotlarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM: O'zbekiston sud tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalasi huquqshunoslik va davlat-huquq nazariyasi doirasida keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda sud hokimiyatining mustaqilligi, odil sudlovni ta'minlash mexanizmlari hamda sud tizimining institutsional rivojlanishi asosiy ilmiy masalalar sifatida tahlil qilingan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Sudlar to'g'risida"gi qonun (1993-yil) sud tizimining huquqiy asoslarini belgilovchi asosiy manba sifatida ilmiy adabiyotlarda keng sharhlangan. Huquqshunos olimlar ushbu normativ hujjatlarning qabul qilinishi mamlakatda mustaqil sud hokimiyatini shakllantirishda tub burilish yasaganini ta'kidlaydilar. Ilmiy manbalarda Oliy sudning vakolatlari, quyi sudlar faoliyati hamda sud tizimining bosqichma-bosqich

takomillashuvi alohida o‘rganilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda chop etilgan tadqiqotlarda sud-huquq islohotlarining yangi bosqichi, jumladan, sud ishlarini ixtisoslashtirish, apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarining rivojlanishi hamda sud tizimiga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada xorijiy adabiyotlarda sud hokimiyatining mustaqilligi va huquqiy davlat tamoyillari bilan bog‘liq umumiy nazariy yondashuvlar ham keltirilgan bo‘lib, ular O‘zbekiston tajribasini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sud tizimi rivojlanishi uzluksiz huquqiy islohotlar jarayoni sifatida qaraladi va bu jarayon zamonaviy demokratik tamoyillar asosida takomillashib bormoqda.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida tarixiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va ilmiy kuzatish metodlaridan foydalanildi. Sud tizimining turli tarixiy bosqichlari ketma-ketlik asosida o‘rganildi va ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, sud-huquq tizimiga oid qonun hujjatlari, ilmiy adabiyotlar va rasmiy manbalar asosida tadqiqot olib borildi. Mustaqillik davridagi sud islohotlari xorijiy tajribalar bilan qiyosiy ravishda o‘rganildi.

“Encyclopædia Britannica” ingliz universal ensiklopediyasiga ko‘ra, sud terminiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Sud – bu sud, fuqarolik, jinoiy, diniy yoki harbiy ishlar bo‘yicha nizolarni ko‘rish va hal qilish uchun sud vakolatiga ega bo‘lgan shaxs yoki shaxslar organi” [1].

1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekistonda zamonaviy sud tizimini shakllantirishning muhim huquqiy asosi bo‘ldi. Mazkur qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo‘jalik sudi, viloyat, tuman va harbiy sudlar faoliyat yuritishi belgilandi. Qonunda sud hokimiyatining mustaqilligi asosiy tamoyil sifatida mustahkamlanib, sudyalarning faqat qonunga bo‘ysunishi qayd etildi. Shuningdek, odil sudlovni faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi, sudlovning oshkoraligi kabi demokratik prinsiplar belgilab qo‘yildi. Ushbu qonun mamlakatda mustaqil sud hokimiyatini shakllantirish va huquqiy demokratik davlat qurishda muhim ahamiyat kasb etdi [2].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 134-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan qarorlar va hujjatlar qat’iy bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir. Shuningdek, Oliy sud quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lib, bu sud tizimida qonuniylik va yagona sud amaliyotini ta’minlashga xizmat qiladi [3].

1993-yildagi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida sud ishlari o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda yuritiladi [4].

Keyingi yillar davomida ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib sud huquq tizimi bazasi kengaytirilib, kerakli o‘zgarishlar amalga oshirib borildi. Sud hokimiyatining huquqiy asoslari izchil rivojlantirilib, sud tizimi mustaqilligini ta’minlash, sudlar tuzilmasini takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bu davrda sudlar fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy yo‘nalishlarda ixtisoslashdi, apellyatsiya va kassatsiya tartiblari shakllantirildi hamda sudyalarning maqomi va kafolatlari bosqichma-bosqich mustahkamlandi. Shuningdek, sud ishlarini ko‘rib chiqishning tashkiliy va protsessual asoslari takomillashtirilib, sud tizimida yagona amaliyotni ta’minlashga e’tibor qaratildi.

So‘nggi yillarda sud tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron sud tizimini rivojlantirish va sud qarorlarining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. Bu esa fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda [5].

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy, huquqiy va institutsional jihatdan murakkab va bosqichma-bosqich kechgan jarayon hisoblanadi. Mustaqillikdan so‘ng qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi sud hokimiyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab, uning mustaqilligini ta’minlashda muhim rol o‘ynadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sud tizimi fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma’muriy yo‘nalishlarda izchil rivojlanib, zamonaviy demokratik tamoyillar asosida takomillashib bormoqda. Oliy sudning oliy sud organi sifatidagi vakolatlari, sudlarning ixtisoslashuvi hamda yagona sud amaliyotini ta’minlash mexanizmlari tizim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA: Shuningdek, so‘nggi yillarda sud tizimiga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va ochiqlik siyosatining kuchaytirilishi odil sudlovga bo‘lgan ishonchni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Umuman olganda, O‘zbekiston sud tizimi huquqiy demokratik davlat qurish jarayonining ajralmas qismi sifatida izchil rivojlanib bormoqda.

Quyida esa sud huquq tizimini takomillshtirish yuzasidan takliflarimizdir.

1. Sud tizimining mustaqilligini yanada mustahkamlash maqsadida sudyalarni tayinlash va ularning daxlsizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

2. Sud ishlarini raqamlashtirish jarayonini kengaytirish, barcha sud jarayonlarini elektron platformalar orqali yuritishni to‘liq joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Sud qarorlarining ochiqligi va shaffofligini oshirish uchun yagona ochiq ma’lumotlar bazasini rivojlantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Encyclopædia Britannica. Court (court definition) // https://www.britannica.com/search?query=court.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni (1993-yil 2-sentyabr) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.09.1993 y., 924-XII-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan tahriri. – Toshkent: “Adolat”, 2023. – 100 b.

4. Kodirjonov O., Muminov Kh. From the history of the court system of Uzbekistan // “Jamiyat va innovatsiyalar – Society and Innovations”, 2024. – B. 111–113.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy axborot tizimi: sud jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha ma’lumotlar // https://sud.uz

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA MUSIQA SAN’ATI VA TA’LIM TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI MASALASI TAHLILI

Murtazova Sahodat Bo‘riyevna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, t.f.f.d., professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda keyingi yillarda musiqa san’ati va ta’lim tizimi tarixshunosligiga oid ma’lumotlar tahlili keltirilgan. Musiqa san’ati va ta’lim tizimiga oid chop etilgan oid maqola, risola, monografiyalar hamda uning mazmun-mohiyati bilan bog‘liq masalalar tahliliga bag‘ishlangan.

Kalitli so‘zlar: tarixshunoslik, monografiya, risola, dissertatsiya, musiqa, san’at, madaniyat, musiqa ta’limi, kompozitor, ijodiyot, an’ana, usto-shogird, usul, darslik, o‘quv qo‘llanma.

АНАЛИЗ ВОПРОСОВ ИСТОРИОГРАФИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА И СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Муртазова Саходат Буриевна,
заведующая кафедрой «История и социальные науки» Университета экономики и педагогики, доктор философии (PhD) по историческим наукам, профессор

Аннотация: В статье представлен анализ данных по истории музыкального искусства и системы образования в нашей стране за последние годы. В нем анализируются опубликованные статьи, брошюры, монографии, связанные с искусством музыки и системой образования, а также вопросы, связанные с их содержанием.

Ключевые слова: историография, монография, трактат, диссертация, музыка, искусство, культура, музыкальное образование, композитор, творчество, традиция, учитель-ученик, метод, учебник, учебное пособие.

AN ANALYSIS OF THE HISTORIOGRAPHY OF MUSICAL ART AND THE EDUCATION SYSTEM IN THE CONTEXT OF NEW UZBEKISTAN

Murtazova Sahodat Bo‘riyevna,
Head of the Department of History and Social Sciences at the University of Economics and Pedagogy, PhD in History, Professor

Abstract: This article presents an analysis of data on the historiography of musical art and the music education system in Uzbekistan in recent years. The article analyzes published articles, brochures, and monographs on musical art and the music education system, as well as issues related to their content and essence.

Key words: historiography, monograph, brochure, dissertation, music, art, culture, music education, composer, creativity, tradition, mentor, teaching, method, textbook, teaching aid.

KIRISH: Yangi O‘zbekiston sharoitida musiqa san’ati va ta’lim tizimiga bo‘lgan e’tiborning kuchaytirilishi, xususan, milliy musiqa san’atining butunlay yangi-yangi an’analar asosida yo‘lga qo‘yilishi, uning targ‘iboti masalasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilishi tufayli, soha faoliyatini o‘rganishga va tadqiq etishga bo‘lgan talab ortib bordi. Natijada, juda qisqa muddat ichida musiqa san’ati va ta’lim tizimining turli yo‘nalishlarini aks ettirgan ilmiy maqolalar, risola va monografiyalar [1] yaratildi.

ASOSIY QISM: Keyingi yillarda musiqa san’ati va ta’lim tizimiga oid e’lon qilingan maqolalar orasida soha tarixiga tegishli original ishlar ham uchraydi. Masalan, yuqorida qayd etilgan B.Sayfullayev, Z.Maxmadaliyev, F.Maksumova, F.Abdukarimova, Sh.Isroilova, M.Mashrabova, I.Ro‘zimurodov, X.Zakirov, R.Yakubbayev, O‘.Nurmatov, Sh.Shumaniyozova, S.Rixsiyeva, O.Abdiyev, M.Tojimamatova, A.Samadov, H.Hamrayeva, Sh.Mirziyoyev, Sh.Ortiqov, B.Ahmedov, N.Mahmudova, M.Mo‘minova, O.Nazarbekov, S.Rixsiyeva, N.Usmonova, M.Xushvaqtova kabilarning maqolalarida musiqa san’ati tarixiga tegishli ko‘plab ma’lumotlar jamlanganki, ularda keltirilgan faktik materiallar boshqa joyda uchramaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Prezidentining “Lazgi” va

“Baxshichilik” Xalqaro festival ishtirokchilariga tabrigi, o‘zbek musiqa madaniyatining turli soha va janrlari, yetuk namoyandalari faoliyatiga doir qimmatli ma’lumotlar berilgan. Masalan, M.Qodirovning “Yallachilar san’ati” maqolasida Qo‘qonda faoliyat olib borgan ayol san’atkorlar xususida gapirilib, hatto tarixiy fotosuratlar ham namoyish etiladi. Ayol san’atkorlarning ism-sharifi, ularning kasb-kori, mavqe masalasi o‘rganiladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida musiqa san’atiga doir nashr etilgan darslik va o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanmalarda ham mavzu tarixshunosligini yoritishga xizmat qiladigan ko‘plab ma’lumotlarni uchratish mumkin [2]. Bu sohada e’lon qilingan aksariyat ishlarda o‘zbek milliy musiqa san’ati va milliy cholg‘u asboblari, ijrochilik va sozandalik, ularni o‘rganish usullari va vositalari, milliy musiqa san’ati namoyandalari faoliyati xususidagi fikr-mulohazalar bayon etiladi. R.Tursunov, S.Mannopov, R.Qosimov, F.Mamadaliyev, A.Lutfullayev, F.Qo‘chqorov kabi musiqa mutaxassislarining ishlarida o‘zbek milliy musiqa madaniyatida ijro mahorati, maqomchilik ijro usullari, jumladan, an’anaviy ijrochilik masalalariga kengroq to‘xtaldi.

B.Madrimovning “O‘zbek musiqa tarixi” nomli darsligida XX asr boshlarida milliy musiqa merosini o‘rganish va saqlash maqsadida tashkil etilgan ilmiy muassasalar faoliyati hamda ularning musiqa ta’limi tizimidagi o‘rni atroflicha yoritilgan. Xususan, 1928-yili Samarqandda tashkil etilgan Musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti o‘z davrining yetakchi ilmiy markazlaridan biri sifatida ta’riflanadi. Muallif bu dargohda M.Burhonov, T.Sodiqov, M.Ashrafiy, M. Leviyev, D.Zokirov kabi ko‘zga ko‘ringan kompozitor va musiqashunoslarning ta’lim olganini qayd etadi. Bu institut musiqa ta’limi va ijrochilik an’analarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutib, milliy musiqa merosini ilmiy asosda o‘rganish va tizimlashtirishga xizmat qilgan. Asarda ayni davrda Xivada faoliyat yuritgan bolalar musiqa maktabining tashkil topishi, uning ilk rahbari va mashhur maqom ustasi Matyoqub Xarratning faoliyati ham alohida tilga olinadi. Mazkur maktabda xalq musiqasi, xususan, Xorazm uslubidagi maqom kuylarining o‘qitilishi milliy musiqa ta’limi yo‘lidagi ilk qadamlardan biri sifatida baholanadi. Shunga qaramay, maktab faoliyati siyosiy jarayonlar ta’sirida qisqarib, 1924–25-yillarda bolalar uyiga aylantirilib yuborilgani qayg‘uli tarixiy voqelik sifatida qayd etilgan. Muallif, shuningdek, Matyoqub Xarrat kabi mashhur ijrochilarning milliy musiqa madaniyatiga qo‘shgan hissasini alohida ta’kidlaydi. Uning musiqa ta’limi sohasidagi xizmatlari, xususan, Xorazm uslubini institutsional darajada o‘qitishga bo‘lgan urinishlari, o‘z davrida yangicha bilim berish tizimini shakllantirishga qaratilgan harakatlardan dalolat beradi. Biroq, siyosiy tazyiqlar tufayli ijodkorlarning ta’qibga uchrashi va musiqa ta’limi muassasalarining o‘z faoliyatini to‘xtatishi milliy musiqa ta’limining taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Darslikda ta’kidlanganidek, milliy musiqa ta’limi tarixidagi bunday institutsional va shaxsiy tajribalar o‘zbek musiqa madaniyatining shakllanishida muhim tarixiy ahamiyat kasb etadi. B.Madrimovning asari bu boradagi ilmiy izlanishlar uchun boy manba bo‘lib xizmat qiladi [3].

O.Ibrohimovning “Maqom asoslari” asarida mustaqillik yillarida kasbiy musiqa an’analarini, ayniqsa maqom san’atini tiklash va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Asarda maqom musiqasi – Buxoro shashmaqomi, Xorazm va Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari misolida milliy musiqa merosimizning amaliy va ijroiy qimmati yoritilgan. Maqom ijrochiligida ustoz–shogird an’anasi, ansambl ijrosi, cholg‘u sozlarining boy tarkibi va ijodiy maktablarning tiklanishi musiqa ta’limi sohasidagi yutuqlar sifatida baholanadi. Turg‘un Alimatov, Orifxon Hotamov, Munojot Yo‘lchiyeva kabi hofiz va sozandalar faoliyati orqali maqom ijodiyoti yangi avlodga yetkazilgani ta’kidlangan. Asar musiqa va musiqa ta’limi orqali maqom san’atining tarixi, ijro an’analari va ularning zamonaviy rivojini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi [4].

G.Sharipovaning “Boshlang‘ich guruhlarda musiqa madaniyati darslari uchun metodik qo‘llanma” (2000) va “Musiqa va uni o‘qitish metodikasi” (2019) nomli asarlarida nafaqat musiqa ta’limi metodikasi, balki o‘zbek estrada san’ati va uning ilk namoyondalaridan biri Tamaraxonim faoliyatining o‘rni ham yoritilgan. Uning milliy va jahon xalq qo‘shiqlari hamda raqslarini yod olgan holda mahorat bilan ijro etishi, 1940 yilda o‘z nomi bilan atalgan milliy estrada ansamblini tashkil qilib, 60–70-yillarda ushbu soha rivojiga qo‘shgan hissasi o‘zbek musiqa madaniyati va musiqa ta’limi tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu manbalar musiqa ta’limida an’anaviy va jahon ijodiyoti elementlarini uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini ham atroflicha yoritadi [5].

M.Otajonovning “Kompozitor Abdusharif Otajonov (Ijodiy merosiga chizgilar)” asarida sovet davridagi milliy musiqa va musiqa ta’limi sohasidagi rivojlanish keng yoritilgan. Asarda 1920-yillardan boshlab o‘zbek kompozitorlik ijodi shakllana boshlagani, shu bilan birga, xor, kantata, opera va simfoniya kabi janrlar musiqa madaniyatiga kirib kelgani ta’kidlangan. Milliy musiqani notaga tushirish, o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona shaharlarida musiqa ta’limi muassasalari tashkil etilgan. Bu jarayonda rus mutaxassislari ishtirok etgani va ularning milliy kadrlar tayyorlashdagi hissasi alohida qayd etilgan. Shu bilan birga, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy, Doni Zokirov kabi kompozitorlar ijodida xalq musiqasi an’analari va zamonaviy usullar uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘lgan. Asar musiqa va musiqa ta’limi orqali milliy madaniyatni saqlash, boyitish va rivojlantirishdagi tarixiy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi [6].

A.S.Sunnatillayevning “Folklor-etnografik jamoalar bilan ishlash uslubiyoti” nomli o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekistonda an’anaviy xalq musiqasi va musiqa ta’limi tizimida folkloretnografik jamoalarning tutgan o‘rnini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir. Asarda professor Saodat Yo‘ldoshevaning ilmiy faoliyati, xususan, respublika bo‘ylab tashkil etilgan yigirmadan ortiq folklor etnografik jamoalarning ijrochilik xususiyatlari, repertuari, cholg‘u asboblari va sahna kiyimlari kabi jihatlar tahlil qilingan. Ushbu jamoalarning faoliyati xalqning maishiy hayoti, urf-odatlari va estetik didi bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangani ta’lim va ijod uyg‘unligining yorqin namunasi sifatida baholanadi. Qo‘llanmada ular ijrosidagi musiqiy namunalar matnlari yozib olinib, chop etilgani, repertuar orqali xalq dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy hayotining namoyon bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur asar an’anaviy ijrochilik san’atining saqlanishi, hozirgi musiqa ta’limi tizimida folklorga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar va uslubiy yondashuvlarni shakllantirishda muhim metodik va nazariy asos sifatida xizmat qiladi [7].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Shuningdek, musiqa madaniyati targ‘iboti va tashviqotiga bag‘ishlangan, uning yetuk namoyandalari faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar, konferensiyalar o‘tkazilib, konferensiya to‘plamlari, ma’lumotnomalari, kitob albomlar ham chop etildi [8].

Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining 60 yillik faoliyatiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plamida (R. Abdullayev, N. Begmatova, Z. Yusupova) o‘zbek an’anaviy musiqasi, xususan, maqom ijrosi va uning ta’limiy ahamiyati keng yoritilgan. Asarlarda maqom ansamblining tarixiy shakllanishi, ijodiy yo‘li, avlodlar davomiyligi va ustoz-shogird an’anasi asosida taraqqiy etishi haqida mufassal ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu maqolalarda ansamblning respublika, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi musiqiy faoliyati, estrada va maqom san’atining uyg‘unlashgan holda rivojlanishi, xalqaro festivallardagi ishtiroki va yuksak mukofotlarga sazovor bo‘lishi ta’rif etilgan. Asarlarda ta’kidlanishicha, maqom an’analari nafaqat ustozlardan shogirdlarga og‘zaki ravishda o‘tib kelgan, balki keyingi yillarda ular musiqa ta’limi tizimi orqali ham o‘zlashtirilib, yozma manbalar, nota tizimi, maqom darslik va qo‘llanmalar orqali targ‘ib etilmoqda. Xususan, mustaqillik yillarida maqom san’atiga bo‘lgan davlat darajasidagi e’tibor, Prezident qarori asosida tashkil etilgan Xalqaro maqom san’ati festivallari (Shahrisabz, 2018) va ilmiy-amaliy tadbirlar natijasida maqom ijrosi va ta’limi yanada kengaydi. Maqom ansambli a’zolari nafaqat ijrochilikda, balki yosh avlodni o‘qitish, musiqa ta’limida an’anaviy uslublarni saqlash va rivojlantirishda ham faol ishtirok etmoqda. Mazkur to‘plamda ko‘tarilgan masalalar, xususan, maqom ijrosining yozma va og‘zaki an’analari, ansamblning ta’limiy vazifalari, milliy musiqa merosining saqlanishi va zamonaviy avlodga yetkazilishi kabi

masalalar musiqa ta’limi va uning tarixiy-ijtimoiy asoslarini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir. Shu ma’noda, mazkur manbalar o‘zbek musiqa madaniyati va an’anaviy ijrochilik san’atining zamonaviy bosqichdagi rivojlanishini tadqiq etishda ishonchli tarixiy-ilmiy asos sifatida xizmat qiladi [9].

O‘zbekistonda musiqa ta’limi tizimining shakllanishi va rivojlanishida Farg‘ona san’at kolleji alohida o‘ringa egadir. “San’atning nurli yo‘li” (Farg‘ona san’at kolleji 60 yoshda) nomli maqolalar to‘plamida mazkur ta’lim muassasasining tarixiy bosqichlari, kafedralari faoliyati, ijodiy an’analari va yurtimiz madaniy hayotidagi roli atroflicha yoritilgan. 1957-yilda Farg‘onada musiqa bilim yurti sifatida faoliyat boshlagan mazkur muassasa 60 yil davomida yuksak professional musiqachilarni tayyorlash bilan birga, xalq ijodi va an’anaviy cholg‘u ijrosi sohasida milliy maktabni yuzaga chiqarishda muhim o‘rin tutdi. Shuningdek, mutaxassislarning xalqaro miqyosdagi yutuqlari, xususan, Avstriya, Fransiya, Rossiya kabi mamlakatlarda ishlab kelayotgan kollej bitiruvchilari faoliyati, mazkur muassasaning xalqaro musiqa maydonidagi ta’sirini ham namoyon etadi. Mazkur to‘plamda keltirilgan ma’lumotlar ta’lim va ijod uyg‘unligini, an’ana va zamonaviylik birligini o‘zida mujassam etgan holda, Farg‘ona san’at kollejining o‘zbek milliy musiqasini asrab-avaylash va rivojlantirishda tutgan o‘rnini tarixiy manba sifatida tasdiqlaydi. Bu jihatdan qaralganda, ushbu nashr musiqa ta’limi tarixini o‘rganuvchi tadqiqotchilar uchun boy faktologik asos bo‘lib xizmat qiladi [10].

H.Qosimovning maqolasida o‘zbek xalq laparlarining folklor janridagi o‘rni, ijro o‘rni, ijro tarzi, ushbu janrning turli tarixiy davrlardagi holati, xususan, XX asrning 60-yillaridan boshlab marosimlarga professional san’atkorlarning kirib kelishi natijasida xalq bazmlaridan laparlarning siqib chiqarilishi, mohir lapar ijrochilari, bugungi kunda bu janrni mustahkamlash muammolari atroflicha tahlil etiladi.

Shuningdek, keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida xususan dissertatsiya va monografiyalarda ham o‘rganilayotgan mavzuga aloqador ba’zi ma’lumotlar keltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Xullas, Yangi O‘zbekiston sharoitida musiqa san’ati va ta’lim tizimi tarixi tarixshunosligini o‘rganish yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, tahlilga tortilgan mavzuga doir aksariyat ilmiy adabiyotlar aniq ilmiy poydevorga tayanib yaratilgan. Qolaversa, O‘zbekiston tarixi tarixshunosligida musiqa san’ati va ta’lim tizimi mavzusiga kuchli ilmiy qiziqish mavjud bo‘lib kelgan. Muayyan tarixiy davrda ilmiy ishlarning yakuniy xulosalari siyosiy-mafkuraviy vaziyatlar bilan chambarchas bog‘liqlikda bayon etilgan.

XULOSA: Mustaqillikning dastlabki yillaridan O‘zbekiston musiqa san’ati va ta’limi tizimi tarixshunosligi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, yaqin

tarixda yuz bergan mafkuraviy tazyiqlardan xoli bo‘lgan holda, milliy o‘zlikni anglash va tarixiy haqiqatni tiklash tamoyillari asosida shakllanib bormoqda. Bu davrda yaratilgan ko‘plab monografiya, darslik va ilmiy maqolalarda maqom san’ati, baxshichilik maktablari, an’anaviy ijrochilik va musiqa ta’limi tarixi ilk bor mustaqil taraqqiyot g‘oyalari negizida, boy arxiv manbalari va etnografik ma’lumotlar asosida chuqur tahlil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Otajonov M. Kompozitor Abdusharif Otajonov (Ijodiy merosiga chizgilar). – T.: 2021. – 18 b.
2. Tursunova G.A. Karim Zokirov va uning sulolasi – XX asr O‘zbekiston musiqa madaniyati kesimida: Monografiya. – T.: Fan ziyosi nashriyoti, 2021. – 25 b.
3. Бегматов С. Бастакорлик ижоди: Ўқув қўлланма. – Т.: Нисо-Полиграф, 2017. – 115 б.
4. Соибжон Бегматов. Бастакорлар ижоди. / Ўқув қўлланма, Тошкент., “Нисо полиграф”нашриёти, 2017. – Б. 145.
5. Мадримов Б. Ўзбек мусиқа тарихи: Ўқув қўлланма. Т.: Баркамол файз медиа, 2018. – 71 б.
6. А.Жабборов, С.Бегматов, М.Аъзамова. Ўзбек мусиқаси тарихи./Дарслик, Тошкент, 2018. – Б. 189.
7. О.А.Иброҳимов. Мақом асослари. / Олий таълим муассасалари учун ўқув қўлланма. Тошкент, “Турон-Иқбол” нашриёти, 2018 йил. – Б.160.
8. Sharipova G.M. Musiqa va uni o’qitish metodikasi. – T.: Turon-Istiqbol, 2019.
9. Отажонов М. Композитор Абдушариф Отажонов (Ижодий меросига чизгилар). – Тошкент, 2021.
10. Sunnatillayev A.S." Folkloretnografik jamoalar bilan ishlash uslubiyoti". O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti. – Toshkent, 2022.
11. Ашурова Ш. Мерос адабияти, Тадқиқотлар, илмий изланишлар, экспедициялар орқали тўпланган манбалар, мулоқотлар, публицистик мақолалар, маърузалар тўплами. – Тошкент, 2022.
12. Madrimov B. O‘zbek musiqa tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Barkamol fayz media», 2018.
13. Иброҳимов О. Мақом асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2018.
14. Sharipova G.Boshlang’ich guruhlarda musiqa madaniyati darslari uchun metodik qo’llanma. – T., 2000.

15. Sharipova G.M. Musiqa va uni o’qitish metodikasi. – T.:Turon-Istiqbol, 2019.

16. Отажонов М, Композитор Абдушариф Отажонов (Ижодий меросига чизгилар). – Тошкент, 2021.

17. Sunnatillayev A.S." Folkloretnografik jamoalar bilan ishlash uslubiyoti". O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti. – Toshkent, 2022.

18. Санъатнинг нурли йўли (Фарғона санъат коллежи 60 ёшда): мақолалар тўплами; публицистик нашр; тўплаб нашрга тайёрловчилар: Б.Якубов ва бошқ. – Фарғона: «Фарғона» нашриёти, 2017.

19. Абдуллаев Р, Юнус Ражабий номидаги мақом ансамбля ; тараққиёт йули / Юнус Ражабий номидаги Маком ансамблининг 60 йиллик ижодий ва амалий фаолиятига багишланган мақолалар тўплами. – Тошкент: Наврўз, 2019.

20. Бегматова Н, Маҳмуджон Тожибоев ижодида мақом ансамбли / Юнус Ражабий номидаги Маком ансамблининг 60 йиллик ижодий ва амалий фаолиятига багишланган мақолалар тўплами. – Тошкент: Наврўз, 2019.

21. Юсупова З, Замонамизнинг жонкуяр мақом созандаси Абдураҳмон ХолтожиевЧангий Марғилоний / Юнус Ражабий номидаги Маком ансамблининг 60 йиллик ижодий ва амалий фаолиятига багишланган мақолалар тўплами. – Тошкент: Наврўз, 2019.

22. Санъатнинг нурли йўли (Фарғона санъат коллежи 60 ёшда): мақолалар тўплами; публицистик нашр; тўплаб нашрга тайёрловчилар: Б.Якубов ва бошқ. – Фарғона: «Фарғона» нашриёти, 2017.

23. Абдуллаев Р, Юнус Ражабий номидаги мақом ансамбля ; тараққиёт йули / Юнус Ражабий номидаги Маком ансамблининг 60 йиллик ижодий ва амалий фаолиятига багишланган мақолалар тўплами. – Тошкент: Наврўз, 2019.

24. Бегматова Н, Маҳмуджон Тожибоев ижодида мақом ансамбли / Юнус Ражабий номидаги Маком ансамблининг 60 йиллик ижодий ва амалий фаолиятига багишланган мақолалар тўплами. – Тошкент: Наврўз, 2019.

25. Юсупова З, Замонамизнинг жонкуяр мақом созандаси Абдураҳмон Холтожиев Чангий Марғилоний / Юнус Ражабий номидаги Маком ансамблининг 60 йиллик ижодий ва амалий фаолиятига багишланган мақолалар тўплами. – Тошкент: Наврўз, 2019.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTON TARIXINI O‘RGANISHDA MARG‘ILON MADANIY MUHITI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING AYRIM MASALALARI

Umidjon Tohirjonovich HOMIDJONOV,
Fan va texnologiya universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Sotsiologiya fanlari doktori (PhD).
Izzat Ikromitdinovich OSTONAKULOV
Fan va texnologiya universiteti Tarix fanidan 1-kurs magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr Marg‘ilon madaniy muhitida yaratilgan tarixiy, etnografik va adabiy asarlar hamda ularda shaharning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti qanday aks ettirilgani tahlil qilinadi. Xususan, adabiy va tarixiy manbalarning davr ijtimoiy hayotini o‘rganishdagi o‘rni, ularda shahar aholisi turmushi, madaniy an’analari va ijtimoiy munosabatlarning ifodalanishi yoritilgan. Shuningdek, mazkur manbalarning tarixnavislik nuqtayi nazaridan ahamiyati hamda Marg‘ilon tarixini o‘rganishdagi ilmiy qiymatiga alohida e’tibor qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: Marg‘ilon madaniy muhiti, yangi ijtimoiy sharoit, ijod ahli, shoir va mudarrislar, madaniy o‘zgarishlar, O‘zbekiston tarixi, manbalar.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСТОЧНИКОВ КУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ МАРГИЛАНА ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Умиджон Тохиржонович Хомиджонов,
старший преподаватель кафедры «Социальные науки» Университета науки и технологий, доктор философии (PhD) по социологическим наукам.
Иззат Икромитдинович Остонакулов,
магистрант 1-го курса по специальности «История» Университета науки и технологий.

Аннотация. В данной статье рассматриваются исторические, этнографические и литературные произведения, созданные в культурной среде Маргилана XIX века, а также отражение в них общественно-политической и культурной жизни города. Особое внимание уделяется роли литературных и исторических источников в изучении социальной жизни эпохи, быта населения, культурных традиций и общественных отношений. Кроме того, раскрывается значение данных источников с точки зрения историографии и их научная ценность для изучения истории Маргилана.

Ключевые слова: культурная среда Маргилана, новые социальные условия, представители творческой интеллигенции, поэты и мударрисы, культурные изменения, история Узбекистана, источники.

SOME ISSUES OF USING SOURCES OF THE MARGILAN CULTURAL ENVIRONMENT IN STUDYING THE HISTORY OF UZBEKISTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

Umidjon Tohirjonovich HOMIDJONOV,
Senior Lecturer at the Department of Social Sciences, University of Science and Technology, PhD in Sociology.
Izzat Ikromitdinovich OSTONAKULOV,
First-year Master's Student in History at the University of Science and Technology.

Abstract. This article examines historical, ethnographic, and literary works created within the cultural environment of Margilan in the nineteenth century and analyzes how they reflect the city's socio-political and cultural life. Particular attention is paid to the role of literary and historical sources in studying the social life of the period, everyday life, cultural traditions, and social relations. The article also highlights the historiographical significance of these sources and their scholarly value for the study of Margilan's history.

Key words: Margilan cultural environment, new social conditions, creative people, poets and teachers, cultural changes, history of Uzbekistan, sources.

KIRISH: O‘zbekiston hududida joylashgan yirik shaharlar tarixiga tegishli ilmiy manbalar va tarixiy asarlar o‘z navbatida umummilliy tarixning uzviy qismini yoritishda alohida qimmatga egadir. Tarixnavislikda Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent shaharlari tarixiga tegishli tadqiqotlardan umumiy tarixni o‘qitishda foydalanish salmoqli o‘rin tutadi. Biroq mazkur shaharlarga nisbatan kichikroq hisoblanadigan o‘nlab shaharlar tarixiga doir tadqiqotlardan foydalanish e’tibordan chetda qolib ketar edi. Shuning uchun keyingi yillarda viloyat markazi va hatto tuman markazi maqomidagi shaharlar tarixi, madaniyati va etnografiyasiga oid tadqiqotlar yaratish an’anasi ijobiy baholashga loyiqdir. Buni Farg‘ona vodiysining yirik shaharlaridan biri Marg‘ilon haqida bitilgan tadqiqotlar salmog‘idan ham bilish mumkin.

ASOSIY QISM: Ma’lumki, XIX asrda Marg‘ilon Qo‘qon xonligi tarkibida ma’muriy-hududiy o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, Marg‘ilon bekligi, ba’zan Marg‘ilon sarkorligi tarzida tilga olingan. Xonlikning ma’muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va qozi xon tomonidan tayinlangan va ular boshqaruvning barcha vakolatlarga ega bo‘lgan. Bek o‘rdasida esa xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy qilingan.

O‘sha vaqtlarda Marg‘ilon Qo‘qon xonligidagi Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Chimkent, Jizzax, O‘sh, Xo‘jand, O‘ratepa kabi shaharlar qatorida rivojlangan shahar bo‘lib, aholisi soni katta, shuningdek, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muqim ahamiyatga ega o‘nlab shaharlardan biri sanalgan. XIX asrning oxirlariga kelib, Marg‘ilon Farg‘ona vodiysining yirik madaniy markaziga aylanibgina qolmay balki poytaxt shahar sifatida ham e’tirof etilgan. Bunda Marg‘ilonning qadimdan ilm-ma’rifat va milliy qadriyatlar shakllangan shahar bo‘lganligi asosiy rol o‘ynagan. [1]

Shahar o‘z ma’naviy faolligi bilan ajralib turishidan tashqari, bu yerda tarmoqlashgan ta’lim tizimi va mahalliy aholining o‘ziga xos madaniy an’analari mavjud bo‘lgan. Marg‘ilonda shariat olimlari bilan birga tariqatning mashhur shayxlari, shoir va adiblar faoliyat olib borganlar. Ular ilm-fan, tarix, adabiyot, she’riyat sohalarida ko‘plab qimmatbaho asarlar yaratganlar.

Shaharda Maxdumi A’zam, Xoja Lutfulloh, Abdulqodir Giloniy avlodlarining istiqomat qilishi bu yerda musulmonchilik an’analarini yanada ravnaq topishiga katta ta’sir o‘tkazgan. Bunday tabarruk xonadon vakillarining Farg‘ona vodiysida istiqomat qilishlari va ularning xalq orasida, xususan, hukmron tabaqalar o‘rtasida tutgan mavqei, o‘ziga xos imidj hisoblangan. Ular rahnamolik qilayotgan tariqatlarning ta’sir doirasi shunchalik kuchli ediki, har qanday hukmdor ham mamlakatni idora qilishda ularning fikr-mulohazalariga tayanib ish ko‘rishga intilgan. [2]

Manbalar tahlili. Marg‘in tarixi, xususan uning XIX asrga tegishli tarixi bo‘yicha xorijiy va mahalliy mualliflar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Bu o‘rinda N.Soliyev, R.Fayzullayev, N.Abdulahatov, Sh.Vohidov, G.Agzamova, R.Mirzaahmedov, A.Murtazayev, A.Murtazayev, S.Mirsoatova, Q.Po‘latov, X.Burxonov, I.Ostonaqulov, D.Sangirova kabi olimlar tadqiqoytlarini eslab o‘tish mumkin. Ayniqsa, R.Fayzullayev bilan N.Abdulahatov tomonidan “Marg‘on allomalari” ruknida e’lon qilgan asarlar o‘z salmog‘I bilan alohida o‘rganishga loyiqdir.

Rus geograf olimi A.P. Fedchenkoning yozishicha, Marg‘inonda XIX asr o‘rtalarida Sulton Murodbek – Xudoyorxonning ukasi shahar hokimi edi. Bu mansabga uni xonning o‘zi tayinlagan. Olim 1871 yili Qo‘qonga tashrif buyurgan, so‘ng Marg‘ilonga kelib, Sulton Murodbek xonadonida mehmon bo‘lgan va keyinchalik esdaliklarida xonning ukasi to‘g‘risida samimiy so‘zlarni yozib qoldirgan. [3]

Marg‘ilon shahri haqida bir qator qo‘lyozma manbalar bor. Masalan, muallifi noma’lum “Ravzat ul-ansob” manoqibi shular jumlasidandir. Mazkur agiografik asar XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o‘zbek tilida yozilgan

bo‘lib, asarning kirish qismida Marg‘ilon shahrining sifatlari bayon etilib, unda shahar xalqining xushxuy va musofirdo‘st ekani, bu yerda fazilat sohibi bo‘lmish sayyidlar – payg‘ambar avlodlari, fasohat egasi ulug‘ ustozlar ko‘pligi, ularni xosiyatidan shahar xalqining hammasi taqvoli va pokiza kishilar ekani va atrof shaharlardan ko‘pchilik bu yerga ziyoratga kelishi aytilgan:

“Ammo roviyoni axbor va oqiloni osor andog‘ rivoyat qilibdurlarkim, zamoni sobiqda Farg‘ona deb bir shahri a’zim bor erdi, holo Marg‘inon derlar. Shaharlar ichida ko‘b xushhavo va xushbahr va odamlari xushxo‘y va musofirdo‘st erdilar. Xususan, sayyidu sodot fazilatosor va mashoyixi kibor va ulamoi fasohat kirdor va fuzaloi fazilatshior va hunarmandoni sohibi iqtidorlar ko‘b erdilar. Alarni xosiyati sharofatlaridin hamma ahli viloyat, mo‘min va musulmon mutaqqiy va piri hunarkor erdilar va har shaharlardin odamlar bu viloyatni orzu qilib kelur erdilar va bahra olur edilar”. Cayyoh Mir Izzatullo 1812 yili Hindistondan Qashqar orqali Marg‘ilonga kelib, bu yerlik aholi to‘g‘risida juda samimiy fikrlarni bildirgan edi. U jumladan: “Marg‘ilonliklar e’tiqod bobida eng avvalgi qatorda turadilar. Shaharning o‘zi juda xushmanzara bo‘lgani sabablimi, uning odamlari ham xushaxloq va sertavozedir. Ularning katta-yu kichigi shariat ahkomiga to‘liq amal qiladilar”, deydi.[4]

Marg‘ilonlik shoir Abdurahmon Fahmiy “Ta’rifi Marg‘inon” nomli masnaviysida shahar aholisining ma’naviy sifatlariga urg‘u berib, shunday yozadi:

Hama dinu musulmonlikda sobit,
Namozu ro‘za, ehsonliqda sobit.
Masojidlar to‘lib vaqti namozda,
Qadam avval qo‘yur nazru niyozda...
Agar jannat yer ustida jahonda,
Ki bo‘lsa ushbu shahri Marg‘inonda. [5]

Marg‘ilonning xonliklar davridagi diniy-ma’naviy muhiti haqidagi ma’lumotlar xonlar tarafidan berilgan turli inoyatnoma va yorliqlarda ham o‘z aksini topgan. Mashhur tadqiqotchi olim Zaki Validiy vodiyga qilgan safari chog‘ida Skobelev uyezdining Marg‘ilon shahriga tobe’ Kirgil qishlog‘ida yashovchi Muhammadxo‘ja Eshon Hidoyatxo‘ja qo‘lida Marg‘ilonning xonlar davridagi ma’naviy manzarasini aks ettiruvchi yorliqlar saqlanishini eslatib o‘tgan.

Rusiya davlati 1865 yili Toshkent viloyatini, 1876 yili Qo‘qon xonligining vodiydagi hududlarini bosib olib, xonlik boshqaruviga barham berilgandan so‘ng vodiy shaharlari ma’muriy va xo‘jalik boshqaruvi jihatidan xonlik davridagi beklik va sarkorlik hududlarida tuzilgan Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Chimyon, Namangon va Chust uyezdlariga bo‘linadi, Marg‘ilon 1876-1926 yillarda Farg‘ona viloyatining uezd shahri bo‘lib, so‘ngra Farg‘ona okrugi miqyosidagi shaharga aylantiriladi. [6]

Marg‘ilon shahri yaqinidagi Sim mavzesiga “Yangi Marg‘ilon” deb ataluvchi shahar barpo etila boshlanadi. “Tarixi Aziziy” muallifi shunday yozadi: “Tarix 1876 nchi masiho yili edi. Xo‘qand mulkiga o‘ris kelib doxil bo‘ldi. Ular Marg‘ilonni janub tarafida Sum degan qishloqning yerlarini zarxarid qilib (oltinga sotib olib), yangi shahar bino qildilar va nomini Yangi Marg‘ilon deb qo‘ydilar. So‘ngra Farg‘ona shahriga har tomondan har xil odamlar kelib qo‘shildi, odam ko‘paydi, savdogarlar uyi va do‘konlar ham ko‘payib rivoj topdi. Ba’daz on tarixi 1898 yil ediki, Farg‘onaga vagon, ya’ni, otash aroba, temir yo‘l bu hangomalarni olib keldi. Bu otash aroba kelgandan so‘ng Farg‘onaga har xil va har rang va har din, millatdagi odamlar ko‘p kelib, shahar odamga to‘ldi, yeru mulklarining narxlari necha hissa qimmat bo‘ldi. Marg‘ilonda qancha qishloq va yurtni qo‘shib aning nomini Marg‘ilon uyezdi deb daftarga yozib, unga bir hokim nasb qilib Marg‘ilonga tushurdi. Bu uyezd hokimiga bir noib va yana bir noibi kichik tayinladi. Marg‘ilondagi podsholik bog‘ ichiga kelib turib, hokimlik ishig‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Bu hokimi kabir mahkama qilib berar ekan. Hamma ishlarni va farmon hukmini xatu xutut va daftar-paftar, yozuv ishlari shu mahkamada bo‘lar ekan. Unga bir mirzaboshi, unga esa bir noib, yana besh-olti adad o‘rus mirzolari hoziru farmonbardor ekan. Hammalari oylik olar ekan”. [7]

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Yangi Marg‘ilon aholisi asosan rus harbiylari va ularning oilalaridan iborat bo‘lib, bu yerga kelib o‘rnashgan rus aholisi uchun turli imtiyozlar berilib, serhosil yerlar ajratiladi. Shahar politsiya boshlig‘ining 1891 yil 8 dekabrda harbiy gubernatorga yuborgan ma’lumotida ko‘rsatilishicha, shahar aholisining soni ko‘chib keluvchilar hisobiga tobora ko‘payib borayotganligi sababli, ularni joylashtirishda, ish bilan ta’minlashda katta qiyinchiliklar yuz bergan, bozorlarda narx-navo oshgan, ko‘chalarda ishsizlar soni ko‘paygan. Shu bilan birga mahalliy aholining turmush madaniyatiga zid bo‘lgan maishatparaslikka va axloqsizlikka undovchi maskanlar tashkil etiladi.

Harbiy va fuqaro hokimiyatini o‘z qo‘lida to‘plagan Turkiston o‘lkasining genaral-gubernatori bu yerdagi xalqlarning “yarim poshshosi”ga, Turkiston esa (huddi Hindiston Angliyaning tojidagi dur bo‘lganidek) Rossiyaning tojidagi durga aylandi. Chor Rossiyasi «Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom»ni qabul qildi. Bu bilan o‘lka mustamlakachi Rossiya qonunlari asosida boshqarila boshlandi. Turkiston shu tariqa chor Rossiyasining tom ma’nodagi mustamlakasiga aylandi. Fitrat bu haqda o‘zining “Yurt qayg‘usi” she’riy to‘plamida “Ko‘rdim, kezdim, eshitdim, o‘qidim. Mamlakatlar orasinda Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo‘qdir”, deb yozgan edi.[8]

Mustamlakachilar tomonidan mahalliy aholining dini, e’tiqodi, milliy an’analariga zid turfa yangiliklarni kiritilishi, ular tarafidan aholining milliy qadriyatlari, islom ma’naviyati bilan yo‘g‘rilgan urf-odat, an’analarga nisbatan

nopisandlik bilan munosabatda bo‘lishi oqibatida kelib chiqqan. Tarix fanlari doktori J.Ismoilova ta’kidlaganidek, “aynan ana shunday tadbir orqali milliy madaniyatni bo‘g‘ish va uni asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an’ana va udumlarni yo‘q qilishdan iborat edi”. [9]

Shu bilan birga mustamlakachilar yerli aholi bilan munosabatlarni yaxshilash lozimligini anglab yetib, bir qator yangiliklarni joriy eta boshladi. Ulardan biri bu – qozilar faoliyatini shariat asosida olib borishga ijozat bo‘lib, musulmonlarni rus huquqshunosligi bilan boshqarish ilojsiz ekanligida edi. Aholining maishiy muammolarini yerli din ulamolari hal etadigan bo‘ldi. Ayni paytda ushbu tizimga bir qancha o‘zgarishlar kiritilishiga qaramay, mahalliy aholi orasida shar’iy qonun-qoidalarni to‘la qo‘llash imkonini ma’lum darajada kamaytirdi. Madrasalarda nazorat ostida bo‘lsa-da, diniy ta’lim an’anaviy yo‘lda davom ettirildi. Qozilar saylov asosida tanlanadigan bo‘ldi. Turkiston xalq ta’limi inspeksiyasi tashkil etilib, maktab va madrasalarning bosh mudarrislari shu inspeksiyaga hisob beradigan bo‘ldi. Madrasalarga mutavalli emas, balki Bosh mudarrislar rahbar bo‘ldi. 1894 yildan boshlab madrasalardagi o‘quv darsliklari rus tiliga tarjima qilindi. Bu esa darsliklar mazmunini nazorat qilishni ta’minlab berdi. Buni Marg‘ilon madrasalari boshqaruvi va o‘qitish tizimi misolida ham ko‘rish mumkin edi.

1865 yilning 6 avgustidagi Rossiya imperatori Aleksandr II “Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom”ga imzo chekkach, ushbu hujjatga ko‘ra o‘troq aholi uchun qozilik sudlari, ko‘chmanchi aholi uchun esa biylik sudlari xizmat qiladigan bo‘ldi. Bu sudlarning tuzilishidagi o‘zgarishlar natijasida qozikalon lavozimi bekor qilindi, barcha qozilarning huquqlari tenglashtirildi. Qozilarni uch yilda bir marta saylash tartibi joriy qilinib, da’vogar arizasini ko‘rib chiqishi uchun o‘zi ko‘proq ishongan qoziga murojaat qilish huquqi berildi. Ko‘p o‘tmay 1867-yildagi “Nizom loyihasi”ga ko‘ra Turkistonda o‘ziga xos sud qurilishi tizimi joriy qilindi.[10]

Turkiston viloyatida sudlar faoliyatiga 1865-yilgi “Nizom”ga ko‘ra joriy qilingan cheklovlar yangi tuzilgan viloyatlarda ham kuchga ega bo‘ldi. Xalq sudlarida ko‘riluvchi ishlar doirasi juda keng bo‘lib, aholining 90% qozilik va biylar sudlariga murojaat qilardi. Bu esa mahalliy qozilarning ish olib borishini juda ham qiyinlashtirar edi. Shuning uchun ham ko‘plab qozilar o‘zlarini bu vazifadan chetga olgan edilar. Bu haqda Muhammad Aziz “Tarixi Aziziy” asarida shunday yozadi: “O‘rusiya Marg‘ilonga doxil bo‘lgan vaqtda ...qozikalonu domullolar o‘zlarini ma’zul (ishdan chetlash) qilib oldilar va bo‘laklari esa qozilikda qoldilar”.

Chor hukumati tomonidan tayyorlangan nizomlarda saylov sudya (qozi)lar lavozimiga nomzodlarning bilim darajasi borasida ma’lum talabning mavjud

emasligi saylovlar atrofida olishuv va ixtiloflarga keng yo‘l ochadi. Agar xonlik davrlarida qozi lavozimiga ko‘plab nomzodlar orasidan eng loyiqlari tanlangan, ulardan shariat qonunlari va qozilik shartlari bo‘yicha imtihon olingan, nomzodning qobilligi fuqarolar tomonidan tan olingan bo‘lsa, yangi davr saylov tizimi bu talabni susaytirdi. Endi nomzodning kim bo‘lishi uning mustamlaka hokimiyatiga xayrxohligiga bog‘liq edi. Natijada tasdiqdan o‘tkazishda tanish-bilishchilik va poraxo‘rlik ildiz ota boshladi. “Endi minba’d (bundan keyin) kitob o‘qitib, ilmu fazlini imtihon tarozisiga solib, bilib, keyin qozi qilmoq yoki a’lamu mufti va mudarris qilmoqdek qoidalar qolmadi. Endi kitob o‘qib turgan vaqtda qarab turadigan qozikalon, shayxul-islom, oxund o‘rinlaridan hozir ellikboshilardur. Mudarris saylab olib kelmoq va yoki imom saylab olmoq tamom ularning ixtiyorida, a’lamu mufti qilib olmoq qozining ixtiyorida”. Buning natijasida aksar hollarda xalq qoziligiga shariat qonunlari bu yoqda tursin, hatto oddiy huquqni ham yaxshi bilmaydigan odamlar saylanar, buning oqibatida mansabni suiste’mol qilish va qonunni buzish hollari kelib chiqardi:

“Ellikboshilar qanday odamni qozi qilib olamiz desalar, bu odamning kifoyatlik sahvu, xatoni ajrataturgan va qanday nahvini biladurgan, ilmi yo‘q va ham o‘zi beparhez boylarning raiyasini qiladurgan va kambag‘allarni o‘tga tashlaydurgan, kambag‘alning mollarini boyga torttiradurgan, haromxo‘r va har kim arzu dodga kelsa, oxiri tashlab qochiradiganki, “bu odamni zinhor qozilikka saylamangiz”, deb nasihat bersangiz, o‘shanday ellikboshilar ichidan biri sizga aytadi: “Ey faloni Oxun domulla, siz durust bilmas ekansiz, bu odamning ilmini ko‘rganmiz. Masalan, falon joyda Mashrabning kitobini yo Rustam kitobini shunday o‘qidiki, hamma ofarin dedi. Ham o‘zi ko‘p dasturxonlik. Chunonchi, bizlar borgan kunimizda darhol dasturxon soladur va ham davlati katta va puli savdoda yuradi. O‘zi ham ko‘p oshu nonlik, bizlarni uzatib biladir va ham bo‘lak yaxshi ishlari bo‘lsa kerak”, deb – sizni mulzam qiladi. Oxiri shuni saylab oladilar. Binobarin, aksar yaxshi odamlar qozi bo‘lib qolmaydur”. [11]

XULOSA: Ko‘rinadiki, bu davrda yaratilgan asarlar va ularning ahamiyati to‘g‘risida bitilgan tadqiqotlar O‘zbekiston tarixini o‘rganishda katta imkoniyatlarga ega. Shuning uchun oliy o‘quv yurtlari va o‘rta maktablarda o‘qitiladigan “O‘zbekiston tarixi” darsliklarining “Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklaridagi ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy ahvol”, “Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga yurishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi”, “Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylanishi”, “Turkiston o‘lkasida siyosiy-ma’muriy boshqaruv tizimi” mavzulariga doir faktik materiallar qatoriga Marg‘ilon tarixiga tegishli tadqiqot natijalarini ham kiritish lozim.

“Turkiston viloyatining gazeti”ning 1877-1916-yillar oralig‘ida bosilgan sonlarini o‘rganib, Marg‘ilon tarixi va marg‘ilonlik ziyolilar to‘g‘risidagi maqolalarni tasnif etish, ularning ayrimlarini tabdil qilib, qayta nashr qilish, o‘quv darsliklariga ilova qilish imkoniyatlari mavjudligini ham ta’kidlar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Soliyev N. Marg‘ilonning mashhur kishilari: yillar, yo‘llar, taqdirlar... – Farg‘ona.: “Farg‘ona”, 2007. – 320 b.

2. Fayzullayev R., Abdulahatov N. Foziljon Maxdum Marg‘iloniy. IV. – T.: “NOSHIR”, 2017. – 336 b.

3. Абдулахатов Н. Ханаках-и Хазрат // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Том II.Москва, Наука – Восточная литература, 2018. – С. 397.

4. Xo‘jajon qozi Rojiy Marg‘inoniy. Hayrat-ul-inson. – T.: “Adib” nashriyoti, 2012. – 136 b.

5. Abdurahmon Fahmiy Marg‘inoniy. Devon. − T.: “COLD PRINT NASHR” nashriyoti, 2018. – 511 b.

6. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy / Nashrga tayyorlovchilar, so‘zboshi va izohlar mualliflari: SH.Vohidov, D.Sangirova. – T.: “Ma’naviyat”, 1999. – 110 b.

7. Muhammadumar Umidiy. Tarixchayi Turoniy. / Tabdil, tarjimon, kirish va izohlar muallifi SH.Vohidov. – Toshkent, 2013. – 420 b.

8. Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix (“Tarix yulduzlari”) / Fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 328 b.

9. Mirsoatova S., Po‘latov Q., Burxonov X. Marg‘ilonda rus-tuzem va yangi usul maktablari // “Marg‘ilon shahri o‘tmishi, buguni va ertasi” mavzusidagi Respublika ilmiy seminar materillari. Farg‘ona, 2007. – B. 49-51.

10. Ostonaqulov I. O‘zbekiston milliy ta’limi tarixidan. FarDU xabarlari. – Farg‘ona, 2015. – № 3. – B.10-17.

11. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy / Nashrga tayyorlovchilar, so‘zboshi va izohlar mualliflari: Sh.Vohidov, D.Sangirova. – T.: “Ma’naviyat”, 1999. – 110 b.

KESH HUDUDIDAGI TERAKOTTALARDA SIYOVUSH TIMSOLINI AKS ETISHI

Xushvaqov Nabi Olimovich,
Tarix fanlari doktori (DSc),
Shahrisabz davlat Pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yakkabog‘ tumani Alako‘ylak qishlog‘idagi qabristondan topilgan sopol haykalcha — terrakotaning tuzilishi, o‘lchamlari va tashqi ko‘rinishi tavsiflanadi. Topilmaning badiiy-uslubiy xususiyatlari hamda unda aks etgan obrazning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotchining fikricha, mazkur terrakotada uzumchilik va vinochilik ma’budi Dionis timsolining O‘rta Osiyo madaniy muhitida keng tarqalgan Siyovush obrazi bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishi aks etgan. Shuningdek, topilmaning qadimgi davr diniy tasavvurlari va madaniy aloqalarni o‘rganishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘diyona, konfederatsiya, Qashqadaryo, Yakkabog‘, Qaburg‘a ota qabristoni, terrakota, zooantropomorf, echki.

ОТРАЖЕНИЕ ОБРАЗА СИЯВУША В ТЕРРАКОТАХ КЕШСКОГО РЕГИОНА

Хушваков Наби Олимович,
доктор исторических наук (DSc),
доцент Шахрисабзского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматривается терракотовая статуэтка, обнаруженная на кладбище в кишлаке Алакуйлак Яккабагского района. Описываются её структура, размеры, внешний облик и художественно-стилистические особенности. Особое внимание уделяется интерпретации изображённого на терракоте образа. По мнению исследователя, в данной находке представлен образ Диониса — божества виноградарства и виноделия, сочетающийся с широко распространённым в культурной традиции Средней Азии образом Сиявуша. Также подчёркивается значение находки для изучения древних религиозных представлений и культурных взаимосвязей региона.

Ключевые слова: Согдияна, конфедерация, Кашкадарья, Яккабог, кладбище Кабурга, терракота, зооантропоморфный, козел.

THE DEPICTION OF SIYAVUSH IN THE TERRACOTTAS OF THE KESH REGION

Xushvaqov Nabi Olimovich,
Doctor of Historical Sciences (DSc),
Associate Professor at Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines a terracotta figurine discovered in a cemetery in Alakoylak village, Yakkabag district. It describes the structure, dimensions, appearance, and artistic features of the artifact. Particular attention is paid to the interpretation of the figure represented in the terracotta. According to the researcher, the artifact depicts Dionysus, the deity associated with viticulture and winemaking, in a form intertwined with the image of Siyavush, which was widely represented in the cultural traditions of Central Asia. The article also highlights the significance of the find for studying ancient religious beliefs and cultural interactions in the region.

Keywords: Sogdiana, confederation, Kashkadarya, Yakkabog, Kaburg cemetery, terracotta, zooanthropomorphic, goat.

KIRISH: Qashqadaryo vohasi tarixiy madaniy jihatdan qadimiy o‘lka hisoblanadi. Mazkur hududdan topilgan arxeologik materiallar mahalliy muzeylar jozibadorligi hamda xalqaro va mahalliy sayyohlikni oshirish bilan birgalikda qadimgi Sug‘diyona konfederatsiyasi tarkibidagi viloyatlarni moddiy madaniyati, diniy qarashlari, hayot tarzi va ma’naviy dunyosini aniqlashga asosiy manba hisoblanadi. Yakkabog‘ tumanidagi Alako‘ylak qishlog‘ining shimoliy qismida joylashgan “Qovurg‘a ota“ qabristoni qadimda Kesh viloyati hududiga qarashli bo‘lib, Shahrisabz shahrining janubi-sharqida joylashgan. 2019-yilda go‘rkovlar tomonidan qabr qazish paytida zooantroporf tarzdagi sopol terrakota-haykalcha topib olingan (1-rasm).

Haykalcha-terrakotaning xom-ashyosi qizg‘ish-jigar rang loydan yupqa qilib yasalgan, u cho‘zinchoq, yuqorisida to‘g‘riburchakli, ammo tor ravoq ichida shaxs tasviri mavjud, o‘lchamlari 15x6 sm. Terrakotaning orti silliqlangan, yuzasi esa qolipda yasalgani bilinadi, chekkalarida tasmasimon notekis chiziqlar bo‘rtib chiqqan. Yuqori qismidagi tasmaning bir necha joyi uzuq, burilish joylarida uchburchak tarzdagi o‘yiqlar mavjud.

Ravoqning ichidagi shaxs zooantropomorf tarzda va sahnani butunlay qoplab turibdi. Boshi chap tomonga qayrilgan, yonbosh ko‘rinishga ega. Boshida yirik uchlari qayrilgan echki shoxidan yasalgan toj kiygan, toj zigzak, uchburchaksimon tish uchlari aniq va peshonasigacha tushgan. Shox realistik uslubda ishlangan, chiziqlar aniq va fakturasi ham juda tiniq. Shaxsning yuzi biroz xira, ko‘z shakli bodomsimon, markazida qorachiq aniq bilinadi, soch o‘rimi yonga tushgan, balki u bakenbard yoki yuz yunglari ham bo‘lishi ham mumkin. Yuz qismi uzunchoq, echkining uzun tumshug‘iga ham o‘xshash. Uzun soqoli yelkasigacha tushgan, o‘ng tomonidagi ko‘kragi ustida soch o‘rimi tushib turibdi.

ASOSIY QISM: Shaxsning mavjud kiyimlari biroz tushunarsiz, ko‘rinishidan uzun ko‘ylak kiygan, yenglari uzun va yoqasiz. Kiyim yarim tanasini

o‘rab turibdi. O‘ng qo‘lida nomalum buyum ushlagan. Ko‘kragi ustida tasma bilan bog‘langan apezak -medalyon mavjud. Badanning pastki qismini esa to‘rt qatlamli yubka o‘rab turibdi. Yubkaning pastida tasmasimon bezaklar mavjud.

Shaxsning o‘ng qo‘li ko‘krak darajasida ko‘tarilib qilich ushlab turibdi, qilichning uchlari o‘tkir va yuqoriga qarab qayrilgan. Bilagida qalin bilakuzuk va chap qo‘li bilan qalqonga suyangan. Shaxsning turishi noodatiy oyoqlari orasi juda keng tarzda, o‘ng oyog‘iga suyangan, chapi esa ko‘tarilgan va qalqon bilan birlashib ko‘rinmay qolgan. Shaxsning o‘ng yelkasi ortida yuqorisida shamolda hilpirab turgan olov fonida nayza mavjud, bunday ramziy fondagi terrakotalar Sug‘diyona hududidan topilgan va mazmun jihatdan shaxsning ilohiy ekanidan dalolat beradi.

Terrakotaning davriy sanasi juda muhim, ammo material arxeologik qatlamdan topilmagan. Qabriston hududi o‘lchami 260x150 m., janubi-sharqiy qismida umumiy relyefdan 3 m. balandlikda joylashgan qadimgi ark-a’lo yoki qo‘rg‘on mavjud, yodgorlik 2.5 m. qalinlikda mudofaa devori bilan o‘rab olingan, mudofa devorining saqlanib qolgan balandligi 1.20 sm. Qabriston materikka nisbatan 1 m. balandlikda joylashgan. Mudofaa devoridagi arxeologik topilmalar terrakotaning nisbiy davrini belgilashda yordam beradi. Undan bir dona antromorf qo‘pol tarzda yasalgan terrakota topildi. Bu terakottadagi shaxsning boshi umumiy tanaga nisbatan katta, u yuqoriga qarab turibdi, o‘ng oyog‘i va ikki qo‘li xam singan, terrakotaning o‘lchamlari; balandligi 6,5 sm. yelkalarining kengligi 4.1 sm.

Ko‘rinishidan bu terrakotada otliq askar yoki qandaydir iloh sifatida yaratilgan bo‘lishi mumkin. Bunday terrakotalar Toshkent viloyatidagi Qanqadan ham topilgan va u eramizning VI-VII asrlari bilan sanalangan. Bundan tashqari shunga o‘xshash erkak kishi tasvirlangan terrakota Zomin tumanidagi Oqtepadan ham topilgan. Unda ham shaxsning boshi yuqoriga ko‘tarilgan, qo‘li va oyog‘i singan [6.15].

Yodgorlikning sanasini belgilashda yana bir muhim arxeologik topilma o‘tovsimon ostadonning qopqog‘idir. Ostadon loydan tasmasimon uslubda yasalgan, yuqori qismlari esa tekis qilib kesilgan va ostadonning qopqog‘i vazifasini bajargan. Qopqoqning dastasi qo‘pol. Qopqoqqa o‘simliksimon navdasi (balki anor navdasi-N.Xushvaqov) chizilib bezak berilgan. Qopqoq ushlagichi qarag‘ayning mevasiga o‘xshash va undan pastga qarab chizilgan 4 ta navdalarning bittasi chuqur, boshqalari sal-pal seziladi. Ostadonning qopqog‘ida tasvirlangan navdalar va dastaning mevasimon tarzda turi zardushtiylik dinida reinkornatsiya-“murdani qayta tirilish ramzi” hisoblanadi. Bunday ossuariylar Toshkent viloyati hududida ham ko‘plab uchraydi. Sug‘diyonada uchraydiganlari esa odatda VI-VIII asrlar bilan sanalanadi [2.20-27]. Ko‘rinishidan, qo‘rg‘onda zardushtiylar yashagan

va u noma’lum sabablarga ko‘ra VIII asrlarda tashlab ketilgach, mahalliy aholi yodgorlikdan o‘rta asrlardan boshlab qabriston sifatida foydalana boshlangan.

Mazkur terrakota yoki shunday shaklga ega tasmalari bo‘rtib ishlangan plaketkalar Sug‘diyona hududidan topilgan ko‘plab terrakotalarga o‘xshaydi [8.56]. Tadqiqotchi V.A.Meshkeris tomonidan o‘rganilgan Sug‘diyona terrakotalari orasida ko‘kragida medalyoni mavjudi yo‘q.

Ko‘kragida medalyon bilan tasvirlangan terarakotalarni Sosoniylar madaniyatining ta’siri deb talqin etish mumkin. Masalan, SHo‘rtepa va Yerqo‘rg‘on yodgorliklari hududidan topilgan terrakotalarning kiyimlari, soch turmagi va bosh kiyimlarida Sosoniylarning madaniy ta’siri juda seziladi. Ko‘krak bezaklari va apezak aynan shu madaniyat ta’siri deb hisoblanadi [9.206]. Balki, Alako‘ylak terrakotasini yasagan kulol Buyuk Shopur portreti (309-379 yillarda yashagan) qiyofasidan foydalangan bo‘lsa, unda eramizning IV-V asrlar bilan sanalash mumkin. Terrakota qadimgi davrda tumor sifatida taqib yurilgan bo‘lishi mumkin.

Terrakotada tasvirlangan shaxsni kimligini talqin qilish eng qiyin masala hisoblanadi. Hozircha qadimgi Sug‘diyona hududiga oid Alako‘ylak terrakotasi birinchi topilma, ammo Qozog‘istondagi Verxne-Berezov xazinasi orasidagi idishda echki boshi bilan tasvirlangan antropomorf shaxs qiyofasi uchraydi va uni tadqiqotchilar “Xorazm idishi” sifatida talqin etadilar [8.36].

Qiyosiy jihatdan “Xorazm idishi”dagi echkisimon boshli shaxsning boshi ham chapga qaragan. U chap qo‘lida lentalar osilgan nayzani ushlab turibdi, idishdagi shaxs tanasining pastki qismi noaniq, tushunarsiz, maqola muallifining fikricha, bargsimon kiyim shakliga ega. Tadqiqotchi V.P.Darkevich tananing pastki qismi shox-shabbalar bilan o‘ralgan barglardan iborat, odatda “qurbonlik qilish” paytida ana shunday kiyimlar kiyish odat bo‘lgan, deb hisoblaydi. Tadqiqotchi tasvirni “Hosildorlik ma’budi-Mitraga” qurbonlik qilish uchun teatr niqobi kiygan, deb talqin etadi. S. P.Tolstov esa tasvirdagi tasma taqilgan nayza va niqob qurbonlik bayramida Deonisga sig‘inish, “echki boshi tasvirlangan qiyofali” terrakotalardagi shaxslar Siyovush obrazi deb talqin etadi[10.193].

Bu masalani aniqlashda “Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi Yakkabog‘ tumanidan topilgan yana bir sopol terrakota yordam berishi mumkin. Alakuylakdan topilgan terrakotaga shakli va syujeti jihatdan juda o‘xshashi S. Kabanov tomonidan topilgan [11.54-55], mazkur terrakotaning ham yuza qismi qolipda yasalgan, unda ham qirg‘oqlari tasmasimon bortik orqali ravoq mavjud, tasma ichida rombsimon chiziqlar bir-biri bilan ulanib ketgan. Ravoqda zooantromorfik shaxs turibdi, uning ham chap qo‘li ko‘krak darajasida ko‘tarilgan, qo‘l panjalari esa ochiq. O‘ng qo‘lida pastga qaragan cho‘qmor (bulava) turibdi. Uning ham qiyofasi noodatiy, cho‘zinchoq va uchburchak shaklda, qiyofasi

hayvonga o‘xshaydi. Burni odamnikidek, ko‘zlari dumaloq va aniq bilinadi. Boshida “qiyshiq uchlari birlashgan echki shox o‘rnatilgani” aniq, shoxlarning fakturasi tiniq, boshida sxematik tojning peshonaga tegib turgan qismida to‘lqinsimon chiziqlar (peshona ajini-Xushvaqov) aks etgan [11.55]. Yakkabog‘ terrakotasida shaxsning tizzasigacha pasti kengayib ketgan uchburchak kaftan, kaftanning chekkalarida bezaklar mavjud, yoqalari ham bezak bilan tasvirlangan. Oyoqlari keng tarzda joylashgan, lekin juda oriq. Ortida esa o‘simlik navdasi Alako‘0ylak terrakotasining ortidagi manzaradan farq qiladi, xolos.

Odatda plaketkalardagi ravoq orasida tasvirlangan shaxslar diniy xarakterga ega, ular avliyolar, farishtalar yoki xudolarni ifodalagan, terrakota egasini “dushmanlar yoki yomon ruhlardan himoya qilish” yoki ularni “homiysini” ifodalagan. Shu jumladan, Alako‘ylakdan topilgan sopol terrakota va Xorazm xazinasi orasidagi mis idishda tasvirlangan shaxs ham qadimda hosildorlik farishtasiga sig‘inishni ifodalab, Zardushtiylikdagi reinkarnatsiya (qayta tug‘ilish) falsafasiga asoslangan. Masalan, “Shahrisabz” davlat muzey qo‘riqxonasi fondidagi Yumaloqtepadan topilgan ossuariyda ham echki obrazi tasvirlangan va bu tasvir hosildorlik yoki ro‘zg‘orning badavlatlik timsoli bo‘lgan.

Eng qadimgi davrlarda tog‘ echkisini ovlash yoki echkilardan iborat chorvalarni boqishda turli xil urf-odatlarga rioya qilingan va ko‘pincha genderligiga ham e’tibor berilgan. Echkilarning urishqoqligi erkaklarga qiyoslangan bo‘lsa, urg‘ochilari “onalik va ko‘payish” mazmunini ifodalagan. Terrakotalarda echkisimon qiyofali shaxslar ifodalanishi echki kultining rivoji bilan antropomorf qiyofalarni yaratishga olib kelgan. Alako‘ylak terrakotasida ham qadimiy, falsafiy dunyoqarash tasvirlarga moslashib (adaptatsiya) diniy qarashlardan biri – hosildorlik ramzi sifatidagi dunyoviy qarashlarni ifodalasa kerak.

Qadimiy Mesopotamiyada ham hayvonlar haqidagi qarashlar keyinchalik afsonaviy obrazlar yaralishiga olib kelgan edi. Shumer, Akkad va Vavilonda ham echki muqaddas hayvon hisoblanib, Marduk va Nennerga (hayvonlar homiysi) qarashli hisoblangan va ular dehqonchilik, kanal, ariqlar va chorvachilik homiysi darajasiga o‘sib o‘tgan. Qadimiy Vavilondagi Kesit san’atida Ammar xudosi inson qiyofasida qiyshiq hassada bir oyog‘ini tog‘ echkisi ustiga qo‘yib (u ko‘chmanchilarning xudosi sifatida talqin etilgan) tasvirlangan. Akkadda esa Ammar yulduzlar egasi deb talqin etiladi [19, 45].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Grek afsonalari va san’atida Dionis dastlab hosildorlik xudosi sifatida (o‘lim va tirilish), keyinchalik esa uzumchilik va vino farishtasi deb talqin etiladi. Xususan, dastlab greklar Zagrey-Dionisni katta Dionis deb ataganlar, afsonalarga ko‘ra, Zevs ilon qiyofasida Persefon qo‘yniga kiradi va u shoxli Zagrey -Dionisni tug‘adi. Rashkli Gera esa Titanlarga uni tutish

haqida topshiriq beradi, Titanlar Dionisni tilka-pora qilib tashlaydilar. Afina Zagrey-Dionisning yuragini qutqarib qoladi, Zevs uning yuragini yutib, Semel orqali qaytadan tug‘diradi. Gretsiya va Yaqin Sharq mamlakatlarida Dionis turli xil hayvonlar qiyofasiga kira oladi, ko‘pincha u echki qiyofasida namoyon bo‘ladi, Dionisning laqabi esa “sho‘x-shodon echki”dir. Dionisning yo‘ldoshlari ham echkisimon devlar hisoblanadi. Dionisni sharaflash bayrami o‘simliklarning vegetatsiya kalendariga mos ravishda yilida 4 marta o‘tkazilgan, bu bayramlar sho‘x-shodon namoyishlar, hayvonlarni (ko‘pincha echkilarni) qurbonlik qilish, muqaddas idishlarga vinolar ichish hamda qo‘shiqlar aytib raqs tushish bilan o‘tkazilgan. Qurbonlik qilingach, turli xil hazil o‘yinlar, kuch sinashish, belanchakka uchish va oyog‘iga “yog‘langan po‘stak bog‘lab” uzoqqa sakrash turniri o‘tkazilgan. G‘oliblar meshga to‘ldirilgan vino bilan taqdirlanganlar. Alako‘ylakdagi shaxsning oyoqlarini keng holda yoyib turishi aynan diniy o‘yinlar bilan ham bog‘liq bo‘lishi xam mumkin.

Afsonalarning birida qayd etilishicha, Biotriyada Dionis sharafiga ayollar bilan birgalikda o‘tkazilayotgan shunday bayramlarning birida Vakxa ibodatxonasi kohinlaridan biri qilich bilan qurollangan. Bayram oldidan kohin ayollar tomonidan yashirilgan Dionisni izlashi va o‘ldirmoqchi bo‘lgani bayon etiladi.

Ammo Alako‘ylak va Yakkabog‘ terrakotasidagi to‘qmoq (dubinka) ushlagan qurolli shaxslar va Verne-Berezovdan topilgan idishda echki qiyofali shaxslar ko‘proq himoyalanayotgani aks etgan. Ko‘rinishidan, bu echki qiyofali ma’bud nafaqat hosildorlik, balki jamiyatni ham turli xil ofatlardan himoyachi sifatida ifodalangan bo‘lsa kerak.

V.P.Darkevich Dionis-Siyovush obrazlarini qiyosiy tadqiq etib, uning fikricha, Dionis O‘rta Osiyoda keng tarqalgan Siyovush hosildorlik ma’budi bilan bog‘liq siymo hisoblanadi. Har ikkalasi ham o‘lim va qayta tug‘ilishning ma’budlari bo‘lib, har ikkalasi ham uzumchilik va vinochilik homiysi hisoblanadi [7.16]. Zakariy Qazviniy asarlarida (u 1282-yilda vafot etgan) kosmosdagi yulduzlar turkumidan biri “Bar Siyovush” deb ataladi, u bir qo‘lida qilich va ikkinchi qo‘lida Gulyaning kesilgan bosh bilan tasvirlanadi [5.82]. Damashqiyning asarida esa, Bar-Siyovush bir oyoqli inson qiyofasida va qo‘lida Gulyaning kesilgan boshini ushlab turgan holda tasvirlanadi[14.36].

Ko‘rinishidan Sug‘diyonadan topilgan ossuariylar, plaketkalardagi o‘tirgan holda boshida toj ifodalangan shaxslar va ularning qurollarini o‘xshashligi tasofidiy emas. Ular Bar-Siyovush timsolidir. Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, Alako‘ylakdan topilgan terrakotada Bar-Siyovush timsoli aks etgan, deb talqin etish mumkin. Uni o‘ziga tumor qilib taqib yurgan odam osmondagi qaysidir yulduzni o‘zining homiysi yoki himoyachisi deb hisoblagan [15.247] .

Siyovush haqidagi tasavvurlarda u olov timsoli sifatida ham talqin etilishini etiborga olish lozim. “Shohnoma” dostonida Siyovush xo‘roz timsolida ifodalanib, olov va quyosh ramzi sifatida ko‘riladi. Qadimda olov yaratuvchi timsol bo‘lib, tog‘ echkisi esa kosmik ramzlar sifatida ko‘rilgan. Masalan, Saymalitosh petrogliflarida “echki quyosh doirasidan o‘tayotgan jonzot” sifatida tasvirlangan [4.27]. Boralday muqaddas ziyoratgohida esa echkining shoxi yopiq va dumaloq shaklda bo‘lib, yelkasiga tushib turibdi. Dumaloq shakl o‘rtasida esa nuqta chizilgan. Bu yerda biz echkini “quyosh yoki quyoshni ortib borayotgan jonzot” sifatida ko‘ramiz.

Hind-yevropaliklar uchun esa echkilar obrazi o‘simliklar va olovli chaqmoq xudosi bilan bog‘liq holda ko‘riladi. Qadimgi hindlarning echki va qo‘y bilan birgalikda Agni xudosi, Vedalarda Olov xudosi deb talqin etilganini ko‘rishimiz mumkin. Hatto XVIII asrdagi hind miniatyuralarida ham Agni echki minib turgan holda tasvirlanadi. Qadimiy Skandinaviyaning afsonalarida “hosildorlik va chaqmoq xudosi” Tor echkilar qo‘shilgan aravada o‘tirgan holda tasvirlanadi. Xuddi shunday aravalarda qadimiy slavyanlarning Perun xudosi yoki Baltika xalqlarining Perkunas xudosi ham tasvirlangan [3. 23-31].

Echkilarning olov bilan bog‘liq tasavvurlari Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlari moddiy materiallarida ham uchraydi. Qadimgi saklarning qozonlarida tog‘ echkilarining tasviri yoki dastalarida echkini tasvirlanishi tasodifiy emas. O‘rta asrlarda ham olov bilan bog‘liq idishlarda, ovqat pishirish bilan bog‘liq idishlarda echki tasvirlari uchrab turadi. Masalan, Toshkent viloyatidagi X asrga oid Kovardon yodgorligidan topilgan sopol qozonning dastasida sxematik tarzda echki qiyofasi aks etgan. Bundan tashqari Toshkent viloyatidagi Qanqa yodgorligidan topilgan chiroq ham qiziqarli ma’lumotlar beradi. Uning dumaloq shaklli dastasida shoxli echkining boshi, bodomsifat ko‘zi, uchli burni va katta og‘zi aks etgan. Bu chiroq XI asrning ikkinchi yarmi bilan sanasi belgilanadi. Bunday topilmalar Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi arxeologik yodgorliklarida ham uchraydi [15. 243].

Umuman olganda, bronza davridan boshlab Sharq xalqlarida yaratgan san’at asarlarida insonni hayvonlar ustiga yoki yelkasiga minib turish syujeti uchraydi. Tadqiqotchilar tomonidan Bronza davriga oid O‘rta Osiyo, Oltoy va Sibir hududlaridagi qoyatosh suratlarida antropomorf shaxslar turli xil hayvonlar ustiga o‘tirgani va ko‘pincha bu hayvonlar echkiga o‘xshashligini e’tirof etishgan. Xuddi shunday qoyatosh suratlari Nurota tumanidagi Sarmishsoy va Qubatog‘da ham topilgan [20. 98]. Bronza davriga oid Saymalitosh yodgorligida arava g‘ildiragi aniq bilinadi va aravaga ot bilan birgalikda echki ham qo‘shilgan. Yana bir aravaga shoxlari uzun tog‘ echkisi tasvirlangan [20.110]. Bu tasvirlar haqiqatdan ham ko‘plab xalqlarning tasavvurlarida echki - “olovli va chaqmoq xudosi”ni

ifodalaganligidan dalolat beradi. Saymalitosh (Qirg‘iziston Respublikasi) va Nurota tog‘laridagi qoyatosh rasmlarida “aravaga qo‘shilgan shoxli echkilar” umumiy mazmuni va syujetiga ko‘ra, “olovli chaqmoq yoki yomg‘irli bulut timsoli” bo‘lib, yerdagi hosildorlikning ma’budi sifatida talqin etilgan. Masalan, Saymalitoshdagi qoyatoshdagi tasvir ham tasdiqlaydi, ya’ni aravaga qo‘shilgan ot va echkining ikki tomonida qushlarga o‘xshash tasvir mavjud. Pastida esa ikkita odamsimon figura ikki qo‘lini osmonga ko‘tarib turibdi. Aravaga qo‘shilgan hayvonlarning dumi proporsional emas, ya’ni tanasiga nisbatan nomutanosib uzun chizilgan. Tananing nomutanosibligi, umumiy syujet va kompozitsiya Yakkabog‘ tumanidan topilgan terrakotalarni eslatadi. Saymalitosh petroglifi kompozitsiyasidagi “uchib ketayotgan aravaga qo‘shilgan echki va ot”ga qarab qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib turgan odamlar ezgulik kutayotgani hamda echkini muqaddas timsol sifatida ko‘rayotgani aniq bilinadi [22. 15].

Qozog‘istonning Qarg‘ali yodgorligida dafn etilgan shamanning qabridan chiqqan diodimada (uzuk) ham “hosildorlik va o‘simliklar ma’budi” tog‘ echkisi ustida uzun sochlari bilan tasvirlangan. A.Bernshtam topilmani eramizning I-II asrlari bilan sanalagan [5. 45]. Mazkur shaxs ham greklarning Dionis ma’budi kabi Osiyoning Siyovush timsoli bo‘lishi mumkin. Janubiy Qozog‘istonning Sidak ota yodgorligidan topilgan gemma (uzuk)da ham echki minib turgan odam qiyofasi va ikki yonida o‘simlik navdalari tasvirlangan.

Etnograf olim M. Andreyev O‘rta Osiyo xalqlari urf-odatlari sifatida tog‘ echkilariga olovga bog‘liq holda sig‘inish yoki topinish odatlari yaqin vaqtlarda ham muqaddas Burx afsonalari orqali saqlanib qolganligini qayd etgan edi [1.54]. Masalan, echki va buloq afsonasini olib qaraylik. Aytishlaricha, daxmalarda echki so‘yib qurbonlik qilish natijasida uning qoni oqishidan yangi buloqlar paydo bo‘lishi mumkin [17.23]. Echkining olov bilan bog‘liqligi haqida ham afsonalar mavjud. Y.Y.Yakubov Tojikistondagi daxmalarning birida temirdan yasalgan chiroqdon topgan, chiroqning to‘rt tomonidagi olov yonadigan qismi tog‘ echkisining kallasiga o‘xshash [18.293].

Tadqiqotchilar Pomir xalqlarida 1930–1940-yillargacha ham qoyatoshlar va uy devorlariga tog‘ echkilarning rasmini chizish keng urf bo‘lganini qayd etishgan. Bu rasmlar yulduzlar, oy va daraxt timsoli bo‘lgan. Ayrim qabilalar echkini o‘zlarining totemi sifatida ko‘rganlar. Ularning tasavvurlariga ko‘ra, echkilar rasmi oilaga baxt keltirib, boy-badavlat yashashiga amaliy yordam beradi. Uylarda va jamoatchilik joylarida echkining kalla skeletini osib qo‘yish chorvaning ko‘payishi va farovonlik belgisi hisoblangan [18.296].

XULOSA: Shunday qilib, Alako‘ylak plaketkasidagi olov shu’lasining ifodalanishi, uning ilohiy obraz ekanligini isbotlaydi va mazkur terrakota tumor sifatida taqib yurilgan. Tumor esa oila farovonligini ta’minlash uchun

hosildorlikka bag‘ishlangan. Terrakotadagi shaxsni aynan Siyovush obrazi deb talqin etishda arxeologik manbalar kamlik qilsa-da, etnografik ma’lumotlar talqinimizni mustahkamlaydi. Alako‘ylak terrakotasidagi shaxsning qo‘lidagi quroli zardushtiylik dinidagi yovuzlik ma’budi Angro Manudan Voxu Manu bilan birgalikda himoya qilish nuqtayi nazaridan yaratilgan bo‘lishi mumkin.Terrakota sifatli mahalliy loydan va mahalliy kulol tomonidan yuksak g‘oya, konsepsiya va mohirlik bilan yaratilgan. Bu mahalliy xalq vakillarining falsafiy qarashlari yuqori o‘rinda bo‘lganligidan dalolat beradi. Terrakotadagi obraz qadimiy diniy falsafalarni uzoq davrlar mobaynida davom etganini ko‘rsatadi. Ya’ni, qadimiy zooantropomorf tasvirlar qadimgi qoyatosh rasmlarida qit’alararo keng tarqalagan bo‘lsa-da, Sug‘diyona terrakotalarida ham diniy shaxslarni hayvon qiyofasida ifodalash uchrab turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Андреев М.С. Таджики долины Хуф (верховьх Амударьи) // Тр.ИИАЭ АН Тадж.ССР.том 61 (Материалы к изучению культуры и быть таджиков). – Сталинабад, 1958.
2. Бердимурадов А.Э., Богомолов Г.И., Хушваков Н.О. Новая штампованных оссураия в окрестностях Шахрисябза. Археология Узбекистана. – №2 (5). – Самарканд, 2012.
3. Бернштам А.Н. Золотая диадема шаманского погребения на р. Каргалинка// КС ИИМК, вып.5 – М-Л., 1940.
4. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шана и Памиро-Алая. (МИА, №26) – М., 1952.
5. Бернштам А.Н. Золотая диадема из шаманского погребения на р.Каргалинка.// КС ИИМК,вып.5. – М., 1940.
6. Белинцкий А.М. Вопросы идеологии и культуров Согда (по материалам Пенджикентских храмов)// Живопись древнего Пенджикента. М.194.
7. Грицина А.А., Мамажанов С.Д, Мукимов Р.А Археология. Истрия и архитектура средневековой Уструшаны. – Самарканд. 2013.
8. Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII-XIII вв. – М.: Наука, 1976.
9. Мешкерис В.А. Согдийская терракота. – Душанбе: Дониш, 1989.
10. Сулайманов Р.Х. Древний Нахшеб. – Ташкент, 2000.
11. Толстов С.П.Древней Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М. 1948.
12. Кабанов С.К.Две терракоты из долины Кашкадарьи.//ИМКУ, вып. 2. – Ташкент, 1962.
13. Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI. – Ташкент. 1981.

14. Толстов С.П.Древней Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М. 1948.

15. Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII-XIII вв. – М.: Наука, 1976.

16. Пугаченкова Г.А. Рempель Л.И. Выдающиеся памятники изобразительного исскуства Узбекистана. – Ташкент. Изд-во худ.лит-ры. 1960.

17. Хушваков Н.О. Богомолов Г.И. Образ Сиёвуша в археологических материалах из Яккабага (Узбекистан). Научные труды Республиканского института высшей школы. Исторически и психолого-педагогические науки. Сборник научных статей. Выпуск 22. Часть 2. Минск. РИВШ-2022.

18. Кисляков Н.Бурх-горный козел // СЭ, 1934, №1-2.

19. Якубов Ю.Я. Археологические памятники древнего Рашта и дарбаза (работы 1982 г)// АРТ, вып. 22. Душанбе, 1990.

20. Gray Louis H. The foundations of the Iranian Religions.Being a series of the Ratanbai Katrak Lectures delivered at Oxford.Bombay: Kitab Mahal, 1925.

21. Khujanazarov M. Petroglyphs of Uzbekistan //Petroglyphs of Central Asia. Samarkand, 2001.

22. Tashbaeva K. Petroglyphs of Kyrgyzstan // Petroglyphs of CentralAsia. Samarkand, 2001,– C. 9-19.

23. Samashev Z. Petroglyphs of Kazakhstan // Petroglyphsof Central Asia. – Samarkand, 2001.

TEMURIYLAR, SHAYBONIYLAR SULOLARI HUKMRONLIGI DAVRIDA XUSUSIY TA’LIM SHAKLLARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Nigmatova Sadoqatxon G‘ulomaxmadovna
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar va Shayboniylar sulolalari hukmronligi davrida mavjud bo‘lgan xususiy ta’lim shakllari, ularning tashkil etilishi, mazmuni va jamiyat hayotidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki sulola davridagi maktab va madrasalarning faoliyati, xususiy ustoz-shogird tizimi, ta’lim berish usullari hamda ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi qiyosiy asosda o‘rganiladi. Shuningdek, Temuriylar davrida ilm-fan va ta’limga berilgan yuqori e’tibor hamda Shayboniylar davrida ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va davomiylik jihatlari yoritib beriladi. Maqola natijalari o‘rta asrlar Markaziy Osiyosida xususiy ta’lim shakllarining tarixiy taraqqiyotini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Temuriylar davri, Shayboniylar davri, xususiy ta’lim, maktab va madrasa, ustoz-shogird tizimi, ilm-fan, ta’lim tarixi, Markaziy Osiyo, qiyosiy tahlil.

ФОРМЫ ЧАСТНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ДИНАСТИЙ ТЕМУРИДОВ И ШЕЙБАНИДОВ И ИХ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Нигматова Садокатхон Гуломахмадовна
Докторант Ферганского государственного университета

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ форм частного образования, существовавших в период правления династий Темуридов и Шейбанидов, особенностей их организации, содержания и роли в жизни общества. В ходе исследования на сравнительной основе рассматриваются деятельность школ и медресе в период обеих династий, частная система «наставник–ученик», методы обучения, а также их вклад в развитие науки. Кроме того, освещаются высокий уровень внимания к науке и образованию в эпоху Темуридов, изменения в системе образования в период Шейбанидов и аспекты преемственности. Результаты статьи имеют важное значение для понимания исторического развития форм частного образования в средневековой Центральной Азии.

Ключевые слова: эпоха Темуридов, эпоха Шейбанидов, частное образование, школа и медресе, система «наставник–ученик», наука, история образования, Центральная Азия, сравнительный анализ.

FORMS OF PRIVATE EDUCATION DURING THE RULE OF THE TIMURID AND SHAYBANID DYNASTIES AND THEIR COMPARATIVE ANALYSIS

Nigmatova Sadoqatxon G‘ulomaxmadovna
PhD Researcher at Fergana State University

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the forms of private education that existed during the rule of the Timurid and Shaybanid dynasties, along with a comparative examination of their characteristics. The study explores the organization of private education, the activities of schools and madrasas, the teacher–student system, and methods of knowledge transmission. Special attention is given to the significant support for education and science during the Timurid period and to the transformations and continuity observed in the educational system under the Shaybanids. The findings of the research contribute to a deeper understanding of the historical development of private education in medieval Centr

Keywords. Timurid dynasty, Shaybanid dynasty, private education, schools and madrasas, teacher–student system, history of education, science and culture, comparative analysis, Central Asia.

KIRISH: Jahon tarixida “Uyg‘onish davri”lari Sharq va G‘arbda yuz bergan hamda insoniyat tarixiga zarhal harflar bilan yozilgan. Ayni ilm-fan yuksak taraqqiy etgan davrlarni vujudga kelishida bir necha omillari mavjud. Sharq va G‘arb “Uyg‘onish davri”lari tadqiqidan shu narsa ayon bo‘ladiki, yer yuzida mavjud bo‘lgan jamiki sivilizatsiyalar yoki renessanslarning shakllanishida, birinchi navbatda mamlakatlarda, hududda o‘rnatilgan tinchlik, farovonlik asos bo‘ladi. Zero, tinchlik bo‘lgan yerda har qanday hukumat tomonidan siyosiy, madaniy-iqtisodiy sohalarda taraqqiyot, ayniqsa, ilm-fanga bo‘lgan e’tibor ortadi. Ikkinchidan, tinchlik bo‘lgan jamiyatda qonunlarning ustuvorligi ta’minlanadi. Mavjud qonunga barcha ijtimoiy tabaqa vakillari birdek amal qilsa, ushbu davlat har tomonlama gullab-yashnaydi. Masalan, Amir Temur davrida norasida bolaga bir lagan oltin bilan mamlakatning u sarhadidan bu chegarasiga qadar yo‘lni bosib o‘tsa, lagandagi oltin bir misqol kamaymagan, go‘dakka esa shikast yetmagan. Ushbu holat Amir Temur davridagi tinchlik va farovonlik hamda qonun ustuvorligidan dalolat beradi. Amir Temur va temuriylar ilm-fanni qadrlaydigan, shaharlarning har tomonlama rivojlanishi uchun alohida e’tibor qaratadigan hukmdorlar bo‘lishgan [1:249]. Uchinchi navbatda yuqorida keltirilganidek, moddiy farovonlik sanaladi. Agar mamlakatda fuqarolar moddiy farovonlikda hayot kechirsa, ularning ilm-fanga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortadi. Shuningdek yuqorida qayd etilgan omillar bilan birga markazlashgan davlatlarning tashkil topishi chambarchas bog‘liqdir. Dunyo tarixida markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi jamiyatlarning har tamonlama ravnaq topishida muhim rol o‘ynagan. Shuningdek, “Uyg‘onish davri”larining vujudga kelishida mamlakat hukmdorlarning ilm-ma’rifatga bo‘lgan qiziqishi, e’tibori, homiyligi ham sabab bo‘lgan. Masalan, IX — XII asrlardagi Sharqda G‘aznaviylar hukmdori Mahmud G‘aznaviyning ilm-fanga bergan e’tibori tufayli “Shohnoma”, “Hindiston” kabi noyob asarlar yaratilgan [2:130]

ASOSIY QISM: Ushbu maqolada XIV – XVI asrlarda Movarounnahr, Xurosonda Temuriylar va Shayboniylar (1370-1598-yillar), hukmronligidagi ta’lim shakllari, bosqichlari, o‘quv dasturlari davlat va xususiy maktablari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Markaziy Osiyo tarixida Temuriylar davri (1370-1507) siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ichki, tashqi savdo-sotiq munosabatlarida, ta’lim tizimida, hatto etnik shakllanishda ham muhim o‘rin tutadi. Amir Temur nafaqat siyosiy-iqtisodiy sohalarga balki, ta’lim va ilm-fanga alohida e’tibor qaratdi. U Samarqand va Buxoroni ilm-fan markazlariga aylantirdi. Mirzo Ulug‘bek davrida “Samarqand akademiyasi” shakllandi. XIV – XVI asrlarda yuz bergan “Uyg‘onish davri”ning yana bir muhim omili – ularning ta’lim tizimi hisoblanadi. Markaziy Osiyoda, xususan, Movarounnahr, Xurosonda ta’lim tizimi o‘ziga xos rivoj topgan.

Xususan, Temuriylar va Shayboniylar davrida ta’lim tizimi rivojlangan, natijada har ikkala sulola hukmdorlari ilm-fan sohasida katta yutuqlarga erishgan edi. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro kabi hukmdorlar davrida nafaqat islom dini doirasida, balki dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Jumladan, aniq, gumanitar, tabiiy fanlar, she’riyat va adabiyot ham yuqori darajada rivojlandi. Maktab va madrasalar faoliyati rivojlanib, o‘z davri talabidagi fanlarni qamrab oldi. Shuni ta’kidlash joizki, Temuriylar saroyida turkiy tilda so‘zlashilganiga qaramasdan, madrasalarda darslar arab tili va yozuvida olib borilgan. Ilmiy va badiiy asarlar arab tilida yozilgan. Shu sababdan arab tilining morfologiyasi va sintaksis bo‘limlari chuqur o‘qitilgan. Arab tili va yozuvini mukammal o‘rganish, o‘zlashtirish mudarris va toliblardan talab etilgan [3:149].

Shayboniylar (1500-1598) hukmronligida ham, Temuriylar davridagi ta’lim tizimini amalda davom ettirildi. Biroq, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II davrida ta’lim tizimi rivoji siyosiy beqarorlik va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan kechdi.Shayboniylar, Temuriylar davrida ta’lim tizimi tomonidan bolalarning juda yoshligida (5-6 yoshidan) qamrab olingan. Hamda ta’lim tizimi faoliyatida birdek arab va fors tilining ahamiyati ortib borgan. Masalan, Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivoj topishida mazkur sulola namoyandalarining tutgan o‘rni katta bo‘lgan. Jumladan, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Subhonqulixonlarning o‘zlari nihoyatda o‘qimishli, bilimli shaxslar edi [4:120]. Ayni shu sulolalar davrida Samarqand, Buxoro, Kesh, Shahrisabz, Shoxruhiya, Kitob, Hirot, Farg‘ona vodiysi shaharlarida madrasalar bilan birgalikda o‘quvchilarni boshlang‘ich maktablarga tayyorlaydigan xususiy maktablar faoliyati boshlangan. Natijada, xususiy ta’lim tizimi rivojlanib, xonadonlarda dars olib borish shakllanib, rivojlanib borgan.

Temuriylar davri tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, xususan ta’lim tizimi haqida shu davrda yozilgan tarixiy asarlarda ham ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Zayniddin Vosefiy o‘zining “Badoyi ul-vaqoyi” asarida quyidagi ma’lumotni beradi: “aytadilarki, olimlar yig‘ilish kuni to‘qson alloma nazdida mavlono Xofiy “al-Masjit”dan dars aytibdur [5:269].

Amir Temur va Temuriy hukmdorlar shahzodalarning ilm olish masalasiga katta e’tibor qaratgan. Temuriylar davri ta’lim tizimi qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan e’tirof etilgan. B.Ahmedov tadqiqotlari va V.V.Bartoldning “Улугбек и его время”, A. Metsnning “Мусульманский Ренессанс” asarlari asos qilib olindi[6:708].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Shayboniylar davridagi ta’lim faoliyati ham tarixiy manbalarda, mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda yoritilgan. Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Hofiz tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma”

asarlarida Shayboniy hukmdorlar, shahzodalarning ilm olish tizimiga bo‘lgan e’tibori haqida ham ta’rif berilgan [7:127].

Markaziy Osiyoda Temuriylar va Shayboniylar davrida ta’lim asosan vaqf mulklari hisobiga quyidagicha amalga oshirilgan:

1. **Boshlang‘ich ta’lim**: Boshlang‘ich ta’lim jarayoni Qur’on va arab alifbosini o‘rganishdan iborat edi. Boshlang‘ich maktablar asosan masjidlar qoshida va alohida xonadonlarda xususiy maktablar ko‘rinishida amalga oshirilgan. Mahalliy aholi yoki zodagonlar tomonidan ta’minlangan bo‘lib, mudarrislarga vaqf mulklari hisobidan maosh berilgan. Qolaversa ota-onalar bergan to‘lov yoki hadyalar orqali ham rag‘batlantirilgan. Ustozlar bolalarga asosiy bilimlarni berish bilan birga, axloqiy tarbiya ham berishgan.

Madrasalarda o‘qitiladigan fanlar mudarrislar mavqeyiga, talabalar yoshiga, o‘rganish saviyasiga qarab ikki bosqichga bo‘lingan:

2. **Umumiy ta’lim:** Ilmi naqliya: Qur’on, hadis, fiqh, tasavvuf-diniy ilmlar chuqur o‘rgatilgan. Ilmi aqliyada esa, tarix, adabiyot, she’riyat, falsafa, geografiya, aniq fanlar, riyoziyot, handasa, ilmi hay’at, ilmi aruz, muhandislik, arab tili va morfologiyasi, xattotlik, tibbiyot fanlaridan ham darslar o‘tilgan. Umumiy ta’lim madrasalarini bitirgan toliblar kichik madrasalarda mudarris, masjidlarda imom, qozixonalarda muftiy lavozimlarida faoliyatlarini davom ettirishgan.

3. **Oliy ta’lim:** “Madrasayi oliya” ta’lim-tarbiyaning eng oliy darajasi hisoblanib, asosan, yirik markaziy shaharlarda Samarqand, Buxoro, Hirotda bo‘lgan. Bu shaharlardagi muassasalarda talabalar chuqur bilim olishlari va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishlari mumkin edi. Masalan, Hirotdagi Ixlosiya madrasasida yigirma yil davomida o‘n mingdan ortiq toliblar bitirgan. Madrasalardagi dars jarayonida talabalarning bilim darajalari tekshirilgan, tanlovlar o‘tkazilgan va iqtidorlilar o‘qishni davom ettirgan [8:28].

4. **Yakka tartibdagi ta’lim**: sulola vakillari va shahzodalar uchun saroyda eng kuchli olimlar, mudarrislar va harbiy tajribaga ega bo‘lgan otaliqlar tomonidan darslar tashkil qilingan. Ya’ni aslzodalar madrasaga qatnashmagan balki darslar yakka tartibda otaliq nazoratida olib borilgan. O‘z davrida ham olim ham hukmdor bo‘lib yetishgan Mirzo Ulug‘bekning boshlang‘ich ta’lim va ungacha bo‘lgan o‘quv jarayoni to‘liq xususiy murabbiylar nazoratida bo‘lgan.

Shayboniylar davrida ham ta’lim tizim faoliyati Temuriylar davridagi an’analar bo‘yicha olib borildi. “Ustoz-shogird” an’anasi saqlangan bo‘lib, ayniqsa, hunarmandchilik, xattotlik, miniatura sohalarida ta’lim to‘liq xususiy xarakterga ega bo‘lib, shogird ustaning uyida yashab hunar o‘rgangan. Ularning ota-onalari esa ustozlarga hadyalar va to‘lovlar maosh sifatida berganlar[9:130].

Ta’lim faoliyati:

Madrasalar: T emuriylar davrida ko‘plab madrasalar, masalan, Samarqanddagi “Ulug‘bek madrasasi” qurilgan. Bu madrasalar nafaqat ta’lim berish, balki ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun ham xizmat qilgan. Ulug‘bek madrasasi astronomiya va matematikada katta yutuqlarga erishgan.

Xususiy ta’lim: Xususiy ta’lim shakllari ham mavjud bo‘lib, bu o‘qituvchilar o‘z xohishiga ko‘ra darslar o‘tkazgan. Bunday ta’lim ko‘pincha oilaviy yoki kichik guruhlarda amalga oshirilgan. Xususan, Qur’on Karim, hadis, fiqh, tafsir va tasavvuf kabi fanlar asosiy o‘rin tutgan. Bu ta’limot jamiyatda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Aniq, ijtimoiy-gumanitar, falsafa sohalari ham o‘qitilib, asosan, matematika, astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot va falsafa kabi fanlarda kundalik dars mashg‘ulotlari olib borilgan. Mirzo Ulug‘bekning astronomik tadqiqotlari bu davrda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan darsliklardan biri bo‘lgan. Ta’lim tizimining rivojlanishi ilm-fan va madaniyatning o‘sishiga olib keldi. Ulug‘bekning astronomik tadqiqotlari, masalan, “Zij-i Ulug‘beg” asari, o‘z davrida katta e’tibor qozongan. Ta’lim orqali jamiyatda o‘zgarishlar yuz berdi, ilm-fan rivojlandi va madaniy meros shakllandi [10:149].

XULOSA: Sharq va G‘arbda XIV – XVI asrlarda “Uyg‘onish davri” yuz berdi. Jumladan, Movarounnahr, Xuroson ta’lim tizimi rivojlanib, diniy va dunyoviy bilimlar o‘rgatildi. Natijada ilm-fan taraqqiy etdi. XIV – XVI asrlarda yuz bergan “Uyg‘onish davri”ning eng muhim omillaridan biri – ta’lim tizimi va uning samarali faoliyati edi. Ta’lim tizimida esa har bir mintaqaning o‘ziga xosligi, hamda sohaning shakllari edi. Ayniqsa, ta’lim tizimidagi xususiy yondashuv, ya’ni yakka tartibda o‘qitishning afzalliklari namoyon bo‘lgan. Xususan, Temuriylar va Shayboniylar davrida “xususiy ta’lim” tushunchasi rasman mavjud bo‘lmasa-da, boshlang‘ich ta’lim, sulola vakillarining ta’lim-tarbiyasi to‘liq xususiy kelishuvlar orqali amalga oshirilgan. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, har ikki mintaqada ham eng yuqori sifatli ta’lim asosan yakka tartibda “ustoz-shogird” an’anasida amalga oshirilgan ushbu ta’lim faoliyati “xususiy ta’lim” ko‘rinishida jamiyatning yuqori qatlami uchun mavjud bo‘lgan. Sharqda vaqf tizimi ta’lim faoliyatini yanada rivojlanishiga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. – Toshkent, 2012. – 249 B

2. Ahmedov.B. O‘zbekiston tarixi manbalari – Toshkent. O‘qituvchi. – 130 b.

3. Юсупова Д.Ю. Жизнь и труды Хондамира. – Ташкент: Фан, 2006. – С. 149.

4. Ziyo A. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 120 b.

5. Norqulov N. Mukammal asarlar to‘plami. Vaqfiya. – Toshkent, 1998. – B. 269.

6. Hamdamov I. Temuriylar davri ta’lim tizimi. ISSN:- 2181-1601, 2022. – 708 b.

7. Mulcaster. R. 2020. Position.https: //www.gutenberg.org/ebooks/62025.

8. Валихўжаев Б. Самарқандда олий таълим — мадрасайи олия — университет тарихидан лавҳалар. – Самарқанд.: СамДУ, 2001. – Б. 28.

9. Ziyo A. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 130 b.

10. Yusupova D. 2006. Жизнь и труды Хондамира. – Toshkent: Sharq. – 149 b.

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA XUSUSIY SEKTORNING SHAKLLANISHI, INSTITUSIONAL RIVOJLANISHI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Ergasheva Yulduz Alimovna
professor, tarix fanlari doktori,
Qarshi davlat texnika universiteti
https://orcid.org/0000-0001-7824-1777

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida xususiy va nodavlat oliy ta’lim muassasalarining shakllanishi, huquqiy-institusional asoslari, 2018–2025-yillar davomidagi o‘sish dinamikasi, talabalar kontingentining kengayishi, ta’lim yo‘nalishlari, ilmiy salohiyat va sifat nazorati masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xususiy oliy ta’limning rivojlanishi mamlakatda oliy ta’lim bilan qamrovni oshirish, ta’lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish, mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish jarayoni sifatida baholanadi. Shuningdek, 2025-yilda litsenziyalash, akkreditatsiya, ustav fondi, qabul jarayoni va axborot ochiqligi bo‘yicha talablarning kuchaytirilishi xususiy oliy ta’lim rivojlanishining yangi sifat bosqichi sifatida ko‘rib chiqiladi. Qashqadaryo viloyati misolida Qarshi shahridagi xususiy OTMlar faoliyati, talabalar soni, sohaviy ixtisoslashuvi va professor-o‘qituvchilar salohiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: xususiy oliy ta’lim, nodavlat OTM, oliy ta’lim islohotlari, talabalar dinamikasi, ilmiy salohiyat, litsenziyalash, akkreditatsiya, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri.

ФОРМИРОВАНИЕ, ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЧАСТНОГО СЕКТОРА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Эргашева Юлдуз Алимовна,
профессор, доктор исторических наук,
Каршинский государственный технический университет

Аннотация. В статье анализируются становление и развитие частных и негосударственных высших образовательных учреждений в Узбекистане в годы независимости, их правовые и институциональные основы, динамика роста в 2018–2025 гг., расширение студенческого контингента, образовательные направления, научный потенциал и вопросы обеспечения качества. Развитие частного высшего образования рассматривается как важный фактор расширения охвата молодежи высшим образованием, формирования конкурентной среды на рынке образовательных услуг, подготовки кадров в соответствии с потребностями рынка труда и укрепления государственно-частного партнерства. Особое внимание уделяется изменениям 2025 г., связанным с усилением требований к лицензированию, аккредитации, уставному фонду, приему студентов и информационной открытости. На примере Кашкадарьинской области анализируется деятельность частных вузов города Карши, их специализация, численность студентов и кадрово-научный потенциал.

Ключевые слова: частное высшее образование, негосударственный вуз, реформы высшего образования, динамика студентов, научный потенциал, лицензирование, аккредитация, Кашкадарьинская область, город Карши.

FORMATION, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND REGIONAL FEATURES OF THE PRIVATE SECTOR IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN

Ergasheva Yulduz Alimovna,
Professor, Doctor of Historical Sciences,
Karshi State Technical University

Annotation. The article analyzes the formation and development of private and non-state higher education institutions in Uzbekistan during the years of independence, focusing on their legal and institutional foundations, growth dynamics in 2018–2025, expansion of student enrollment, academic programs, research capacity and quality assurance. The development of private higher education is interpreted as an important factor in expanding access to higher education, creating a competitive market for educational services, training specialists in accordance with labor market needs, and strengthening public-private partnership. The case of Kashkadarya region is examined through the activity of

private universities in Karshi, including their specialization, student numbers and academic staff capacity.

Keywords: private higher education, non-state university, higher education reforms, student dynamics, research capacity, licensing, accreditation, Kashkadarya region, Karshi.

KIRISH: Mustaqillik yillarida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, demografik o‘sish, mehnat bozorida yangi kasblarga talabning kuchayishi va global ta’lim makoniga integrasiyalashuv jarayonlari ta’sirida bosqichma-bosqich yangilandi. Dastlabki yillarda oliy ta’lim asosan davlat markazli tizim sifatida saqlanib qoldi: asosiy vazifa milliy kadrlar tayyorlash, mavjud universitet va institutlar faoliyatini barqarorlashtirish, ta’lim mazmunini mustaqil davlat ehtiyojlariga moslashtirishdan iborat edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan faqat davlat sektori imkoniyatlari orqali oliy ta’limga bo‘lgan o‘sib borayotgan talabni to‘liq qondirish qiyinligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

2017-yildan keyin O‘zbekistonda oliy ta’lim siyosatida yangi bosqich boshlandi. Davlat OTMlari sonini ko‘paytirish bilan birga xorijiy filiallar, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar va xususiy-nodavlat oliy ta’lim muassasalarini tashkil etishga keng imkoniyat berildi. Bu jarayon oliy ta’lim tizimida mulkchilik shakllari, boshqaruv modellari, ta’lim xizmatlari bozori, o‘quv dasturlari va talabalar uchun tanlov imkoniyatlarini tubdan o‘zgartirdi. Xususiy OTMlar endi faqat qo‘shimcha ta’lim maydoni emas, balki ta’limda raqobat, innovasiya, mehnat bozori bilan bog‘liqlik va hududiy ta’lim infratuzilmasini kengaytirish omili sifatida maydonga chiqdi.

ASOSIY QISM: O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, nodavlat OTMlar faoliyatini kengaytirish, oliy ta’lim bilan qamrovni oshirish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish muhim vazifalar qatorida belgilandi. Bu hujjat xususiy oliy ta’limni mamlakat ta’lim siyosatidagi tasodifiy yoki vaqtinchalik hodisa emas, balki tizimli islohotlar tarkibiy qismi sifatida e’tirof etdi.

O‘zbekistonda xususiy oliy ta’limning shakllanishi mamlakatda bozor munosabatlari, xususiy sektor va ta’lim xizmatlari bozorining bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan bog‘liq. Mustaqillikning dastlabki yillarida ta’lim sohasida asosiy mas’uliyat davlat zimmasida bo‘lgani tabiiy edi. Chunki iqtisodiy o‘tish davri, institusional barqarorlikni ta’minlash, milliy kadrlar korpusini saqlab qolish va ta’lim sifatini nazorat qilish davlatning bevosita ishtirokini talab qilardi. Shu bilan birga, 1990-yillar va 2000-yillar davomida to‘lov-kontrakt tizimining kengayishi,

xorijiy universitet filiallarining ochilishi, xalqaro hamkorlik dasturlarining joriy etilishi xususiy sektor uchun ilk ijtimoiy-iqtisodiy zaminni yaratdi.

Xususiy oliy ta’lim zaruratini kuchaytirgan omillardan biri demografik bosim bo‘ldi. O‘zbekistonda yoshlar ulushining yuqoriligi, har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan bitiruvchilar sonining ortishi, zamonaviy iqtisodiyot uchun yangi mutaxassisliklarga ehtiyojning kuchayishi oliy ta’lim qamrovini oshirishni strategik vazifaga aylantirdi. Davlat OTMlarida qabul kvotalarini kengaytirish muhim bo‘lsa-da, buning o‘zi talabni to‘liq qondirish uchun yetarli emas edi. Shu sababli xususiy va nodavlat OTMlar davlat sektoriga muqobil emas, balki uni to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi va raqobat orqali sifatga undaydigan institut sifatida shakllandi.

Yana bir muhim omil mehnat bozoridagi tez o‘zgarishlar edi. Axborot texnologiyalari, biznes boshqaruvi, marketing, moliya, logistika, turizm, servis, tibbiyot, pedagogika va xorijiy tillar kabi sohalarda amaliy ko‘nikmalarga ega kadrlarga talab oshdi. Xususiy OTMlar aynan shunday tez o‘zgaruvchan sohalarga moslashuvchan dasturlar taklif etishga harakat qildi. Ular uchun talabalarni jalb qilish, bitiruvchilarning ishga joylashuvi, ta’lim xizmatlari sifati va xalqaro hamkorlik raqobatning asosiy mezonlariga aylandi.

O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim muassasalarining institusional shakllanishi 2018-yil bilan bog‘liq. Ochiq rasmiy va axborot manbalarida Toshkent shahrida faoliyatini boshlagan Yodju texnika instituti mamlakatdagi birinchi nodavlat oliy ta’lim muassasasi sifatida qayd etiladi. Uning tashkil etilishi xususiy sektorning oliy ta’limga kirib kelishini amaliy jihatdan boshlab berdi. Keyinchalik mazkur muassasa Toshkent kimyo xalqaro universiteti sifatida faoliyatini kengaytirib, ta’lim yo‘nalishlari, filiallar va talabalar kontingenti bo‘yicha yirik nodavlat oliy ta’lim tashkilotlaridan biriga aylandi.

2019-yil xususiy sektorning kengayishida navbatdagi muhim davr bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-fevraldagi qarori bilan AKFA universiteti tashkil etildi. Ushbu universitet dastlab tibbiyot, aniq fanlar va gumanitar yo‘nalishlarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan yirik xususiy universitetlardan biri sifatida maydonga chiqdi. Keyinchalik u Central Asian University nomi bilan faoliyatini davom ettirib, tibbiyot, stomatologiya, muhandislik, biznes, mehmondo‘stlik va boshqa sohalarda ta’lim dasturlarini kengaytirdi.

Shu davrda Farg‘ona vodiysida Qo‘qon universiteti va Farg‘ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti kabi nodavlat OTMlar paydo bo‘ldi. Bu xususiy oliy ta’lim faqat Toshkent shahri bilan cheklanib qolmasdan, hududlarga ham tarqala boshlaganini ko‘rsatdi. 2020-yildan keyin TEAM University, ISFT, Alfraganus University, Osiyo xalqaro universiteti, Perfect University, Turon Zarmed

universiteti va boshqa xususiy OTMlar faoliyati kengayib, xususiy sektorni alohida ta’lim segmentiga aylantirdi.

Birinchi nodavlat OTMning 2018yilda paydo bo‘lishi bilan 2025-yilda xususiy sektorning keng tarmoqqa aylanishi o‘rtasidagi davr juda qisqa. Shuning o‘zi O‘zbekistonda oliy ta’lim bozorida talab yuqori bo‘lganini, xususiy tashabbuslar uchun huquqiy imkoniyat ochilishi bilan sektor tez rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu jarayon tarixiy jihatdan davlat markazli oliy ta’limdan ko‘p subyektli, raqobatli va diversifikasiyalashgan oliy ta’lim tizimiga o‘tishni anglatadi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari soni 2018-yilda 1 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilda 4 taga, 2020-yilda 5 taga, 2021-yilda 17 taga, 2022-yilda 42 taga, 2023 yilda 91 taga va 2024-yilda 99 taga yetgan. Bu raqamlar 2018–2024-yillarda nodavlat oliy ta’lim sektori juda tez sur’atlarda kengayganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2021–2023-yillar oralig‘ida o‘sish keskin tus oldi: ushbu davrda xususiy OTMlar soni bir necha barobar oshdi, ularning geografiyasi esa poytaxtdan viloyat markazlarigacha kengaydi.

Ushbu dinamikani shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich — 2018–2020-yillar bo‘lib, bu davrda xususiy OTMlar sinov va institusional shakllanish jarayonini boshdan kechirdi. Ikkinchi bosqich — 2021–2023-yillar bo‘lib, xususiy sektorning eng tez o‘sish davri hisoblanadi. Uchinchi bosqich — 2024–2025-yillar bo‘lib, bu davrda miqdoriy kengayish bilan birga sifat nazorati, lisenziyalash, akkreditasiya va axborot ochiqligi masalalari birinchi o‘ringa chiqdi.

Talabalar sonidagi o‘sish xususiy sektorning ijtimoiy ahamiyatini yanada yaqqol ko‘rsatadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, nodavlat OTMlarda tahsil olayotgan talabalar soni 2018-yilda 1,3 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda 4,7 ming, 2020-yilda 9,4 ming, 2021-yilda 37,9 ming, 2022-yilda 97,5 ming, 2023-yilda 343,6 ming va 2024-yilda 462,1 ming nafarga yetgan. Demak, olti-yetti yil ichida nodavlat sektordagi talabalar soni yuzlab barobarga oshgan.

Bu o‘sishning sabablari ko‘p qirralidir. Birinchidan, davlat OTMlarida o‘rinlar cheklangan sharoitda xususiy universitetlar abituriyentlar uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratdi. Ikkinchidan, nodavlat OTMlar ko‘p hollarda talab yuqori bo‘lgan amaliy yo‘nalishlarni taklif qildi. Uchinchidan, hududlarda xususiy OTMlar ochilishi oliy ta’lim uchun poytaxtga ko‘chish zaruratini qisman kamaytirdi. To‘rtinchidan, sirtqi, kechki va masofaviy ta’lim shakllari ishlayotgan yoshlar va katta yoshdagi aholi uchun oliy ma’lumot olish imkoniyatini kengaytirdi.

Bakalavriatga umumiy qabul dinamikasi ham xususiy sektor rivojlanishi uchun muhim fon yaratadi. Rasmiy statistikaga ko‘ra, O‘zbekistonda oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriatiga qabul qilingan talabalar soni 2016-yilda 57,7 ming nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 360,1 ming nafarga yetgan. Bu umumiy qabul hajmining olti barobardan ko‘proq o‘sganini anglatadi. Ushbu kengayishda davlat OTMlari, xorijiy filiallar va nodavlat OTMlar o‘zaro bog‘liq holda ishtirok etdi.

Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi ma’lumotlarida 2024/2025-o‘quv yiliga kelib respublikada 211 ta oliy ta’lim muassasasi mavjudligi, ulardan 112 tasi davlat, 30 tasi xorijiy va 69 tasi nodavlat OTM ekani qayd etilgan. Milliy statistika qo‘mitasining 2024-yil bo‘yicha ma’lumotida esa nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari soni 99 ta sifatida berilgan. Bu farqni ziddiyat sifatida emas, balki hisoblash metodikasi, ro‘yxatga olingan ta’lim tashkilotlari va amalda qabul olib borayotgan muassasalar kesimidagi tafovut sifatida izohlash maqsadga muvofiq.

2025-yil xususiy oliy ta’lim sohasida tartibga solish, shaffoflik va sifat kafolati nuqtayi nazaridan muhim bosqich bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi “Respublikada nodavlat ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori nodavlat ta’lim xizmatlari bozorida lisenziyalash va akkreditasiya mexanizmlarini kuchaytirishga qaratildi. Unda nodavlat o‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha vakolatli organ sifatida Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi belgilangani xususiy sektor faoliyatini yagona sifat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirdi.

Mazkur qarorga ko‘ra, 2025-yil 1-iyuldan yangi tashkil etiladigan nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyati ikki bosqichda — avval lisenziya olish, keyin ta’lim dasturlarini maxsus davlat akkreditasiyasidan o‘tkazish orqali yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. Bu talab xususiy OTMlarni tashkil etishda faqat tashabbus va moliyaviy imkoniyat yetarli emasligini, balki ta’lim dasturi, professor-o‘qituvchilar tarkibi, moddiy-texnik baza, kutubxona, laboratoriya, amaliyot bazasi va strategik rivojlanish rejasi ham muhimligini ko‘rsatadi.

Qarorda nodavlat OTMlar uchun dastlabki ustav fondi miqdori, ta’lim faoliyatini yuritish konsepsiyasi, boshqaruv tizimi, ta’lim va ilmiy faoliyat yo‘nalishlari, qabul parametrlari, sifatni ichki ta’minlash tizimi, besh yillik strategik reja kabi talablar belgilangan. Bu talablar xususiy sektorni miqdoriy o‘sishdan sifat bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi. Endi nodavlat OTMlar faqat ko‘p talabani qabul qilish orqali emas, balki akademik barqarorlik, ta’lim natijalari, ilmiy salohiyat, mehnat bozori bilan aloqa va xalqaro standartlarga muvofiqlik orqali baholanishi kerak.

2025-yil 1-avgustdan nodavlat OTMlar qabul qilingan talabalar haqidagi buyruqlarni yangi o‘quv yili boshlanmasidan oldin rasmiy axborot tizimlariga

kiritishi talab etildi. Bu talab talabalar huquqlarini himoya qilish, qabul jarayonida shaffoflikni ta’minlash va nodavlat OTMlarda tahsil olayotgan yoshlar bo‘yicha yagona axborot bazasini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhimdir. 2025-yildagi mazkur tartiblar xususiy oliy ta’lim tarixida yangi nazorat va mas’uliyat bosqichini boshlab berdi.

Toshkent kimyo xalqaro universiteti, avvalgi Yodju texnika instituti, xususiy oliy ta’limning ilk institusional namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Uning 2018-yilda faoliyat boshlashi O‘zbekistonda xususiy sektorning oliy ta’limga kirib kelishini amalda namoyon etdi. Keyingi yillarda universitet ta’lim yo‘nalishlarini kengaytirib, filiallar ochish, xalqaro hamkorlik va turli sohalarda kadrlar tayyorlash orqali nodavlat ta’lim bozorida yetakchi muassasalardan biriga aylandi.

Central Asian University, avvalgi AKFA universiteti, xususiy universitetlar orasida eng ko‘p tanilgan muassasalardan biri hisoblanadi. U tibbiyot, stomatologiya, muhandislik, biznes, mehmondo‘stlik kabi sohalarda ta’lim dasturlari bilan ajralib turadi. Universitetning dastlabki konsepsiyasida xorijiy mutaxassislar va xalqaro ta’lim tajribasini jalb qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Keyinchalik Yaponiyaning Nagoya City University kabi xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan akademik materiallar, tadqiqotlar va simpoziumlar sohasida hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi xususiy universitetlar xalqaro ilmiy-ta’lim maydoniga kirib borayotganini ko‘rsatadi.

TEAM University xususiy oliy ta’limda tadbirkorlik va biznes ta’limiga ixtisoslashgan modeli bilan ajralib turadi. Universitet ta’lim jarayonida amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv, biznes loyihalar, mentorlik, soft skills, mahalliy kompaniyalar bilan hamkorlik va xalqaro dasturlardan foydalanishga urg‘u beradi. Bunday model xususiy OTMlarning mehnat bozori bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Qo‘qon universiteti xususiy oliy ta’limning hududiy rivojlanishida muhim namuna hisoblanadi. 2019-yilda tashkil etilgan mazkur universitet Farg‘ona vodiysida nodavlat oliy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirdi. Uning ahamiyati shundaki, xususiy OTMlar faqat poytaxtda emas, balki yirik hududiy markazlarda ham ta’lim infratuzilmasiga ta’sir ko‘rsata boshladi.

Farg‘ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti xalqaro hamkorlikka asoslangan xususiy ta’lim modellaridan biri sifatida e’tiborga molik. U xorijiy tajriba, koreys ta’lim modeli va mintaqaviy ehtiyojlar uyg‘unligi asosida shakllangan. Keyingi yillarda ISFT, Alfraganus University, Osiyo xalqaro universiteti, Perfect University, Turon Zarmed universiteti, Navoiy innovatsiyalar universiteti kabi muassasalarning faollashuvi xususiy OTMlar tarmog‘i sohaviy va hududiy jihatdan diversifikasiyalashganini ko‘rsatadi.

Xususiy OTMlar, avvalo, mehnat bozorida tez talab paydo bo‘layotgan yo‘nalishlarga e’tibor qaratdi. Tibbiyot, stomatologiya, farmasiya, biznes boshqaruvi, iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya, marketing, axborot texnologiyalari, dasturlash, kiberxavfsizlik, pedagogika, xorijiy tillar, turizm, servis va xalqaro munosabatlar xususiy sektorda eng ko‘p uchraydigan yo‘nalishlar qatoriga kiradi. Bu holat xususiy OTMlarning bozor signallariga tezroq javob berishga intilayotganini ko‘rsatadi.

Xususiy OTMlarning ta’limdagi birinchi yutug‘i — amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini rivojlantirishdir. Ayrim xususiy universitetlarda ish beruvchilar bilan hamkorlik, amaliyot bazalari, loyiha ishlari, keys tahlillar, mentorlik va startap g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash kabi elementlar joriy etilmoqda. Bu talabalarni faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy ko‘nikmalar bilan ham ta’minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi yutuq — xorijiy ta’lim tajribasini jalb qilishdir. Xususiy universitetlar xorijiy professorlar, xalqaro dasturlar, ingliz tilida o‘qitish, ikki tomonlama memorandumlar, akademik almashinuv va xalqaro sertifikatlarga asoslangan ta’lim modellarini joriy etishga harakat qilmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston oliy ta’limida xalqaro standartlarga moslashuvni tezlashtiradi.

Uchinchi yutuq — raqobat muhitini kuchaytirishdir. Nodavlat OTMlar faoliyati kengaygach, ta’lim sifati, talabalarga xizmat ko‘rsatish, raqamli platformalar, qabul jarayonida qulaylik, o‘quv binolari va kutubxona-infratuzilma masalalarida raqobat kuchaydi. Bu faqat xususiy OTMlarga emas, davlat OTMlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki butun tizimda talabalar manfaatlariga yo‘naltirilgan yondashuv kuchayadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Ilmiy salohiyat masalasida xususiy OTMlar hali shakllanish bosqichida. Ularning birinchi bosqichida asosiy urg‘u lisenziya olish, talabalar qabul qilish, o‘quv jarayonini tashkil etish va moddiy-texnik baza yaratishga qaratildi. Shu sababli ko‘plab xususiy universitetlarda ilmiy maktablar, doktorantura, tadqiqot laboratoriyalari va xalqaro grantlar tizimi hali davlat universitetlari darajasida emas. Biroq keyingi bosqichda xususiy OTMlarning barqarorligi aynan ilmiy salohiyatga bog‘liq bo‘ladi.

Ilmiy salohiyatni baholashda professor-o‘qituvchilar tarkibida ilmiy darajaga ega kadrlar ulushi, xalqaro maqolalar, grantlar, startaplar, patentlar, talabalar ilmiy to‘garaklari, ish beruvchilar bilan qo‘shma tadqiqotlar va ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish muhim mezon bo‘lishi kerak. 2025-yilda lisenziyalash va akkreditasiya talablarining kuchaytirilishi xususiy OTMlarni ilmiy faoliyatni ham tizimli yo‘lga qo‘yishga undaydi.

Qashqadaryo viloyati mustaqillik yillarida oliy ta’lim infratuzilmasi bosqichma-bosqich kengaygan hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda yoshlar

ulushining yuqoriligi, iqtisodiyotning agrar, sanoat, energetika, xizmat ko‘rsatish va ta’lim sohalari bilan bog‘liq ehtiyojlari oliy ma’lumotli kadrlarga talabni oshirdi. Shu sharoitda Qarshi shahri xususiy oliy ta’lim muassasalari to‘plangan hududiy markazga aylandi.

Ochiq kataloglar, qabul platformalari va universitetlar rasmiy ma’lumotlarida Qarshi shahri va uning atrofida faoliyat yuritayotgan bir nechta xususiy OTMlar qayd etiladi. Ular orasida Qarshi xalqaro universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Turon universiteti, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Osiyo texnologiyalar universiteti hamda Xalqaro innovasion universitet alohida ajralib turadi. Bu muassasalarning aksariyati 2022 yil atrofida tashkil etilgan bo‘lib, qisqa vaqt ichida viloyatda xususiy oliy ta’lim kontingentini sezilarli darajada kengaytirdi.

Qashqadaryoda xususiy OTMlar shakllanishi, bir tomondan, hududda yoshlar sonining ko‘pligi va oliy ta’limga talabning yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, davlat OTMlaridagi qabul imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Xususiy universitetlar abituriyentlarga mahalliy sharoitda o‘qish, oilasidan uzoqlashmasdan ta’lim olish, sirtqi va kechki ta’lim shakllaridan foydalanish, amaliyotga yaqin yo‘nalishlarni tanlash imkonini berdi.

Qarshi xalqaro universiteti 2022-yilda Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tashkil etilgan xususiy OTMlardan biri hisoblanadi. Universitet o‘zini xalqaro ta’lim standartlari, amaliy ta’lim va zamonaviy o‘quv muhitiga yo‘naltirilgan muassasa sifatida taqdim etadi. Rasmiy ma’lumotlarda universitetda yuzdan ortiq professor-o‘qituvchi faoliyat yuritishi, turli yo‘nalishlarda minglab talabalar tahsil olishi qayd etiladi. Universitetning asosiy ahamiyati Qashqadaryoda xususiy oliy ta’limning nufuzli va ommaviy shakllanishida ko‘rinadi.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti ham 2022-yilda tashkil etilgan nodavlat OTMlar qatoriga kiradi. Uning yo‘nalishlari iqtisodiyot, pedagogika, xorijiy tillar, boshqaruv va ta’lim sohasiga yaqin bo‘lgan dasturlar bilan bog‘liq. Ochiq manbalarda universitetda 170 nafar atrofida professor-o‘qituvchi faoliyat yuritishi qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich Qashqadaryoda xususiy OTMlar orasida pedagogik va iqtisodiy kadrlar tayyorlash bo‘yicha nisbatan yirik kadrlar salohiyati shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Turon universiteti Qarshi shahrida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan xususiy OTMlardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Universitet iqtisodiyot, pedagogika, axborot texnologiyalari va ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlar orqali mintaqaviy mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlashga intiladi. Uning kontingenti boshqa yirik xususiy OTMlarga nisbatan kichikroq bo‘lsa-da, o‘sish dinamikasi barqaror ko‘rinishga ega.

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti 2022-yil 30-dekabrda asos solingan xususiy OTM sifatida Qashqadaryoda raqamli iqtisodiyot, IT va boshqaruv kadrlariga bo‘lgan ehtiyojga javob berishga qaratilgan. Universitetning nomidan ham ko‘rinib turibdiki, uning asosiy ixtisoslashuvi axborot texnologiyalari, menejment va iqtisodiyot bilan bog‘liq. Bu muassasa viloyatda raqamli transformasiya jarayonlari uchun mahalliy kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytiradi.

Osiyo texnologiyalar universiteti Qarshi shahrida faoliyat yuritayotgan xususiy OTMlardan biri bo‘lib, texnologik va amaliy yo‘nalishlarga urg‘u berishi bilan ahamiyatlidir. Uning mavjudligi Qashqadaryoda xususiy oliy ta’lim faqat iqtisodiyot yoki pedagogika bilan cheklanmasdan, texnologik ta’lim yo‘nalishlariga ham kirib borayotganini ko‘rsatadi.

Xalqaro innovasion universitet 2022-yilda Qarshi shahrida tashkil etilgan xususiy OTMlar qatorida tilga olinadi. Universitet nomi va faoliyat yo‘nalishlarida innovasiya, xalqaro ta’lim tajribasi va zamonaviy kasbiy dasturlarga urg‘u beriladi. Qashqadaryoda bunday muassasalarning paydo bo‘lishi viloyatda xususiy sektor oliy ta’limni kengaytirish bilan birga ta’lim brendlari, innovasion dasturlar va raqobat muhitini ham shakllantirayotganini ko‘rsatadi.

Qarshi shahridagi oltita xususiy OTM bo‘yicha 2022–2025-yillar dinamikasi xususiy oliy ta’limning qisqa vaqt ichida qanday tez kengayganini ko‘rsatadi. 2022/2023-o‘quv yilida ushbu muassasalarda jami taxminan 26 ming nafardan ortiq talaba tahsil olgan bo‘lsa, 2023/2024-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 30 ming nafardan oshgan, 2024/2025-o‘quv yilida esa 35 ming nafarga yaqinlashgani qayd etiladi. Bu raqamlar rasmiy statistikada har bir OTM kesimida bir xil darajada ochiq berilmagani uchun ilmiy tahlilda ochiq platformalar, universitet saytlari va qabul ma’lumotlarini ehtiyotkorlik bilan solishtirish zarur.

Ushbu o‘sishni ta’lim shakllari kesimida tahlil qilish muhim. Qashqadaryo xususiy OTMlarida sirtqi ta’lim shaklining ulushi yuqori ekani ko‘rinadi. Bu holat, bir tomondan, ishlayotgan yoshlar, oilaviy mas’uliyati bor shaxslar va hududiy aholi uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ikkinchi tomondan esa, sirtqi ta’lim ulushining yuqoriligi ta’lim sifati, mustaqil ta’limni tashkil etish, amaliyot va laboratoriya mashg‘ulotlari samaradorligi bo‘yicha qo‘shimcha talablarni keltirib chiqaradi.

Muassasalar kesimida eng yirik kontingent Iqtisodiyot va pedagogika universiteti hissasiga to‘g‘ri keladi. Ochiq ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur universitetda talabalar soni bir necha yil ichida sezilarli darajada o‘sgan. Bu o‘sish pedagogika va iqtisodiyot yo‘nalishlariga hududda talab yuqoriligi, kontrakt asosida ta’lim olish imkoniyatlari va sirtqi ta’lim shaklining ommalashgani bilan bog‘liq.

Qarshi xalqaro universiteti 2022/2023-o‘quv yilida 4 ming nafardan ortiq talabaga ega bo‘lgani, keyingi yillarda esa kontingenti yanada kengaygani qayd etiladi. Axborot texnologiyalari va menejment universitetida ham talabalar soni bir necha ming nafardan iborat bo‘lib, IT va boshqaruv yo‘nalishlariga qiziqish ortib borayotganini ko‘rsatadi. Osiyo texnologiyalar universiteti, Xalqaro innovasion universitet va Turon universitetida ham talabalar soni bosqichma-bosqich oshgan.

Qashqadaryo xususiy OTMlarida talabalar sonining o‘sishi faqat ta’lim muassasalari uchun emas, butun viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti uchun ham ahamiyatlidir. Birinchidan, oliy ma’lumot olish uchun Toshkent yoki boshqa shaharlarga ketish zarurati kamayadi. Ikkinchidan, mahalliy xizmat ko‘rsatish, ijara, transport, poligrafiya, oziq-ovqat va IT xizmatlari bozori jonlanadi. Uchinchidan, viloyatda yoshlarning ta’limga bo‘lgan ijtimoiy intilishi kuchayadi.

Xususiy OTMlar rivojlanishining birinchi bosqichida asosiy vazifa talabalarni jalb etish, lisenziya olish, o‘quv binolarini tayyorlash va ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘lgani sababli professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyati masalasi keyingi bosqichda yanada dolzarblashmoqda. Qashqadaryo xususiy OTMlarida ham shu holat kuzatiladi: ular qisqa vaqtda katta kontingentni qamrab olgan bo‘lsa-da, ilmiy darajali kadrlar ulushini oshirish, ilmiy laboratoriyalar va tadqiqot markazlarini shakllantirish, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish masalalari hali to‘liq yechimini topishi zarur.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti bo‘yicha ochiq manbalarda 170 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritayotgani qayd etiladi. Bu ko‘rsatkich muassasaning kadrlar tarkibi shakllanayotganini ko‘rsatadi. Biroq professor-o‘qituvchilar sonining o‘zi ilmiy salohiyatni to‘liq ifodalamaydi. Ilmiy darajaga ega kadrlar ulushi, maqolalar, monografiyalar, grantlar, ilmiy maktablar va talabalarni tadqiqotga jalb qilish darajasi ham muhim ko‘rsatkichlardir.

Qarshi xalqaro universiteti rasmiy ma’lumotlarida 151 nafar atrofida o‘qituvchi faoliyat yuritayotgani ko‘rsatilgan. Universitetda o‘quv jarayonini xalqaro standartlar asosida tashkil etishga intilish mavjud bo‘lsa-da, kelgusi bosqichda ilmiy darajali professor-o‘qituvchilarni ko‘paytirish, xorijiy tadqiqotchilar bilan qo‘shma loyihalarni yo‘lga qo‘yish, talabalar ilmiy konferensiyalari va startap loyihalarini tizimlashtirish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Osiyo texnologiyalar universiteti, Turon universiteti va Xalqaro innovasion universitet uchun eng muhim vazifalardan biri texnologik, iqtisodiy va pedagogik yo‘nalishlarda amaliy tadqiqotlarni rivojlantirishdir. Ayniqsa, IT, raqamli boshqaruv, mahalliy sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va ta’lim tizimiga oid ilmiy-amaliy loyihalar Qashqadaryo uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Qashqadaryo xususiy OTMlarining ilmiy salohiyati bo‘yicha umumiy xulosa shundan iboratki, mazkur muassasalar hozircha ko‘proq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish va talabalarni qamrab olish bosqichida. Keyingi bosqichda ularning haqiqiy raqobatbardoshligi ilmiy salohiyat, amaliyotga tatbiq etilgan ishlanmalar, professor-o‘qituvchilarning malakasi, xalqaro nashrlar va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi natijalari bilan belgilanadi.

Qashqadaryo viloyati misoli xususiy oliy ta’limning faqat poytaxt yoki yirik markazlarga xos hodisa emasligini ko‘rsatadi. Qarshi shahrida bir nechta xususiy OTMning qisqa vaqt ichida shakllanishi nodavlat sektor hududlarda ham kuchli ijtimoiy talabga ega ekanini isbotlaydi. Bu tajriba O‘zbekistonda oliy ta’lim qamrovini oshirishda xususiy sektordan hududiy rivojlanish instrumenti sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Biroq Qashqadaryo tajribasi ayrim muammolarni ham ochib beradi. Birinchidan, xususiy OTMlar kontingentida sirtqi ta’lim ulushining yuqoriligi ta’lim sifati bo‘yicha alohida nazorat talab qiladi. Ikkinchidan, professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyati va ilmiy tadqiqotlar natijadorligi ochiq va tizimli ko‘rsatkichlar orqali baholanishi lozim. Uchinchidan, xususiy OTMlar o‘z saytlarida talabalar soni, ta’lim shakllari, professor-o‘qituvchilar tarkibi, ilmiy darajali kadrlar ulushi, lisenziya va akkreditasiya holati haqida muntazam ma’lumot berishlari kerak.

Shu bilan birga, Qashqadaryoda xususiy OTMlar rivoji hududiy iqtisodiyot uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular mahalliy mehnat bozori uchun pedagoglar, iqtisodchilar, IT mutaxassislari, menejerlar va boshqa kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda. Agar ushbu OTMlar viloyat sanoati, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik subyektlari bilan qo‘shma dasturlar yaratsa, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi yanada ortadi.

O‘zbekistonda xususiy va nodavlat OTMlar rivojlanishining eng muhim muammosi — miqdoriy o‘sish bilan sifat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdir. 2018–2024-yillarda muassasalar va talabalar soni keskin oshdi. Endi ushbu o‘sish ta’lim sifati, akademik halollik, ilmiy salohiyat, xalqaro tan olinish va bitiruvchilar raqobatbardoshligi bilan mustahkamlanishi lozim.

Ikkinchi muhim masala — sirtqi ta’limga yuqori darajada tayanishdir. Sirtqi ta’lim keng ijtimoiy imkoniyat yaratsa-da, uning sifati kuchli metodik ta’minot, raqamli platforma, mustaqil ta’limni nazorat qilish, amaliy mashg‘ulotlar va baholash tizimi bilan ta’minlanishi shart. Aks holda, xususiy OTMlar faqat diplom beruvchi muassasa sifatida tanqid qilinishi mumkin.

Uchinchi masala — ilmiy salohiyat va tadqiqot faoliyati. Xususiy OTMlar ta’lim xizmatlari bozorida raqobatlashayotgan bo‘lsa-da, haqiqiy universitet maqomi ilmiy tadqiqotlarsiz shakllanmaydi. Shu sababli ular doktorantura, ilmiy

laboratoriyalar, xalqaro jurnallarda maqolalar, startaplar, grantlar va ishlab chiqarish bilan integrasiyalashgan loyihalarni rivojlantirishi kerak.

To‘rtinchi masala — ma’lumotlar ochiqligi. Xususiy OTMlar o‘z faoliyati bo‘yicha ochiq ma’lumotlarni tizimli ravishda e’lon qilishi zarur. Talabalar soni, professor-o‘qituvchilar tarkibi, ilmiy darajali kadrlar ulushi, qabul parametrlari, lisenziya va akkreditasiya holati, bitiruvchilarning ishga joylashuvi kabi ma’lumotlar jamoatchilik uchun ochiq bo‘lishi kerak. Bu ta’lim bozorida ishonchni oshiradi.

Istiqbolda xususiy OTMlar O‘zbekistonda “Universitet 3.0” konsepsiyasini amalga oshirishda muhim ishtirokchi bo‘lishi mumkin. Buning uchun ular ta’lim, ilm-fan, innovasiya va ishlab chiqarish integrasiyasini kuchaytirishi, mahalliy muammolarga ilmiy yechim taklif qilishi, talabalarni tadbirkorlik va startaplarga jalb etishi lozim. Qashqadaryo kabi hududlarda xususiy OTMlar mahalliy iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘lansa, ularning ahamiyati yanada ortadi.

XULOSA: Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida xususiy va nodavlat oliy ta’lim muassasalarining rivojlanishi mamlakat oliy ta’lim tizimi tarixida muhim institusional o‘zgarishlardan biri hisoblanadi. 2018-yilda Toshkent shahrida birinchi nodavlat OTM sifatida Yodju texnika institutining faoliyat boshlashi xususiy sektorning oliy ta’limga kirib kelishini boshlab berdi. 2019-yildan boshlab AKFA universiteti, Qo‘qon universiteti, Farg‘ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti, keyinchalik TEAM University va boshqa xususiy OTMlar faoliyatining kengayishi bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi.

Statistik ma’lumotlar nodavlat OTMlar soni 2018-yilda 1 tadan 2024-yilda 99 tagacha oshganini, ularda tahsil olayotgan talabalar soni esa 1,3 ming nafardan 462,1 ming nafarga yetganini ko‘rsatadi. Bu o‘sish O‘zbekistonda oliy ta’limni ommalashtirish, qamrovni kengaytirish va raqobat muhitini shakllantirishda xususiy sektorning roli keskin ortganini tasdiqlaydi.

2025-yilda xususiy oliy ta’lim rivojlanishida sifat bosqichi boshlandi. Lisenziyalash, maxsus davlat akkreditasiyasi, ustav fondi, qabul jarayoni va axborot ochiqligi bo‘yicha talablarning kuchaytirilishi xususiy OTMlardan faqat miqdoriy o‘sish emas, balki akademik mas’uliyat, ilmiy salohiyat va barqaror boshqaruvni talab qilmoqda.

Qashqadaryo viloyati tajribasi xususiy OTMlar hududiy rivojlanishda muhim rol o‘ynashi mumkinligini ko‘rsatadi. Qarshi shahrida qisqa vaqt ichida bir nechta xususiy OTMning shakllanishi viloyatda oliy ta’limga talab yuqoriligini, xususiy sektor esa bu talabga tez javob bera olishini namoyon etdi. Shu bilan birga, Qashqadaryo misoli xususiy OTMlar oldida ta’lim sifati, sirtqi ta’lim

samaradorligi, professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyati va ma’lumotlar ochiqligi kabi dolzarb vazifalar turganini ham ko‘rsatadi.

Umuman olganda, xususiy oliy ta’lim O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining diversifikasiyalashuvi, raqobat muhitining shakllanishi, hududiy ta’lim infratuzilmasining kengayishi va mehnat bozoriga yaqinlashgan amaliy ta’lim modellarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Keyingi bosqichda ushbu sektorning tarixiy ahamiyati uning faqat qancha talaba qabul qilgani bilan emas, balki qanday sifatli kadr tayyorlagani, qanday ilmiy natija bergani va hududiy taraqqiyotga qanday hissa qo‘shgani bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi 403-son “Respublikada nodavlat ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi F–43-son “Davlat oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoyishi. Lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari soni, 2018–2024-yillar bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-fevraldagi 130-son “AKFA universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori. Lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasidagi nodavlat oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati. FLEDU.uz.

7. O‘zbekistonda xususiy OTMlardagi talabalar soni va ta’lim shakllari haqida ommaviy axborot materiallari. Tanga.uz; Indep.uz; My.uzbmb.uz.

UDK-94:(575.152)

G‘UZOR BEKLIGINING TARIXIIY-GEOGRAFIK TASNIFIGA DOIR MULOHAZALAR (TADQIQODCHILAR NIGOHIDA)

Ernazarov Azim Xudoyqulovich
Osiyo texnologiyalar universiteti
ORCID-0009-0001-2825-8068

Annotatsiya: Mazkur maqolada Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida maxsus topshiriqlar asosida o‘lkani o‘rgangan sayyohlar va tadqiqotchilarning hisobot va esdaliklar yozib qoldirgani, bu hisobot va esdaliklarda hududda o‘zining siyosiy, iqtisodiy ta’sirini kengaytirishga harakat qilgan metropoliyaning strategik

qiziqishlari asosida G‘uzor bekligining geografik joylashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti haqidagi qayd etish darajasidagi dalil va ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Shuningdek, G‘uzor bekligining iqtisodiy taraqqiyoti, shaharning ma’muriy boshqaruv tizimi, amirlik xazinasiga keltiradigan daromadi, aholisi, ishlab chiqarish jarayonlari xususida ayrim ma’lumotlar tahlil etib berilgan.

G‘uzor bekligining aynan XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida amirlikning muhim harbiy strategik, siyosiy, iqtisodiy tayanch markazi darajasiga ko‘tarilishiga shaharning himoya devorlari bilan o‘ralganligi, shaharning ichki va tashqi savdo markazi bo‘lganligi ma’lumotlari asosida ilmiy yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: G‘uzor bekligi, Qorategin, Taxtako‘prik, Poyontepa, G‘uzordaryo, Tangixaram va Qo‘shilish, savdo-sotiq munosabatlari, Poshxurt qizil tuzi, Chashmai Hofizjon, tosh uzoqlik, verst, sharqiy viloyatlar, serhosil yerlar, iqtisodiy taraqqiyot, Chak-chak vodiysi, Oqrabot xarobalari, payshanba bozori.

РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ГУЗАРСКОГО БЕКСТВА (В ОЦЕНКАХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ)

Эрназаров Азим Худойкулович
Университет технологий Азии
ORCID: 0009-0001-2825-8068

Аннотация: В данной статье рассматриваются отчёт и воспоминания путешественников и исследователей, изучавших край по специальным поручениям в период господства Российской империи. В этих материалах содержатся отдельные факты и сведения о географическом положении Гузарского бекства, его экономической и социальной жизни, зафиксированные с учётом стратегических интересов метрополии, стремившейся расширить своё политическое и экономическое влияние в регионе.

Кроме того, проанализированы отдельные сведения об экономическом развитии Гузарского бекства, системе административного управления городом, доходах, поступавших от него в казну эмирата, численности населения и производственных процессах.

На основе данных о наличии оборонительных стен и роли города как центра внутренней и внешней торговли научно раскрыты причины превращения Гузарского бекства во второй половине XIX — начале XX века в важный военно-стратегический, политический и экономический опорный центр эмирата.

Ключевые слова: Гузарской бекства, Каратегин, Тахтакоприк, Поянтепа, Гузардарё, Тангихарам и Кушилиш, торговые отношения, красная

соль Пошхурт, Чашмай Хофизжон, каменная дистанция, верста, восточные районы, плодородные земли, экономическое освоение, долина Чак-Чак, руины Оработ, Четверговый рынок.

SOME CONSIDERATIONS ON THE HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS OF THE GUZAR BEKDOM (FROM THE PERSPECTIVE OF RESEARCHERS)

Ernazarov Azim Xudoyqulovich
Asia University of Technology
ORCID: 0009-0001-2825-8068

Annotation: This article contains reports and memoirs of the tourist, who explored the region on the basis of special assignments during the reign of the Russian Empire, in these reports and memoirs there are recorded evidence and information about the geographical location, economic and social life of the Guzar noble-province on the basis of the strategic interests of the metropolis, which tried to expand its political and economic influence in the region.

In addition, some data are analyzed on the economic development of Guzar governorship, the administrative management system of the city, income to the emirate's treasury, population, production processes.

It was in the second half of the 19th century — the beginning of the 20th century that Guzar noble-province rose to the level of an important military, strategic, political and economic base center of the emirate, surrounded by protective walls, being a center of internal and foreign trade, based on the information.

Key words: Guzar noble-province, Karategin, Taktakkoprik, Poyontepa, Guzardarya, Tangiharam and Annexation, trade relations, Pashkhurt red salt, Chashmai Hafizjan, stone distance, verst, eastern regions, fertile lands, economic development, Chak-chak valley, Oqrabat ruins, Thursday market.

KIRISH: Tarixiy manbalardan ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi ma'muriy-hududiy jihatdan bekliklar, tumanlarga bo'lingan holda boshqarilar edi. G'uzor bekligi amirlikda eng ko'zga ko'ringan hududlardan biri bo'lib, savdo-sotiq munosabatlari yuqori darajaga ko'tarilganligi bilan katta ahamiyatga ega bo'lib, beklik amirlikning g'arbiy sharqiy viloyatlarini bir-biri bilan bog'lab turgan". G'uzor bekligi Buxoro amirligining savdo-sotiq markazi bo'lishi bilan birga, u harbiy istehkom vazifasini ham o'tagan, amirlikning janubiy viloyatlarini boshqarib turardi.

Nebolsinning "Rossiyaning O'rta Osiyo bilan munosabatlari" nomli asari chop etilganligi bois asardagi xaritada Qarshi Amudaryo va Cho'chqaguzargacha

bo‘lgan yo‘nalish aniq ko‘rsatilgan. Bu yo‘nalish G‘uzordan bosh Hisorgacha, undan Qorategin olib borish ko‘rsatilgan. Ushbu yo‘nalish A.Borne tomonidan tayyorlangan xaritada ko‘rsatilgan bo‘lib, u N.Xanikovning “Buxoro xonligi tavsifi” nomli asarining xaritasiga ham kiritilgan [1:109].

ASOSIY QISM: Qarshidan G‘uzorga qarab borishda Hisor tog‘laridan o‘tib, Shahrisabz vodiysiga borib taqaladigan uchta shahardan biri- G‘uzor yo‘li orqali sharqiy tomonda edi. Sharqiy tomonga chiqish Toshqo‘rg‘on darasi orqali Yakkabog‘ga kelib taqaladi. Kaltaminor yo‘li Buxoro amirligining muhim qal’alaridan hisoblangan Yortepa qishlog‘iga kelib tutashgan. Boysundan Oqrabotgacha, Chashmai Hofizjongacha, Tangixaram va Qo‘shilishgacha bo‘lgan g‘arb tomondagi yo‘l Buxoro, Qarshi va Hisor yo‘li o‘rtasida muhim tranzit ahamiyatiga ega G‘uzor shahriga kelib to‘xtaydi [2:94].

G‘uzor bilan Qarshi shahridan birinchi qishloqqacha masofa 1 verstni tashkil etgan bo‘lib, bu qishloq Yangimozor bo‘lgan. Keyingisi esa 7 verst uzoqlikdagi, ancha boy qishloq Taxtako‘prik va Qarshini suv bilan ta’minlab turuvchi Beshariq qishlog‘i joylashgan. Bundan keyin to Yangikentgacha (Qarshidan 22 verst) boshqa qishloqlar mavjud bo‘lmagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro va Samarqand shaharlari Afg‘oniston, Eron, Hindiston bilan olib borgan barcha savdo-sotiq munosabatlari G‘uzor bekligi orqali amalga oshirilgan [10:87]. Yangikent Dasht qishlog‘i bo‘lib, Qashqadaryoning emas, G‘uzordaryoning suvi bilan o‘z dashtlarini sug‘organ. G‘uzor Yangikentdan 18 verst uzoqlikda bo‘lib, bu qishloqdan G‘uzorgacha bo‘lgan yo‘lning ikki chetini qadimiy va yangi qishloqlar joylashgan. Yangikentdan 8 verst uzoqlikda yo‘lning ikki cheti bo‘ylab ekilgan yam-yashil bog‘lar to Poyontepagacha ikki qishlog‘i joylashgan. Bu ikkala qishloqni bir-biridan uncha keng bo‘lmagan jar va qiyaliklar hamda Poyontepa nomli tepalik ajratib turgan. G‘uzordan yana 4 verst uzoqlikda yo‘lning chap tomonida Cho‘loq qishlog‘i, undan keyin esa Bog‘dod qishlog‘i o‘rin olgan [3: 142.]

Shahrisabzdan Kitobgacha bo‘lgan masofa 8 verst bo‘lgan. Shahrisabzga yaqin Kitob shahriga Samarqanddan ikkita yo‘l: biri Jom darasi orqali yaxshi arava yo‘l olib borardi, bu yo‘ldan 1870-yildan Kitobni egallash uchun rus qo‘shinlari o‘tgan. Keyingisi yuk tashiladigan yo‘l bo‘lib, bu Qoratepa qishlog‘i orqali Taxtaqoracha dovonidan o‘tib, to‘g‘ri Kitob devorlariga olib chiqar edi [4:394-397].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: G‘uzordaryo suvini Boysunning shimoliy-sharqiy tomonidagi tog‘ning qorli cho‘qqilaridan olib, ikki daryo: Katta O‘ra daryo va Kichik O‘ra daryodan hosil bo‘ladi. Katta O‘ra daryo Shahrisabz vodiysidan ham ko‘rinib turadigan ulkan Sengridagadan oqib chiqadi. Ikkinchi Kichik O‘ra daryo esa qarama-qarshi tomonidagi Boysun tog‘laridan Sherobod

daryoning katta irmoqlardan biri sifatida oqib chiqadi. G‘uzordan 16 verst uzoqlikda Qushlush tog‘ qishlog‘i yaqinida Katta va Kichik O‘ra daryolar bir-biri bilan qo‘shilib G‘uzor daryosini hosil qiladi. Bu daryo tufayli butun G‘uzor vohasi unumdor va serhosil yerlarga aylanadi. G‘uzor daryo yuqorida ta’kidlanganidek, faqat Yangikentgacha yetib keladi va shu sababli aholi ariq suviga unchalik ishonmasdan, yilning asosiy qismida hovuzlar va quduqlardan foydalanadi. Qarshi bilan G‘uzor o‘rtasidagi yo‘l yuk yo‘li bo‘lib hisoblansada, dashtning tep-tekis, ravon qismidan o‘tadi [5: 89].

Poshxurt qizil tuzi yuqori sifatli bo‘lib, butun Buxoro va Zarafshon o‘lkalarida G‘uzor tuzi nomi bilan mashhur. Poshxurt yoki G‘uzor tuzining omborxonalari Qarshida joylashgan bo‘lib, u yerdan Buxoroga olib ketilgan. Shuningdek, dasht yo‘lidan Koson qishlog‘i orqali (Qarshidan 24 verst) Karmanaga va u yerdan Samarqandga olib ketilgan [6: 135-138].

G‘uzor qal’asi G‘uzordaryosi qirg‘og‘i bo‘yida, shahardagi tepaliklardan birining ustida joylashgan bo‘lib, daryo uning tabiiy devori bo‘lib xizmat qilgan. G‘uzor boshqa, Osiyo shaharlari singari qalin bog‘lar halqasi bilan o‘rab olingan.

Ertasi kuni ertalab G‘uzordan yo‘lga chiqdik. Bizning yo‘limiz suvning serobligi tufayli G‘uzorni o‘rab olgan yam-yashil bog‘lar halqasidan o‘tar edi. Bu bog‘larda Qarshi va G‘uzorda mashhur bo‘lgan nihoyatda shirin va katta-katta donali maska navli uzumlar pishadi. Bu uzumlar quritilib, Buxoro, Shahrisabz va Samarqand shaharlariga olib ketiladi. Xonlikning boshqa joylarida uzumning ushbu navini ko‘paytirish harakatlari behuda bo‘lib chiqdi. Chunki, maska navi faqat G‘uzor va qo‘shni Qarshi bog‘larida o‘sadi.

G‘uzordaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab notekis so‘qmoqlar va balandliklar orqali G‘uzordan yo‘l davom etib kelardi. Shaharga yaqin joyda, bor-yo‘g‘i 1 verst uzoqlikda shaharga deyarli qo‘shilib ketgan Yortepa qishlog‘i joylashgan. Shundan so‘ng G‘uzordaryo aylana va soyliklar qirg‘oqlari bo‘ylab oqib, to Qushlushgacha uning yo‘lida birorta ham qishloq uchramaydi.

Biz Qushlush qishlog‘ida to‘xtadik. Qushlush G‘uzordan 12 verst uzoqlikdagi tog‘lar bag‘rida joylashgan. Bu yerdagi yo‘l uncha baland yoki past bo‘lmagan yo‘llar orqali jarlikdan o‘tadi [7:127].

Darvoqe, g‘arbiy Tyanshandan oqib chiqadigan barcha daryo va daryochalar, shu jumladan sersuv Amudaryo ham bu yerda keng tarqalgan o‘lchami qatlam, qizil tuproq tufayli qizil tusga ega. Shu sababli g‘arbiy Tyanshanda Surxob va Qizilsuvga o‘xshash daryolar ko‘p uchraydi. Bu ikkala daryo ham bir xil nomga bo‘lib, biri tojikcha ikkinchi o‘zbekcha, yoki to‘g‘rirog‘i turkcha atalishidir.

Shu tufayli g‘arbiy Tyanshan qo‘rg‘oshin rudasi, kvars, marmar va boshqa tuzli minerallarga boy bo‘lib, G‘uzordan 8 tosh uzoqlikda joylashgan Ko‘hitang

qishlog‘i yaqinida qayta ishlanadi. Qushlushdan o‘zlashtirilgan madaniy hudud Tangaxo‘ram qishlog‘igacha uch yarim tosh (28 verst) keladi. Deyarli Qushlush qishlog‘idan yo‘l ikkiga bo‘linib ketadi: biri katta, keng yo‘l bo‘lib, Oqrabot yo‘liga olib chiqadi va Anorbuloq chashmasi yonida u bilan qo‘shilib ketadi; ikkinchisi esa birinchisidan o‘ng tomonga qarab ketadi. Bu yo‘l ayniqsa Qushlushdan boshlanish paytida nihoyatda toshli va qiyin yo‘l bo‘lib, tog‘li so‘qmoqlar va juda tor nishabliklardan o‘tadi. So‘ngra yana to Gumbuloq balandligiga qadar Kichik o‘ra daryosi qirg‘oqlari bo‘ylab yurib tekislangan yo‘l boshlanadi [8: 292-296].

Qushlushdan bir yarim tosh uzoqlikdagi janubiy-g‘arbiy tomondagi yo‘lda kesishadigan qoyalik ana shunday deb ataladi.

Gumbuloq ko‘tarilishidan boshlab ikki tomoni tepaliklar bilan o‘rab olingan keng vodiy bo‘ylab yo‘l boshlanadi. Gumbuloqdan keyin qo‘ton yaqinida joylashgan Qorasoch qishlog‘i keladi.

Qorasoch Tangaxo‘ram qishlog‘igacha bir tosh (8 verst).Toza zilol suvli ariqlari ko‘p maydon hududi ham ana shunday ataladi.

Chashmai Hofizjon G‘uzor bekligining chegarasi bo‘lib, undan keyin Darband amlokdorligining yerlari boshlanadi.

Biz tog‘ tizmasining baland nuqtasi hisoblanmish Oqrabot dovoniga yainlashganimiz sari tog‘ archalari va yam-yashil tusga kirgan Chashmai Hofizjon tog‘ balandliklari ko‘rina boshladi. Oqrabot tog‘lari archalarga nihoyatda boy bo‘lgani uchun bu yerdan o‘tinlar eshaklarga ortilib G‘uzor va Qarshiga olib ketiladi.

Biz soatiga o‘rtacha besh yarim verstdan ikki nimchorak soat mobaynida to‘lqinsimon balandliklar ustidan yurdik. Yo‘limiz sharqqa qarab burilganda Chashmai Hofizjondan 12-13 verst masofada uzoqlashganimizni hisobladik. Biz bu paytga kelib sho‘r, ammo zilol suvli qirg‘izlarning qishlovini o‘tkazadigan uncha katta bo‘lmagan Sho‘rsuv qishlog‘iga yetib keldik. Oqrabot dovoniga olib chiqadigan aylanali baland yo‘llar boshlandi. Qarshimizda qoyali tog‘lar ko‘rina boshladi. Yovvoyi tabiat manzarasini yam-yashil daraxtlar chiroyli qilib ko‘rsatar edi [1:121].

Oqrabotdan shimolga qarab yuk yo‘li Qora hoval, Kaltaminor, Yortepa va Shahrisabzga qarab ketadi. Xuddi shu joydan Anorbuloq chashmasi yonidan yana bitta yo‘l Qushlushga (Katta va Kichik O‘ra daryoning qo‘shiladigan joyi) qarab, u yerdan G‘uzorga qarab ketadi [2:103].

Payshanba kuni G‘uzorda bo‘ladigan bozorga borish uchun barcha tog‘liklar yana shu qulay yo‘ldan foydalanishadi. Yortepadan bir tosh uzoqlikda bu yo‘ldan Yakkabog‘ga qarab ketadigan katta va keng yo‘l ajralib chiqadi. Shunday qilib Oqrabot xarobalari yonida biri G‘uzor va Qarshiga olib boruvchi ikkita yo‘l bir-

biri bilan kesishadi va xuddi shu yerdan yo‘lning eng manzarali va eng qiziqarli qismi boshlanadi [8: 292-296]. Bu yerda yo‘l tog‘ qoyalarini bir-biridan ajratib turgan tor daraning ichidan o‘tib tog‘ toshlari bilan qoplanib yotgan nihoyatda tor yo‘lakli tog‘ yonbag‘ridan o‘tib, toshli Chak-chak vodiysiga chiqadi.

Chak-chak darasi esa janubiy-sharqiy yo‘nalish bo‘ylab 9 verst masofaga cho‘zilgan. Vodiydan biz o‘tayotganda qurib qolgan Chak-chak daryo irmog‘i oqib o‘tadi [9:49]. Uncha baland bo‘lmagan tog‘ qoyalari Chak-chak vodiysini har tomondan o‘rab turadi.

XULOSA: XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro amirligi paydo bo‘lib, mang‘itlar sulolasi hokimiyatga kelgach amirlikda 27 beklik tashkil topdi. Shulardan biri G‘uzor bekligi bo‘lib, ushbu, beklikning katta qismi adirlik va tog‘ oldi hududlaridan iborat bo‘lsada, beklik strategik jihatdan savdo yo‘llari (Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz hamda Termiz orqali Afg‘oniston, Eron, Hindiston) kesishgan joyda joylashganligi tufayli G‘uzor shahri muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etgan edi. G‘uzor bekligi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Buxoro amirligida harbiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan yuqori o‘ringa ko‘tarildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mayev N.A. Buxoro xonligi ocherklari. O‘zbek tiliga I.Botirov tarjimasi. – T.: “Fan va texnologiya”., 2012. – B. 109.

2. Маев Н. Очерки горных бекств Бухарского ханство.//Материалы для статистики Туркестанского края. -СПб., 1879. – С. 94.

3. Xasanov A. Janubiy O‘zbekistonda shaharlar shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari (V-XIV asrlar birinchi yarmi misolida). tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2021. – B. 142.

4. Xudoyqulovich, E. A. (2024). Historical geography of the region Naxshab of the medieval period. *Gospodarka i Innowacje.*, *48*, 394-397.

5. Ergashev A. G‘uzor me’morchilik tarixi. – T.: “Hilol-media”, 2019. – B. 89.

6. Khudaykulovich, E. A. (2022). Guzar’s ethymology in Historical Sources. *International Journal of Development and Public Policy*, *2*(3), 135-138.

7. Saidov M. G‘uzor tarix sarhadlarida. — Qarshi: “Nasaf”, 2003. – B. 127.

8. Khudoykulovich, E. A. (2023). ISSUES OF THE HISTORICAL-GEOGRAPHICAL LOCATION OF GUZAR DISTRICT. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, *6*(1), 292-296.

9. Nuriddinov H. G‘uzornoma. -T., 2011. – B. 49.

10. Berdiyev J. Janubiy O‘zbekistonda shaharsozlik va urbanizatsiya tarixi (XVIII-XX asr boshlari) “LESSON PRESS”. – T., 2022. – B. 87.

UDK 94:(575.152)

ILK SHAHAR MADANIYATLARI VA URBANISTIK JARAYONLARNING TARIXIY TAHLILI

Nishonov Jamshid To‘raqul o‘g‘i
Osiyo texnologiyalar universiteti
ORCID-0009-0000-4314-4352

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo hududida urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi hamda qadimgi shaharlarning tarixiy va madaniy taraqqiyoti tahlil etiladi. Arxeologik topilmalar va yozma manbalarga asoslanib, dastlabki shaharlarning vujudga kelishiga ta’sir etgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar o‘rganiladi. Qashqadaryo vohasi va Janubiy Sug‘d hududlaridagi qadimiy shahar yodgorliklari misolida shaharsozlik an’analarining o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqotda shaharlashuv madaniyatining rivojlanish bosqichlari hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: urbanizatsiya, shaharsozlik, antik davr, madaniy aloqalar, Janubiy So‘g‘d, madaniy-mafkuraviy markazlar, ark, shahriston

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАННИХ ГОРОДСКИХ КУЛЬТУР И УРБАНИСТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Нишонов Джамшид Туракул угли
Университет технологий Азии
ORCID: 0009-0000-4314-4352

Аннотация: в данной статье анализируется историко-культурное развитие процессов урбанизации и древних городов в Центральной Азии. На основе археологических и письменных источников исследуются социальные, экономические и культурные факторы формирования первых городов. На примере археологических остатков древних городов Кашкадарьи и Южного Согда показаны особенности градостроительства. В исследовании освещаются закономерности развития городской культуры и её роль в развитии общества.

Ключевые слова: урбанизация, градостроительство, древность, культурные связи, Южный Согд, культурно-идеологические центры, ковчег, шахристан

A HISTORICAL ANALYSIS OF EARLY URBAN CULTURES AND URBANIZATION PROCESSES

Nishonov Jamshid To‘raqul o‘g‘i
Asia University of Technology
ORCID: 0009-0000-4314-4352

Annotation: this article analyzes the historical and cultural development of urbanization processes and ancient cities in Central Asia. Based on archaeological and written sources, it studies the social, economic, and cultural factors in the formation of early cities. Using archaeological remains of ancient cities in Qashqadaryo and South Sughd as examples, the unique features of urban development are highlighted. The research sheds light on the laws of urban culture development and its role in societal progress.

Key words: urbanization, urban planning, antiquity, cultural ties, Southern Sogd, cultural and ideological centers, ark, shahristan

KIRISH: So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonidagi ayrim jihatlarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish muayyan masalalarni yanada aniqroq yoritish imkonini beradi. O‘rta Osiyo, umuman jahon tarixida ro‘y bergan urbanistik (shaharsozlik) jarayonlar xususida turli davrlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarini o‘rganish va qiyoslash, asosida tahlil etish bu jarayonni har tomonlama ta’riflash imkonini beradi [1]. Shuning uchun ham ilk shaharlar tarixini asl manbalar – arxeologik va yozma ma’lumotlarga tayangan holda tahlil etish – jamiyatda ro‘y bergan qadimgi tarixiy-madaniy jarayonlarni anglab yetishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM: XX asrning 70–80-yillarida arxeolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan dissertatsion tadqiqotlarda bronza hamda ilk temir davri shaharlariga oid tarixshunoslik masalalari qisman yoritilgan. Ushbu ilmiy ishlar asosan Janubiy O‘zbekiston, Janubiy Turkmaniston va Farg‘ona vodiysi hududlarida olib borilgan bronza hamda ilk temir davriga oid arxeologik tadqiqotlar natijalariga bag‘ishlangan. Shunga qaramay, mazkur tadqiqotlarda ushbu davr shaharlarining tarixshunoslik jihatidan har tomonlama va chuqur tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ishlab chiqarish, iqtisodiy va tarixiy-madaniy rivojlanish natijasida jamiyat taraqqiyotining avvalgiga qaraganda ancha yuqori darajasiga, ya’ni, shaharlashuv madaniyatiga o‘tishning o‘ziga xos va umumiy qonuniyatlarini o‘rganish hamda tadqiq etish hozirgi kunda uslubiy yondashuvlarning ilmiy-tahliliy yo‘nalishini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotchilarning fikrlariga qo‘shilgan holda, uslubiy jihatdan shaharni faqat yangi shakldagi taraqqiyot sifatidagi an’anaviy emas, balki innovatsion g‘oyalar asosida aholining yangi hududlarni o‘zlashtirishi (sug‘orish

inshootlari, qurilishlar, yangi ko‘rinishdagi maskanlar va h.k.) hamda o‘ziga moslashtirishiga e’tibor berish lozimdir.

Ilmiy-tarixiy adabiyotlardan bizga ma’lumki, bir jamiyatdan boshqa bir jamiyatga o‘tish davrida qurilishlarda o‘zgarish yuz berib, o‘zlashtiruvchi aholi tomonidan shahar markazlarida joylashadigan mahobatli inshootlar – qal’a, saroy va ibodatxonalar majmualarining o‘ziga xos qurilish uslublari yuzaga keladi [2]. Ushbu tarixiy-madaniy jarayonda aholi joylashuvining miqdoriy belgilari turli xo‘jaliklardagi, avvalo, dehqonchilik va hunarmandchilik tizimidagi aholi zichligi bilan o‘xshashlik topadi. Vohalar markazlarini yoki aholi maskanini shahar sifatida izohlashda tashqi miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan birga ichki sifatiy bajargan vazifalar va tuzilishga oid o‘zgarishlar ham muhim hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Bajargan vazifalari asosida tarixshunoslikda Shimoliy Baqtriya shaharlari atrof qishloq xo‘jalik hududlari markazi, ilk davlatchilik markazlari, savdo hunarmandchilik, harbiy-ma’muriy, madaniy-mafkuraviy markazlar kabilarga ajratiladi. Ayrim (Sopolli, Jarqo‘ton, Kuchuktepa, Qiziltepa) hollarda turli vazifalarning sintezi (birikishi) ham kuzatiladi. V.Massonning qayd etishicha, qadimgi shaharlar ma’lum funksiyalarni bajarish bilan birga, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning markazlari ham hisoblanadi. Shuningdek, davlatchilik tizimida ham dastlabki shaharlar butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tarkibiy qismini tashkil etib, uning rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi [3].

Urbanizatsiya jarayoni ma’lum mintaqada jamiyat taraqqiyoti yuqori pog‘onaga ko‘tarilganini tasdiqlaydi. Tadqiqotlarning tahlillari ham shaharlarda yashaydigan aholining ijtimoiy, mulkiy va etnomadaniy belgilariga ko‘ra xilma-xilligi mazkur daraja qanchalik rivojlanganidan dalolat beradi. Bu jihatlar ilk davlatchilik markazlari bo‘lgan yodgorliklarning turli qismlarida (ark, shahriston, qal’a) uchraydigan arxeologik belgilaridagi farqlarda, shaharning turli qismlaridagi madaniy qatlamlardan topilgan ashyolarning ijtimoiy tarkibida, ijtimoiy holatni belgilovchi zeb-ziynat buyumlarining paydo bo‘lishida va mazkur buyumlarni ishlab chiqaruvchi hunarmandchilikning yuqori tabaqalarga xizmat qiluvchi alohida tarmog‘iga aylanishida, dafn marosimini o‘tkazish va me’morchilik qurilmalari (ibodatxonalar va saroylar) barpo etishga ketgan mehnat sarfidagi jiddiy farqlarda o‘z aksini topadi.

O‘tgan asrning oxirlaridan boshlab Qashqadaryoning yuqori va quyi oqimlarining qadimgi tarixini o‘rganish boshlangan bo‘lsada, bu davrlardagi tadqiqotlar arxeologik xarakterga ega emas edi hamda Rossiya imperatorligi ma’murlarining manfaatlariga xizmat kildi [4]. 1950-yillardan boshlab hozirgi kunga qadar davom etayotgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Janubiy Sug‘ddagi ko‘plab ko‘hna shaharlar (Uzunqir, Yerqo‘rg‘on, Qal’ai Zahoki Maron, Shulluktepa va boshq.) qoldiqlari ochib o‘rganilib, shaharlar tarixi bo‘yicha bilimlar sezilarli darajada kengaydi. Janubiy Sug‘dning shahar sivilizatsiyasi

nafaqat O‘zbekiston, balki, butun O‘rta Osiyoda o‘ziga xos mavqega ega ekanligi katta ko‘pchilik olimlar tomonidan e’tirof etilganligi fikrimiz dalilidir.

Janubiy Sug‘ddagi ilk shaharlarning shakllanishi va rivojlanishiga misol qilib Uzunqirni ko‘rsatish mumkin. Uzunqirning mudofaa me’morligi Qashqadaryo vohasidagi ilk temir davri madaniyati yuqori darajada taraqqiy etganligidan guvohlik beradi. Bu mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos yangilikdir. Mil.avv. II asrda shahar markazi hozirgi Kitob o‘rniga ko‘chdi. Fikrimizcha, bu, avvalo, ushbu hududda shahar madaniyati taraqqiyoti uchun barcha shart-sharoit mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lgan [5].

Yerqo‘rg‘on ko‘hna shahri vohadagi eng qadimiy poytaxt shaharlardan hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘hna shahar mil.avv.VII asrdayoq himoya devorlari bilan o‘rab olingan bo‘lsa-da, bu devor saqlanmagan. Ilk devorning qoldiqlari 1990-yilda ko‘hna shahardagi kulolchilik mahallasida aniqlangan. Mil.avv. VI asrga kelib ko‘hna shahar ancha kengayib boradi va 40 gektar maydonni egallab hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan ichki himoya devorlari bilan o‘rab olinadi. Ichki shaharda mahallalar, zich qurilishlar, saroy, ibodatxona shakllanadi. Mill avv III asrga kelib Yerqo‘rg‘on umumiy maydoni 150 gektar bo‘lgan noto‘g‘ri to‘g‘ri burchakli shaharga aylanib, tashqi himoya devorlari bilan o‘rab olinadi [6].

XULOSA: O‘rta Osiyo hududida urbanizatsiya jarayonlarining vujudga kelishi va qadimgi shaharlarning shakllanishi tarixiy-madaniy taraqqiyotning muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Arxeologik hamda yozma manbalarga tayangan tadqiqotlar shaharsozlik taraqqiyotining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqligini namoyon etadi. Janubiy Sug‘d va Qashqadaryo mintaqalaridagi qadimiy shahar yodgorliklarida aniqlangan me’moriy inshootlar, madaniy qatlamlar va turli maishiy buyumlar o‘sha davr jamiyatida murakkab ijtimoiy tuzilma, rivojlangan ishlab chiqarish hamda hunarmandchilik tizimi mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, shaharlar faqatgina aholi istiqomat qiladigan hudud emas, balki davlat boshqaruvi, savdo-iqtisodiy aloqalar va madaniy hayot markazlari vazifasini ham bajargan. Bu holat urbanizatsiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Kelgusida urbanizatsiyaning turli bosqichlarini chuqurroq anglash maqsadida arxeologik va tarixiy izlanishlarni yanada keng qamrovda olib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хакимов А.А. Ўрта Осиёда бронза-илк темир даври урбанизация жараènлари тарихшунослиги (XIX-XX аср бошлари). PhD илм.дар.олиш учун èзилган дисс. Қўлèзма. – Тошкент, 2020. – Б. 60.

2. Ўзбекистон-Қадимги ва Ўрта асрларда: Республика ёш тарихчи олимлари илмий анжуманининг маърузалар баёни. – Самарқанд., 1993.

3. Дьяконов И.М. Проблемы экономики. О структуре общества Ближнего Востока до середины II тыс. до н.э. // ВДИ. – М., 1968. – № 4. – С. 68-80.

4. Эшов Б. Ўрта Осиѐнинг қадимги шаҳарлари тарихи. –Тошкент: Фан ва технология, 2008. – Б. 17.

5. Аҳмедов М. Ўзбекистонда шаҳарсозлик санъатининг шаклланиши..// -Т. Мозийдан садо. 2013 йил 4-сон, 24 б.

6. Буюк ипак йўлидаги Марказий Осиё шаҳарлари: Халқаро илмий анжуман материаллари. – Самарқанд, 1994.

XVIII-XIX ASRLARDA BUXORO AMIRLIGI VA XIVA XONLIGI O‘RTASIDAGI DAVLATLARARO MUNOSABATLAR TIZIMI: SIYOSIY RAQOBAT, IQTISODIY INTEGRATSIYA VA DIPLOMATIK MEXANIZMLAR TAHLILI

Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
https://orcid.org/0009-0003-6958-0605

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi va Xiva xonligining o‘zaro siyosiy, iqtisodiy va elchilik aloqalari tarixiy manbalar hamda ilmiy tadqiqotlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Davlatlararo munosabatlarning shakllanish omillari, savdo tizimi, karvon yo‘llari, diplomatik aloqalar mexanizmi va ularning mintaqaviy barqarorlikka ta’siri yoritiladi. Muallif tomonidan mazkur aloqalarning “raqobat va hamkorlik uyg‘unligi” modeli asosida rivojlanganligi ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Xiva xonligi, diplomatiya, elchilik, karvon savdosi, siyosiy munosabatlar, iqtisodiy aloqalar, Markaziy Osiyo.

СИСТЕМА МЕЖГОСУДАРСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ И ХИВИНСКИМ ХАНСТВОМ В XVIII–XIX ВЕКАХ: АНАЛИЗ ПОЛИТИЧЕСКОГО СОПЕРНИЧЕСТВА, ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ

Бердиев Абдували Абдуганиевич
Шахрисабзский государственный педагогический институт
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-6958-0605

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников и научных исследований проводится комплексный анализ политических,

экономических и дипломатических (посольских) связей между Бухарским эмиратом и Хивинским ханством в XVIII-XIX веках. Рассматриваются факторы формирования межгосударственных отношений, особенности торговой системы, караванных путей, механизмы дипломатических взаимодействий, а также их влияние на региональную стабильность. Автором научно обосновывается, что данные отношения развивались на основе модели “сочетания конкуренции и сотрудничества”.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Хивинское ханство, дипломатия, посольские отношения, караванная торговля, политические отношения, экономические связи, Центральная Азия.

THE SYSTEM OF INTERSTATE RELATIONS BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND THE KHIVA KHANATE IN THE 18TH–19TH CENTURIES: AN ANALYSIS OF POLITICAL RIVALRY, ECONOMIC INTEGRATION, AND DIPLOMATIC MECHANISMS

Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich
Shahrisabz State Pedagogical Institute
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-6958-0605

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the political, economic, and diplomatic (embassy) relations between the Bukhara Emirate and the Khiva Khanate in the 18th-19th centuries, based on historical sources and scholarly research. It examines the factors shaping interstate relations, the structure of trade systems, caravan routes, and the mechanisms of diplomatic interaction, as well as their impact on regional stability. The study substantiates that these relations deve-loped within the framework of a “competition and cooperation synergy” model.

Keywords: Bukhara Emirate, Khiva Khanate, diplomacy, embassy relations, caravan trade, political relations, economic ties, Central Asia.

KIRISH: XVIII-XIX asrlar Markaziy Osiyo tarixida davlatlararo munosabatlarning murakkab va ko‘p qatlamli tizimi shakllangan davr hisoblanadi. Bu davrda Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi aloqalar nafaqat siyosiy raqobat, balki iqtisodiy manfaatlar va diplomatik muvozanat bilan ham belgilanadi.

Mazkur munosabatlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular doimiy qarama-qarshilik va barqaror hamkorlik elementlarini bir vaqtning o‘zida o‘zida mujassam etgan. Bu holat Markaziy Osiyodagi davlatlararo aloqalarning o‘ziga xos modelini — konflikt va kooperatsiya uyg‘unligini shakllantirgan.

ASOSIY QISM: XVIII-XIX asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy parchalanganlik va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning murakkab uyg‘unlashuvi bilan

ajralib turadi. Ayniqsa, Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy, iqtisodiy hamda elchilik aloqalari mintaqaviy barqarorlik va savdo tizimining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Bugungi kunga qadar mavjud ilmiy adabiyotlarda ushbu ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar ko‘pincha alohida yo‘nalishlar — siyosiy tarix yoki savdo aloqalari doirasida parcha-parcha o‘rganilgan. Biroq ularning o‘zaro aloqalarini kompleks tizim sifatida, ya’ni siyosiy raqobat, iqtisodiy manfaatlar va diplomatik institutlar uyg‘unligi asosida tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, unda Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlar yagona integrallashgan tizim sifatida o‘rganilib, ularning mintaqaviy tarixiy rivojlanishdagi o‘rni qayta baholanadi. Shu bilan birga, tarixiy tajriba asosida davlatlararo munosabatlarda iqtisodiy omillarning ustuvorligi va diplomatik mexanizmlarning roli ochib beriladi.

Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy-komparativ (taqqoslama) tahlil, manbashunoslik yondashuvi, tizimli-hududiy yondashuv hamda statistik ma’lumotlarni tahlil qilish metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy-tahliliy, tanqidiy, mantiqiy hamda xronologik yondashuvlar tashkil etadi.

Asosiy e’tibor XVIII-XIX asrlarga oid arxiv hujjatlari, diplomatik yozishmalar va tarixiy manbalarga qaratildi. Jumladan, Markaziy Osiyo tarixini yoritishda muhim o‘rin tutuvchi Chokan Valikhanov, A. G. Rotchev hamda V. V. Velyaminov-Zernov asarlaridagi ma’lumotlar asosida Buxoro amirligi va Xiva xonligining o‘zaro aloqalari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi yo‘nalishlar asosiy tahlil obyekti sifatida tanlab olindi: siyosiy munosabatlarning shakllanish bosqichlari va ularning tarixiy dinamikasi, elchilik aloqalarining institutsional xususiyatlari, savdo aloqalari hamda karvon yo‘llarining iqtisodiy tizimdagi o‘rni, shuningdek, geografik omillarning davlatlararo munosabatlarga ko‘rsatgan ta’siri.

Mazkur yo‘nalishlar doirasida olib borilgan tahlillar natijasida Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi aloqalarning ko‘p qirrali va tizimli xarakterga ega ekani aniqlandi. Xususan, siyosiy munosabatlar hududiy manfaatlar va resurslar ustidan nazorat bilan belgilangani holda, elchilik aloqalari bu jarayonni muvozanatlashtiruvchi diplomatik mexanizm sifatida faoliyat yuritgani kuzatildi. Shu bilan birga, savdo aloqalari va karvon yo‘llari ikki davlat o‘rtasidagi eng barqaror va uzluksiz bog‘lovchi omil bo‘lib, ularning iqtisodiy hayotida muhim o‘rin egallagan.

Geografik omillar, jumladan, Amudaryo havzasi, cho‘l hududlari va transport yo‘nalishlarining mavjudligi davlatlararo munosabatlarning yo‘nalishi va

xarakterini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Natijada, ushbu yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida Buxoro va Xiva o‘rtasidagi munosabatlar siyosiy raqobat va iqtisodiy hamkorlik uyg‘unligida rivojlangan murakkab tarixiy tizim sifatida baholandi.

Birinchidan, Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy hamda elchilik aloqalari kompleks tizim sifatida tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ikkinchidan, elchilik aloqalarining siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi institutsional mexanizm sifatidagi o‘rni aniqlashtirildi. Uchinchidan, karvon yo‘llari va savdo tizimining mintaqaviy iqtisodiy integratsiyadagi ahamiyati qayta baholandi. Shuningdek, tashqi omillar, xususan Rossiya ta’sirining Buxoro-Xiva munosabatlariga ko‘rsatgan ta’siri tizimli ravishda yoritildi..

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlar siyosiy raqobat, iqtisodiy hamkorlik va diplomatik aloqalar uyg‘unligida shakllangan. Xususan, siyosiy ziddiyatlar asosan hududiy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsada, elchilik aloqalari ularni tartibga soluvchi muhim mexanizm sifatida faoliyat yuritgan.

Shu bilan birga, karvon savdosi ikki davlat o‘rtasidagi eng barqaror aloqalar shakli bo‘lib, savdo manfaatlari ko‘pincha siyosiy qarama-qarshiliklardan ustun kelgan. Karvon yo‘llari esa nafaqat iqtisodiy, balki diplomatik va madaniy aloqalar rivojida ham muhim rol o‘ynab, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirgan.

XIX asrga kelib tashqi omillar, xususan Rossiya imperiyasi ta’siri kuchayib, Buxoro va Xiva o‘rtasidagi an’anaviy munosabatlar tizimining o‘zgarishiga olib kelgan.

Buxoro va Xiva o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar asosan hududiy manfaatlar bilan belgilanib, ayniqsa Amudaryo havzasi strategik ahamiyat kasb etgan. “Amudaryo bo‘yidagi hududlar ustidan nazorat masalasi ikki davlat o‘rtasidagi nizolarning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan” [1:145-b]. Mazkur siyosiy qarama-qarshiliklarning iqtisodiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Amudaryo nafaqat tabiiy chegara, balki irrigatsiya, savdo va transport tizimining markazi bo‘lgan.

Buxoro va Xiva o‘rtasidagi siyosiy kurashni oddiy hududiy nizolar sifatida emas, balki iqtisodiy resurslar ustidan nazorat uchun olib borilgan strategik siyosat sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda elchilik tizimi muhim o‘rin tutgan. Elchilar orqali nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy masalalar ham muhokama qilingan. Xanikov N. “Opisanie Bukharskogo khanstva” asarida “Elchilar davlatlar o‘rtasidagi ishonchni saqlash va muzokaralarni davom ettirishda asosiy vosita bo‘lgan” [2:98-b]. Elchilik aloqalari ikki davlat o‘rtasidagi nizolarni yumshatishda muhim rol o‘ynagan. Bu diplomatik tizim Markaziy Osiyoda o‘ziga

xos siyosiy madaniyat shakllanganini ko‘rsatadi. Elchilik aloqalarini faqat diplomatik vosita sifatida emas, balki siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi institutsional mexanizm sifatida baholash lozim.

Shuningdek Buxoro va Xiva o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar asosan karvon savdosi orqali amalga oshirilganligi. A.Burnesning “Travels into Bokhara” asarida “Ikki davlat o‘rtasidagi savdo aloqalari muntazam bo‘lib, ipak, paxta va chorvachilik mahsulotlari asosiy savdo obyektlari hisoblangan” [3:210-b] haqida yozadi. Ushbu asarda XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo, xususan Buxoro amirligi va unga tutash hududlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Asar 1834-yilda Londonda nashr etilgan bo‘lib, muallifning 1831-1833-yillarda amalga oshirgan sayohatlari asosida yozilgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Mazkur asarda Burnes Buxoro amirligi, Xiva xonligi hamda ularga qo‘shni hududlar haqida batafsil ma’lumotlar beradi. U o‘z kuzatuvlari asosida mintaqadagi savdo yo‘llari, karvon tizimi, bozorlardagi savdo muomalalari, tovarlar tarkibi va savdogarlarning faoliyatini tasvirlab beradi. Ayniqsa, Buxoro orqali o‘tgan xalqaro savdo yo‘llari va uning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rni alohida ta’kidlangan.

Burnes asarida Buxoro va Xiva o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar ham bevosita yoritiladi. Unga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasida savdo karvonlari muntazam harakatlanib, ular orqali ipak, paxta, jun mahsulotlari hamda turli hunarmandchilik buyumlari ayirboshlangan. Muallif savdo jarayonlarining faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy va diplomatik ahamiyatga ham ega ekanini qayd etadi.

Shuningdek, asarda elchilik aloqalari va diplomatik munosabatlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar mavjud. Burnesning yozishicha, mintaqadagi davlatlar o‘rtasida elchilar orqali muntazam aloqa olib borilgan bo‘lib, ular savdo xavfsizligi, bojxona masalalari va siyosiy kelishuvlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynagan.

Shu nuqtayi nazardan, savdo aloqalarining muntazamligi iqtisodiy munosabatlarning tasodifiy emas, balki aniq tizim asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Karvon savdosi orqali amalga oshirilgan doimiy tovar almashinuvi ikki davlat o‘rtasida barqaror iqtisodiy aloqalar mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Mazkur jarayon siyosiy ziddiyatlar mavjud bo‘lgan sharoitda ham iqtisodiy manfaatlar ustuvor ahamiyat kasb etganini tasdiqlaydi.

Natijada, iqtisodiy aloqalar Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlarning eng barqaror va uzluksiz elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa tarixiy tajriba asosida iqtisodiy omillar ko‘pincha siyosiy qarama-qarshiliklardan ustun kelganini va davlatlararo munosabatlarda muvozanatni ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

Karvon yo‘llari ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning asosiy infratuzilmasi hisoblangan. Ahmad Donishning *“Navodir ul-vaqoe”* asarida “Karvon yo‘llari orqali nafaqat tovarlar, balki siyosiy va madaniy aloqalar ham rivojlangan” [4:56-b] haqida keng ma’lumotlar berilgan.

Ushbu asarda XIX asr Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini yorituvchi muhim tarixiy-adabiy manbalardan biri hisoblanadi. Asar muallifning bevosita kuzatuvlari, davlat boshqaruvida ishtirok etgan tajribasi hamda tanqidiy qarashlari asosida yozilgan bo‘lib, unda davrning real tarixiy manzarasi aks ettirilgan.

Mazkur asarda Buxoro amirligining ichki boshqaruv tizimi, amaldorlar faoliyati, sud-huquq tizimi hamda davlatning tashqi siyosiy aloqalari haqida muhim ma’lumotlar beriladi. Ayniqsa, Ahmad Donish davlat boshqaruvidagi kamchiliklarni ochiq tanqid qilish orqali o‘z davrining ilg‘or fikrli mutafakkiri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat asarning ilmiy va manbashunoslik ahamiyatini yanada oshiradi.

“Navodir ul-vaqoe”da Buxoro amirligining qo‘shni davlatlar, jumladan Xiva xonligi bilan munosabatlari ham bilvosita yoritiladi. Muallif davlatlararo aloqalarda siyosiy ehtiyotkorlik, diplomatik muvozanat va iqtisodiy manfaatlarning muhim o‘rin tutganini qayd etadi. Ayniqsa, savdo aloqalari va elchilik munosabatlari orqali davlatlar o‘rtasida muayyan barqarorlik saqlab turilganiga e’tibor qaratiladi.

Asarda iqtisodiy hayot masalalari ham alohida o‘rin egallaydi. Ahmad Donish savdo tizimi, hunarmandchilik, soliq siyosati va bozorlardagi muomala haqida fikr yuritar ekan, iqtisodiy islohotlarning zarurligini ilgari suradi. Uning qarashlarida iqtisodiy taraqqiyot davlat qudratining asosiy omillaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, asarda diplomatik aloqalar va elchilik institutining ahamiyati ham bilvosita yoritilib, davlatlararo munosabatlarda murosaga asoslangan siyosat yuritish zarurligi ta’kidlanadi. Bu esa Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bu asar boshqa asrlardan farqli tomoni shundaki, Buxoro amirligining ichki siyosiy va ijtimoiy hayotini bevosita aks etishi, davlat boshqaruvi va diplomatik munosabatlar haqida muhim ma’lumotlar berishi, iqtisodiy tizim va savdo aloqalarini tahlil qilish imkonini yaratishi va muallifning tanqidiy yondashuvi orqali davr muammolarini ochib berganligi tomonida farqlanadi.

Karvon yo‘llari mintaqaviy integratsiyaning asosiy omili bo‘lib xizmat qilgan. Ular orqali nafaqat savdo, balki axborot va diplomatik aloqalar ham amalga oshirilgan. Karvon yo‘llarini zamonaviy “transport-logistika tizimi”ning tarixiy shakli sifatida baholash mumkin.

Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asari Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy hamda diplomatik aloqalarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib, undagi tahliliy fikrlar orqali davlatlararo munosabatlarning ichki mohiyatini chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Buxoro va Xiva o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lgan. Davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar bir vaqtning o‘zida ham raqobat, ham hamkorlik xususiyatiga ega bo‘lgan. Bu holat davlatlararo munosabatlarning murakkab va ko‘p qatlamli tabiatini ko‘rsatadi.

Mazkur munosabatlarni “raqobatbardosh hamkorlik modeli” sifatida baholash mumkin. Bu model zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasida ham dolzarb hisoblanadi.

XIX asrga kelib tashqi kuchlar, xususan Rossiya imperiyasi, mintaqadagi munosabatlarga ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu holat ichki munosabatlarning tashqi geopolitik omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tashqi ta’sirlar Buxoro va Xiva o‘rtasidagi an’anaviy muvozanatni buzgan va yangi siyosiy vaziyatni yuzaga keltirgan.

XULOSA: Xulosa o‘rnida tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlar siyosiy raqobat, iqtisodiy manfaatlar va diplomatik aloqalar uyg‘unligida shakllangan murakkab tizimni tashkil etgan. Xususan, Amudaryo havzasi ustidan nazorat uchun kurash siyosiy ziddiyatlarning asosiy omili bo‘lgan bo‘lsa-da, elchilik aloqalari bu jarayonni muvozanatlashtirib, barqarorlikni saqlashga xizmat qilgan.

Shu bilan birga karvon savdosi ikki davlat o‘rtasidagi eng barqaror bog‘lovchi omil bo‘lib, ipak, paxta va hunarmandchilik mahsulotlari almashinuvi iqtisodiy aloqalarning uzluksizligini ta’minlagan. Savdo manfaatlarining ustuvorligi siyosiy qarama-qarshiliklarni cheklab, mintaqaviy integratsiyaning kuchayishiga olib kelgan.

Natijada Buxoro va Xiva o‘rtasidagi munosabatlar “raqobat va hamkorlik uyg‘unligi” modeli asosida rivojlangan bo‘lib, bu tajriba davlatlararo aloqalarda iqtisodiy va diplomatik omillarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Издательство Академии наук, 1963. – Т. 1. – 760 с.

2. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1843. – 282 с.

3. Burnes A. Travels into Bokhara: Being the Account of a Journey from India to Cabool, Tartary and Persia. – London: John Murray, 1834. – Vol. I-II. – 566 p.

4. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое. – Тошкент: Fan, 1960. – 196 б.

5. Abduganievich, B. A., & Dilshod, M. (2020). SPECIAL INFORMATION ABOUT FOREIGN TRADE AND DIPLOMATIC RELATIONS IN THE 18TH CENTURY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(1).

6. Abduganievich, A. B. (2022). REVIEW OF KHIVA KHANATE'S FOREIGN DIPLOMATIC RELATIONS WITH NEIGHBORING STATES IN ABULGAZI'S WORKS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(7), 83-86.

«БЕССМЫСЛЕННЫЙ И БЕСПОЩАДНЫЙ» ХОЛЕРНЫЙ БУНТ (СОБЫТИЯ В ТАШКЕНТЕ 24 ИЮНЯ 1892 ГОДА)

С.Н. Брежнева, д.и.н., профессор,
Ленинградский государственный университет им. А.С. Пушкина

Аннотация. В статье речь идет о «холерном бунте», произошедшем в Ташкенте в 1892 году. Автор, анализируя причины возникновения бунта, приходит к выводу, что любое событие может быть объяснено и использовано в интересах экстремистских сил. Для правильного вывода о причинах восстания, необходимо всестороннее и взвешенное изучение источников.

Ключевые слова: Ташкент, холера, эпидемия, противоэпидемические меры, недовольство населения, беспорядки, подавление.

«BEMA'NI VA AYOVSIZ» VABO QO'ZG'OLONI (TOSHKENTDA 1892-YIL 24-IYUNDA SODIR BO'LGAN VOQEALAR)

S.N. Brejneva,
tarix fanlari doktori, professor,
A.S. Pushkin nomidagi Leningrad davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1892-yilda Toshkentda ro'y bergan "vabo qo'zg'oloni" haqida so'z boradi. G'alayon sabablarini tahlil qilar ekan, muallif har qanday hodisani ekstremistik kuchlar manfaatlarini ko'zlab tushuntirish va undan foydalanish mumkin, degan xulosaga keladi. Qo'zg'olon sabablarini to'g'ri aniqlash uchun manbalarni har tomonlama va muvozanatli o'rganish zarur.

Kalit so'zlar: Toshkent, vabo, epidemiya, epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, xalq noroziligi, notinchlik, bostirish.

THE “SENSELESS AND MERCILESS” CHOLERA RIOT (THE EVENTS IN TASHKENT ON JUNE 24, 1892)

S.N. Brezhneva, Doctor of Historical Sciences, Professor, Pushkin Leningrad State University

Abstract. The article deals with the "cholera riot" that occurred in Tashkent in 1892. The author, analyzing the causes of the riot, comes to the conclusion that any event can be explained and used in the interests of extremist forces. For a correct conclusion about the causes of the uprising, a comprehensive and balanced study of the sources is necessary.

Key words: Tashkent, cholera, epidemic, anti-epidemic measures, discontent of the population, riots, suppression.

Одно из древнейших заболеваний, известных человечеству, холера буйствовала в Туркестанском крае с начала XIX века. С этого времени медицинской науке известны шесть пандемий холеры. Во время первой пандемии 1816-1823 г. холера дошла до Астрахани, а во время второй - 1827-1838 г. – через Оренбург достигла Европы. В русских источниках о существовании холеры в Средней Азии впервые упоминалось в 1827-1829 годах в медицинском исследовании врача А.В. Попова «Холера 1829—1833 годов в Оренбургском крае», опубликованном в 1910 г. в XXI выпуске Трудов Оренбургской ученой архивной комиссии. Он писал, что эта страшная болезнь была завезена в Оренбургский край среднеазиатскими купцами из Бухары и Хивы, где она была частой гостьей. Рассадником заболевания называлась Бухара, по свидетельству ташкентского купца Заитбая, даже бухарский эмир, опасаясь болезни, в марте 1829 г. выехал из Бухары в Самарканд. Согласно донесению походного старшины Средней части киргизов Ибрагима Валитова, болезнь, называемая «Ваба», свирепствовала и в Ташкенте [10, с.18-23].

Об опасной эпидемиологической ситуации в Средней Азии русское правительство было осведомлено задолго до присоединения этой территории. Страшные заболевания проникали из-за рубежа, часто в результате паломничества мусульман в Мекку и в «святые» города в Персии и Ираке, и попадали на благоприятную почву, основой которой являлась антисанитария, царившая в туркестанских городах и селениях.

Так, проводивший медицинские исследования в Туркестане сибирский антрополог и хирург П.В. Путилов отмечал отсутствие элементарных удобств в жилищах местных жителей, указывая, что в холодное время года

из-за отсутствия печей в их домах они вынуждены согревать ноги на так называемых «сандалах», что является причиной частых простуд и кожных заболеваний, не говоря уже о вреде угарного воздуха [11, с.19]. Он же свидетельствовал о существовании в Ташкенте квартала прокаженных, называемом «Кишлак Махао» [11, с.20-23].

Известный туркестановед, историк и этнограф Н.П. Остроумов, проживший большую часть своей жизни в Ташкенте, также отмечал крайне низкий уровень санитарного состояния местного населения. Он считал, что от повальных эпидемий жителей спасает только климат, позволяющий большую часть жизни проводить на свежем воздухе, а также умеренность в еде. В домах отсутствуют окна и печи, для того, чтобы согреться люди разогревают жаровню с углями, что само по себе крайне негигиенично [9, с.67]. Он отмечал также высокую детскую смертность, особенно в младенчестве, причиной чего является отсутствие гигиены и нежелание матерей обращаться за своевременной медицинской помощью к русским врачам, а также отсутствие элементарных прививок.

Об антисанитарии в жилищах туркестанцев писали также супруги Наливкины [8, с.78], прожившие несколько лет среди сартов, и изучившие их язык и традиции. Они же свидетельствовали о крайне низком уровне местной медицины [8, с.72]. Красноречиво писал об этом в своих мемуарах начальник канцелярии туркестанского генерал-губернатора, почти сорок лет прослуживший в Туркестане Г.П. Федоров, свидетельствуя об отсутствии самых элементарных требований чистоты и гигиены и сравнивая жилища «туземцев» с Авгиевыми конюшнями [13, с.458].

Летом 1872 года в Ташкенте вспыхнула эпидемия холеры. Этнограф А.И. Добросмыслов в своем историческом очерке «Ташкент в прошлом и настоящем» назвал количество заболевших, из которых больше половины умерло, с оговоркой, что цифры не являются точными, т.к. ташкентские сарты (коренное население) прятали погибших, чтобы похоронить их по мусульманскому обычаю [3, с.484]. Холера тогда свирепствовала чуть более двух месяцев.

Через двадцать лет эпидемия повторилась и привела к так называемому «холерному бунту». Отношение к данному событию у историков менялось сообразно времени.

В советский период «холерный бунт» был причислен к национально-освободительному и революционному движению против царской власти. Поводом для восстания называли меры, направленные против эпидемии холеры. Главной же его причиной было тяжелое положение дехкан, ремесленников-кустарей и мардикеров, беспрерывный рост цен и

злоупотребления городских чиновников. Подчеркивалось, что восстание не носило антирусского характера, т. к. «ни одно русское учреждение, ни одна русская лавка не подверглись разгрому» [14, с.295]. Но спровоцирован был бунт грубыми действиями начальника города полковника С.Р. Путинцева, после избиения которого толпой, были вызваны казачий полк и солдаты, расстрелявшие толпу. «Расправа над участниками восстания продемонстрировала решимость царских властей искоренить жестокими и беспощадными методами массовое народное движение на колониальных окраинах Российской империи» [14, с.296] - так в соответствии с советскими традициями классового подхода давалось объяснение.

В постсоветский период в государствах Центральной Азии акцент сместился в сторону «колониального русского правления» в Туркестане, которое «попирало права коренного населения». Исходя из этого, и вынужденные противохолерные эпидемические меры объяснялись как целенаправленные действия колониальных властей против традиций коренного населения края. Причины бунта заключались в недовольстве населения политикой царских колонизаторов [4, с.143]. Основным лозунгом восставших назывался протест против царской администрации и смена городских властей. Однако подчеркивалось, что восстание «пока еще» [4, с.145] не носило политического характера в сравнении с разразившимся вскоре Андижанским восстанием 1898 года.

О холерном бунте в современной российской исторической литературе пока еще нет специальных исследований. Это событие описано в книге Е.А. Глущенко «Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования» [2, с.525-526], оно затронуто в монографиях В.П. Литвинова [5, с.254; 6, с.472]. Для того, чтобы представить себе наиболее достоверную картину произошедших событий лучше всего обратиться к мемуарам очевидцев и современников. Сопоставление материалов даст возможность разобраться в причинах произошедшего холерного бунта.

В историческом очерке А.И. Добросмыслова причины холерного бунта, его ход и подавление описаны достаточно подробно. В мае 1892 г., когда в Ташкенте разразилась эпидемия холеры, российская администрация приняла ряд необходимых мер, которые не были хаотичным введением, а напротив, представляли собой глубоко продуманные мероприятия в соответствии с Уставом о карантинах, введенного на всей территории Российской империи в 1866 году [1, с.193-218]. В целях нераспространения эпидемии коренному населению Туркестана были запрещены похороны по мусульманскому обряду (согласно которому покойников хоронили на следующий день), были закрыты кладбища, покойников разрешалось хоронить только на одном

кладбище, находящимся за городом, на могилах проводилась дезинфекция. Предусматривался также осмотр тел умерших, а поскольку трупов было очень много, а медицинского персонала недостаточно, то осмотр откладывался, в условиях невыносимой жары трупы разлагались.

В этих условиях по городу поползли слухи о преднамеренных действиях русских с целью погубить местное население. Так, среди жителей Ташкента стали распространяться слухи об отравлении мусульман «белым порошком», который дает доктор, или о заражении воды в арыках [3, с.485]. Обстановка еще более усугубилась борьбой между сторонниками старшего аксакала Иногам-ходжы, отстраненного от должности за два месяца до начала эпидемии военным губернатором Сырдарьинской области Н.И. Гродековым, и защитниками нового главы города Магомет-Якуба. Иногам-ходжа и его сторонники, воспользовались холерой для того, чтобы навредить Магомет-Якубу, распуская разные нелепые слухи, а Магомет-Якуб со своей стороны, как власть имеющий, старался теснить противников.

Этот клубок противоречий привел к восстанию 24 июня. Накануне начальник Ташкента С.Р. Путинцев в мечети Джам в присутствии десятитысячной толпы мусульман, поздравив предварительно их с праздником Курбан-байрам, разъяснил, что противохолерные меры необходимы для профилактики эпидемии. По свидетельству Добросмыслова, речь Путинцева была выслушана с большим вниманием [3, с. 486]. Он спокойно вернулся домой, сопровождаемый празднично одетой толпой, которая приветствовала его с поклоном. Казалось бы, ничего не предвещало социального взрыва.

На следующий день старший аксакал Магомет-Якуб доложил Путинцеву о тайных похоронах больных холерой и о том, что народ собирается к нему с жалобой. С.Р. Путинцев, по свидетельству очевидца событий Г.П. Федорова, человек «честный, умный и энергичный» [13, с.458], отправился навстречу толпе, встретив ее на углу Воронцовского проспекта и Самаркандской улицы, пообещал разобраться и пригласил всех в канцелярию. Федоров пишет, что ничто не сулило трагедии: «Не предполагая ничего угрожающего, все мы с любопытством смотрели на эту толпу, шумливо, но без беспорядков двигавшуюся по улицам по направлению к дому начальника города, по адресу которого из толпы раздавались угрозы» [13, с.459]. Однако, Магомет-Якуб, вероятно, зная, что основной гнев толпы направлен против него, поспешил ретироваться. Таким образом, С.Р. Путинцев остался один на один с беснующейся толпой. Достигнув крыльца канцелярии, Путинцев спешился, но после его отказа

выдать толпе на растерзание старшего аксакала, он был сбит с ног, в него полетели камни.

От очнувшегося после непродолжительного обморока начальника города толпа стала требовать подписки, что холеры в городе нет, врачи уберутся из города, и покойников по-прежнему будут хоронить в соответствии с законом шариата. Возмущенные люди требовали также выдачи старшего аксакала. Путинцев, мужественно выдержав напор толпы, вновь ответил отказом. Полицмейстеру русской части города Крючкову было дано распоряжение немедленно доложить о происходящем военному губернатору Н.И. Гродекову. Появились помощник начальника города Н.С. Лыкошин (примечательно, что в своих мемуарах Лыкошин никак не упоминает о «холерном бунте», очевидцем которого он был) [7], и член городской управы В.П. Новгородский, и все втроем стали увещевать толпу, но это продолжалось всего несколько минут, как из калитки показались солдаты с ружьями. Толпа бросилась врассыпную «но солдаты и русские добровольцы бросились за ними и били нещадно тех из туземцев, кто только попадался им под руку», при этом в толчее многие попадали в реку Анхор. По некоторым сведениям, из Анхора на следующий день было выловлено 80 трупов, «а всех погибших во время беспорядков, не преувеличивая, можно считать до 100 человек» [3, с.488].

В это время появился отряд Гродекова, которому без труда удалось очистить от бунтующих русскую часть города. Вскоре стали появляться вызванные из лагеря казаки; а потом и пехота. С.Р. Путинцев, к этому времени совершенно потерявший силы (у него было 14 ран, в том числе одно сломанное ребро), был отвезен к себе на квартиру. В 2 часа Н.И. Гродеков приказал в Старом городе оставить 2 сотни казаков и 4 роты пехоты, разместив их в мечети Джам, а остальным войскам поместиться в казармах ближайших к Старому городу. Сам Н.И. Гродеков оставался в Старом городе трое суток. Восстание было подавлено.

Холерный бунт произвел шокирующее впечатление на русскую часть населения Ташкента, который казался спокойным городом. Г.П. Федоров пишет: «…население, особенно женское, испытывало панический страх. И действительно, при малочисленности русских, двухсоттысячное нафантазированное население могло в любую ночь перерезать всех нас, как цыплят» [13, с.460].

На следующий день в Ташкент прибыл генерал-губернатор Туркестанского края барон А.Б.Вревский, находившийся на отдыхе на своей даче в Чимгане. Через день, по его распоряжению, все аксакалы и казии лишились должностей. По результатам расследования 60 участников

бунта предстали перед военным судом, 25 были оправданы, восемь приговорены к повешению (впоследствии помилованы Вревским), остальные отправлены в тюрьмы и ссылки. [2, с.526]. 30 июня, по настойчивой просьбе населения, войска были выведены из Старого города.

Как свидетельствует Федоров, барон Вревский, по возвращении из Чимгана «заявил нам, что он решительно отказывается понять панику русского населения, признает ее малодушием, не имеющим никакого основания» [13, с.460]. После чего он опять отправился в Чимган и, отбыв там положенный срок, возвратился в успокоенный Ташкент. Федоров пишет, что такое хладнокровие генерал-губернатора отрезвляюще подействовало на всех, и паника прекратилась. Однако, это не единственная точка зрения. Многими современниками за скоропалительный отъезд в Чимган Вревский был подвергнут осуждению.

Холерный бунт сказался на карьере подавившего его Н.И. Гродекова и пострадавшего С.Р. Путинцева. Оба были отстранены от занимаемых должностей. В Старом городе Ташкента появилась русская полиция. И вскоре жизнь в Ташкенте нормализовалась.

Казалось бы, смысл мероприятий, проводимых русской администрацией перед лицом страшной эпидемии, вполне понятен. Разумеется, руководство отдавало себе отчет в том, что психология и обычаи коренного населения будут затронуты. Однако на кону находилось либо попрание интересов населения, либо спасение людей. Невежественный народ истолковал иначе меры правительства. И без того тонкая грань между разными религиями не выдержала напора со стороны антирусски настроенной части духовенства, которое, безусловно внесло свою лепту в разворачивание событий по наихудшему сценарию. Сыграл определенную роль и человеческий фактор, выразившийся в противостоянии прежнего и нового аксакалов.

«Усмирение» холерного бунта в конечном итоге привело к тому, что большой частью коренного населения были правильно восприняты противоэпидемические мероприятия русской власти. Примечательно, что в своей записке от 11 января 1894 г. А.Н. Куропаткин, бывший с 1890 по 1898 г. начальником Закаспийской области отвечая на утверждение туркестанского генерал-губернатора А.Б. Вревского об ослаблении русской власти в Туркестане, возражал ему: «Были холерные бунты, но они были и в других частях России (Саратове, Астрахани) – это не свидетельствует об ослаблении власти. Напротив, ташкентские беспорядки дали возможность убедиться в преданности туземного населения…» [12, л.5].

История знает множество примеров, когда реакцией на эпидемии

становились восстания и погромы. Однозначно оценить их невозможно. Ясно лишь, что всегда найдутся силы, желающие обернуть в свою пользу события, даже связанные с эпидемией, которая может грозить и им самим и их близким. Можно представить дело таким образом, что подобные бунты происходят в неблагополучных регионах, однако мы наблюдаем стихийные бунты и в относительно благополучных частях земного шара. Если говорить о последствиях, то мы знаем немало примеров тому, что эпидемии могут сказаться на нарушении политического баланса. Мир очень хрупок, и любая пандемия может оказать влияние на глобальные связи.

Библиографический список:

1. Высочайше утвержденный Устав о карантинах. 1 марта 1866 года // ПСЗРИ- 2. Т. 41. Отд. 1. СПб., 1868. № 43061. С. 193-218.
2. Глущенко Е.А. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования: монография. М. Центрполиграф, 2010. 576 с.
3. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем Т.: эл. пар. типо-лит. О.А. Порцева, 1912. 520 с.
4. История народов Узбекистана. Т.2. Ташкент: Изд-во «Фан» АН РУ. 1993. 219 с.
5. Литвинов В.П. Внерегиональное паломничество мусульман Туркестана (эпоха нового времени): монография. ЕГУ им. И.А. Бунина, 2006. 377 с.
6. Литвинов В.П. Государство и паломничество мусульман в царской России: туркестанский вариант: монография. Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2016. 565 с.
7. Лыкошин Н.С. Полжизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. Пг.: Т-во В. А. Березовский, 1916. 415 с.
8. Наливкин В.П., Наливкина М.В. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань: Типография Императорского университета. 1886. 244 с.
9. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Общий очерк. Общий очерк. Ташкент: Типо-Литография торг.дома «Ф. и Г. Бр. Каменские», 1908. 297 с.
10. Попов А.В. Холера 1829-1833 годов в Оренбургском крае. Историческое исследование врача // Труды ОУАК. Вып. 21. Оренбург, 1910. 361 с.
11. Путилов П.В. Из путевых этнографических наблюдений совместной жизни сарт и русских: (сообщ. чл.-с. Западносиб. отд. Рус. геогр. о-ва, чит. в заседании отд. 26 окт. 1887 г.). Омск. 1887. 30 с.

12. Российский государственный военно-исторический архив (РГВИА). Ф.165. Оп.1. Д. 293.

13. Федоров Г.П. Моя служба в Туркестанском крае (1870-1906 года) // Исторический вестник. 1913, № 11. С. 437-467.

14. Хидоятов Г.А. Моя родная история. Ташкент: ФАН, 1990. 304 с.

QADIMGI SHARQDA TARBIYAGA OID YOZILGAN KITOBLAR

Raxmonova Maxfuza Xolmurodovna
Qarshi davlat universiteti, Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari kafedrasi mudiri dotsent, Pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi insoniyat tarixida nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Eramizdan avvalgi ming yilliklarda qadimgi Misrda, qadimgi Hindistonda, qadimgi Xitoyda, qadimgi Eron va Turon zaminida shakllangan falsafiy ta’limotlarda inson va olam masalalari, inson tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan. Qadimgi Xitoyning “She’rlar to‘plami”da inson tarbiyasi bog‘liq fikrlar mifologik-diniy xarakterda bo‘lib, ularda inson axloqi, odobi, insoniy fazilatlar ulug‘lanadi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, axloqiy tarbiya, huquqiy tarbiya, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, mifologiya,”Avesto”, “Injil” va “Qur’on”.

КНИГИ О ВОСПИТАНИИ, НАПИСАННЫЕ НА ДРЕВНЕМ ВОСТОКЕ

Рахмонова Махфуза Холмуродовна
Каршинский государственный университет, заведующая кафедрой «Национальная идея и основы духовности», доцент, кандидат педагогических наук

Аннотация: Цивилизация Древнего Востока занимает чрезвычайно важное место в истории человечества. В философских учениях, сформировавшихся в древнем Египте, древней Индии, древнем Китае, древнем Иране и на территории Турана в тысячелетиях до нашей эры, рассматривались вопросы человека и окружающего мира, а также проблемы, связанные с воспитанием человека. Например, в древнекитайском «Сборнике песен» идеи, связанные с воспитанием человека, носят мифологически-религиозный характер, при этом в них возвеличиваются нравственность, культура поведения и человеческие добродетели.

Ключевые слова: воспитание, нравственное воспитание, правовое воспитание, умственное воспитание, эстетическое воспитание, физическое воспитание, трудовое воспитание, мифология, «Авеста», «Евангелие», «Коран».

BOOKS ON EDUCATION AND UPBRINGING WRITTEN IN THE ANCIENT EAST

Raxmonova Maxfuza Xolmurodovna
Head of the Department of National Idea and Foundations of Spirituality, Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Karshi State University

Abstract: The civilization of the Ancient East occupies an exceptionally important place in human history. Philosophical teachings that emerged in ancient Egypt, ancient India, ancient China, ancient Iran, and the land of Turan during the millennia BCE addressed issues concerning human beings and the world, as well as problems related to human upbringing and education. For example, in the ancient Chinese "Book of Songs," ideas concerning human upbringing are presented in a mythological and religious context, emphasizing morality, proper conduct, and human virtues.

Keywords: upbringing, moral education, legal education, intellectual education, aesthetic education, physical education, labor education, mythology, "Avesta," "Gospel," "Qur'an."

KIRISH: Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga Markaziy Osiyo mutafakkirlari turli fan sohalaridagi ilmiy asarlari bilan katta hissa qo‘shganlar. Qadimgi Sharqda har tomonlama mukammal, ya’ni, barkamol insonni voyaga yetkazish, uning ma’naviy qiyofasida ezgulik g‘oyalarini shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalash borasida o‘ziga xos falsafiy, pedagogik ta’limotlar qarashlar sistemasi shakllangan. Qadimgi sharq mutafakkirlari islom dinining muqaddas kitoblari Qur’oni Karim va Hadisi Sharifda insonni axloqiylikka, ezgulikka chorlovchi g‘oyalarini o‘z asarlarida rivojlantirganlar.

ASOSIY QISM. Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarida barkamol inson shaxsini tarbiyalash masalasi inson va olam to‘g‘risidagi falsafiy fikrlar dinamikasida tadqiq qilingan bo‘lib diniy, ilmiy – falsafiy yo‘nalishda rivojlantirilgan. Inson va olam aspektidagi diniy-falsafiy ta’limotlarda barkamol inson, mukammal inson shaxsi "barkamol inson", "komil inson" tushunchalarida mujassamlashtirilgan. Bunday insonni tarbiyalash borasida vatandoshimiz milodiy XII asr boshida qadimgi Nasaf shahrida yashab o‘tgan, (hozirgi Qarshi shahri) Aziziddin ibn Nasafiyning " Insoni komil" 22 risolalardan iborat to‘plam bo‘lib, undagi risolalar "Manozil ussoyirin" (Yo‘lovchilar qo‘nalg‘asi)ning ba’zi nusxalarida uchraydi. Ushbu asar 556 sahifa bo‘lib irfon va hikmatlarga oid nozik tushunchalardan bahs yuritadi. Irfon va hikmat masalalari va asosi haqida "Bayot ut-tanzil" kichik va muxtasar kitobini yozgan [1]. Shuningdek, uning "Nafsi insoniy", "Vahtati vujud" asarlarida inson to‘g‘risida, insoniy fazilatlarni

shakllantirish, inson tarbiyasi haqida fikrlar ilgari surilgan. Allomaning fikriga ko‘ra odobli muomalaga ega, ya’ni yaxshi so‘zli, yaxshi fe’lli, yaxshi odob va axloqni, maorifni egallagan shaxs barkamol, yetuk insondir.

Qadimgi Sharq allomalaridan Yusuf Xos Hojibning (XI asr) “Qutadg‘u bilig” (“Baxtga eltuvchi bilim”) [2] asarining yoshlarni tarbiyalashda katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Ushbu asarda samimiylik va riyokorlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, yomonlik va yaxshilik, ma’rifatlilik va jaholat, kibr va kamtarlik kabi inson borlig‘idagi pozitiv va negativ kechinmalar, tuyg‘ular taqqoslangan. Muallifning fikriga ko‘ra inson o‘zidagi illatlarni yenga olsagina ma’rifatga, ilmga, aqlga yaqinlashadi va uning faoliyati, butun hayotida aql ustuvorlik qiladi. Yusuf Xos Hojib jamiyatdagi qoidalarni muvofiqlashtirish borasida fikr yuritib, aql va ma’rifat asosiy omil ekanligini 32 baytdan iborat asarida ta’kidlaydi. Asarnig har bir satrida insondagi fazilatlar, xislatlarning ulug‘vorligi yomon illatlar bilan taqqoslanib ochib beriladi. Asarda inson aqli ulug‘lanishi bilan birgalikda, aql yaxshilikka, ezgulikka safarbar etilishi lozimligi ta’kidlanadi. Ya’ni “aql”, “bilim” jamiyat, odamlar manfaatiga xizmat qilishi lozimligi g‘oyasi ilgari suriladi. Yuqoridagi fazilatlarni hukmdor, rahbar ma’naviyatida ustuvorlik qilishi jamiyatda tinchlik, barqarorlikni ta’minlanishi aholini farovon umr kechirishiga asos bo‘lishi haqida mulohaza yuritiladi. Asarda “Aql”, “Bilim”, “Adolat”, “Omad”, “Baxt” biri ikkinchisiga bog‘liqligi, ularning uyg‘unligi natijasida sabr, qanoat, kamtarlik, shukronalikka, farovonlikka olib kelishi, agar insonda aql va ma’rifat, bilim bo‘lmasa omad, baxt tark etishi mumkinligi g‘oyasi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugun yoshlarimiz orasida mutoalaga, bilim olishga yengil-yelpi qarash holatlari ham uchramoqda. Ta’lim va tarbiya jarayonida aqliy tarbiyani rolini oshirish kelajakda aqliy zukko, voqelikka adolat ko‘zi bilan qaraydigan zehnli, intektual darajasi baland mutaxassislarni tarbiyalashga asos bo‘ladi.

Qadimgi Sharq allomalaridan Unsuril-Maoliy Kaykovusning (1021-1098) 44 bobdan iborat “Qobusnoma” (Nasihatnomai Kaskovus”) asari o‘zinig tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi. Asarning nomlanishidan ma’lumki, unda ilgari surilgan inson tarbiyasi uchun zurur bo‘lgan g‘oyalar o‘gitlar, nasihatlar vositasida inson ongiga singdiradi. Asarning to‘rt bobida Ollohga intilish, Islom dinining muqaddas kitoblari Qur’oni Karim va Hadisi Sharifdagi insonni ezgulik, yaxshilikka chorlovchi g‘oyalar, Payg‘ambarlarning yaratilishi qissalari nazariy asos vazifasini o‘taydi. Asarning qolgan qismlarida inson tarbiyasiga oid masalar muhokama qilinadi. Muallifning fikriga ko‘ra inson tarbiyasi yaxlit bir sistema bo‘lib, u bir necha elementlardan iborat. Oilada farzand tarbiyasi qoidalari, talablari, otaning farzand tarbiyasidagi vazifalari va majburiyatlari, axloqiy me’yorlar, qoidalar, kattalarga hurmat kichiklarga izzat kabi axloqiy tamoyillar nasihat va o‘gitlar orqali tushuntiriladi. Bola tarbiyasida murabbiy-ustozning o‘rni, bolaning xulq-atvorini

shakllantirishda ustozning vazifalari belgilab beriladi. Ota-onalarga farzandlari ustoz sabog‘ini olish kerakli, shartligi ilmiy-falsafiy yondoshuvlar asosida isbotlab beriladi. Bolaning kasb-hunar ega bo‘lishga undash, kasbga ega bo‘lishdan maqsadni tushuntirish, hunar o‘rgatish kabi tarbiyaviy muammolar muhokama qilinadi. Har bir inson hunarga ega bo‘lishi shartligi, hunar uni har qanday mushkul vaziyatlardan xalos qilishi misollar orqali tushuntirib beriladi. Muallif insonda barcha xislatlar, fazilatlar tarbiyalanmog‘i lozimligini ta’kidlaydi. Inson turmush tarzida faoliyatida diyonat, adolat, vijdon ustuvorlik qilishi o‘qtiriladi. Xullas, “Qobusnoma” asari barkamol inson shaxsini tarbiyalashda katta falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, unda diniy tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy, tarbiya, mehnat tarbiyasi, musiqa ilmi, jismoniy tarbiyaga oid ilmiy asoslangan qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar o‘z aksini topgan.

Qadimgi Sharqda Markaziy Osiyoda, butun islom olamida Hadis ilmining rivojlanishiga hissa qo‘shgan alloma Imom al-Buxoriy (810-870) hazratlarining hayoti va ilmiy merosini o‘rganish yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Allomaning “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufradi”, Al-tarix as-sag‘iy”, Al-ta’rix al-avsot”, “Al-ta’rix al-kabir”, kitob alilal”, “Barr ul-volidayn”, “Asomi us-sahaba”, “Kitob al-kuna” mavjud. “Al -jome’ as-sahah” asari bilan hadisshunoslik ilmini yaratgan. Alloma ungacha yozilgan hadislarning qanchalik ishonarligini darajasini o‘rganish uchun shaharma-shahar, qishloqma-qishloq piyoda kezib tahlil qilgan. Eng ishonarli hadislarni to‘plab o‘z asarida (7275 takrorlanadigan, 4000 takrorlanmaydigan hadislar) [3] aks ettirdi. Ushbu asardagi hadislarda islom dinining nazariy g‘oyalari bilan inson tarbiyasiga oid axloqiy g‘oyalar, ma’rifat g‘oyalarining yoshlarni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Qadimgi Sharq Uyg‘onish davrining buyuk allomalaridan biri Abu Nasr Forobiydir (873-950), Forobiyning nomi “Al-muallim as-soniy”, “Ikkinchi muallim”, ya’ni “Sharq Arastusi” (eramizdan avvalgi 384-322-yillarda yashab o‘tgan qadimgi yunon faylasufi Aristotel Aleksandr Makedonskiyning murabbiy-ustozi) Faylasuf olim kitobida “Forobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohala 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko‘proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar”. Muallif Forobiy asarlarini 7 qismdan iborat klassifikatsiyaga bo‘ladi: “1) falsafaning umumiy masalalariga, ya’ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari va turli kategoriyalariga bag‘ishlangan asarlar: “Substansiya haqida so‘z” (“Kalom fi-l javhar”), “masalalar manbai “Uzonul masoil”), “Qonunlar haqida kitob” (“Kitob fi-l navomis”), “Falak harakatinig davomiyligi haqida” (“Kitob fi-l harakat al-falaka

doimatun”) 2) inson faoliyatining falsafiy toionlariga bag‘ishlangan, ya’ni bilishning shakllari,bosqichlari,usullari haqidagi asarlari: “Kattalarning aqli haqida so‘z” (“Kalom fi-l al-kabir”), “Yoshlarning aqli haqida so‘z” (“Kitob fil- aql as-sag‘ir”) ,”Mantiqqa kirish kitobi “(Kitob al-madxal ila-l mantiq” va b. 3) falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni haqidagi asarlari: ”Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi” (“Kitob fi axso al-ulum va at-ta’rif” va b.3) falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni haqidagi asarlar “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi (“Ixso al-ulum,) “Falsafa tushunchasining ma’nosi haqida so‘z” (“Kalom fi ma’oni ism al-falsafa”) ,”Falsafaga izohlar” (“Taoliq fi-l hikmat) va b. 4)matematika fanlariga oid asarlari “Hajm va miqdor haqida so‘z”, ”Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob”, “Astrologiya qoidalari haqida mulohazalarni to‘g‘rilash usuli haqida maqola” va b. Beshinchi guruhda fizika, kimyo, optika, meditsina, biologiyaga oid kitoblari, oltinchi guruhga tilshunoslik, she’riyat, notiqlikka oid asarlari kiradi. Muallifning fikriga ko‘ra yettinchi guruhga allomaning ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag‘ishlangan, ya’ni huquqshunoslik, etika pedagogikaga doir asarlari: Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola” (“Risola fi-l tanbih ala asbob as-saodat”), “Shaharni boshqarish” (“As-siyosat an madaniyat”), “Urush va tinch turmush haqida kitob” (Kitob fi maoyish va-l hurub”), “Fazilatli hulqlar” (“As–siyrat al-fazila”) va b. [4]

Ushbu o‘quv qo‘llanmada biz buyuk alloma Abu Nasr Forobiyning barcha fanlarga oid asarlari nomlari bilan ta’kidlab yozishimizdan maqsad – yoshlarimizga insonning bilish qobiliyatlari cheklanmaganligi, aqliy imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘z ustida tinimsiz ishlab o‘qib-o‘rganish katta natijalar berishiga asos bo‘lishini yoshlarimizga tushuntirishdir. Farobiyning falsafa, mantiq, tarbiya, adabiyotga oid asarlarida inson aqli ulug‘lanadi. Farobiyning fikriga ko‘ra “Aqli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega, yomon o‘lardan o‘zini olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o‘ylab topish uchun zehn – idrokka ega bo‘lganlarni aqlli deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi, degan nomlar bilan atamoq lozim”. Qomusiy alloma aqlli inson haqidagi ushbu fikrlarida, insonning butun faoliyati ezgulikka, yaxshilikka yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Forobiyning insonning bilish qobiliyatlari, mantiqiy bilimlarining shakllanishiga oid asarlarida inson xulq-atvorida axloqiy me’yorlarning ustuvorlik qilishi lozimligi, inson aqli vayronkor xatti-harakatlar, vayronkor g‘oyalarni amalga oshirishga safarbar etilmasligi kerakligini ta’kidlaydi. Alloma inson bilimlarini ikkiga bo‘ladi, birinchisi insonning ichki ruhiy bilimlari, ikkinchisi insonning tashqi bilimlari. Insonning tashqi bilimlari u yashayotgan jamiyatda, tashqi muhitda, ta’lim va tarbiya jarayonida shakllanadi. Tarbiya insonda o‘z-o‘zini anglash, o‘z harakatlarini tartibga solish malakalarini shakllantiradi. Forobiy asarlarini tahlil qilib

o‘rganish jarayonida shunga amin bo‘ldiki, u o‘sha davrning teotsentrik xarakterida ham, ya’ni insonning atrof-muhitga, o‘ziga munosabatida, faoliyatida diniy dunyoqarash ustuvorlik qilayotgan davrda ham inson jamoasi, jamiyat va inson haqida ijtimoy-falsafiy ta’limotlarni shakllantirdi. Ushbu ta’limotlarda inson ta’lim va tarbiyasi, ma’rifat, jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik, davlat boshqaruvi bilan masalalar aks etadi. U o‘zining “Davlat arbobining hikmatlari”, “Fozil shahar aholisining maslagi”, “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola”, “Baxt-saodatga erishuv haqida risola” asarlarida jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy, huquqiy meyorlarning mavjud bo‘lishi, ularga butun jamoa qat’iy rioya qilishi, qonunlarga barcha kishilar, oddiy odamlardan toki amaldor-u hukmdorlar ham rioya qilishi jamoada, raiyatda adolat bo‘lishini kafolatlaydi. Bu o‘z navbatida jamiyatda tinchlik osoyishtalik, farovonlik bo‘lishiga asos bo‘lishi ta’kidlanadi. Forobiy bu turkum asarlarida fozil hukmdor, fozil inson shaxsi tushunchalari fozil jamiyat tushunchasi bilan uyg‘unlashib ketadi. Davlatni ilmli, ma’rifatli kishi boshqarsagina, o‘sha jamiyatda farovonlik, totuvlik bo‘lishi g‘oyasi ilgari suriladi. Forobiyning bu boradagi fikrlariga ko‘ra “Fozil jamiyat va fozil shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod bo‘ladilar... Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo‘ladi.” [4] Bu fikrlardan ma’lumki, barkamol inson inson shaxsi adolatli jamiyatda, fozil jamiyatda tarbiyalanadi.

Qadimgi Sharq madaniyatini rivojiga katta hissa qo‘shgan allamalaradan biri Qaffol ash-Shoshiydir. U o‘z davrining mashhur allamalaridan ta’lim olgan, ularning falsafa, rioziyat, maantiq, tarix, ma’rifat va tarbiyaga oid ilmiy asarlarini chuqur o‘rgangan. Allomaning “Odob al qozi” (Qozining fe’l-atvori” (Qozining fe’l-atvori”), “Odob al-bahs “ (“Bahs odobi”) [3] she’riy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati katta. “Odob al-qozi” she’riy asaridan huquq peshvosi bo‘lgan qozilarning fe’l – atvoridagi, turmush tarzidagi axloqiy tamoyillari, ma’naviy qiyofasidagi xislatlari, fazilatlari, huquq ilmlarini puxta egallashi, shariat qoidalariga o‘zining rioya qilishi darajasi, qozilarning adolat bilan hukm chiqarishi haqida mulohaza yuritiladi. “Odob al-bahs” asarida kattalar va kichiklar odobi, yoshlar odobi, oila qurish odobi, ilm olish odobi, odob bilan huquqning aloqadorligi kabi masalalarda fikr yuritiladi.

XULOSA: Xullas, allomaning hayoti va ijodi, asarlarida ilgari surilgan axloqiy, huquqiy g‘oyalarni ta’lim va tarbiya jarayonida o‘rganishning yoshlar tarbiyasida ahamiyati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. QOMUS. INFO ONLAYN ENSIKLOPEDIY. N harfi NASAFIY AZIZIDDIN.

2. Yusuf Xos Hojib. Qudatg‘u bilik. Qadimgi hikmatlar. – T., 1997.

3. M.M.Xayrullayev. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. – B. 58.

SHAXS KAMOLOTIDA E’TIQODNING O‘RNI

Ruziyev Alisher Xolmurodovich
QarDU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari kafedrasi professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyoqarash inson ongining turli qatlamlari o‘zaro tutashib, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan murakkab ma’naviy-mafkuraviy tizim sifatida talqin etiladi. Dunyoqarashning tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda shaxsning borliqni anglash va baholash jarayonidagi o‘rni yoritiladi. Mazkur tizimning muhim tayanch bo‘g‘ini sifatida e’tiqodning alohida ahamiyat kasb etishi, uning insonning qarashlari, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: inson, shaxs, inson borlig‘i,shaxs kamoloti, ong, o‘z-o‘zini,e’tiqod, ajdod va avlod, urug‘, el,elat,xalq, fuqaro.millat,o‘zlikni anglash.

РОЛЬ УБЕЖДЕНИЙ В СТАНОВЛЕНИИ ЛИЧНОСТИ

Рузиев Алишер Холмуродович
Профессор кафедры «Национальная идея и основы духовности» Каршинского государственного университета

Аннотация. В данной статье мировоззрение рассматривается как сложная духовно-идеологическая система, в которой различные уровни сознания взаимосвязаны и оказывают влияние друг на друга. Освещаются основные компоненты мировоззрения, их взаимосвязь и роль в процессе осмысления и оценки человеком окружающей действительности. Особое внимание уделяется вере как одному из ключевых элементов данной системы, а также её значению в формировании взглядов, ценностей и жизненной позиции личности.

Ключевые слова: человек, личность, человеческое бытие, становление личности, сознание, самосознание, убеждение, предки и потомки, род, народность, народ, гражданин, нация, осознание собственной идентичности.

THE ROLE OF BELIEF IN PERSONAL DEVELOPMENT

Ruziyev Alisher Xolmurodovich
Professor at the Department of National Idea and Foundations of Spirituality, Karshi State University

Abstract. This article examines worldview as a complex spiritual and ideological system in which different layers of human consciousness interact and influence one another. It discusses the main components of worldview, their

interrelation, and their role in shaping a person's understanding and evaluation of reality. Particular attention is paid to belief as a key element of this system and to its significance in the formation of individual views, values, and life orientations.

Keywords: human being, personality, human existence, personal development, consciousness, self-awareness, belief, ancestors and descendants, clan, ethnic community, people, citizen, nation, national identity.

KIRISH: Dunyoqarash – ongning turli qatlamlari bir-biriga tutashib, o‘zaro ta’sirlashib turadigan murakkab majmuasidir. Ana shu majmuaning tayanch bo‘g‘ini sifatida e’tiqod alohida ajralib turadi. Shaxs e’tiqodi oddiy “ishonch” darajasidagi holat emas; u ichki ruhiy tajriba, ijtimoiy talablar va individual ongning uzviy qo‘shilishi natijasida tarkib topadigan murakkab hodisadir. E’tiqod qanday vujudga keladi, u qaysi ichki mexanizm orqali shakllanadi, degan savollarga javob izlar ekanmiz, mantiqan quyidagi izchil zanjir namoyon bo‘ladi: “bilim – anglash – ishonish – xohish – talab va me’yorlarni hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan iroda – e’tiqod.” Mazkur mexanizmni puxta o‘rganish, shuningdek jamiyatda amal qiladigan talab, norma va tamoyillarning shaxsning ichki qoidalariga, ya’ni e’tiqodiga aylanib borish jarayonini tahlil qilish ushbu jarayonni ongli ravishda boshqarish imkoniyatini ham kengaytiradi. Negaki shaxs – tarkibiy unsurlari o‘zaro bog‘langan va doimiy rivojlanib boradigan yaxlit tizim; u ijtimoiy-tarixiy qadriyat sifatida ham shakllanadi. Xuddi shu ichki uyg‘unlik va o‘zaro aloqadorlik zamirida e’tiqod tobora mustahkamlanadi. E’tiqod shaxsning ijtimoiy fazilatlari va sifatlarini ifodalabgina qolmay, ma’naviy hayotining mazmunini ham belgilaydi: bu yerda dunyoqarash unsurlari axloqiy mezonlar bilan birikib, shaxsning yo‘nalishini aniqlaydi.

ASOSIY QISM. Ilmiy manbalarda “e’tiqod” tushunchasi turlicha talqin qilinadi: uni tarbiyaviy ta’sirning muhim usuli, ma’naviy sifatlar va qarashlarning shakllanish jarayoni, inson faoliyatini belgilovchi dunyoqarash komponenti, ya’ni tarbiya natijasi sifatida izohlash holatlari uchraydi. Bunday rang-barang talqinlar ijtimoiy amaliyotga bevosita ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Shu sabab e’tiqod masalasiga yondashishda, avvalo, uning tarkibiy elementlarini aniqlash va tahlil qilish zarur.

E’tiqodni dialektik tafakkur nuqtayi nazaridan – butun va bo‘lak, struktura va komponent munosabatlari doirasida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, uning asosiy tayanchi bilim ekanligi ravshanlashadi. Bilim shaxsga voqea-hodisalarni mustaqil tahlil qilish imkonini beradi; aynan shu jihati bilan u faoliyatning turli ko‘rinishlarida “o‘z izini” qoldiradi va e’tiqod paydo bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Biroq e’tiqodni bilimning o‘zi bilan tenglashtirish xato: bilim e’tiqod uchun zarur shart bo‘lsa-da, u e’tiqodning o‘zi emas.

Haqiqatdan ham, bilimning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, chin yoki xatoligini bilish mezonlari orqali tekshirish mumkin; shu bois bilimni bevosita axloqiy kategoriyalar bilan “o‘lchash” doimo ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Lekin muhim bir holat bor: har qanday bilim turli maqsadlarda qo‘llanishi mumkin. Masalan, inson tafakkurining yuksak mahsuli sanaladigan kompyuter texnologiyalari taraqqiyot omili bo‘lishi bilan birga, ayrim holatlarda jinoyat sodir etish vositasiga ham aylanishi mumkin. Demak, bilimning o‘zi neytral ko‘rinishi mumkin, ammo uning qo‘llanish yo‘nalishi natijani belgilaydi.

Bilim ba’zan haqiqatni, ba’zan xatoni, ayrim hollarda esa qisman haqiqatni aks ettiradi. Informatsiyaning sifati e’tiqod shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, ammo bu omilni yakka va hal qiluvchi omil darajasiga ko‘tarib bo‘lmaydi. Dastlabki bosqichda bilimning e’tiqodga aylanishi uchun shaxs uni shunchaki eslab qolishi emas, balki **anglab yetishi**, **mohiyatini tushunishi**, **fahmlab olishi** zarur.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Bu yerda yana bir nozik jihat mavjud: bilim e’tiqod darajasiga ko‘tarilishi uchun o‘rganilayotgan fanlar doirasida dunyoqarashni kengaytiruvchi xulosalar chiqarish qobiliyati shakllangan bo‘lishi kerak. Chunonchi, fizika, kimyo, biologiya yoki boshqa fanlarni o‘zlashtirish jarayonida xotirani ko‘plab fakt va ta’riflar bilan to‘ldirishning o‘zi yetarli emas. Faktlar tizimga solinib, ular o‘zaro bog‘liq holda tushuntirilgandagina olam va inson, hodisa va voqealarning obyektiv qonuniyatlari haqida yaxlit tasavvur hosil bo‘ladi. Ana shundagina fanlar orqali qo‘lga kiritilgan bilimlar shaxs e’tiqodining poydevoriga aylanishi mumkin.

Mulohazalardan anglashiladiki, shaxs ongida e’tiqod darajasiga ko‘tariladigan bilimlar ko‘pincha “ikkinchi marta yashayotgan” bilimlardir: ya’ni insoniyat uchun allaqachon ma’lum bo‘lgan haqiqat shaxs tomonidan o‘z ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq ravishda qayta anglanadi, “men uchun kashf etilgan” mazmun kasb etadi. Bu bilim qadimdan ma’lum bo‘lishi mumkin, biroq shaxs uni o‘zi uchun qayta kashf qilmasa, unga qat’iy ishonch hosil qilmasa, u e’tiqodga aylanmaydi. Agar anglangan bilim shaxs ehtiyoj va manfaatlari bilan uyg‘unlashsa, uni amaliyotda qo‘llash istagi paydo bo‘ladi; istak esa iroda bilan qo‘shilganda e’tiqod mustahkamlanadi.

Bilim shaxs ongida e’tiqod darajasiga ko‘tarilgandagina “qog‘ozdagi haqiqat” bo‘lib qolmay, amaliy mazmun kasb etadi va inson faoliyati orqali real hayotga ko‘chadi. Shu sabab bilimning qay darajada o‘zlashtirilishi va e’tiqodga aylanishi bevosita shaxsning ijtimoiy amaliyot darajasi bilan belgilanadi. Chunki dunyoqarashni shakllantirishda hal qiluvchi omil aynan ijtimoiy amaliyotdir; bu amaliyotning xarakteri esa shaxsning ijtimoiy ishlab chiqarish tizimida egallagan

o‘rni, bajaradigan vazifalari va jamiyatdagi funksional mavqei bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Avval qayd etilganidek, e’tiqod mazmun va yo‘nalishiga ko‘ra gumanistik hamda antigumanistik ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Tabiiyki, har qanday e’tiqodni avtomatik tarzda gumanistik deb baholash to‘g‘ri emas. Gumanistik e’tiqod, birinchidan, tabiat va jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlarini anglashga tayanishi, ikkinchidan, olam va insonning undagi o‘rni haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi zarur. Bundan ham muhimroq jihat shundaki, har qanday bilim ham gumanistik e’tiqodni vujudga keltiravermaydi: insonni ulug‘laydigan, shaxs hayotining mazmunini ochib beradigan, inson uchun amaliy va ma’naviy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan bilimlargina bunday e’tiqodning poydevoriga aylanishi mumkin. Bu imkoniyatni, odatda, ijtimoiy fanlarni chuqur o‘rganish orqali qo‘lga kiritish mumkin, zero ijtimoiy fanlar shaxsga tarixiy taraqqiyot mohiyatini anglash, o‘z faoliyatining natijalarini tahlil qilish, shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan moslashtirish hamda muvofiqlashtirish ko‘nikmalarini beradi.

Mazmuniga ko‘ra e’tiqod turli yo‘nalishlarga ajraladi: xristian e’tiqodi, musulmon e’tiqodi, buddaviy e’tiqod, iudaizm e’tiqodi va boshqalar. Bu tizimlarda e’tiqod ko‘pincha inson va Xudo o‘rtasidagi shaxsiy aloqaning ifodasi sifatida talqin qilinadi. Diniy ta’limotlarda e’tiqodning najot, najot topish, ma’naviy poklanish bilan bog‘liq mazmuni turlicha izohlanadi. Xususan, islomiy e’tiqod Qur’on va Sunna (Sunnat)da bayon etilgan bilimlar hamda aqidaviy qarashlarga tayangan holda shakllanadi: Qur’on islom aqidalari, e’tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me’yorlar, ta’qiqlarni ifodalovchi muqaddas manba sifatida e’tirof etilsa, Sunna esa uni izohlovchi va to‘ldiruvchi asosiy manba, islom ilohiyoti hamda shariatning ikkinchi tayanchi sifatida qaraladi.

XULOSA: Musulmon e’tiqodining muhim tarkibiy bo‘g‘inlaridan biri “iymon” tushunchasidir. Iymon – e’tiqod obyekti haqida guvohlik berish, uni qalban tasdiqlash mazmunini anglatadi. Ikkinchi muhim bo‘g‘in esa islomga e’tiqod qilgan har bir mo‘min va muslim amal qilishi zarur bo‘lgan asosiy qoidalar majmuasidir; u “e’tiqod asoslari” sifatida ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qur’oni Karim. Abdulaziz Mansur tarjimasi. – T., 2001.

2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis 4 jildlik – T., 1997.

3. Abu Iso at-Termiziy. Sunnani Termiziy. – T., 1999.

4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.:O‘FMJ., 2010.

5. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2016.

6. Fitrat. Najot yo‘li. – T., 2001.
7. Ubaydullayeva Sevara. Oila madaniyati. – T., 2015.
8. Ibrohimov Abduqahhor. Yorug‘lug‘. – T., 2006.

O‘ZBEKISTONDA HARBIY SUDYALAR FAOLIYATI VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNING TASHKILIY- HUQUQIY ASOSLARI

Axmedov B.H.
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy sudyalarni tayinlash, attestatsiyadan o‘tkazish hamda malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Harbiy sud tizimida sudyalar korpusini shakllantirish mexanizmlari, ularning kasbiy kompetensiyasini ta’minlash va mustaqilligini mustahkamlash omillari yoritilgan. Shuningdek, sudyalarni attestatsiyadan o‘tkazishning huquqiy mezonlari hamda malaka oshirish institutining amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot davomida milliy qonunchilik normalari xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o‘rganilgan. Maqolada mavjud muammolar aniqlanib, harbiy sudyalar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy sudyalar, harbiy sud tizimi, sudyalarni tayinlash, attestatsiya, malaka oshirish, tashkiliy-huquqiy asoslar, sud hokimiyati mustaqilligi, kasbiy kompetensiya, xorijiy tajriba, sud-huquq islohotlari.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВОЕННЫХ СУДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИХ КВАЛИФИКАЦИИ

Ахмедов Б. Х.
Исследователь Каршинского государственного университета

Аннотация. В данной статье научно анализируются организационно-правовые основы назначения, аттестации и подготовки военных судей. Выделены механизмы формирования корпуса судей в системе военных судов, факторы обеспечения их профессиональной компетентности и укрепления их независимости. Также раскрыты правовые критерии аттестации судей и практическая значимость института подготовки кадров. В ходе исследования национальные правовые нормы были изучены на основе сравнительно-правового анализа с опытом зарубежных стран. В статье обозначены существующие проблемы, сформулированы научные выводы и практические предложения, направленные на повышение эффективности работы военных судей.

Ключевые слова: военные судьи, система военных судов, назначение судей, аттестация, подготовка, организационно-правовые основы, независимость судебной власти, профессиональная компетентность, зарубежный опыт, судебная реформа.

THE ACTIVITIES OF MILITARY JUDGES IN UZBEKISTAN AND THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THEIR PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Axmedov B. H.
Researcher at Karshi State University

Absrtact. This article scientifically analyzes the organizational and legal basis for the appointment, certification and training of military judges. The mechanisms for the formation of the corps of judges in the system of military courts, factors for ensuring their professional competence and strengthening their independence are highlighted. The legal criteria for the certification of judges and the practical significance of the institute of personnel training are also revealed. During the study, national legal norms were studied on the basis of comparative legal analysis with the experience of foreign countries. The article identifies existing problems, formulates scientific conclusions and practical proposals aimed at increasing the efficiency of the work of military judges.

Key words: military judges, military court system, appointment of judges, certification, training, organizational and legal framework, independence of the judiciary, professional competence, foreign experience, judicial reform.

KIRISH: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi 1997-yilda tashkil etilgan bo‘lib, ushbu markazda adliya, sud, advokatura hamda hokimiyat idoralari, mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning yuridik xizmati xodimlari malakalarini oshirib borgan [1].

2001–2007-yillarda mazkur markazda har yili bir yarim mingga yaqin davlat hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqshunos xodimlari qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qitilgan. Malaka oshirish jarayonida ilg‘or tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha uchrashuvlar o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etgan.

ASOSIY QISM: Harbiy sudyalar, harbiy sudyalik lavozimiga nomzodlar hamda harbiy sud apparati xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha Respublika Yuristlar malakasini oshirish markazida o‘quv ishlari muntazam tashkil etib borilgan. Jumladan, 2004-yilda 2 nafar harbiy sudya, 2 nafar harbiy sudyalikka

nomzod va 4 nafar sud apparati xodimi o‘z malakalarini oshirgan [2] bo‘lsa, 2005 yilda 5 nafar harbiy sudya, 1 nafar harbiy sudyalikka nomzod va 2 nafar sud apparati xodimi[3] ushbu kurslarda qatnashib, kasbiy tayyorgarlik darajalarini oshirdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida” va 2005-yil 8-avgustdagi “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmonlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganish maqsadida, 2007-yilda 20 nafar sudya va 2008-yilda barcha harbiy sudyalar Respublika Yuristlar malakasini oshirish markazida o‘qitildilar. Shu bilan birga, 2007-yilda 3 nafar va 2008-yilda 7 nafar harbiy sudyalikka nomzod uch oylik maxsus kurslarda kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirdilar [4]. 2008-yilda 15 nafar sudyalikka nomzod va 3 nafar sud apparati xodimi mazkur markazda malaka oshirdi[5].

2009-yilda 3 nafar harbiy sudya, 5 nafar harbiy sudyalikka nomzod va 4 nafar sud apparati xodimi, 2010-yilda esa 2 nafar harbiy sudya, 4 nafar harbiy sudyalikka nomzod va 3 nafar sud apparati xodimi markazda malaka oshirdi[6]. 2010-yilda ilk bor sudyalikka tayinlangan yosh sudyalarning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida 7 nafar harbiy sudya O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudida amaliyot o‘tadi [7].

2012-yilda 1 nafar harbiy sudya, 4 nafar harbiy sudyalikka nomzod va 1 nafar sud apparati xodimi markazda malaka oshirdi. Shu bilan birga, 3 nafar harbiy sudya O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida, 2 nafar harbiy sudya esa O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudida amaliyot o‘tkazdilar [8].

2013-yilda 3 nafar harbiy sudya markazda malaka oshirgan bo‘lsa, 11 nafar harbiy sudya O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida va 24 nafar harbiy sudyalikka nomzod O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudida amaliyot o‘tkazdilar [9].

Bir vaqtning o‘zida, barcha harbiy sudyalar va sud xodimlari o‘rtasida Davlat Test Markazi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini bilishga doir test sinovlari amalga oshirilgan.

Harbiy sudyalik lavozimiga tayinlash uchun tavsiya etilgan nomzodlar komissiya tomonidan o‘tkazilgan tekshirish va imtihon sinovlaridan o‘tganlaridan keyin lavozimlarga tayinlash uchun taqdim qilingan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoyishlari bilan lavozimlarga tayinlab borilgan. Shu tariqa harbiy sud sohasini kadrlar bilan ta’minlash yo‘lga qo‘yilayotgan bo‘lsa-da, sudyalik muddati tugaganidan keyin navbatdagi muddatga o‘tish uchun tavsiya etilmagan yoki hujjatlari qo‘shimcha o‘rganish uchun qaytarilgan, nomzodlar zaxirasidan chiqarilgan, shuningdek faoliyat ko‘rsatayotgan harbiy sudyalarning muayyan sabablarga ko‘ra sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilishi

holatlari harbiy sudlarni doimiy ravishda yangi sudya kadrlar bilan ta’minlab turilishini taqozo etar edi.

2001–2007-yillarda faoliyat yuritgan sudyalarning ularga qo‘yilgan shaxsiy, ma’naviy va kasbiy jihatdan talablarga muvofiqligi darajasi o‘ta pastligicha saqlanib qolavergan. Chunonchi, qayd etilgan davrda yangi sudyalik muddatiga tavsiya etilgan 521 nafar nomzoddan faqat 269 (51,6%) nafari lavozimlarga tayinlangan. 214 (41,1%) nafar nomzodlarning hujjatlari ularga berilgan tavsifnomalar salbiyligi sababli qaytarilgan, sudyalik lavozimida ishlayotgan 23 (4,4%) nafar sudya tavsiya etilgan sudyalik lavozimiga noloyiq deb topilgan yoki zaxirada qoldirilgan.

2001–2007-yillar davomida xizmat faoliyatida yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari uchun 554 nafar sudyaga yoki sudyalar korpusining yarmidan ko‘prog‘iga nisbatan intizomiy ish qo‘zg‘atilgani tashvishli hol hisoblanar edi. Shuningdek, sudyalar xatti-harakati ustidan berilgan shikoyatlar soni yuqoriligicha saqlanib qolavergan. Tahlil etilayotgan davr ichida sudyalar malaka hay’atlariga sudyalar xatti-harakati ustidan 4802 ta shikoyat kelib tushgan bo‘lib, ulardan 3122 tasi protsessual qonun talablari, 233 tasi sud etikasi buzilganligi, 274 tasi xizmat mavqei suiiste’mol qilinganligi to‘g‘risida edi [10].

Qayd etilgan salbiy holatlar kelib chiqishiga sudyalar tomonidan o‘z yuksak maqomi va yuklatilgan mas’uliyat yetarli darajada his etilmayotganligi, huquqiy saviyasi hamda ijtimoiy-siyosiy xabardorligi darajasini oshirish borasida olib borilayotgan ish susaytirib yuborilganligi, o‘z shaxsiy manfaatlarini odil sudlov manfaatidan yuqori qo‘yilishi sabab bo‘lgan. Sud protsessi ishtirokchilariga nisbatan hurmatsizlikka, qonunda belgilangan muddatlar buzilishiga, ishlarni ko‘rish va shikoyatlarni hal qilishda sansalorlikka yo‘l qo‘yilayotganligi hollari ko‘plab uchrab turar edi.

Ko‘rsatib o‘tilgan salbiy holatlarning oldini olish maqsadida Umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalari oliy malaka hay’ati tomonidan 2001–2007-yillar mobaynida 25 nafar viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislariga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan [11].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Harbiy sudlarda ham qat’iy intizom joriy etilgan bo‘lib, har qanday qonunbuzilish holatlariga murosasiz munosabat shakllantirilgan edi. Shu ma’noda, 2001–2016-yillarda harbiy sudyalarning intizomiy javobgarlikka tortilish holatlari rasmiy ma’lumotlarga muvofiq qayd etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi malaka hay’atlarining qarorlari bilan 2002-yilda 1 nafar, 2003-yilda 3 nafar, 2004-yilda 2 nafar [12], 2005-yilda 2 nafar, 2007-yilda 1 nafar [13] harbiy sudya intizomiy javobgarlikka tortilgan.

2001–2005-yillar hamda 2006-yilning 9 oyi mobaynida harbiy sudyalarning xatti-harakatlari yuzasidan jami beshta shikoyat kelib tushgan. Keltirilgan har bir

shikoyat amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq dastlabki xizmat tekshiruvidan o‘tkazilgan. Malaka hay’atida ushbu davr mobaynida sudyalarning xatti-harakatlaridan norozi bo‘lgan fuqarolar tomonidan keltirilgan shikoyatlar tasnifi, mazmuni va xizmat tekshiruvi jarayonida aniqlangan holatlar alohida muhokama qilingan. Arizachilarning barcha keltirgan vajlari tekshirilib, ularga asoslantirilgan javoblar berilgan [14].

2007-yilda 3 nafar sudyaning hatti-harakatlariga nisbatan fuqarolar tomonidan shikoyatlar kelib tushgan. Ushbu shikoyatlarning 2 tasi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq “anonim” deb topilib ko‘rmasdan qoldirilgan, qolgan 1 ta shikoyat esa o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasida o‘z tasdig‘ini topmagan deb hisoblangan [15].

2008-yilda 1 nafar harbiy sudyaning faoliyati yuzasidan shikoyat kelib tushgan bo‘lib, keltirilgan vajlar O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining Rayosatida muhokama qilingan va xizmat tekshiruvi jarayonida tasdiqlanmagan. Shu bilan birga, ishlarni yuqori instansiyada ko‘rish jarayonida birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar yuzasidan ishni ko‘rgan harbiy sudyalarga nisbatan xususiy ajrim chiqarish orqali munosabat bildirib borilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudlov hay’ati tomonidan 2004-yil 3-iyun kuni Navoiy harbiy sudining raisiga va shu yilning 24 iyun kuni Termiz harbiy sudining raisiga nisbatan xususiy ajrimlar chiqarilgan [16]. Ushbu xususiy ajrimlar O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi Rayosatining kengaytirilgan majlisida muhokama qilingan va jinoyat ishlarini ko‘rishda protsessual xatoliklarga yo‘l qo‘ygan harbiy sudyalarga nisbatan tegishli intizomiy choralar ko‘rilgan [17]. Shu bilan birga, 2007-yilda 1 nafar va 2008-yilda 3 nafar harbiy sudyaga nisbatan xususiy ajrimlar chiqarilgan [18].

2009-yil iyun oyidan 2010-yil avgust oyigacha bo‘lgan davrda 5 nafar[19], 2012-yilda esa 9 nafar harbiy sudya odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni ta’minlamaganligi, mehnat va ijro intizomiga rioya qilmaganligi hamda sudyalik nizomiga zid xatti-harakatlar sodir etganligi sababli lavozimidan ozod qilingan[20].

2001–2016-yillar davomida harbiy sudyalar rejaga muvofiq malaka attestatsiyasidan o‘tkazilib, ularga tegishli malaka darajalari berish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, 2002-yilda 11 nafar, 2003-yilda 14 nafar harbiy sudya malaka attestatsiyasidan o‘tkazilgan. 2005-yilda 7 nafar harbiy sudya rejaga binoan davriy attestatsiyadan o‘tkazilib, navbatdagi malaka darajasi berish uchun tavsiya etilgan [21].

2007-yilda esa 21 nafar harbiy sudya attestatsiyadan o‘tkazilib, shulardan 9 nafari malaka darajasi berish uchun tavsiya etilgan. Tavsiya etilganlardan 8

nafariga navbatdagi malaka darajasi berilgan, 1 nafar esa o‘zining mavjud malaka darajasida qoldirilgan [22].

2008–2016-yillarda esa jami 58 nafar harbiy sudya attestatsiyadan o‘tkazilib, ulardan 43 nafari navbatdagi malaka darajalari berilishi uchun tavsiya etilgan. Tavsiya etilgan sudyalardan 30 nafariga navbatdagi malaka darajalari berilgan.

2001–2016-yillarda harbiy sudlar sud-huquq va harbiy sohadagi islohotlar bilan hamohang tarzda faoliyat olib borib, sezilarli yutuqlarga erishgan. Ushbu yutuqlar, ayniqsa, harbiy sohada jinoyatchilik darajasining yildan-yilga kamayishi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan, o‘z kasbiy faoliyatida samarali mehnat qilgan va muvaffaqiyatlarga erishgan harbiy sudyalar muntazam ravishda rag‘batlantirib kelindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, 2004-yilda O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi adliya polkovnigi T.Q.Mirzayevga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist” unvoni berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga binoan, 2001–2016-yillar davomida jami 21 nafar harbiy sudya O‘zbekiston Respublikasining yuqori davlat mukofotlari, orden va medallari bilan taqdirlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyalari I.S.Yermanov va F.A.Qayumovlar “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan. Harbiy sud raislari va sudyalaridan Q.J.Botirov, X.N.Qudratov, O.A.Meliev, M.M.Mirraximov, X.S.Egamberdievlar “Sodiq xizmatlari uchun” medali, Q.O.Eshonqulov, B.B.Yaxyoev, N.A.Tojiboev, R.O.Obidov, B.Maxmudov, T.T.Raxmatov, R.U.Abdullaev, N.N.G‘afurov, S.A.Umarov, S.Q.Orziev, B.R.Inoyatov, B.U.Normamatov, S.B.Eshankulov, A.K.Bobonazarovlar “Shuhrat” medali bilan taqdirlanishgan. Ushbu mukofotlash tizimi harbiy sudyalarning kasbiy faoliyatini rag‘batlantirish, ularning sud tizimidagi samarali ish faoliyatini ta’minlash va yuksak professional natijalarga erishishini rag‘batlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbir sifatida amalga oshirilgan.

2001–2016-yillar davomida harbiy sudlarni malakali kadrlar bilan ta’minlashda bir qator jiddiy muammolar kuzatilgan. Asosiy salbiy omillardan biri mamlakatda harbiy huquqshunoslarni tayyorlovchi maxsus oliy ta’lim muassasasining yo‘qligi bo‘lib, bu holat harbiy sud tizimida kadrlar yetishmovchiligiga olib kelgan.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, 2001–2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasi harbiy sud tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilib, harbiy sudyalarning tayinlanishi, malaka attestatsiyasi, kasbiy rivojlanishi va intizomiy javobgarligi bo‘yicha institutsional mexanizmlar mustahkamlandi. Bu jarayonlar harbiy sud tizimining adolatli sudlovni amalga oshirishini va jinoyatchilik darajasining kamayishini ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hayitov A., Qodirov H. O‘zaro hamkorlik-yuristlar markazida, Huquqshunos, 2008 yil. – №4-son. – B. 23.
2. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2005-yil, 30.
3. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2006-yil, 34-varaq.
4. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2008-yil, 32-varaq.
5. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2009-yil, 1-jild, 51-varaq.
6. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2010-yil, 1-jild, 62-varaq.
7. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2011-yil, 92-varaq.
8. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2012-yil, 245-varaq.
9. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2014-yil, 48-varaq.
10. Shu joyda. Elektron manba: https://lex.uz/ru/docs/-1479950
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori. Umumiy yurisdiksiya sudlarida kadrlar bilan ishlash holati va sudyalar tomonidan sudyalik qasamyodiga rioya etilishi masalalari to‘g‘risida. Elektron manba: https://lex.uz/ru/docs/-1479950
12. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2005-yil, 30 varaq.
13. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2006-yil, 286 varaq.
14. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2008 yil, 1-jild, 32 varaq.
15. Shu joyda 33 varaq.
16. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi joriy arxivi materiallari, faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2009-yil, 51-varaq.
17. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2004-yil, 219 varaq.
18. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2009-yil, 51-varaq.
19. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2010-yil, 231 varaq.

20. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2012-yil, 221-varaq.

21. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2006-yil, 34-varaq.

22. Samarqand harbiy sudi joriy arxivi materiallari, sudlar faoliyatiga oid hujjatlar yig‘majildi, 2008-yil, 32-varaq.

YANGI O‘ZBEKISTON DAVRIDA QASHQADARYODA MANZILLI IJTIMOIY HIMOYA SIYOSATINING AMALGA OSHIRILISHI

Uzakov Baxrom Negmatovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
e-mail: uzakovbn@gmail.com

Annotasiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston davrida Qashqadaryo viloyatida manzilli ijtimoiy himoya siyosatining amalga oshirilishi, uning institusional asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy natijalari va hududiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy himoya tizimining umumiy yordam berish amaliyotidan ehtiyojmand aholi qatlamlarini aniqlash, ularning ijtimoiy holatini baholash, individual yordam ko‘rsatish va natijani monitoring qilishga asoslangan yangi bosqichga o‘tgani asoslab beriladi. Qashqadaryo viloyati misolida “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, mahallabay ishlash, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, bandlik dasturlari va kambag‘allikni qisqartirish choralari ijtimoiy davlat tamoyilining amaliy ifodasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Qashqadaryo viloyati, manzilli ijtimoiy himoya, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy siyosat, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Inson” markazlari, mahallabay tizim, bandlik.

РЕАЛИЗАЦИЯ ПОЛИТИКИ АДРЕСНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРИОД НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Узаков Бахром Негматович,
Шахрисабзский государственный
педагогический институт
e-mail: uzakovbn@gmail.com

Аннотасия. В статье анализируются реализация адресной социальной защиты в Кашкадарьинской области в период Нового Узбекистана, ее институциональные основы, социально-экономические результаты и региональные особенности. Обосновывается, что система социальной защиты перешла от общей модели оказания помощи к новому этапу, основанному на выявлении нуждающихся слоев населения, оценке их

социального положения, предоставлении индивидуальной помощи и мониторинге результатов. На примере Кашкадарьинской области рассматриваются механизмы “Темир дафтар”, “Аёллар дафтари”, “Ёшлар дафтари”, махаллинская система работы, центры социальных услуг “Инсон”, программы занятости и меры по сокращению бедности как практическое проявление принципа социального государства.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Кашкадарьинская область, адресная социальная защита, сокращение бедности, социальная политика, “Темир дафтар”, “Аёллар дафтари”, “Ёшлар дафтари”, центры “Инсон”, махаллинская система, занятость.

IMPLEMENTATION OF TARGETED SOCIAL PROTECTION POLICY IN KASHKADARYA REGION DURING THE PERIOD OF NEW UZBEKISTAN

Uzakov Bakhrom Negmatovich,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
e-mail: uzakovbn@gmail.com

Annotation. The article analyzes the implementation of targeted social protection policy in Kashkadarya region during the period of New Uzbekistan, focusing on its institutional foundations, socio-economic outcomes and regional characteristics. It argues that the social protection system has moved from a general support model to a new stage based on identifying vulnerable groups, assessing their social situation, providing individualized assistance and monitoring results. Using Kashkadarya region as a case study, the article examines the “Iron Register”, “Women’s Register”, “Youth Register”, neighborhood-based work, “Inson” social service centers, employment programs and poverty reduction measures as practical manifestations of the social state principle.

Keywords: New Uzbekistan, Kashkadarya region, targeted social protection, poverty reduction, social policy, “Iron Register”, “Women’s Register”, “Youth Register”, “Inson” centers, neighborhood-based system, employment.

KIRISH: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy mazmuni inson qadri, ijtimoiy adolat, aholi farovonligi va ijtimoiy davlat tamoyillarini hayotga izchil tatbiq etish bilan belgilanadi. So‘nggi yillarda mamlakatda ijtimoiy himoya tizimi faqat nafaqa yoki moddiy yordam berish amaliyoti bilan cheklanmasdan, aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash, ularning ijtimoiy holatini kompleks baholash, bandlikka ko‘maklashish, kasbga o‘qitish, tadbirkorlikka jalb etish, sog‘liqni saqlash, reabilitasiya va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish kabi ko‘p tarmoqli siyosatga aylandi.

ASOSIY QISM: Qashqadaryo viloyatida manzilli ijtimoiy himoya siyosatining ahamiyati, avvalo, hududda aholi sonining barqaror o‘sib borishi bilan bog‘liq. Demografik o‘sish ijtimoiy xizmatlar, bandlik, tibbiy yordam, uy-joy, ta’lim va kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojni yildan-yilga oshirmoqda. Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyati aholisi 2017-yil 1-yanvarda 3 088,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga 3 717,0 ming kishiga yetgan. Demak, 2017–2026-yillar oralig‘ida viloyat aholisi 628,2 ming kishiga yoki taxminan 20,3 foizga ko‘paygan. Viloyat aholisining tez o‘sishi, qishloq hududlari ulushining yuqoriligi, mehnat resurslari ko‘pligi, yoshlar va xotin-qizlar bandligi, kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish kabi masalalar manzilli ijtimoiy himoya siyosatini hududiy kesimda tahlil qilish zaruriyatini kuchaytiradi.

Qashqadaryoda aholi o‘sishi muntazam va barqaror xarakterga ega. 2020-yildan keyin o‘sish sur’atining nisbatan tezlashgani viloyatda ijtimoiy infratuzilmaga bosim kuchayganini ko‘rsatadi. Masalan, 2026-yil 1-yanvar holatiga aholining 1 583,8 ming nafari shahar joylarda, 2 133,2 ming nafari qishloq joylarda istiqomat qilgan; qishloq aholisining ulushi 57,4 foizni tashkil etgan. Bu holat Qashqadaryoda manzilli ijtimoiy himoyani, ayniqsa, qishloq mahallalari, chekka hududlar, ko‘p farzandli oilalar, ishsiz yoshlar va ehtiyojmand xotin-qizlar kesimida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, Qashqadaryoda manzilli ijtimoiy himoya siyosatining amalga oshirilishi nafaqat ijtimoiy yordam tizimi, balki aholining turmush sifati, mehnat bozori, mahalla instituti, davlat xizmatlari va ijtimoiy adolat tamoyillarini birlashtiruvchi kompleks jarayon sifatida qaralishi lozim.

Yangi O‘zbekistonda manzilli ijtimoiy himoyaning konseptual asoslari yaratildi. Yangi O‘zbekiston davrida ijtimoiy himoya siyosati mazmunan yangi bosqichga ko‘tarildi. Avvalgi amaliyotda ijtimoiy yordam ko‘proq belgilangan toifalarga asoslangan holda ajratilgan bo‘lsa, keyingi yillarda yordam berish mezonlari oila, mahalla va shaxsning real ijtimoiy holatini baholashga yo‘naltirildi. Bu o‘zgarish ijtimoiy siyosatda manzillilik, shaffoflik va natijadorlik tamoyillarini kuchaytirdi. 2022-yilda qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da aholi farovonligini oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni qisqartirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Shu bilan birga, aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirish, ijtimoiy yordamni adolatli taqsimlash va zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashning institusional mexanizmlarini mustahkamlashga qaratildi.

Manzilli ijtimoiy himoyaning asosiy mohiyati shundaki, davlat yordami faqat ariza bergan fuqaroga emas, balki ijtimoiy xavf guruhida bo‘lgan, daromadi

past, mehnat bozoriga kirish imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan, yakka-yolg‘iz yoki ko‘p farzandli oilalarga ham faol aniqlash mexanizmi orqali yetkaziladi. Qashqadaryoda bu mexanizm mahalla, sektorlar, “Inson” markazlari, hokimliklar, bandlik organlari va jamoat tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryo viloyati aholisi respublikadagi eng yirik demografik hududlardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortishi ijtimoiy xizmatlar, ish o‘rinlari, tibbiy xizmat, ta’lim, uy-joy va kommunal infratuzilmaga ehtiyojni ham oshiradi. Demografik o‘sish sharoitida ijtimoiy himoyaning oddiy moddiy yordam shakli yetarli bo‘lmaydi. Chunki aholining ehtiyojlari turlicha: bir oilaga vaqtinchalik moddiy yordam kerak bo‘lsa, boshqasiga doimiy bandlik, yana biriga tibbiy reabilitasiya, boshqasiga uy-joy sharoitini yaxshilash yoki farzandlar ta’limi uchun ko‘mak zarur bo‘ladi. Shu sababli Yangi O‘zbekiston davrida Qashqadaryoda ijtimoiy himoya siyosati umumiy yordam berish amaliyotidan aniq oila, aniq shaxs va aniq mahalla muammosini hal etishga qaratilgan manzilli tizimga aylandi.

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy himoyani manzilli amalga oshirishda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” muhim vositaga aylandi. Bu tizimlar aholining ehtiyojmand qatlamlarini ro‘yxatga olish, ularning muammosini aniqlash va yordam ko‘rsatishning individual rejasini ishlab chiqish imkonini berdi.

“Temir daftar” asosan kam ta’minlangan, doimiy daromad manbai yo‘q, ijtimoiy xavf guruhidagi oilalarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qildi. Mazkur tizim orqali oilalarga oziq-ovqat, bir martalik moddiy yordam, tibbiy xizmat, uy-joy ta’miri, kommunal to‘lovlar bo‘yicha ko‘mak, shuningdek, bandlikka yo‘naltirish kabi choralar amalga oshirildi.

“Ayollar daftari” xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi, bandligi va iqtisodiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. 2024-yilda qabul qilingan hujjatlarda “Ayollar daftari” jamg‘armasi orqali bir martalik moddiy yordam bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha, ayrim hollarda sektor rahbari xulosasi asosida 2 baravari miqdorida belgilanishi ko‘rsatilgan. Bu amaliyot yordamning huquqiy asosda, aniq mezonlar bo‘yicha ajratilishiga xizmat qiladi.

“Yoshlar daftari” esa ishsiz, kasb-hunarga ega bo‘lmagan, ta’lim va bandlikda qiyinchilikka duch kelayotgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim mexanizm bo‘ldi. Qashqadaryoda yoshlar ulushining yuqoriligi hisobga olinsa, mazkur tizim mehnat bozorida faollikni oshirish, kasbga o‘qitish, subsidiya ajratish, tadbirkorlikka jalb etish va ijtimoiy xavflarni kamaytirishda muhim vazifani bajarmoqda.

Qashqadaryo viloyatida manzilli ijtimoiy himoya siyosatining amaliy natijalari “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar” tizimlari orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu tizimlar ehtiyojmand aholini umumiy statistik toifa sifatida emas, balki aniq ijtimoiy muammosi, daromad manbai, oilaviy holati, salomatligi, bandligi va hayotiy ehtiyoji asosida o‘rganish imkonini berdi. 2021-yil Qashqadaryoda “daftarlar” tizimining faol amaliy bosqichga o‘tgan yili bo‘ldi. Viloyat hokimining hisobotida “Temir daftar”da turgan 13 mingga yaqin kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun 22 mlrd so‘m, ushbu daftardagi 11 686 ta oilaning 25 176 nafar voyaga yetmagan farzandlariga 12 mlrd 588 mln so‘m bir martalik yordam ajratilgani qayd etilgan. Shuningdek, “Ayollar daftari” doirasida 71 mingdan ortiq xotin-qizlarga 25 mlrd so‘mlik manzilli yordam ko‘rsatilgan, 26 mingga yaqin xotin-qizlar bandligi ta’minlangan, 4,5 ming nafariga 63 mlrd so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan. “Yoshlar daftari” bo‘yicha esa 18 992 nafar yoshlarga 23 mlrd 460 mln so‘mlik moliyaviy ko‘mak berilgan.

2021-yilda Qashqadaryoda “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan fuqarolarga bir yil davomida 83 mlrd so‘mlik yordam berilgani haqida ma’lumot e’lon qilingan. Bu raqam mazkur tizimning hududda moddiy yordam, bandlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni birlashtiruvchi mexanizm sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

2022-yilda tizimning asosiy e’tibori yoshlar bandligi, kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikka jalb etishga qaratildi. Qashqadaryo viloyatida “Yoshlar dasturi” asosida 36 ming nafardan ziyod yoshlarning bandligi ta’minlangan, 12 892 nafar yoshlar doimiy va jamoat ishlariga joylashtirilgan, 9 663 nafar yoshlarga 5 542 gektar yer ajratilgan. Shuningdek, 2 809 nafar yoshlarga bandlikni ta’minlash maqsadida 6 mlrd 429 mln so‘m subsidiya, 11 068 nafar yoshlarning tadbirkorlik faoliyati uchun 270 mlrd 313 mln so‘m kredit ajratilgan. “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 22 488 nafar yoshning 21 447 nafariga amaliy yordam ko‘rsatilgan, “Yoshlar daftari” jamg‘armasidan 37,8 mlrd so‘m sarflangan.

2025-yilda “daftarlar” tizimi yanada ixtisoslashgan ijtimoiy yordam shakllari bilan boyidi. Masalan, Koson tumanida “Ayollar daftari” jamg‘armasi hisobidan 861 nafar ehtiyojmand xotin-qizga moddiy yordam ko‘rsatish uchun 1 mlrd 456 mln 700 ming so‘m ajratilgan. Bu misol “Ayollar daftari”ning umumiy moddiy yordamdan tashqari tuman va mahalla kesimida aniq ehtiyojmand guruhlarni qo‘llab-quvvatlash vositasiga aylanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2025-yilda Qashqadaryo viloyatida “Ayollar daftari” jamg‘armasi hisobidan 134 nafar ijtimoiy ehtiyojmand talaba qizlarning to‘lov-kontrakt mablag‘lari qoplab berilgani, bu maqsadga 1 mlrd 127 mln so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgani haqida ma’lumot berilgan. Bu holat manzilli ijtimoiy himoyaning ta’lim orqali ijtimoiy lift vazifasini ham bajarayotganini ko‘rsatadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Shu asosda aytish mumkinki, Qashqadaryoda manzilli ijtimoiy himoya siyosati oddiy moddiy yordam berish tizimidan bosqichma-bosqich ravishda aholini band qilish, kasbga o‘qitish, tadbirkorlikka jalb etish, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy faollashtirish, ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan kompleks ijtimoiy siyosatga aylandi.

Yangi O‘zbekiston davrida ijtimoiy himoya tizimidagi muhim institusional o‘zgarishlardan biri “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishidir. Bu markazlar aholiga ijtimoiy xizmatlarni yaqinlashtirish, ehtiyojmand shaxslar bilan individual ishlash va ijtimoiy yordam natijadorligini monitoring qilishga xizmat qiladi. “Inson” markazlarining ahamiyati shundaki, ular ijtimoiy himoyani faqat pul to‘lovi emas, balki ijtimoiy xizmat, psixologik yordam, huquqiy maslahat, reabilitasiya, parvarish, protez-ortopediya vositalari bilan ta’minlash, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash kabi kompleks xizmatlar bilan boyitadi. Bu esa Qashqadaryoda ijtimoiy himoya siyosatini an’anaviy ma’muriy yordamdan professional ijtimoiy xizmatlar tizimiga yaqinlashtiradi.

Qashqadaryo viloyatida manzilli ijtimoiy himoya siyosatining eng muhim natijalaridan biri uning bandlik siyosati bilan uzviy bog‘langanidir. Chunki kambag‘allikni faqat nafaqa yoki moddiy yordam orqali bartaraf etib bo‘lmaydi. Barqaror natijaga erishish uchun aholini daromadli mehnatga jalb qilish, kasbga o‘qitish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mahallada iqtisodiy faollikni oshirish zarur. 2025-yil yakuniga ko‘ra Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot 98,8 trln so‘mni tashkil etgan, iqtisodiy o‘sish 6,8 foiz bo‘lgan. Yil davomida 574 ming nafar aholining daromadli mehnat bilan bandligi ta’minlangan. Natijada ishsizlik darajasi 5,9 foizdan 4,9 foizga, kambag‘allik darajasi esa 9,6 foizdan 6,5 foizga pasaygan. Ushbu raqamlar Qashqadaryoda ijtimoiy himoya siyosati kambag‘allikni qisqartirish, aholining mehnat faolligini oshirish va iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq holda amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Ya’ni yordamga muhtoj aholi faqat passiv yordam oluvchi subyekt sifatida emas, balki mehnat bozoriga qaytarilishi, kasbiy malakasi oshirilishi va daromad manbaiga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan ijtimoiy guruh sifatida qaralmoqda.

2026-yilda Qashqadaryoda kambag‘allik darajasini 3 foizga tushirish vazifasi belgilangani ham hududda ijtimoiy himoya va bandlik siyosati yanada faol bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Qashqadaryoda ijtimoiy himoya siyosatining samaradorligi hudud iqtisodiyotidagi o‘sish bilan bevosita bog‘liq. 2017–2025-yillarda aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 3,2 barobar o‘sib, 26,9 mln so‘mga yetgan.

Bu ko‘rsatkichlar ijtimoiy himoya siyosatini moliyaviy ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy byudjet imkoniyatlarini kengaytirish va aholining daromad manbalarini diversifikasiya qilish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, xizmatlar sohasidagi 13,6 foizlik o‘sish xotin-qizlar va yoshlar bandligi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Qishloq xo‘jaligidagi o‘sish esa tomorqa, kooperasiya, chorvachilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kam ta’minlangan oilalarning barqaror daromadga ega bo‘lishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy natijadorligi uning aholi turmush darajasiga qanchalik ta’sir ko‘rsatishi bilan baholanadi. Agar o‘sish yangi ish o‘rinlari, daromadlar oshishi, kambag‘allik pasayishi va ijtimoiy xizmatlar sifati yaxshilanishi bilan uyg‘unlashsa, u haqiqiy ijtimoiy samara beradi.

Qashqadaryoda manzilli ijtimoiy himoyaning muhim xususiyati mahallabay ishlash tizimi bilan bog‘liq. Mahalla fuqarolarning real ijtimoiy holatini, oilaviy sharoitini, daromad manbalarini, salomatlik holatini va ehtiyojini yaqindan biladigan institut hisoblanadi. Shu sababli mahalla orqali ijtimoiy yordamni tashkil etish manzillilikni oshiradi. Mahallabay ishlash tizimida kam ta’minlangan oila faqat ro‘yxatga kiritilmaydi, balki uni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha amaliy yo‘l xaritasi ishlab chiqiladi. Bunda oilaning mehnatga layoqatli a’zolari ishga joylashtiriladi, kasbga o‘qitiladi, tadbirkorlikka jalb qilinadi, xotin-qizlarga subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratiladi, nogironligi bo‘lgan shaxslarga reabilitasiya vositalari beriladi, yoshlar esa ta’lim va bandlik dasturlariga yo‘naltiriladi. Bu yondashuv ijtimoiy yordamni “muammoni vaqtincha yengillashtirish” vositasidan “muammoning sababini bartaraf etish” mexanizmiga aylantiradi. Shu jihatdan Qashqadaryo tajribasi Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyili mahalla darajasida amaliy mazmun kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Manzilli ijtimoiy himoyaning samaradorligi ko‘p jihatdan raqamlashtirish va ma’lumotlarning ishonchliligiga bog‘liq. 2021-yilda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” elektron tizimlarini takomillashtirish, ularni vazirlik va idoralar ma’lumot bazalari bilan integrasiya qilish vazifasi belgilangan. Bu esa ijtimoiy yordam tayinlashda inson omilini kamaytirish, takroriylikning oldini olish va yordamning haqiqatan muhtojlarga yetib borishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyati kabi aholisi ko‘p va hududlari keng mintaqada raqamlashtirish ayniqsa muhimdir. Chunki ijtimoiy yordam oluvchilarni aniqlash, ularning holatini qayta baholash, yordamning natijasini kuzatish va kambag‘allikdan chiqqan oilalarni monitoring qilish elektron tizimlarsiz samarali amalga oshirilishi qiyin. Biroq raqamlashtirishning o‘zi yetarli emas. U ijtimoiy xodimlar malakasi, mahalla faollari mas’uliyati, fuqarolarning huquqiy xabardorligi va jamoatchilik nazorati bilan uyg‘unlashgandagina ijobiy natija beradi. Shu sababli Qashqadaryoda ijtimoiy himoya tizimini yanada kuchaytirish

uchun elektron ma’lumotlar bazasini muntazam yangilash, ijtimoiy xodimlarni qayta tayyorlash, murojaatlar bilan ishlash madaniyatini oshirish va yordam oluvchilar bilan qayta aloqa mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

XULOSA: Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston davrida Qashqadaryo viloyatida manzilli ijtimoiy himoya siyosati sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Uning asosiy xususiyati ehtiyojmand aholini aniqlash, ularning ijtimoiy holatini baholash, yordam turini individual belgilash, bandlik va daromad manbaiga yo‘naltirish hamda natijani monitoring qilish mexanizmlarining kuchayganida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga tizimning kelgusi samaradorligi ijtimoiy yordamni barqaror daromad manbaiga bog‘lash, qishloq hududlarida xizmatlar qamrovini kengaytirish, ijtimoiy xodimlar malakasini oshirish, elektron monitoringni kuchaytirish va mahalla darajasida jamoatchilik nazoratini rivojlantirishga bog‘liq. Qashqadaryo tajribasi Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati inson qadrini ulug‘lash, ijtimoiy adolatni ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasi ekanini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PF–175-son “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi PF–120-son “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ–347-son “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 250-son “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
5. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni.
6. Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlar. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali, 2026 yil.
7. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma’lumotlari. Qashqadaryo viloyatida aholi bandligi va kambag‘allikni qisqartirish masalalari tahlili, 2026 yil.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi rasmiy ma’lumotlari. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati.

9. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

10. Ravshanov A. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasi aholisi moddiy ahvolidagi o‘zgarishlar va ijtimoiy tizimda amalga oshirilgan chora-tadbirlar // *Sohibqiron yulduzi*. – 2022. – №1.

SHAHRISABZ MAHALLALARIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY HAYOT

Komilov Sobit

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Shahrisabz shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Xususan, shahar hokimligining tashkil etilishi va uning faoliyati, fuqarolar yig‘inlari hamda mahallalarning jamiyat hayotidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, aholi turmush darajasini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy faollikni oshirish va madaniy hayotni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilingan.

Tayanch so‘zlar: Oila, fuqarolar yig‘ini, mahalla, sanoat korxonasi, “Hujum fabrikasi”, shahar kengashi, shahar hokimligi, Qutchi qishloq fuqarolar yig‘ini, mahallamarkazi, Ijtimoiy himoya, “Mahalla” xayriya jamoat fondi.

ОБЩЕСТВЕННО-ДУХОВНАЯ ЖИЗНЬ В МАХАЛЛЯХ ШАХРИСАБЗА

Комилов Собит

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье анализируются изменения, произошедшие в социально-экономической и культурной жизни города Шахрисабза в годы независимости. Особое внимание уделяется созданию и деятельности городской администрации, роли сходов граждан и махаллей в общественной жизни. Кроме того, рассматриваются работы, проведённые в целях повышения уровня жизни населения, благоустройства территорий, развития социальной инфраструктуры, активизации экономической деятельности и поддержки культурной жизни города.

Ключевые слова: Семья, сход граждан, микрорайон, промышленное предприятие, «Атака фабрики», городской совет, городская администрация, сход граждан села Кучи, районный центр, Социальная защита, Благотворительный общественный фонд «Махалля».

SOCIAL AND SPIRITUAL LIFE IN THE MAHALLAS OF SHAHRISABZ

Komilov Sobit
Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the changes that took place in the socio-economic and cultural life of the city of Shahrisabz during the years of independence. Particular attention is given to the establishment and activities of the city administration, as well as the role of citizens' assemblies and mahallas in public life. The article also reviews measures implemented to improve living standards, develop social infrastructure, enhance economic activity, improve urban areas, and support the cultural development of the city.

Key words: Family, citizens' assembly, neighborhood, industrial enterprise, "Attack factory", city council, city administration, Kutchi village citizens' assembly, neighborhood center, Social protection, "Mahalla" charity public fund.

KIRISH: 1992-yil 4-yanvarda O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan qonun asosida viloyatlarda ham hokimlik tizimi yangidan tashkil etildi. 1992-yilning bahorida viloyat hokimlari, so‘ngra shahar va tuman hokimlari saylandi. Xalq deputatlari Shahrisabz shahar kengashining 1992-yil 21-iyulda XXI chaqiriq IX sessiyasida viloyat hokimining Shahrisabz hokimini tayinlash to‘g‘risidagi qarori ko‘rib chiqildi [1:99]. Shahar hokimi etib Azim Zayniddinov, birinchi muovinligiga O.Xurramov, umumiy ishlar bo‘limi midirligiga K.Qilichevlar tasdiqlandilar. Shu yilda Shahrisabz tumani hokimi Allanazarov Shuhrat Niyozovich edi.

ASOSIY QISM: 1992-yil Shahrisabz shahrida 13 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatdi. Ularda mehnat qilayotgan kishilar 5100 nafarni tashkil etdi. 1992-yilda “Hujum” fabrikasi 54 mln so‘mlik maxsulot ishlab chiqardi. 1996-yilning dastlabki 6 oyida Shahrisabz tumanida Qutchi qishloq fuqarolar yig‘ini hududida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish maqsadida 32 ta kichik korxona va bitta sut pishirish korxonasi faoliyat ko‘rsatdi. Bu kichik korxonalarda 200 dan ortiq kishi ish bilan ta’minlandi. Ayniqsa hududdagi “Ko‘zgu”, “Charos”, “Nodir” kichik korxonalari ishlab chiqargan maxsulotlari aholi o‘rtasida xaridorgir bo‘ldi [2:30].

1997-yilning 10-iyulida Shahrisabz shahar va tuman hokimligi majlislar zalida faollar yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda shahar xalq xo‘jaligi tarmoqlarida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida 1997-yil birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar yakuni to‘g‘risidagi masala muhokama etildi. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan muayyan ishlar amalga oshirildi.

1989-yilning yanvarida o‘tkazilgan aholi ruyxati bo‘yicha Shahrisabz shahrining o‘zida 63 ming 57 kishi yashagan bo‘lsa, 1993-yilning yanvarida shahar aholisi 57 ming 100 kishiga yetdi. O‘tgan 1992-yilda aholining tabiiy o‘sishi 1600 kishini tashkil etdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan Shahrisabz aholisini ijtimoiy jihatdan himoyalash maqsadida miqdori muntazam raivshda o‘zgartirib turilgan, ish haqi, pensiyalar, stependiyalar, turli nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari tarzidagi pul to‘lovlari, imtiyozlar joriy qilish usullari keng qo‘llanildi.

1993-yil 13-martda Shahrisabz shahar hokimligiiningrejasi bo‘yicha shaharda umumxalq o‘tkazildi. Hasharda 30 ming kishi qatnashib, hashardan tushgan 1 mln 920 ming200 so‘m pul “Navro‘z” jamg‘armasiga o‘tkazildi. 1993-yil 21-mart kuni shahar hokimligining tashabbusi bilan kam ta’minlangan 155 oilaga sovg‘alar tortiq qilindi [3:6].

1997-yil “Inson manfaatlari yili” deb nomlangan yilda ijtimoiy sohadagi barcha ishlar mazmuni aholining turmushi farovonligini oshirishga qaratildi. Aholini zarur mahsulotlar bilan muntazam ta’minlab borish maqsadida tadbirlar ishlab chiqildi.

1997-yilda bu borada 240 ta har xil mulk formasidagi korxona va tashkilotlar savdo bilan shug‘ullandi. Shaharning o‘zida aholiga 230 ga yaqin savdo do‘konlari. 50 ta oshxona faoliyat ko‘rsatdi.

1998-yil da tuman va shahar aholisiga 816 mln 712 ming so‘mlik savdo xizmati ko‘rsatildi. Bu o‘tgan yilning to‘qqiz oyiga qaraganda 206 mln so‘m ko‘pdir. Lekin, aholiga savdo xizmati ko‘rsatishda jiddiy kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yildi. Iste’mol bozorini xaridorgir tovarlar bilan to‘ldirish, 8 turdagi oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta’minlashda uzilishlarga yo‘l qo‘yildi.

1998-yilda Oila yili munosabati bilan madaniy-ma’rifiy muassasalar va mahallalarda, kutubxonalarda qator tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, mahallalarda va madaniy-ma’rifiy muassasalarda “Ayol, oila va jamiyat”, “ Oila”, “Ibratli kishi”, “Oila – jamiyat tayanchi”, “Oila-muqaddas qo‘rg‘on”, “Oila – bu Vatandir”, “Oila bosh tarbiyachi”, “Ona borki – olam go‘zal”, “Inson manfaati va oila” kabi mavzularda adabiy kechalar, suhbatlar tashkil etildi. Shuningdek, “Eng faol kitobxon oila” tanlovlari o‘tkazidi.

Umuman olganda Shahrisabz shahar mahallalarida 2006-yilda 91483 kishini tashkil etib, erkaklar 45765 kishini (50.1%), ayollar 45718 (49.9%), 2016-yilda jami aholi soni 103527 nafarni tashkil etib, erkaklar 52644 nafar kishini (50.9%), ayollar 50883 nafar bo‘lib, 49.1% ni tashkil etdi [4:205].

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Kvartira (uy)larning tabiiyo gaz, kanalizatsiya, ichimlik suv quvuri bilan ta’minlanishi Shahrisabz shahrida 2020-yilda 41.3%, kanalizatsiya 27 %, ichimlik suv quvuri 48.4 % ni tashkil etdi.

2018-yilda Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat, tuman (shahar) kengashlari hamda fuqarolar yig‘inlari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Shahrisabz tumanida “Mahalla markazi” qurilib, foydalanishga topshirildi.

Mahallalarda uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda mehnat migratsiyasini oldini olish maqsadida tadbirkorlik subyektlari ochilishiga hamda 46ta yangi ish o‘rinlari yaratilishiga ko‘maklashildi.

Shuningdek, fuqarolar yig‘inlari tomonidan 95 nafar ishsiz fuqarolar haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi.

Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil 18 nafar yoshlar (18-30 yosh), 25 nafar voyaga yetmaganlar ichki ishlar organlarining profilaktik hisobiga olinib, ular bilan hamkorlikda yakka tartibda profilaktik ishlar amalga oshirildi.

Respublika Mahallalar kengashi bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi o‘rtasida imzolangan hamkorlik memorandumiga asosan 3ta fuqarolar yig‘inlari ishtirokida 2 marotaba sayyor sudlar tashkil etildi.

Shahrisabz shahri mahallalari bo‘yicha 16 nafar muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar oilalari bilan suhbatlashilib, ularning darsga qatnashishlari ta’minlandi.

O‘g‘il-qizlarni maktabdan tashqari turli to‘garaklarga jalb etish maqsadida umumta’lim maktablaridagi 11 ta fan to‘garaklariga o‘quvchilar jalb etildi.

Kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ehtiyojmand, boquvchisini yo‘qotgan, voyaga yetmagan farzandlari bo‘lgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, sog‘lig‘ini tiklash va yakka-yolg‘iz qariyalar, nogironlar hamda tabiiy ofatdan jabr ko‘rgan 71 nafar fuqarolar uchun jami 81,7 mln. so‘m moddiy yordam ko‘rsatildi.

2019-yilda esa Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olingan edi.

Fuqarolar yig‘inlari raisi (oqsoqoli) va xodimlarining oylik maoshlarini “Mahalla” xayriya jamoat fondiga o‘tkazish hamda Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy kengashlar tomonidan oylik maoshlarini to‘lab berish tartibini joriy etish, Fuqarolar yig‘inlari to‘g‘risida barcha zarur ma’lumotlarni o‘zida jamlangan «Mahalla» elektron ma’lumotlar bazasini yaratish [2:30], Fuqarolar yig‘inlari faoliyati samaradorligini oshirish, yig‘in xodimlari va faollari mehnatini rag‘batlantirishni ularning qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarining to‘laqonli ijrosini ta’minlash, joylarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ro‘yobga chiqarishdagi faoliyatlarining ahamiyati va yetakchi rolini oshirish maqsadida fuqarolar yig‘inlari xodimlari va faollari ishlarining samaradorligini 2018-yil yakunlari bo‘yicha 2019-yil fevral oyida reyting baholash Mezonlari tartibi asosida baholash.

Shuningdek, kitobning jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirish, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri, dunyoqarashini yuksaltirish, ona Vatan hamda xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini keng targ‘ib etish maqsadida mahallalarning xizmat binolarida kutubxonalarni tashkil qilish.

XULOSA: Xullas, mamlakatimizda vataniga, xalqiga fidokor, mustaqil fikrlaydigan, masalalarni ongli ravishda, mas’uliyat bilan hal qila oladigan, izlanuvchan, yangilikka intiluvchi va istiqlol g‘oyalariga sadoqatli avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan qator tadbirlar tizimi ishlab chiqildi. Islohotlarning taqdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yuritilmoqda. Yagona g‘oya – Milliy istiqlol mafkurasi mavjud intellektual imkoniyatlarni ishga solishga, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga, oliyjanoblik tuyg‘ularini chuqurlashtirishga, shonli o‘tmishga hurmat va porloq kelajakka ishonch hislarini mustahkamlashga mahalla fuqarolar yig‘inining xizmati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ҳакимов Н, Жўрақулов О. Шаҳрисабз тарихи. – Қарши: “Насаф”, 2001. – B. 99.

2. Qashqadaryo viloyat Davlat arxivining Shahrisabz filiali. 86-Jamg‘arma 2-ro‘yxat, 55-ish, 30-varaq.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архивиининг Қашқадарё вилояти филиали 856-Жамғарма 1-рўйхат, 89-иш, 6-варақ..

4. Полвонов К. Қашқадарё воҳаси шаҳарлари тарихи (1970–2021 йиллар). – Тошкент: “Тамаддун”, 2022. – B. 205.

1960-1980-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA IPAKCHILIK SANOATINING RIVOJLANISH JARAYONLARI

Urinov Islomjon Olimjon o‘g‘li

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1960–1980-yillarda O‘zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Mazkur davrda ipakchilik tarmog‘ining iqtisodiy ahamiyati, ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi hamda davlat siyosatining ushbu sohaga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, pillachilik va ipakchilik korxonalarining faoliyati, xomashyo bazasining kengayishi va mehnat resurslaridan foydalanish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida ushbu davrda ipakchilik sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: ipakchilik, pillachilik, sanoat rivoji, O‘zbekiston, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnologiya, xomashyo, korxonalar, mehnat resurslari

ПРОЦЕССЫ РАЗВИТИЯ ШЁЛКОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1960–1980-Е ГОДЫ

Уринов Исломжон Олимжон угли
Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби

Аннотация. В данной статье анализируются процессы развития шелковой промышленности в Узбекистане в 1960–1980-е годы. Рассматривается экономическое значение отрасли, рост объемов производства, внедрение новых технологий, а также влияние государственной политики на развитие шелководства. Особое внимание уделяется деятельности шелководческих предприятий, расширению сырьевой базы и использованию трудовых ресурсов. На основе проведенного анализа определены основные тенденции развития отрасли и ее роль в экономике страны.

Ключевые слова: шелководство, шелковая промышленность, развитие отрасли, Узбекистан, экономика, производство, технологии, сырьевая база, предприятия, трудовые ресурсы

DEVELOPMENT PROCESSES OF THE SILK INDUSTRY IN UZBEKISTAN IN THE 1960s–1980s

Urinov Islomjon Olimjon o‘g‘li
Uzbek National Institute of Musical Art named after Yunus Rajabiy

Annotation. This article analyzes the development processes of the silk industry in Uzbekistan during 1960–1980. The study examines the economic importance of the sector, the growth of production volumes, the introduction of new technologies, and the impact of state policy on the development of sericulture. Special attention is paid to the activities of silk enterprises, the expansion of the raw material base, and the use of labor resources. Based on the analysis, the main trends and the role of the silk industry in the national economy are identified.

Keywords: sericulture, silk industry, industrial development, Uzbekistan, economy, production, technology, raw materials, enterprises, labor resources

KIRISH: 1961-yil yanvar Plenumi qarorlariga muvofiq, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kolxoz va sovxozlardan davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish shartnomaviy – kontraktatsiya tizimi orqali amalga oshirila boshladi. Ushbu tizim ipakchilik tarmog‘ida, xususan, tut ipak qurti pillasini tayyorlash va qabul qilish

sohasida alohida ahamiyat kasb etdi. Pilla boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan farqli ravishda oziq-ovqat emas, balki faqat sanoat xomashyosi sifatida qo‘llanilishi bilan ajralib turadi [1]. Shu bois uning harakati bevosita to‘qimachilik va ipak qayta ishlash korxonalari ehtiyojlari bilan bog‘liq edi.

Pilla tayyorlash jarayoni mavsumiy xususiyatga ega bo‘lib, yig‘im-terim va qabul qilish kampaniyasi odatda bir hafta atrofida davom etgan. Shu sababli davlat shartnomalarida pillani belgilangan muddatlarda topshirish majburiyati qat’iy belgilab qo‘yilgan. Qabul jarayonini samarali tashkil etish maqsadida vaqtinchalik qabul punktlari tashkil etilgan bo‘lib, ular yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan va bosh kokonopryadilnyalar nomidan faoliyat yuritgan [2]. Bu holat markazlashgan boshqaruv va moddiy javobgarlik tizimini mustahkamlagan.

ASOSIY QISM: Kontraktatsiya shartnomalarining asosiy ishtirokchilari sifatida kolxozlar, sovxozlar, tajriba xo‘jaliklari, shuningdek bosh kokonopryadilnyalar va grenaj zavodlari qatnashgan. Pilla iste’mol xususiyatiga ko‘ra sanoat va plemennoy turlarga ajratilgan. Sanoat pillasi bosh kokonopryadilnyalar orqali qabul qilingan bo‘lsa, plemennoy pilla grenaj zavodlari tasarrufiga kiritilgan. Shu tariqa, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan farqli o‘laroq, pilla tayyorlash tizimi yagona markazlashgan struktura — O‘zSSR Qishloq xo‘jaligi vazirligi tarkibidagi “Glavshelkopryad” tizimi orqali amalga oshirilgan.

Shartnomaviy munosabatlar ba’zan murakkab huquqiy konstruksiyaga ega bo‘lgan. Ayrim hollarda pilla ishlab chiqaruvchi va uning oxirgi iste’molchisi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa bo‘lmagan. Bunday vaziyatlarda ikki bosqichli shartnomalar tizimi qo‘llanilgan: birinchidan, pilla ishlab chiqaruvchi xo‘jalik va bosh kokonopryadilnya o‘rtasida kontraktatsiya shartnomasi; ikkinchidan, bosh kokonopryadilnya va ipakni qayta ishlovchi korxona (masalan, ipak-yig‘iruv yoki shoyi kombinati) o‘rtasida yetkazib berish shartnomasi tuzilgan [3]. Bu tizim sovet fuqarolik qonunchiligining 38-moddasiga muvofiq, majburiyatlarni uchinchi shaxs orqali bajarish mexanizmiga asoslangan.

Grenaj zavodlari moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda alohida o‘rin tutgan. Ular xo‘jaliklarga ipak qurtini parvarishlash xarajatlari uchun avans mablag‘lari ajratgan, texnika va moddiy resurslar bilan ta’minlagan, pillani qabul qilgan va yetkazib berish xarajatlarini qoplagan. Ayrim hollarda rejadan ortiq pilla hosili olingan taqdirda, uning realizatsiyasi alohida shartnomalar – yetkazib berish yoki oldi-sotdi shartnomalari asosida amalga oshirilgan. Bu holat ipakchilik tarmog‘ida rejalashtirish va moliyaviy hisob-kitob tizimi nisbatan moslashuvchan bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kontraktatsiya shartnomalarida ayrim hollarda fuqarolar ham ishtirok etgan. Jumladan, 1971-yilda Namangan bosh kokonopryadilnyasi tomonidan 500 nafar

fuqaro bilan 27 000 kg pilla tayyorlash bo‘yicha shartnoma tuzilgan bo‘lib, umumiy qiymati 106 817 rublni tashkil etgan [4]. Bu holat sovet xo‘jalik huquqida asosan sotsialistik tashkilotlar ishtirok etishi nazarda tutilgan bo‘lsa-da, amalda individual mehnat shakllari ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bosh kokonopryadilnyalarning individual ipakchilar oldidagi majburiyatlari orasida urug‘ (grena) bilan ta’minlash, tabiiy kredit berish, ishlab chiqarish uchun zarur materiallar, asbob-uskunalar va yoqilg‘i bilan ta’minlash, shuningdek, maslahat va metodik yordam ko‘rsatish kabi vazifalar mavjud bo‘lgan. Bu holat ipakchilik tarmog‘ida moliyaviy mexanizm faqat pul hisob-kitobiga emas, balki moddiy-texnik qo‘llab-quvvatlash tizimiga ham asoslanganini ko‘rsatadi.

Sovet davrida O‘zbekiston ipak sanoati moliyaviy boshqaruv tizimi markazlashgan reja-xo‘jalik mexanizmi asosida faoliyat yuritgan bo‘lib, tarmoqning iqtisodiy samaradorligi foyda, realizatsiya hajmi va rag‘batlantirish fondlari orqali baholangan. 1965-yilgi iqtisodiy islohotdan keyin korxonalar faoliyatida foyda ko‘rsatkichi nisbatan muhim mezonga aylangan bo‘lsa-da, amalda moliyaviy mustaqillik cheklangan holda qolgan.

Jumladan, 1966-yilda O‘zbekiston ipak sanoatida korxona fondini shakllantirish uchun jami foydaning atigi 2,8 foizi yo‘naltirilgan. Taqqoslash uchun, ushbu ko‘rsatkich poyabzal sanoatida 4,1 foiz, mashinasozlik tarmog‘ida 3,9 foizni tashkil etgan. Bu holat ipak sanoatida iqtisodiy rag‘batlantirish imkoniyatlari boshqa tarmoqlarga nisbatan cheklanganligini ko‘rsatadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Korxona fondi hisobidan ajratilgan mablag‘lar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va mehnatni rag‘batlantirish sohasida sezilarli ta’sir ko‘rsata olmagan. Masalan, 1966-yilda O‘zbekiston SSR ipak sanoatining 7 ta korxonasida yangi texnika joriy etish, rekonstruksiya va ishlab chiqarishni kengaytirish ishlariga jami 44 ming so‘m sarflangan bo‘lsa, uy-joy va madaniy-maishiy qurilish uchun 60 ming so‘m ajratilgan. Bu mablag‘lar tarmoq miqyosidagi modernizatsiya ehtiyojlariga nisbatan juda kam bo‘lgan.

Xodimlarni moddiy rag‘batlantirish sohasidagi holat yanada murakkab bo‘lgan. Korxona fondi hisobidan individual mukofotlash faqat “Atlas” fabrikasida (4 ming so‘m) va Qo‘qon ipak to‘qimachilik fabrikasida (1 ming so‘m) amalga oshirilgan. Tarmoqning qolgan korxonalarida esa ishchilar korxona fondi hisobidan umuman mukofot olmagan [5]. Bu esa mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmining amalda cheklanganligini anglatadi.

Shu bilan birga, 1965-yilgi iqtisodiy islohot ta’sirida ayrim korxonalarda foyda va realizatsiya ko‘rsatkichlarini oshirishga intilish kuzatilgan. O‘zbekiston SSR yengil sanoat vazirligi korxonalari yillik realizatsiya hajmini 2 mln so‘mga, foydani esa 1,9 mln so‘mga (2,9 %) oshirish bo‘yicha qo‘shimcha majburiyat

olgan. Ayniqsa, Qo‘qon ipak to‘qimachilik fabrikasida 1967-yil uchun foyda bo‘yicha qo‘shimcha majburiyat dastlab tasdiqlangan rejaga nisbatan 21,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Samarqand ipak to‘qimachilik fabrikasida bu ko‘rsatkich 7,7 foiz bo‘lgan.

1967-yil yakunlari bo‘yicha yengil sanoat korxonalari realizatsiya rejasini 100,3 foiz, foyda rejasini esa 103,9 foiz bajargan. 1966-yilga nisbatan foyda 16,7 foizga, realizatsiya hajmi esa 5,6 foizga oshgan. Ushbu raqamlar iqtisodiy islohotning qisman ijobiy natijalar berganini ko‘rsatadi. Biroq tarmoqda iqtisodiy rag‘batlantirish imkoniyatlari barcha korxonalarda teng darajada amalga oshmagan. Foydaning markazlashtirilgan taqsimoti saqlanib qolgani sababli korxonalar moliyaviy mu staqilligi amalda cheklangan holda davom etgan [6]. Shu bois ayrim fabrikalarda yuqori foizli qo‘shimcha majburiyatlar qabul qilingan bo‘lsa-da, umumiy tarmoq miqyosida modernizatsiya va mehnatni rag‘batlantirish imkoniyatlari to‘liq ro‘yobga chiqmagan.

Ipak sanoatining rivojlanishida partiya tashkilotlari ham muhim o‘rin tutgan. E.Qosimovning 1959–1980-yillarda O‘zbekistonda ipak sanoatini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotida partiya organlarining ilmiy-texnika taraqqiyotini joriy etish, mexanizatsiya va modernizatsiya jarayonlarini rag‘batlantirishdagi roli tahlil qilingan. Muallif qayd etishicha, mazkur davrda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qator qarorlar qabul qilingan [7].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, natijada ipak matolar ishlab chiqarish hajmi respublika miqyosida 23,7 foizga, ittifoq miqyosida esa 13,2 foizga o‘sgan. 1960–1980-yillar oralig‘ida ipak matolar ishlab chiqarish hajmi 4,5 barobarga oshgan [8]. Bu ko‘rsatkichlar sohada muayyan institutsional va tashkiliy harakatlar amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

Ipak sanoati 1960–1970-yillarda markazlashgan rejali iqtisodiyot mexanizmi asosida faoliyat yuritdi. Ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining o‘sishiga qaramasdan, tarmoqning moliyaviy samaradorligi barqaror emas edi.

1966-yilda tarmoq 3,4 mln rubl foyda olgan bo‘lsa, keyingi yillarda zarar qayd etilgan: 1967 yilda – 1,4 mln rubl, 1968 yilda – 6,3 mln rubl, 1969-yilda – 11,5 mln rubl, 1970 yilda – 7,1 mln rubl. Ipak xomashyosidan ko‘rilgan zarar miqdori ham 1966–1970-yillarda 3,39 ming rubldan 3,63 ming rublgacha o‘sgan.

Xomashyo resurslaridan samarasiz foydalanish moliyaviy natijalarga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. 1967-yil hosilining 660 tonnasi keyingi yilda qayta ishlangan, 1969-yilda 156 tonna kokon omborlarda qolib ketgan. Uzoq muddat saqlash va texnologik talablarga to‘liq rioya etilmaslik kokon sifati pasayishiga, qayta ishlash xarajatlarining ortishiga olib kelgan.

1966-yil 1-oktabrdan narx siyosatida o‘zgarishlar kiritilib, yuqori navli kokonlarni rag‘batlantirish maqsadida narx farqlari oshirilgan. Biroq kokon sifati

va chiqimlar muammosi hal etilmagani sababli bu chora moliyaviy barqarorlikni ta’minlay olmagan.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari samaradorligi pasaygan: fond qaytimi 1966-yilda 0,58 bo‘lgan bo‘lsa, 1970 yilda 0,43 ga tushgan. 10 kg kokonni qayta ishlash uchun 55,7 kishi-soat mehnat sarflangan, bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi 30,7 kgdan 26,3 kgga kamaygan. Bu mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishni tashkil etishda tizimli muammolar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [9].

Mehnat munosabatlari davlat rejasiga bo‘ysungan holda shakllangan. Korxonalar reja ko‘rsatkichlarini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari ishlab chiqarish samaradorligi bilan to‘liq uyg‘unlashmagan. Bu esa modernizatsiya qilingan uskunalar joriy etilganiga qaramasdan, mehnat unumdorligining kutilgan darajada o‘smasligiga olib kelgan.

Shu tariqa ipak sanoatida moliyaviy mexanizm markazlashgan rejalashtirish, narx siyosati va kapital qo‘yilmalar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa-da, xomashyo harakati, texnologik intizom va mehnat samaradorligi bilan bog‘liq muammolar tarmoq rentabelligini cheklab qo‘ygan. Sanoatlashuv texnik jihatdan rivojlangan bo‘lsa-da, iqtisodiy samaradorlik masalasi to‘liq hal etilmagan.

XULOSA: 1960–1970-yillarda ipak sanoatida moliyaviy mexanizmning cheklanganligi mehnat munosabatlari tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Korxonalarning moliyaviy mustaqilligi to‘liq ta’minlanmagani, rag‘batlantirish fondlarining kamligi va foydaning markazlashtirilgan tartibda taqsimlanishi ishchilarning iqtisodiy manfaatdorligiga salbiy ta’sir etgan. Shu jihatdan moliyaviy mexanizmning xususiyatlari mehnat intizomi, kadrlar barqarorligi va ishlab chiqarish samaradorligi bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lgan.

Aynan shu shart-sharoitlarda kadrlar siyosati va mehnat intizomi masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan. 1960-yilda respublikada 4362 ta partiya tashkiloti mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1980-yilga kelib ularning soni 6599 taga yetgan, shulardan 4419 tasi sanoat va ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritgan. Bu holat partiya nazoratining ishlab chiqarish tizimiga chuqur kirib borganini ko‘rsatadi [10]. Biroq amaliyotda kadrlar siyosati malaka yetishmasligi, kadrlar qo‘nimsizligi va mehnat intizomining pastligi kabi muammolar bilan to‘qnash kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. ЦК КПСС и Совета Министров СССР от 25 февраля 1961 «О перестройке и улучшении организации государственных закупок сельскохозяйственных продуктов»// СП СССР, 1961, № 4, – С. 21.

2. См.: В. Ф. Яковлев. Основные черты договора контрактации // Правоведение, 1963. – № 3. – С. 65.

3. Рахманкулов Х.А. Правовое регулирование заготовок хлопка-сырца на современном этапе. Ташкент, 1966. – С. 64–72.

4. Яковлев В. Н. Правовые основы заготовки фруктов и винограда. Учёные записки Кишинёвского университета, т. 67, Кишинёв, 1964, стр. 108–118.

5. Боровиков Н. А. Договор контрактации сельскохозяйственной продукции. М., 1963. – С. 9–25.

6. Рахманкулов, Х. А. Договор в сфере товарооборота между промышленностью и сельским хозяйством. Т.,. «Фан», 1969. – С. 111. (372 с.)

7. И. Умаров. Некоторые особенности структуры договорных отношений по заготовке сельхозпродуктов // Общественные науки в Узбекистане. – 1972. – №5. –С.40-42.

8. Дорошенко В.Ф., Каданер Э.Л. Роль фондов экономического стимулирования в повышении эффективности производства // Общественные науки в Узбекистане. – 1970. – № 6. – С.4.

9. Дорошенко В.Ф., Каданер Э.Л. Роль фондов экономического стимулирования в повышении эффективности производства // Общественные науки в Узбекистане. – 1970. – № 6. – С.3-7.

10. Қосимов Э. Руководство Компартии Узбекистана развитием шелковой промышленности в 1959 –1980 гг.: автореф. дисс. … канд. ист. наук. – Ташкент, 1990. – С. 10–18.

11. Узбекистан за годы XI пятилетки (1981–1985 гг.). Стат. сборник. – Ташкент: Изд-во ЦСУ Узбекской ССР, 1986. – С. 23.; Итоги хозяйства СССР за 1981–1985 гг. – М.: Финансы и статистика, 1986. – С. 171.

12. Шафайзиев Ш. Перспективы развития шелкомотальной отрасли в Узбекистане. // Общественные науки в Узбекистане. – 1973. – № 4. – Б. 50-52.

13. Қосимов Э. Руководство Компартии Узбекистана развитием шелковой промышленности в 1959–1980 гг.: автореф. дисс. … канд. ист. наук. – Ташкент, 1990. – С. 12.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YO’L-TRANSPORT HARAKATI-XAVFSIZLIGI FAOLIYATI

Sadirov Aziz Sirojiddinovich

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yo‘l-transport harakati xavfsizligini ta’minlash tizimining rivojlanishi va modernizatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Xususan, 2017-yildan boshlab yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish, xavfsizlik komponentlarini kuchaytirish, “Xavfsiz shahar” loyihasi va intellektual fotoradar tizimlarini joriy etish natijalari yoritilgan. Shuningdek, yo‘l-transport

hodisalarining oldini olish, xavfli yo‘l uchastkalarini aniqlash, piyodalar xavfsizligini oshirish hamda transport oqimlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: yo‘l-transport harakati xavfsizligi, Yangi O‘zbekiston, yo‘l infratuzilmasi, raqamlashtirish, intellektual fotoradar, “Xavfsiz shahar”, yo‘l-transport hodisalari, Vision Zero, xavfli nuqtalar, intellektual transport tizimlari, piyodalar xavfsizligi.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Садиров Азиз Сирожиддинович
Независимый исследователь Каршинского государственного технического университета

Аннотация. В статье анализируются процессы развития и модернизации системы обеспечения безопасности дорожного движения в Новом Узбекистане. Особое внимание уделяется совершенствованию дорожной инфраструктуры с 2017 года, усилению компонентов безопасности, внедрению проекта «Безопасный город» и интеллектуальных фоторадарных систем. Рассматриваются вопросы предупреждения дорожно-транспортных происшествий, выявления участков дорог с повышенной аварийностью, повышения безопасности пешеходов и управления транспортными потоками на основе цифровых технологий.

Ключевые слова: безопасность дорожного движения, Новый Узбекистан, дорожная инфраструктура, цифровизация, интеллектуальный фоторадар, «Безопасный город», дорожно-транспортные происшествия, Vision Zero, аварийно-опасные участки, интеллектуальные транспортные системы, безопасность пешеходов.

ROAD TRAFFIC SAFETY ACTIVITIES IN NEW UZBEKISTAN

Sadirov Aziz Sirojiddinovich
Independent Researcher, Karshi State Technical University

Abstract. This article analyzes the development and modernization of the road traffic safety system in New Uzbekistan. Particular attention is paid to the improvement of road infrastructure since 2017, the strengthening of safety measures, and the introduction of the “Safe City” project and intelligent speed-camera systems. The study examines measures aimed at preventing road traffic accidents, identifying high-risk road sections, improving pedestrian safety, and managing traffic flows through digital technologies.

Keywords: road traffic safety, New Uzbekistan, road infrastructure, digitalization, intelligent speed cameras, Safe City, road traffic accidents, Vision Zero, high-risk road sections, intelligent transport systems, pedestrian safety.

KIRISH: 2017-yildan boshlab O‘zbekistonda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur jarayonda avtomobil yo‘llarini nafaqat rekonstruksiya qilish va ularning o‘tkazuvchanlik imkoniyatlarini oshirish, balki harakat ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlovchi muhandislik vositalarini keng joriy etishga ham alohida e’tibor qaratildi. Xususan, magistral va shahar yo‘llarida zamonaviy yoritish tizimlari, metall va beton himoya to‘siqlari, belgilangan piyodalar o‘tish joylari, xavfli uchastkalarda ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalari hamda transport vositalarining tezligini majburiy pasaytirishga xizmat qiluvchi muhandislik elementlarini o‘rnatish amaliyoti bosqichma-bosqich kengaya boshladi.

Mazkur o‘zgarishlar yo‘l harakati xavfsizligiga nisbatan yondashuvning mohiyatan yangilanganini ko‘rsatadi. Avvalgi davrda yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lganidan keyin uning oqibatlarini bartaraf etishga asoslangan reaktiv model ustunlik qilgan bo‘lsa, yangi bosqichda xavfni oldindan aniqlash, hodisaning yuz berish ehtimolini kamaytirish va yo‘l infratuzilmasining o‘zini xavfsizlik talablariga moslashtirishga asoslangan profilaktik-muhandislik modeli shakllana boshladi. Bu esa transport xavfsizligini ta’minlash tizimida inson omiliga bog‘liq bo‘lgan tasodifiy qarorlarni kamaytirib, xavfsizlikni tizimli ravishda boshqarish imkoniyatlarini kengaytirdi.

ASOSIY QISM: 2018-yildan boshlab yo‘l harakatini nazorat qilish tizimiga intellektual fotoradarlar va avtomatlashtirilgan kuzatuv vositalarining faol joriy qilinishi ushbu jarayonning muhim bosqichini tashkil etdi. Mazkur texnologiyalar o‘rnatilgan chorrahalar va yo‘l uchastkalarida tezlik rejimini buzish bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari sonining avvalgi yilga nisbatan 34,2 foizga kamaygani, og‘ir oqibatlar bilan yakunlangan o‘lim holatlarining esa 21,8 foizga qisqargani qayd etilgan [1]. Ushbu natijalar texnik nazorat vositalarining nafaqat huquqbuzarlikni qayd etish, balki haydovchilarning harakat xulq-atvoriga preventiv ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega ekanligini ham ko‘rsatadi.

Intellektual fotoradarlarning asosiy afzalliklaridan biri nazorat jarayonining avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirilishidir. Transport vositasining tezligi, yo‘l harakati qoidalariga rioya qilinishi va huquqbuzarlik holatlari inson aralashuvisiz elektron vositalar orqali qayd etilishi nazoratning xolisligini kuchaytirdi. Natijada harakat ishtirokchilarida huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda javobgarlikning

muqarrarligi to‘g‘risidagi tushuncha shakllana boshladi. Bu holat, o‘z navbatida, yo‘l harakati madaniyatining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Raqamli nazorat vositalarining joriy etilishi yo‘l-transport hodisalarining kamayishi bilan bir qatorda, tizimda ilgari mavjud bo‘lgan ayrim subyektiv va korrupsion omillarning cheklanishiga ham olib keldi. An’anaviy nazorat amaliyotida inspektor tomonidan transport vositasini to‘xtatish, huquqbuzarlikni baholash yoki ma’muriy chora qo‘llash jarayonida subyektiv qarorlar uchun muayyan imkoniyat mavjud edi. Jarayonlarning avtomatlashtirilishi esa bunday holatlarni sezilarli darajada qisqartirdi. Manbalarda raqamli nazorat tizimlarining kengayishi natijasida nazoratchi organ xodimlarining korrupsiyaga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ayrim vakolatlari 65 foizgacha qisqargani ko‘rsatiladi [2].

Shu jihatdan qaralganda, raqamlashtirish faqatgina texnik yangilanish sifatida emas, balki transport boshqaruvi tizimining institutsional transformatsiyasi sifatida ham namoyon bo‘ldi. Ya’ni, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda inson ishtirokiga haddan tashqari bog‘liq bo‘lgan boshqaruv usullaridan ma’lumotlar, algoritmlar va avtomatik nazorat vositalariga asoslangan mexanizmlarga o‘tish boshlandi.

Mazkur jarayon an’anaviy post-patrul tizimining rolini ham qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Statsionar postlar, yo‘llarda transport vositalarini subyektiv mezonlar asosida to‘xtatish va hodisaga nisbatan keyingi choralarni ko‘rishga asoslangan nazorat shakli asta-sekin elektron-raqamli kuzatuv infratuzilmasi bilan almashtirila boshladi. Bu holat yo‘l harakati xavfsizligi organlari faoliyatining mazmunini tubdan o‘zgartirib, ularni faqat huquqbuzarlikka javob beruvchi tuzilmalardan xavfni oldindan aniqlash va profilaktika qilishga yo‘naltirilgan boshqaruv institutlariga aylantirish uchun zamin yaratdi.

Ayniqsa, katta hajmdagi raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi transport xavfsizligi sohasida yangi tahliliy yondashuvlarni shakllantirdi. Videokuzatuv vositalari, fotoradarlar, avtomatlashtirilgan transport monitoringi va elektron ma’lumotlar bazalarida yig‘ilayotgan axborotlarni umumlashtirish natijasida yo‘l harakati jarayonlarini Big Data texnologiyalari asosida o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bunday ma’lumotlar yordamida transport oqimining zichligi, tezlik rejimining buzilish holatlari, avariyalar ko‘p sodir bo‘ladigan vaqt oralig‘i va hududiy nuqtalarni tizimli tahlil qilish mumkin bo‘ldi.

Shu bilan birga, xalqaro transport xavfsizligi amaliyotida keng qo‘llaniladigan “Black Spots”, ya’ni avariyaviy xavfi yuqori bo‘lgan yo‘l uchastkalarini aniqlash va monitoring qilish tamoyillari uchun ham zarur axborot bazasi shakllandi. Muammoli hududlarni faqat sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari statistikasi asosida emas, balki transport oqimi, tezlik, yo‘l geometriyasi,

piyodalar harakati va boshqa ko‘rsatkichlarni kompleks tahlil qilish orqali oldindan aniqlash imkoniyati transport siyosatining yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishiga xizmat qildi.

Bu jarayonda “Xavfsiz shahar” loyihasining yo‘l harakati tizimiga integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur loyiha doirasida videokuzatuv, davlat raqam belgilarini avtomatik aniqlash, harakat tezligini qayd etish va transport oqimlarini markazlashgan tarzda nazorat qilish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Natijada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash alohida nazorat punktlarining faoliyatiga emas, balki yagona elektron axborot maydoniga tayanadigan tizim sifatida rivojlana boshladi.

2018-yilda “Xavfsiz shahar” tizimi va intellektual fotoradarlarning amaliyotga faol tatbiq qilinishi O‘zbekistonda yo‘l-transport xavfsizligi siyosatining raqamli transformatsiyasida muhim burilish davri sifatida baholanishi mumkin. Aynan shu davrda an’anaviy post-patrul tizimidan elektron monitoring va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlariga o‘tishning texnologik, tashkiliy va huquqiy asoslari shakllandi.

Mazkur islohotlar keyingi yillarda transport xavfsizligini boshqarishning yanada mukammal shakllariga o‘tish uchun ham zarur sharoit yaratdi. Yo‘l-transport hodisalarini shunchaki qayd etish emas, balki ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish, xavfli yo‘l uchastkalarini barvaqt aniqlash, infratuzilmani xavfsizlik nuqtayi nazaridan loyihalash va transport oqimlarini raqamli vositalar orqali boshqarish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlariga aylandi.

Shu tariqa, Yangi O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligi tizimini modernizatsiya qilish jarayonining dastlabki bosqichi infratuzilmaviy, muhandislik va raqamli mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unlashtirilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu modelning asosiy mohiyati yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgandan keyin choralar ko‘rishdan ko‘ra, xavfni oldindan prognozlash va bartaraf etishga ustuvor ahamiyat berilishidadir. Natijada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimining zamonaviy, ma’lumotlarga asoslangan va inson hayotini eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etuvchi yangi boshqaruv paradigmasiga o‘tishi uchun muhim asos yaratildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: 2021-yilga kelib O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalasi faqat huquqbuzarliklarni aniqlash yoki yo‘l-transport hodisalari oqibatlarini bartaraf etish bilan cheklanmaydigan, balki transport infratuzilmasining o‘zini xavfsizlik mezonlari asosida qayta tashkil etishni talab qiladigan kompleks davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Hukumat tomonidan qabul qilingan strategik dasturlar doirasida yo‘l-transport hodisalari tez-tez sodir bo‘ladigan hududlarni tizimli aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va muhandislik vositalari yordamida xavfni kamaytirish ishlari kengaytirildi.

Mazkur yo‘nalishda respublika miqyosida 2021-yil davomida 1 200 dan ortiq yuqori xavfli yo‘l uchastkalari, ya’ni xalqaro amaliyotda “Black Spots” deb yuritiladigan avariyaviy xavf o‘choqlari aniqlangani muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu nuqtalarni faqat statistik qayd etish bilan cheklanib qolmasdan, ulardagi transport oqimi, piyodalar harakati, ko‘rinish darajasi, chorrahalarning geometriyasi va tezlik rejimi kabi omillarni qayta ko‘rib chiqishga e’tibor qaratildi. Natijada harakatni tartibga solish va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida 850 ta zamonaviy svetofor obyektlari o‘rnatildi. Bundan tashqari, ayniqsa tungi va kechki vaqtda piyodalarni ko‘rish imkoniyatini yaxshilash maqsadida 3 400 ta piyodalar o‘tish joyi yo‘naltirilgan sun’iy yoritish tizimlari bilan jihozlandi [3].

Mazkur chora-tadbirlar yo‘l xavfsizligida muhandislik yondashuvining amaliy ahamiyatini oshirdi. Chunki yo‘l-transport hodisalarining katta qismi faqat haydovchining xatosi bilan emas, balki noto‘g‘ri tashkil etilgan chorraha, yetarli bo‘lmagan yoritish, piyodalar uchun xavfsiz hududlarning mavjud emasligi yoki tezlikni tabiiy ravishda pasaytiruvchi infratuzilma vositalarining yetishmasligi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, transport xavfsizligi masalasi haydovchini jazolashdan ko‘ra yo‘l muhitini xavfsiz loyihalashtirishga yo‘naltirila boshladi.

Biroq, 2021-yil yakunlari yo‘l harakati xavfsizligi sohasida hali ham jiddiy tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Respublika avtomobil yo‘llarida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari oqibatida 2 426 kishining halok bo‘lgani mamlakat miqyosida transport xavfsizligini ta’minlash borasidagi mavjud mexanizmlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligini yaqqol namoyon etdi. Bunday ko‘rsatkich nafaqat transport sohasidagi statistik muammo, balki demografik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi jiddiy omil sifatida baholanishi lozim edi.

Yo‘l-transport hodisalari tufayli yuz beradigan o‘lim holatlari oilalarning ijtimoiy barqarorligiga, mehnat resurslarining yo‘qotilishiga, sog‘liqni saqlash tizimi xarajatlarining ortishiga va umumiy iqtisodiy zarar hajmining ko‘payishiga olib keladi. Shu sababli 2021-yildagi holat yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimida parchalanib ketgan va hodisa sodir bo‘lganidan keyin javob berishga asoslangan yondashuvdan voz kechish zarurligini kun tartibiga olib chiqdi. Endilikda asosiy vazifa xavfni sodir bo‘lishidan oldin aniqlash, uning sabablarini bartaraf etish va butun transport infratuzilmasini inson xavfsizligi mezonlari asosida qayta tashkil etishdan iborat bo‘la boshladi.

Mazkur ehtiyojning huquqiy va institutsional ifodasi sifatida 2022-yil 4-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin

kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [4]. Ushbu hujjat yo‘l harakati xavfsizligiga oid davlat siyosatining yangi bosqichini boshlab berdi. Qarorning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda transport vositasining harakat qulayligi emas, balki inson hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish ustuvor maqsad sifatida ilgari surildi.

Mazkur hujjat asosida shaharlarda transport tezligini tartibga solishga bo‘lgan yondashuv ham qayta ko‘rib chiqildi. Shahar ichidagi ayrim yo‘llarda maksimal tezlikni 70 km/soatdan 60 km/soatgacha kamaytirish uchun zarur huquqiy asos yaratildi. Tezlik masalasi yo‘l harakati xavfsizligining eng muhim omillaridan biri sanaladi. Transport vositasining tezligi ortishi bilan to‘qnashuv paytidagi zarba kuchi ham sezilarli ravishda oshadi. Shu bois, hatto tezlikdagi nisbatan kichik pasayish ham piyoda yoki boshqa zaif harakat ishtirokchisiga yetadigan jarohat og‘irligini kamaytirishga xizmat qiladi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, tezlikni cheklash faqat yo‘l belgisi o‘rnatish bilan cheklanmasligi kerak. Zamonaviy transport siyosatida tezlikni pasaytirish yo‘lning konstruktiv yechimlari, toraytirilgan harakat bo‘laklari, xavfsizlik orolchalari, ko‘tarilgan piyodalar o‘tish joylari va boshqa “traffic calming” elementlari orqali ham ta’minlanadi. Shunday yondashuv haydovchini faqat ma’muriy jazodan qo‘rqitish emas, balki yo‘lning o‘zi orqali xavfsiz tezlikni tanlashga undash imkonini beradi.

PQ-190-son qarori ijrosi doirasida milliy shaharsozlik va yo‘l loyihalash amaliyotida piyodalar xavfsizligiga alohida urg‘u berila boshlandi. Piyodalarni transport oqimidan muhandislik jihatdan ajratish, xavfsiz o‘tish hududlarini yaratish, chorrahalarda to‘qnashuv xavfini kamaytirish va piyodaga zarba yetishi ehtimolini pasaytirishga qaratilgan yangi yechimlar joriy qilindi. Xususan, “Xavfsiz yo‘lak” va piyodalarni transport vositalaridan jismonan himoya qiluvchi xavfsizlik orolchalari — “refuge islands” tushunchalari amaliyotga kiritildi.

Bunday orolchalar piyodaga keng ko‘chani bir martada kesib o‘tish zaruriyatini kamaytiradi va unga transport oqimlari oralig‘ida xavfsiz to‘xtash imkonini beradi. Bu ayniqsa bolalar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda harakatlanish tezligi past bo‘lgan boshqa fuqarolar uchun muhimdir. Mazkur prinsiplar asosida bir yil davomida 1 100 dan ortiq yirik chorraha va transport tugunlarining xavfsizlik talablari nuqtayi nazaridan qayta loyihalashtirilgani yo‘l infratuzilmasida inson markazidagi yondashuv shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur islohotlar natijasida O‘zbekiston yo‘l harakati xavfsizligi siyosatida xalqaro miqyosda tan olingan “Vision Zero” konsepsiyasining ayrim tamoyillariga yaqinlashish jarayoni boshlandi [5]. Ushbu konsepsiyaning asosiy falsafasi yo‘l-transport hodisalari natijasidagi o‘lim holatlarini muqarrar holat sifatida qabul qilmaslikka asoslanadi. Ya’ni inson xato qilishi mumkin, biroq transport tizimi shu

tarzda tashkil etilishi kerakki, ushbu xato inson hayotining yo‘qotilishi bilan yakunlanmasin.

“Vision Zero” yondashuvi yo‘l harakati xavfsizligi uchun javobgarlikni faqat haydovchi yoki piyodaga yuklashdan voz kechadi. Bunda yo‘lni loyihalashtiruvchi muhandislar, shaharsozlar, transport siyosatini belgilovchi davlat organlari, nazorat qiluvchi tuzilmalar va transport infratuzilmasi operatorlari ham xavfsizlik uchun mas’ul subyektlar sifatida qaraladi. Shu jihatdan mazkur konsepsiya O‘zbekistonda shakllanayotgan yangi transport siyosatining metodologik asoslaridan biri bo‘lishi mumkin.

2023-yilga kelib islohotlarning institutsional mazmuni yanada kengaydi. Yo‘l harakati xavfsizligini boshqarish tizimi faqat qoidabuzarlikni qayd etish va ma’muriy jazo qo‘llashga asoslangan modeldan transport mobilligini kompleks boshqarishga yo‘naltirilgan tizimga o‘ta boshladi. Bunda yo‘l harakati xavfsizligi transport siyosatining alohida bo‘lagi sifatida emas, balki shahar mobilligi, jamoat transporti, piyodalar harakati, veloinfratuzilma va raqamli boshqaruv bilan chambarchas bog‘liq jarayon sifatida qarala boshladi.

Transport oqimlarini makrodarajada oqilona taqsimlash ham mazkur siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Avtomobillar sonining ortib borishi sharoitida faqat yangi yo‘llar qurish transport muammolarini to‘liq hal eta olmaydi. Aksincha, jamoat transportining jozibadorligini oshirish, piyoda va velosiped harakati uchun qulay sharoit yaratish, tirbandliklarni raqamli boshqarish va transport talabini turli yo‘nalishlar o‘rtasida qayta taqsimlash zarur bo‘ladi.

Shu asosda multimodal transport modeli tushunchasi ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Multimodal yondashuv fuqaroga birgina shaxsiy avtomobildan foydalanishga bog‘lanib qolmasdan, avtobus, metro, piyoda yurish, velosiped va boshqa transport turlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu nafaqat tirbandlikni kamaytiradi, balki yo‘l-transport hodisalari xavfini pasaytirish, ekologik vaziyatni yaxshilash va shahar makonidan samarali foydalanishga yordam beradi.

Raqamli transformatsiya jarayoni ushbu o‘zgarishlarning texnologik asosini tashkil etmoqda. Intellektual transport tizimlari — ITS orqali transport oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish, svetoforlarning ishlashini avtomatik moslashtirish, tirbandliklarni prognozlash, xavfli uchastkalarni aniqlash va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari esa yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan joylarni oldindan aniqlash uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Biroq ushbu jarayonni “to‘liq integratsiyalashuv” sifatida emas, balki bosqichma-bosqich shakllanayotgan transformatsiya sifatida baholash ilmiy

jihatdan aniqroq bo‘ladi. Chunki “Vision Zero” va ITS tamoyillarining amaliyotga joriy etilishi faqat texnik vositalarni o‘rnatish bilan yakunlanmaydi. Ular shaharsozlik standartlari, yo‘l loyihalash me’yorlari, transport siyosati, ma’lumotlar almashinuvi, qonunchilik va jamoatchilikning transport madaniyati bilan uyg‘unlashishi lozim.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, 2021–2023-yillar Yangi O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimining yangi bosqichga o‘tish davri sifatida baholanishi mumkin. Ushbu davrda xavfli yo‘l uchastkalarini aniqlash, zamonaviy svetofor va yoritish vositalarini keng joriy qilish, shahar tezlik rejimini qayta ko‘rib chiqish, piyodalarni muhandislik usullari bilan himoya qilish va transport oqimini raqamli boshqarish kabi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi. Eng muhimi, davlat transport siyosatida avtomobil harakatini maksimal darajada tezlashtirishdan ko‘ra inson hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligini ta’minlashga asoslangan yondashuvning shakllanishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Soliyev O.M. Raqamli xavfsizlik tizimlarining infratuzilmaviy samaradorligi // Transport xabarnomasi. – Toshkent, 2018. – № 3. – B. 12.

2. Karimov S.A. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda raqamli texnologiyalar va huquqiy tartibga solish muammolari // Huquq va burch. – Toshkent, 2019. – № 2. – B. 45.

3. Alimov S.A. Yo‘l harakati xavfsizligi auditi: xalqaro tajriba va milliy amaliyot. – Toshkent: Transport, 2021. – B. 167.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qarori. – Toshkent, 2022.

5. Vohidov M.S. Zamonaviy urbanizatsiya sharoitida “Vision Zero” konsepsiyasini O‘zbekiston shaharlarida adaptatsiya qilish muammolari // Transport muhandisligi va shaharsozlik jurnali. – Toshkent, 2023. – № 4. – B. 12–18.